



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№4/1

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ

2024



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 4/1-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис ин ститути

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда 0561-рақам билан рўйхатга олинган.
ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

Таҳририят ижодий жамоаси:
Бош муҳаррир:
и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир ўринбосари:
и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:
и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:
и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров
PhD, доцент И.М.Пардаева
А.Х.Мингбоев

Техник муҳаррир:
и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:
PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:
PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба чоп этилади.

Ўзбекистон ҳудудида тарқатилади.

Таҳририят манзили:
140100, Самарқанд шаҳар, Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Таҳририят кенгаши раиси:
М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти ректори, и.ф.д., профессор

Таҳририят кенгаши раиси ўринбосари:
Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Таҳрир кенгаши аъзолари:
Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д., профессор
М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.
Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.
М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.
Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.
О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.
М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.
Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.
И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.
К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.
Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.
Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.
Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.
Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.
Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари
С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.
Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.
А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.
О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.
М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.
З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.
Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод фанлари доктори
Л.Н.Халикова– СамИСИ профессори, DSc
Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc
А.М.Каримова– СамИСИ профессори в.б., DSc

МУНДАРИЖА:

НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев, Обид Мамаюнусович Пардаев XXI асрда шаклланган янги иқтисодиётлар таркибида креатив иқтисодиётнинг принциплари турларининг назарий масалалари	5
Lola Nazarovna Khalikova, Shamsiddin Kiyamiddinovich Yuldashev Theoretical views of social protection	10
Ибодулла Ҳасанович Ибрагимов, Лариса Алижоновна Мусабаева Касбий компетенцияларнинг синергетик самарадорлиги	13
ИННОВАЦИЯ ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев, Бехруз Шарофиддин ўғли Усмонов Инновацион ёндашувлар орқали инсон ерурсларини ривожлантириш ва самарадорлигини ошириш йўллари	17
Мехрангиз Олимовна Мамаюнусова Инновацион иқтисодиёт шароитида камбағалликни қисқартиришнинг “4ГС модели”нинг моҳияти ва қўлланилиши	22
САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ	
Xayrulla Qilichovich Qarshiboyev Korrelyatsiya va regressiya tahlilini korxonaning iqtisodiy rivojlanishini bashorat qilish usuli	27
Shahnoza Abdirashitovna Po‘latova Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida yashil sertifikatlash va ekologik markirovkalash amaliyotini joriy etishning asosiy yo‘nalishlari	32
Gulzira Ikromali qizi Karimova To‘qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini “yashillashtirish” orqali oshirish	37
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ВА СЕРВИС	
Мурод Мухаммедович Мухаммедов, Зарина Муродовна Мухаммедова, Аллаёр Баротович Шакаров Хизматлар соҳасини давлат томонидан тартибга солиш ва қўллаб-қувватлаш – давлат макроиқтисодий сиёсатининг муҳим йўналиши сифатида	43
Marifat Umarovna Xudoyberdiyeva Savdo xizmatlarining ahamiyati va rivojlanishi	49
Nodirjon Begaliyevich Ravshanov Ta‘lim xizmatlari bozorida oliy ta‘lim muassasalari raqobatbardoshligini ta‘minlash	52
Dildora Haydarjon qizi Shaymardonova Qishloq joylarda avtoservis xizmatlari ko‘rsatuvchi subyektlar samaradorligini oshirish	57
Бехзод Абдумаджитович Суюнов Турар-жой кўчмас мулк бозорида баҳолаш хизматлари самарадорлигини ошириш	59
Akram Abduraxmonovich Azizqulov, Akbar Norboyevich Alimov Husayn Voiz Koshifiy ilmiy merosida ovqatlanish etiketining talqini	66
Faxriddin Azimovich Djalilov Xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion faoliyatni amalga oshirish omillari	69

Zubayda Ubaydullayevna Shodmanova Xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxonalarning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash choralarini o‘rganish va takomillashtirish	73
Дурбек Мирзаахмадов Хизмат кўрсатиш корхоналари рақобат устунлигини таъминлаш механизмлари	78
Bobir Xo‘jaqul o‘g‘li Qilichov Xizmat ko‘rsatish sohasi bo‘lgan sug‘urta va turizm korxonalari samaradorligining qiyosiy tahlili	82
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Дилбар Хасановна Асланова, Нигина Тажиевна Юсупова Оценка перспектив создания кластера в туристском секторе экономики Республики Узбекистан	87
Райхона Садриддиновна Амриддинова, Сардор Олимович Рахимов Сотрудничество между туроператорами и гостиницами как залог успешной продажи гостиничных номеров в Узбекистане	94
Farrux Oltinboyevich Husanov Turistik oqimlar va transport masalalarini modellashtirish	98
Suxrob Ramazonovich Bobokalonov Buxoro viloyatida joylashgan Afshona qishlog‘ida turizm shaharchasini tashkil etish loyihasini amalga oshirish istiqbollari	102
G‘ayrat Soyibovich Raupov Turizm xizmatlarini diversifikatsiyalash jarayonining konseptual modeli va diversifikatsiya matritsasi	110
Shohista Bobobekovna Toyirova O‘zbekistonda ekologik turizmning yangi turizm yo‘nalishi sifatida rivojlanish tendensiyasi	115
Камилла Бахромовна Суюнова Ҳудудий брендни шакллантириш мақсадида давлат-хусусий шериклик алоқаларини ривожлантириш истиқболлари	119
Latofat Tolibovna Yo‘ldosheva Samarqand viloyati turizm sohasining rivojlanish holati va tendensiyalari	123
Матлуба Абдиманабовна Куймуратова Жаҳонда туризмнинг ҳолати ва ривожланиш истиқболлари	127
Kamol Sharifovich Yuldashev Xalqaro tajriba asosida O‘zbekistonga mustaqil turistlarni jalb qilishda viza siyosatining ta’siri	132
Азиза Пирмаматовна Махмудова Туризм соҳасини инновацион ривожлантириш йўллари	137
Marjon Komilovna Sharifova Ziyorat turizmini strategik rivojlantirish va tahlil qilish yo‘llari	140
КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК	
Умар Худайбердиев Оила муносабатларидаги муаммолар ва уларнинг ечимлари	145
Акрам Одилович Очилов, Жаббор Махмудович Суюнов Критерии оценки деятельности субъектов предпринимательства в регионах	147
Шавкат Собирович Олтаев Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятини ошириш йўллари	152

МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ	
Sanjarbek Komiljon o‘g‘li Boyjigitov Bozor mexanizmlarini takomillashtirishda iste’molchilarning sodiqligidan foydalanish yo‘llari	155
Нилуфар Абдуазизовна Рахимова Замонавий ташкилотларда бошқарув тузилмаларининг аҳамияти ва турлари	158
Ирода Аминжоновна Умурзакова Рекламная деятельность в экономике: проблемы и перспективы	162
МОЛИЯ, ПУЛ МУОМАЛАСИ ВА КРЕДИТ	
Эркин Норматович Ходжаев, Зухур Давронович Ниёзов, Ойбек Эркинович Ходжаев Молиявий ресурсларни кўпайтиришда вексель муомаласидан фойдаланиш	166
БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ	
Азимжон Фаррухович Мустафоев Республика миллий иқтисодиётида нодавлат таълим ташкилотларининг бухгалтерия ҳисоби субъектлари сифатидаги хусусиятлари	171
Azamat Abdiraximovich Eshonqulov Tarkibida sho‘ba korxonasi bor korxonalarda konsolidatsiyalashgan MHXS asosida tuzish uslubiyotini takomillashtirish	177
Mayram Xamidovna Xalimova Aksiyadorlik jamiyatlarining auditorlik tekshiruvida yuzaga keladigan muammolari va istiqbollari	182
Заррух Умарович Мухаммадиев Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида капитал инвестициялар ҳисобини такомиллаштириш: халқаро ва миллий жиҳатлар	188
Dilfuza Samiddinovna Tashnazarova Process costing tizimini takomillashtirish masalalari	193
Iroda Boykobilova Issues of bringing accounting and reporting of economic entities into line with national and international standards.	196
Тоҳир Толмас ўғли Сатторов Корхоналарда пайпоқ ишлаб чиқариш жараёнлари ҳисобининг хусусиятлари	201
ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА	
Дилобар Караматовна Гафурова Олий таълим муассасалари рақобатбардошлиги билан боғлиқ кўрсаткичлар таҳлили	205
Mohinur Ravshanbekovna Maxmudova O‘zbekistonning barqaror rivojlanishida bilimlar iqtisodiyotining ahamiyati	210
Тимур Ибодуллаевич Ибрагимов Таълим хизматлари бозорини таҳлил қилишда корреляция таҳлилини қўллаш амалиёти	214
ИБРАТЛИ БИТИКЛАР	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Ҳаёт ҳақида мутафаккирлар ҳикматлари	217

НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.
Обид Мамаюнусович Пардаев – ЎзР Иқтисодиёт ва молия вазирлиги департаментининг биринчи ўринбосари, PhD

XXI АСРДА ШАКЛЛАНГАН ЯНГИ ИҚТИСОДИЁТЛАР ТАРКИБИДА КРЕАТИВ ИҚТИСОДИЁТНИНГ ПРИНЦИПЛАРИ ТУРЛАРИНИНГ НАЗАРИЙ МАСАЛАЛАРИ

Аннотация: мақолада креатив иқтисодиёт, унинг индустрияси турлари изоҳининг назарий масалалари қараб чиқилган. Бунда мавзунинг долзарблиги асосланиши жараёнида унинг такомиллашган таърифи ҳам ишлаб чиқилган. Шунингдек, креатив иқтисодиётнинг бешта принципига тўлиқ изоҳ берилган. Мақолада креатив индустриясининг асосий турлари танлаб олинган ва уларнинг ҳам шарҳларига атрофлича тўхталган.
Калит сўзлар: креатив иқтисодиёт, креатив маҳсулот, қонунийлик, очиқлик ва шаффофлик, ижод эркинлиги, тенглик; ҳуқуқий муҳофаза, адабий ижод, амалий санъат, ҳунармандчилик, архитектура, лойиҳалаштириш ва аудиовизуал санъат, ижрочилик санъати, мода ва дизайн санъати, музейлар, бадиий галереялар, ахборот-кутубхона фаолияти, тасвирий санъат.

Кириш. Жаҳон иқтисодиётида ҳам туб ўзгаришлар содир бўлмоқда. Хусусан, дунё миқёсида жадал ривожланаётган янги соҳалардан бири сифатида креатив иқтисодиёт соҳаси ҳисобланади. Бу борада журналистнинг саволларига Эркин Гадоевнинг жавобида қуйидагилар таъкидланган: “БМТ резолюциясига кўра, креатив иқтисодиётни ривожлантиришнинг муҳим йўналишлари, жумладан, креатив иқтисодиётни мустақил тармоқ сифатида қўллаб-қувватлаш, унинг алоҳида статистик ҳисоботини юритиш ва иқтисодиётдаги улушини ошириш назарда тутилган. БМТнинг таҳлилий маълумотларига кўра, маданий ва креатив соҳадаги маҳсулотларнинг дунё ялпи ички маҳсулотидаги ўрни 3,1 фоизни ташкил этади, ҳамда жаҳонда иш билан банд аҳолининг 6,2 фоизи ушбу соҳага тўғри келиб, унинг асосий қатламини ёшлар ташкил этади”[1]. Кўриниб турибдики, мазкур масала жаҳон иқтисодиётида ҳам шаклланиб, ўзининг муносиб ўрнини топмоқда.

Бугунги кунда креатив иқтисодиёт мамлакатимиз иқтисодиёти учун ҳам муҳим аҳамиятга эга. Бундан келиб чиқиб, Ўзбекистон Республикасининг 2024 йил 3 октябрда имзоланган “Креатив иқтисодиёт тўғрисида”ги ЎРҚ-970-сонли Қонуни[2] қабул қилинди. Ушбу қонун Қонунчилик палатаси томонидан 2024 йил 30 сентябрда қабул қилинган. Сенат томонидан 2024 йил 30 сентябрда маъқулланган. Ушбу қонун билан илк бор креатив иқтисодиёт тушунчаси ҳаётимизга кириб келди.

Бунга дунёда содир бўлаётган турли беқарорлик, айрим ҳудудлардаги уруш-жанжаллар, булар оқибатида юзага келган иқтисодий инқирозлар, глобал экологик ўзгаришлар, дунё миқёсида илм-фаннинг тез ривожланиши оқибатида бугунги кунда ҳаётимизга кириб келаётган инновацион жараёнлар дунё миқёсида инсоният ҳаётини тубдан ўзгартириб юбормоқда. Натижада, бир томондан айрим мутахассисликларга эҳтиёж сусайган ҳолда, айрим йўналишлар бўйича янги-янги мутахассисларга эҳтиёж ошиб бормоқда. Оқибатда янги турдаги иқтисодиётга, яъни креатив иқтисодиётга ҳам эҳтиёж ошиб бормоқда. Бу иқтисодиётнинг бир йўналиши “Креатив индустрия” соҳасига ҳам катта эътибор берилиши лозимлиги объектив заруриятга айланди. Чунки, 2024 йилнинг 3 октябрь куни мамлакатимизда “Креатив иқтисодиёт тўғрисида”ги қабул қилинган қонунда ушбу масала алоҳида қайд этилган. Ушбу ҳолат мавзунинг ўта долзарб масаланинг ечимига бағишланганлигидан далолат бериб турибди.

[1] Креатив индустрия: креатив маҳсулот ва хизматлар бозори ривожланади. ЎзА мухбири Норгул Абдураимованинг Эркин Гадоев билан суҳбати. https://uza.uz/category/business.
[2] Ўзбекистон Республикасининг 2024 йил 3 октябрда имзоланган “Креатив иқтисодиёт тўғрисида”ги ЎРҚ-970-сонли Қонуни. Қонунчилик палатаси томонидан 2024 йил 30 сентябрда қабул қилинган. Сенат томонидан 2024 йил 30 сентябрда маъқулланган. 3 октябрь куни имзоланган.

Тадқиқот методологияси. Мақоладаги креатив иқтисодиёт, унинг индустрияси турлари изоҳининг назарий масалаларини тадқиқ қилишда макон ва замон, индукция ва дедукция, шакл ва мазмун, мантиқий ёндашув каби усуллардан фойдаланилган.

Таҳлил ва натижалар. Дунё иқтисодиёти кескин ўзгаришлар даврида яшамоқда. Айниқса XXI асрга келиб, асрлар давомида амал қилиб келаётган иқтисодиётнинг турлари бутунлай янги мазмун ва шаклга эга бўлмоқда. Олдин иқтисодиётимиз битта шакл ва мазмунга эга бўлиб, аста-секинлик билан такомиллашиб келган. Эндиликда эса, унинг нафақат мазмуни, балки шакли ҳам ўзгариб бормоқда. Ушбу асрда кириб келган ва шаклланган иқтисодиётнинг турларига назар соладиган бўлсак, буларнинг турлари анча кўпайиб қолди. Буларнинг турлари қуйидаги расмда келтирилган (1-расм).



1-расм. Дунё иқтисодиётига XXI асрда кириб келган ва шаклланган иқтисодиётнинг турлари

Расмдан кўриниб турибдики, иқтисодиётнинг мазмуни ҳам, шакли ҳам оддий моддийликдан номоддий шаклга эга бўлиб бормоқда. Олдин қўл-оёқ, кейинроқ узоқ йиллар техника ва технологиялардан фойдаланган бўлса, бугунги кунда иқтисодиёт номоддий характерга эга бўлиб бормоқда.

Эндиликда, бундай иқтисодиётнинг ҳаётимизга кириб келиши, таъкидлангандек, иқтисодиётнинг маҳсулоти фақат моддий неъматлардангина иборат бўлиб қолмасдан, номоддий неъматларни ҳам қамраб олади ва ушбу неъматларнинг яратилиши эвазига мамлакат иқтисодиёти кескин ривожланади. “Халқ сўзи” газетасида Нурбек Ризаевнинг берган маълумотларига кўра “2024 якунида сунъий интелект бозори ҳажми 298 млрд. долларни ташкил этиши кутилмоқда, ҳозирда эса 207 млрд. долларга тенг. Ушбу рақамлар 2030 йилга бориб тахминан 1,84 трлн. долларга етиши мумкин”[1]. Ушбу соҳа иқтисодий тизимда жуда сердаромад бўлиб ҳисобланади. Бизнинг ҳисоб-китоблар бўйича унинг даромадлилик даражаси 30-35 фоизни ташкил қилади.

Ҳозирги кунда мамлакатимизда ҳам моддий, ҳам номоддий неъматларни яратишга қаратилган иқтисодиёт шаклланди. Бу иқтисодиёт “Креатив иқтисодиёт”дан иборатдир.

[1] Нурбек Ризаев. Ёркин келажак учун “Ақилли” технологиялар. // “Халқ сўзи” газетаси. 2024 йил 31 октябрь. 223-сон. – 1 ва 4 бетлар.

Мазкур иқтисодиёт тури халқаро миқёсда қўлланилиб келинмоқда ва айрим тажрибаларга ҳам эга. Жумладан, “Ғарбий Европа ва АҚШда “креатив шаҳарлар” деб аталадиган концепция бир неча ўн йиллар давомида ривожланиб келмоқда. Бу концепция креатив индустрияни қўллаб-қувватлашга асосланган, чунки ижодкорлар синфининг ижоди шаҳарларга қаратилган”[1]. Бу борада АҚШ, Европа ва жаҳоннинг бир қанча мамлакатларида маълум тажрибалар ҳам тўпланган.

Хусусан, “Индонезияда “Креатив иқтисодиёт тўғрисида”ги қонун қабул қилинган бўлиб, Туризм ва креатив иқтисодиёт вазирлиги ташкил этилган. Умумий қиймати 1 миллиард доллар бўлган 15 та стартап лойиҳа амалга оширилиб, креатив иқтисодиётнинг ялпи ички маҳсулотдаги улуши 7 фоизга етган”[2]. Худди шундай ҳолат Европанинг бошқа давлатларида ҳам рўй бермоқда. Масалан, “Англияда 2035 йилгача инновациялар стратегияси қабул қилинган бўлиб, ҳозирда креатив индустрияларда 2,1 миллион нафар киши фаолият юритиб, креатив иқтисодиётнинг ялпи ички маҳсулотдаги улуши 5,8 фоизни ташкил этмоқда”[3]. Ушбу масала МДҲга қарашли давлатларда ҳам ўз ўрнига эга бўлиб бормоқда. Масалан, “Россияда Креатив иқтисодиётни ривожлантириш маркази ва 20 та креатив иқтисодиёт йўналишлари бўйича кадрларни тайёрлайдиган Универсал университет ташкил этилган. Стратегик ташаббуслар агентлиги томонидан ишлаб чиқилган “Креатив индустрияни ривожлантириш тўғрисида”ги қонун мавжуд”[4]. Ушбу масала мамлакатимизда ҳам ривожланмоқда. Қаранг, “Бугунги кунда мамлакатимизда креатив индустрия соҳасига оид 9,6 минг корхона мавжуд. Уларда 84 минг нафар ходим фаолият кўрсатмоқда (205 та IT-марказ, 100 та дизайн маркази, 60 та анимацион суратлар маркази, 30 та ўйинлар ишлаб чиқиш маркази ва 20 дан ортиқ санъат галереяси бор). Шунингдек, 28 минг нафар ҳунарманд ушбу йўналишда фаолият юритмоқда”[5].

Кўриниб турибдики, мазкур соҳада мамлакатимизда ҳам ягона ҳуқуқий базани яратишни объектив заруриятга айланди. Чунки, креатив иқтисодиёт индустрияси бизда ҳам шаклланган эди. Аммо уларни бундай ном билан аталмас эди. Энди халқаро тажрибалардан келиб чиқиб, ҳар бир нарсани ўз номи билан аташ лозим, деган хулосага келинди. Ушбу заруриятдан келиб чиқиб, креатив соҳаларни аниқ белгилаш зарурияти ҳам олға сурилди. Чунки ушбу соҳа асосан номоддий бўлсада уларнинг ялпи ички маҳсулотдаги улушини ошириш ва ҳисоблаб боришни талаб этиладиган бўлди. Шу муносабат билан мамлакатимизда ҳам, юқорида таъкидланганидек, “Креатив иқтисодиёт тўғрисида”ги қонуни ишлаб чиқилди ва 2024 йил октябрь ойидан амалиётга тадбиқ этилди.

Креатив иқтисодиёт тўғрисидаги қонунда ушбу тушунчанинг мазмуни ёритилган. Унда эътироф этилишича :**“креатив иқтисодиёт** — ижодиёт, интеллектуал қобилият, шунингдек инновацияларга ҳамда технологияларга асосланган инсон салоҳияти натижасида, иқтисодий қимматга эга бўлган товарларни (ишларни, хизматларни) яратишга қаратилган иқтисодиёт тармоғи”[6], деган изоҳ берилган. Ушбу тушунча Креатив иқтисодиётнинг таърифини ишлаб чиқиш учун методологик асос бўлиб ҳисобланади.

Креатив иқтисодиётга бир гуруҳ олимлар қуйидагича таъриф ишлаб чиққан эдик. **“Креатив иқтисодиёт** деганда, мавжуд иқтисодиётни янгича ёндашув, янги ғоялар билан такомиллаштириб, унинг янги-янги йўналишларини барпо этиш мақсадида, янгича фикрлаш асосида, инсон тафаккурида шаклланган ва амалиётда ўз тасдиғини топган янги иқтисодиёт тушунилади”[7]. Буларни умумлаштирган ҳолда мазкур тушунчанинг таърифи назарий жиҳатдан такомиллаштирилди. **Креатив иқтисодиёт деганда, янги ғояларни ишлаб чиқиш салоҳиятига эга бўлган инсонлар томонидан иқтисодий жараёнга**

[1] Ботир Усмонов, Нима учун креатив иқтисодиёт? 07. ноябрь 2024. Телеграмнинг “Халқ сўзи” сайтида.
[2] Креатив индустрия: креатив маҳсулот ва хизматлар бозори ривожланади. ЎзА мухбири Норгул Абдураимованинг Эркин Гадоев билан суҳбати. https://uza.uz/category/business.
[3] Ўша жойда.
[4] Ўша жойда.
[5] Ўша жойда.
[6] Ботир Усмонов, Нима учун креатив иқтисодиёт? 07. ноябрь 2024. Телеграмнинг “Халқ сўзи” сайтида..
[7] Мамаюнус Пардаев, Мурод Муҳаммедов, Обид Пардаев. Иқтисодиётнинг турлари ва таърифлари. // https://telegra.ph/I%D2%9Btisodiyotning-turlari-va-tariflari-07-08-2. 2666. 12.02. 7 август 2024 йил.

ижодий ёндошган ҳолда, моддий ва номоддий товарларни (ишлар, хизматларни) яратадиган иқтисодиёт соҳаси тушунилади. Ушбу тушунча бир қанча йўналишларни қамраб олади. Биринчидан, янги ғояларни ишлаб чиқиш ҳақида кетмоқда. Бунда янгиланишлар асосан технологияларда эмас, балки ғояларда намоён бўлади. Иккинчидан, бундай интеллектуал салоҳиятига эга бўлган инсонларнинг мавжуд бўлишлигини тақозо қилади. Бу дегани жамиятда билимдон аҳоли қатлами аҳолининг асосий қисмини ташкил қилишлиги лозим. Учинчидан, бундай интеллектуал салоҳиятга эга бўлган инсонлар томонидан иқтисодий жараёнга ижодий ёндошган ҳолда, моддий ва номоддий товарларни (ишлар, хизматларни) яратадиган бўлади. Шу тариқа замонавий креатив иқтисодиёт шакллантирилади.

Креатив иқтисодиёт ҳам бошқа иқтисодиётлар сингари бир қанча принципларга эга. Бу “Креатив иқтисодиёт тўғрисида”ги қонунда эътироф этилишича қуйидаги принципларга асосланади (2-расм)



2-расм. Креатив иқтисодиётнинг принциплари

Расмдан кўриниб турибдики, креатив иқтисодиёт ҳам иқтисодиётнинг бошқа турлари каби бир қанча принципларга асосланади. Буларни қуйидагича изоҳлаш мумкин.

Биринчи, принцип **қонунийлик** бўлиб, мазкур соҳадаги муносабатлар Ўзбекистон Республикаси Конституциясига, ушбу “Креатив иқтисодиёт тўғрисида”ги Қонунга ва бошқа қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ амалга оширилиши кўзда тутилган. Жамиятда бирорта жараён ёки ҳодисалар маълум қонунларга асосан амалга оширилсагина, унда тартиб ва интизом бўлади. Интизом йўқ жойда бирорта қонуний муваффақиятга эришиш қийин.

Иккинчи принцип**, очиқлик ва шаффофлик** принципига амал қилиш билан ўзига хосдир. Креатив иқтисодиёт соҳасидаги ахборот албатта очиқ ва шаффоф бўлиши кераклиги ҳам ҳаётий заруриятдир Шуни инобатга олиш жоизки, бундан давлат сирларини ташкил этувчи ҳамда ошкор этилиши қонун билан чекланган ахборот мустасно. Ушбу қонуннинг 6-моддасида “Давлат органлари креатив индустрия субъектлари учун давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари фаолиятининг очиқлиги, шунингдек ахборотдан фойдаланиш кафолатлари ва эркинлиги тўғрисидаги қонунчиликда назарда тутилган усулларда ахборот олиш ва ундан эркин фойдаланиш шароитларини яратиши шарт”лиги белгиланган.

Учинчи принцип, **ижод эркинлиги** ҳисобланади. Мазкур қонуннинг 7-моддасида креатив иқтисодиёт илмий, техникавий ва бадиий ижод эркинлигига асосланишига ҳам изоҳ берилган. Бунда эътироф этилишича, “Барча шахслар креатив индустрия соҳаларини танлашда ва уларнинг бир ёки бир нечтасида фаолият олиб боришда, шунингдек креатив маҳсулот яратишда эркиндир”. Маълумки, барча соҳаларда ижод эркинлиги таъминланган. Бунда ҳам ижод эркинлиги бошқа шахсларнинг шаъни, қадр-қимматига ва ишчанлик обрўсига зарар етказишга, қонунга хилоф ҳатти-ҳаракатларни амалга оширишга ундашга

ёки тарғиб қилишга қаратилмаслиги, ҳамда ижтимоий қоидаларига зид бўлмаслиги керак.

Тўртинчи принцип, **тенглик** бўлиб ҳисобланади. Креатив иқтисодиёт субъектлари ўз фаолиятини амалга оширишда, шу жумладан давлат томонидан тақдим этиладиган қўллаб-қувватлаш чораларидан ва инфратузилмадан фойдаланишда тенглик тўлиқ таъминланган бўлиши шарт

Бешинчи принцип ҳам бошқа соҳалар сингари, **креатив маҳсулотнинг ҳуқуқий муҳофаза қилинишни** таъминлашдан иборатдир. Креатив маҳсулот интеллектуал ва ижодий фаолият натижаси бўлиб, бу ҳам қонунчиликка мувофиқ муҳофаза қилинади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2024 йил 3 октябрда имзоланган “Креатив иқтисодиёт тўғрисида”ги ЎРҚ-970-сонли Қонуни. Қонунчилик палатаси томонидан 2024 йил 30 сентябрда қабул қилинган. Сенат томонидан 2024 йил 30 сентябрда маъқулланган. 3 октябрь куни имзоланган.
2. Мамаюнус Пардаев, Мурод Муҳаммедов, Обид Пардаев. Иқтисодиётнинг турлари ва таърифлари. // https://telegra.ph/I%D2%9Btisodiyotning-turlari-va-tariflari-07-08-2. 2666. 12.02. 7 август 2024 йил.
3. Ботир Усмонов, Нима учун креатив иқтисодиёт? 07. ноябрь 2024. Телеграмнинг “Халқ сўзи” сайтида.
4. Мирҳабиб Сайфуллаев. Креатив иқтисодиёт – барқарор ривожланиш гарови. //https://uza.uz/uz/posts/kreativ-iqtisodiyot-barqaror-rivozhlanish-arovi_644945.
5. Креатив индустрия: креатив маҳсулот ва хизматлар бозори ривожланади. ЎзА мухбири Норгул Абдураимованинг Эркин Гадоев билан суҳбати. https://uza.uz/category/business.
6. Мадина Дурман. Ўзбекистон учун ижодий иқтисодиёт жуда муҳимлиги ва бунинг сабаблари айтилди. // https://daryo.uz/
7. Мамаюнус Пардаев. КРЕАТИВ ИҚТИСОДИЁТНИНГ ТАЪРИФИ ВА ПРИНЦИПЛАРИ. //https://telegra.ph/KREATIV-I%D2%9ATISODIYOT NING-TARIFI-VA-PRINCIPLARI-11-10. SamTVR I MTRK/. 2024.11.10 540. 12:48. – 0,2 б.т.
8.. Мамаюнус Пардаев. КРЕАТИВ Индустрия соҳалари ва уларнинг мазмуни. // https://telegra.ph/KREATIV-INDUSTRIYA-SO%D2%B2ALARI-VA-ULAR NING-MAZMUNI-11-11 SamTVR I MTRK/. 2024.11.11 552. 8:42. – 0,2 б.т.
9. Тухлиев Искандар Суюнович. Ўзбекистонда креатив туризмни ривожлантириш хусусиятлари. https://telegra.ph/%D0%8EZBEKISTONDA-KREATIV-TURIZMNI-RIVOZHLANTIRISH-HUSUSIYATLARI-11-11. SamTVR I MTRK/. 2024.11.11 161. 20:37. – 0,2 б.т.
10. Ризаев Нурбек. Ёрқин келажак учун “Ақилли” технологиялар. // “Халқ сўзи” газетаси. 224 йил 31 октябрь. 223 сон. – 1 ва 4 бетлар.

М.Пардаев, О.Пардаев

Теоретические вопросы типов и принципов креативной экономики в рамках новых экономик, сформированных в XXI веке

Аннотация: в статье рассматриваются теоретические вопросы креативной экономики и виды ее индустрии. При этом в процессе обоснования актуальности темы было разработано ее уточненное определение. Также подробно объяснены пять принципов креативной экономики. В статье выделены основные виды креативной индустрии и подробно рассмотрены их обзоры.

Ключевые слова: креативная экономика, креативный продукт, законность, открытость и прозрачность, творческая свобода, равенство, правовая защита, литературное творчество, прикладное искусство, ремесла, архитектура, дизайн и аудиовизуальное искусство, исполнительское искусство, мода и дизайнерское искусство, музеи, художественные галереи, информационно-библиотечная деятельность, изобразительное искусство.

M.Pardaev, O.Pardaev

Theoretical issues of types and principles of creative economy within the framework of new economies formed in the 21st century

Abstract: The article examines theoretical issues of the creative economy and the types of its industry. At the same time, in the process of substantiating the relevance of the topic, its clarified definition was developed. The five principles of the creative economy are also explained in detail. The article highlights the main types of creative industry and examines their reviews in detail.

Keywords: creative economy, creative product, legality, openness and transparency, creative freedom, equality, legal protection, literary creativity, applied arts, crafts, architecture, design and audiovisual arts, performing arts, fashion and design arts, museums, art galleries, information and library activities, fine arts.

Lola Nazarovna Khalikova – Samarkand Institute of Economics and service, Doctor of Economic Sciences.
Shamsiddin Kiyamiddinovich Yuldashev – Samarkand State University, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor of the Department of Economics of Industries.

THEORETICAL VIEWS OF SOCIAL PROTECTION

Abstract. The article states that the issues of social protection of the population occupy an important role in the economic policy of the state of Amir Temur. Studying the history of the host state system has shown that a comprehensive system of positive protection was implemented under his direct leadership. The rise of Amir Temur's state was the result of the economic policy, many aspects of which are still relevant today.
Keywords: economic policy, social protection, state system, society, social condition, poverty, preferential service, ability to work.

"The level of culture, generosity and kindness of any society is determined by its attitude towards the disabled, disabled, bereaved and the elderly"
Shavkat MIRZIYOYEV

Relevance of the research topic. Since the first years of independence, Uzbekistan has chosen a unique path of economic reforms. The introduction of a socially oriented market economy system is accelerating. Among the five main principles of transitional processes, a long-term program in the field of strong social protection is being implemented step by step. Consistent and stable growth of people's standard of living means stronger social protection of the population.

The most important principle based on the Uzbekistan model of transition to a market economy is the implementation of a strong social policy. Social policy is closely connected with stage-stage and macro-economic management and depends on the economic, social and social character of the country. A socially developed society is an ideal society, in which there is no great difference in living standards and antagonistic oppositions between social strata.

The essence of social protection as a socio-economic relationship consists of relations between the society and the population, such as assistance in times of need, assistance to the elderly, health care, social condition, provision of vital means. Social protection is manifested in the policies implemented by society, such as pensions, allowances, material assistance, preferential services for the elderly, sick, disabled, and child care.

The main goal of our large-scale reforms is to turn the new Uzbekistan into a developed social space where people live happily from their work. In this direction, on the basis of the principle of social justice, the support of the population in need of help has been raised to the level of state policy to eliminate poverty.

First of all, it is necessary to pay special attention to the effective use of mechanisms for timely registration of persons in need of social protection and permanent assistance, monitoring of the social situation of families and citizens with signs of need, using information and communication technologies, and the development and implementation of their living conditions.

In the next 10 years, a state program will be developed to increase the income of the population by 2.5-3 times, to make the minimum wage equal to the level of the minimum living wage. [2]

Based on the national goals and tasks in the field of sustainable development, measures will be taken to reduce the level of poverty by two times until 2030.[2]

Analysis of literature on the topic. In the Development Strategy of the Republic of Uzbekistan in 2022-2026, it is effective to reform the national economy, liberalize foreign trade, tax and financial policy, support entrepreneurship and guarantee the integrity of private property, organize deep processing of agricultural products, and ensure the rapid development of regions.

measures have been taken. [1]

Strengthening of social protection of citizens and reduction of poverty was determined as a priority of the state policy, providing the population with new jobs and a guaranteed source of income, qualified medical and educational services, decent living conditions was raised to a new level in terms of quality. [2]

Research methodology. In the article, the methods of scientific abstraction, analysis and synthesis, comparison and comparison, and statistical analysis were used to study the priority directions of theoretical views on social protection and to analyze the level of development of socio-economic support.

Analysis and results. Amir Temur deeply understood that the economic development of the country, the peace and well-being of the citizens, the greatness of the state depends on the knowledge and talent of the amirs and umaras of different categories and different ranks, and on their fair and honest work. That's why he used these categories and their possibilities effectively and efficiently. At the same time, he supported them socially and economically. The Supreme Ruler made extensive use of the uluf form of economic incentives for the social protection of emirs and scholars of different categories and ranks. Because ulufa relied on all classes of the people, especially the amirs and soldiers, interested them socially and economically, and was very late in doing business with interest and justice. For example, if a soldier reaches the age of old age while serving, he is not deprived of his honor and is not demoted from his rank. [3]

In the process of creating a centralized state, Amir Temur protected the raiyat's property from looting, the path of internal and external invaders, robbers and robbers was blocked. As we mentioned, the social protection of the population has taken an important place in the economic policy of a centralized strong state. Due to our ignorance of our history, until recently, we used to think that the social protection of the needy part of the population was the invention of the society called socialism, and the system called capitalism was afraid of the discontent of the working people who were aware of this model and introduced the social protection system. During the study of "Tuzuklar", we were convinced that a comprehensive system of social protection was implemented under the direct leadership of Amir Temur. If earlier social protection was carried out in the form of voluntary donations in accordance with the moral laws of Islam, during the time of Amir Temur, the state system of social protection of the population was created and it became the priority of economic policy. In all times, including the time of Amir Temur, it was required to protect the raiyat from certain officials who deviated from justice and honesty, exchanged faith and honesty for the sake of self-interest, governors, governors, judges, zakat collectors, and the like. Also, there were cases of violation of the law, looting of the property of the population, and cases of violence by the policemen. Our righteous grandfather punished the sick, robbers, violent people; expelled the corrupt, depraved, corrupt people from the country: "Whenever I heard that any of the governors, nobles, and raiyats had wronged the people, I immediately took measures against them in terms of justice and fairness."[4]

Material and physical damages caused to the raiyat by the oppressors were discussed among people in accordance with Sharia laws, damages were paid after proof and punishment was determined in accordance with Sharia laws. Observers and officers were appointed to guard the roads, to deliver the goods and other things of riders, merchants, and travelers from place to place. If someone's belongings were burned on the road, food was stolen or something else happened, it was their responsibility to answer for it.

A consistent economic policy has also been carried out in terms of social protection and support for the disadvantaged sections of the population. Unemployment was considered a great social evil of the times. In the era of natural economy, the labor market was very poorly developed, which led to an increase in the number of unemployed and poor. Amir Temur considered gados as an ugly factor of the country and used various methods of social protection, clearly analyzing the fact that this social evil cannot be prevented without losing its economic basis. First of all, the socially disadvantaged sections of the population: the disabled, the paralyzed, the blind, and those who cannot work due to old age were provided with benefits. [5]

According to some information, ten percent of the treasury was spent for this purpose. In

the second place, measures were taken to provide employment to the poor, the poor and the beggars who are capable of work and have strength in their wrists: "We again ordered that all the beggars of the country should be tasked with work, so that the image of beggars will disappear." However, despite this, those who have acquired gadolik and those who earn gadolik have been expelled from the territory of the country. A mood of hatred and intolerance towards lazy people and idlers has been raised in the country.[6]

The most important feature of the social protection system of the state of Amir Temur is that in the kingdom, different layers of the population are approached in a strictly differentiated manner, that is, social protection is directed only to those members of the society who need financial support from the state. The second proof of the fact that we are approaching social discrimination in a stratified manner is the fact that any soldier who reached old age while serving was not deprived of honor and was not demoted. Social protection, of course, was implemented based on the national traditions and customs of the country and people. Neighborhoods played an important role in the social protection system of the population. Also, Amir Temur's kingdom did not spare the help of the raiyat in health care, assistance to foreigners, water supply, construction of bridges. For example, mosques, madrasahs, khanakahs (places where dervishes, qalandars, poor people stay and live) were built in every city at the expense of state funds. [7]

Conclusions and suggestions. Amir Temur considered material and moral stimulation as a great force that mobilizes society, team, and individual, and used it as a program for managing the state and economy. The salary from the treasury was gradually increased depending on the position of the citizen and the service performed. Setting salary in this way, i.e. gradually increasing the salary depending on the position and the service performed, is reminiscent of the current tariff system. Amir Temur introduced such a system in the second half of the 14th century, and we introduced a similar material incentives system in our republic in 1992.

Amir Temur masterfully used the principle of material interests to raise the fighting spirit of the troops, defeat the opposing forces and achieve the set goal faster. He gave the monthly salaries of the soldiers without asking. In the Rum campaign, he gave seven years' worth of food at once in order to raise the spirits of the troops.

Various aspects of the principle of material incentives, which served as a program for ensuring stability in the country's internal and foreign policy, creating unity among different layers of the raiyat, uniting different peoples and nationalities around a centralized state, can be seen in the following words and practical works of Sahibqiran:

- I got people's attention with my charity work.
- I pleased my amirs and soldiers with ranks and titles, and small ornaments. I did not miss dirhams and dinars from them.
- I assigned suyurgol to the sayyids, scholars, sheikhs and other religious figures and assigned the duties of each of them.
- I appreciated the dignitaries, chiefs and elders of every nation and country, I used their services by giving them gifts.
- I ordered that the sayyids, scholars, virtuous people, judges, doctors, astrologers, storytellers, messengers, and historians, who are members of the assembly, should be given their salaries, tasks and salaries according to their circumstances.
- Raiyat, I was aware of the inhabitants of every land.

Amir Temur considered moral stimulation as a great driving force in strengthening the political unity of the country, in globalism, in creating a unified centralized state, in the development of science and culture, and in the economy. Undoubtedly, Amir Temur's method of material and moral stimulation is a historical lesson for us. Taking into account that using its best aspects, expanding it in content and form, and deepening it will serve as a driving force in the development of our society, we found it necessary to refer to the readers the words of our entrepreneur grandfather about spiritual stimulation:

I showed grace to unite the army and raiyat around me, I showed kindness to them;
with a sweet voice and an open face I tamed them;

I made their hearts happy by rewarding them tenfold for their service;

I pleased my emirs and soldiers with ranks and titles;

I showed mercy to citizens and subordinates, I took the rights of the oppressed from the oppressors;

I became aware of the condition of the raiyats, I saw the elders in the ranks of the elders, and the younger ones in the place of children;

whoever befriended me, I did not forget when I reached the rank of state and blessing, I fulfilled their rights;

I never forgot someone's right to me;

if I met someone, I never let him out of my sight;

I considered the Sayyids, wise men, messengers, and historians to be important people, and put their honors in their place;

I gave gifts to any one who performed a worthy service, and I respected him more than others, and I promoted him according to his service.

List of references

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022 - 2026", No. PF-60 dated 28.01.2022
2. Shavkat Mirziyoyev's book entitled "New Uzbekistan Strategy". T.: 2023.
3. Timur and the kingdom of Timurids. Komuslar editor-in-chief T.: 1994.
4. Ibrahim Mominov. The place and role of Amir Temur in the history of Central Asia. "Science". T.: 1968.
5. Amir Temur fertilizers. Tashkent. "Navroz" - 1992.
6. Timur's rules. Tashkent. Publisher-resource association. 1991.
7. Muhammadjon Holbekov. Correspondence of Amir Temur with European kings. Samarkand. 1996.

Л. Халикова Ш. Юлдашев

Научно- теоретические взгляды на социальную защиту

Аннотация. В этой статье рассмотрены проблемы социальной защиты населения ,занимающее особое место в экономической политике государства Амир Тимура. Изучение истории государства великого правителя показывает об эффективном использовании морально-материальной системы стимулирования населения. Процветание огромного государства при Амире Тимуре, возможно было в результате продуманной экономической политики, многие положения которой актуальны и в настоящее время.

Ключевые слова: экономическая политика, социальная защита, государсвенная система, общества,социальное положение, бедность, льготные услуги, способность к труду.

L. Khalikova Sh. Yuldashev

Ijtimoiy himoyaga oid ilmiy-nazariy qarashlar

Annotatsiya. Ushbu maqolada Amir Temur davlatining iqtisodiy siyosatida aholini ijtimoiy himoya qilish masalalari muhim o‘rin tutadi. Qabul qilingan davlat tizimining tarixini o‘rganish uning bevosita rahbarligida keng ko‘lamli ijobiy himoya tizimi amalga oshirilganligini ko‘rsatadi. Amir Temur davlatining yuksalishi iqtisodiy siyosatning natijasi bo‘lib, uning ko‘p jihatlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy siyosat, ijtimoiy mudofaa, davlat tizimi, ijtimoiy, ijtimoiy maqom, qashshoqlik, imtiyozli xizmatlar, mehnat qobiliyati.

Ибодулла Ҳасанович Ибрагимов – СамИСИ, Маркетинг кафедраси доценти в.б., и.ф.н.
Лариса Алижоновна Мусабаева – СамИСИ, Иқтисодий таҳлил ва статистика кафедраси катта ўқитувчиси

КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИНГ СИНЕРГЕТИК САМАРАДОРЛИГИ

Аннотация. Ушбу мақолада касбий компетенцияларнинг синергетик эффекти ва унинг ташкилотлардаги ривожланишга ва рақобатдошликни оширишга таъсири таҳлил қилинади.

Калит сўзлар: касбий компетенциялар, синергия, синергетик эффект, оптимизация қилиш, иш самарадорлигини ошириш, технологияларни жорий этиш, интеграциялашган қўшилган қиймат, шахсий ривожланиш.

Кириш. Ҳозирги кунда компаниялар ва ташкилотлар учун инсон ресурсларининг энг муҳим бўлаги касбий компетенциялардир. Касбий компетенциялар — бу ходимларнинг ўз соҳасидаги билимлари, кўникмалари ва тажрибасининг умумий жиҳатлари бўлиб, уларнинг иш фаолиятида самарадорлик ва рақобатдошликни таъминлайди. Компаниялар, шунингдек, жамиятда рақобатда устунликни сақлаш учун касбий компетенцияларига катта эътибор қаратадилар. Аммо касбий компетенцияларнинг синергетик эффекти — уларнинг биргаликда ишлаши ва бир-бирини тўлдириши орқали янгича ва катта таъсир кўрсатишини назарда тутади.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Касбий компетенциялар ишлаб чиқариш жараёнини оптимизация қилиш, иш самарадорлигини ошириш, технологияларни жорий этиш ва рақобатдошликни мустаҳкамлашга доир таҳлиллар олиб борилган: саноат ишлаб чиқаришида касбий компетенцияларнинг ишлаб чиқариш самарадорлигига таъсирининг таҳлиллари жаҳондаги етакчи олимлар томонидан, масалан Дэвис К., Смит, Э.**,** Бергман, Л. Зингалес Л., Фаулер Р., Томсон М. Кларк Дж. каби тадқиқотчи олимларнинг тадқиқотларида кенг ёритилган.

Ўзбекистонда саноат ишлаб чиқаришида касбий компетенциялар ва синергетик самарадоликни таҳлил қилишга қаратилган илмий тадқиқотлар кўплаб соҳаларни қамраб олган. Ушбу йўналишдаги тадқиқотлар натижалари Рустамов Ф., Абдуллаев Х., Шерматов М., Тошев С., Мухаммедов Р., Қурбонова Л., Бобоев У. ва бошқа кўплаб тадқиқотчилар томонидан ёритилган.

Тадқиқот методологияси. Тадқиқотни ёритишда хорижда ва Ўзбекистонда касбий компетенциялар ва синергетик эффектлар бўйича бир қатор илмий тадқиқотлар ва мавжуд манбалар танқидий ўрганилди, шунингдек қиёсий таҳлил, синтез, мантиқий абстракт фикрлаш, индуктив ва дедуктив таққослаш каби усуллар қўлланилди.

Таҳлил ва натижалар. Касбий компетенцияларнинг синергетик эффекти концепцияси.

Синергия (грекча «synergos» — биргаликда ишлаш) — икки ёки ундан ортиқ элементларнинг биргаликда фаолият юритиши орқали ҳар бирининг алоҳида таъсиридан кўра каттароқ натижага эришишини англатади. Касбий компетенциялар синергиясининг мазмуни шундан иборатки, бир нечта мутахассисларнинг ҳар бири ўзининг индивидуал билим ва кўникмаларини бирлаштирган ҳолда, ташкилотдаги ишларни самарали амалга оширишга ёрдам беради.

Синергетик самара — бу, масалан, жамоа ўз ишини бажаришда нафақат ҳар бир ходимнинг ўз малакаси ва билимидан фойдаланиш, балки ҳар бир ходимнинг компетенцияларидан биргаликда фойдаланиб, яхши натижаларга эришишни англатади. Бу ҳолда, барча ходимлар ўз билими ва кўникмалари билан бир-бирини тўлдиришади, бу эса умумий самарадорликни оширади.

Касбий компетенцияларнинг синергияси: ишлаш механизми. Синергетик эффектни амалга ошириш учун касбий компетенциялар жамоавий ишлаш ва биргаликда фаолият юритишда мустаҳкам асос бўлиши керак. Агар ҳар бир ходим ўз компетенциясини бирлаштирса, натижада ташкилотнинг стратегик мақсадларига тезроқ эришиш мумкин бўлади. Қуйидаги механизмлар касбий компетенцияларнинг синергиясини таъминлашга хизмат қилади:

Интеграциялашган қўшилган қиймат. Агар бир нечта ходимлар ҳар хил соҳалардаги мутахассислар бўлса, уларнинг ҳар бири ўз соҳасидаги махсус билим ва кўникмаларни бир-бирига қўшса, уларнинг иши янада самарали бўлади. Масалан, бир техник мутахассиснинг тажрибаси ва бошқа бир маркетинг мутахассиси билимлари бирлашиб, янги маҳсулот ишлаб чиқариш ёки маркетинг стратегиясини амалга оширишда аниқ натижа беради. Инженерлар ва дизайнерлар жамоасининг иши. Улар биргаликда ишлаб чиқаришни ва маҳсулотни дизайнини мувофиқлаштириб, янги маҳсулотни яратишда катта синергетик эффектга эришадилар.

Мутлақ рақобат устунлигига эришишда: ҳар бир ходим ўз соҳасида мутахассис бўлса, улар биргаликда ишлаш орқали ҳар қандай муаммони тезда ва самарали ҳал

қилишга имконият яратадилар. Касбий компетенцияларнинг синергетик таъсирида ҳар бир мутахассис ўз қобилиятларини ҳамкорлари билан мувофиқлаштира олади, бу эса уларнинг ҳар бирига ўзига хос кучли жиҳатларни бирлаштиришга ёрдам беради. Корхонанинг турли бўлимлари мутахассислари (маркетологлар, иқтисодчилар, IT-мутахассислар) бирлашиб, янги бизнес моделларини ишлаб чиқишда биргаликда самарали ишлайди.

Рақобатга тайёр туришда: Синергетик самарадан фойдаланган ташкилотлар рақобатда устунликка эга бўлишади, чунки, улар мутахассисларнинг ҳар хил касбий кўникмаларидан тўлиқ фойдаланишади. Бу ўзаро ҳамкорлик ўзига хос бир янгича ёндашувни талаб қилади. Маҳсулотни ишлаб чиқишда техник команда билан ҳамкорлик қилаётган тадқиқотчилар ва дизайнерлар ушбу ҳамкорлик орқали юқори сифатли ва инновацион маҳсулотни бозорга чиқаради, бу эса рақобатдаги позицияларини мустаҳкамлайди.

Хулоса ва таклифлар. Касбий компетенцияларнинг синергетик самарадорлиги, бу мутахассисларнинг индивидуал қобилиятлари ва иш жойидаги жамоа билан биргаликда ишлашдаги самарасини бирлаштиришга асосланган муҳим иқтисодий ва ижтимоий омилдир. Касбий компетенцияларнинг синергетик самарадорлиги ишлаб чиқариш, хизмат кўрсатиш ва бошқа соҳаларда ишчанликнинг юқори натижаларга эришишини таъминлайди. Бу, биринчи навбатда, ташкилотлар ва корхоналарнинг рақобатбардошлигини оширишга ёрдам беради. Касбий компетенцияларнинг синергетик самарадорлиги икки йўналишда амалга оширилади:

1. Индивидуал компетенцияларнинг жамоавий натижаларга таъсири — ҳар бир мутахассиснинг касбий билим ва кўникмалари, иш жойидаги умумий натижаларга йўналтирилган.

2. Ташкилот ичкари ва ташқи ресурсларнинг интеграцияси — касбий компетенцияларнинг интеграциялашган дастурлар орқали ташкилотларига таъсири, яъни биргаликда ишлашдаги самарадорликнинг ошиши. Аммо, бу синергияни максимал даражада фойдаланиш учун, ташкилотлар ва раҳбарлар муайян амалий қадамлар олиб боришлари керак. Касбий компетенцияларнинг синергетик самарадорлигини ошириш ва жамоаларнинг иш самарадорлигини яхшилаш учун, қуйидаги амалий тавсиялар берилмоқда.

Амалий тавсиялар:

1. Касбий кўникмалар ва билимларни ривожлантириш учун узлуксиз таълим ва тренинглар ўтказиш:

- Ташкилотлар ходимларининг касбий компетенциялари узлуксиз ривожлантирилишига эътибор қаратиш муҳим. Давомли таълим, тренинг ва семинарлар орқали ходимлар ўзаро билим алмашинувини амалга ошириш, уларнинг шахсий кўникмаларини ривожлантиришга ёрдам беради.
- Ходимлар ўртасида билим ва тажриба алмашинуви учун тренинглар ташкил этиш, уларни синергетик ва жамоавий ишлашга йўналтириш муҳим. Бу, ўз навбатида, ташкилотда касбий компетенцияларни интеграциялаштириш ва синергетик самарадорликни оширишга ёрдам беради.

Мижозларга қаратилган самарали коммуникацияни ривожлантиришда:

- Ҳар бир мутахассиснинг ёки жамоанинг иш самарадорлигини ошириш учун мижозларга йўналтирилган самарали алоқа ва коммуникация муҳим. Мутахассислар мижозларнинг эҳтиёжлари ва талабларини тушуниши ҳамда уларга мос хизмат кўрсатиш кўникмаларини ривожлантириши керак.
- Мижозларга хизмат кўрсатишнинг самарали усулларини ишлаб чиқиш ва касбий компетенцияларни мижозларнинг талабларига мослаштириш синергетик самарадорликни оширади. Бу, ўз навбатида, ташкилотнинг рақобатбардошлигини оширишга ёрдам беради.

2. Жамоа ишини ривожлантириш ва у билан ишлашнинг интеграциясини кучайтириш:

- Индивидуал мутахассисларнинг компетенциялари синергияга эришиш учун уларнинг биргаликда ишлаш имкониятларини яхшилаш лозим. Жамоаларда мулоқотни

яхшилаш, ишлаш жараёнларини мувофиқлаштириш ва ресурслардан самарали фойдаланиш касбий компетенцияларнинг синергетик самарадорлигини оширади.

- Ташкилотларда интердисциплинар жамоаларни ташкил қилиш, мутахассисларнинг турли соҳалардаги билимларини интеграциялаштириш ва уларнинг ўзаро ишлашини ташкил этиш муҳим аҳамиятга эга. Бу, ўз навбатида, иш самарадорлигини ошириш ва мураккаб муаммоларни ҳал қилишда самарали ечимлар топишга ёрдам беради.

3. Иш жараёнларини автоматлаштириш ва замонавий технологиялардан фойдаланиш:

- Касбий компетенцияларнинг синергетик самарадорлигини ошириш учун замонавий технологиялардан фойдаланиш ва иш жараёнларини автоматлаштириш муҳим. Бу, ходимларнинг фаолиятини самарали бошқариш, иш самарадорлигини ошириш ва кутилган натижаларга тез ва самарали эришишга ёрдам беради.
- Замонавий ишлаб чиқариш ва бошқарув тизимларини жорий қилиш, мутахассисларнинг касбий компетенцияларини яхшилаш ва синергетик самарадорликни таъминлашга ёрдам беради. Иш жараёнларини оптималлаштириш, жамоаларнинг мувофиқ ишлашини таъминлашга ва бизнес натижаларини яхшилашга олиб келади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Дэвис, К. Strategic Human Resource Management: A General Managerial Approach. Wiley. (2012).
2. Смит, Э. Competency-Based Human Resource Management. Sage Publications. (2015).
3. Бергман, Л. The Synergy of Competencies: Creating High-Performance Teams. McGraw-Hill. (2013).
4. Зингалес, Л. (2017). Corporate Competencies and Organizational Synergy. Routledge.
5. Фаулер, Р. "Building Synergy through Competency Management: A Strategic Approach", Journal of Business Strategy, 39(5), 44-51. (2018).
6. Томсон, М. "The Impact of Competency-Based Synergy on Organizational Performance", International Journal of Human Resource Management, 31(3), 1247-1265. (2020).
7. Кларк, Дж. "Competencies and Organizational Synergy in High-Performance Teams", Journal of Organizational Behavior, 40(6), 785-798. (2019).
8. Ли, С. "The Role of Competencies in Creating Organizational Synergy", Human Resource Development Review, 20(4), 309-329. (2021).
9. Ўзбекистон Республикасининг "Касбий таълим тўғрисидаги" Қонуни (2019). - Касбий компетенциялар ва уларни ривожлантириш бўйича амалга ошириладиган ҳуқуқий асослар.
10. Ўзбекистон Республикасининг “Ходимларнинг малакаси ва касбий билимларини ошириш тўғрисидаги” Низом (2016). - Касбий компетенцияларни оширишга йўналтирилган норматив ҳужжат.
11. "Global Competency Framework" (International Labour Organization, 2015). - Халқаро ишчи кучини ривожлантириш ва касбий компетенцияларини баҳолашга оид тавсиялар.

И.Ибрагимов, Л.Мусабаева

Синергетический эффект профессиональных компетенций

Аннотация. В данной статье анализируется синергетический эффект профессиональных компетенций и его влияние на развитие и повышение конкурентоспособности организаций.

Ключевые слова: профессиональные компетенции, синергия, синергетический эффект, оптимизация, повышение эффективности, внедрение технологий, интегрированная добавленная стоимость, личностное развитие.

I.Ibragimov, L.Musabaeva

The synergistic effect of professional competencies

Abstract. This article analyzes the synergetic effect of professional competencies and its impact on the development and improvement of the competitiveness of organizations.

Keywords: professional competencies, synergy, synergistic effect, optimization, performance improvement, technology implementation, integrated value added, personal development.

ИННОВАЦИЯ ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ

Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.,
Бехруз Шарофиддин ўғли Усмонов – СамИСИ магистранти

ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВЛАР ОРҚАЛИ ИНСОН РЕРУРСЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Аннотация: мақолада замонавий технологиялар ва методларни қўллаш орқали инсон ресурсларини ривожлантиришнинг самарали усуллари таҳлил қилинган. Унда инсон ресурслари бошқарувида инновацион ёндашувлар, ходимларнинг малакасини ошириш, мотивация ва самарадорликни кучайтириш йўллари муҳокама қилинади. Шунингдек, янги иш усуллари ва технологияларнинг самарадорликка таъсири кўрсатиб ўтилади.
Калит сўзлар: инновация, инсон ресурслари, самарадорлик, ривожланиш, технология, янги ёндашувлар, ўқитиш, менежмент, етакчилик, стратегия.

Кириш. Бугунги кунда глобал иқтисодиётда рақобатбардошликни сақлаш ва ривожлантириш масалалари ҳар қачонгидан ҳам долзарб аҳамият касб этмоқда. Чунки, инновацион ёндашувлар инсон ресурсларини ривожлантириш ва самарадорлигини оширишда муҳим роль ўйнайди. Замонавий технологиялар, методологиялар ва янги ғоялар ёрдамида ташкилотлар ўз ходимларининг малакасини ошириб, уларнинг иш фаолиятини оптималлаштириш имкониятларига эга бўлишмоқда. Бундай инновациялар нафақат иш жойларида самарадорликни оширади, балки ходимлар орасида рағбат (мотивация) ва креативликни (ижодий ёндашишни) ҳам ривожлантиради. Шу туфайли давлатимиз раҳбари ушбу масалага ҳам алоҳида аҳамият бериб келмоқда. Хусусан, “Ўзбекистон - 2030” стратегиясида алоҳида мақсад қилиб келтирилган. Мазкур стратегиянинг 1-бўлимида “Ҳар бир инсонга ўз салоҳиятини рўёбга чиқариши учун муносиб шароитларни яратиш” масаласи ёритилган. Бунда 44 та мақсад белгиланган[1]. Ушбу ҳужжат асосида бир қанча вазифаларни ўз ичига олган қарорлар ва бошқа меъёрий ҳужжатлар ҳам қабул қилинган.

Шундай қилиб, ушбу кўрсатилган вазифаларни амалга ошириш учун мазкур масаланинг назарий ва амалий жиҳатларини тадқиқ қилишни тақозо қилади. Шу мақсадда, мазкур мақола инновацион ёндашувлар орқали инсон ресурсларини ривожлантириш ва самарадорлигини ошириш йўлларини ўрганишга бағишланганлиги ҳам бежиз эмас. Бу жараёнлар корхона ва ташкилотларнинг муваффақиятини белгиловчи асосий омиллардан бирига айланиши кутилмоқда. Умуман олганда, инновацион ёндашувлар инсон ресурсларини ривожлантириш ва самарадорлигини оширишда муҳим асос бўлиб, уларнинг амалиётга тадбиқ этилиши ташкилотларнинг узоқ муддатли муваффақиятига таъсир кўрсатади. Шу жиҳатдан мазкур мавзу бугунги кунда ўта долзарб ҳисобланади. Ушбу мақолада, биз инновацион ёндашувлар орқали инсон ресурсларини ривожлантиришнинг самарали стратегиялари ва амалий усулларини янада чуқурроқ ўрганишни мақсадга мувофиқ, деб топдик.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Инсон ресурслари тушунчасининг илмий талқини бўйича биринчилардан бўлиб ғарб олимларидан Жейкоб Минсер Journal of Political Economy (Сиёсий иқтисод журнали)да “Инсон капиталига инвестициялар ва ходимларнинг даромадларини тақсимлаш” номли мақоласида фикр юритган бўлса, ундан сўнг Гари Беккер, Теодор Шултс каби иқтисодиётнинг йирик намоёндалари ўз

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 12 сентябрдаги«Ўзбекистон — 2030» стратегияси тўғрисида”ги ПФ-158-сон Фармони. // https://lex.uz/ru/docs/-6600413.

тадқиқотларида мавзуга атрофлича тўхталган.[1] Бугунги кунда эса, юртимиз олимларидан Азларова М.М [3], Хайитов А.Б [4], Тошалиева С.Т [5], Пардаев М.К [6,7], Норқулова Д.З [8], Нарзиқулов Н.Р, Муртазаев Б.Ч, Бакиэва.И.А [9] лар мавзунинг долзарблиги ва иқтисодий-ижтимоий аҳамияти бўйича тадқиқотларни амалга оширишмоқда.

Тадқиқот методологияси. Мақолада инновацион ёндашувлар орқали, инсон ресурсларини ривожлантириш ва самарадорлигини ошириш йўлларини ёритиш жараёнида макон ва замон, мазмун ва шакл, таққослаш, мантиқий ёндашув, индукция ва дедукция каби усуллардан фойдаланилган.

Таҳлил ва натижалар. Шиддат билан ривожланаётган бозор иқтисодиёти шароитида, инсонга ресурс сифатида қараш ҳамда унинг билим ва малакаларидан фойдаланиш аллақачон содир бўлган бўлса, бугунги кунга келиб, бундай инсон ресурсдан самарали фойдаланиш зарурияти ҳам вужудга келди. Бунга эришиш учун инсон ресурсларини ривожлантириш ва бошқаришда инновацион ёндашувлардан фойдаланишга эҳтиёж пайдо бўлмоқда. Бугунги кунда ривожланган мамлакатлар қаторида туриши, инновацион ёндашувлар орқали инсон ресурсларини ривожлантириш ва самарадорлигини ошириш зарурати мавжудлиги ва унга эришиш мумкинлиги бўйича етарли даражада тажрибалар мавжуд. Жумладан, Японияда аҳоли жон бошига ЯИМ ўртача 35 390 АҚШ долларини ташкил қилади. Сингапурда эса, ушбу кўрсаткич 73 минг АҚШ долларига тенг. Ушбу давлатлар табиий ресурсларга деярли эга бўлмаган ҳолда, инсон ресурсларидан самарали фойдаланиш эвазигагини бундай натижаларга эришган.

Бугунги кунда корхона ва ташкилотларда инсон ресурслари самарадорлигини оширишнинг бир қанча йўлларидан фойдаланилмоқда. Жумладан, ходимларнинг малакасини ошириш учун мунтазам тренинглар ва семинарлар ташкил этилмоқда. Инсон ресурсларининг самарадорлигини оширишда тренинг ва ривожлантириш жараёнлари муҳим роль ўйнайди. Ушбу жараёнлар ходимларнинг малака ва кўникмаларини ошириш, уларнинг иш фаолиятини самарали амалга ошириш учун зарур билимларни бериш мақсадида амалга оширилади. Қуйида тренинг ва ривожланиш имкониятларининг асосий жиҳатлари келтирилган:

Тренинг турлари.

Янги ходимлар учун тренинг: Янги ёлланган ходимлар учун ташкил этиладиган дастурлар, уларга ташкилотнинг маданияти, вазифалари ва мажбуриятлари ҳақида маълумот беради. Бу, янги ходимларнинг ишга тезда мослашишларига кўмаклашади. Бундан ташқари, тренинг дастурлари янги ходимларга мавжуд ресурслар ва қўллаб-қувватлаш тизимлари ҳақида маълумот беради, бу эса уларга ўз вазифаларини муваффақиятли бажаришда кўмаклашади. Ўқитиш жараёнида менторлар ёки тажрибали ходимлар жалб этилиши, янги ишчиларга аниқ йўл-йўриқ беришга ёрдам беради. Шундай қилиб, бу дастурлар нафақат билим бериш, балки жамоавий руҳни ошириш ва муаммоларни биргаликда ҳал қилишга ҳам хизмат қилади.

Касбий ривожланиш тренинглари: Ходимларнинг касбий кўникмаларини оширишга қаратилган дастурлар. Бу тренинглар, масалан, етакчилик, лойиҳа бошқаруви, муаммоларни ҳал қилиш ва бошқа махсус кўникмаларга қаратилган бўлиши мумкин.

“Юмшоқ кўникма”га асосланган тренинглари: Мулоқот, жамоавий иш, стрессни бошқариш ва ижодкорлик каби софт скиллсларни ривожлантиришга қаратилган тренинглар. Ушбу кўникмалар ходимларнинг ишдаги муваффақиятини оширади.

Технологик тренинглар: Замонавий технологияларни ўз ичига олган тренинглар, ходимларга янги дастурий таъминот ва ускуналар билан ишлашда асқотади. Мазкур тренинг инновацион жараёнларни жорий этиш ва самарадорликни оширишга ёрдам беради.

Ривожланиш имкониятлари.

[1] https://www.investopedia.com/ask/answers/032715/what-human-capital-and-how-it-used.asp#:~:text=The%20Origins%20of%20the%20Human,that%20could%20add%20to%20productivity.&text=The%20term%20was%20also%20adopted,more%20broadly%20as%20human%20capital

Устоз-шогирд анъаналари: Тажрибали ходимлар ёки мураббийлар томонидан янги ёки кам тажрибали ходимларга кўрсатмалар бериш анъанасини давом эттириш. Бу ёндашув, ходимларнинг ўз билимларини ошириш ва профессионал ривожланишларига ёрдам беради. Шу билан бирга, корхонада устоз-шогирд анъаналарини вужудга келтиради.

Курслар ва сертификатлар: Курслар ходимларга профессионал соҳада ўз билим ва кўникмаларини ошириш имконини беради. Буни тасдиқловчи ҳужжатлардан бири сертификатлар бўлиб ҳисобланади. Билимдан мутахассис бўлиш имкониятини яратади. Бу эса, уларнинг иш бозоридаги рақобатбардошлигини оширади ва карераларида янги имкониятларни яратади. Сертификатлар, шунингдек, ходимларнинг ўз касбий соҳаларида янгиликлардан хабардор бўлишларига ёрдам беради. Корхона ва ташкилотлар бундай дастурларни таклиф қилиш орқали ўз жамоаларини ривожлантиришга, малакали мутахассисларни жалб қилишга ва сақлаб қолишга кўмаклашадилар. Натижада, бу жараён ушбу субъектларнинг умумий муваффақиятига ижобий таъсир кўрсатади.

Тренинглар самарадорлигини баҳолаш

Олинган билимларни баҳолаш: Тренинглардан сўнг, ходимларнинг ўзлаштириш даражасини баҳолаш учун тестлар ёки интервьюлар ўтказиш орқали баҳолаш мумкин. Мазкур баҳолаш, тренингнинг самарадорлигини аниқлашга ёрдам бериш билан бирга билим даражасини ҳам белгилаб беради.

Иш самарадорлигини кузатиш: Иш самарадорлигини кузатиш, тренингдан кейин, ходимларнинг иш фаолиятидаги ўзгаришларни баҳолаш орқали амалга оширилади. Агар, ходимлар ўз ишларида яхшиланишларни кўрсата олсалар, бу тренингнинг самарали ўтказилганини англатади. Бундай баҳолаш жараёни, ходимларнинг ривожланишини кузатиш билан бирга, ташкилотнинг ўсиш стратегияларини аниқлашга ҳам ёрдам беради. Агар, яхшиланишлар кўзга ташланса, келажакдаги тренинг дастурларини янада такомиллаштириш ва ходимларнинг эҳтиёжларига мос равишда янги йўналишлар қўшиш имконияти пайдо бўлади. Бу жараён, шунингдек, ходимларга ўзларини баҳолаш ва ўз ривожланишларига эътибор қаратишга ёрдам беради, бу эса умумий иш самарадорлигини оширади.

Билимдон ходимларга мотивация бериш: Бунинг учун уларга турли рағбатлантирувчи тизимларни жорий этилиш лозим. Бу, маош, бонуслар, мукофотлар ва бошқа имтиёзларни ўз ичига олади. Инсон ресурсларининг самарадорлигини оширишда мотивация ва рағбатлантириш жараёнлари муҳим аҳамиятга эга. Мотивация ходимларнинг ишга бўлган муносабатини, ишлаш истагини ва умумий иш самарадорлигини белгилайди. Мотивация ва рағбатлантириш стратегиялари орқали ташкилотлар ходимларининг ички кучларини очишга ва уларнинг энг яхши натижаларга эришишларини таъминлашга ёрдам беради. Қуйида бу жараённинг асосий жиҳатлари кўриб чиқилади:

Мотивациянинг турлари:

Ички мотивация: Бу мотивация ходимларнинг ўзлари учун, қизиқишлари ва эҳтиёжлари асосида юзага келади. Масалан, ходимлар ўз ишларида қониқиш, ривожланиш ва ижодий ифода этиш истагида бўлиши мумкин. Ташкилотлар ички мотивацияни рағбатлантириш учун қизиқарли ва қийин вазифаларни тақдим этиши керак.

Ташқи мотивация: Бу мотивация ташқи омиллар, масалан, молиявий мукофотлар, бонуслар, KPI ва бошқа имтиёзлар билан боғлиқ. Ташкилотлар ходимларга рағбатлантирувчи ташқи омилларни тақдим этиш орқали уларда ташқи мотивацияни кучайтириши мумкин.

Рағбатлантириш стратегиялари:

Молиявий рағбатлантириш: Молиявий рағбатлантириш ходимларнинг меҳнатини тан олиш ва уларни нафли ишларга жалб қилиш учун муҳим восита ҳисобланади. Бонуслар, қўшимча тўловлар ёки мукофотлар бериш орқали ходимлар ўз иш фаолиятларини яхшилашга ва юқори натижаларга эришишга ундалади. Бу турдаги рағбатлантиришлар, шунингдек, ходимларнинг ишга бўлган муносабатини ижобий томонга ўзгартиради ва уларнинг ташкилотга бўлган садоқатини оширади. Агар ходимлар ўз меҳнатининг ҳақиқатан ҳам қадрланишини сезсалар, уларнинг мотивацияси ва ишга

бўлган иштиёқи ортади. Бу, ўз навбатида, жамоа ичидаги муҳитни яхшилайди ва умумий иш самарадорлигини оширади. Натижада, молиявий рағбатлантиришлар ташкилотнинг муваффақиятини таъминлашда муҳим роль ўйнайди.

Карера ривожланиш имкониятлари: Ходимларга ўз карерасини ривожлантириш учун имкониятлар бериш, масалан, янги лавозимларга ўтиш, малака ошириш ёки лидерлик тренингларига жалб қилиш. Бу, уларнинг келажакдаги муваффақиятларига ишончларини оширади.

Ижтимоий ва шахсий имтиёзлар: Бу соғлиқни сақлаш, таътил, мослашувчан иш шароитлари, спорт тадбирлари ва бошқа ижтимоий имкониятларни тақдим этиш орқали амалга оширилади. Бундай имтиёзлар ходимларнинг иш муҳитида қониқишини оширади. Бундай ёндашувлардан яна бири, иш жойидаги ижтимоий муҳитни ривожлантириш, ходимлар ўртасида ҳамкорлик ва жамоавий ишни рағбатлантириш орқали амалга оширилади. Бу, жамоавий лойиҳа ва тадбирлар орқали ҳам амалга оширилиши мумкин.

Бундан ташқари, инновацион технологиялар ва жараёнларни жорий этиш, ходимларни янги ғояларни илгари суриш учун рағбатлантириш. Бу тадбир иш жараёнларини оптималлаштириш ва самарадорликни оширишга ёрдам беради. Инновацион таълим ва тренинглар инсон ресурсларини ривожлантиришда муҳим роль ўйнайди. Улар ходимларнинг билим ва кўникмаларини янгилаш, ўзгарувчан бозор талабларига мослашиш ва ташкилотнинг рақобатбардошлигини оширишга ёрдам беради. Ушбу жараённи амалга оширишда қуйидаги жиҳатларга эътибор қаратиш лозим:

Инновацион таълим методлари:

Масофавий (онлайн) таълим: Замонавий технологиялар ёрдамида ходимларга онлайн курслар ва тренинглар таклиф этиш. Бу, ходимларга исталган вақтда ва исталган жойда билим олиш имкониятини беради. Онлайн таълим платформалари орқали ҳар ким ўз тезлигида ўқиш имконига эга бўлади.

Интерактив тренинглар: Ходимларни фаол иштирок этишга ундовчи интерактив усуллар. Бунда ўқитувчи ва ўқувчилар бирданига иштирок этади. Масалан, гуруҳ бўлиб жамланиш орқали турли ўйинлар, жамоавий муҳокама ва мунозаралар ва мавзуга оида гуруҳ муҳокамалари. Бу ёндашувлар таълим жараёнини янада қизиқарли ва самарали қилади.

Микро-ўқитиш: Ўқув материалларини кичик мавзуларга ажратиб, осон ўзлаштириладиган бўлакларга бўлиш. Бу, ходимларга маълум бир кўникмани тезда ўрганиш имконини беради ва билимларини тезда қўллашга ҳам ёрдамлашади. Ушбу ҳолат, рақамли технологияларни жорий этиш имкониятини ҳам яратади. Рақамли технологиялар асосида, қисқа вақтда кўп ахборотларни тўплаш имкониятини ҳам беради.

Электрон ўқиш платформалари: Ташкилотлар ўз ички таълим дастурларини рақамли платформаланган ҳолда амалга ошириш орқали самарадорликни ошириши имкониятига эга бўлади. Бу платформалар орқали ходимлар ўзлариниг ўрганиш жараёнларини назорат қилиши ва баҳолаши мумкин бўлади.

Мутахассис ролини ўйнаш. Бунда ўқувчилар (талабалар) аниқ мутахассис ролини ўйнайди. Масалан, менежер, маркетолог ёки бухгалтер каби ролларни ўйнайди. Бунда улар назарияда ўрганган нарсаларини ўзининг фаолиятида қўллаш кўникмасини шакллантиради. Хуллас, ўқувчиларни реал вазиятларда ўйнашини таъминлаш орқали, уларнинг билимларини амалий кўникмаларга айлантиришга ёрдам беради.

Уйда ўқиб, дарсда ишлаш. Бу ҳам ўқувчиларнинг билим олишининг ноанъанавий усули бўлиб ҳисобланади. Ўқувчилар уйда таълим билан шуғулланиб, барча материалларини ўрганади, дарсда эса бу материаллар асосида фаол муҳокама олиб боришади. Бунда таълимни якка ҳолда ўрганиб, унинг қўлланилишини жамоавий ҳолда кўрилиши ҳам билимнинг мустаҳкам бўлишига ёрдам беради.

Давлатимиз томонидан олиб борилаётган ислоҳотларда ҳам, инсон ресурсларидан унумли фойдаланиш ва инсон капиталини ривожлантириш масалаларга эътибор ортиб бормоқда. Бунинг яққол тасдиғи сифатида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон Фармони билан тасдиқланган “2022 — 2026 йилларга

мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси”ни олишимиз мумкин. Ушбу стратегия 7 қисм ва 100 мақсаддан иборат бўлиб, ушбу стратегиянинг 4-қисми “Адолатли ижтимоий сиёсат юритиш, инсон капиталини ривожлантириш” деб номланган. Ушбу қисм 34 мақсадни қамраб олганлиги ҳам, ушбу масаланинг мамлакат миқёсида эътиборга лойиқ масалалардан бири эканлигини билдиради. Ушбу старатегияда инсон капиталини ривожлантириш мақсадида, 2026 йилга қадар қуйидаги мақсадларга эришиш белгилаб қўйилган:

- мактабгача таълимдаги қамров даражасини ҳозирги 67 фоиздан камида 80 фоизга етказиш масаласи қўйилган;
- мактабларни ривожлантириш миллий дастурини жорий этиш орқали халқ таълими тизимида қўшимча 1,2 миллион ўқувчи ўрнини яратиш, чунки бунга эҳтиёж кундан-кунга ошиб бормоқда;
- малакали ўқитувчиларнинг ойлик маошларини босқичма-босқич ошириб 1 000 АҚШ доллари эквивалентига етказишни белгилаш;
- олий таълим билан қамров даражасини 50 фоизга етказиш ва таълим сифатини муттасил ошириб бориш;
- 2026 йилга қадар 10 та энг салоҳиятли олий таълим муассасасини QS ва TNE халқаро рейтингларига киришга мақсадли тайёрлаш;
- Олий ўқув юртларида қарийб 100 минг ўринли талабалар турар жойларини барпо этиш;
- 2026 йилгача нодавлат олий таълим ташкилотлари сонини янада ошириб, уларни камида 50 тага етказиш ҳам кўзда тутилган;
- “Эл-юрт умиди” жамғармаси орқали эркин ва ижодий фикрлайдиган ёшларни нуфузли хорижий олийгоҳларга ўқишга юбориш кўламини 2 бараварга ошириш, бунда ёшларнинг 50 фоизини техник, аниқ фанлар ва IT соҳаларига ўқитиш масаласи ҳам кўзда тутилган.[1]

Хулоса ва таклифлар. Юқоридагилардан келиб чиқиб, бир қанча хулоса ва таклифлар шаклланди. Булар:

Биринчидан, инновацион ёндашувлар орқали инсон ресурсларини ривожлантириш ва самарадорлигини ошириш, замонавий ташкилотлар учун муҳим вазифалардан бири сифатида қаралиши лозим. Корхона ва ташкилотлар, ўз ходимларининг малакаларини муттасил ошириб бориш ва иш жойидан қониқишни таъминлаш орқали, рақобатбардошлигини кучайтиришига ҳам эришиш зарурият эканлигини англаш.

Иккинчидан, инновацион таълим ва тренинглар, мотивация ва рағбатлантириш, шунингдек, замонавий технологияларни жорий этиш, инсон капиталини ривожлантиришда самарали воситалар сифатида кўрилади. Ушбу ёндашувлар нафақат ходимларнинг индивидуал ривожланишига, балки жамоавий ишни яхшилашга, ижодий фикрлашни оширишга ва ташкилотларнинг умумий иш самарадорлигини кўтаришга хизмат қилади.

Учинчидан, XXI асрга келиб, инсонга энг муҳим ресурслардан бири сифатида қаралаётган бир даврда, уни ривожлантирмаслик ва мумкин бўлган юқори самарадорликка эришмаслик, бугунги меҳнат бозори талабларига ҳам мос келмайди ва натижада корхона бозорда ўз ўрнини йўқотиш хавфи ҳам пайдо бўлади.

Тўртинчидан, инновацион ёндашувлар ёрдамида инсон ресурсларининг самарадорлигини ошириш, мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишини барқарорлаштиришга ва халқ фаровонлигини оширишга олиб келади. Бу жараён, келажакда барқарор ва муваффақиятли жамиятни шакллантиришда муҳим аҳамиятга эга деб ўйлаймиз.

Хулоса қилиб айтганда, инновацион ёндашувлар орқали инсон ререурсларини ривожлантириш ва самарадорлигини ошириш йўлларининг ишлаб чиқилиши, мамлакатимизда белгиланган “Ўзбекистон - 2030” стратегиясида кўзда тутилган мақсадларга эришиш имкониятлари яратилади.

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг28.01.2022 йилдаги “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони // https://lex.uz/docs/5841063

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони. // https://lex.uz/docs/5841063
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 12 сентябрдаги«Ўзбекистон — 2030» стратегияси тўғрисида”ги ПФ-158-сон Фармони. // https://lex.uz/ru/docs/-6600413.
3. Азларова М.М. Инсон ресурсларини бошқариш: ўқув қўлланма. –Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. – Т.: ИҚТИСОДИЁТ, 2019. -207 бет.
4. Хайитов А.Б.. “Инсон ресурсларини бошқариш”: Дарслик. –Т.:” 2019. 409-бет.
5. Тошалиева С.Т.. Инсон ресурсларини бошқаришнинг асосий моделлари. Journal of Universal science research. – 8 бет.
6. Pardaev , M. K. . and Pardaeva , O. M. . (2024) “Important Factors in the Formation of Human Capital and its Role in the Development of Society”, Miasto Przyszłości, 51, pp. 224–230. Available at: http://miastoprzyszlosci.com. pl/index.php/mp/article/view/4452 (Accessed: 26 September 2024).
7. Пардаев М.К., Бабаназарова С.А. Состояние развития образования и его сравнительный анализ на международном уровне // TJE-Tematics journal of Education ISSN. – 2021. – С. 2249-9822.
8. Норқулова Д.З., Усмонов Б.Ш. Инсон ресурсларига капитал киритиш. Research Innovation Multidisciplinary Sciences. 2021. – 258p. 4b.
9. Нарзиқулов Н.Р., Муртазаев Б.Ч., Бакиева.И.А. “Инсон ресурслари иқтисодиёти” фани (Ўқув қўлланма). – Т.: Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти. 2005. 160бhttps://www.agro.uz/xodimlar-bilan-ishlash-boshqarmasi/

М.Пардаев, Б.Усмонов **Повышение эффективности и развитие человеческих ресурсов с помощью инновационных подходов**	**M.Pardaev, B.Usmonov** **Improving efficiency and developing human resources through innovative approaches**
Аннотация: в статье рассматриваются эффективные методы развития человеческих ресурсов с применением современных технологий и методов. В ней обсуждаются инновационные подходы в управлении человеческими ресурсами, повышение квалификации сотрудников, а также пути усиления мотивации и продуктивности. Также освещается влияние новых рабочих методов и технологий на производительность.	**Abstract:** The article examines effective methods of human resource development using modern technologies and methods. It discusses innovative approaches to human resource management, employee development, and ways to enhance motivation and productivity. It also highlights the impact of new work methods and technologies on productivity.
Ключевые слова: инновации, человеческие ресурсы, эффективность, развитие, технологии, новые подходы, обучение, менеджмент, лидерство, стратегия.	**Keywords:** innovation, human resources, efficiency, development, technology, new approaches, training, management, leadership, strategy.

Меҳрангиз Олимовна Мамаюнусова – Алфраганис университети ассистенти

ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШНИНГ “4ГС МОДЕЛИ”НИНГ МОҲИЯТИ ВА ҚЎЛЛАНИЛИШИ

Аннотация. Мақолада инновацион иқтисодиёт шароитида камбағалликни қисқартиришнинг “4ГС модели”нинг моҳияти ва қўлланилиши қараб чиқилган. Унда мамлакатимизда камбағалликни қисқартиришга қаратилган масъулиятли тўртта гуруҳнинг ўзаро боғлиқлик жиҳатлари ва уларнинг ўз вазифасини амалга ошириш бўйича илмий-амалий тавсиялар ҳам ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: инновация, инновацион иқтисодиёт, хизмат кўрсатиш, камбағаллик, камбағаллик даражаси, аҳолининг бандлиги, фаровонлик, меҳнат бозори.

Кириш. Бугунги кунда мамлакатимиз аҳолиси 2024 йил 1 июль ҳолатига кўра 37,2 млн нафарни ташкил этади. Булардан 15 млн. 089 минг нафари (41%) иқтисодий фаол

яъни, меҳнат қилишга тайёр аҳоли ҳисобланади. Шундан, 14 млн 213 минг нафари (94 фоизи) иқтисодиётнинг турли тармоқларида меҳнат қилмоқда . Буларнинг таркибий тузилишига эътиборни қаратиладиган бўлса, қуйидаги ҳолатни кўриш мумкин. Хусусан: “расмий секторда – 6,8 млн (48%); норасмий секторда – 5,5 млн (38,8%); хорижда ишлаётганлар – 1,9 млн (13,6%) кишини ташкил қилади. Бугунги кунда республика бўйича 876 минг нафар ишга жойлашишга муҳтож аҳоли мавжуд (йил бошида 1 024 минг нафар, -148 минг). Меҳнатга лаёқатли аҳоли ўртасида ишсизлик даражаси йил бошига нисбатан 1 фоиз пунктга ёки 6,8 фоиздан 5,8 фоизга камайди” . Кўриниб турибдики, меҳнат бозорида ҳал қилиниши лозим бўлган бир қанча масалалар бор. Буларнинг бир йўналиши хизмат кўрсатиш соҳаси бўлиб, унда ўзини ўзи банд қилиш имкониятлари кенглигидан келиб чиқиб, ушбу соҳага ҳам алоҳида эътибор қаратилмоқда. Шу жиҳатдан мазкур мавзу ўта долзарб ҳисобланади.

Тадқиқот методологияси. Тадқиқот жараёнида мантиқий таҳлил, илмий абстракция, тизимли ёндашув, индукция ва дедукция, макон ва замон мантиқий фикрлаш каби усуллардан кенг фойдаланилган.

Таҳлил ва натижалар. Жаҳон миқёсида иқтисодиётда, ижтимоий ва сиё сий ҳаётда мураккаб жараёнлар содир бўлмоқда. Бундай шароитда барқарор ривожланишни таъминлаш ва тинчликни сақлаб туриш ҳам жуда катта ташкилотчиликни талаб қилади. Бундай шароитда мамлакатимиз босиб ўтган тараққиёт йўли ва унда эришилган натижаларини чуқур таҳлил қиладиган бўлсак, кейинги йилларда анча муваффақиятлар қўлга киритилди. Хусусан, халқимизнинг фаровонлигини янада ошириш, иқтисодиёт тармоқларини замон талабидан келиб чиққан ҳолда, трансформация қилиш ва тадбиркорликни жадал ривожлантиришга эришилди. Шу билан бирга инсон ҳуқуқлари ва манфаатларини сўзсиз таъминлаш, ҳамда фаол фуқаролик жамиятини шакллантириш масаласи ҳам амалга оширилаётган ислоҳотларнинг устувор йўналишларидан биридир. Буларнинг барчасини амалга оширишда «Инсон қадри учун» тамойили асосида аниқ мақсадлар кўзда тутилган.

Меҳнат бозоридаги муаммоларни ҳал қилиниши орқали аҳолини иш билан банд қилишга ва мос равишда, шу йўл билан камбағал қатламини қисқартиришга ҳам муваффақ бўлинади. Бунинг учун аҳоли бандлигини таъминлаш ва камбағалликни қисқартириш масалалари бўйича туман (шаҳар) ҳокими ёрдамчилари, ҳамда ёшлар етакчилари фаолияти самарали йўлга қўйилиши ҳақида ҳам мамлакатимиз раҳбари бир қанча бор таъкидлаб келмоқда. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармонида “Фуқароларнинг ижтимоий ҳимоясини кучайтириш ва камбағалликни қисқартириш давлат сиёсатининг устувор йўналиши сифатида белгиланиб, аҳолини янги иш ўринлари ва кафолатли даромад манбаи, малакали тиббий ва таълим хизматлари, муносиб яшаш шароитлари билан таъминлаш сифат жиҳатидан янги босқичга кўтарилди”[1], деган хулосани берди (1-расм).

Расмдан кўриниб турибдики, камбағалликни қисқартириш учун бевосита 4 гуруҳ субъектлар шуғулланади. Булар қуйидагилардан иборат:

Биринчи гуруҳ, аҳолининг камбағал қатлами ҳисобланади. Чунки шу қатламга кирадиган аҳоли ўзи интилмаса, унга фақат бериб, маҳсулотлар ва маблағлар билан таъминлаб камбағалликдан чиқариб бўлмайди. Ҳар бир киши ўзи ҳаракат қилмоғи лозим. Ҳозирги пайтда бунинг учун мамлакатимизда катта имкониятлар яратилган. Ҳозир хоҳлаган киши, хоҳлаган касбида ўзини ўзи банд қилиш имкониятларига эга. Ундан фойдаланган ҳолда, камбағалликдан чиқиш йўлларини қилиши мумкин. Бунинг кўмакчиси бор. Биринчи галда ҳозирда уларнинг ҳисоб-китобини маҳаллалар олиб боради. Бу эса, ўзаро мулоқот қилиб, бир-биридан фойдаланган ҳолда камбағалликдан чиқиш чораларини кўрадилар. Зарур бўлса кредит билан ҳам таъминлаб бормоқда.

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони. http://lex.uz/ru/docs/3107036#3109146



1-расм. Инновацион иқтисодиёт шароитида камбағалликни қисқартиришнинг “4ГС модели”нинг таркибий тузилиши

Иккинчи гуруҳга, бевосита маҳалла ва камбағаллик билан шуғулланувчи муассасалар киради. Бунга бевосита ушбу масала билан шуғулланадиган “Маҳалла еттилиги” ва “Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги” ҳамда уларнинг ҳудудий бўлинмалари киради. Бунда “Маҳалла еттилиги” муҳим роль ўйнайди. Уларнинг асосий мақсади аҳолининг фаровонлигини оширишга, тинч ва осойишталигини таъминлашга қаратилган. Бу вазифалар таркибида камбағалликдан чиқариш муҳим вазифалардан ҳисобланади.

Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг аҳоли бандлигини таъминлаш ва камбағалликни қисқартиришга қаратилган бир қанча фармон ва қарорлари қабул қилинди. Булар жумласига давлатимиз раҳбарининг «Аҳолини ҳунармандчиликка жалб қилиш ва ҳунармандчилик фаолиятини ривожлантириш учун қулай шарт-шароитлар яратиш чора-тадбирлари тўғрисида» 2023 йил 12 июндаги ПФ-91-сон Фармони ҳамда «Касаначиликни янада ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» 2023 йил 23 февралдаги ПҚ-70-сон қарори, шунингдек, ҳунармандчилик ва касаначиликни ривожлантириш орқали ишсиз аҳоли, айниқса, хотин-қизлар, меҳнатга лаёқатли ногиронлиги бўлган шахсларнинг иш билан бандлигига кўмаклашиш орқали камбағалликни қисқартиришга қаратилган, Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йилнинг 22 июлида “Ўзбекистон Республикаси Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги ҳузуридаги Ҳунармандчилик ва касаначиликни қўллаб-қувватлаш жамғармаси фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 307-сонли қарори қабул қилинди.

Учинчи гуруҳга, таълим соҳаси ва иш берувчилар ҳамда касбга ўқитадиган Мономарказлар фаолиятини киритиш мумкин. Камбағалликни қисқартиришда болаларни ёшлигидан қизиқишларига қараб ўқитиш ва тарбиялаш муҳим аҳамиятга эга. Болаларни хору-зор бўлмаслиги учун ўқиш лозимлигини, бир қанча касбларни ўрганиб қўйиш кераклигини тушуниб олишлари лозим. “Бир йигитга 40 ҳунар ҳам оз” деган мақолга амал

қилиб, кўникиб яшашга ўргатиш керак. Болаларни креатив фикрлашга, бир вақтнинг ўзида муаммонинг бир қанча ечимларини топиш йўлларини ҳам билиш, келажакда яшашда қийналмаслик омили эканлигини билиб улғайса, бундай аҳолидан камбағаллар чиқмайди. Биз ҳозир ўқишни битирамиз, ким ишга олади, деган савол билан эмас, балки ўқишни битиргач ўзим қандай фаолият билан шуғуллансам, ўзим бой, мамлакатим бой бўлади, деган тушунча билан яшашга ўргатишимиз лозим. Ҳозирги пайтда ўзимизда иш бўлмаса, хорижга кетаман, деган тушунча билан яшаётган ёшларимиз ҳам оз эмас. Бу тушунча масаланинг ечими эмас. Хорижга ишлашга бориш керак, фақат мардикорликка эмас, балки юқори малакали касбни эгаллаб, муносиб яшаш учун шароит яратиш ва мамлакатимизга бойлик ва хорижий тажрибаларни олиб келиб, уни ривожлантирадиган бўлиши лозим.

Тўртинчи гуруҳга, Ўзбекистон Республикаси Президенти ва бошқа давлат идораларини киритиш мумкин. Буларга кирувчи давлат ташкилотлари таркибига деярли барча вазирликлар билан бирга Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳам киради. Ушбу ташкилотлар мазкур масала бўйича Ўзбекистон Республикаси Президентининг тегишли фармон ва қарорларини ижросини таъминлаш бўйича ижрочи орган ҳисобланади. Президентимизнинг барча фармон ва қарорлари юқоридан қуйигача ижроси таъминланиш чораларини кўриш лозим. Айниқса, камбағалликни қисқартиришга қаратилган стратегик мақсадлар юқори ташкилотлардан маҳаллагача ва маҳаллада ҳам ҳар бир оилаларгача етказилиши лозим. Шундагина қабул қилинган фармон ва қарорларнинг ижроси таъминланади.

Хулоса ва таклифлар. Хулоса қилиб айтганда, инновацион иқтисодиёт шароитида камбағалликни қисқартиришнинг имкониятларини топиш ва уларни амалга ошириш ўта долзарб масалалар сирасига киради. Чунки, ушбу масала “Ўзбекистон - 2030” стратегиясида кўзда тутилган бўлиб, унинг бажарилиши камбағалликни қисқартириб, аҳоли фаровонлигини оширишга ва инсон қадрини улуғлашга қаратилгандир. Булардан келиб чиқиб, бир қанча тавсиялар ишлаб чиқилди. Буларга:

Биринчидан, мамлакатимизда шаклланаётган инновацион иқтисодиёт шароитида камбағалликни қисқартиришнинг “4ГС модели”ни амалиётга жорий қилиб, уларнинг ўзаро боғлиқликларини таъминлашга эришиш стратегиясини ишлаб чиқиш лозим, деб ҳисоблаймиз.

Иккинчидан, таълим ташкилотларида ўзини ўзи банд қилишга қаратилган фанларни ўқув дастурга киритиш ва уни ўқитиш жараёнида дуал таълим принципидан фойдаланиш ҳам мақсадга мувофиқ.

Учинчидан, Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан эълон қилинган қарор ва фармонларнинг ижросини таъминлашда юқори ташкилотлардан маҳаллагача ва маҳаллаларда ҳар бир оилаларгача етказиб бориш ва уларнинг ижросини таъминлаш чораларини ҳам тизимли равишда амалга ошириш ҳам мақсадга мувофиқдир.

Ушбу тавсияларнинг амалиётга жорий қилиниши Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон - 2030” стратегиясида кўзда тутилган вазифаларнинг бажарилишига хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 26 мартда имзоланган “Иқтисодиётни ривожлантириш ва камбағалликни қисқартиришга оид давлат сиёсатини тубдан янгилаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5975-сонли Фармони. // “Халқ сўзи” газетаси. 2020 йил 27 март. – 1-2 бетлар.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 26 мартда имзоланган “Ўзбекистон Республикаси Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги ҳамда унинг тизим ташкилотлари фаолиятини ташкил этиш тўғрисида” ПҚ-4653-сонли Қарори. // “Халқ сўзи” газетаси. 2020 йил 27 март. – 1-2 бетлар.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 27 январда имзолаган “Хизматлар соҳасини ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-104-сонли қарори. // “Халқ сўзи” газетаси. 2022 йил 28 январь. – 1-2 бетлар.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 21 апрелда имзоланган “Касаначиликни ривожлантириш асосида аҳоли бандлигини таъминлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-214-сонли қарори. // “Халқ сўзи” газетаси. 2022 йил 22 апрель. – 1-2 бетлар.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 22 июлда имзоланган “Хотин-қизларни касб-ҳунар ва тадбиркорликка ўқитиш тизимини такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-329-сонли қарори. // “Халқ сўзи” газетаси. 2022 йил 23 июль. – 1-2 бетлар.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони. http://lex.uz/ru/docs/3107036#3109146

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги, «Ўзбекистон — 2030» стратегияси тўғрисида”ги ПФ-158-сонли фармони. // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 12.09.2023 й., 06/23/158/0694-сон.

8. Абдураҳмонов Х.Х., Арабов Н.У., Холмухамедов М.М. Аҳоли даромадлари ва турмуш сифати. Ўқув қўлланма. Т.: “Тафаккур бўстони”. 2014. 242 б.

9. Қудратов Ғ.Ҳ., Абдукаримов Б.А., Пардаев М.Қ. ва бошқалар. Савдо иқтисодиёти муаммолари. Ўқув қўлланма. – Т.: “Иқтисод-молия” нашриёти, 2016. – 508 бет,

10. Пардаев М.Қ., Очилов И.С. Хизмат кўрсатиш соҳаси корхоналарида самарадорликни ошириш йўллари. Монография. – Т.: “Иқтисод-молия”, 2011. – 172 б.

11. Пардаев М.Қ., Мирзаев Қ.Ж., Очилов И.С. Хизматлар соҳаси иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. – Т.: “ИҚТИСОД-МОЛИЯ”, 2014. – 384 б.

12. Пардаев М.Қ. ва бошқалар. Хизмат кўрсатиш тармоқлари иқтисодиётининг айрим муаммолари. – Т.: “Наврўз” нашриёти, 2014. – 264 бет.

13. Пардаев М.Қ., Пардаев О.М. Камбағалликни баҳолаш ва уни камайтириш йўллари. Илмий-услубий тавсия. Самарқанд, СамИСИ, 2020. – 68

14. Ўринбаева Ю.П. Хизмат кўрсатиш соҳаси ва аҳоли турмуш даражаси: ўзаро боғлиқлиги ва ривожланиш истиқбллари. Монография. – Т.: “Фан” нашриёти, 2013. – 144 бет.

15. http/www.dissercat.com.

16. http/pscgspace/ cgiav/org.

17. http/setd/ohiolink/edv.

М.Мамаюнусова **Сущность и применение «Модели 4GS» сокращения бедности в инновационной экономике**	**M.Mamayunusova** **Essence and application of the "4GS model" of poverty reduction in the innovative economy**
Аннотация: в статье рассматривается сущность и применение «модели 4GS» скоращения бедности в условиях инновационной экономики. В ней также разработаны аспекты взаимозависимости четырех групп, ответственных за сокращение бедности в нашей стране, и научно-практические рекомендации по реализации их задач. **Ключевые слова:** инновации, иннова-ционная экономика, предоставление услуг, бедность, уровень бедности, занятость населения, благосостояние, рынок труда.	**Abstract**: the article examines the essence and application of the "4GS model" of poverty reduction in the context of an innovative economy. It also develops aspects of the interdependence of the four groups responsible for poverty reduction in our country, and scientific and practical recommendations for the implementation of their tasks. **Keywords**: innovation, innovative economy, provision of services, poverty, poverty level, employment, welfare, labor market.

САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ

Xayrulla Qilichovich Qarshiboyev – SamISI, “Oliy matematika” kafedrasi mudiri, f-m.f.n., dotsent

KORRELYATSIYA VA REGRESSIYA TAHLILI KORXONANING IQTISODIY RIVOJLANISHINI BASHORAT QILISH USULI

Annotatsiya. Ushbu maqolada korrelyatsiya va regressiya tahlili korxonaning iqtisodiy rivojlanishini bashorat qilish usuli sifatida muhokama qilingan. Korrelyatsiya koeffitsientlarini hisoblash o‘rganilayotgan ko‘rsatkichlar orasidagi bog‘lanishning yaqinligi va yo‘nalishini aniqlash imkonini beradi. Regressiya tahlili korrelyatsiya tahlilining tabiiy davomi bo‘lib, natijaviy qiymat va omil ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlikning analitik ifodasini aniqlash mumkinligi batafsil o‘rganilgan.
Kalit so‘zlar: korrelyatsiya va regressiya tahlili, prognozlash, tasodifiy o‘zgaruvchilar, samarali belgi.

Kirish. Iqtisodiy rivojlanishni rejalashtirish uchun korxonalar korrelyatsiya va regressiya tahlilidan keng foydalanadilar. U o‘rganilayotgan jarayonning tasodifiy o‘zgaruvchilari o‘rtasidagi miqdoriy munosabatlarni o‘rnatadigan aloqa shakllarini sinab ko‘rish uchun ishlatiladi. Bu usul ijtimoiy-iqtisodiy prognozlashda barqaror sabab-natija munosabatlarini baholashga asoslangan shartli prognozlar va prognozlarni qurish uchun qo‘llaniladi.

Korrelyatsiya va regressiya tahlili iqtisodiy faoliyatni stoxastik modellashtirishning klassik usuli hisoblanadi. U iqtisodiy faoliyat ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish uchun, agar ular o‘rtasidagi munosabatlar qat'iy funktsional bo‘lmasa va begona, tasodifiy omillar ta’sirida buziladi. Korrelyatsion-regression tahlil usulidan foydalanib, iqtisodiy faoliyatning korrelyatsiya va regressiya modellari tuziladi, ularda omil va samaradorlik ko‘rsatkichlari aniqlanadi [2]. Korrelyatsiya tahlili turli o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi munosabatlarning kuchini o‘lchash uchun ishlatiladi. Bundan tashqari, samarali atributga eng katta ta’sir ko‘rsatadigan omillarni baholash uchun foydalaniladi.

Regressiya tahlili bog‘liq o‘zgaruvchining (natija xarakteristikasi) taxminiy qiymatlarini aniqlash uchun munosabatlar shakli va model turini tanlash uchun zarurdir.

Korrelyatsiya va regressiya tahlili keng qamrovli qo‘llaniladi. Juftlik korrelyatsiyasi nazariy jihatdan eng rivojlangan va ko‘pincha amaliyotda qo‘llaniladi. Samarali belgi bilan bir omil xarakteristikasi o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganilganda qo‘llaniladi. Bu bir faktorli korrelyatsiya va regressiya tahlilidir [3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Korrelyatsiya va regressiya tahlili o‘zgaruvchilar orasidagi statistik bog‘lanishlarni o‘rganishga qaratilgan usullardir. Tadqiqotlarda ularning asosiy tamoyillari, korrelyatsiya koeffitsienti yordamida bog‘lanish darajasi va yo‘nalishini aniqlash, regressiya tenglamasi orqali esa prognozlash imkoniyatlari haqida ma’lumot beriladi. Masalan, N.Zaripovning ishlarida (2015) regressiya modellari yordamida korxonalar daromadi, xarajatlari va foyda ko‘rsatkichlari orasidagi bog‘lanishni tahlil qilishni tushuntirilgan.

Iqtisodiy Ko‘rsatkichlar O‘rtasidagi Bog‘lanish. Ko‘plab adabiyotlar, jumladan, Richard I. Levin va David S. Rubinlarning "Statistics for Management" kitobi, iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni baholashda korrelyatsiya va regressiya tahlilidan foydalanishni o‘rgatadi. Bu manbalar savdo hajmi, mehnat unumdorligi, kapital miqdori kabi ko‘rsatkichlar va foyda ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qilish imkonini beradi. Ularning asarlarida korrelyatsiya yordamida bog‘lanishning kuchini aniqlash, regressiya tenglamasi yordamida esa kelajakdagi ko‘rsatkichlarni bashorat qilish usullari yoritilgan.

Regressiya Tahlilining Bashoratdagi O‘rni. Adabiyotlarda regressiya tahlilining iqtisodiy prognozlashdagi o‘rni keng yoritilgan. Korxonaning iqtisodiy rivojlanishini bashorat qilishda

regressiya tahlili yordamida kelajakdagi savdo hajmi, foyda, xarajatlar va boshqa iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘lanish tahlil qilinadi. Masalan, Damodar N. Gujarati va Dawn C. Porterlarning "Basic Econometrics" asarida turli xil regressiya modellarining samaradorligi, ularning iqtisodiy rivojlanishni bashorat qilishdagi qo‘llanilishi batafsil keltirilgan.

Amaliy Aspektlar: Korxona Iqtisodiyoti uchun Regressiya Tahlili. Korxona iqtisodiyoti uchun regressiya tahlilini qo‘llash amaliyotida Boshqaruv va Iqtisodiyot bo‘yicha yetakchi adabiyotlarda ushbu usullarning strategik rejalashtirishda qanday yordam berishi haqida misollar mavjud. Masalan, Jorj Keller va Skott Armstrongning iqtisodiy model yaratishda korrelyatsiya va regressiyadan foydalanish imkoniyatlari bayon qilingan. Ularning tadqiqotlarida korxonalar faoliyatiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlash usullari ham keltirilgan.

Korrelyatsiya va Regressiya Modellarini Bashoratda Yaxshilash Usullari. Korrelyatsiya va regressiya tahlilining prognozlash samaradorligini oshirish uchun ba’zi tadqiqotlarda yangi texnikalar va ilg‘or metodlar qo‘llaniladi. Masalan, Andreychenkoning 2018-yilda e’lon qilgan maqolalarida ko‘p omilli regressiya modellari va vaqt qatorlari yordamida bashoratning aniqroq natijalarini olish yo‘llari ko‘rsatilgan. Bunda vaqt qatorlari modeli va ko‘p o‘zgaruvchili regressiya tahlilidan foydalanish, omillar o‘rtasidagi murakkab bog‘lanishni hisobga olish orqali kelajakdagi iqtisodiy rivojlanishni bashorat qilishda katta ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlangan.

O‘zbekistondagi Tadqiqotlar va Amaliy Tatbiqlar. O‘zbekiston iqtisodiyotiga oid tadqiqotlarda korrelyatsiya va regressiya tahlilidan foydalangan holda mahalliy korxonalar iqtisodiy holatini baholash va bashorat qilishga oid bir qator ishlanmalar mavjud. Mavsumiy o‘zgarishlarni hisobga olgan holda, ishlab chiqarish hajmi, eksport va import, investitsiyalar va boshqa iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘lanishni o‘rganish bo‘yicha milliy tadqiqotlar qamrab olingan.

Korrelyatsiya va regressiya tahlili korxonaning iqtisodiy rivojlanishini bashorat qilish uchun samarali usul bo‘lib, ular yordamida kelajakdagi ko‘rsatkichlarni aniqlash va strategik qarorlar qabul qilish imkoniyati kengayadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu usullar yordamida korxonaning moliyaviy holatini oldindan ko‘ra olish va rivojlanish tendensiyalarini baholashda aniq va ishonchli prognozlar yaratish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot korxonaning iqtisodiy rivojlanishini bashorat qilish maqsadida korrelyatsiya va regressiya tahlili yordamida asosiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlash, ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash, regressiya modeli tuzish, modelning statistik ishonchliligini baholash hamda kelajakdagi o‘zgarishlarni prognozlash uchun tavsiyalar ishlab chiqish bosqichlarini o‘z ichiga oladi.

Tahlil va natijalar. Keling, "Samarqand shahridagi non mahsulotlari zavodi" MCHJ korxonasi misolida korrelyatsiya va regressiya tahlilidan foydalanishni ko‘rsatamiz.

"Samarqand shahridagi non mahsulotlari zavodi" don va uni qayta ishlash mahsulotlarini saqlash, mamlakatimiz hududida don va moyli o‘simliklarni qayta yuklash bo‘yicha ishlar va xizmatlarni amalga oshirish bilan shug‘ullanadi.

Korrelyatsiya va regressiya tahlilidan foydalanib, daromadning ma’lum bir korxonaning aylanma mablag‘lari miqdoriga ta’sirini tahlil qilaylik. Dastlabki ma’lumotlar quyidagi 1-jadvalda ko‘rsatilgan.

Jadvalda keltirilgan dastlabki ma’lumotlardan foydalanib, biz samarali xarakteristikaning Y ning X omilga bog‘liqligi grafigini tuzamiz.

Jadvalda keltirilgan va grafik jihatdan tasdiqlangan ma’lumotlardagi o‘zgarishlarning tabiatini hisobga olgan holda, biz tanladik ikkinchi tartibli parabola, quyidagi shaklga ega:

$$Y_x = a + bx + cx^2 \qquad (1)$$

a, b va c parametrlarining qiymatlari tenglamalar tizimini yechish orqali topiladi:

1-jadval.

" Samarqand shahridagi non mahsulotlari zavodi" MCHJ daromadlari va aylanma mablag‘lari

Kun	Un uchun ketgan xarajat, ming.dollar. (x)	Daromad, ming.dollar. (y)
1	1	1,2
2	1,2	1,4
3	1,4	1,6
4	1,6	1,8
5	1,8	2,0
6	2,0	2,2
7	2,2	2,4
8	2,4	2,6

$$\begin{cases} na + b\sum x + c\sum x^2 = \sum y \\ a\sum x + b\sum x^2 + c\sum x^3 = \sum xy \\ a\sum x^2 + b\sum x^3 + c\sum x^4 = \sum x^2 y \end{cases} \qquad (2)$$

bu yerda: n – kuzatishlar soni.

Olingan qiymatlarni tenglamalar tizimiga almashtiramiz:

$$\begin{cases} 8a + 13{,}6b + 24{,}8c = 15{,}2; \\ 13{,}6a + 24{,}8b + 46{,}872c = 27{,}52; \\ 24{,}8a + 46{,}872b + 95{,}5696c = 52{,}832. \end{cases}$$

Determinant usuli yordamida regressiya tenglamasining parametrlarini topdik:

$$a = 0{,}5$$

$$b = 0{,}49$$

$$c = 0{,}183$$

Shunday qilib, parabolaning tenglamasi quyidagicha:

$$Y_x = 0{,}5 + 0{,}49\,x + 0{,}183\,x^2 \qquad (3)$$

Ushbu tenglamaga X ning mos keladigan qiymatlarini qo‘yamiz miqdoriga qarab aylanma mablag‘larning tenglashtirilgan qiymatlari daromad (2-jadval).

2-jadval.

Y yakuniy xarakteristikaning darajali qiymatlari

n	X, ming.dollar.	Y, ming.dollar.	Y_x, ming.dollar.
1	1	1,2	1,173
2	1,2	1,4	1,35152
3	1,4	1,6	1,54468
4	1,6	1,8	1,75284
5	1,8	2,0	1,97492
6	2,0	2,2	2,212
7	2,2	2,4	2,46372
8	2,4	2,6	2,73008

Omil va samaradorlik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlikning chiziqli bo‘lmagan munosabat bilan yaqinligini o‘lchash uchun korrelyatsiya nisbatini hisoblaymiz:

$$R = \sqrt{1 - \frac{\sum(y - \overline{y_x})^2}{\sum(y - \overline{y})^2}} = \sqrt{1 - \frac{0{,}03007}{1{,}68}} = 0{,}991 \quad (4)$$

Korrelyatsiya nisbati 0 dan 1 gacha qiymat olishi mumkin. Uning qiymati birlikka qanchalik yaqin bo‘lsa, o‘rganilayotgan hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlik shunchalik yaqin bo‘ladi [7].

Korrelyatsiya koeffitsientining qiymati 0,96668 ga teng bo‘lsa, omil va natijaviy xarakteristikaning o‘zaro bog‘liqligi kuchli ekanligini anglatadi. Agar daromad 1% ga o‘zgargan bo‘lsa, aylanma mablag‘larning qiymati 0,97% ga o‘zgaradi.

Aloqa modelini chiziqli bo‘lmagan bog‘liqlik bilan baholash uchun korrelyatsiya nisbati kvadratiga teng bo‘lgan aniqlash indeksini aniqlash kerak:

$$R^2 = \eta^2$$
$$R^2 = 0{,}991^2 = 0{,}982081 \quad (5)$$

Biz turli xil model variantlari yordamida hisob-kitoblarni amalga oshirdik. Aylanma mablag‘lar miqdorining daromadlar miqdoriga bog‘liqligi tendensiyasi eng yaxshi tomonidan tavsiflanadi, polinom funktsiyasi, chunki aniqlash indeksi R^2 eng katta - 0,982. Bu shuni anglatadiki, manba ma’lumotlarining 98,2%i tanlangan modelga bo‘ysunadi.

Bundan kelib chiqadiki, aylanma mablag‘lar qiymatining o‘zgarishining 98,2 foizi daromadlar o‘zgarishi bilan bog‘liq. 1,8%i esa boshqa omillar ta’siriga bog‘liq.

Tuzilgan modelning sifatini baholash uchun biz o‘rtacha yaqinlashish xatosini (A) hisoblaymiz. Bu Y ko‘rsatkichining haqiqiy qiymatlari tuzilgan model yordamida hisoblangan qiymatlardan necha foizga farq qilishini ko‘rsatadi.

O‘rtacha taxminiy xato quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\overline{A} = \frac{\sum |Y_i - Y_x| / Y_i}{n} 100\% \quad (6)$$

bu yerda: $|Y_i - Y_x|$- moslashtirilgan Y qiymatlarining haqiqiy qiymatlardan og‘ishimodul.

$$\overline{A} = 2{,}656\,\%$$

Olingan qiymat bizga tuzilgan modelning sifati yaxshi degan xulosaga kelishga imkon beradi, chunki regressiya modeli yaxshi moslashtirilgan deb hisoblanadi va agar o‘rtacha yaqinlashish xatosi 10% dan oshmasa, omil va ishlash ko‘rsatkichi o‘rtasidagi munosabatni etarlicha aniq tavsiflaydi.

Keling, 7 va 8 oylar uchun aylanma mablag‘larning prognoz qiymatlarini hisoblaylik.

Aytaylik, kompaniya har yili o‘tgan yilga nisbatan daromadini 10% ga oshiradi. Bu shuni anglatadiki, 7 va 8 oylardagi daromad miqdori:

7: 2,2 + 0,1·2,2 =2,64 (ming dollar);
8: 2,64 + 0,1·2,64 = 2,904 (ming dollar).
Olingan qiymatlarni regressiya tenglamasiga keltirib qo‘yamiz:

7: 0,5+0,49·2,64+ 0,183·6,9696 =3,07 (ming dollar);
8: 0,5 + 0,49·2,904+0,183·2,904 =3,47 (ming dollar).

Tuzilgan regressiya modeli natijalarini tahlil qilsak, shuni xulosa qilib aytishimiz mumkinki, zavod daromadini rejalashtirilgan ikki oy davomida 10% ga oshirish uchun 7 oyda 3,07 ming dollar, 8 oyda 3,47 ming dollar aylanma mablag‘ kerak bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. Ushbu maqolada korxonaning iqtisodiy rivojlanishini baholash va kelajakdagi daromad o‘sishlarini bashorat qilish uchun korrelyatsiya va regressiya tahlilining ahamiyati yoritilgan. "Samarqand shahridagi non mahsulotlari zavodi" MChJ misolida daromad va aylanma mablag‘lar o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida olingan regressiya modeli iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘zgarishini ishonchli tarzda prognoz qilish imkoniyatini yaratgan. Korrelyatsiya koeffitsienti va aniqlash indeksining yuqori qiymatlari modelning aniq ekanligini tasdiqlaydi va korxonaning ikki oy davomida rejalashtirilgan daromad o‘sishiga erishish uchun kerakli aylanma mablag‘lar miqdorini aniqlashda foydali hisoblanadi.

1. Modelni Kengaytirish**:** Korxonaning boshqa iqtisodiy omillari, masalan, xarajatlar va mehnat unumdorligi kabi ko‘rsatkichlarni ham modellashtirish orqali bashorat modelini kengaytirish taklif etiladi.
2. Davriy Tahlilni Yo‘lga Qo‘yish**:** Har oy yoki har chorakda modelga yangilanishlar kiritib borish, iqtisodiy sharoitlar o‘zgarishi bilan moslashuvchan bashorat qilish imkonini beradi.
3. Yuqori Aniqlik Uchun Ko‘p Omilli Modellardan Foydalanish**:** Yagona omil o‘rniga bir nechta omillarni hisobga oluvchi ko‘p omilli regressiya modellarini joriy etish orqali prognozlash samaradorligini oshirish mumkin.
4. Qaror Qabul Qilish Jarayoniga Integratsiya**:** Ushbu tahlillarni korxonaning strategik qarorlarini qabul qilish jarayoniga kiritish korxona faoliyatining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Bu takliflar korxona rivojlanishini yanada samarali bashorat qilish va optimal resurs taqsimotiga erishishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Кремер Н.Ш., Путко Б.А. Эконометрика: Учебник. – М.: Юнити-Дана, 2008. – 328 с.
2. Greene, W. H. (2012). Econometric Analysis, 7 th Edition (Int. Edition), Essex: Pearson.
3.Бутакова М.М. Экономическое прогнозирование: методы и приемы практических расчетов: Учебное пособие / М.М. Бутакова. – 2-е изд. – М.: Кнорус, 2010. – 168 с.
4. Гиляровская Л.Т. Экономический анализ: Учебник для вузов. – М.: Юнити-Дана, 2011.

Х.Каршибоев

Корреляционно-регрессионный анализ как способ прогнозирования экономического развития предприятия

Аннотация: в данной статье рассматривается корреляционно-регрессионный анализ как способ прогнозирования экономического развития предприятия. Расчет коэффициентов корреляции позволяет обнаружить тесноту и направление взаимосвязи изучаемых показателей. Регрессионный анализ является продолжением корреляционного и заключается в определении аналитического выражения связи результирующей величины с факторными показателями.

Ключевые слова: корреляционно-регрессионный анализ, прогнозирование, случайные величины, результативный признак.

Kh.Karshiboev

Correlation-regression analysis as a method of forecasting the economic development of an enterprise

Abstract: this article examines correlation-regression analysis as a method of forecasting the economic development of an enterprise. Calculation of correlation coefficients allows us to detect the closeness and direction of the relationship of the studied indicators. Regression analysis is a natural continuation of correlation and consists in determining the analytical expression of the relationship of the resulting value with factor indicators.

Keywords: correlation-regression analysis, forecasting, random variables, resultant feature.

Shahnoza Abdirashitovna Po‘latova – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil izlanuvchisi

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA YASHIL SERTIFIKATLASH VA EKOLOGIK MARKIROVKALASH AMALIYOTINI JORIY ETISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Annotatsiya: Maqolada oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida yashil sertifikatlash va ekologik markirovkalashning dolzarbligi, O‘zbekistonda yashil sertifikatlash va ekologik markirovkalash bo‘yicha huquqiy bazaning yaratilayotganligi yoritilgan. Shuningdek, yashil sertifikatlar va ekologik markirovkalashning afzalliklari, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarining yashil sertifikat va ekologik markirovkalash faoliyatini tahlil qilishda foydalaniladigan mezon va ko‘rsatkichlar bo‘yicha mualliflik yondashuvlari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: yashil sertifikat, ekologik markirovkalash, yashil marketing strategiya, ekologik mahsulotlar, yashil brend, ekologik toza va barqaror mahsulotlar, ekologik mas’uliyat.

Kirish. Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarining yashil sertifikat va ekologik markirovkalash faoliyati bugungi kunda ekologik toza va barqaror ishlab chiqarishning muhim tarkibiy qismiga aylangan. Bu faoliyat kompaniyalar uchun raqobatbardoshlikni oshiradi va iste’molchilarni ekologik mas’uliyatli mahsulotlar bilan ta’minlash imkonini beradi. Yashil sertifikatlar va ekologik markirovka brendning imijini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Korxonalar o‘z mahsulotlariga ekologik markirovka qo‘shish orqali iste’molchilarga toza va barqaror ishlab chiqarish haqida ma’lumot beradi. Bu brendni ko‘proq ishonchli va ekologik mas’uliyatli sifatida ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda ham yashil sertifikatlashtirish va ekologik markirovkalashga e’tibor kuchayib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida mahsulotlarni ixtiyoriy ekologik markirovkalash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 435-son qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan “O‘zbekiston Respublikasida mahsulotlarni ixtiyoriy ekologik markirovkalash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlandi. Ushbu Nizom “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”, “Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”, “Ekologik nazorat to‘g‘risida”, “Muvofiqlikni baholash to‘g‘risida”, “Standartlashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan ixtiyoriy ekologik markirovkalash tartibini belgilaydi.

O‘zbekistonda ham yashil sertifikatlash va ekologik markirovkalash amaliyotini joriy etishga alohida e’tibor berilmoqda. Ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida yashil sertifikat va ekologik markirovkalash yanada muhim ahamiyatga egadir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Barqaror marketing va ekologik mas’uliyatli biznes amaliyotlari sohasida ko‘plab ilmiy ishlari bilan tanilgan avstraliyalik Michael J.Polonsky va Philip J.Rosenberger yashil marketing konsepsiyasi bo‘yicha muhim tadqiqotlar olib borganlar. Polonsky va Rosenberger yashil marketingni barqaror rivojlanishning bir qismi sifatida o‘rganishgan. Ular kompaniyalar ekologik xavfsiz mahsulotlarni bozorga chiqarishda qanday marketing strategiyalaridan foydalanishlari mumkinligini o‘rganganlar. Tadqiqotlari ko‘pincha yashil marketingni amalga oshirishning qiyinchiliklarini va ushbu jarayonning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilishga qaratilgan [4].

Polonsky yashil marketingni korporativ ijtimoiy javobgarlik (KIJ) bilan bog‘liq holda o‘rgangan. Uning tadqiqotlarida kompaniyalar ekologik mas’uliyatni qanday targ‘ib qilishi, ijtimoiy va ekologik javobgarlikni o‘z brend strategiyasiga qanday qo‘shishi mumkinligi masalalari o‘rtaga tashlangan.

Rosenberger iste’molchilarning ekologik mahsulotlar va yashil brendlarga munosabatini o‘rgangan. U yashil marketingning iste’molchilarning hatti-harakatlariga ta’sirini tahlil qilgan va ekologik jihatdan mas’uliyatli iste’molchilar uchun marketing kommunikatsiyalarini qanday yaratish kerakligini o‘rgangan.

AQShlik Aseem Prakash yashil marketingni korporativ ijtimoiy javobgarlik (KIJ), davlat

siyosati va iqtisodiy foyda nuqtai nazaridan o‘rgangan. U ekologik mas’uliyatning kompaniya reputatsiyasiga va uning iqtisodiy samaradorligiga qanday ta’sir qilishini tahlil qilgan. Prakash yashil marketingni nafaqat marketing yondashuvi, balki kengroq ekologik va siyosiy kontekstda ham ko‘rib chiqadi. Prakash korporativ ijtimoiy javobgarlikning ekologik komponentlarini o‘rganib, kompaniyalar yashil marketing orqali qanday qilib o‘z ijtimoiy majburiyatlarini bajarishlari va shu bilan birga iqtisodiy foyda olishlari mumkinligini ko‘rsatgan. Uning tadqiqotlari KIJni kompaniyalar tomonidan strategik marketing vositasi sifatida foydalanishni tavsiya etadi [5].

Yana bir AQShlik tadqiqotchi Pankaj Shrivastava yashil marketingni barqaror rivojlanishning bir qismi sifatida o‘rgangan. U ekologik jihatdan mas’uliyatli mahsulotlar va xizmatlarni bozorga chiqarishning muhimligini ta’kidlaydi. Uning tadqiqotlari yashil marketing strategiyalari orqali korxonalar qanday qilib barqaror rivojlanishni ta’minlashi mumkinligini ko‘rsatadi. Pankaj Shrivastava ilmiy tadqiqotlarida kompaniyalar ekologik jihatdan toza mahsulotlarni ishlab chiqishda qanday innovatsion yondashuvlar va texnologiyalarni qo‘llashlari mumkinligini tahlil qilgan [6].

MDH mamlakatlari olimlari ham yashil marketing bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Xususan, rossiyalik Ye.V.Smirnova yashil marketingni kompaniyalar va iste’molchilar o‘rtasidagi munosabatlar nuqtai nazaridan o‘rganib, ekologik jihatdan mas’uliyatli amaliyotlarni rivojlantirish va qo‘llashga qaratilgan tadqiqotlar olib borgan. U o‘z tadqiqotlarida Rossiya bozorida yashil marketingning ahamiyatini va uning rivojlanish tendensiyalarini tadqiq qilgan. Ye.V.Smirnova iste’molchilarning yashil mahsulotlarga bo‘lgan qiziqishini va ularning ekologik jihatdan mas’uliyatli brendlarni tanlashda qanday omillarni hisobga olishlarini tahlil qilgan [7].

MDH tadqiqotchilaridan belaruslik O.A.Dedyulyaning yashil marketingdagi “griwashing” (mijozlarni noto‘g‘ri ekologik ma’lumotlar bilan chalg‘itish) muammosini o‘rgangani alohida ahamiyatga ega. U ushbu tadqiqotida mijozlarni noto‘g‘ri ekologik ma’lumotlar bilan chalg‘itish iste’molchilarning ishonchini yo‘qotishga olib kelishi va haqiqiy ekologik mahsulotlarga zarar yetkazishini ta’kidlagan. O.A.Dedyulya o‘z tadqiqotlarida ekologik yorliqlar (eko-sertifikatlar) muammosini ham tadqiq qilgan. Belarusda bu yorliqlarning ishonchliligi bilan bog‘liq muammolar va bozorda ularni noto‘g‘ri ishlatish holatlari o‘rganilgan. Bu borada haqiqiy eko-sertifikatlarga ega mahsulotlarni aniqlash uchun “EcolabelGuide” dasturi kabi vositalarni tavsiya etgan [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozishda O‘zbekistonda ham yashil sertifikatlash va ekologik markirovkalash amaliyotini joriy etish bo‘yicha huquqiy bazani yaratilishi, yashil sertifikatlar va ekologik markirovkalashning afzalliklari analiz va sintez usullari asosida yoritilgan bo‘lsa, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarining yashil sertifikat va ekologik markirovkalash faoliyatini tahlil qilishda foydalaniladigan mezon va ko‘rsatkichlar umumlashtirish usuli yordamida yoritilgan. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarining yashil sertifikat va ekologik markirovkalash faoliyatiga ta’sir qiluvchi omillarni yoritishda guruhlashtirish, taqqoslash hamda abstrakt-mantiqiy fikrlash, kuzatuv kabi usullardan ham foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. 2020 yil 1 yanvardan boshlab O‘zbekistonda xalqaro standartlar talablariga asoslangan mahsulotlarni ixtiyoriy ekologik markirovkalash tizimi joriy etildi. Mahsulotlarni ekologik markirovkalash akkreditatsiyadan o‘tkazilgan ekologik markirovkalash organlari tomonidan amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish, foydalanish, iste’mol qilish, tashish, saqlash va utilizatsiya qilishda atrof-muhitga, aholi sog‘lig‘iga va biologik resurslarga eng kam zararli ta’sir ko‘rsatadigan mahsulotlar ekologik markirovkalash ob’ekti hisoblanadi.

Yashil sertifikatlar va ekologik markirovkalashni marketing strategiyasida qo‘llash kompaniyalar uchun yangi bozorlarni ochadi. Yashil marketing orqali ekologik mahsulotlarga talabni oshirish va turli ekologik sharoitlarda mahsulotlarni sotish mumkin. Yashil sertifikatlar va ekologik markirovka korxonaning ijtimoiy mas’uliyatini namoyish etishning samarali vositasi bo‘lib, korxona jamoatchilik, xususan ekologik yondashuvga ahamiyat beruvchi tashkilotlar bilan o‘z o‘rnini mustahkamlashi va bu bilan korxonaning uzoq muddatli muvaffaqiyatiga hissa qo‘shadi.

1-jadval

Yashil sertifikatlar va ekologik markirovkalashning afzalliklari

Afzalliklar	Tavsif
Mahsulotning raqobatbardoshligini oshirish	Ekologik toza va barqaror mahsulotlar iste’molchilar tomonidan qadrlanadi.
Iste’molchilarni jalb qilish	Ekologik markirovka iste’molchilarni yangi mahsulotlarni sotib olishga undaydi.
Brendning imijini mustahkamlash	Ekologik mas’uliyatni ta’kidlash orqali kompaniya jamoatchilikka ishonchli bo‘ladi.
Yashil marketing imkoniyatlarini yaratish	Yashil marketing orqali yangi bozor segmentlariga kirish imkoniyati.
Atrof-muhitni himoya qilish	Resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash.

Yashil sertifikatlar va ekologik markirovkalash orqali korxonalar atrof-muhitga ta’sirini kamaytirishi mumkin. Misol uchun, ishlab chiqarish jarayonida energiya sarfini kamaytirish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini ishlatish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash, suv resurslarini tejash kabi faoliyatlar amalga oshiriladi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari uchun yashil sertifikatlar va ekologik markirovkalash faoliyati strategik ahamiyatga ega. Bu nafaqat atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi, balki kompaniyalar uchun yangi bozorlarni ochish va iste’molchilarni jalb qilishning samarali vositasi hisoblanadi. Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarining yashil sertifikat va ekologik markirovkalash faoliyatini tahlil qilishda ma’lum bir mezon va ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. Olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida o‘ziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarining yashil sertifikat va ekologik markirovkalash faoliyatini tahlil qilishda ishlatiladigan mezon va ko‘rsatkichlar to‘plamini ishlab chiqdik (2-jadval).

2-jadval

Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarining yashil sertifikat va ekologik markirovkalash faoliyatini tahlil qilishda foydalaniladigan mezon va ko‘rsatkichlar[1]

Tahlil qilishda foydalaniladigan mezonlar	Ko‘rsatkichlar	Izoh
1. Sertifikat va markirovka turlari	Yashil sertifikatlar (ISO 14001, Organic, Fair Trade, BREEAM, O‘z DSt ISO 14001: 2019 – Ekologik menejment tizimi. Foydalanish bo‘yicha ko‘rsatma va talablar. O‘z DSt ISO 14024: 2016 – Ekologik deklaratsiyalash va yorliqlar. I-tipdagi ekologik tamg‘alash. va boshqalar).	Korxonaning qo‘lga kiritgan ekologik sertifikatlari va ularning bozor talablariga mosligi.
	Ekologik markirovka (Energy Star, Eco-Label, Green Seal va boshqalar).	Mahsulotlar uchun qo‘llaniladigan ekologik markirovkalar.
	Mahsulot turiga mos markirovka (organik, ekologik toza va boshqalar).	Mahsulotning ekologik jihatlari bo‘yicha turli markirovkalar qo‘llanilishi.
2. Ekologik tozalik va barqarorlik	Atrof-muhitni muhofaza qilish siyosati (korxonaning atrof-muhitga ta’sirini kamaytirish rejalari).	Korxonaning ekologik xavfsizlikni ta’minlash uchun amalga oshirgan strategiyalari.
	Resurslardan foydalanish samaradorligi (energiya, suv, xom ashyo).	Resurslarni tejash va ishlab chiqarish jarayonlarini

[1] Muallif ishlanmasi.

		optimallashtirish darajasi.
	Ishlab chiqarish jarayonlarida chiqindilarni kamaytirish (qayta ishlash, zararsizlantirish).	Ishlab chiqarish jarayonidagi chiqindilarni kamaytirish va ularni qayta ishlash darajasi.
3. Mahsulot sifati va sog‘liqni saqlash	Mahsulotlar ekologik xavfsizlikni ta'minlashi (kimyoviy moddalar, pestitsidlar ishlatilmaganligi).	Mahsulotlar tarkibidagi zararli moddalar yoki kimyoviy o‘zgarishlarning yo‘qligi.
	Mahsulotlarning organikligi (organik mahsulotlarning mavjudligi).	Mahsulotlarning organik sertifikatlanganligini ko‘rsatish
	Mahsulotlarning tozalik va xavfsizlikni ta’minlash usullari (qadoqlash, saqlash va transport).	Mahsulotlar xavfsizligini ta’minlashda ekologik usullar va texnologiyalar qo‘llanilishi
4. Marketing va reklama	Yashil marketing strategiyasi (ekologik markirovka va yashil sertifikatlarni reklama qilish).	Yashil marketingning qo‘llanilishi va iste’molchilarga ekologik mahsulotlar haqida ma'lumot berish.
	Mahsulotlar ekologik afzalliklarini ta'kidlash (reklama va PR strategiyalarida ekologik xususiyatlarning ko‘rsatilishi).	Mahsulotlarni reklama qilishda ekologik afzalliklar va yashil sertifikatlar ta’kidlash.
	Iste’molchilarga ekologik toza mahsulotlarni taqdim etish (toza mahsulotlar bilan marketing).	Iste’molchilarga ekologik mahsulotlarni ko‘rsatish va o‘rganish.
5. Ijtimoiy mas’uliyat	Ishlab chiqarish va mahsulotlarni ekologik jihatdan mas'uliyatli boshqarish.	Korxonaning ekologik va ijtimoiy mas'uliyatli yondoshuvi.
	Jamiyat va ekologik barqarorlikka hissa qo‘shish (mahalliy va global ekologik tashabbuslar).	Korxonaning jamiyatga bo‘lgan mas’uliyatini va ekologik tashabbuslarini amalga oshirishi.
	Korxonaning ijtimoiy va ekologik mas'uliyatni targ‘ib qilishdagi faoliyati.	Korxona ekologik mas’uliyatni kompaniya madaniyatining asosiy qismiga aylantiradi.
6. Ekologik faoliyatni baholash	O‘zgarishlar va natijalarni baholash (yashil sertifikat va markirovkalash orqali o‘zgarishlar).	Sertifikatlar va ekologik markirovka orqali olingan natijalar va o‘zgarishlar.
	Ekologik barqarorlikka erishish darajasi (korxonaning uzoq muddatli barqarorlikka qo‘shgan hissasi).	Korxonaning uzoq muddatda ekologik barqarorlikni ta’minlash darajasi.
	Sertifikatlash va markirovkalashni yangilash va monitoring qilish (doimiy monitoring tizimi)	Sertifikatlar va markirovkalarni yangilash, monitoring tizimini o‘rnatish
7. Iste’molchi fikri	Iste’molchilarning ekologik mahsulotlarga bo‘lgan qiziqishi (yashil mahsulotlarga talab)	Iste’molchilarning ekologik mahsulotlar va yashil sertifikatlarga bo‘lgan qiziqish darajasi
	Mahsulotlarning ekologik tozaligini iste’molchilarga qanday tushuntirish (reklama, o‘quv va trening dasturlari).	Iste’molchilarga mahsulotning ekologik tozaligi haqida ta’lim berish.

Xulosa va takliflar. Korxonaning yashil sertifikat va ekologik markirovkalash faoliyatini tahlil qilishda ko‘plab omillar va ko‘rsatkichlar o‘rganiladi. Bu tahlil korxonaning atrof-muhitga ta’sirini, resurslarni qanday boshqarishligini, ekologik barqarorlikni ta’minlashdagi

muvaffaqiyatini, shuningdek, iste’molchilar va bozordagi raqobatbardoshligini o‘rganishga qaratilgan. Yashil sertifikatlar va ekologik markirovkalash korxonalar uchun nafaqat atrof-muhitni himoya qilish, balki raqobatbardoshlikni oshirish va iste'molchilar bilan ishonchli aloqalar o‘rnatish imkonini yaratadi. Korxonaning ekologik faoliyatini tahlil qilishda yuqoridagi ko‘rsatkichlar asosida strategik qarorlar qabul qilish, marketing va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish mumkin. Bu esa bozorga yanada ekologik toza mahsulotlarni taqdim etish va barqaror biznesni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash sanoatida yashil sertifikatlash va ekologik markirovkalash amaliyotini joriy qilish bo‘yicha quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1) Yashil sertifikatlarni joriy qilish uchun mahalliy va xalqaro standartlarga mos keladigan tizimlarni yaratish kerak. Bunda ISO 14001 (Atrof-muhitni boshqarish tizimi) va HACCP (Xavfli nuqtalarda nazorat qilish) kabi xalqaro sertifikatlash tizimlari asosida mahalliy sharoitlarga mos milliy sertifikatlash tizimini yaratish;

2) Davlat tomonidan milliy yashil sertifikatlash tizimini yaratish va mahsulot ishlab chiqaruvchilarga subsidiyalar, imtiyozli kreditlar orqali qo‘llab-quvvatlashi kerak. Bu orqali kichik va o‘rta korxonalar ham tizimga kiritilishi mumkin;

3) Oziq-ovqat ishlab chiqarish korxonalarida energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan (masalan, quyosh panellari, shamol turbinalari) foydalanishni joriy qilish lozim. Bu orqali korxonalar karbon izini kamaytirishi mumkin;

4) Suvni tejash va chiqindilarni qayta ishlash tizimlarini o‘rnatish. Oziq-ovqat sanoatida suvni samarali boshqarish va toza suv resurslaridan foydalanish ekologik muvozanatni saqlashda muhim ahamiyatga ega;

5) Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlashda chiqindilarni kamaytirish va ularni qayta ishlash tizimini yaratish zarur. Masalan, organik chiqindilarni kompostlash, plastik va boshqa chiqindilarni maxsus to‘plovchi kontenerlarga ajratish va qayta ishlashni joriy qilish. Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlashda ularning saqlash muddatini uzaytirish texnologiyalarini joriy qilish va ularni ekologik toza usullar bilan ishlab chiqish zarur. Buning uchun, tabiiy konservantlar, ekologik toza qadoqlash materiallari ishlatilishi mumkin;

6) Iste’molchilarga mahsulotning ekologik tozaligi, ishlab chiqarish jarayonidagi ekologik qoidalar haqida ma’lumot berish. Yashil markirovka va sertifikatlar orqali iste’molchilarni ekologik mahsulotlar haqida xabardor qilish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida mahsulotlarni ixtiyoriy ekologik markirovkalash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 435-son qarori.

2. “O‘zbekiston Respublikasida mahsulotlarni ixtiyoriy ekologik markirovkalash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom.

3. Дедюля О.А. Зеленый маркетинг в устойчивом развитии. Гринвошинг: за и против / О. А. Дедюля. — Текст : непосредственный // Культура и экология – основы устойчивого развития России. Культурные и экологические императивы современной экономики. Часть 1: материалы Международного форума (Екатеринбург, 13–15 апреля 2020 г.). — Екатеринбург: ООО «Издательство УМЦ УПИ», 2020. — С. 226-229.

4. Polonsky M. J., Rosenberger P. J. Reevaluating Green Marketing: A Strategic Approach. Business Horizons. 2001. Vol. 44. № 5. P. 21 – 30.

5. Prakash A. Green marketing, public policy and managerial strategies. Business Strategy and the Environment. 2002. № 11. P. 285 – 297. doi: 10.1002/bse.338.

6. Shrivastava P. Castrated Environment: Greening Organizational Studies. Organization Studies. 1994. Vol. 15. №5. P. 705 – 726. doi: 10.1177/017084069401500504.

7. Е.В.Смирнова. Экологический маркетинг. Практический маркетинг. №4 (158).2010. с. 9-14

Ш.Пулатова

Основные направления внедрения зеленой сертификации и экологической маркировки на предприятиях пищевой переработки

Аннотация: В статье описывается актуальность зеленой сертификации и экологической маркировки на предприятиях пищевой промышленности, создание правовой базы зеленой сертификации и экологической маркировки в Узбекистане. Также описаны преимущества зеленых сертификатов и экологической маркировки, авторские подходы к критериям и показателям, используемым при анализе деятельности зеленых сертификатов и экологической маркировки предприятий пищевой промышленности.

Ключевые слова: зеленый сертификат, экологическая маркировка, стратегия зеленого маркетинга, экологическая продукция, зеленый бренд, экологически чистая и устойчивая продукция, экологическая ответственность.

Sh.Pulatova

Main directions for implementing green certification and ecological labeling in food processing enterprises

Abstract: The article discusses the relevance of green certification and environmental labeling in food processing enterprises, the creation of a legal framework for green certification and environmental labeling in Uzbekistan. It also describes the advantages of green certificates and environmental labeling, and the author's approaches to the criteria and indicators used in analyzing the green certification and environmental labeling activities of food processing enterprises.

Keywords: green certificate, eco-labeling, green marketing strategy, ecological products, green brand, environmentally friendly and sustainable products, environmental responsibility.

Gulzira Ikromali qizi Karimova – FarDU tayanch doktoranti

TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING IQTISODIY SALOHIYATINI “YASHILLASHTIRISH” ORQALI OSHIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada sanoat korxonalarini “yashillashtirish”ning hozirgi vaqtdagi ahamiyati yoritib berilgan. ESG modelining tarkibiy qismlari va tamoyillari tadqiq etilib, ularga amal qilish bo‘yicha yo‘nalishlar keltirib o‘tilgan. Shuningdek, to‘qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini “yashillashtirish” siyosatini olib borish orqali oshirish bo‘yicha amaliy takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy salohiyat, **“**yashillashtirish”, ESG, “yashil” sertifikatlashtirish tizimi, organik mahsulotlar, sirkulyar iqtisodiyot

Kirish. Dunyo hamjamiyati hozirgi vaqtgacha hayot tarzini yaxshilash borasida ko‘plab yutuqlarga erishib kelmoqda. Yildan-yilga yangi sohalar ochilib, ixtirolar qilinmoqda va natijada insoniyat taraqqiyot darajasi yuksalmoqda. Lekin, bu yutuqlar evaziga yer kurrasidagi resurslar miqdori kamayib bormoqda. Zaminimizning jami qatlamlari, ya’ni atmosfera, gidrosfera, litosfera va biosfera qatlamlariga jiddiy shikast yetishi natijasida bioxilma-xillikning qisqarishi, o‘rmonlar hududining kamayishi, suv va havoning ifloslanishi jarayoni yuz bermoqda. Turli omillar ta’sirida, jumladan, sanoat korxonalaridan chiqayotgan zaharli gazlar va moddalar evaziga yer sharini ultrabinafsha nurlaridan himoya qilib turuvchi ozon qatlamida tuynuklarning paydo bo‘lishi tufayli global isish yuz bermoqda. Natijada, muzliklar erib, suv sathi ko‘tarilib, quruqlikni suv boshishi ehtimoli kuchayib bormoqda va aholi orasida turli kasalliklar avj olmoqda.

Hozirgi kunda ushbu omillar ta’sirini yumshatish maqsadida iqtisodiyotni yashillashtirish siyosatining olib borilishi global miqyosdagi maqsadlardan biriga aylanib bormoqda. Iste’molchilar talabida ham o‘zgarish yuz berib, tobora organik mahsulotlarga ehtiyojlari ortib, bio, eko yorliqlariga ega bo‘lgan mahsulotlarning xaridorgirligi ortib bormoqda. Ushbu omillar mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan to‘qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini “yashillashtirish” orqali oshirish va bu orqali xalqaro mehnat taqsimotidagi o‘rnini mustahkamlash masalasining nechog‘lik muhim ekanligidan dalolat beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. —Hozirgi vaqtda yashil iqtisodiyotga o‘tishning ahamiyati, uni amalga oshirish jarayoniga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar, e’tiborga olinishi zarur bo‘lgan jihatlar global miqyosdagi masalalar bo‘lganligi tufayli ko‘plab xorijlik va mamlakatimiz olimlari tomonidan doimiy ravishda o‘rganilib borilmoqda. Jumladan, xorijlik

olimlardan M. Kenne, M. Oliveira, W. Henisz, T. Koller, R. Nuttall, mamlakatimiz olimlaridan A.V. Vaxabov, Sh.X. Xajibakiyev va boshqa olimlar shug‘ullanib kelmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. To‘qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini “yashillashtirish” orqali oshirish bo‘yicha mahalliy va xorij tajribasini o‘rganish jarayonida induksiya va deduksiya, analiz va sintez, mantiqiy yondashuv, statistik kuzatish kabi usullardan foydalanildi.


Tahlil va natijalar. Mamlakatimizda ham ushbu maqsad ustuvor yo‘nalishlardan biri etib belgilandi. Bu borada, mamlakatda “yashil” iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, “yashil” investitsiyalarni jalb qilish, ekologik inqirozning salbiy ta’sirini yumshatish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-sonli qarori bilan 2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi tasdiqlandi [1]. Shuningdek, 2022-yil 2-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-436-sonli “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Ushbu qaror 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi doirasida “yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sishni ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirish maqsadida qabul qilingan [2].

Ustuvor vazifalardan biri sifatida sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish belgilangan bo‘lib, ushbu vazifa sanoat korxonalarini “yashillashtirish” jarayonining nechog‘lik dolzarb masala ekanligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, innovatsion rivojlanish vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Energetika vazirligi hamda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi oldiga, birgalikda har yili 1-dekabrga qadar “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘nalishlarida ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalarning maqsadli dasturlarini Fan va texnologiyalar bo‘yicha respublika kengashiga tasdiqlash uchun kiritib borish va “yashil” iqtisodiyot sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarni olib borish vazifasi qo‘yilgan bo‘lib, ushbu maqolada keltirilgan amaliy takliflar yuqorida keltirilgan qaror ijrosini ta’minlashga ma’lum darajada xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

Sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini tabiatga zarar yetkazmagan holda oshirish uchun, korxonalarning ESG tamoyillariga amal qilish darajasiga alohida e’tibor berishimiz muhimdir. Xalqaro miqyosda ushbu atama keng tarqalib, uning ahamiyati tobora ortib bormoqda. ESG modelini amaliyotda qo‘llash uchun esa avvalo, uning kelib chiqish tarixini, mazmun-mohiyatini tushunib olishimiz zarur. Ekologik muammolar ko‘paygani sari, insoniyat turli sohalarda faoliyat yuritishda nafaqat boshqaruvning to‘g‘ri olib borilishi, balki, ijtimoiy omillarga, korxonalarning tabiatga ta’sir darajasiga ham e’tibor qaratish zarurligini tushunib bordi. ESG ning mazmuni avvaldan shakllanib borgan bo‘lsada, atama sifatida 2004-yilda BMT bosh sekretari Kofi Annan tashabbusi bilan tayyorlangan hisobotda foydalanilgan. U dunyo bo‘ylab turli kompaniyalardan vakillarni taklif qilib, suhbatlar uyushtiradi va ularning fikrlarini umumlashtirib, hisobot ko‘rinishiga keltiradi va faoliyat yuritishda nafaqat foyda ko‘rishga intilish balki, atrof-muhit va ijtimoiy omillarga ham e’tibor berish muhimligini isbotlab beradi. Ya’ni, suhbat jarayonida qatnashgan vakillar hozirgi vaqtda investorlar investitsiya kiritish uchun nafaqat korxonaning moliyaviy barqarorligiga balki, u yerda mavjud korporativ madaniyat, ishchi va xodimlarga yaratilgan mehnat sharoitlari, atrof-muhitga hurmat darajasiga ham e’tibor qaratishlarini ko‘rsatib bergan [3].

ESG qisqartma so‘z bo‘lib, atrof-muhit (E-environment), ijtimoiy (S-social), boshqaruv (G-governance) so‘zlari yig‘indisidir. Uning mazmuni va tarkibiy qismlari quyidagi rasmda o‘z aksini topgan:

1-rasmdan ma’lumki, ESGning har bir yo‘nalishi turli ko‘rsatkichlarni qamrab oladi. Ushbu maqolada asosan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-436-sonli qarori ijrosini ta’minlashda muhim bo‘lgan atrof-muhit (E-environment) qismiga e’tibor qaratamiz.



1-rasm. ESG modelining tarkibiy qismlari va tamoyillari
Manba: Tadqiqotlarni o‘rganish natijasida muallif ishlanmasi

Hozirgi vaqtda investorlar axborot beruvchi manbaa sifatida nafaqat, buxgalteriya hisobotlariga, balki, korxonalarning ESG tamoyillariga amal qilish darajasiga ham e’tibor bermoqdalar. Xorijiy investorlar bilan shartnoma tuzmoqchi bo‘lgan korxonalar oldida uning tamoyillariga amal qilish masalasi turadi. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalariga investorlar oqimini yo‘naltirish uchun eng avvalo, sanoat korxonalarini “yashillashtirish” siyosatiga alohida e’tibor qaratishimiz zarurdir. Hozirgi vaqtda, dunyo miqyosida ushbu yo‘nalishda turli sertifikatlar joriy etilgan bo‘lib, mamlakatimiz sanoat korxonlarida ham “yashil” sertifikatlash tizimiga amal qilib, GOTS (Global Organic Textile standart) yoki OEKO-TEX standartlarini olgan to‘qimachilik sanoati korxonalariga turli imtiyozlarni berish siyosatini olib borishi zarur. GOTS standarti to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlashdagi ip tayyorlashdan tortib sotishgacha bo‘lgan jarayonlarni ekologik va ijtimoiy mezonlar asosida baholaydigan dunyodagi eng yetakchi standartlardan biridir. OEKO-TEX standartiga esa, 1992-yilda asos solingan bo‘lib, hozirgacha 48151 ta korxona ushbu sertifikatga ega hisoblanadi.

ESG ning birinchi tamoyili resurslar barqarorligini ta’minlashdir. Ya’ni, bunda resurslarni qayta tiklanish vaqtini hisobga olgan holda, foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Energiya samaradorligiga erishish uchun esa, jihozlarni bekor turib qolish vaqtini qisqartirish, kam energiya talab qiluvchi jihozlardan foydalanish zarur. Korxonalar energiya tejovchi jihozlarni xarid qilishlari uchun ularga imtiyozli kreditlar ajratilishi maqsadga muvofiqdir.


Isrofgarchilikni kamaytirish, boshqacha aytganda, isrof menejmenti (waste management) xom-ashyo va boshqa manbaalardan oqilona foydalanishni anglatadi. Bunda, ishchilar malakasini oshirish, nuqsonli mahsulot ishlab chiqarilishini oldini olish va logistikaning to‘g‘ri olib borilishiga e’tibor qaratish zarur. Suvni asrash ham hozirgi paytdagi eng muhim masalalardan biridir. ICAC, ya’ni paxta bo‘yicha xalqaro maslahat qo‘mitasi (International Cotton Advisory Committee) ma’lumotlariga ko‘ra, global miqyosda 1 kg lint ishlab chiqarish uchun o‘rtacha 2135 litr suv sarflanadi. O‘zbekistonda esa bu ko‘rsatkich 2872 litrga teng bo‘lib, eng ko‘p suv sarflash darajasi bo‘yicha 9-o‘rinda turadi (dastlabki uchlikni Pokiston, Eron va Misr egallagan) [4]. Ush-

bu sarfni yangi texnologiyalardan foydalanish evaziga kamaytirib, to‘qimachilik sanoati mahsulotlarini doimiy ravishda mahalliy xom-ashyodan ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Havoga chiqarilayotgan zararli gazlar miqdorini kamaytirish hozirgi davrdagi global miqyosdagi maqsadlardan biridir. Global miqyosda to‘qimachilik va kiyim-kechak sanoati har yili 3 milliard tonnagacha karbonand angidridni atmosferaga chiqaradi, bu butun dunyo bo‘ylab issiqxona gazlari chiqindilarining taxminan 10 foizini tashkil qiladi [5]. Bu ko‘rsatkichlar yuqoridagi maqsadni qay darajada muhim ekanligini anglatadi. Umuman olganda, iqtisodiyot tarmoqlarida “yashil” texnologiyalar, xususan, resurs tejovchi, chiqindisiz ishlab chiqarish va chiqindilarni qayta ishlash imkoniyatini beruvchi texnologiyalardan foydalanish, shuningdek, xavfsiz kimyoviy moddalarni qo‘llashga o‘tish, hamda qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyatga egadir.

ESG tamoyillariga amal qilish orqali qay tarzda to‘qimachilik korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirishimiz mumkin degan savol tug‘ilishi tabiiy. Ushbu savolga javobni 2-rasmdan topishimiz mumkin:

Yuqoridagi rasmdan ma’lumki, ESG tamoyillariga amal qilish orqali sanoat korxonalari, jumladan to‘qimachilik korxonalari daromadining ortishi va natijada mamlakatda barqaror iqtisodiy o‘sish yuz berishi mumkin. Ushbu jarayon uzluksiz ravishda takrorlansa, korxona-



2-rasm. ESG tamoyillariga amal qilish orqali barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish
Manba:Muallif ishlanmasi

larning xalqaro bozorda o‘z o‘rniga ega bo‘lish imkoniyati yanada ortadi.

Ma’lumki, mamlakatimiz 2021-yilda Yevropa Ittifoqining GSP+ (Generalized System of Preferences) umumiy preferensiyalar tizimi bo‘yicha benefitsiar mamlakat sifatida qabul qilingan. GSP+ tizimiga qo‘shilish O‘zbekistonga katta imtiyozlar beradi. Ushbu tizim bojxona to‘siqlari, tariflari va boshqa to‘lovlarni kamaytirishni nazarda tutadi va 6200 turdagi mahsulotlarni eksport qilishda bojxona imtiyozlarini taqdim qiladi. Ushbu omil, korxonalarimizning YeI bozoriga kirishiga va o‘z mahsulotini sotishiga imkoniyat yaratib berdi. Ammo, tizimga qo‘shilayotganda mamlakatlar inson va mehnat huquqlariga, atrof-muhit va iqlim muhofazasi va sifatli boshqaruvga oid xalqaro konvensiyalarida ko‘rsatib o‘tilgan qoidalarga amal qilish majburiyatini oladi. Ya’ni, ESG tamoyillariga amal qilmaydigan korxonalar bu imtiyozdan foydalana olmaydi. Bu esa ushbu model tamoyillariga amal qilish nechog‘lik muhim vazifa ekanligini anglatadi.

ESG modeli yuqori darajadagi o‘sishni osonlashtirish xususiyatiga ega bo‘lib, kuchli ESG taklifi va integratsiyasi asosiy manfaatdor tomonlar, iste'molchilar va davlat organlari bilan munosabatlarni mustahkamlash orqali yangi biznes imkoniyatlarini jalb qilish, raqobatbardoshlik muammolarini hal qilish va o‘sishni tezlashtirishga yordam beradi.

McKinsey global instituti tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, iqlim o‘zgarishi, energiya va xom ashyo chiqindilari kabi ekologik muammolarni hal qilish orqali xarajatlarni kamaytirish operatsion daromadga 60% gacha bevosita ta'sir qilishi mumkin ekan. Ushbu korporativ tadqiqotda resurslar samaradorligi va moliyaviy ko‘rsatkichlar o‘rtasida ayniqsa kuchli bog‘liqlik borligini aniqlandi. Tehnologik gigant kompaniyalardan biri bo‘lgan 3M bunga yorqin misoldir. Mazkur korporatsiya 1975-yilda “3Ps” (Pollution prevention pays) dasturini ishlab chiqqan va bu dastur tufayli 2.2 million dollari miqdoridagi xarajatni tejashga erishgan. Ushbu dasturning mohiyati, mahsulotlar dizaynini o‘zgartirish, ishlab chiqarishni yaxshilash, qayta ishlashni yo‘lga qo‘yish va isrofni kamaytirishdan iborat bo‘lgan. Bundan tashqari, iste’molchilar orasida so‘rovnoma o‘tkazilgan bo‘lib, ishtirokchilarning 70% dan ortiqroq qismi “yashil” mahsulotlarni, xuddi shu turdagi boshqa “yashil” bo‘lmagan muqobil tovarga nisbatan 5 % ko‘proq narxda sotib olishga tayyor ekanligini bildirgan. [6].

Shunday qilib, ESG tizimida faoliyat yuritadigan korxonalarning ishlab chiqarayotgan mahsulotlariga va ko‘rsatayotgan xizmatlariga iste’molchilar, odatdagi korxonalarning mahsulotlariga nisbatan farqli ravishda yondashadi. Ya’ni, ular, ushbu mahsulotlarni iste’mol qilish orqali ekologiyani asrash jarayoniga hissa qo‘shayotganligidan mamnunlik hissiga ega bo‘ladi. Ushbu turdagi mahsulotlarga talabning ortishi esa “yashillashtirish” siyosatini olib borish orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga turtki bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, “yashillashtirish” siyosatini amalga oshirish jarayonida quyidagilarga amal qilish orqali sanoat korxonalarining, jumladan to‘qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirishga erishish mumkin:

1. Sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirgan holda, resurslarni qayta ishlash tizimini yo‘lga qo‘yish muhimdir. Bunda, nafaqat resurslarni isrof bo‘lishini oldini olish, balki ishlatilib bo‘lingan mahsulotlardan, jumladan kiyimlardan qaytadan yangi mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatidan foydalanish zarurdir. Shuningdek, organik xom-ashyolardan eko-mahsulotlar ishlab chiqarishga e’tibor berish darkor.

2. Sanoat korxonalariga nisbatan tarmoq xususiyatidan, ishlab chiqarayotgan mahsulotining turi va hajmidan kelib chiqqan holda, atrof-muhitni ifloslantirish darajasiga ko‘ra qat’iy me’yorlar belgilash kerak. Belgilangan me’yordan oshmaganlarga Soliq qo‘mitasi tomonidan turli imtiyozlar berish tizimini joriy etish lozim.

3. Energiya, suv sarfini kamaytirish (oqilona foydalanish) evaziga tannarxni pasaytirish va ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa davr xarajatlarni qisqartirish zarur.

4. Mavjud resurslardan isrofgarchiliklarsiz va tejamkor usullarda foydalanish orqali samaradorlikni oshirishimiz kerak.

5. Korxonalarni yashil iqtisodiyot va yashil sertifikatlash tizimi haqidagi xabardorligini oshirish muhimdir. Ushbu sertifikatga ega bo‘lgan korxonlarga turli imtiyozlar berish orqali, ularning mazkur tizimga moyilligini oshirish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

6. Umuman olganda, sanoat korxonalarining ESG modeliga o‘tish jarayonini tezlashtirishimiz lozim. Ushbu omil kelgusida mamlakat iqtisodiyotini yashillashtirish imkoniyatini oshirishi bilan birgalikda, mana shu tizimda ishlayotgan korxonalarga nisbatan mamlakat tashqarisidan xorijiy investitsiyalarning oqimini ko‘paytiradi. Shuningdek, korxonalarning ESG dan foydalanish darajasining yuqori ekanligi, ularning xalqaro miqyosdagi nufuzini oshiradi.

Ushbu takliflarga amal qilish orqali nafaqat sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini ortishi evaziga iqtisodiy o‘sishga erishamiz, balki, kelajak avlodga zaminimizni yashash uchun yaroqli holatda yetkazib berish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019 yildagi PQ-4477-sonli “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.12.2022 yildagi PQ-436-sonli “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori

3.Kofi Annan. Who Cares Wins. The report of UNO. 2004

4. https://icacdatabook.de.r.appspot.com/DataPortal/ChartsDetails

5. https://planbe.eco/en/blog/

6. Witold Henisz, Tim Koller, and Robin Nuttall. Five ways that ESG creates value. McKinsey Quarterly, November 2019, 12p

7. Miriam Kenne, Michelle Gale De Oliveira. Greening the Global Economy: Reform and Transformation. The Green Economics Institute, 2013. -350 p.

8. Яшил иқтисодиёт : Дарслик. /А.В.Вахабов, Ш.Х.Хажибакиев ва бошқалар.– Тошкент.: “Universitet”, 2020.-262 б.

Г.Каримова

Повышение экономического потенциала предприятий текстильной промышленности путем “озеленения”

Аннотация. В данной статье освещается актуальное значение “озеленения” промышленных предприятий. Были исследованы компоненты и принципы модели ESG, а также приведены инструкции по их применению. Также даны практические предложения по повышению экономического потенциала предприятий текстильной промышленности путем проведения политики “озеленения”.

Ключевые слова: экономический потенциал, “озеленение”, ESG, “зеленая” система сертификации, органические продукты, циркулярная экономика.

G.Karimova

Increasing the economic potential of textile industry enterprises through “greening”

Abstract. This article highlights the actual importance of “greening” industrial enterprises. The components and principles of the ESG model were investigated, as well as instructions for their use. Practical proposals are also given to increase the economic potential of textile industry enterprises through the implementation of a “greening” policy.

Keywords: economic potential, “greening”, ESG, “green” certification system, organic products, circular economy.

ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ВА СЕРВИС

Мурод Мухаммедович Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.,
Зарина Муродовна Мухаммедова – СамИСИ докторанти,
Аллаёр Баротович Шакаров – СамИСИ, доценти, и.ф.н.

ХИЗМАТЛАР СОҲАСИНИ ДАВЛАТ ТОМОНИДАН ТАРТИБГА СОЛИШ ВА ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ – ДАВЛАТ МАКРОИҚТИСОДИЙ СИЁСАТИНИНГ МУҲИМ ЙЎНАЛИШИ СИФАТИДА

Аннотация: мақолада хизматлар соҳаси бозорини ва унинг тармоқлар бўйича таркибий тузилишини давлат томонидан тартибга солишнинг асосий мақсади ҳамда хизматлар соҳасига жалб этилган инвестицион ресурсларнинг тармоқлар бўйича таркибий тузилишини тартибга солиш ва ушбу жараёнларни молиявий қўллаб-қувватлаш сиёсатини амалга ошириш зарурати, аҳамияти ва асосий йўналишлари ёритилган.
Калит сўзлар: хизмат кўрсатиш соҳаси, давлат томонидан тартибга солиш, инвестиция сиёсати, инвестицион фаолият, инвестицион ресурслар, хизматлар соҳаси тармоқлари, эндоген ва экзоген омиллар.

Кириш. Постиндустриал жамиятни шакллантириш шароитида хизматлар соҳасининг мамлакат макроиқтисодий параметрларини шакллантиришдаги ва аҳоли моддий фаровонлигини юксалтиришдаги роли тобора ошиб бормоқда. Шу сабабли, Ўзбекистонда кенг кўламли иқтисодий ислоҳотлар доирасида амалга оширилаётган макроиқтисодий сиёсатда, айнан хизматлар соҳасини жадал ривожлантиришга, унинг мамлакат ЯИМ даги, ҳамда иқтисодиётда банд аҳоли сонидаги улушини Ғарб давлатлари даражасига яқинлаштиришга қаратилган чора-тадбирлар асосий ўринни эгаллайди.

Дунё мамлакатларининг илғор тажрибаси шундан далолат берадики, хизматлар соҳасини жадал ривожлантиришнинг муҳим йўналишларидан бири – бу соҳа тармоқларида шиддат билан кечаётган ижтимоий-иқтисодий жараёнларни давлат томонидан тартибга солиш, замон талабларидан келиб чиққан ҳолда, уларни бошқариш, зарурат пайдо бўлганда, унинг таркибидаги хўжалик субъектларига молиявий ёрдам кўрсатишдан иборат.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Замонавий бозор иқтисодиёти шароитида хизматлар ва уларнинг айрим турларига бўлган талаб ва таклиф ўртасида мувозанатни ўрнатиш муаммоси бозор механизмлари (талаб, таклиф, рақобат ва нарх) ёрдамида ҳал этилади Айни пайтда, ривожланган мамлакатларнинг илғор тажрибаси шундан далолат берадики, хизматлар соҳасининг ривожланишида, соҳада кечаётган ижтимоий-иқтисодий жараёнларни тартибга солиш ва бошқаришда, жадал суръатлар билан ривожлантириш муаммосини ҳал этишда давлатнинг роли беқиёс.

О.Н.Зуева, Ю.С.Долгановаларнинг илмий қарашларида бозор муносабатларининг ривожланиши натижасида хизмат кўрсатиш соҳасини давлат томонидан бошқариш ва қўллаб-қувватлаш тизимининг тамоман ўзгарганлигини, бу туфайли хизматлар соҳасини ривожланишида ижобий натижаларга эришаётганлиги таъкидланган. Давлат амалга ошираётган макроиқтисодий сиёсат доирасида соҳада иқтисодий ўсишни рағбатлантириш, аҳоли бандлигини тартибга солиш, тармоқ ва ҳудудий тузилмада изчил ўзгаришларни рағбатлантириш, хизматлар сифатини ошириш ва бошқа қатор вазифалар ҳал этилмоқда.[1] Айни пайтда, хизматлар соҳасига жалб этилаётган ресурслар, жумладан инвестицион ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш, соҳа тармоқларининг инвестицион ресурсларга бўлган талабларини қондириш, уларнинг тармоқлар кесимида тақсимланишини оптималлаштириш каби муҳим масалаларни ҳал этишда давлатнинг роли, уни такомиллаштириш зарурлиги ва амалга ошириш йўллари тадқиқотчилар эътибо-

[1] Зуева О.Н., Долганова Ю.С. Государственное регулирование сферы услуг // https://Downloads/ gosudarstvennoe-regulirovanie-sfery-uslug.pdf

ридан четда қолиб кетган.

Ш.Э.Азаматов ўзининг илмий мақоласида баён этган фикрларига мувофиқ, бозор иқтисодиёти шароитида иқтисодий ва ижтимоий жараёнларни автоматик тарзда бошқариш имкониятининг йўқлиги иқтисодиётни тартибга солишда давлатнинг бевосита аралашувини тақозо этади. Айниқса, фойданинг ижтимоий адолат нуқтаи назаридан тақсимланишида, фуқароларга меҳнат қилиш ҳуқуқининг кафолатланишида, атроф муҳитни муҳофаза қилинишида ва аҳолининг ҳимояланмаган табақаларини қўллаб-қувватлашда юзага келадиган муаммоларни ҳал этишда давлатнинг роли жуда катта, деган ғояни илгари сурган.[1] Бироқ, тадқиқотчи инвестицион ресурлардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш, уни тармоқлар бўйича тақсимланишида давлатнинг роли масалаларига алоҳида тўхталмаган.

Тадқиқот методологияси. Тадқиқот жараёнида тизимли ёндашув, абстракт-мантиқий таҳлил, омилли таҳлил, индукция ва дедукция усулларидан самарали фойдаланилган.

Таҳлил ва натижалар. Амалга оширилган назарий ва амалий тадқиқотлар натижасида бугунги кунда мамлакатимизда хизмат кўрсатиш соҳасини жадал ривожлантириш муаммоси соҳага жалб этилган инвестицион ресурслар танқислиги билан, унга жалб этилган иқтисодий ресурслардан фойдаланиш самарадорлигининг пастлиги билан боғлиқ эканлигини кўрсатди. Бугунги кунда Ўзбекистонда юзага келган иқтисодий вазият соҳага жалб этилган инвестицион ресурсларни тармоқлар бўйича тақсимотини такомиллаштириш асосида улардан фойдаланишда мавжуд камчиликларни бартараф этишни тақозо этади. Ушбу муҳим ишда мавжуд камчиликларнинг бартараф этилиши инвестицион ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш билан бир қаторда, соҳа зиммасига юклатилган муҳим ижтимоий-иқтисодий вазифаларни бажариш имкониятини ҳам кенгайтиради.

Бизнингча, хизматлар соҳасига жалб этилган инвестицион ресурсларнинг тармоқлар бўйича таркибий тузилишини оптималлаштириш нуқтаи назаридан такомиллаштириш бугунги куннинг долзарб муаммоларидан бирига айланган. Сабаби, соҳага жалб этилган молиявий ресурсларнинг тармоқлар бўйича таркибий тузилиши, яъни уларнинг тармоқлар бўйича тақсимланиши, ялпи инвестицион ресурлардан фойдаланиш самарадорлиги кўрсаткичларига кучли таъсир кўрсатади. Чунки, инвестицион ресурслардан фойдаланиш самарадорлиги тармоқлар кесимида кескин фарқланади. Фикримизнинг далили сифатида қуйидаги жадвални келтирдик (1-жадвал).

Юқорида келтирилган жадвал маълумотлари хизмат кўрсатиш соҳасига жалб этилган ялпи инвестицион ресурслар самарадорлиги кўп жиҳатдан уларнинг тармоқлар бўйича тақсимланишига боғлиқ эканлигини кўрсатади. Масалан, савдо хизматлари соҳасида инвестицион ресурслар рентабеллиги жуда юқори бўлиб, ушбу соҳада ҳар бир сўм инвестицион харажатлар 0,46 сўм миқдорда фойда келтиради. Айни пайтда, у яшаш ва овқатланиш хизматлари соҳасида 0,20 сўмни, жами хизматлар соҳаси бўйича ўртача 0,10 сўмни ташкил қилган. Таҳлил натижалари транспорт хизматлари соҳасида эса инвестицион ресурсларга қилинган харажатлар ҳатто ўзини ҳам оқламаганлигини, аксинча, ушбу соҳада инвестицияларга сарфлар фойда келтириш ўрнига муайян миқдорда зарар келтирганлигини (ҳар бир сўм инвестицияга тўғри келадиган зарар 0,03 сўмни ташкил қилган) кўрсатди.

Агар инвестицион ресурслардан юқори фойда келтирадиган савдо, алоқа ва ахборотлаштириш, ҳамда яшаш ва овқатланиш хизматлари тармоқларига инвестицияларни қанча кўпайтирсак, аксинча, кам фойда келтирадиган тармоқларга уларни қанча камайтирсак, зарар келтирадиган транспорт хизматлари тармоғига умуман инвестиция киритмасак, хизмат кўрсатиш соҳасига жалб этилган инвестицион ресурслар самарадор-

[1] Азаматов Ш.Э. Ҳусусий тадбиркорликка асосланган хизмат кўрсатиш соҳасини давлат томонидан тартибга солиш механизмлари ва ушбу соҳани ривожлантириш йўналишлари. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 5, сентябрь-октябрь, 2016 йил.

1-жадвал

2022 йилда Ўзбекистонда Хизмат кўрсатиш соҳаси инвестицион ресурсларининг тармоқлар бўйича таркибий тузилиши[1]

№	Хизматлар кўрсатиш соҳаси тармоқлари	Тармоқдаги инвестициялар		Фойда		1 сўм нвести-цияга тўғри ке-ладиган фойда, сўмда
		миқдори, млрд. сўм	улуши, % да	миқдори, млрд. сўм	улуши, % да	
1.	Алоқа ва ахборотлаштириш	6 867,8	7,5	3 029,0	32,3	0,44
2.	Молиявий хизматлар	3 240,9	3,6	x	x	x
3.	Транспорт хизматлари	20 598,6	22,6	- 626,7	- 6,7	- 0,03
4.	Яшаш ва овқатла-ниш хизматлари	2 129,2	2,3	435,5	4,7	0,20
5.	Савдо хизматлари	11 589,5	12,7	5 324,2	56,9	0,46
6.	Кўчмас мулк билан боғлиқ хизматлар	5 294,2	5,8	234,8	2,5	0,04
7.	Таълим соҳасидаги хизматлар	7 854,3	8,6	567,1	6,1	0,07
8.	Соғлиқни сақлаш со-ҳасидаги хизматлар	10 798,0	11,9	321,5	3,4	0,03
9.	Ижара хизматлари	608,5	0,7	x	x	x
10.	Компьютер ва маиший товарларни таъмирлаш бўйича хизматлар	498,9	0,5	x	x	x
11.	Шахсий хизматлар	1 599,3	1,8	x	x	x
12.	Меъморчилик, му-ҳандислик ишлари, техник синовлар ва таҳлил соҳасидаги хизматлар	3 775,1	4,1	x	x	x
13.	Санъат, кўнгил очиш ва дам олиш	4 350,4	4,8	x	x	x
14.	Бошқа хизматлар	11 972,6	13,1	71,3	0,8	0,22
	Хизматлар - жами	**91 177,3**	**100,0**	**9 356,7**	**100,0**	**0,10**

лиги шунча юқори бўлади. Демак, хизмат кўрсатиш соҳасига йўналтирилган ялпи инвестицион ресурслар мутлақ миқдорини ўзгартирмаган ҳолда, уларнинг самарадорлигини фақат ялпи инвестицияларни тақсимлаш механизмини ўзгартириш ҳисобидан кескин ошириш имкониятлари мавжуд.

Лекин, бу йўл билан қўлга киритилган самарадорлик мамлакатда давлат томонидан олиб борилаётган ижтимоий сиёсатга тамоман зид бўлиб, жамият манфаатларига мос келмайди. Давлат ўзининг макроиқтисодий сиёсатида соҳага йўналтирилган ялпи инвестицион ресурсларни соҳа тармоқлари бўйича тақсимлаганда, инвестицион ресурсларнинг самарадорлигини эмас, балки тармоқнинг мамлакат ижтимоий-иқтисодий тараққиётида тутган ўрнини, аҳамиятини ва истиқболда уни ривожлантириш заруратини асос қилиб олади. Масалан, зарар билан фаолият юритаётган транспорт хизматлари соҳасига йўналтирилган инвестициялар ҳажми 2022 йилда 20 598,6 млрд. сўмни ташкил

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги маълумотлари асосида муаллифлар томонидан тузилган.

этган. Миқдор жиҳатидан бу мазкур йилда таълим хизматлари тармоғига йўналтирилган инвестициялар ҳажмига (7 854,3 млрд. сўм) нисбатан 2,6 мартага кўп бўлган. Сабаби бунда давлат соҳага йўналтирилган инвестицион ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш нуқтаи назаридан эмас, балки жамият манфаатларидан, яъни миллий иқтисодиёт тармоқлари ва мамлакат аҳолисининг, Ўзбекистонга ташриф буюрган туристларнинг транпорт хизматларига бўлган эҳтиёжларини қондириш заруратидан келиб чиққан ҳолда, ёндашади.

Ҳар қандай давлат ўз иқтисодиётини ташкил этиш ва ҳаракатга келтириш учун, тегишли транспорт тизимини шакллантиради, унинг самарали амал қилишини қаттиқ назорат остига олади. Сўнгги йилларда мамлакатимизда олиб борилаётган ислоҳотлар ва улар доирасида қабул қилинаётган давлат дастурларида ҳам республикамизнинг айнан транспорт соҳасини ривожлантириш, ҳамда мамлакатнинг транзит салоҳиятини ошириш масалаларига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев 2023 йилнинг июнь ойида “Маъмурий ислоҳотлар доирасида транспорт соҳасида давлат бошқарувини самарали ташкил қилиш чора-тадбирлари тўғрисида” махсус Фармон чиқариб, мамлакатда транпорт хизматларини тубдан ислоҳ қилиш вазифасини қўйди.[1] Чунки, транспортнинг фаол иштирокисиз иқтисодиётни барқарор ривожлантириш, ишлаб чиқарилган маҳсулотларни истеъмолчиларга етказиб бериш, иқтисодий ресурсларнинг барқарор ва узлуксиз ҳаракатини таъминлаш каби ўта долзарб муаммоларни ҳал қилиб бўлмайди.

Транспорт хизматларига иқтисодиёт тармоқлари ва аҳоли эҳтиёжларини қондириш муҳимлигини ҳисобга олган ҳолда, фойда ўрнига зарар келтираётган ушбу тармоққа йўналтирилган инвестицион ресурлар ҳажми (20 598,6 млрд. сўм) жуда юқори даромад келтираётган алоқа ва ахборотлаштириш тармоғига йўналтирилган инвестицион ресурслар ҳажмига (6 867,8 млрд. сўм) нисбатан 3,0 марта, савдо билан боғлиқ хизматларга сарфланган инвестицион ресурслар ҳажмига (11 589,5 млрд. сўм) нисбатан эса 1,8 марта кўп. Бу давлатнинг миллий иқтисодиётда мувозанатни ва тармоқлараро мутаносибликни сақлашга қаратилган макроиқтисодий сиёсатининг амалий натижасидир.

Модомики, ҳеч қандай эндоген ва экзоген омилларнинг таъсирисиз, фақат инвестицион ресурсларни тармоқлар ўртасида тақсимланиш нисбатини ўзгартириш асосида ҳам инвестицион ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш, ёки, аксинча, пасайтириш мумкин экан, давлат ушбу инвестицион ресурсларнинг макроиқтисодий, умуммиллий мақсадлардан келиб чиққан ҳолда, оқилона тақсимланишини қаттиқ назорат остига олиши зарур. Шу билан бир қаторда, турли восита ва методларни қўллаш асосида уни тартибга солиши, вазият тақозо этганда, молиявий қўллаб-қувватлаш механизмларини қўллаш асосида, унинг нафақат иқтисодий жиҳатдан, балки ижтимоий жиҳатдан ҳам самарадор бўлишига эришмоғи лозим.

Хизмат кўрсатиш соҳаси миллий иқтисодиётнинг муҳим таркибий қисми сифатида мамлакат ЯИМни ва бошқа макроиқтисодий кўрсаткичларни шакллантиришда, уларнинг ўсиш суръатларини жадаллаштиришда фаол иштирок этади. Соҳа фаолиятини тартибга солишда давлатнинг турли воситалар ёрдамида таъсир кўрсатиши миллий иқтисодиёт барча соҳа ва тармоқлари ўртасида макроиқтисодий мутаносиблик ўрнатиш имконини беради. Бу эса, ўз навбатида, соҳа тармоқларини тез суръатлар билан ва барқарор ривожлантиришнинг муҳим шарти ҳисобланади.

Ўзбекистонда хизматлар соҳасини тартибга солиш борасидаги давлат макроиқтисодий сиёсати амалдаги моделининг таҳлили, ушбу сиёсатнинг соҳани устун ривожлантиришга қаратилганлигини кўрсатди. Кейинги йилларда кетма-кет Президент қарорлари ва фармонларининг қабул қилиниши айнан шундан далолат беради.

Давлат хизматлар соҳасининг инвестицион ресурсларга бўлган эҳтиёжларини қондиришда, унинг тармоқлар бўйича таркибий тузилишини такомиллаштиришда,

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маъмурий ислоҳотлар доирасида транспорт соҳасида давлат бошқарувини самарали ташкил қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-94-сонли Фармони. 2023 йил 14 июнь // https://lex.uz

тармоқлараро самарали, оптимал мутаносибликни ўрнатишда фаол иштирок этади. Айниқса, соҳага жалб этилган иқтисодий ресурслардан, жумладан инвестицион ресурслардан, фойдаланиш самарадорлигини оширишда давлат муҳим роль ўйнайди. Чунки у мамлакатда юзага келган вазиятга мувофиқ ўз ихтиёридаги маъмурий ва иқтисодий дастаклар воситасида инвестицион ресурсларнинг шаклланиши, тақсимланиши ва фойдаланиш жараёнларига кучли таъсир кўрсатиш, уларни тартибга солиш имкониятига эга. Лекин, мавжуд имкониятлардан фойдаланиш самарадорлиги бугунги кун талабларига жавоб бермайди. Бизнингча, давлат хизматлар соҳаси алоҳида тармоқларини устун ривожлантириш, хизмат кўрсатишда минтақалараро табақаланиш даражасини пасайтириш, пуллик ва бепул хизматлар нисбатини оқилоналаштириш каби муҳим муаммоларни ҳал қилишда бюджет маблағлари ҳисобидан хўжалик субъектларини молиявий қўллаб-қувватлаш сиёсатини янада такомиллаштириш керак. Айниқса, бугунги кунда давлат эътиборидан четда қолиб кетаётган хизматларни ишлаб чиқариш ва уларни истеъмол қилишда қишлоқ ва шаҳар ўртасидаги мавжуд кескин тафовутларни қисқартириш масалалари давлат макроиқтисодий сиёсатида марказий ўринлардан бирини эгаллаши мақсадга мувофиқ.

Хизмат кўрсатиш соҳасини жадал ривожлантириш асосида унинг мамлакат ЯИМни шакллантиришдаги ролини ошириш, соҳада яратиладиган ЯИМ ҳажмининг улуши билан ривожланган давлатлар кўрсаткичлари ўртасида мавжуд кескин тафовутларни қисқартириш давлат макроиқтисодий сиёсатини амалга оширишда инвестициялар асосий роль ўйнайди. Шу сабабли, давлат инвестиция фаолиятини тартибга солишда барча ҳуқуқий, маъмурий ва иқтисодий чораларнинг имкониятларини қўшиш асосида, улардан унумли фойдаланишга эришиши лозим, деб ҳисоблаймиз.

Инвестицион ресурслар танқислиги шароитида асосий капиталга харажатларни минималлаштириш ва айни пайтда улардан олинадиган натижаларни максималлаштириш муҳим аҳамият касб этади. Шу сабабли, инвестицион ресурслар самарадорлигини аниқлаш, уларни таҳлил қилиш, мавжуд захира ва имкониятларни баҳолаш зарур.

Бизнингча, давлатнинг макродаражада хизматлар соҳаси корхона ва ташкилотларини молиявий қўллаб-қувватлаш, уларнинг фаолиятини тартибга солиш билан боғлиқ бўлган сарф-харажатларининг самарадорлигини баҳолашда ўзига хос фарқли жиҳатлари бор. Микродаражада хусусий капитал самарадорлигининг асосий мезони – бу корхона фойдасини максималлаштириш, рентабеллик, меҳнат унумдорлиги, фонд қайтими, айланма маблағлар айланиш тезлигини ошириш кабилар ҳисобланади. Бундан фарқли ўлароқ, макродаражада давлатнинг сарф-харажатлари самарадорлигида демографик, сиёсий, ижтимоий омиллар ҳам ўз аксини топмоғи лозим. Шу сабабли, жамият, давлат нуқтаи назаридан соҳага йўналтирилган инвестицион сарф-харажатлардан олинадиган фойда миқдори иккинчи даражали аҳамият касб этади, деган хулосага келдик.

Айниқса, ижтимоий омиллар давлат сарф-харажатларининг самарадорлигини баҳолашда етакчи аҳамиятга эга. Чунки, давлат макроиқтисодий сиёсатининг муҳим функцияларидан бири – аҳолини ижтимоий ҳимоялаш, унинг турмуш даражасини ва сифатини юксалтиришдан иборат.

Замонавий бозор иқтисодиёти шароитида давлат халқ манфаатларининг асосий ҳимоячиси сифатида хизматлар соҳасини жадал суръатлар билан ривожлантиришдан манфаатдор. Мамлакатда хизмат кўрсатиш соҳасининг ривожланганлик даражаси аҳоли фаровонлигини белгилаб берувчи муҳим кўрсаткич ҳисобланади.

Назарий тадқиқотлар натижасида давлат ўзининг хизматлар соҳасида амалга ошираётган макроиқтисодий сиёсати ёрдамида мазкур соҳада кечаётган ижтимоий-иқтисодий жараёнларга икки йўналишда таъсир кўрсатаётганлигини аниқладик. Биринчиси – жамият манфаатларидан келиб чиққан ҳолда, соҳада кечаётган ижтимоий-иқтисодий жараёнларни тартибга солиш ва қўллаб-қувватлаш. Иккинчиси – соҳа ва унинг тармоқларига йўналтирилган инвестициялар ҳажмини кўпайтириш ва улардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш.

Ҳар иккала йўналиш бир мақсадга эришиш учун хизмат қилади. Бу мақсаднинг моҳияти – давлат ҳокимияти органларининг хизматлар бозорининг ҳолати ва ривожланиш суръатларига турли ижтимоий, маъмурий ва бошқа усуллар ёрдамида кучли таъсир кўрсатиш, унинг барқарор ривожланишига кўмаклашиш ва бунинг оқибатида истеъмолчиларнинг барча хизмат турларига бўлган талабларини қондиришга эришишдан иборат.

Тадқиқотлар давлатнинг кейинги йилларда хизматлар соҳасига давлат бюджети ҳисобидан инвестициялар ажратиш борасида кескин ўзгаришлар рўй берганлигини кўрсатди.

Таҳлиллар натижасида мамлакат иқтисодий тараққиётига катта салбий таъсир кўрсатган коронавирус пандемиясининг салбий оқибатларига қарамасдан, давлат томонидан изчил амалга оширилган тизимли чора-тадбирлар хизмат кўрсатиш соҳасига инқирознинг негатив таъсирини минималлаштириш имконини берди, деган хулосага келдик. Чунки, 2023 йилда мамлакатда хизмат кўрсатиш соҳасида ишлаб чиқарилган ЯИМ ҳажми 470 286,5 млрд. сўмни ташкил этди. Бу прогноз кўрсаткичларига нисбатан атиги 2,5 фоизга ёки 11 901,0 млрд. сўмга кам.[1]

Тармоқлар кесимида яратилган ЯИМ ҳажми 2021-2023 йилларга прогноз қилинган мақсадли параметрлар билан амалда эришилган ҳақиқий кўрсаткичлар ўртасида кўп ҳолларда мос келмаганлигини кузатиш мумкин. Фақат айрим ҳолларда амалда эришилган даража прогноз кўрсаткичларидан бир оз паст бўлган. Масалан, савдо хизматлари, меъморчилик, муҳандислик ишлари, техник синовлар ва таҳлил соҳасидаги хизматлар каби тармоқларда ЯИМ ишлаб чиқариш бўйича белгиланган мақсадга эришилган. Айни пайтда, таълим соҳасидаги хизматлар, компьютер ва маиший товарларни таъмирлаш бўйича хизматлар, шахсий хизматлар, бошқа айрим хизмат кўрсатиш тармоқларига нисбатан анча юқори бўлган. Айниқса, яшаш ва овқатланиш хизматлари соҳасида ЯИМ ишлаб чиқаришда катта ижобий натижага эришилган. Ушбу соҳада 2023 йилда 15 829,2 млрд. сўмлик ЯИМ ишлаб чиқариш башорат қилинган эди. Лекин ҳақиқатда ишлаб чиқарилган ЯИМ ҳажми 18 327,3 млрд. сўмни ташкил этди, нисбий кўрсаткичларда ифодалаганда бу 15,8 фоизга тенг.

Бизнингча, яшаш ва овқатланиш хизматлари соҳасида рўй берган ушбу иқтисодий воқелик 2022,[2] айниқса, 2023 йилларда мамлакатимизга кирувчи туристлар сонининг кескин кўпайиши билан изоҳланади.[3] Расмий статистик маълумотларга кўра, Ўзбекистонга ташриф буюрган хорижлик туристлар сони 2022 йилда 2021 йилга нисбатан 2,9 фоизга, 2023 йилда эса 2022 йилга нисбатан 1,3 фоизга ўсган.[4] Бу эса яшаш ва овқатланиш хизматларига талабнинг кескин кўпайишига сабаб бўлган.

Бугунги кунда Ўзбекистон турли объектив ва субъектив омилларнинг кучли таъсири остида, хизмат кўрсатиш соҳасининг мамлакат ижтимоий-иқтисодий тараққиётини жадаллаштиришдаги улкан имкониятларидан, салоҳиятидан фойдалана олмаяпти. 2023 йилда Ўзбекистонда хизмат кўрсатиш соҳасининг ЯИМдаги улуши 43,3 фоизни ташкил этди.[5] Айни пайтда, расмий маълумотларга мувофиқ, ушбу кўрсаткич АҚШда 81,7 фоизни,[6] Японияда 71,4 фоизни, Россияда 54,0 фоизни, Хитойда 52,8 фоизни, қўшни Қозоғистонда 52,6 фоизни ташкил этган.[7]

Таҳлил натижалари давлатнинг макроиқтисодий сиёсати ана шу кескин тафовутларни имкон қадар қисқартиришга қаратилганлигини кўрсатди. Бизнингча, бунинг учун хизмат кўрсатиш соҳасининг ўсиш суръатларини жадаллаштириш, соҳада яратилаётган ЯИМ ҳажмининг мамлакат ЯИМдаги улушини оширишнинг методологик

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Хизматлар соҳасини ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-104-сонли Қарорига 11-илова. 2022 йил 27 январь // https://lex.uz

[2] Ўзбекистонга ташриф буюрган хорижий сайёҳлар сони 3 бараварга ошди // https://sputniknews.uz/

[3] Ўзбекистонга 2023 йилда 7 миллионга яқин турист келди // https://hudud24.uz/

[4] 2021 йилда Ўзбекистонга 1,8 млн. Турист ташриф буюрган // https://uzreport.news/society/2021-yilda-ozbekistonga-1-8-mln-turist-tashrif-buyurgan.

[5] Какая доля сферы услуг в отраслевой структуре ВВП за 2023 год? // https://stat.uz/ru/press

[6] Услуги США 1970-2023 // https://be5.biz/makroekonomika/service/us.html

[7] Доля сферы услуг – Классация стран // https://ru.theglobaleconomy.com/rankings/Share_of_services/

муаммолари ҳал этилиши, белгиланган мақсадга эришишнинг самарали механизмлари ишлаб чиқилиши ва амалиётга жорий этилиши лозим. 2020 йилнинг 16 июнида бўлиб ўтган видеоселектор йиғилишида Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев хизмат кўрсатиш соҳасини тартибга солиш унинг методологияси ва статистикасини ҳалқаро андозаларга келтириш вазифасини қўйди. [1]

Хулоса ва таклифлар. Янги Ўзбекистонда хизмат кўрсатиш соҳасини жадал суръатлар билан ривожлантириш асосида ушбу йўналишда ҳозирги кунда дунёнинг ривожланган мамлакатлари билан мавжуд бўлган кескин тафоввутларни қисқартириш объектив заруратга айланди. Ушбу аснода хизмат кўрсатиш соҳасига жалб этилган инвестицион ресурслар ҳажмини кўпайтириш, улардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш муаммолари долзарб аҳамият касб этади. Тадқиқот натижалари хизматлар соҳасига жалб этилган инвестицион ресурсларни соҳа тармоқлари бўйича тақсимланишида жиддий камчиликлар борлигини кўрсатди. Лекин ушбу муҳим ишда ҳали ишга туширилмаган имкониятлар кўп. Бизнингча, хизматлар соҳасининг тармоқлар бўйича таркибий тузилишини шакллантириш борасидаги давлат макроиқтисодий сиёсатида инвестицион ресурслардан фойдаланиш самарадорлиги кўрсаткичи асосий роль ўйнамоғи лозим. Айни пайтда, микродаражада инвестицион ресурслардан фойдаланиш самарадорлиги иқтисодий омилларни ҳисобга олган ҳолда, макродаражада эса ижтимоий-иқтисодий омилларни ҳисобга олган ҳолда амалга оширилмоғи лозим. Шу сабабли, ушбу мақсадга эришишнинг самарали механизмларини ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий этиш зарур.

М.Мухаммедов, З.Мухаммедова, А.Шакаров **Государственное регулирование и поддержка сферы услуг как важное направление макроэкономической политики государства** **Аннотация:** в статье раскривается цель, значение и основные направления государственного регулирования и поддержки рынка сферы услуг, а также особенности распределения инвестиционных ресурсов по её отраслям с учётом роли той или иной отрасли в макроэкономическом развитии страны. **Ключевые слова:** сфера услуг, государственное регулирование, инвестиционная политика, инвестиционная деятельность, инвестиционные ресурсы, отрасли сферы услуг, эндогенные и экзогенные факторы.	**M.Mukhammedov, Z.Mukhammedova, A.Shakarov** **State regulation and support of the service sector as an important direction of the state macroeconomic policy** **Abstract:** the article reveals the main goal of state regulation of the service sector market and its structure by industry, as well as the need to regulate the structure of investment resources of the service sector by industry and emphasizes the need to implement a policy of financial support for these processes. **Keywords:** service sector, government regulation, investment policy, investment activity, investment resources, service sector networks, endogenous and exogenous factors.

Marifat Umarovna Xudoyberdiyeva – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti assistenti,

SAVDO XIZMATLARINING AHAMIYATI VA RIVOJLANISHI.

Annotatsiya: Maqolada savdo xizmatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, uning keyingi yillardagi muntazam ravishda ko‘payishi sabablari, savdo xizmatidagi kamchiliklar va ularni yo‘qotish yo‘llari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Savdo xizmatlari, savdo shaxobchalari, ayirboshlash, iste’mol, tovarlar, savdo hajmi, rivojlanish sabablari.

Kirish. Savdo xizmatlari ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarini xaridorlarga yetkazish, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonlarining davomiyligini ta’minlashda muhim

[1] Президент Шавкат Мирзиёев раислигида бўлиб ўтган видеоселектор // https://raqobat.gov.uz/uzb/prezident-shavkat-mirziyoev-raisligida-bolib-otgan-videoselektor/

ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarish korxonalarida tayyorlangan minglab turdagi mahsulotlar savdo xizmatlari orqali iste’molchiga tegishli qiymatda almashtiriladi. Natijada ishlab chiqarish korxonalarining mahsulot ishlab chiqarish uchun qilgan xarajatlari qoplanadi va mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarini davom ettirishga imkoniyat yaratiladi.

Ishlab chiqarish korxonalari bir necha turdagi mahsulotlarni ishlab chiqaradi. Har qanday savdo shaxobchasida minglab turdagi aholi iste’moli uchun zarur bo‘lgan tovarlar bo‘lishi lozim. Demak, savdo korxonalari ko‘plab ishlab chiqarish korxonalaridan kerakli tayyor mahsulotlarni sotib olib, tovarlarning savdo assortimentini tashkil etadi. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, ularni saqlash va qayta ishlash hozirda rivojlanib bormoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Savdo xizmatlar sohasining qadimiy turlaridan bo‘lib, savdoning mohiyati va ahamiyati haqida juda ko‘p olimlar ilmiy maqolalar, monografiya va darsliklar yozishgan. Bu borada olimlarimizdan B.A.Abdukarimov, M.K.Pardayev, U.X.Xudoyberdiyev, F.H.Qudratov, N.Tuxliyev, Yu.O‘rinboyeva kabilarni e’tirof etish lozim. Lekin, ilmiy adabiyotlarda savdo xizmatlarining nazariy asoslari, ahamiyati va hozirgi zamondagi rivojlanish omillari yetarlicha yoritilmagan. Ushbu maqola savdo xizmatlarining muhim ahamiyatini va zamonaviy rivojlanish omillarini tahlil qilib beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani yozishda mantiqiy fikrlash, jamlash, guruhlash, taqqoslash kabi iqtisodiy tahlilning usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Savdo xizmatlari tovarlarga bo‘lgan talab va taklif muvozanatini saqlashga yordam beradi. Savdo xizmatlari orqali talab yuqori bo‘lgan tovarlar tezroq sotiladi va bu jarayon bunday tovarlarni ko‘proq ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi. Aksincha talabi kam, sifatsiz tovarlar savdo shaxobchalarida sotilmay qoladi. Bunday tovarlarni ishlab chiqarish kamayadi yoki umuman to‘xtatiladi. Talabga javob bermaydigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar bankrot bo‘lib qoladi. Savdo xizmatlari pul muomalasini tartibga solishda ishtirok etadi.Aholi pul daromadlarini savdo shaxobchalari savdo pullarini banklarga topshiradilar va pul muomalasida ma’lum darajada ishtirok etadilar. Tovarlar savdo shaxobchalarida qancha tez aylansa, tovarlarni sotib olish uchun pul massasi shunchalik kamroq kerak bo‘ladi. Keyingi yillarda tovarlarni naqd pulsiz, pul kartalari orqali sotish yo‘lga qo‘yildi, Bu ijobiy usul bo‘lib, muomaladagi naqd pul massasini kamaytiradi. Lekin, ayrim kichik savdo shaxobchalari faoliyatini yashirin (statistika bo‘limida ro‘yxatdan o‘tmasdan) olib boradilar. Ular savdo pullarini banklarga topshirmasdan , ularni yana tovar sotib olishga sarflaydilar. Natijada muomalada pul massasining ko‘proq bo‘lishiga olib kelib, naqd pul aylanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadilar.

Savdo shaxobchalarida changyutgich, muzlatgich, kir yuvish mashinasi kabi maishiy tovarlar ham sotiladi. Bunday tovarlar oila a’zolarining, ayniqsa ayollarning ishini yengillashtiradi, bo‘sh vaqtlarini ko‘paytiradi. Natijada bunday xonadon a’zolari jamoat ishlarida faol qatnashishga, kitob va OAVni o‘qishga vaqt topadi. Kitob insonning mehribon va xiyonat qilmaydigan do‘sti. Insonlar o‘zlarini qiziqtirgan, kerakli kitoblarni kitob do‘konlaridan sotib olishi va har bir xonadonda kitoblar javoni bo‘lishi lozim. Chekka qishloq joylarda ham kitob savdo xizmatlarini rivojlantirish, insonlarni sifatli kitoblar bilan ta’minlash lozim. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdo xizmatlarini yaxshilash, kengaytirish aholi turmush darajasini oshishiga olib keladi, ya’ni iste’mol darajasi oshadi. Bu esa o‘z navbatida savdo xizmatlarini yaxshilanishi, davomiyligi, insonlarga qulayliklar yaratilishiga olib keladi. Hozirgi kunda qishloq xo‘jaligi mahsulot (meva, sabzavot) larini yetishtirish, ularni saqlash rivojlanib bormoqda.

O ‘zbekiston savdo xizmatlarining hajmi.

mlrd. so‘m

	Yillar				
Ko‘rsatkichlar	**2010**	**2015**	**2020**	**2021**	**2022**
Savdo hajmi	**6620,8**	**21336,9**	**57572,7**	**72483,2**	**89816,2**

Aholi soni ko‘payib , daromadlari yildan-yilga oshib borayotganligi sababli, savdo xizmatlarining hajmi ko‘payib bormoqda. Savdo xizmatlarining ko‘payishi insonlarga ko‘plab sharoitlarning yaxshilanishiga olib keladi. Supermarket va do‘konlarda kerakli bo‘lgan mahsulotni xohlagan faslda topish va iste‘mol qilish mumkin.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mamlakatda savdo xizmatlarining hajmi yildan- yilga muntazam ravishda yuqori sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Keyingi 10 yillikda savdo xizmatlari 13 baravardan ko‘proqga ko‘paygan. Agarda savdo xizmatlari hajmi 2010 yilda 6620,8 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022 yilga kelib uning hajmi- 89816,2 mrd. so‘mga yetgan. Savdo xizmatlarining yuqori sur’atlar bilan ko‘payishiga sabablar ko‘p bo‘lib, ularning asosiylari quyidagilardir.

Birinchidan, aholi daromadlarining ushbu yillarda muntazam ravishda ko‘payib borishi. Aholining jon boshiga umumiy daromadlari 2015 yilda-3928,8ming so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2022 yilga kelib 17800,0 so‘mdan ko‘proq bo‘lib, 5 baravarga ko‘paygan.

Ikkinchidan, savdo shaxobchalarining aholi iste’moli uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlarining hajm jihatidan ham, assortimenti bo‘yicha ham ko‘payishi.

Uchinchidan, aholi soni va aholi yashaydigan manzillar soni ko‘payganligi ham ta’sir qilgan. 2010 yil oxiriga mamlakat aholisi- 28,5 mln. kishi bo‘lsa, 2022yil oxiriga- 36,0 mln. kishiga yetgan ya’ni- 126,3%ga ko‘paygan.

To‘rtinchidan, savdo xizmatlari hajmining ko‘payishiga inflyatsiya ham ma’lum darajada ta’sir qilgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilganda, mamlakatda savdo xizmatlarining hajmi muntazam ravishda yuqori sur’atlar bilan o‘sish tendensiyasiga ega. Bu aholi daromadlarining ko‘payib borayotganligi va turmush faravonligi yaxshilanib borayotganligidan dalolat beradi. Shu bilan bir vaqtda savdo xizmatlarida kamchiliklar va muammolar mavjudligi aniqlandi:

- savdo shaxobchalarida muddati o‘tgan va ayrim sifatsiz tovarlarning mavjudligi. Bu borada OAV xabarlar berilib turibdi ;

- ayrim savdo shaxobchalari juda kichkina joylarda (ayrimlari yashaydigan uylarning bir xonasida) bo‘lganligi sababli tovarlarni saqlash qoidasiga rioya qilmasdan yonma-yon saqlash mumkin bo‘lmagan tovarlarni ham bir joyda saqlanayotganligi;

- chekka qishloqlarda tovarlarni yirik do‘konlardan (supermarket yoki ulgurji- chakana sotuvchi) naqd pulga sotib olib , ustama qo‘yib sotish holatlari mavjud. Bunday do‘konlarni kerakli tovarlar bilan ta’minlaydigan (naqd pulsiz) uyushmalar tashkil qilish zarurati bor. Hozirgi aloqa mavjudligida buyurtma asosida tovarlar kichik do‘konlarga yetkazib beriladi.

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan turli xil tabiiy sharbatlarni tayyorlab, ularni havo haroratida va yaxlatilgan (muz solingan) holda insonlarga savdo xizmatlarini ko‘rsatishni tashkil qilish zarur. Meva va sabzavotlardan tayyorlangan tabiiy sharbatlar inson salomatligiga foydali va hamyonbop bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2021 yil 11 maydagi “ Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2022 yil 27 yanvardagi “ Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori.
3. Pardayev M.K. va boshqalar. Savdo iqtisodiyoti muammolari. O‘quv qo‘llanma T.: “Iqtisod-moliya” 2016yil, 504b.
4. Xudayberdiyev U.X, Xoliqulov A.N. Xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlanishi va muammolari. Monografiya. Samarqand , Sam ISI bosmaxonasi, 2020 yil. 124 bet.
5. www. stat.uz.

М.Худойбердиева

Значение и развитие торговых услуг

Аннотация: В статье описаны социально-экономическая значимость торговых услуг, причины их регулярного увеличения в последние годы, недостатки торгового обслуживания и пути их устранения.

Клучевые слова: торговые услуги, отрасли торговли, обмен, потребление, товары, объем торговли, причины развития.

M.Khudoyberdieva

Significance and development of trade services

Abstract: The socio-economic importance of trade services, reasons for their regular increase in recent years, shortcomings in trade services and ways to eliminate them are described in the article.

Keywords: trade services, trade branches, exchange, consumption, goods, trade volume, reasons for development.

Nodirjon Begaliyevich Ravshanov – Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

TA‘LIM XIZMATLARI BOZORIDA OLIY TA‘LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI TA‘MINLASH

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta‘lim muassasalarining ta‘lim xizmatlari bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish, ta‘lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshligini ta‘minlovchi resurslardan samarali foydalanish, ta‘lim xizmatlari bozorida potensial raqobatchilarni baholash, oliy ta‘lim muassasalarida raqobatbardoshlik ko‘rinishlari tasnifi tadqiqi qilingan.
Kalit so‘zlar: oliy ta‘lim muassasalari raqobatbardoshligi, ta‘lim xizmatlari bozori, raqobat ustunligi, oliy ta‘lim muassasalari salohiyati, ilmiy-tadqiqot salohiyati, innovatsion salohiyat

Kirish. Ta‘lim xizmatlari bozori har bir davlatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijda va mamlakatimizda oliy ta‘lim muassasalarining raqobatbardoshligini ta‘minlash bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Bu boradagi chora-tadbirlar, islohotlar va yangiliklar global miqyosda katta e‘tiborni talab qilmoqda.

Xorijiy mamlakatlarda oliy ta‘lim muassasalarining raqobatbardoshligini ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli tadbirlar va strategiyalar amalga oshirilmoqda. Bu borada AQSh, Buyuk Britaniya va Germaniya kabi davlatlar oliy ta‘lim muassasalarini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, ilmiy-tadqiqot markazlarini rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash orqali o‘z raqobatbardoshligini oshirmoqda. Ushbu davlatlar ta‘lim tizimiga katta investitsiyalar yo‘naltirib, talabalarga yuqori sifatli ta‘lim berishadi. Bu esa ularning global reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallashiga yordam beradi. Shuningdek, xorijiy universitetlar innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish va sanoat bilan yaqin hamkorlik qilish orqali ta‘lim sifatini oshirmoqda.

O‘zbekistonda oliy ta‘lim muassasalarining raqobatbardoshligini ta‘minlash maqsadida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta‘lim sohasiga katta e‘tibor qaratib, zamonaviy o‘quv dasturlarini joriy etish, ilmiy-tadqiqot faoliyatlarini rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Oliy ta‘lim muassasalarida raqobatbardoshlikni oshirish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, professor-o‘qituvchilar malakasini oshirish va talabalarga innovatsion o‘qitish metodlarini qo‘llash orqali amalga oshirilmoqda. Shuningdek, mamlakatimizda oliy ta‘lim muassasalarini xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallashiga yordam beradigan strategiyalar ishlab chiqilmoqda.

Ta‘lim xizmatlari bozorida oliy ta‘lim muassasalarining raqobatbardoshligini ta‘minlashning dolzarbligi bir qator omillarga asoslanadi:

Global raqobat: Dunyo bo‘ylab davlatlar o‘rtasidagi raqobat kuchayishi va yuqori malakali ishchi kuchi talablarini oshiradi. Bu esa oliy ta‘lim muassasalarining sifati va raqobatbardoshligini oshirish zaruratini tug‘diradi.

Texnologik rivojlanish: Innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni tezkor qabul qilish va joriy etish uchun malakali kadrlar zarur. Oliy ta‘lim muassasalari bu jarayonning muhim ishtirokchisi bo‘lib, raqobatbardoshlikni ta‘minlashda katta rol o‘ynaydi.

Iqtisodiy barqarorlik: Barqaror iqtisodiyot uchun har bir insonning bilim va ko‘nikmalaridan maksimal darajada foydalanish lozim. Bu esa ta‘lim tizimi va oliy ta‘lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish zaruratini belgilaydi.

Sog‘liqni saqlash: Aholining umumiy sog‘lig‘i va salomatligi, yuqori malakali ishchi kuchini ta‘minlash uchun muhim omil hisoblanadi.

Kasbiy tayyorgarlik: Ishchi kuchining kasbiy tayyorgarlik va yangi ko‘nikmalarni o‘zlashtirish qobiliyati oliy ta‘lim muassasalarining raqobatbardoshligini belgilaydi.

Ta‘lim xizmatlari bozorida oliy ta‘lim muassasalarining raqobatbardoshligini ta‘minlashning dolzarbligi va muhimligi shubhasizdir. Bu jarayon mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini tezlashtirishda, xalqaro maydonda mamlakat imidjini oshirishda va innovatsion salohiyatni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O‘rganilayotgan muammoga bag‘ishlangan ilmiy ishlarda Q.X.Abdurahmonovning fikricha, “raqobat – har qanday bozor mexanizmini tashkil

etuvchi ajralmas qismi bo‘lib, u ko‘p miqdordagi erkin xaridorlar va ish kuchini sotuvchilarning mavjudligi, hamda ular uchun mehnat bozoriga erkin kirishi va uni tark etish imkoniyatini anglatadi” [1].

Sh.Sh.Shodmonov va U.V.G‘ofurov ta’rifiga ko‘ra, “raqobat – bozor cube’ktlari iqtisodiy manfaatlarining to‘qnashuvidan iborat bo‘lib, ular o‘rtasidagi yuqori foyda va ko‘proq naflilikka ega bo‘lish uchun kurashni anglatadi”[2]. Shunday qilib, raqobat ko‘p qirrali iqtisodiy hodisa bo‘lib, u bozorning barcha subyektlari o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalaydi.

A.A.Chensovaning[3] nuqtayi nazari alohida e’tiborga ega, ya’ni “ta’lim mahsuloti” ilmiy-pedagogik mehnat natijasi sifatida aniqlanadi, bu o‘z navbatida turli xil ilmiy mehnat hisoblanadi. “Ta’lim xizmatlari o‘z navbatida turli xil ilmiy mehnat hisoblanib, ilmiy pedagogik mehnat jarayonida yaratiladi. Ilmiy mehnat natijasi ilmiy mahsulot hisoblanadi. Ilmiy-pedagogik mehnat natijasi ta’lim mehnati hisoblanadi – bu intellektual mahsulot qismi ta’lim xizmatining muvofiq segmentiga moslashgan”. Mazkur holatda, ta’lim mahsuloti ta’lim xizmatlari bozorining muvofiq segmentiga moslashgan intellektual mahsulotning (ilmiy va muhandislik mahsulotlari bilan bir qatorda) bir qismi hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Oliy ta‘lim muassasalarining raqobatbar-doshligini oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy-nazariy qarashlar, ularning tijorat samaradorligi, oliy ta‘lim muassasalari salohiyati, oliy ta‘lim muassasalarida raqobatbardoshlik ko‘rinishlari tasnifini yoritishda tizimli tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Ta’lim muassasalari faoliyatining tabiati va ta’lim xizmatlarining yuqori ijtimoiy ahamiyati OTMlarining raqobatbardoshligini faqat tijorat samaradorligi ko‘rsatkichi sifatida ko‘rib chiqishga imkon bermaydi. Bunday yondashuv ta’lim jarayonini zaiflashtiradi, uni foydani maksimallashtirish vazifasini bajarishga undaydi, bu esa ijtimoiy samaradorlik mezonining mazmunini inkor etishga olib keladi.

OTMlarining raqobatbardoshligi ushbu sohadagi boshqalari singari, maqsadga muvofiq quyidagilarga e’tibor qaratish lozimligini bildiradi: birinchidan, ijtimoiy (ijtimoiy samaradorlik) nuqtayi nazardan; ikkinchidan, ular faoliyatining integral tavsifi sifatida[4].

OTMlarining ta’lim xizmatlari bozoridagi raqobatbardoshligi o‘zida ular faoliyatining sifat tavsifini namoyon etib, bunda ta’lim jarayonining turli ishtirokchilari o‘ziga xos manfaatlarga va muvofiq ravishda uning samaradorligi mezonlariga egadir[5].

Natijada, ularning o‘ziga xos talablarini hisobga olish mualliflik yondashuvini shakllantirish imkonini beradi, ya’ni ta’lim xizmatlari bozorida uning ishtirokchilarining o‘zaro munosabati jarayonida raqobat ustunligini ta’minlovchi resurs salohiyatining integratsiyasi sifatida OTMlar raqobatbardoshligini ko‘rib chiqishdan iborat.

Mazkur yondashuv raqobatbardoshlikning integral xususiyatini aks ettiradi, uning kelib chiqish manbai – ta’lim muassasasining salohiyati va uni shakllantirishning asosi – ta’lim xizmatlari bozori ishtirokchilari o‘rtasidagi samarali hamkorlik hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar asosida, biz, oliy ta’lim xizmatlarining ichki va tashqi ta’lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshligini ta’minlovchi resurslardan samarali foydalanish vositasi sifatida o‘quv yurtlari salohiyatini aniqladik.

Oliy ta’lim muassasalari salohiyati ko‘rinishlari quyidagi shaklda aniqlanadi:

1. Ta’lim salohiyati – xalqaro darajasida ta’lim faoliyatini amalga oshiruvchi universitet salohiyati.

2. Ilmiy-tadqiqot salohiyati – universitetning xalqaro darajasidagi ilmiy-tadqiqot faoliya-tini amalga oshirish va tanlangan ilmiy bilim yo‘nalishlari bo‘yicha yetakchilikni saqlab qolish qobiliyati.

3. Innovatsion salohiyat – o‘quv va ilmiy faoliyat sintezi natijasida, noyob bilimlarni

[1] Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. T.: “Mehnat” – 2009, 145-bet.
[2] Shodmonov Sh.Sh., G‘ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2010, 220-bet.
[3] Chensov A.G. Elementы konechno-additivnoy teorii meгы. II. UGTU-UPI, Yekaterinburg, 2010. – 215 s.
[4] https://www.dissercat.com/content/formirovanie-mekhanizma-povysheniya-konkurentosposobnosti-organizatsii-vysshego-obrazovaniya
[5] https://www.dissercat.com/content/formirovanie-mekhanizma-povysheniya-konkurentosposobnosti-organizatsii-vysshego-obrazovaniya

taqdim etuvchi universitet qobiliyati.

4. Marketing salohiyati – universitetning ta’lim xizmatlarining raqobatbardoshligini ta’minlash va marketing aralashmasi orqali o‘z bozor ulushini saqlab qolish (kengaytirish) qobiliyati;


5. Xalqaro salohiyat – universitetning oliy ta’lim muassasalarining xalqaro reytinglarda raqobatchilar bilan solishtirganda qulay o‘rinni egallash qobiliyati.

6. Investitsiya salohiyati – universitetning mamlakat va mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun ilmiy, ta’lim va texnologik bazani shakllantirish qobiliyati.

7. Boshqaruv salohiyati – oliy ta’lim muassasasining maqsad va vazifalarining bajarilishini ta’minlovchi boshqarish tizimi qobiliyati.

8. Tijorat salohiyati – universitet faoliyatining tijorat samaradorligini ta’minlash qobiliyati;

9. Moliyaviy salohiyat – universitetning moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash qobiliyati.



1-rasm. Ta’lim xizmatlari bozorida potensial raqobatchilarni baholash[1]

Ta’lim xizmatlari bozorida potensial raqobatchilarni baholash, ta’lim xizmatlari bozorida talab va taklif o‘rtasidagi nisbatni aniqlash, oliy ta’lim tizimida potensial raqobatchilarni aniqlash, tayanch raqobatchilar to‘g‘risida ma’lumotlarga ega bo‘lish, hamda ularning salohiyatini baholash bosqichlaridan iborat bo‘ladi (1-rasm).

OTM raqobatbardoshligi uning imkoniyatlarini integratsiyalashuvi natijasi sifatida ta’lim xizmatlari raqobatbardoshligi va OTMning raqobatbardoshligi tushunchalari bir-biridan farq qiladi. Bizning fikrimizcha, **ta’lim xizmatlari raqobatbardoshligi** – bu ta’lim salohiyatini ro‘yobga chiqarish natijasi bo‘lib, ta’lim muassasasining har bir salohiyat turi raqobatbardoshlikning tegishli turining manbai bo‘lib xizmat qiladi va raqobatdosh ustunliklarni shakllantiradi. Shu bilan birga, OTM salohiyatining har qanday o‘ziga xos turini, shuningdek, uning bir nechta yoki barcha turlarini amalga oshirish orqali sezilarli raqobatdosh ustunliklarga ega bo‘lishi mumkin.

Biz, OTMlar faoliyat yuritishining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, raqobatbardoshlik kategoriyasining mualliflik ta’rifini ishlab chiqdik: **OTMlar raqobatbardoshligi** – oliy ta’lim xizmatlari bozori cubyektlari iqtisodiy manfaatlarining to‘qnashuvidan iborat bo‘lib, o‘zining mavqiyeni oshirishga yo‘naltirilgan muayyan salohiyat turi orqali namoyon bo‘ladigan, yuqori ijtimoiy samaraga erishish va ko‘proq naflilikka ega bo‘lish

[1] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

uchun kurashni anglatuvchi ko‘p qirrali iqtisodiy kategoriyadir. U ta’lim xizmatlari bozori subyektlari o‘rtasidagi yuzaga keladigan murakkab munosabatlarni ifodalaydi.

Raqobatbardoshlik turlarini tasniflashda kompleks va tizimli yondashuvni amalga oshirish zarurdir. Shuning uchun, biz, turli xil xususiyatlariga qarab, raqobatbardoshlik turlarini tasniflashni taklif qilamiz (1-jadval).

1-jadval

OTMlarida raqobatbardoshlik ko‘rinishlari tasnifi[1]

Tasnifiy belgilari	Raqobatbardoshlik ko‘rinishlari
Ierarxik darajasiga ko‘ra	Xalqaro, mintaqaviy, hududiy, mahalliy.
Faoliyat sohasiga ko‘ra	Ta’lim, sog‘liqni saqlash, sanoat, qurilish, qishloq xo‘jaligi, energetika, savdo va b.
Tashkiliy faoliyat ko‘rinishlariga ko‘ra	Ta’lim, ilmiy-tadqiqot, marketing, investitsion, tijorat, moliya, boshqaruv, innovatsion va boshqalar.
Bozorga ta’sir etish tavsifiga ko‘ra	Yuqori (qulay), past (noqulay).
Hayotiylik davridagi bosqichlariga ko‘ra	Yangi mahsulot, “yetilgan” mahsulot, “eskirgan” mahsulot.
Tashkilot salohiyatidan foydalanishiga ko‘ra	Real raqobatbardoshlik, potensial raqobatbardoshlik.
Ishlab chiqarish omillariga ko‘ra	Mehnat (ishchi-xodim), kapital, yer (joylashgan o‘rni).
Boshqarish obyektiga ko‘ra	Butun universitet, ishlab chiqarish bo‘limlari (institut, fakultet, kafedra, personal).
Vaqt omiliga ko‘ra	Dinamik raqobatbardoshlik, statik raqobatbardoshlik.
O‘sib borish darajasiga ko‘ra	Dastlabki, multiplikativ, sinergitek va b.
OTM salohiyatini realizatsiya qilish ko‘rinishiga ko‘ra	Ta’lim faoliyati, ilmiy-tadqiqot faoliyati, innovatsion faoliyat, marketing faoliyati, xalqaro faoliyat, investitsion faoliyat, boshqaruv faoliyati, tijorat faoliyati, moliyaviy faoliyat.

Raqobatbardoshlik turlari uning tasnifiy belgilari va raqobatbardoshlik ko‘rinishlari asosida shakllanadi. Ta’lim muassasasining raqobatbardoshlik turini uning faoliyatini o‘ziga xos xususiyatlari va natijalariga qarab aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, oliy ta’lim muassasasining raqobatbardoshligini iyerarxiya darajasiga ko‘ra, xalqaro (agar tashkilotning tegishli xalqaro reytingdagi o‘rni bunday xulosaga kelishga imkon bersa), mintaqaviy (agar muassasa o‘z mamlakatining ta’lim xizmatlari bozorida o‘ringa ega bo‘lsa) hududiy (agar hududda raqobatbardosh o‘rinlar tahlil qilinsa) va shunga mos ravishda mahalliy (agar aniq ta’lim dasturlarining raqobatbardoshligi baholansa) turlarga ajratiladi.

Faoliyat sohasiga qarab: ta’lim muassasalariga nisbatan ta’lim sohasidagi raqobatbardoshlik kategoriyasi qo‘llaniladi.

Faoliyat turlari bo‘yicha ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligini aniqlash ishlab chiqarish faoliyati ta’lim va tadqiqot sifatida talqin qilinishining o‘ziga xosligi bilan uning barcha turlari bo‘yicha darajasini baholashni o‘z ichiga oladi.

Hayotiylik davrining bosqichi va salohiyatdan foydalanishga bog‘liq holda, o‘zaro ta’sir etish tavsifi bo‘yicha raqobatbardoshlik turi tadqiqot obyektiga nisbatan ta’lim muassasasi faoliyatining aniq natijalari bo‘yicha aniqlanadi.

Sotish va sotish obyekti bo‘yicha raqobatbardoshlikni tasniflash ham “raqobatbardoshlik xizmati”, ham sotish obyekti sifatida oliy ta’lim muassasalariga nisbatan aniqlash imkonini beradi, chunki ushbu holatda barcha o‘ziga xos xususiyatlarga ega ta’lim xizmatlari namoyon bo‘ladi.

[1] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ta’lim muassasalarining faoliyati ishlab chiqarishning barcha omillaridan foydalanishni nazarda tutadi. Shuning uchun mehnatning raqobatbardoshligini maqsadga muvofiq aniqlash uning yetakchi ilmiy va pedagogik kadrlarni samarali jalb qilish qobiliyati, moliyaviy resurslarni samarali jalb qilish bo‘yicha kapital raqobatbardoshligi hamda OTMning joylashgan o‘rnini o‘z ichiga oladi.

Vaqt omiliga qarab, ta’lim tashkilotining raqobatbardoshligi dinamik bo‘lib, o‘sish darajasi bo‘yicha tasniflash uni sinergik deb aniqlashga imkon beradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida ta’kidlash kerakki, raqobat va OTMlarining raqobatbardoshligi tushunchasini aniqlashning mavjud yondashuvlarini ko‘rib chiqish tadqiqotning aniq obyektiga qarab turli mezonlardan foydalanish bo‘yicha keng muhokamalar mavjudligini ko‘rsatadi.

Ta’lim xizmatlari bozorida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini ta’minlash uchun quyidagilarga alohida e’tibor qaratish kerak:

- zamonaviy o‘quv dasturlari, texnologiyalar va innovatsion o‘qitish usullarini joriy etish orqali ta’lim sifatini oshirish lozim;
- ilmiy izlanishlar va tadqiqot markazlarini rivojlantirish, ilmiy loyihalarni moliyalashtirish va qo‘llab-quvvatlash talab etiladi;
- xalqaro universitetlar bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, almashinuv dasturlari va qo‘shma ilmiy loyihalarni kengaytirish kerak;
- oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining malakasini oshirish, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishlariga imkon yaratish;
- oliy ta’lim muassasalarining texnologik infratuzilmasini yangilash va zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlash lozim;
- mahalliy kompaniyalar va sanoat bilan hamkorlikni rivojlantirish, talabalarga amaliyot va ish topish imkoniyatlarini oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. T.: “Mehnat” – 2009, 145-bet.
2. Shodmonov Sh.Sh., G‘ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2010, 220-bet.
3. Chensov A.G. Elementы konechno-additivnoy teorii mery. II. UGTU-UPI, Yekaterinburg, 2010. – 215 s.
4. https://www.dissercat.com/content/formirovanie-mekhanizma-povysheniya-konkurentosposobnosti-organizatsii-vysshego-obrazovaniya

Н.Равшанов

Обеспечение конкурентоспособности ВУЗов на рынке образовательных услуг

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы повышения конкурентоспособности высших учебных заведений на рынке образовательных услуг, эффективное использование ресурсов, обеспечивающих их конкурентоспособность на рынке образовательных услуг, оценка потенциальных конкурентов на рынке образовательных услуг, классификация проявления конкурентоспособности в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: конкурентоспособность высших учебных заведений, рынок образовательных услуг, конкурентное преимущество, потенциал высших учебных заведений, научно-исследовательский потенциал, инновационный потенциал.

N.Ravshanov

Ensuring the competitiveness of higher education institutions in the educational services market

Abstract: This article examines the improvement of the competitiveness of higher educational institutions in the market of educational services, the effective use of resources that ensure their competitiveness in the market of educational services, the assessment of potential competitors in the market of educational services, the classification of the manifestations of competitiveness in higher educational institutions.

Keywords: competitiveness of higher educational institutions, market of educational services, competitive advantage, potential of higher educational institutions, scientific research potential, innovative potential.

Dildora Haydarjon qizi Shaymardonova – Nukus innovatsion instituti o‘qituvchisi

QISHLOQ JOYLARDA AVTOSERVIS XIZMATLARI KO‘RSATUVCHI SUBYEKTLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq joylarida istiqomat qilayotgan aholiga sifatli avtoservis xizmatlarini ko‘rsatishni takomillashtirish va ushbu xizmatlarni taqdim etuvchi subyektlar faoliyatini yaxshilash haqida boradi.
Kalit so‘zlar. Iqtisodiyot, xizmat ko‘rsatish, ehtiyoj, ishlab chiqarish, avtoservis, sug‘urta, transport sohasi,

Kirish: Bugungi kunda mamlakatimizning qishloq joylarida istiqomat qilayotgan aholiga sifatli va qulay sharoitda avtoservis xizmatlarini ko‘rsatish va ushbu sohada faoliyat olib borayotgan subyektlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish hamda takomillashtirish uchun yetarlicha chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.Ammo yaratilayotgan va ishlab chiqilayotgan choralar o‘zini to‘laligicha oqlagani yo‘q.

Xususan, avtoservis xizmatlarini sifatli ko‘lamda ko‘rsatish, sohada faoliyat olib borayotgan subyektlar faoliyatini isloh qilish,qishloq joylaridagi aholining sifatli,qulay hamda arzon avtoservisdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishni ta`minlab beradi va shakllantiradi.

Qishloq joylarida avtoservis xizmatlarini ko‘rsatish orqali soha subyektlari faoliyatini rivojlantirish orqali, yangi ish o‘rinlarini ochilishi,bandlik darajasining oshishini,u yerdagi aholi shahar joylaridagi xizmatlardan emas,balki vaqti va naqtini tejagan holda sifatli xizmatlardan foydalanishni imkoniyatlarini ochib beradi hamda yo‘lga qo‘yadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019 yil 18 iyuldagi PQ-4397 son “O‘zbekiston Respublikasi avtomobil sanoatini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021-yil 12-maydagi PQ-5113 son “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari va sohaga tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi. Qishloq joylarda aholi bandligini ta’minlashning agrar bo‘lmagan yo‘nalishlari xorijlik olimlardan Buxenrayder (Buchenrieder G), Dj. Mollers (Mollers, J)larning ilmiy tadqiqotlarida, bozor munosabatlari sharoitida avtomobil va avtoservis xizmatlari bozorining shakllanishi va rivojlanishi, avtoservis xizmatlari sifatini hamda iqtisodiy salohiyatini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar O.D.Markova, N.Ye.Yegorova, S.N.Petrochenkova, I.I.Radchenko, D.I.Lisanovlarning ilmiy ishlarida bayon qilingan.

O‘zbekiston Respublikasida avtoservis xizmatlari ko‘rsatishni rivojlantirish, avtotransport korxonalarida xizmat ko‘rsatish va servis sifatini oshirish masalalari mamlakatimiz olimlaridan T.U.Qodirov., S.K.Salayev, O.M.Umarov, M.M.Qosimov, A.J.Qahhorov, A.A.Abdumavlonov, S.A.Yuldasheva, K.Muxitdinova, Yu.S.Arislanovna, B.B.Xolov, S.M.Obidov, D.E.Saidovlarning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Tadqiqod metodologiyasi. Ushbu tadqiqodning maqsadi qishloq joylarda avtoservis xizmatlari ko‘rsatuvchi subyektlar samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Ushbu sohada faoliyat yurituvchi subyektlari samaradorligini oshirish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan.Tdqiqod olib borish jarayonida ilmiy abstrakt fikrlash,mantiqiy yondashuv kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Jahonda avtomobillar ishlab chiqarish va ularni ehtiyot qismlar bilan ta’minlash va asosiy servis xizmatlari ko‘rsatish borasida Germaniya, Fransiya, Angliya, AQSH kabi mamlakatlar katta ulushga ega bo‘lib, birgina Yevropa Ittifoqida 324 mln avtomobillar mavjud. 2023 yilda avtomobillarni ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha xizmatlar hajmi 825 mlrd AQSH dollarini tashkil etdi, 2024-2032 yillar mobaynida 10,2% yillik o‘rtacha o‘sish sur’ati saqlanib qoladi. Jahon bozorida avtomobillarga ehtiyot qismlar narxining oshishi va ularni yetkazib berish bilan bog‘liq logistik jarayonlarning murakkablashuvi ushbu mahsulotlarni import qiluvchi mamlakatlarda avtoservis xizmatlari ko‘rsatish infratuzilmasini

tubdan takomillashtirish, ushbu xizmatlarni ko‘rsatuvchi subyektlarning iqtisodiy samaradorligini, hamda servis sifatini oshirish zaruratini keltirib chiqardi.

Jahonning ilg‘or ta’lim muassasalarida avtoservis xizmatlarini rivojlantirish, avtoservis xizmatlari ko‘rsatuvchi subyektlarning iqtisodiy salohiyatini oshirish, mijozlarga sifatli avtoservis xizmatlari ko‘rsatish darajasini oshirish, avtomobillar bozorining muqobil energiya manbalariga transformatsiyalashuvi sharoitida ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida urg‘u qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasida qishloq joylarda avtoservis xizmatlari ko‘rsatishni tashkil etish va rivojlantirishda kiritilayotgan investitsiyalar tarkibining past rentabelligi, mavjud moddiy-texnik bazasi va texnologik uskunalardan foydalanish samaradorligining pastligi, avtoservis xizmatlarini tashkil etishning progressiv shakllaridan yetarlicha foydalanilmayotganligi, avtoservis korxonalarining xizmat ko‘rsatish salohiyati va ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi va ko‘lami o‘rtasidagi nomutanosibliklar, hamda avtoservis korxonalarining hududiy joylashtirishdagi mavjud nomutanosibliklar zamonaviy avtoservis xizmatlari ko‘rsatishda turli muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Qishloq hududlarida avtoservis xizmatlarini ko‘rsatuvchi subyektlar faoliyatini moliyalashtirish,ularni rivojlanishiga ko‘maklashish maqsadida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirish lozim:

– qishloq sharoitida avtomobillarga(yengil mashinalar,qishloq xo‘jaligida band tractor,kombayn va h.k) sifatli va arzon avtoservis xizmatlarini ko‘rsatish maqsadida faoliyat subyektlariga qisqa muddatli imtiyozli kreditlar ajratish;

– qishloq joylarda istiqomat qilayotgan aholi yashash sharoitini shahar aholi yashash sharoitiga qadar yetkazish maqsadida u yerdagi aynan avtoservis xizmat ko‘rsatish sohasida band bo‘lgan subyektlar faoliyatini har tomonlama isloh qilish va yetarlicha shart-sharoitlar bilan ta`minlash;

– ushbu sohada faoliyat yuritayotgan subyektlarni kerakli shart-sharoitlar yaratishda to‘g`ridan -to‘g`ri boshqa mamlakatlardan avtoservis uchun kerakli asbob-uskunalar va jihozlar bilan ta`minlash maqsadida chora-tadbirlar ishlab chiqish; (Bugungi kunda atomobillarni sotish, sotib olish, shartnomaviy munosabatlar, davlat ro’yxatiga olish yoki chiqarish, sug’urtalash kabi xizmatlarning onlayn muhitga o’tishi bilan qishloq joylarda ushbu xizmatlarni avtoservis korxonalariga integratsiyalashuvi “aholi, avtoservis korxonasi va davlat xizmatlari ko’rsatish” zanjirini qamrab olishni iqtisodiy jihatdan manfaatli bo’lishiga olib keladi)

Avtoservis xizmatlari ko’rsatuvchi subyektlarni tasniflash tizimi raqobat ishtirokchilari mezonini kiritish orqali takomillashtirish taklif etiladi (Bugungi kunda avtoservis xizmatlari ko’rsatishda ixtisoslashgan avtoservis va dilerlik markazlari mavjud talabni to’la qondirish imkoniyatiga ega bo’lmaganligi sababli faoliyat bilan norasmiy shug’ullanuvchi, YaTT shakldagi subyektlar soni ortib borish tendensiyasiga ega. Shu bois sohada raqobat muhiti kuchayib boradi)

Mamlakatimizda aholi daromadlarini oshib borishi, avtomobillar bilan ta’minlanganlik darajasini oshishiga xizmat qilmoqda. 2023-yil yakuniga ko‘ra har 100 ta oilaga 23 ta avtomobil to‘g‘ri kelganligi keyingi davrda avtomobillar ikkilamchi bozorining, hamda aholi tomonidan avtomobillarga turli xizmatlarni ko‘rsatishga bo‘lgan talabning keskin oshishiga, avtoservis xizmatlari ko‘rsatishni nafaqat intensiv usulda, balki ekstensiv rivojlantirishni o‘ta dolzarb masalalardan biriga aylantirdi. Avtomobillar ikkilamchi bozorining rivojlanishi va karshering munosabatlarining jadallashuvi, ayniqsa aholi daromadlari nisbatan past bo‘lgan qishloq joylar uchun xosligi ortib, bu borada avtoservis xizmatlari ko‘rsatuvchi subyektlar samaradorligini oshirishni, mijozlarga zamonaviy avtoservis xizmatlari ko‘rsatishni yanada kengaytirishni taqozo qilmoqda.

Xulosa va takliflar: Yuqoridagi fikrlar asosida xulosa qilishimiz mumkinki,qishloq joylarida avtoservis xizmatlarini ko‘rsatuvchi subyektlar faoliyatini yanada rivojlantirishni tashkil qilish, soha rivoji uchun qo‘shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqish, hamda qo‘llab-quvvatlashni taqozo etadi.Shu nuqtai nazardan soha rivoji maqsadida quyidagi yo‘nalishlarni olib borish muhim ahamiyat kasb etadi;

– qishloq joylarda aholi daromadlari dinamikasi, har 100 xo’jalikka to’g’ri keladigan avtomobillar sonining o’zgarish dinamikasi, avtomobillarning eskirish sur’ati, hamda ikkilamchi bozori dinamikasi omillarining o’zaro bog’liqligiga ko’ra talab hajmi o’zgarishining 2025-2030 yillarga mo’jallangan prognoz parametrlari ishlab chiqish (avtomobillar sonining ko’payishi, amortizatsiya sur’ati, TIF nomenklaturasida avtoehtiyot qismlar dinamikasi avtoservis xizmatlariga talabning oshishiga korrelyatsion bog’liqligi sezilarli darajada –r >60%);

– qishloq hududlarida avtomobillarga servis xizmatlari ko’rsatuvchi korxonalarning tashkiliy-boshqaruv tuzilmasini , ehtiyot qism, aksessuarlar bilan ta’minlash, sug’urtalash va davlat ro’yxatidan o’tkazish yo’nalishida qo’shimcha kompleks xizmatlar ko’rsatishni qamrab olish bo’yicha funktsional jihatdan takomillashtirish taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirzayev Q.J., Pardayev M.Q. “Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti” O‘quv qo‘llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2014. 384b.
2. Muxammedov M. va boshqalar “Xizmat ko‘rsatish sohasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari”- S.: Zarafshon 2017.-299 b.
3. Pardayev M.Q., Mirzayev Q.J., Ochilov I.S. Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYa”, 2014. – 384 b.
4. Pardayev M.Q. va boshqalar. Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoining ayrim muammolari. – T.: “Navro‘z” nashriyoti, 2014. – 264 b.
5. Pardayev M.Q. Xizmatlarning ijtimoiy-iqtisodiy tabiati va uni takomillashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari. Xizmat ko‘rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari. Monografiya. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2008.- 285 b.
6. Pardayev M.Q., Pardayeva I.M., Pardayev O.M. O‘zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari. (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasi asosida). Uslubiy qo‘llanma,- Samarqand. 2019. b.105

Д.Шаймардонова **Повышение эффективности субъектов, предоставляющих услуги автосервиса в сельской местности**	**D.Shaymardonova** **Improving the efficiency of entities providing car service in rural areas**
Аннотация. В данной статье речь идет о совершенствовании предоставления качественных услуг автосервиса населению, проживающему в сельской местности, и совершенствовании деятельности субъектов, предоставляющих эти услуги. **Ключевые слова:** экономика, сервис, потребность, производство, автосервис, страхование, транспорт.	**Abstract.** This article is about improving the provision of high-quality car service to the population living in rural areas and improving the activities of entities providing these services. **Keywords:** economy, service, need, production, car service, health, transport.

УДК: 332.6(075.32)

Бехзод Абдумаджитович Суюнов –Мирзо Улуғбек номидаги Самарқанд давлат архитектура-қурилиш университети докторанти

ТУРАР-ЖОЙ КЎЧМАС МУЛК БОЗОРИДА БАҲОЛАШ ХИЗМАТЛАРИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ

Аннотация. Мақолада кўчмас мулк бозорини баҳолаш усулларини такомиллаштириш йўналишларига доир тадқиқот натижалари акс эттирилган. Жумладан, кўчмас мулк бозорида илғор хорижий тажрибалар асосида баҳолаш усулларини тадбиқ этиш, кўчмас мулкни харажатлар ёндашуви асосида баҳолаш методологиясини такомиллаштириш йўналишлари тадқиқ этилган.

Калит сўзлар: кўчмас мулк, баҳолаш, баҳолаш методологияси, мулкни баҳоловчи кадрлар, баҳолаш усуллари, харажат ёндашувини баҳолаш, инфляция, прогноз, турар-жой кўчмас мулки, баҳолаш самарадорлиги.

Кириш. Жаҳон иқтисодиётининг жадал ўзгариб бориш шароитида, кўчмас мулк объектлари ва мулкий мажмуаларни такрор ишлаб чиқариш даражаси, мамлакат миллий

бойлигининг катта қисми сифатида, унинг самарадорлигини назорат қилишнинг асосий кўрсаткичи ҳисобланади. Масалан, ривожланган мамлакатларда уй-жой фонди мамлакатда такрор ишлаб чиқариладиган миллий бойликнинг 20 % дан 45 % гача қисмини ташкил қилади. Агар кўчмас мулкнинг барча турлари, жумладан ер ва мулкий мажмуалар доирасини кўриб чиқсак, у ҳолда бу кўрсаткич 70-80 %ни ташкил қилади. Шу муносабат билан, энг муҳим ва долзарб вазифа сифатида кўчмас мулк объектларини бозор баҳосини тўғри аниқлаш замонавий иқтисодий жараёнлардан бири ҳисобланади.

Ушбу тадқиқот ишининг назарий-методологик асослари Ўзбекистон Республикаси Президентининг 24.04.2008 йилдаги қабул қилинган "Баҳоловчи ташкилотлар фаолиятини янада такомиллаштириш ва кўрсатилаётган хизматлар сифати учун уларнинг масъулиятини ошириш тўғрисида" ги ПҚ-843 қарори, ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармонига асосан қабул қилинган “Янги Ўзбекистонни 2022-2026 йилларга мўлжалланган ривожланиш стратегияси” тўғрисидаги фармонларида ўз ифодасини топган ва мазкур соҳадаги бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга оширишга муайян даражада хизмат қилади.

Биз олиб борган тадқиқот уй-жой кўчмас мулк бозорида баҳолаш хизматлари самарадорлигини ошириш ва уй-жойни баҳолаш соҳасидаги маълумотларнинг ишончлилиги ва объективлигини ошириш асосида аҳолини арзон ва қулай уй-жой билан таъминлаш даражасини оширишга қаратилган.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Баҳолаш фаолиятининг илмий-назарий жиҳатларини тадқиқот этиш, шу жумладан, кўчмас мулк бозорини баҳолаш усулларини янада такомиллаштиришнинг илмий-назарий асослари қатор хорижий ва маҳаллий иқтисодчи олимлар, амалиётчи мутахассислар томонидан ўрганилган ва тадқиқ этилган. [2,3,4,5]

Маҳаллий ва хорижий мутахассисларнинг ишлари баҳолаш сифатини ошириш ва турар-жой кўчмас мулкининг бозор қийматини шакллантиришга алоҳида омилларнинг таъсирини ўрганишга бағишланган. Улар орасида қўшни давлатлар ва ватанимиз олимлари Александрова В.Т, Асаул А.Н., Вилинский П.Л., Грибовский С.В., Коростелева С.П., Озерова Е.С., Петрова В.И., Ходиев Б.Ю., Беркинов Б.Б., Кравченко А.Н., Ганиев К. Б., Ганиева Г. И., ва бошқаларни ишларини айтиш мумкин. [5,6,7]

Хорижлик иқтисодчилар J.Fridman ҳамда N.Ordvey томонидан ёзилган “Даромад келтирувчи кўчмас мулкни таҳлил қилиш ва баҳолаш” номли қўлланмасида муаллифлар кўчмас мулк бозорини кўчмас мулкни яратиш, узатиш, фаолият юритиш ва молиялаштиришни таъминлайдиган бозор механизмларининг ўзаро боғланган тизими сифатида тушунтиради[5].

Иқтисод фанлари номзоди, доцент Н.Ишанқулов ўзининг “Кўчмас мулк бозорини баҳолаш методологиясини такомиллаштириш йўналишлари” мақоласида кўчмас мулк бозорини баҳолаш методологиясини такомиллаштириш йўналишларига доир тадқиқот натижалари акс эттирилган. Жумладан, кўчмас мулк бозорини баҳолашда замонавий рақамли технологиялардан фойдаланиш, кўчмас мулк бозорини баҳолашнинг профессионал кадрлар тайёрлашга бўлган эҳтиёжини қондириш, хусусан кўчмас мулкни қиёсий ёндашув асосида баҳолаш методологиясини такомиллаштириш йўналишлари тадқиқ этилган[7].

Тадқиқот методологияси. Турар-жой кўчмас мулкини баҳолаш усуллари самарадорлигини такомиллаштиришга бағишланган ушбу мақолада тадқиқот натижаларининг комплекслиги, мантиқийлиги ва ишончлилигини таъминловчи умумқабул қилинган илмий усуллар, жумладан, тадқиқот объекти ва предметини кўриб чиқишга тизимли ёндашув, илмий таҳлил ва синтез, таққослаш, моделлаштириш, прогнозлаш, иқтисодий-статистик таҳлил, маълумотларни қайта ишлашнинг статистик усуллари, кўчмас мулкни баҳолашда қиёсий ёндашув, жуфт корреляцион ва кўп регрессион таҳлил усулларидан фойдаланилган.

Таҳлил ва натижалар. Турар-жой кўчмас мулкини баҳолашда, баҳолаш усулларини такомиллаштириш ва турар-жой мулкининг ҳаётий давомийлигини инобатга олиш

муҳим аҳамият касб этади. Бугунги кунда турар-жой кўчмас мулкини баҳолашда қўлланиладиган усулларда бозор қиймати ва ҳаётий давомийлиги ўртасида боғлиқлик ҳисобга олинмаган, бу эса мулкнинг амал қилиш муддати давомида қийматни малакали бошқаришга имкон бермайди.

Юқоридагилардан кўриниб турибдики, иқтисодиётда, аҳолини уй-жой билан таъминлаш, урбанизация ва уй-жой фондини ривожлантириш соҳасидаги жадал ўзгаришлар, турар-жой кўчмас мулк бозорида баҳолаш хизматларининг аҳамиятини инобатга олиб соҳада қўшимча тадқиқотлар олиб борилишини талаб қилади.

Самарқанд вилояти мисолида кўчмас мулкни баҳолаш услубиятини такомиллаштириш орқали мулк қийматининг ҳақиқий баҳосини аниқлашда хориж тажрибалари чуқур тадқиқ этилган ҳолда, мавжуд муаммолар ва камчиликлар аниқланиб, кўчмас мулк бозорида баҳолаш усулларини такомиллаштириш йўналишлари бўйича илмий асосланган таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилди. Хусусан:

Кўчмас мулкни бозор баҳосига таъсир қилувчи таянч омилларни танлаб олиш усули унинг ҳаётий даври, эксперт баҳолаш ҳамда Лоренц Парето диаграммасидан фойдаланган ҳолда такомиллаштирилган.

Мулкни баҳолаш ҳар хил мақсадларда амалга оширилади. Баҳолаш хизматида энг кўп учрайдиган қийматни топиш усули бинони турли ҳаётий даври босқичларидаги бозор баҳосини топиш ҳисобланади. Мулкнинг бозор қийматини шакллантирувчи асосий омилларини аниқлаш учун жуда кўп ёндашувлар мавжуд. Иқтисодий адабиётларда кўчмас мулк баҳосига таъсир этувчи омиллар бўйича етакчи олимлардан Асаул А.Н., Акулич М.В., Татарова А.В., Ганиев К.Б., Абдурахманов И.Ю ва бошқаларни фикрлари мавжуд.(улар талаб, қулайлик, танқислик, харид қобилияти, психологик омиллар ҳақида сўз юритган). Уларни келтирган фикрларини инкор этмаган ҳолда, биз баҳолашга таъсир этувчи омилларни 3 та гуруҳга бўлишни таклиф этамиз:

1-гуруҳ-бинонинг яқин-атроф ҳудуди билан боғлиқ омиллар;

2-гуруҳ- уйнинг характеристикаси билан боғлиқ омиллар;

3-гуруҳ –хонадоннинг характеристикаси билан боғлиқ омиллар.

Бундан ташқари, баҳолашни тўғри ва ҳаққонийлигини таъминлаш учун таянч омилларни ажратиб олишда “Эксперт сўрови” усулидан фойдаландик.

Натижада, баҳога таъсир этувчи 16 та асосий омиллар гуруҳи ажратиб олинди. Экспертлар фикрини бир-бирига ўзаро мос келиш коэффициенти Кф = 0,8435 га тенг (бу - Пирсон критериясига кўра, юқори даража ҳисобланади).

1-жадвал

Эксперт сўрови натижаларига кўра аниқланган омилларнинг иккиламчи асосий гуруҳи

Фактор коди	Фактор номи	Фактор оғирлиги
01	Турар-жой кўчмас мулкининг манзили	0,180
02	Бинонинг ишлаш муддати ,эскириш даражаси	0,078
03	Квартира қавати	0,163
04	Ижтимоий инфратузилманинг мавжудлиги (мактаблар, поликлиникалар, дўконлар)	0,047
05	Автотураргоҳларнинг мавжудлиги	0,038
06	Болалар учун ўйин майдончасининг мавжудлиги	0,037
07	Ҳудудда аҳоли учун дам олиш масканларининг мавжудлиги	0,027
08	Саноат объектларининг йўқлиги	0,026
09	Жамоат транспорти йўналишларига яқинлиги	0,042
10	Турар-жой биносининг қаватлар сони	0,109
11	Қурилиш материаллари, конструкцияларини замонавийлиги	0,078
12	Кўкаламзорлаштириш ва ободонлаштиришнинг мавжудлиги	0,045
13	Муҳандислик коммуникацияларининг ҳолати	0,052
14	Катта кўнгилочар масканларнинг яқинлиги (парклар, жамоат	0,026

	боғлари, театрлар)	
15	Турар-жой биносининг йўналиши (меридионал ёки бошқа)	0,028
16	Спорт иншоотларига яқинлиги	0,024

Эксперт сўрови натижаларига кўра муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.


Анкета сўровининг иккинчи босқичи натижаларини қайта ишлашда биз кўрсаткичларни таъсир қилиш хусусиятига кўра ҳамда соддалаштириш мақсадида омилларни бир неча гуруҳларга бирлаштиришга қарор қилдик:

а) Мулкнинг ўзига хос бўлган омиллар (1,2,3,10, 11,15);

б) Атрофдаги ҳудудга таалуқли омиллар (5,6,7,10,11,12);

в) Ижтимоий инфратузилма омиллари (4,14); г) Бошқа омиллар (9, 16).

Қуйидаги чизмада кўчмас мулки нархига таъсир қилувчи омилларни аҳамиятлилиги бўйича жойлаштиришни Л.Парето диограммаси тасвирланган.



1-расм. Турар-жой кўчмас мулки нархига таъсир қилувчи омилларнинг танланган гуруҳлари учун Парето диаграммаси муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

Кўчмас мулкнинг бир-бирлик майдони (1 кв.м.) учун нарх кўрсаткичларини аниқлаш усули унинг бирламчи ва иккиламчи бозорга тааллуқлилиги, турар-жойларнинг эскириш даражаси, талаб ва таклиф, нарх индексларига асосан такомиллаштирилган.

Самарқанддаги бирламчи ва иккиламчи уй-жой бозоридаги вазият бир неча сабаблар билан тавсифланади:

1. Янги ишга туширилаётган уйларни нархи баланд бўлгани учун уй-жойга талаб иккиламчи бозорга кўчмоқда;
2. "Янги Ўзбекистон" лойиҳаси доирасида Самарқанд шаҳридаги Қорасув массивидан 253,7 гектар ер ажратилган. Икки йил ичида жами 327 та кўп қаватли турар-жой бинолари қурилади, хонадонлар сони 22 402 тани ташкил этади. (таклиф кўпаймоқда);
3. Иккиламчи бозорда 2-3 хонали квартираларни 1 кв. метрини бозор қиймати ўртача 5,3 миллион сўмдан 8,6 миллион сўмгача ташкил қилади (ҳудудга боғлиқ ҳолда);
4. Иккиламчи бозорда турар-жой кўчмас мулкининг нархи сўнгги 2-3 йил ичида 20-25% га ошганлиги кузатилди.

Қуйида шаҳри минтақалари бўйича эскириш даражасига қараб турар жой бозоридаги нархларни ўзгариш таҳлилини келтирамиз,унга кўра Темирйўл, Сиёб, Кимёгарлар қўрғони ва Гулобод ҳудудларида эскирганлик даражаси 20% дан 40% гача

бўлган турар жойларни 1 м.кв.ни нархи тахминан 4,5 млн.сўмдан 6 млн. сўмни ташкил этади. Эскириш даражаси 40% дан 60% гача бўлганда 1 м.квадрати нархи 3.2 млн. сўмдан 5 млн.сўмгача боради. Эскириш даражаси худди шундай бўлган Самарқанднинг “Марказий ҳудудларидаги“ нархи қиммат туради, яъни 5.5 млн. сўмдан 7 млн. сўмни ташкил этади.

Кўчмас мулк баҳосини аниқлашнинг харажатлар усули мулкнинг эскириш даражасини баҳолаш модели асосида такомиллаштирилган.


Турар-жой кўчмас мулк бозорида бинонинг техник ҳолати тўғрисида тўлиқ маълумот бўлмаса, олди-сотди операцияларини самарали амалга ошириб бўлмайди. Мулкни баҳолашда унинг жисмоний эскиришини, албатта инобатга олиш лозим.

Турар-жой кўчмас мулкини ҳаётий даври босқичларида жисмоний эскириш динамикаси қуйидаги 2-чизмада келтирилган,унга кўра:

I- фазада эскириш даражаси кучаяди (бунга қурилиш- монтаж ишларини сифатини пастлиги, фойдаланишдаги камчиликлар сабаб бўлади).

II- фазада эскириш даражаси вақтида таъмирлаб турилиши сабабли пасаяди.

III- фазада бино тўлиқ эскириб бошлайди, бу давр охирида тўлиқ реконструкция қилинади ёки бузилади.



Расм2. Кўчмас мулкини ҳаётий даври босқичларида жисмоний эскириш динамикаси. Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

Кўчмас мулк объектларини ҳаражатлар ёндашувида баҳолаш қуйидаги формула бўйича амалга оширилади:

$$С = С_{зу} + (С_{П\ Восп} - И)$$

бу ерда: С – баҳолаш объектининг қиймати;

$С_{зу}$ - ер майдонининг баҳоси;

$С_{П\ Восп}$ - бино қурилишининг тўлиқ қиймати;

И – баҳолаш объектининг тўплаган эскириш даражаси.

Ушбу формуладан фойдаланиб, икки хонали турар-жой биносини бозор баҳосини эскириш даражасига кўра аниқлаймиз:

- бинонинг тўлиқ баҳоси - 90 000 минг сўм.
- Ҳақиқий ёши - 10 йил (баҳолаш вақтида);
- Умумий иқтисодий ёши – 60 йил;

Ечиш:

Эскириш коэффициенти И=10:60=0,166;
Эскириш қиймати 90 000 х 0,166= 14 940 минг сўм
Мулкни қолдиқ қиймати 90 000 – 14 940= 75 060 минг сўм.

Ҳаражатлар усули билан хисобланганда мулкни **бозор баҳоси 75 060 минг сўмга** тенг чиқди.Бу ҳақиқий бозор баҳоси ҳисобланади.

Кўчмас мулк бозорида мулкни баҳолашга таъсир этувчи омилларни аниқлаш, уларнинг таъсир даражасини баҳолаш усули такомиллаштирилган ва келгуси даврлар учун прогноз кўрсаткичлари ишлаб чиқилган.

Турар-жой бинолари (хонадонлар) баҳосини келгуси йиллар учун прогноз кўрсаткичларини аниқлашда умум таъсир кўрсатадиган омиллардан фойдаланамиз. Уларни тўртта гуруҳга ажратамиз. Биринчи гуруҳ – турар-жой бинолари бўйича таклифни англатадиган омиллар. Иккинчи гуруҳ- бу турар-жой биноларига талабни англатадиган омиллар. Учинчи гуруҳ аҳолини турар-жойлар билан таъминлашда давлат сиёсатини белгилайдиган омиллар. Тўртинчи гуруҳ омиллар эса бозордаги нарх-навонинг ўзгаришини англатадиган омиллар.

2-жадвал

Турар-жой бинолар (хонадонлар) баҳосининг келгуси давр учун прогноз кўрсаткичлари

Йил-лар	**Омиллар қиймати аввалги йилларга нисбатан 1 % га оширгандаги турар-жой биноси (хонадон) баҳосининг прогноз кўрсаткичлари, минг сўм**	**Омиллар қиймати аввалги йилларга нисбатан 2 % га оширгандаги турар-жой биноси (хонадон) баҳосининг прогноз кўрсаткичлари,минг сўм**
2023	7506,206	7581,702
2024	7582,457	7735,714
2025	7659,471	7892,807
2026	7779,045	8053,042
2027	7854,160	8216,481
2028	7977,370	8383,189
2029	8102,681	8553,231
2030	8230,132	8726,675
2031	8359,763	8903,587
2032	8491,613	9084,037
2033	8625,722	9268,096

Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

Прогноз жадвалига асосан, баҳоларнинг ўсиш даражасига қарайдиган бўлсак 2023 йилдаги баҳо билан 2033 йилдаги баҳо орасида омилларнинг қийматини бир фоизга оширганда 1119,516 (8625,722 - 7506,206) минг сўмлик, икки фоизга ўзгартирганда эса 1686,394 (9268,096 - 7581,702) минг сўмлик фарқ мавжудлигини кўрсатди.

Баҳонинг ўсиш кўрсаткичи 10 йил давомида 1 фоизликда 13 фоизни ташкил қилса, 2 фоизликда эса 18 фоизни ташкил этади. Баҳонинг ўртача йиллик ўсиши биринчи ҳолда 1,3 % ни, иккинчи ҳолда эса 1,8% ни ташкил этади.

Хулоса ва таклифлар. Баҳолаш хизматлари соҳасидаги маълумотларнинг ишончлилиги ва объективлигини ошириш аҳолини арзон ва қулай уй-жой билан таъминлашга ёрдам беради. Бундан ташқари, баҳолаш хизмати ҳаққонийлиги яширин иқтисодиётни бартараф этишга, нархни тўғри белгилашга, ер ва мулк солиғини холислигини таъминлашга, бинони кадастр нархини аниқлашга хизмат қилади.

Юқоридаги мулоҳазалардан келиб чиққан ҳолда, кўчмас мулк бозорини баҳолаш методологиясини такомиллаштириш бўйича қуйидаги илмий-назарий хулоса ва тавсиялар шакллантирилди:

биринчидан, тадқиқот бўйича олинган натижалар, хулоса ва амалий тавсияномалар турар-жой кўчмас мулкини баҳолашни ҳаққонийлиги, самарадорлигини ошириш билан бирга, ҳозирги иқтисодий шароитда уй-жойнинг баҳосини белгилашда, унинг ҳар хил ҳаётий даврини ҳам инобатга олишни кўзда тутади;

иккинчидан, тадқиқот ишнинг амалий аҳамияти бўлиб, олинган натижалар ёрдамида бозордаги нархни прогнозлашга ва шу орқали бошқарув органлари томонидан давлат уй-жой дастурини тузишни такомиллаштиришга хизмат қилади;

учинчидан, кўчмас мулкни бозор баҳосини шакллантирувчи асосий омиллар тизимлаштирилган, ҳамда баҳолаш самарадорлигини ошириш бўйича умумлаштирилган таянч омиллар гуруҳини аниқлаш ва уларни баҳолашга қандай даражада таъсир кўрсатишини топиш бўйича тавсиялар ишлаб чиқилган, омилларни таъсирини тўғри ҳисобга олиш баҳолаш самарадорлигини 15-20 %га оширади;

тўртинчидан, Самарқанд шаҳар кўчмас мулк объектларини бирламчи ва иккиламчи бозорида мулкнинг қийматини бинонинг тайёргарлик даражасига, ҳудудий жойлашувига, қурилган йилига, эскириш даражасига боғлиқлигини, ҳамда мулкни фойдали ва иқтисодий ҳаётий даврларини аниқлаш бўйича услубий тавсиянома берилган**;**

бешинчидан, турар-жой биноларининг (хонадонларининг) турли ҳаётий даврларида 1 кв м. нархи билан унга таъсир қилувчи омилларнинг ўзаро боғлиқлигини корреляцион-регрессион модели ишлаб чиқилган ҳамда келгуси даврлар учун прогноз кўрсаткичлари аниқланган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Александров В.Т. Оценка устаревания и наиболее эффективного использования недвижимости / В.Т. Александров. – СПб. : Стройиздат СЗ, 2010. – 330 с.;
2. Асаул, А.Н. Экономика недвижимости : учебник для вузов / А.Н. Асаул.– 3е изд. Стандарт третьего поколения. – СПб. : Питер, 2013. – 416 с.
3. Озеров, Е.С. Экономический анализ и оценка недвижимости / Е.С. Озеров. – СПб. : МКС, 2007. – 535 с.;
4.Петров В.И. Оценка стоимости земельных участков: учебное пособие/ М. : КНОРУС, 2007.– 208 с.;
5. Ходиев Б.Ю., Беркинов Б.Б., Кравченко А.Н. Бизнес қийматини баҳолаш. Ўкув қўлланма. и.ф.д., проф. Б.Ю. Ходиев таҳрири остида. – Тошкент: Фан, 2006 – 225 б.
6. Ганиев К.Б., Ганиева Г.И. Оценка недвижимости. Учебное пособие – Ташкент: изд-во «Konsauditinform – Nashr», 2010 – 232 с.;
7. Ишонқулов Н. Кўчмас мулк бозорини баҳолаш методологиясини такомиллаштириш йўналишлари. Мақола, International Journal of Finance and Digitalization, Vol. 2 Issue 04, 2023.

Б.Суюнов

Повышение эффективности оценочных услуг на рынке жилой недвижимости

Аннотация. В статье отражены результаты исследований по направлениям совершенствования методов оценки рынка недвижимости. В частности, исследованы направления внедрения методов оценки на рынке недвижимости на основе передового зарубежного опыта, совершенствования методологии оценки недвижимости на основе затратного подхода.

Ключевые слова: недвижимое имущество, оценка, методология оценки, кадры, оценивающие имущество, методы оценки, затратный подход оценка, инфляция, прогноз, жилье недвижимости.

B.Suyunov

Increasing the effectiveness of appraisal services in the real estate market

Abstract. The article reflects the results of research on ways to improve methods of real estate market evaluation. In particular, directions for the application of valuation methods based on advanced foreign experiences in the real estate market, and improvement of the methodology of real estate valuation based on the cost approach have been researched.

Keywords: real estate, appraisal, appraisal methodology, property appraisal staff, appraisal methods, cost approach appraisal, inflation, forecast, residential real estate, appraisal efficiency.

Akram Abduraxmonovich Azizqulov – SamISI, Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri, dotsent, fal.f.n.
Akbar Norboyevich Alimov – SamISI, Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti

HUSAYN VOIZ KOSHIFIY ILMIY MEROSIDA OVQATLANISH ETIKETINING TALQINI

Annotatsiya: Mazkur maqolada temuriylar davrining yirik olimi Husayn Voiz Koshifiy tomonidan ishlab chiqilgan ovqatlanish odob qoidalarining mazmuni bayon etilgan. Shuningdek, maqolada alloma ilgari surgan sharqona etiket qoidalari, xususan, ovqatlanishning odob-axloq qoidalari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmanligi asoslab berilgan.
Kalit so‘zlar: ma’naviy meros, axloq, odob, taom, ovqatlanish, etiket, islom dini, farz, sunnat, mustahab, tarbiya,qadriyat.

Kirish. Insoniyat tamaddunining ilk o‘choqlaridan biri sifatida e’tirof etilayotgan Markaziy Osiyo bashariyat ma’naviy taraqqiyotida o‘zining nodir asarlari bilan beminnat xizmat qilgan ko‘plab allomalarni yetishtirib berdi. Qomusiy mutafakkir allomalarimiz ilm-fan va madaniyatning barcha sohalari bo‘yicha ulkan meros qoldirib ketdilar. Ayniqsa, ajdodlarimiz tomonidan sharqona odob-axloq falsafasiga oid yozib qoldirilgan noyob asarlar xorij olimlari tomonidan hamon yuqori baholanib kelinmoqda. Mutafakkir ajdodlarimiz tomonidan bayon etilgan axloq-odob qoidalarida inson faoliyatining barcha qirralari qamrab olinadi. Xususan, allomalarimiz tomonidan ovqatlanishning musulmon sharq etiketi alohida bayon etiladi. Ovqatlanish odob-axloq qoidalari ayniqsa, Husayn Voiz Koshifiy asarlarida batafsil yoritib beriladi. Biz mazkur maqolada alloma tomonidan bayon etilgan ovqatlanish etiketining mazmunini yoritishga harakat qilamiz

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Husayn Voiz Koshifiyning ovqatlanish odobi xususidagi qarashlarini yoritishda «Futuvvatnomai Sultoniy yoxud Javonmardlik tariqati», “Axloqi muhsiniy” kabi asarlarining 2011 yilda Murodjon Aminov va Faxriddin Hasanovlar[1] hamda 2019 yilda Maxmud Xasaniy, Asadali Hakimjonov, Abdumajid Madraimov va Najmiddin Komilovlar tarjimasi asosida nashr etilgan nusxalaridan foydalandik[2]. Shuningdek, alloma axloqiy qarashlarini yoritishda uning "Risolai Hotamiya", "Anvari Suxayliy", "Axloqi Karim", "Lubbo ul-ma’naviy fi-intixobi masna’viy", kabi asarlaridan foydalandik. Bundan tashqari R. Maxmudovning “Xusayn Voiz Koshifiyning falsafiy axloqiy qarashlari” mavzusidagi monografiyasidan foydalandik[3].

Tadqiqot metodologiyasi. Musulmon Sharq mutafakkirlarining, xususan, Husayn Voiz Koshifiy tomonidan ishlab chiqilgan ovqatlanish odob qoidalarini yoritishda obyektivlik, retrospektiv tahlil, mantiqiylik va tarixiylikning birligi, qiyosiy tahlil va shu kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Markaziy Osiyo xalqlari tarixida Temuriylar hukmronligi davri madaniy va ma’naviy yuksalish bosqichi hisoblanadi. XV asrda Temuriylar saltanatining Movarounnahrdagi poytaxti Samarqand kabi Xuroson mulkining markazi Hirot shahri ham ilm-fan va madaniyat markaziga aylanadi. Temuriy shahzodalarning ilm fanga homiyligi, ijodkor olimlarga bevosita ko‘magi o‘lkada madaniyat va ma’naviyatning yuksalishiga zamin bo‘ladi. Temuriylar saltanatida hukm surgan tinchlik va osoyishtalik, ijod ahliga berilgan erkinlik hamda ularga g‘amxo‘rlik hosilasi sifatida Hirotda Lutfiy, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz Koshifiy, Fasih Havofiy, Qosimi Anvar, Davlatshoh Samarqandiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond, Xondamir, Husayn Boyqaro singari buyuk shoir va tarixchilar, rassomlar etishib chiqadilar va o‘zlarining sermahsul ijodlari bilan o‘lka xalqlari ma’naviy taraqqiyotiga muhim hissa qo‘shdilar.

Husayn Voiz Koshifiy (1442/46-1505) islom dinining yirik nazariyotchilaridan biri bo‘lishi bilan bir qatorda falsafa, axloq, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, siyosat, tarix, astronomiya, notiqlik san’ati, tibbiyot kabi sohalarga oid 200 dan ortiq asar yozgani ma’lum [3]. Husayn Voiz Koshifiyning iste’dodini yuqori baholar ekan, uni o‘z himoyasiga oladi, unga yaqindan homiylik

qiladi. Alisher Navoiy o‘zining «Majolis un nafois» tazkirasida Husayn Voiz Koshifiyga alohida o‘rin ajratgan. Husayn Voiz Koshifiy ham Alisher Navoiyga bag‘ishlab «Mavohibi oliya» («Oliy tuhfalar») asarini yozgan.

Uning bir qancha asarlarida sharqona axloq odob qoidalari mukammal ravishda bayon etiladi. Alloma insonning hayot faoliyati uchun zarur bo‘lgan barcha axloqiy qoidalarni yoritishga harakat qilgan. Xususan, «Futuvvatnomai Sultoniy yoxud Javonmardlik tariqati» asarida har biri kishi rioya etishi lozim bo‘lgan taom yeyish va suv ichish odobi, o‘tirish va suhbat qilish odobi, kiyim kiyish va safar qilish odobi, mehmon kutish va yo‘lda yurish, salom berish, birodarlar haqini ado etishga oid axloq qoidalarini izohlab beradi.

Alloma inson faoliyatida sog‘lom ovqatlanish zarurligini ta’kidlar ekan, taom yeyish qoidalari xususida alohida to‘xtalib o‘tadi. U taom yeyish odobi xususida fikrlarini bayon etishdan avval shunday deydi: “…hayvonning yeyishi bilan insonning yeyishi orasida farq bo‘lishi kerak. Chunki hayvon yeyish uchun yashaydi, odam esa yashash uchun yeydi. Bu ikki xil yeyishning farqi odobda bilinadi. Ya’ni odamzod taom yeyish odobi va qoidalarini saqlaydi, ammo hayvonlar bundan bexabardirlar. Agar taom yeyish qoidalari nechta, deb so‘rasalar, o‘ttiz yettita deb aytgil”. Koshifiy axloqiy mavjudod sifatida insonning har bir faoliyati, xususan, ovqatlanish jarayoni ham muayyan axloq-odob qoidadalari asosida bo‘lishi lozimligini ta’kidlamoqda.

Islom dini nuqtai nazaridan taom yeyish qoidalarini quyidagicha tasniflaydi: “To‘rttasi farz va to‘rttasi sunnat, to‘rttasi mustahab va o‘ntasi adab va to‘rt hurmat va to‘rtta hikmat va yettitasi ehtiyot qoidalari” [1.72]. Alloma farz deganda halol luqmani qo‘lga kiritish, shukur qilish va pok taomni eyish, ya’ni ovqat najosatli va bulg‘anmagan bo‘lishi kerakligiga urg‘u beradi.

Taom yeyishning sunnat amalini bayon etar ekan, ovqatlanishdan oldin qo‘lni yuvish va o‘ng qo‘l bilan ovqatlanishga e’tibor qaratadi.

Husayn Voiz Koshifiy ovqat yeyishni, avval tuzdan boshlashni, ovqatni dasturxon yozib yeyish va dasturxon atrofida o‘tirgan odamlarni ovqatga taklif qilishni taom yeyishning mustahab amallaridan deb hisoblaydi. [1.73]

Taom iste’mol qilishning o‘n adabini bayon etar ekan quyidagilarni ta’kidlaydi: avval chap oyoq bilan o‘tirish; o‘zining oldidan yeyish; boshqalarning ovqat yeyishiga qaramaslik: tovoq (yoki kosa) ning bir chetidan yeyish; ovqatni uchta barmoq bilan yeyish; panjalarni yalab turish; tovoq (kosa)ni tozalab qo‘yish; agar luqma qo‘ldan tushib ketsa olish va bulg‘angan bo‘lsa, tozalab so‘ngra yeyish; taom yeyish vaqtida suyanmaslik; taomdan so‘ng qo‘lni yuvish[1.73]. Ovqatlanishning bu odob qoidalariga rioya etish barcha fuqarolardan talab etilgan. Shuning uchun ham xorijiy sayyohlar ajdodlarmizning xizmat ko‘rsatish tizimidagi etiketiga yuqori baho berganlar.

Mutafakkir alloma taom iste’mol qilish jarayonida rioya etish lozim bo‘lgan to‘rt hurmatni quyidagicha bayon etadi: “Agar to‘rt hurmat qaysidir deb so‘rasalar, aytgilkim, bu: birinchidan, taom yeyish paytida boshini qashimaslik, ikkinchidan burunni artmaslik, uchinchidan, og‘izni suvini oqizmaslik, to‘rtinchidan, og‘izga ovqat olib birov bilan gapirmaslik” [1.73].

Alloma luqmani katta olmaslik: ovqatni yaxshilab chaynash, ko‘p narsa yemaslik: to‘q qoringa ovqat yemaslikni taom yeyishning to‘rt hikmati deb ta’riflaydi. Ajdodlarimiz etiketini tashkil etgan taomlanish axloq-odob qoidadalari zamonaviy tibbiyotda, xususan, bugungi kundagi gigiyenaga oid adabiyotlarda ham muhim tamoyil sifatida e’tirof etiladi [4.11-229].

Husayn Voiz Koshifiydir taom yeyishning yettita ehtiyot qoidalari deganda quyidagilarni nazarda tutadi: avval hech bir taomni yomon ta’rif qilmaslik, agarchi yaxshi pishmagan bo‘lsada: ovqat qayerdan keltirilgani va kimniki ekanini bilib olmaguncha yemaslik; yolg‘iz ovqatlanmaslik; o‘tirganlarni hammasini ovqatga chorlash; maqtanish, manmanlik yuzasidan ovoza tarqatish uchun berilgan ovqatni yemaslik; taziya oshidan parhyez qilish; bitta taom yeyish bilan qanoatlanish [2.74]. Alloma o‘zining mazkur asarida suv ichishning ham o‘n bir qoidasini batafsil bayon etadi.

Ko‘rinib turibdiki, musulmon Sharq etiketida ovqatlanish jarayonida eng nozik axloqiy talab va qoidalar ham chetda qolmagan. Biz faqat ovqat yeyish odobi xususidagi Husayn Voiz Koshifiy fikrlarini bayon etdik. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, inson faoliyati barcha munosabatlarga doir axloq-odob qoidalari alloma mana shunday batafsil bayon etilgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qiladigan bo‘lsak, birinchidan, O‘rta asrlarda musulmon Sharq etiketida ovqatlanish odob-axloq qoidalariga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, mutafakkir allomalarimiz bu qoidalarni o‘z asarlarida nazariy jihatdan asoslab berganlar.

Ikkinchidan, temuriylar davrining yetuk allomasi Husayn Voiz Koshifiy o‘z asarlarida ovqatlanish odob qoidalarini batafsil yoritib bergan.

Uchinchidan, ajdodlarimiz etiketida keng o‘rin olgan ovqatlanish odob – axloq qoidalari, xususan Husayn Voiz Koshifiy bayon etgan taom eyishdagi axloqiy talablar hanuzgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas.

Shu bois mutafakkir allomalarimiz tomonidan bayon etilgan sharqona etiket qoidalari, xususan, taom yeyish axloq-odob qoidalarini bugungi kunda kengroq targ‘ib etish maqsadida quyidagilarni taklif etamiz:

Birinchidan, ta’lim-tarbiya jarayonida, ayniqsa uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida alloma ilmiy merosini tarbiyaviy ahamiyatini kengroq yoritish lozim. Ikkinchidan “Odobnoma” va “Tarbiya” darslarida ovqatlanish etiketini bayon etgan alloma ilmiy merosidan samarali foydalanish zarur, uchinchidan, ommaviy axborot vositalarida, ayniqsa ko‘rsatuv va radio eshittirishlarda Husayn Voiz Koshifiyning axloqiy ta’limotini kengroq yoritib borish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ҳусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний. Ахлоқи муҳсиний.-Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашри, 2011.-376 бет
2. Ҳусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний. Ахлоқи муҳсиний.-Т.: «O”ZBEKISTON» НМИУ. 2019.-382 бет
3. Р.Ж.Маҳмудов. Ҳусайн Воиз Кошифий/Маънавият юлдузлари. Т. 2001й.241-245 бетлар
4. Шелтон Г.М. Основы правильного питание//Наука исцеления. Книга 3. Издательство «Деловая книга»г.Екатеринбург.1996г.стр.11-229.
5. А.Азизқулов. Ҳусайн Воиз Кошифийнинг илмий меросида хизмат кўрсатиш одоблари талқини//“Сервис” илмий амалий журнал 2020 № 2. 47-50 бетлар
6. А.Азизқулов, А.Алимов Ҳусайн Воиз Кошифий асарларида мусулмон шарқ халқлари этикети талқини. //Термизий уламоларнинг Ислом тамаддуни ва жаҳон цивилизацияси ривожига қўшган ҳиссаси. 2021 йил 23-июнь Термизда бўлиб ўтган халқаро илмий онлайн-конференция мақолалари тўплами «TURON NASHR» нашриёти Самарқанд – 2021й. 306-312 бетлар.

А.Азизкулов, А.Алимов

Интерпретация этикета питания в научном наследии Хусейна Ваиза Кошифи

Аннотация: В данной статье рассматриваются взгляды на этикет питания, разработанные Хусейном Ваизом Кошифи, крупным учёным эпохи Тимуридов. В статье также обосновывается тот факт, что выдвинутые ученым правила восточного этикета, в частности правила этикета питания, не потеряли своего значения и в наши дни.

Ключевые слова: Хусейн Ваиз Кошифи, научное наследие, мораль, нравы, питание, этикет, ценности.

A. Azizkulov, A.Alimov

Interpretation of food etiquette in the scientific heritage of Hussein Waiz Koshifi

Abstract: This article examines the views on food etiquette developed by Hussein Waiz Koshifi, a major scholar of the Timurid period. The article also substantiates the fact that the rules of eastern etiquette put forward by the scholar, in particular the rules of food etiquette, have not lost their significance even today.

Keywords: Hussein Waiz Koshifi, scientific heritage, morals, customs, food, etiquette, values.

Faxriddin Azimovich Djalilov – Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti

XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDA INNOVATSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISH OMILLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada xizmat ko‘rsatish sohasida yangi xizmatlarni ishlab chiqish, yangi xizmatlarni yaratish, innovatsion faoliyatni rivojlantirishning omillari, xizmatlar iste’molchisi hamda xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik, innovatsion xizmat ko‘rsatish, xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion faoliyatni amalga oshirish omillari tadqiq qilingan.
Kalit so‘zlar: xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion faoliyat, venchur firmalar, o‘zaro munosabatlar marketingi, innovatsiya, innovatsiyalarni o‘zlashtirish, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot.

Kirish. Hozirgi bosqichda respublikamiz iqtisodiyotida intellektual mehnatning ahamiyati yanada ortib bormoqda, busiz yuqori texnologiyani o‘zlashtirish, xizmatlar bozorida mustahkam o‘rin egallash mumkin emas.

Har bir mamlakat taraqqiyotning barcha manbalaridan bir vaqtda foydalanadi. Iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va samaradorligi manbalar tarkibi bilan belgilanadi.

Innovatsion xizmat ko‘rsatishning asosiy yo‘nalishlaridan biri yangi xizmatlarni ishlab chiqish va harakatlantirishdir. Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitda xizmat ko‘rsatish korxonalari qisqa vaqt ichida iste’molchilar talabiga javob beradigan mobil, yangi xizmatlarni yaratishi zarur.

Yangi xizmatlarni ilgari surish iste’molchining xususiyatlari, uning kutishlari va tajribasi, ya’ni hatti-harakatlariga ta’sir qiluvchi omillarga jiddiy e’tibor berishni talab qiladi. Ushbu xizmatlar birgalikda ishlab chiqarish va xizmatlar iste’molchisi hamda xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar (tashkilotlar) o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik zarurligini talab etadi. Ushbu holatda iste’molchi bilan o‘zaro munosabatda asosiy rol o‘ynaydigan xizmat sifati alohida ahamiyatga ega. Natijada, xizmat ko‘rsatish korxonasining xodimlarga qo‘yadigan talablari o‘sib borishiga olib keladi.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlar tahlili. O‘rganilayotgan muammoga bag‘ishlangan ilmiy ishlarda xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanish holati bo‘yicha turli xil ta’riflar berilgan. A.S.Basyuk, Y.I.Manuylovalar[1] fikricha, uchta asosiy funksiyaga ega innovatsion texnologiyalarni tasniflaydilar. Birinchi funksiya reproduktiv, ikkinchisi investitsion va uchinchisi rag‘batlantirish bilan bog‘liq funksiyalardir. Birinchi holatda, innovatsiyalardan olingan foyda resurslar manbasini yaratishga sarflanadi. Ikkinchi holda, bu foyda innovatsion ishlanmalarni moliyalashtirish uchun ishlatiladi. Uchinchi holatda, innovatsiyalarni joriy etish rivojlanish va yangi kashfiyotlar qidirishni rag‘batlantiradi.

L.I.Donskova, A.G.Redkin, O.V.Otto, N.N.Bespalovalar[2] xizmat ko‘rsatish korxonalari va tashkilotlarini rivojlantirishda innovatsiyalar o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, o‘ziga xos xususiyatlar quyidagilar hisoblanadi: innovatsiyalar yangi ehtiyojlarni shakllantiradi yoki mavjud ehtiyojlarni qondirish darajasini oshiradi; innovatsion strategiyalarni ishlab chiqish muhimdir; muayyan iste’molchiga yo‘naltirilgan mijozlarga yo‘naltirilgan ishlanmalar dolzarbdir; xizmat ko‘rsatish korxona va tashkilotlaridagi innovatsion faoliyat, nafaqat menejerning innovatsiyalarga bo‘lgan munosabatiga, balki tashkilot xodimlarining innovatsion xulq-atvori bo‘yicha motivatsiyasiga ham bog‘liqdir.

K.V.Barminaning[3] fikricha, xizmat ko‘rsatish sohasida institutsional innovatsiyalar sub-yektlari va iste’molchilarning o‘zaro munosabatini muhim deb hisoblaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion faoliyatni amalga

[1] Басюк А.С., Мануйлова Ю.И. Инноватсии в индустрии гостеприимства // Электронный сетевой политематический журнал «Научные труды КубГТУ». 2016. № 14. С. 175-185.

[2] Донскова Л.И., Редкин А.Г., Отто О.В., Беспалова Н.Н. Приоритеты инновационной деятелности на предприятиях социально-культурного сервиса и туризма: российский опыт // Сервис в России и за рубежом. 2019. Т. 13. Вып. 1. С. 6-18. ДОИ: 10.24411/1995-042X-2019-10101; Кирий Е.Э., Ковынева Л.В. Инновационная деятелност гостиничного предприятия: проблемы и пути решения // Научно-техническое и экономическое сотрудничество стран АТР в XXИ веке. 2016. Т.1. С. 254-257.

[3] Бармина К.В. Инновационная деятелност сферы услуг как форма структурных и институционалных изменений // Актуалные проблемы гуманитарных и социально-экономических наук. 2017. Т.5. №11(11). С. 12-14.

oshirish bilan bog‘liq ilmiy-nazariy qarashlar xorijiy va MDH olimlarining ta‘riflarini taqqoslash, tizimlashtirish, xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion faoliyatni amalga oshirishda omillarni o‘rganishda tahlil va umumlashtirish, xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion faoliyatni amalga oshirish omillari tasnifini yoritishda tizimli tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Innovatsion xizmat xizmat faoliyatining samaradorligini ko‘rsatuvchi iste’molchilar va xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarning “interaktiv o‘zaro munosabati” bilan bog‘liq. Ushbu o‘zaro munosabat qo‘shma faoliyatning yangi kanallarini shakllantiradigan, yangi munosabatlarni yaratadigan innovatsiyalarni shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Natijada, sohani har tomonlama rivojlanishi uchun xizmat ko‘rsatish bo‘yicha yangi g‘oyalarning yaratilishi qo‘shimcha foydaning oshishiga, sinergetik samaraga olib keladi, deyish mumkin. Xizmat ko‘rsatish sohasining mahsuloti – unda ishtirok etadigan sub’ektlar bilan xizmatlarni birgalikda yaratish natijasidir.

Xizmat ko‘rsatish sohasida korxona muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omil – bu iste’molchining afzal ko‘rgan tizimlari va ularning rivojlanish tendensiyalarini tushunish, hamda ehtiyojlarni eng yaxshi tarzda qondirish qobiliyati hisoblanadi. Iste’molchi uchun xizmat ko‘rsatish jarayoni natija singari muhim ahamiyatga ega, shuning uchun xizmat ko‘rsatish sohasida ham “tashqi”, ham “ichki marketing”dan foydalanish talab etiladi. Shu bilan birga, “o‘zaro munosabatlar marketingi” ham qo‘llaniladi. Bu xodimlarning iste’molchini individual ehtiyojlarini nazarda tutib, sifatni ta’minlash, malakali xizmat ko‘rsatish, mijoz bilan uzoq muddatli munosabatda bo‘lish, raqobatbardoshlikka erishish shart-sharoitlarini belgilaydi.

Yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish resurslardan unumli foydalanish, mehnat unumdorligini va korxonaning rentabelligini oshirishga yordam beradi.

Olimlarning yondashuviga ko‘ra, xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsiyalar va innovatsion jarayonlarning yangi shakllari paydo bo‘lmoqda. Bu, birinchi navbatda, ularni tovarlardan sifat jihatidan ajratib turuvchi xizmatlarning nomoddiyligi va interaktivligi bilan bog‘liqdir.

1-jadval

Yangi ko‘rinishdagi xizmatlar tavsifi[1]

Xizmatlarning yangi hisoblanishiga ko‘ra	Yangi xizmat turi	Izohi
Yangi ehtiyojlarni qondirishiga ko‘ra	Bozorda oldin o‘xshashi bo‘lmagan, birinchi marta taklif qilinayotgan xizmatlar	Telefon orqali inson harakatlarini kuzatish
Yangi iste’molchiga munosabat bo‘yicha	Joriy qilishning yangi sohasi uchun xizmatlar	Onlayn doktor (masofaviy maslahatlar berish)
Eskirgan xizmatlarga munosabat bo‘yicha	O‘xshash bo‘lganlariga nisbatan tubdan yaxshilanishga xos bo‘lgan xizmatlar	Onlayn fitnis mashg‘ulot, onlayn o‘qish
	O‘zining o‘xshashlari ichida ba’zi takomillashishlarga ega xizmat	Shahar bo‘yicha onlayn ekskursiya, keytering
Yangi bozorga munosabati bo‘yicha	Tanlangan bozor uchun yangi, boshqa bozorlarga realizatsiya qilingan xizmatlar	Muayyan hududda mahsulotlarni yetkazib berish


Innovatsion faoliyat korxonalar doirasida ham mustaqil venchur firmalar, ham shu maqsadda maxsus tuzilgan bo‘linmalar (ichki korxonalar) tomonidan realizatsiya qilinishi mumkin.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida innovatsiyalarni o‘zlashtirish quyidagicha: bir tomondan, innovatsiyalarni xizmat ko‘rsatish amaliyotiga joriy etishning murakkabligini tushunishga imkon beradi, boshqa tomondan, xizmat ko‘rsatish sohasida ijodiy salohiyat mavjudligidan dalolat beradi.

Xizmat ko‘rsatish korxonasining innovatsion faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi ichki omillar guruhiga korxonani boshqarish doirasida ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega omillar kiradi.

[1] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Bizning fikrimizcha, innovatsion faoliyatni amalga oshirganda, xizmat ko‘rsatish korxonasining tashqi muhit bilan aloqadorlikda yuqori natijalarga erishishini baholash mumkin.



1-rasm. Innovatsion faoliyatni amalga oshirganda xizmat ko‘rsatish korxonasining tashqi muhit bilan aloqadorligini baholash[1]

Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari faoliyatini rivojlantirish, resurslardan samarali foydalanish, iqtisodiy samaradorlikka erishish, xodimlar kompetensiyasini ta’minlash, innovatsion salohiyatni oshirish, xizmatlar sifati va raqobatbardoshligini oshirish, ilmiy-texnik taraqqiyot natijalarini amaliyotga tadbiq etish natijasida ijtimoiy mehnat unumdorligining o‘sishini ta’minlash, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot (ITT)ni tadbiq qilishga ko‘maklashuvchi xizmat ko‘rsatish sohasini barqaror rivojlantirishning intensiv omillarini kuchaytirish yo‘nalishlari bo‘yicha muhim bosqich sifatida sohada innovatsion faoliyatni rivojlantirish omillarni aniqlash, ularni ta’sir darajalariga qarab tasniflash va tahlil qilish hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, umumiy holda innovatsion faollik quyidagilardan iborat bo‘ladi:

– litsenzion kelishuvlar asosida intellektual mulk obyektlari (patentlar, nau-xau va boshqalar);

– innovatsion faoliyat uchun shartnomalarni tarafdor tashkilotlar bilan tuzish;

– hamkorlikdagi tadqiqotlarni o‘tkazishni tashkil etish;

– xizmat ko‘rsatish korxonalari o‘z mablag‘larini venchur firmalariga kiritish.

Respublikamiz hududlarida xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion faoliyat rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan omil sifatida innovatsion madaniyatining pastligi, innovatsiyalarga talab va taklif o‘rtasidagi nomuvofiqlikning mavjudligi hamda olimlar va ixtirochilarning o‘z ixtirolarini joriy qilishning tashkiliy masalalari bo‘yicha tajribalarining yetishmasligini keltirish mumkin.

Jahondagi xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion faoliyatning rivojlanishi yutuqlaridan foydalanish mamlakatimizga bu sohada keng imkoniyatlarni beradi va bozorda raqobat muhitini yuzaga keltiradi.

Respublikamiz iqtisodiyotining jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvi sohani xizmatlar sifati, boshqarish tizimidagi rivojlanish yo‘nalishlari, xizmatlarning assortimenti g‘oyasini o‘zgartiradi va bu tushunchalarni jahon standartlariga imkon qadar yaqinlashtiradi.

Shuningdek, innovatsion faoliyatni faollashtirish korxonalarning egallab turgan bozoridagi barqaror holati va rivojlanish dinamikasini ta’minlashning shart-sharoiti, hamda uning raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Qo‘yilgan maqsadga erishish korxonaning innovatsion faoliyatini tizimli tahlilisiz amalga oshirib bo‘lmaydi.

Xizmat ko‘rsatish korxonalarining innovatsion faolligini oshirishning muhim institutsional omillari va shart-sharoitlari bo‘lib, bozordagi raqobat muhiti, ilm-fan va ta’lim tizimi hamda qonunchilik bazasi hisoblanadi.

[1] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

2-jadval

Xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion faoliyatni realizatsiya qilishga ta’sir qiluvchi asosiy omillar[1]

Omillar guruhi	Innovatsion faoliyatga to‘siq bo‘luvchi omillar	Innovatsion faoliyatni rag‘batlantiruvchi
Iqtisodiy, texnologik	Innovatsion faoliyatni moddiy va ilmiy-texnik bazaning zaifligi, moliyalashtirish manbalarining yetishmasligi, an’anaviy ishlab chiqarishning ustunligi, zahira quvvatlarning mavjud emasligi.	Progressiv texnologiyalar, moliyaviy mablag‘lar, zarur xo‘jalik va ilmiy-texnik infratuzilma va moddiy-texnik vositalarning mavjudligi.
Siyosiy, Huquqiy	Monopoliyaga qarshi choralarning to‘liq amalga oshirilmasligi, soliq, sug‘urtalash, patentlash-litsenziyalash qonunchiligidagi mavjud cheklovlar.	O‘zbekiston Respublikasi “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni, innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish va uni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha me’yoriy-huquqiy baza.
Ijtimoiy-psixologik, Madaniy	Xodimlar maqomini o‘zgarishi, mehnatning intellektuallashuv darajasi sifatida yuzaga keladigan o‘zgarishlarga qarshilik ko‘rsatish, yangi ish izlashning zarurati, omadsizlik tashvishidan xavotirga tushish, an’analar va xulq-atvor andazalarining buzilishi, faoliyatning eskirgan usullarini qayta qurish, noaniqlik qo‘rqinchi.	Innovatsion jarayonlar ishtirokchilarini ma’naviy rag‘batlantirish, ijtimoiy tan olish, o‘z-o‘zini namoyon etish imkoniyatlarini ta’minlash, erkin ijodiy mehnat. Mehnat jamoasida normal ijtimoiy-psixologik muhitning mavjudligi.
Tashkiliy-boshqaruv	Korxonada mehnatni tashkil etishning eskirgan usullari va uning tashkiliy tarkibi, boshqaruv jarayonini haddan tashqari markazlashtirish, boshqaruv-ning avtoritar uslubini ustun darajada ekanligi, idoraviy yopiqlik, tarmoqlararo va tashkilotlararo aloqalari murakkabligi, qat’iy rejalashtirish, innovatsion jarayonlar ishtirokchilari manfaatlarini muvofiqlashtirishning murakkabligi, xizmatlarni joriy bozorga yo‘naltirilganligi.	Tashkiliy tuzilmalarning egiluvchanligi, boshqaruvning demokratik uslubi, axborotlarni gorizontal oqimlarining ustunligi, o‘zini o‘zi rejalashtirish, taxminiy tuzatishlar kiritish, detsentrilizatsiya, muqobillik, maqsadli ishchi guruhlarining shakllanishi.

Xulosa va takliflar. Bizning fikrimizcha, xizmat ko‘rsatish sohasida korxonalarning innovatsion rivojlanishining me’yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, loyihalar va ularni respublika iqtisodiyotini rivojlantirishning yo‘nalishlari va tarmoqlari bo‘yicha tizimlashtirish, kichik va xususiy korxonalar uchun subsidiyalar yoki byudjet ssudalari mamlakatimizda va xorijda innovatsion faoliyatni himoya qilish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash boshqaruv tuzilmalari tomonidan qo‘llab-quvvatlashning asosiy shakli hisoblanadi. Bunday faoliyat ilmiy-texnikaviy dasturlarning maqsad va vazifalariga muvofiq innovatsiyalarni yaratish va innovatsion faoliyatni takomillashtirishni maqsad qilib qo‘yadi:

– yagona davlat innovatsion siyosatini realizatsiya qilish bo‘yicha innovatsion infratuzilmasini rivojlantirish, ilmiy-texnikaviy dasturlarning maqsadga muvofiqligini asoslash;

– mualliflik huquqi, intellektual mulkni himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish;

– davlat-xususiy sherikchiligi asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarining innovatsion faolligini oshirish;

– xizmat ko‘rsatish sohasida mutaxassislar tayyorlashning zamonaviy shakllari va usullarini joriy etish.

[1] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni. – httpc://lex/uz/docs/5073447
2. Басюк А.С., Мануйлова Ю.И. Инновации в индустрии гостеприимства // Электронный сетевой политематический журнал «Научные труды КубГТУ». 2016. № 14. С. 175-185.
3. Донскова Л.И., Редкин А.Г., Отто О.В., Беспалова Н.Н. Приоритеты инновационной деятельности на предприятиях социально-культурного сервиса и туризма: российский опыт // Сервис в России и за рубежом. 2019. Т. 13.
4. Бармина К.В. Инновационная деятельность сферы услуг как форма структурных и институционалных изменений // Актуальные проблемы гуманитарных и социально-экономических наук. 2017. Т.5. №11(11). С. 12-14.
5. Djalilov F.A. Xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari // Diss. iqt. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). – Samarqand: SamISI, 2023. 109-130-b

Ф.Джалилов

Факторы реализации инновационной деятельности в сфере сервиса

Аннотация: в данной статье изучается разработка новых услуг в сфере обслуживания, их реализация, факторы развития инновационной деятельности, взаимное сотрудничество потребителей услуг и предприятий сферы услуг, предоставление инновационных услуг, факторы реализации инновационной деятельности в сфере услуг.

Ключевые слова: инновационная деятельность в сфере сервиса, венчурные фирмы, маркетинг взаимоотношений, инновации, внедрение инноваций, научно-технические разработки.

F.Jalilov

Factors of implementation of innovative activities in the sphere of service

Abstract: This article studies the development of new services in the service sector, their implementation, factors of development of innovative activities, mutual cooperation of consumers of services and enterprises in the service sector, provision of innovative services, factors of implementation of innovative activities in the service sector.

Keywords: innovative activities in the service sector, venture firms, relationship marketing, innovations, implementation of innovations, scientific and technical developments.

Zubayda Ubaydullayevna Shodmanova – SamISI, “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasi assistenti

XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDAGI KORXONALARNING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH CHORALARINI O‘RGANISH VA TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxonalarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, xavflarni oldini olishd hamda iqtisodiy xavfsizlikka erishishda ularni chuqurroq o‘rganish, bugungi kundagi muammolarning yechimlarini tahlil qilish bo‘yicha bir qancha fikrlar keltirilgan. Xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxonalarning iqtisodiy xavfsizligini ichki va tashqi tahdidlardan himoyalash hamda xavfsizlikka erishishda turli yondashuvlar o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy xavfsizlik, risklarni boshqarish, xavfsizlikni ta’minlash shtabi, samarali raqobat strategiyasi, axborot xavfsizligi, globallashuv va xalqaro tahdidlar, xavflarni sug‘urtalash, ichki va tashqi tahdid, moslashuvchanlik.

Kirish. Bugungi global jarayonlar avj olib borayotgan bir paytda jahonda xizmat ko‘rsatish sohalarining rivojlanishi iqtisodiyotning samarali shakllaridan biri hisoblanadi. Xizmatlar sohasining rivojlanishida hududiy iqtisodiyot, shuningdek aholining hayot kechirishi bilan bog‘liq manfaatlarga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy xarakterdagi bir qator xatarlar mavjuddir. Jahonning nufuzli ilmiy-tadqiqot, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarini o‘rganish bo‘yicha yetakchi muassasalarda xizmat ko‘rsatish korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash, faoliyat barqarorligini ta’minlovchi omillar hamda iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi ijtimoiy, institutsional va infratuzilmaviy xatarlarni aniqlash, mavjud ilmiy-texnik, resurs va inson salohiyatidan samarali foydalanish, iqtisodiyotning tarkibiy o‘zgarishlar sharoitida, innovatsion faollik, aholining turmush tarzi darajasi o‘zgarishi bilan kechadigan jarayonlarning iqtisodiy xavfsizlikka ta’sirini tadqiq etish yo‘nalishida ilmiy tadqiqotlar olib borish juda muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasining milliy iqtisodiyot tizimida tez rivojlanib borayotgan tar-

moqlaridan biri sifatida xizmatlar sohasining YIMdagi ulushi 39,1% ni tashkil etadi. “...2023 yilda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 470,3 trillon so‘mni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilga nisbatan 113,7 foiz”. Biroq, so‘nggi 5 yillikda mamlakatimizda jami xizmatlar hajmida shaharlarning ulushi 3,1 foiz bandga kamaygan. Respublikamiz hududlarida xizmat ko‘rsatishning yetarlicha tashkil qilinmaganligi, asosan yirik shaharlar va gavjum aholi manzillarida to‘planganligi (yirik shaharlar jami ko‘rsatilgan xizmatlarning 62,1% ni tashkil etgan), capital qo‘yilmalar, ilmiy-texnika va inson resurslari salohiyatining zayifligi, hamda xizmat ko‘rsatish korxonalarining raqobatbardoshlik darajasining pasayishi kuzatilmoqda. Xususan, xizmatlar sohasida faoliyat olib borayotgan korxonalarning iqtisodiy xavfsizligining asosiy maqsadi — barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash va moliyaviy resurslarni samarali boshqarishdir. Bu jarayonda xavflarni minimallashtirish, raqobatbardoshlikni oshirish va uzoq muddatli muvaffaqiyat uchun strategiyalar ishlab chiqish muhimdir. Shuningdek, ichki va tashqi omillardan kelib chiqadigan risklarni boshqarish ham asosiy vazifalardan biridir. Bu maqsadga erishish uchun moliyaviy rejalashtirish va nazorat jarayonlari zarur. Undan tashqari iqtisodiy xavfsizlik va uni ta'minlash mexanizmini konseptual ravishda belgilab, shuni ta'kidlash mumkinki, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning har qanday mexanizmi davlat va mintaqa hokimiyatining, xo‘jalik yurituvchi subyektlar rahbariyatining iqtisodiyotning barqarorligi va barqarorligiga erishish istagi, ishlab chiqilgan ko‘rsatkichlar va chegaralar tizimi asosida iqtisodiy o‘sish va rivojlanish, shuningdek, qo‘shimcha foyda olish va innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishga eng yaxshi hissa qo‘shadigan afzalliklar, optimal tashqi siyosat yuritishga erishish, shuningdek, samarali milliy va mintaqaviy siyosatni amalga oshirish zarur.

Xizmat ko‘rsatish korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash bu uzluksiz jarayondir va bunda vujudga keladigan zararlarning oldini olish korxona uchun doimiy vazifadir. Zarar, xavf-xatar, tahdidlarni oldini olish va korxonada iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash uchun iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash strategiyasi bo‘lishi talab etiladi. Afsuski, bugungi kunda ko‘pgina korxonalar iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash haqida ma’lumotga ega emaslar, korxonalarda barcha bo‘limlar o‘z faoliyatiga mas’ulligi bilan cheklanib qolishadi. Rivojlangan davlatlarning yirik kompaniya, konsorsiumga aylangan korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha shtablar faoliyat olib boradi. Aynan bizda xizmat ko‘rsatish korxonalarida iqtisodiy xavfsizligi bo‘limi yuq, korxona iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash shtabi (kengashi) mavjud. Shtab (kengash) korxona iqtisodiy xavfsizligi strategiyasini ishlab chiqadi. Strategiyani ta’minlash uchun korxona iqtisodiy xavfsizligi tizimi ishlab chiqiladi va faoliyat yuritadi. Xizmat ko‘rsatish korxonalarining iqtisodiy xavfsizligi tizimi uning ichki tahdidlari ya’ni, ilmiy – texnikaviy, ishlab chiqarish salohiyati hamda kadrlar faol va nofaol iqtisodiy tahdidlardan, masalan, korxonaning samarasiz ilmiy – sanoat siyosatidan yoki tashqi muhitda yuzaga kelgan tahdidlardan himoyalanganligi tushuniladi. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash muammosi, hozirgi vaqtda dolzarb masaladir, chunki korxonaning xavfsizligi bevosita xo‘jalik yurituvchi subyektning faoliyati samaradorligi bilan bog‘liq. Bundan tashqari, bozorda raqobatning kuchayganligi, tovar iste’molchisini topish, bozor muhitiga moslashish, talab va taklif qoidalariga amal qilishda korxonalar ma’lum choralar ko‘rishga majbur. Korxona risklarini tahlil qilish nafaqat katta moddiy yo‘qotishlarni, balki tuzatib bo‘lmaydigan zararni va hatto bankrotlikdan ham qochish imkonini beradi. Iqtisodiy xavfsizlik biznes faoliyatining ajralmas elementi bo‘lib, korxonaning butun hayoti davomida tadbirkorlik faoliyatiga xos bo‘lgan tahdidlarni boshqarishning murakkab tizimidir. Bu raqobat va iqtisodiy tavakkalchilik sharoitida biznes maqsadlariga erishishni ta’minlash zarur.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Iqtisodiyotning ayrim subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash va uning holatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash masalalari ushbu tadqiqotchilar asarlarida ko‘rib chiqilgan: Avdiyskiy V.I, Blank I.A., Grunin O.A., Zelenkov M., Kormishkina L.A., Vechkanov G.S., Kostin V.I., Popov A.I., Gradov A.P., E.A. Oleynikova, V.K. Senchagova, V.I. Yarochkina, V.A. Chernova, L.I. Abalkina, E.A Glazyev S.Yu., Kozachenko A.V., Ponomaryov V.P., Lyashenko A.N., Belkov A.A., Prokhojev A.A va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. Iqtisodiy xavfsizlik masalasini bugungi kunda vatanimiz olimlari ham o‘rganib kelmoqda. Jumladan: Q.X.Abdurahmonov, M.Q.Pardayev, B.A.Abdukarimov, X.P.Abulqosimov, Z.N.Kurbanov, D.I.Ismatov, M.M.Muhammedov, G.Axunova, M.X.Saidov, A.A.Maxmudov, E.N. Xodjayev, A.E.Ishmuhammedov,

A.I.Igamberdiyev, Z.Yu.Aminovlarning ilmiy-tahliliy tadqiqotlarida ham keng yoritilgan. Tadqiqotchilar ishidagi omillar va tahdidlar muammolarini umumlashtirish iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash vositalarini tahlil qilishga o‘tishga imkon beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda xizmatlar sohasining rivojlanishida kuzatish, abstrakt, mantiqiy tahlil, tizimli tahlil, ekstropolyatsiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Adabiyotda eng ko‘p keltirilgan iqtisodiy xavfsizlik ta’riflaridan biri S.Yu. Glazyev tomonidan shakllantirilgan : “Iqtisodiy xavfsizlik – bu mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini, davlat xavfsizligining zarur darajasini va global raqobat sharoitida iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustaqil ta’minlash imkoniyatlari nuqtai nazaridan iqtisodiyot va jamiyatning ishlab chiqarish kuchlari holatidir.”

A.V. Kozachenko, V.P. Ponomaryov va A.N. Lyashenko iqtisodiy xavfsizlikni korxona boshqaruvining tashqi muhit o‘zgarishlariga o‘z vaqtida javob berish qobiliyati deb bilishadi. Ular vaziyatli yondashuv yordamida korxonani o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashishida tezkor va adekvat javobning muhimligini ko‘rsatishgan. A.A. Belkovning fikriga ko‘ra, iqtisodiy xavfsizlik – bu mamlakatning saqlanishi va rivojlanishi kerak bo‘lgan holatdir.

Prokhojev A.A. iqtisodiy xavfsizlikni–- shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy sohadagi muhim manfaatlarini ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish, deya ta’riflagan.

“Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasining ta'rifi iqtisodiy xavfsizlik modelini shakllantirish va bu holatda davlat o‘zining barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini mustaqil ta’minlay oladi. Shuningdek, ayrim iqtisodchilar va mutaxassislar iqtisodiy xavfsizlikni davlat aholi hayoti uchun normal sharoitlarni saqlab turadigan iqtisodiyotning sifatli xususiyati sifatida talqin qiladilar.

Ko‘rib turganimizdek, nuqtai nazarlar o‘xshashdir, shu sababli iqtisodiy xavfsizlikni mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini, davlat xavfsizligi darajasini va global raqobat sharoitida iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash imkoniyatlari nuqtai nazaridan iqtisodiyot va jamiyatning ishlab chiqarish kuchlari holati deb hisoblaymiz. Iqtisodiy xavfsizlik bo‘yicha ilmiy ta'riflar bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Qonunchilikda korxonaning iqtisodiy xavfsizlik darajasi deyarli ajratib ko‘rsatilmagan. Buning sababi, bizning fikrimizcha, korxona darajasidagi voqealar ko‘lami mamlakat, mintaqa yoki tarmoq darajasiga nisbatan ahamiyatsiz bo‘lishi mumkinligidir. Biroq, xo‘jalik yurituvchi subyektlar har qanday darajadagi byudjetlarga soliq to‘laydilar, shuning uchun har bir korxonaning holati fuqarolar, jamiyat va davlat manfaatlarining bir qismi hisoblanadi. Bu iqtisodiy xavfsizlikni nafaqat davlat, mintaqa yoki tarmoq darajasida, balki korxona darajasida ham ta'minlash zarurati bilan bog‘liq.

Mamlakatimiz milliy iqtisodiy tizimining ichki va tashqi muhitini o‘rganish, bu bizga iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmining bir qator shartlar va omillarni ajralmas hisobga olishni talab qiladi. Xususan, tashqi vaziyat, bozor sharoitlari, mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat, tadbirkorlik faoliyati, aholining mentaliteti, jamiyatning davlat va mintaqa hokimiyatiga bo‘lgan ishonch darajasi va boshqalarni hisobga olish kerak. Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bilan bog‘liq barcha jarayonlarga ta'sir ko‘rsatadigan asosiy omillardan biri bu globallashuvdir.

Globallashuvning iqtisodiy xavfsizlik mexanizmini shakllantirish va rivojlantirishga ta'siri, amaldagi norma va huquqiy bazaning haqiqatlarga mos kelmasligi, tashqi va ichki tahdidlarga qarshi kurashishga qaratilgan tadbirlar o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlikning yo‘qligi. Globallashuv va innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun vakolatli va samarali raqobat strategiyasini ishlab chiqish zarur, bu quyidagi tadbirlarni o‘z ichiga oladi:

- iqtisodiyotni tarkibiy modernizatsiya qilish;
- innovatsion ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta jihozlash;
- investitsiyalarni qulay kiritish mihitini yaratish;
- huquqiy bazani takomillashtirish;
- davlat boshqaruvi organlarining iqtisodiyotning innovatsion tarmoqlari va sohalarida faollikning namoyon bo‘lishi nuqtai nazaridan rag‘batlantirilishi;
- savdo bozori va qulay tadbirkorlik iqlimining bo‘lishi ;
-raqobat strategiyasini ishlab chiqish zarurati;
-inson kapitalini maqsadli shakllantirish;
-jamiyatda axloqiy va madaniy qadriyatlarni rivojlantirish.

Davlatimizda bozor iqtisodiyotining rivojlanishi korxonalarning tashkiliy va huquqiy shaklini tubdan o‘zgartirdi. Bu esa o‘z navbatida davlat va bozor institutlari bilan o‘zaro munosabatlarining tashqi va ichki shart-sharoitlarini tubdan o‘rganishni taqozo etmoqda. Bu holat boshqaruv tizimini ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqardi, shuningdek mamlakat va uning fuqarolari, korxonalar iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan choralarni ham ishlab chiqishni taqozo etadi. Hozirgi kunda o‘zgaruvchan sharoitlarda deyarli har bir korxona iqtisodiy tahdidlarga duch keladi va xavfsizlik juda katta. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar, korxonalar iqtisodiyotning turli tarmoqlari va hatto mamlakat fuqorolari ham murojaat qilishlari kerak, ularning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlanishi uchun katta sa'y-harakatlarni amalga oshirish zarur. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti o‘tkir raqobat va tashqi iqtisodiy muhit sharoitlarining o‘zgaruvchanligi bilan tavsiflanadi. Bu holat korxona rahbarlaridan o‘z bozor strategiyasini doimiy ravishda yangilab turishni, shuningdek, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha samarali strategiyani shakllantirishni talab qiladi.

O‘zgaruvchan bozor muhitida korxonalar o‘z iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun tamomila yangi yondashuvlarni izlash zarurati bilan yuzma-yuz kelmoqda (korxonaning faoliyat sohasi qanday bo‘lishidan qat'i nazar). Bu risklarni boshqarishning innovatsion usullarini ishlab chiqish, ichki resurslardan, jumladan, inson kapitalidan samarali foydalanish hamda tashqi tahdidlarga nisbatan moslashuvchanlik va moslashish qobiliyatini oshirishni o‘z ichiga oladi.

Xizmat ko‘rsatish korxonalarini boshqarishda risklarni kamaytirish choralariga, uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqish va xavflarni oldindan baholash, ichki nazoratni kuchaytirish, bu jarayonlarga xodimlarni tayyorlash, kadrlarni malaka oshirish va xavfli vaziyatlarga tayyorlash, muayyan xavflarni sug‘urtalash orqali moliyaviy yo‘qotishlarni kamaytirish va moliyaviy ko‘rsatkichlarni doimiy ravishda tahlil qilish va xavflarni nazorat qilish orqali erishish mumkin.

O‘tkazilgan tadqiqotlar xizmatlar sohasida yetarlicha ishlab chiqilmagan tadqiqot sohasini, ya'ni milliy tizimlarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, atrof-muhitning eng muhim omillari davlat siyosati va globallashuvni hisobga olgan holda mamlakatning global iqtisodiy jarayonlarda ishtirok etishini faollashtirish jarayonlarini chuqurroq rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. O‘tkazilgan tahlildan ko‘rinib turibdiki, iqtisodiy xavfsizlikni korxonaning holati sifatida talqin qilishda turli asosiy iqtisodiy xavfsizlikni aniqlashda quyidagi yondashuvlarni tahlil qilishimiz zarurdir: aniqlangan raqobatbardosh ustunliklar, himoyalanganlik darajasi, ishlab chiqarish-iqtisodiy tizim holati, faoliyat va korxona holati, uning aloqalar tizimida obyektivligi, iqtisodiy tizim holati, manfaatlar himoyasi, yuqori darajadagi faoliyat ko‘rsatkichlari, muvozanatni ta’minlash jarayonlarini o‘rganish lozimligini ko‘rsatadi.

Berilgan ta’rif va tahlillar orqali iqtisodiy xavfsizlikning quyidagi ta'rifini keltirishimiz joyizdir. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi – bu korxonaning barqaror iqtisodiy va xo‘jalik faoliyatini, hamda rejalashtirilgan rivojlanishni ta'minlash uchun mavjud resurslardan eng samarali foydalanish qobiliyati bilan tavsiflangan holati.Bunday yondashuv korxonaning iqtisodiy xavfsizligini belgilashda uning noaniqlik sharoitida faoliyat yuritishiga va belgilangan maqsadlarga erishishiga imkon beradi. Korxona tashqi muhitning har qanday, hattoki salbiy ta'sirlariga ham tayyor bo‘ladi. Shu bilan birga, u o‘zining asosiy faoliyatini davom ettiradi. Mamlakatimizning jahon iqtisodiyotidagi rolini kuchaytirishga qaratilgan kompleks strategiya chora-tadbirlarini ishlab chiqish imkonini beradi, jumladan: a) ekologik nomlarni tarkibiy modernizatsiya qilish; b) ishlab chiqarish va eksportning xom ashyo yo‘nalishini engib o‘tish; v) sanoatini texnik-texnologik qayta jihozlash; d) iqtisodiy sohadagi korrupsiya va kriminallashtirish hodisalarini engib o‘tish; e) biznes va iqtisodiy madaniyatni rivojlantirish chet ellik investorlarning ishonchli sherik sifatida qiziqishini jalb qilish va boshqa tadbirlar orqali uning tashqi va tashqi tomondan himoyalanishining maqbul darajasiga erishish imkoniga ega bo‘lishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar. Iqtisodiy xavfsizlik tushunchalari va iqtisodiy xavfsizlik sohasidagi iqtisodchilar va mutaxassislar tomonidan berilgan ta'riflarni tahlil qilish natijasida iqtisodiy xavfsizlik – bu korxonaning barqaror iqtisodiy va xo‘jalik faoliyatini, hamda rejalashtirilgan rivojlanishni ta'minlash uchun mavjud resurslardan eng samarali foydalanish qobiliyati bilan tavsiflangan holati ekanligi aniqlandi.Turli sohalarda korxona yuqori texnologiyalarga asoslangan innovatsiyalarni joriy etishga moslashuvchan va tezkor javob bera oladigan innovatsion

infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda.Tadqiqot natijalaridan foydalanishning boshqa yo‘nalishlari innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish va shakllantirish sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, mamlakatning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishining eng muhim tendensiyalarini tahlil qilish va prognoz qilish, mamlakat iqtisodiyotini davlat-huquqiy tartibga solishning yangi modelini tuzish yoki mavjud modelini tuzatish va boshqalarni alohida e'tiborga olish joyizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2022 yil 1-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2019 yil 7 martdagi PQ–4231-son Qarori.
4. Iqtisodiy xavfsizlik: Darslik / T.T. Jo‘rayev, Sh.R. Qobilov, Sh.A. Allayarov, X.S. Asatullayev; - T.: "Iqtisod-Moliya", 2020
5. Abulqosimov X.P. Iqtisodiy xavfsizlik: Nazariya va amaliyot. O‘quv qo‘llanma. - T.: Noshirlik nashriyoti, 2019 - 620 b.
6. Abulqosimov X.G., Rasulov T.S. va b. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi va raqobatbardoshligini ta'minlashning barqaror yo‘nalishlari. Monografiya. - T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot - matbaa uyi". 2019. - 395 b.
7. Абулкосимов Х.П. Давлатнинг иқтисодий хавфсизлиги. - Т.: «Akademiya», 2012. -102 б.
8. V. Pankov., Iqtisodiy xavfsizlik: mohiyati va ko‘rinishlari. Xalqaro ishlar, 2010 yil, 12-son, 107-119-b.
9. Prudius E. V., “Iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasi va tizimi to‘g‘risida”, “Huquq sohasidagi biznes”, 2008 yil, № 1, B.66 -70.
10. Gubareva I. O. Milliy iqtisodiyotning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bo‘yicha strategik ko‘rsatmalarni shakllantirish / I. O. Gubareva / / Iqtisodiyotning dolzarb muammolari. – 2015. - No. 6. - pp. 122-129.
11. Vechkanov G.S. ekonomicheskaya bezopasnost: Uchebnik dlya vuzov. –SPb. Piter 2007
12. L.N.Xolikova, B.A.Iskandarov Iqtisodiy xavfsizlik O‘quv qo‘llanma 2023
13. Stat.uz. O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.
14. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi" konsepsiyasining genezisi / E. N. Bobarykina, N. G. Chernenko // Iqtisodiyot, texnologiya, tabiat va jamiyatdagi modellar, tizimlar, tarmoqlar. – 2017. – 2-son. –4–21-b.
15. Ivanova, L. K. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi / L. K. Ivanova // Iqtisodiy xavfsizlik: konsepsiya, standartlar. – 2013. – T. 17, No 7 (60). – 30–33-betlar.
16. Belkov, O. A. Milliy xavfsizlik konsepsiyasining konseptual va kategorik apparati / O. A. Belkov // Xavfsizlik. – 2004. – No 3. – B. 91–94.
17. Evseeva, A. Yu. Iqtisodiy xavfsizlik va uning tadbirkorlik faoliyati uchun ahamiyati / A. Yu., S. V. Kotik. – 2012. – No 3. – B. 46–48.
18. Blank, I. A. Korxonaning moliyaviy xavfsizligini boshqarish / I. A. Blank. -
M.: SmartBook, 2013. – 776 b.

З.Шодманова

Изучение и совершенствование мер по обеспечению экономической безопасности предприятий сферы услуг

Аннотация: В данной статье представлены несколько моментов по обеспечению экономической безопасности предприятий сферы услуг и проведен анализ решений сегодняшних проблем и их более глубокое изучение в предотвращении рисков и достижении экономической безопасности. Изучены различные подходы к защите экономической безопасности предприятий сферы услуг от внутренних и внешних угроз и достижению безопасности.

Ключевые слова: экономическая безопасность, управление рисками, сотрудники службы безопасности, эффективная конкурентная стратегия, информационная безопасность, глобализация и международные угрозы, страхование рисков, внутренние и внешние угрозы, гибкость.

Z. Shodmanova

Study and improvement of measures to ensure economic security of service sector enterprises

Abstract: This article presents several aspects of ensuring the economic security of service sector enterprises, analyzing solutions to current issues and their in-depth study to prevent risks and achieve economic security. Various approaches to protecting the economic security of service sector enterprises from internal and external threats and achieving security have been explored.

Keywords: economic security, risk management, security service employees, effective competitive strategy, information security, globalization and international threats, risk insurance, internal and external threats, flexibility.

Дурбек Мирзаахмадов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти тадқиқотчиси

ХИЗМАТ КЎРСАТИШ КОРХОНАЛАРИ РАҚОБАТ УСТУНЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ МЕХАНИЗМЛАРИ

Аннотация: мақолада хизмат кўрсатиш корхоналарида инновацион жараёнларни фаоллаштириш, ишончли ахборот манбаларидан муваффақиятли фойдаланиш орқали рақобат устунликларини таъминлаш ва унинг асосий жиҳатларини тавсифлаш ҳамда корхона рақобатбардошлигини ошириш йўналишлари тадқиқ этилган.

Калит сўзлар: хизмат кўрсатиш корхонаси, инновацион фаолият, хизмат кўрсатиш сифати, рақобат устунлиги, хизмат кўрсатиш жараёни, истеъмолчилар, рақобатбардошлик.

Кириш. Ҳозирги шароитда хизмат кўрсатиш корхоналарида рақобатбардошлик даражасини ошириш масаласига инновацион ёндашиш талаб этилмоқда. Инновацион технологияларни, замонавий илмий ютуқларни хизмат кўрсатиш тармоқларига жадал жорий қилиш орқали уларнинг ихтисослашувини кенгайтириш ва хизмат кўрсатиш жараёнларини диверсификация қилиш имконини берадиган янги рақобат устунликларини яратиш зарур. Бу эса соҳада хизмат кўрсатиш жараёнларини оптималлаштириш орқали хизмат кўрсатиш сифатини ошириш долзарб вазифалардан бири ҳисобланади.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Сервис корхоналарида ресурслардан самарали фойдаланиш асосида хизмат кўрсатиш сифатини ошириш масалалари иқтисодий адабиётларда кам ўрганилган. Хусусан, М.Портер[1], Г.А.Аванесова[2], М.Қ.Пардаев[3], Н.Ш.Ватолкина[4], А.П.Ерофеева[5], К.Хаксивер, Б.Рендер, Р.С.Рассел, Р.Г.Мердик[6] каби олимлар сервис фаолияти, хизмат кўрсатиш соҳаси иқтисодиётига бағишлаб дарслик, ўқув қўлланмалар ҳамда бошқа ўқув ва илмий адабиётларни ёзганлар. Аммо ушбу асарларда сервис корхоналарида ресурслардан самарали фойдаланиш асосида хизмат кўрсатиш сифатини ошириш масалалари атрофлича ўрганилмаган.

Тадқиқот методологияси. Тадқиқот жараёнида иқтисодий тизимлар ва нисбатларни ўрганишга диалектик ва тизимли ёндашув, қиёсий ва солиштирма таҳлил, статистик ёндашув, гуруҳлаш усуллари қўлланилган.

Таҳлил ва натижалар. Рақобат устунлиги корхоналарнинг рақобат курашида ғолиб чиқиши, ишлаб чиқарилаётган маҳсулот ва хизматларнинг рақобатбардошлигини таъминлашда эришиш муҳим бўлган мақсадлардан бири бўлиб ҳисобланади. Ҳар қандай корхонанинг рақобат устунлигини белгилаб берувчи муҳим параметрларга капитал ҳажми, маҳсулот (хизмат)нинг мукаммаллиги, мураккаб ва замонавий технологияларнинг қўлланилиши, патент, лицензия ва муаллифлик ҳуқуқлари билан ҳимояланганлик кабилар киради. Рақобат устунлигининг барқарорлиги эса ушбу параметрларнинг мунтазам равишда модернизация қилиб борилиши ва янгиланиб турилишига боғлиқ ҳисобланади.

Рақобат устунлигининг икки асосий хусусияти ажратиб кўрсатилади: биринчидан, ишлаб чиқариш (хизмат кўрсатиш) харажатларини камайтириш; иккинчидан, истеъмолчиларга сифатли товар ва хизматларни тақдим этиш. Корхонанинг тармоқдаги рақобат устунлигини таъминловчи асосий жиҳатлар рақобатчи корхоналарга нисбатан истеъмолчиларга янги истеъмол хоссаларини намоён қилувчи мукаммал, сифатли товар ва хизматларни таклиф қилиши, сотувдан кейинги хизмат кўрсатишни ташкил қилиш, ишлаб

[1] Портер М. Международная конкуренция: конкурентные преимущества стран. М.: /пер. с анг. – Международные отношение, 2008, 782 с.

[2] Аванесова Г.А. Сервисная деятельность: Историческая и современная практика, предпринимательство, менеджмент: учеб. пособие для студентов вузов / Г.А. Аванесова. – М.: Аспект Пресс, 2004. – 317 с.

[3] Пардаев М.Қ. ва бошқалар. Хизмат кўрсатиш, сервис ва туризм соҳаларини ривожлантириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари. Ўқув қўлланма. – Т.: «Иқтисод-молия», 2008. - Б. 133.

[4] Ватолкина Н. Ш. Методы оценки качества услуг: сравнительная характеристика / Н. Ш. Ватолкина // Russian Journal of Management. – 2016. – Т. 4., № 3. – С. 374-382.

[5] Ерофеева А.П. Модернизация системы управления персоналом на предприятиях сферы услуг. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Великий Новгород: 2014. – С. 141.

[6] Управления и организация в сфери услуг: тиорие и практика»: Servise menedjment and Operation – 2-е межнарод изд. (пер.с англ нар.наук ряд. В.В. Кулибановой) / К.Хаксивер, Б.Рендер, Р.С.Рассел, Р.Г.Мердик –спб и.др: Питер бух. 2002. – С. 496.

чиқариш (хизмат кўрсатиш) ва сотиш жараёнини энг кам харажатлар асосида ташкил этишни белгилаб беради. Биринчи ҳолатда корхона рақобатчи корхоналар товар(хизмат)ига ўхшаш бўлган товар(хизмат)ларни бир хил нархда сотади ва юқори фойда олади. Иккинчи ҳолатда эса, корхонанинг фойдаси рақобатчи корхоналарга нисбатан юқори нарх белгилаш орқали олинади.

Юқоридаги фикрлардан келиб чиқиб хизмат кўрсатиш корхоналари рақобатбардошлигини ошириш учун рақобат устунлигини таъминлаш шарт-шароитларини аниқлаш ва улар асосида бевосита рақобатбардош устунликларини яратиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Хизмат кўрсатиш корхоналарининг рақобат устунлиги қуйидаги белгиларига кўра таснифланади:

Корхона муҳитининг боғлиқлигига кўра:

– ички рақобат устунлиги (хизмат таннархини пасайтириш билан боғлиқ бўлиб, рентабеллик, меҳнат унумдорлиги, ихтисослашув, хизмат кўрсатиш кўлами, жорий самарадорлик каби омилларда намоён бўлади);

– ташқи рақобат устунлиги (истеъмолчилар учун муҳим бренд яратиш, корхонанинг бозор потенциалини ошириш билан боғлиқ бўлиб, юқори нарх орқали сотишни амалга ошириш. Ташқи рақобат устунлиги омилларига маркетингни ривожлантириш, сотиш каналларини ташкил қилиш, истеъмолчилар талабини тўғри прогноз қилиш ва уларнинг хулқ-атворини билиш кабилар киради).

Эришиш мумкинлиги ёки қўллаш имкониятига кўра:

– эришиш мумкин бўлган рақобат устунлиги ёки потенциал рақобат устунлиги;

– корхонанинг жорий рақобат устунлиги ёки реал рақобат устунлиги.

Барқарорлигига кўра:

– барқарорлиги паст даражадаги рақобат устунлиги – бу устунлик рақобатчилар томонидан тезда ўзлаштириб олиниши ва қўлланилиши мумкин. Бунга арзон ишчи кучи, янги технологиялар замонавий асбоб-ускуналар ва жиҳозлар киради;

– барқарорлиги ўртача даражадаги рақобат устунлиги – бу аниқ муддат рақобат устунлигини таъминлаб турувчи, келгусида ўз аҳамиятини ва ҳуқуқий муҳофазасини йўқотиш натижасида рақиблар томонидан ўзлаштирилиши мумкин бўлган рақобат устунлиги бўлиб, бунга патентланган технология, мураккаб хизматлар, самарали тармоқлар ва замонавий услубларни киритиш мумкин. Ушбу рақобат устунлигига эришиш учун ишлаб чиқариш қувватларига қўшимча капитал киритиш, маркетинг тадқиқотларини мунтазам олиб бориш, ишчи-ходимларни ихтисослаштирилган бизнес курсларида ўқитиш, қайта тайёрлаш ва малака даражасини ошириш зарур бўлади;

– барқарорлиги юқори даражадаги рақобат устунлиги – бу йирик капитал қўйилмаларни жалб қилиш, билимлар иқтисодиёти ва инновацион лойиҳаларни молиялаштириш ва қўллаш орқали амалга оширилади.

Таъсир доираси ёки корхонанинг фаолият доирасига кўра:

– маҳаллий рақобат устунлиги (минтақада);

– миллий рақобат устунлиги (мамлакатда);

– халқаро рақобат устунлиги (жаҳон бозорида).

Амал қилиш даврига кўра:

– узоқ муддатли рақобат устунлиги;

– қисқа муддатли рақобат устунлиги.

Юқорида таҳлил қилинган рақобат устунликларининг учта асосий хусусияти мавжуд: биринчидан, рақобат устунлигининг нисбийлиги. Бунда рақобат устунлиги рақобатчиларга нисбатан ёки истеъмолчилар учун афзалликлари бўйича таққослаш орқали аниқланади; иккинчидан, рақобат устунлигининг маҳаллий чегараланганлиги. Бунда рақобат устунлигини аниқлаш учун муайян бозор сегментлари ёки бозорнинг географик чегараси олиниши танлаб олинади; учинчидан, рақобат устунлигининг даврийлиги. Бу шуни англатадики, корхонанинг рақобат устунлиги ўзининг ҳаётийлик даврига эга бўлиб, маълум вақт оралиғида аниқланади. Шунингдек, рақобат устунлигининг даврийлиги муҳим аҳамиятга эга бўлиб, корхона фаолият кўрсатиб бошлаган даврдан, токи корхона

ушбу устунлик омилларидан воз кечгунга қадар амал қилади.

Сервис корхоналарида хизматларнинг рақобатбардошлиги унинг сифати ва нархига кўра, шу турдаги бошқа ишлаб чиқарувчилар (хизмат кўрсатувчилар)нинг маҳсулотидан устунлиги билан белгиланади.

Хизмат кўрсатиш корхоналарининг рақобатдаги устунликларини бир қатор омиллар белгилаб беради. Буларни икки гуруҳга ажратиш мумкин: миллий компанияларнинг ривожланиш даражаси; макроиқтисодий бизнес муҳитнинг сифати.

Швейцариянинг Давос шаҳрида ҳар йили бўлиб ўтадиган Жаҳон иқтисодий форумининг иштирокчилари маърузаларида фирмалар даражасидаги рақобатбардошлик тўртта асосий омил билан боғлиқ экани таъкидланади: ресурслар (мамлакатда корхона маҳсулот ишлаб чиқаришни йўлга қўйиши учун ресурсларнинг мавжудлиги, ҳажми ва сифати); ташқи рақобат; талаб; тармоқлараро алоқалар.

Худди шундай таърифни кенгайтирилган ҳолда хизмат кўрсатиш корхоналарининг рақобатбардошлигига ҳам берса бўлади (1-расм).



1-расм. Хизмат кўрсатиш корхонасининг рақобат устунлигини ташкил этувчи элементлар[1]

Хизмат кўрсатиш соҳаси бозорида корхоналар ўзига хос рақобат устунликларига эга бўлган турли хил тармоқларни ўз ичига олади. Шунга қарамай, миллий иқтисодиётнинг ушбу сегментидаги корхоналар учун умумий бўлган рақобат устунликларини шакллантиришнинг қуйидаги шартларини ажратиб кўрсатишни таклиф қилдик:

– инновацион фаолият (инновация);
– ахборотни ривожлантириш (ахборот билан таъминлаш);
– кадрлар малакасини ошириш;

Рақобат устунликларини шакллантириш шартларининг ҳар бирини батафсил кўриб чиқадиган бўлсак, хизмат кўрсатиш корхоналарини ривожлантириш рақобат устунликларига эришиш ва рақобатбардошликни ошириш орқали амалга оширилади. Бу ҳолат инновацион фаолият билан тавсифланади. Шунингдек, хизмат кўрсатиш корхоналарининг янги рақобат устунлигига эришиш муваффақияти инновацион ривожланишнинг интенсивлиги билан белгиланади.

Инновацион фаолият хизмат кўрсатиш корхоналари фаолиятининг турли соҳаларида амалга оширилади. Бу нафақат янги хизматларнинг пайдо бўлиши, балки рақобатбардошликни ошириш, рақобат устунлигига эришиш, янги ёки такомиллаштирилган ишлаб чиқариш (хизмт кўрсатиш) ва технологик жараёнларда ўз ифодасини топади.

Инновацион фаолият хизмат кўрсатиш корхоналарининг рақобат-бардош устунликларини таъминлашга шарт-шароит яратади, бу эса ўз навбатида, хизмат кўрсатиш

[1] Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

корхоналари рақобатбардошлигини оширишнинг ташкилий-иқтисодий механизмига таъсир қилади. Ушбу корхоналар рақобат устунликларнинг нисбатан қисқа умр даври билан тавсифланади яъни ҳар қандай рақобат устунликлари маълум вақтдан кейин бозорнинг барча иштирокчилари учун нормал ҳолатга айланади, натижада бу корхона хизмат кўрсатиш соҳасида рақобат устунлигини йўқотади.

Инновацион фаоллик ва инновацияларнинг мослашувчанлиги хизмат кўрсатиш корхонаси мақсади ва амалдаги ривожлантириш концепцияси билан чамбарчас боғлиқ бўлиши керак. Чунки, ушбу мақсад ва ривожлантириш концепциялар инновацион жараёнларнинг фаоллашишига катта ҳисса қўшиши мумкин. Ҳар бир инновацион йўналишдан фойдаланиш хизмат кўрсатиш корхоналари рақобатбардошлигини ошириш, инновацион фаолиятни ривожлантириш ва унинг асосида хизмат кўрсатиш корхоналари рақобатбардошлигини таъминлашда билимлар иқтисодиёти муҳим аҳамият касб этади. Билимлар иқтисодиёти қуйидаги элементларни ўз ичига олади:

– корхона ичидаги билимларни ходимларнинг касбий тажрибаси орқали тақсимлаш;

– билимларни узатиш учун қулай бизнес муҳитини яратиш;

– билимларни нафақат ходимлардан, балки хизмат кўрсатувчи корхона эгаларидан ҳам олиш ва тарқатиш.

Демак, инновацион фаолият билимлар иқтисодиёти ва корхона рақобатбардошлигини ошириш ўртасида яқин боғлиқлик мавжуд деган хулосага келдик. Билимларни узатиш корхона жамоасида ҳақиқий билимларнинг тарқалишига ёрдам беради ва инновацион фаолиятнинг ривожланишини таъминлайди, ҳамда хизмат кўрсатиш корхоналари рақобатбардошлигига таъсир қилади. Шунингдек, билимлар иқтисодиёти ва иинновацион фаолиятини ривожлантириш хизмат кўрсатиш корхоналари рақобатбардошлигини оширишнинг бошланғич нуқтаси ҳисобланади.

Рақобат устунлигини таъминлашнинг асосий шартларидан бири хизмат кўрсатиш корхоналарини ички ва ташқи маълумотлар билан таъминлаш бўлиб, ахборот технологияларидан фаол фойдаланишни тақозо этади, бу эса корхонанинг барча ходимларига зарур маълумотларни тезкорлик билан узатиш имконини беради. Ахборот технологияларидан кенг миқёсда фойдаланиш бошқарув жараёнларини тезлаштиришни таъминлашга имкон беради, шунингдек, хизмат кўрсатиш корхоналари рақобатбардошлигига таъсир қилувчи муҳим рақобат устунлиги сифатида қаралади.

Хулоса ва таклифлар. Хизмат кўрсатиш корхоналари рақобатбардошлигини ошириш учун рақобат устунлигини таъминлаш шарт-шароитларини аниқлаш ва улар асосида бевосита рақобатбардош устунликларни таъминлаш барқарор ривожланиш мақсадларига эришиш омили ҳисобланади. Шунга кўра, хизмат кўрсатиш корхоналари рақобат устунлигини таъминлаш учун инновацион фаолиятни ривожлантириш бўйича қуйидаги фаолият йўналишлари қуйидагилардан иборат:

– инновацион фаолиятни режалаштириш корхонанинг хизмат кўрсатиш соҳаси-даги стратегик режасини муҳим қисмига айланиши керак. Рақобат устунлигини сақлаб қолиш ва ривожлантириш корхонадан маълум бир инновацион фаолиятни талаб қилади;

– инновацион фаолият замонавий технологиялардан, шунингдек, замонавий ахборотлардан фойдаланиш орқали корхонанинг ички ресурсларини аниқлаш ва улардан қўшимча фойдаланишни назарда тутади;

– ахборот технологияларидан кенг миқёсда фойдаланиш барча манфаатдор шахслар ўртасида ахборот алмашиш, янги хизмат турларини яратиш ва корхона концепциясини мослаштириш каби жараёнларни тезлаштиради;

корхонанинг ички имкониятларини очиб бериш ва улардан қўшимча фойдаланиш, инновацион фаолиятни шакллантириш “билимлар иқтисодиёти”нинг асосий компонентлари ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Портер М. Международная конкуренция: конкурентные преимущества стран. М.: /пер. с анг. – Международные отношение, 2008, 782 с.

2. Аванесова Г.А. Сервисная деятельность: Историческая и современная практика, предпринимательство, менеджмент: учеб. пособие для студентов вузов / Г.А. Аванесова. – М.: Аспект Пресс, 2004. – 317 с.
3. Пардаев М.Қ. ва бошқалар. Хизмат кўрсатиш, сервис ва туризм соҳаларини ривожлантириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари. Ўқув қўлланма. – Т.: «Иқтисод-молия», 2008. - Б. 133.
4. Ватолкина Н. Ш. Методы оценки качества услуг: сравнительная характеристика / Н. Ш. Ватолкина // Russian Journal of Management. – 2016. – Т. 4., № 3. – С. 374-382.
5. Ерофеева А.П. Модернизация системы управления персоналом на предприятиях сферы услуг. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Великий Новгород: 2014. – С. 141.
6. Управления и организация в сфери услуг: тиорие и практика»: Servise menedjment and Operation – 2-е межнарод изд. (пер.с англ нар.наук ряд. В.В. Кулибановой) / К.Хаксивер, Б.Рендер, Р.С.Рассел, Р.Г.Мердик –спб и.др: Питер бух. 2002. – С. 496.
7. Пардаев М.Қ., Мирзаев Қ.Ж., Пардаев О.М. Хизматлар соҳаси иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. - Т.: “ИҚТИСОД-МОЛИЯ”, 2014. - 384 б.
8. Пўлатов М.Э., Мирзаев Қ.Ж., Султонов Ш.А., Шавқиев Э. Глобал иқтисодий ривожланиш (туризм иқтисодиёти). Ўқув қўлланма. Т.: Фан ва технология, 2018. - 296 б.
9. https://core.ac.uk/download/pdf/72006718.pdf
10. https://core.ac.uk/download/pdf/72006718.pdf

Д.Мирзаахмадов

Механизмы обеспечения конкурентных преимуществ предприятий сферы услуг

Аннотация: В статье исследованы пути активизации инновационных процессов на предприятиях сферы услуг, обеспечения конкурентных преимуществ за счет успешного использования достоверных источников информации, описаны их основные аспекты, повышения конкурентоспособности предприятия.

Ключевые слова: сервисное предприятие, инновационная деятельность, качество услуги, конкурентное преимущество, процесс обслуживания, потребители, конкурентоспособность.

D.Mirzaakhmadov

Mechanisms for ensuring competitive advantages of service sector enterprises

Abstract: The article examines ways to activate innovation processes in service enterprises, ensure competitive advantages through the successful use of reliable sources of information, describes their main aspects, and increasing the competitiveness of the enterprise.

Keywords: service enterprise, innovation, service quality, competitive advantage, service process, consumers, competitiveness.

Bobir Xo‘jaqul o‘g‘li Qilichov – SamISI, “Menejment” kafedrasi assistent-stajyori,

XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI BO‘LGAN SUG‘URTA VA TURIZM KORXONALARI SAMARADORLIGINING QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya: Mazkur maqolada xizmat ko‘rsatish sohasi bo‘lgan sug‘urta va turizm korxonalari samaradorligining qiyosiy tahlili o‘tkazilgan. Unda ushbu ikki sohaning iqtisodiy ahamiyati, xizmat ko‘rsatish sifati, mijozlar bilan o‘zaro munosabatlar, texnologiyalardan foydalanish darajasi va bozor talablariga moslashuvchanligi tahlil qilinadi. Shuningdek, samaradorlik ko‘rsatkichlari, masalan, daromadlar dinamikasi, mijozlarni jalb qilish va ushlab qolish ko‘rsatkichlari, innovatsiyalarni joriy etish darajasi va boshqaruv tizimlarining samaradorligi solishtirilgan. Natijada, xizmat ko‘rsatish sohalarining har biri uchun rivojlantirish imkoniyatlari va istiqbollariga oid xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Sug‘urta korxonalari, Turizm sektori, Samaradorlik tahlili, Xizmat ko‘rsatish sifati, Mijoz bilan aloqalar, Innovatsiyalar, Texnologiyalarni qo‘llash, Bozor talablariga moslashuvchanlik.

Kirish: Xizmat ko‘rsatish sohasi bugungi global iqtisodiyotda muhim o‘rin tutadi va uning turli segmentlari, xususan, sug‘urta va turizm sektorlari mamlakatlarning iqtisodiy o‘sishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Sug‘urta korxonalari moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va xatarlarni boshqarish orqali iqtisodiyotning boshqa sohalariga ko‘maklashadi. Turizm sektori esa nafaqat iqtisodiy daromad manbai, balki milliy madaniyat va qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi vosita sifatida katta ahamiyatga ega.

Sug‘urta va turizm sohalari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lsa-da, ular o‘rtasida o‘xshash jihatlar ham mavjud. Ikkala soha ham xizmat ko‘rsatish sifati va mijozlar ehtiyojlarini qondirish darajasi orqali o‘z samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, raqobatbardoshlikni ta’minlash, texnologiyalarni joriy etish va innovatsion yondashuvlarni qo‘llash bu sohalarning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

Mazkur tadqiqotda sug‘urta va turizm korxonalarining samaradorlik ko‘rsatkichlari qiyosiy tahlil qilinadi. Bu orqali ularning xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, bozor talablariga moslashuvchanligini kuchaytirish va mijozlarni jalb qilishda qo‘llanilayotgan mexanizmlar o‘rganiladi. Shuningdek, ushbu ikki sektorni rivojlantirish bo‘yicha mavjud imkoniyatlar va istiqbolli yo‘nalishlar aniqlanadi.

Mazmunli qiyosiy tahlil ushbu sohalarning iqtisodiy ahamiyatini yanada oshirish, raqobatbardoshligini kuchaytirish va innovatsion yondashuvlar orqali ularni yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Sug‘urta sohasining samaradorligi O‘zbekistonda uzoq yillar davomida muhokama qilinib kelgan. Tahlil qilishda quyidagi adabiyotlar yordam beradi: Turdimov A. *"Sug‘urta va risk menejmenti"*: Bu kitobda sug‘urta sohasidagi risklarni boshqarish, sug‘urta kompaniyalarining samaradorligini oshirish usullari ko‘rib chiqiladi. Samaradorlik tahlili asosan risklarni identifikatsiya qilish va ularni samarali boshqarishga asoslangan, bu esa sug‘urta kompaniyasining daromadliligi va rentabelligini oshiradi. Tursunov U. *"Sug‘urta tizimini rivojlantirishning iqtisodiy asoslari"*: Ushbu asar O‘zbekistonda sug‘urta tizimining rivojlanishini iqtisodiy nuqtai nazardan tahlil qiladi. Kitobda sug‘urta kompaniyalarining boshqaruv va texnologik samaradorligini oshirish uchun zarur choralar, davlatning roli va xususiy sektorning ahamiyati tahlil qilinadi. G‘ulomov S.S., Fayziyev I., Allayorov I. *"Sug‘urta ishi"*: Ushbu kitobda sug‘urta kompaniyasining iqtisodiy samaradorligi, uning strategiyalari va sug‘urta xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan yondashuvlar keltirilgan. Samaradorlikni o‘lchashda bir qator moliyaviy ko‘rsatkichlar, shu jumladan, foyda, rentabellik va bozor ulushi kabi omillar ko‘rib chiqiladi.

Turizm sohasi ham o‘zbek iqtisodiyotida muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston turizm sanoatining samaradorligini tahlil qilish uchun quyidagi manbalar muhim: Qosimov O., Ismoilov Z. *"Turizm asoslari"*: Bu kitobda turizm sektorining rivojlanishi va xizmat ko‘rsatishning samaradorligini oshirish usullari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Kitobda turizmning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati, hamda turizm korxonalari samaradorligini baholashda qo‘llaniladigan metodlar, jumladan, xizmat sifati va mijozlar bilan aloqalar tahlili berilgan. Mamatqulov B. *"O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish strategiyalari"*: Ushbu asar turizm korxonalarining samaradorligini oshirish uchun muhim strategiyalarni o‘z ichiga oladi. Tahlil asosan turizm sohasidagi innovatsiyalar va davlatning turizmni rivojlantirish bo‘yicha siyosati haqida bo‘ladi. Nazarov Q.X., To‘raev O.O. *"Turizm iqtisodiyoti va menejmenti"*: Kitobda turizm sohasida iqtisodiy tahlil va menejment bo‘yicha o‘rganishlar mavjud. Turizm korxonalari samaradorligini oshirishda marketing va menejmentning roli, shuningdek, iqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlili muhim o‘rin tutadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqola manbaalarni tahlil qilishda analitik va sintetik usullardan foydalanilgan. Turli tadqiqotchilarning qarashlari tizimli va umumlashtirish uslublari vositasida o‘rganilib sohaga oid muammolar aniqlangan. Shuningdek, muallifning shaxsiy kuzatish va mantiqiy fikrlash usullari yordamida bir nechta ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tahlil va natijalar. Xizmat ko‘rsatish sohasidagi turizm va sug‘urta korxonalarining samaradorligini qiyosiy tahlil qilish, ushbu ikki turdagi xizmat ko‘rsatish sohalarining farqli jihatlarini, ularning raqobatbardoshligini oshirish yo‘llarini aniqlashda muhimdir. Quyida turizm va sug‘urta korxonalarining samaradorligini tahlil qilish uchun bir nechta asosiy omillar va qiyosiy jihatlar keltiriladi

Xizmat ko‘rsatish sohasida sug‘urta va turizm korxonalarining qiyosiy tahlili har ikki sohaning o‘ziga xos xususiyatlarini, strategiyalarini va samaradorligini aniqlashda yordam beradi. Ushbu tahlil orqali har ikki sohaning kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi va ularni samaradorligini oshirish uchun qanday choralar ko‘rish mumkinligini tushunishga imkon beradi.

Quyida ushbu ikki xizmat sohasi o‘rtasida qiyosiy tahlil keltirilgan

1. Faoliyat maqsadi va xususiyatlari

Xususiyatlari	Sug‘urta korxonalari	Turizm korxonalari
Asosiy maqsad	Risklarni boshqarish va xavflarni sug‘urta qilish	Mijozlarga dam olish va sayohat tajribasini taqdim etish
Xizmat turi	Uzoq muddatli, xavfsizlikka asoslangan xizmatlar	Tajriba va xizmatlar ko‘rsatish, ko‘pincha qisqa muddatli
Mijozlar bilan aloqalar	Uzoq muddatli va ishonchli munosabatlarni o‘rnatish	Mijozlar bilan bir martalik yoki qisqa muddatli aloqalar
Daromad oqimi	Uzoq muddatli sug‘urta polislaridan keladigan barqaror daromad	Mavsumiy daromad va qisqa muddatli bronlashlardan keladi

2. Texnologiyalarni qo‘llash va raqamlashtirish

Texnologiyalar	Sug‘urta korxonalari	Turizm korxonalari
Raqamlashtirish	Sug‘urta polislarini onlayn boshqarish, sun'iy intellekt va ma'lumot analitikasi	Onlayn bronlash tizimlari, mobil ilovalar va virtual turlar
Innovatsiyalar	Risklarni tahlil qilishda sun'iy intellektdan foydalanish	VR (virtual reallik) turlari, raqamli marketing
Mijozlar bilan bog‘lanish	Elektron pochta, mobil ilovalar, onlayn platformalar	Ijtimoiy media, sayohat veb-saytlari va ilovalar

3. Bozor va raqobat muhiti

Bozor xususiyatlari	Sug‘urta korxonalari	Turizm korxonalari
Bozor o‘zgarish-lariga moslashish	Bozor inqirozlari va iqtiso-diy noturg‘unlikka sezgir	Mavsumiy o‘zgarishlar va turistik tendensiyalarga bog‘liq
Raqobat kuchi	Yuqori to‘siqlar va kuchli raqobat	Kichik va o‘rta korxonalar o‘rtasida yuqori raqobat
Globalizatsiya	Sug‘urta xizmatlarining xalqaro standartlarga moslashuvi	Turizm sohasida xalqaro turistlarni jalb qilish muhim

4. Samaradorlik va daromadni oshirish strategiyalari

Strategiyalar	Sug‘urta korxonalari	Turizm korxonalari
Samaradorlikni oshirish	Ma'lumotlar analitikasi va avtomatlashtirish orqali xarajatlarni kamaytirish	Innovatsion xizmatlar va yangi marshrutlar orqali mijozlarni jalb qilish
Mijozlarni jalb qilish	Personalizatsiyalangan sug‘urta paketlari, sodiqlik dasturlari	Maxsus chegirmalar, paketlar va reklama kompaniyalari
Xarajatlarni optimallashtirish	Tizimlarni avtomatlashtirish va optimallashtirish	Operatsion xarajatlarni kamaytirish va mijozlarga qaratilgan xizmatlar

Sug‘urta korxonalari va turizm korxonalari o‘rtasida BSC tahlili yordamida samaradorlikni oshirish strategiyalarini belgilashda quyidagilar aniqlandi:

- Sug‘urta korxonalari mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni rivojlantirish va raqamlashtirish orqali jarayonlarni tezlashtirishga e'tibor qaratadi.
- Turizm korxonalari esa mijozlar tajribasini yaxshilash va innovatsion xizmatlar taklif etish orqali bozorga moslashadi.

• Har ikki sohada xodimlarni rivojlantirish, innovatsiyalarni joriy qilish va mijozlar ehtiyojlariga mos xizmatlar taklif etish samaradorlikni oshirishda muhim omil hisoblanadi.

BSC tahlili korxonalarga o‘z strategiyalarini to‘g‘ri yo‘naltirishda va bozor talablariga moslashishda yordam beradi.

O‘zbekistonda sug‘urta va turizm sohalarining samaradorligi oxirgi yillarda sezilarli darajada oshmoqda, ammo hali ham rivojlanish va optimallashtirish uchun ko‘p imkoniyatlar mavjud.

Sug‘urta Sektori

2023-yilda O‘zbekistonda sug‘urta mukofotlarining umumiy hajmi 7,2 trillion so‘mni tashkil etdi, bu avvalgi yilga nisbatan 67% o‘sishni anglatadi. Ayniqsa, ixtiyoriy sug‘urta xizmatlari 93% ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Shu bilan birga, sug‘urta polislari soni 1,4 barobar ko‘payib, jami 8,4 milliontaga yetdi. Shartnomalar elektron shaklga o‘tkazilishi foydalanuvchilar uchun qulaylik yaratdi[12]

Biroq, sug‘urta bozorining to‘liq shakllanishi yo‘lida bir qancha muammolar mavjud. Misol uchun, aholining sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan ishonchi hali ham past, sug‘urta kompaniyalari esa asosan Toshkent shahrida joylashgan, bu esa hududiy tenglikni ta'minlashni qiyinlashtiradi. Aholi jon boshiga sug‘urta mukofoti bo‘yicha O‘zbekiston dunyodagi o‘rtacha darajadan (874 AQSh dollari) ancha past — atigi 15,5 AQSh dollarini tashkil etadi[34]

Turizm Sektori

Turizm sohasiga keladigan bo‘lsak, mamlakatda turistik xizmatlar hajmi ortib borayotganiga qaramay, pandemiya davrida kelgan zararlarni to‘liq tiklash uchun hali ko‘p ishlar amalga oshirilishi kerak. 2023-yilda turizm sektori yalpi ichki mahsulotga (YIM) qo‘shgan hissasi oshdi, ammo bu sohada raqamlashtirish, marketing va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish kabi jihatlarda yanada rivojlanish zarur.

Hozirgi vaqtda turizmda xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, yangi turizm mahsulotlarini rivojlantirish va xorijiy sayyohlarni jalb qilish bo‘yicha hukumat qator islohotlarni amalga oshirmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar va onlayn platformalar yordamida turistlar uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida, elektron viza tizimlari va onlayn bron qilish xizmatlari kengaytirilmoqda[5]

Umuman olganda, O‘zbekistonning sug‘urta va turizm sektorlarini samaradorligini oshirish uchun texnologiyalarni keng joriy etish, moliyaviy savodxonlikni oshirish va sifat nazorati tizimlarini kuchaytirish kerak. Bu esa iqtisodiyotning ushbu tarmoqlarida yanada barqaror o‘sishni ta'minlashga yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Sug‘urta korxonalari Sug‘urta korxonalari asosan uzoq muddatli, xavfsizlikka asoslangan xizmatlar bilan shug‘ullanadi. Ular uchun mijozlar bilan uzoq muddatli ishonchli aloqalar o‘rnatish muhimdir. Samaradorlikni oshirish uchun raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt yordamida mijozlar profillarini tahlil qilish va personalizatsiyalangan xizmatlarni taqdim etish mumkin.

Turizm korxonalari esa mijozlarga qisqa muddatli, hissiy tajriba taqdim etadi. Samaradorlik va daromadni oshirish uchun mijozlarning ehtiyojlariga moslashuvchan xizmatlar taklif qilish, yangi marshrutlar va maxsus takliflar orqali xaridorlarni jalb qilish zarur. Raqamli marketing va onlayn bronlash tizimlari turizm korxonalariga raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi.

Sug‘urta sohasi raqamlashtirish va innovatsiyalar yordamida samaradorlikni oshirishga qaratilgan bo‘lsa, turizm sohasi mijozlar tajribasini yaxshilash va moslashuvchan xizmatlar taklif qilish orqali rivojlanishga e'tibor beradi.

---

[1] https://uz.kursiv.media/uz/2024-08-13/ozbekistonda-sugurta-xizmatlari-hajmi-oshdi/

[2] https://review.uz/uz/post/xalqaro-sugurta-bozoridagi-asosiy-tendenciyalar-savdoni-rivojlantirish-suniy-intellekt-va-iqlim-ozgarishini-yumshatish-haqida

[3] https://review.uz/uz/post/xalqaro-sugurta-bozoridagi-asosiy-tendenciyalar-savdoni-rivojlantirish-suniy-intellekt-va-iqlim-ozgarishini-yumshatish-haqida

[4] https://oriens.uz/uz/journal/article/ozbekistonda-sugurta-sohasining-rivojlanish-istiqbollari/

[5] https://uz.kursiv.media/uz/2024-08-13/ozbekistonda-sugurta-xizmatlari-hajmi-oshdi/

Ikkala sohada ham raqamlashtirish va texnologiyalarni qo‘llash samaradorlikni oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Korxonalar o‘z sohalariga mos ravishda strategik qarorlar qabul qilishlari zarur, bunda bozor o‘zgarishlari va mijozlar ehtiyojlariga moslashish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Ushbu qiyosiy tahlil sug‘urta va turizm sohalarida samaradorlikni oshirish uchun korxonalarga o‘z strategiyalarini rivojlantirishda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G‘ulomov S.S., Fayziyev I., Allayorov I. *"Sug‘urta ishi"* – Sug‘urta tizimlari va ular samaradorligini oshirish bo‘yicha batafsil tahlillar.
2. Turdimov A. *"Sug‘urta va risk menejmenti"* – Sug‘urta sektorida risklarni boshqarish va samaradorlikni oshirish usullari.
3. Tursunov U. *"Sug‘urta tizimini rivojlantirishning iqtisodiy asoslari"* – O‘zbekistonda sug‘urta sektorining rivojlanishi va muammolari.
4. Qosimov O., Ismoilov Z. *"Turizm asoslari"* – Turizmni rivojlantirish va samaradorlikni oshirish yo‘nalishidagi ilmiy yondashuvlar.
5. Mamatqulov B. *"O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish strategiyalari"* – O‘zbekistondagi turizm xizmatlari va ularning iqtisodiy samaradorligi.
6. Nazarov Q.X., To‘raev O.O. *"Turizm iqtisodiyoti va menejmenti"* – Turizmni iqtisodiy boshqarish va uning rentabelligini oshirish.
7. Karimov A. *"Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti"* – Xizmat ko‘rsatish sohasining umumiy iqtisodiy tamoyillari.
8. Safarov B., Uzoqov A. *"O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish"* – Turizm va boshqa xizmat ko‘rsatish sohalarini qiyosiy tahlil qilish usullari.
9. To‘raqulov Sh. *"Xizmat ko‘rsatish iqtisodiyoti"* – Xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyati samaradorligini tahlil qilish.

Б.Киличов

Сравнительный анализ эффективности страховых и туристических предприятий в сфере услуг

Аннотация: В данной статье проведен сравнительный анализ эффективности страховых и туристических предприятий сферы услуг. В ней анализируются экономическая значимость этих двух секторов, качество обслуживания, взаимодействие с клиентами, уровень использования технологий и гибкость к требованиям рынка. Также сравниваются такие показатели эффективности, как динамика доходов, показатели привлечения и удержания клиентов, уровень внедрения инноваций и эффективность систем управления. В результате представлены выводы о возможностях и перспективах развития каждой из этих сфер.

Ключевые слова: страховые компании, туристический сектор, анализ эффектив-ности, качество обслуживания, отношения с клиентами, инновации, применение технологий, адаптация к требованиям рынка.

B.Kilichov

Comparative analysis of the efficiency of insurance and tourism enterprises in the service sector

Abstract: This article conducts a comparative analysis of the efficiency of insurance and tourism enterprises in the service sector. It analyzes the economic significance of these two sectors, quality of service, customer relations, level of technology use and adaptability to market requirements. Also, efficiency indicators, such as revenue dynamics, customer attraction and retention indicators, level of innovation implementation and efficiency of management systems, are compared. As a result, conclusions are drawn regarding the development opportunities and prospects for each of these sectors.

Keywords: insurance companies, tourism sector, efficiency analysis, service quality, customer relations, innovations, application of technologies, adaptability to market requirements.

ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ

Дилбар Хасановна Асланова – профессор СамИЭС, к.э.н.
Нигина Тажиевна Юсупова – докторант СамИЭС,

ОЦЕНКА ПЕРСПЕКТИВ СОЗДАНИЯ КЛАСТЕРА В ТУРИСТСКОМ СЕКТОРЕ ЭКОНОМИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Аннотация. В этой статье внимание направлено на выявление проблем и перспектив создания туристического кластера в Узбекистане. Авторы анализируют существующие барьеры для развития кластеризации, такие как недостаточная координация между государственными органами и частным сектором, нехватка квалифицированных кадров, а также сезонность туристических потоков. На основе проведенного анализа предлагаются конкретные меры по преодолению выявленных проблем и созданию эффективной системы управления туристическим кластером.
Ключевые слова: туристический кластер, диверсификация экономики, оценка перспектив, потенциал туризма, кластеризация, факторы успеха, модель кластера, оценка, экономика, развитие.

Введение. Туристский кластер представляет собой совокупность взаимосвязанных организаций, сосредоточенных в определенной географической области. Эти организации дополняют друг друга и создают синергетический эффект, что способствует усилению их конкурентных преимуществ. В результате этого повышается туристический поток как в конкретной локации, так и в регионе в целом. Туристический кластер можно рассматривать как специфическую модель организации туристической деятельности. Он представляет собой объединение различных организаций, занимающихся оказанием услуг в области туризма. В состав кластера входят как небольшие, так и крупные предприятия, которые регулярно взаимодействуют друг с другом.

Узбекистан обладает огромным потенциалом для развития туризма. Богатая история, уникальная культура, великолепная природа – все это делает страну привлекательной для туристов со всего мира. Создание туристических кластеров позволит:
-Концентрация на приоритетных секторах:
*каждый кластер может специализироваться на определенном секторе туризма (например, культура, экология, гастрономия).
- Развитие местной экономики: кластеры способствуют экономическому развитию региона, в котором они формируются, увеличивая налоговые поступления создавая новые рабочие места.
-Защита культурного наследия: туристические кластеры могут стать инструментом для защитыипродвижениякультурногонаследия Узбекистана.
Почему туристический кластер важен для Узбекистана? Следует отметить, что объединение усилий различных субъектов (гостиниц, ресторанов, транспортных компаний, туроператоров и т.д.) позволяет повысить качество услуг, снизить издержки и создать более привлекательные туристические продукты. Развитие кластера стимулирует инвестиции в инфраструктуру, такую как дороги, аэропорты, объекты размещения и т.д. К тому же, рост туристической активности приводит к увеличению числа рабочих мест в различных секторах экономики. Кластеры помогают продвигать регион на международном туристическом рынке.

Создание туристических кластеров в Узбекистане открывает широкие перспективы для развития туризма и экономики страны в целом. Вот некоторые из них:

Экономические перспективы:

- -Рост туризма: кластеры позволяют концентрировать туристические ресурсы и создавать уникальные предложения, которые привлекают большой поток туристов.
- - Увеличение доходов: увеличение числа туристов ведет к росту доходов от туризма, что положительно сказывается на местной экономике.
- - Создание новых рабочих мест: создаются новые рабочие места, так как для развития туризма требуются человеческие ресурсы из разных секторов.
- - Инвестиции: кластеры привлекают инвестиции со стороны государства и частного сектора, что приводит к модернизации инфраструктуры и повышению качества услуг.

Социальная перспектива

- - Защита культурного наследия: туристический кластер будет способствовать защите и продвижению культурного наследия Узбекистана.
- - Развитие местных ремесел: туристический кластер будет способствовать развитию местных ремесел и сувениров.
- - Улучшение качества жизни: туризм улучшает местную инфраструктуру и повышает качество жизни местного населения. Другие перспективы
- - Диверсификация экономики: туризм стал важным сектором экономики и способствует диверсификации экономики.
- - Укрепление международных связей: развитие туризма способствует укреплению международных связей и имиджа Узбекистана.
- - Сокращение сезонности: кластеры создают диверсифицированный туристический продукт и сокращают сезонность туристов.

Анализ литературы по теме. Представленные работы авторов Д.Х.Аслановой,Тухлиева И.С., Алимовой М.Т. и других соавторов представляют собой ценный вклад в исследование развития туризма в Узбекистане на основе кластерного подхода. Авторы углубленно изучают возможности и передовые применения кластерного подхода в различных регионах и областях страны, предлагают методики идентификации туристических кластеров и рычаги для развития агроэкотуризма в сельских районах. Например, в статье на тему «Развитие экотуризма в регионах на основе кластерного подхода» авторы опираются на необходимость применения кластерного подхода для развития экотуризма во всех регионах Узбекистана, также отмечается важность учета специфики каждого региона при формировании кластеров, вдобавок ко всему предлагаются рекомендации по созданию благоприятных условий для развития экотуризма на основе кластерного принципа.

В ее работе на тему «Региональный туристский кластер как инструмент повышения эффективности экономики региона» рассматривается региональный туристический кластер как инструмент повышения эффективности экономики региона. Авторы подчеркивают важность координации усилий различных субъектов экономики для развития туризма, а также предлагаются меры по созданию благоприятного инвестиционного климата для развития туризма.

Анализ представленных работ позволяет сделать вывод о высоких перспективах создания туристических кластеров в Узбекистане. Кластерный подход позволяет более эффективно использовать природные, культурные и исторические ресурсы страны, создавать новые рабочие места и повышать уровень жизни населения.

Методология и иследования. В современном научном дискурсе выделяются три ключевых подхода к определению экономических кластеров в регионах: концепция индустриальных кластеров, рассматриваемая через призму конкурентоспособности; понимание индустриальных кластеров как следствия экономии от агломерации; а также применение технико-экономических методов для их идентификации.

Первый метод, сосредоточенный на определении кластеров с точки зрения конкурентоспособности, был предложен и многократно протестирован основателем кластерной теории М.Портером. Он охватывает широкий диапазон доказательств, включая внутренние эффекты масштаба, цепочку создания добавленной стоимости, конкурентные преимущества и технологические инновации, которые объясняют объединение компаний в определённом географическом пространстве. Основные компоненты данного подхода включают в себя:

- исследование крупной компании или группировки аналогичных компаний;
- определение вертикальной цепочки, включающей связанные с ними фирмы и организации, находящиеся выше и ниже по иерархии;
- анализ горизонтальных связей между отраслями, использующими общие каналы или производящими сопутствующие продукты и услуги;
- выделение организаций, предоставляющих кластеру уникальные навыки, технологии, финансовые ресурсы или инфраструктуру, а также идентификация любых объединений, в которые входят участники кластера;
- изучение государственных и законодательных структур, оказывающих влияние на участников кластера.

Второй метод сосредоточен на определении потенциала кластеризации региона и основывается как на количественном, так и на качественном анализе конкурентоспособности данного региона. В этом контексте зарубежные эксперты предлагают различные методы для оценки региональной специализации или агломерации. Среди ключевых методов можно выделить следующие:

- коэффициенты локализации;
- коэффициент Джини, который является макроэкономическим индикатором, отражающим степень неравенства в распределении денежных доходов среди населения, измеряя отклонение фактического распределения доходов от идеального равного распределения между гражданами страны;
- анализ сдвигов — метод, используемый для изучения региональных систем, при котором экономический рост делится на государственный, региональный и частные факторы, способствующие экономическому развитию.

Третий метод определения индустриальных кластеров основан на экономической оценке взаимодействий между участниками кластера. Как известно, наличие взаимосвязей между предприятиями и организациями, входящими в кластер, является вторым ключевым признаком экономических кластеров. Одним из наиболее распространенных способов оценки уровня взаимодействия между участниками кластера является матрица «затраты-выпуск». Этот метод иллюстрирует связи между объемом производства в одной отрасли и затратами, связанными с использованием продукции всех участвующих отраслей, необходимых для обеспечения этого производства.

Анализ и результаты. Следует отметить, что в Узбекистане существует уже несколько потенциальных туристских кластеров. Например, 30 августа в Ромитанском районе Бухарской области был открыт уникальный туристический кластер «Bukhara Desert Oasis & Spa». Этот тематический комплекс представляет собой восточный оазис, расположенный в пустынной местности региона. Общая площадь комплекса составляет 10 гектаров. Кроме того, на прилегающей территории в 30 гектаров поэтапно создаются экопарки и агропарки. На первом этапе реализации проекта комплекс способен одновременно разместить до 500 отдыхающих. Внедрение следующего этапа позволит увеличить эту цифру до 1000 человек. На территории кластера находятся гостиница с бассейном, юрты, рестораны, предлагающие национальную и европейскую кухню с летней террасой, макеты исторических памятников Бухарской области, оздоровительный комплекс, конная площадка, автостоянка и ряд других объектов. Дополнительные услуги включают в себя организацию поездок на лошадях, верблюдах, квадроциклах, джипах и электромобилях. Также для гостей комплекса будут проводиться театрализованные

представления и концертные мероприятия. Открытие туристического кластера способствовало созданию 100 новых рабочих мест.

Ознакомившись с вышеперечисленным, можно заметить, что кластеризация дорогой, но в то же время прибыльный бизнес. В процессе создания кластера высоковероятно будут определенные препятствия на пути к достижению результата.

Следует отметить существующие трудности в процессе создания кластеров:

– нехватка налаженного взаимодействия между государственными органами и бизнес-сектором. Это значительно замедляет процесс формирования кластеров, так как на начальных этапах недостаточно только рыночного спроса; необходима также поддержка со стороны государства для развития кластерных отношений;

– негативное отношение крупных промышленных компаний, ориентированных на экспорт, к идее увеличения фокуса на удовлетворение внутренних потребностей, особенно в условиях отсутствия гарантий реального, а не потенциального спроса на продукцию.

– недостаточная активность научных учреждений в вопросах участия в кластерах;

– низкий уровень мотивации у региональных предприятий с разнообразными направлениями и целями;


– разнообразие форм собственности среди владельцев, заинтересованных в создании кластеров;

– нехватка финансовых ресурсов для реализации кластерных проектов, нежелание принимать риски из-за неясных условий функционирования кластеров, а также отсутствие законодательных и нормативных актов, способствующих и регулирующих их деятельность;

– предприниматели недостаточно осведомлены о концепции «кластера», а также информация о положительных результатах работы кластеров в других регионах и за пределами страны распространяется ограниченно или практически отсутствует. Кроме того, наблюдается низкий уровень доверия между бизнесменами и государственными органами. Многие предприниматели предпочитают вести бизнес индивидуально, сомневаются в эффективности новых методов и придерживаются менталитета, который не способствует изменению подходов к организации работы своих компаний.

– недостаточная интеграция и низкий уровень сотрудничества между компаниями в регионе;

– нехватка масштабной государственной поддержки для объединения предприятий в кластеры, особенно на ранних стадиях формирования кластера.



Преодоление этих барьеров требует совместных усилий государства, бизнеса и местного сообщества. Только в этом случае создание туристических кластеров в Узбекистане будет успешным. Для этого можно ввести такие меры, как снижение

налоговой нагрузки на бизнес, упрощение визового режима для иностранных туристов; создание совместных туристических продуктов с соседними странами; поддержка местных производителей товаров и услуг для туристов.

Создание концепции туристского кластера представляет собой сложный процесс, который выходит за рамки простого объединения достопримечательностей. Это целостная система, направленная на развитие туристической привлекательности региона. Первым шагом в этом процессе является детальный анализ региона, который позволяет выявить его уникальные характеристики и потенциал. Это могут быть как природные заповедники, так и исторические памятники. Следующим этапом является разработка инфраструктуры, включающей в себя гостиницы, рестораны и транспортные маршруты. Ключевым моментом является обеспечение комфортных условий для туристов. Необходимо уделить внимание маркетинговым стратегиям. Предложения кластера должны вызывать интерес у туристов. Мы разработаем план продвижения, который будет включать социальные сети, рекламные материалы и партнерство с туристическими агентствами. Кроме того, важно внедрять современные технологии. Это может включать использование виртуальной реальности для ознакомления с достопримечательностями или создание мобильного приложения для удобства путешественников. Такой интегрированный подход не только привлечет больше посетителей, но и существенно улучшит качество сервиса и комфорт в рамках создаваемого кластера. Создайте свой уникальный туристический проект и помогите людям открывать новые удивительные места!

Создание туристического кластера начинается с выявления уникальных ресурсов региона, включая природные достопримечательности, исторические памятники и культурные особенности. Первым этапом является формулирование концепции. Важно определить целевую аудиторию и разработать конкурентоспособный туристический продукт. Учет интересов местного населения имеет ключевое значение для обеспечения социальной устойчивости проекта. Качественное расположение, транспортная доступность и наличие информационных центров являются ключевыми факторами, оказывающими непосредственное влияние на привлекательность кластера. Маркетинговая стратегия должна быть адаптивной и многогранной, охватывающей как цифровые платформы, так и сотрудничество с туристическими операторами. Продвижение через социальные сети и блогеров может стать эффективным инструментом для привлечения интереса. Установление партнерских отношений с бизнесом и государственными структурами способствует обеспечению инвестиций и поддержке реализуемых проектов. Необходимо постоянное исследование тенденций в сфере туризма для того, чтобы адаптироваться к изменяющимся потребностям туристов. Учет экологических аспектов и принципов устойчивого развития способствует увеличению долгосрочной успешности туристического кластера.

Определение целевой аудитории представляет собой важный этап в процессе формирования туристического кластера. Исследование потенциальных посетителей способствует созданию предложений, соответствующих их интересам и требованиям. Целевая аудитория может варьироваться от широкой до узкоспециализированной. К примеру, семейные парки нацелены на отдых для всех возрастных групп, тогда как экотуризм привлекает тех, кто ценит природу и активные виды отдыха. Понимание демографических характеристик и поведения потребителей является ключевым для формирования уникального предложения. Социальные сети и онлайн-опросы представляют собой действенные методы для анализа интересов целевой аудитории. Необходимо также принимать во внимание конкуренцию и общие тенденции в сфере туризма. Это поможет выделиться на фоне других предложений и привлечь больше туристов. Важно помнить, что успешный туризм зависит не только от живописных локаций, но и от правильно организованной коммуникации с посетителями.

Сфера туристических интересов в Узбекистане охватывает как активные виды досуга, так и экскурсионные поездки, целью которых является изучение богатого археологического и религиозного наследия страны. С целью развития туризма на законном

основании, был принят закон Республики Узбекистан «О туризме». Принят Законодательной палатой 16 апреля 2019 года, одобрен Сенатом 21 июня 2019 года. Целью данного Закона является регулирование отношений в сфере туризма. На сегодняшний день республика располагает значительным туристическим и рекреационным потенциалом, включающим 7,4 тысячи объектов культурного наследия. Узбекистан предлагает безвизовый въезд для граждан более чем 86 стран, что значительно облегчает процесс приезда туристов. Кроме того, увеличилось количество стран, для граждан которых введен упрощенный порядок получения виз (с 12 до 50). За первые семь месяцев 2024 года Узбекистан посетило 4,2 миллиона туристов, согласно данным Агентства статистики при Президенте Республики Узбекистан. Этот показатель на 15,3% превышает результаты аналогичного периода прошлого года, что указывает на растущую привлекательность страны для путешественников со всего мира.



Заключение и предложения. Узбекистан обладает значительным потенциалом для развития туризма, благодаря богатому историческому и культурному наследию, уникальной природе и гостеприимству местного населения. Создание туристских кластеров является одним из наиболее эффективных инструментов для реализации этого потенциала. Анализ проведенного исследования позволяет сделать следующие выводы: развитие туристских кластеров в Узбекистане может привести к существенному росту ВВП, созданию новых рабочих мест, повышению уровня жизни населения и укреплению международного имиджа страны; для успешного создания и функционирования кластеров необходимо комплексное решение ряда задач, включая разработку четкой стратегии развития туризма, создание благоприятного инвестиционного климата, развитие инфраструктуры, повышение качества предоставляемых услуг и укрепление сотрудничества между государством, бизнесом и местными сообществами; ключевыми факторами успеха являются наличие уникальных туристических ресурсов, развитая транспортная инфраструктура, квалифицированные кадры, эффективное маркетинговое продвижение и поддержка государства; необходимо определить приоритетные направления развития туризма в рамках каждого кластера, учитывая специфику региона и его туристические ресурсы.

Для эффективности работы и создания туристских кластеров необходимо разработать методологию, которая позволит оценить потенциал различных регионов Узбекистана для создания туристических кластеров; включить в анализ такие критерии, как природные ресурсы, культурное наследие, инфраструктура, человеческий капитал, инвестиционный климат и др.; создать карту потенциала для каждого региона, чтобы визуализировать результаты анализа; оценить как прямые экономические эффекты от

развития туризма (доходы от туризма, создание рабочих мест), так и косвенные (развитие смежных отраслей, повышение налоговых поступлений); разработать предложения по созданию благоприятной нормативно-правовой среды для развития туристических кластеров; а также, разработать специальные программы поддержки для развития экотуризма, учитывая его особенности и требования к сохранению окружающей среды.

В заключение можно отметить, что создание туристских кластеров является одним из приоритетных направлений развития экономики Узбекистана. При условии реализации эффективной государственной политики и активного участия всех заинтересованных сторон, туризм может стать одним из основных драйверов экономического роста страны.

Список использованной литературы:

1. Портер М. Международная конкуренция: конкурентные преимущества стран. – Альпина Паблишер, 1993.
2. Тесленко И. Б., Крылов В. Е., Губернаторов А. М. Регион в условиях развития информационного общества. – Scientific magazine" Kontsep, 2018.
3. Пятинкин С. Ф., Быкова Т. П. Развитие кластеров: сущность, актуальные подходы, зарубежный опыт //Минск: Тесей. – 2008. – Т. 72. – С. 4.
4. de Lezenne Coulander V. The role of public authorities in clusters: A study of cluster policy in European regions. – University of Groningen, Science Shop of Economics and Business, 2010.
5. Industrial Cluster Study Group et al. Industrial Cluster Study Report //on line: www. cluster. gr. jp/relation/d. ata/pdf/cluster kenkyu houkoku english. pdf (June 2006). – 2005.
6. Falck O., Heblich S., Kipar S. Local industrial policies difference-in-differences evidence from a cluster-oriented policy //36th annual conference of EARIE (European association for research in industrial economics) in Ljubljana, Slovenia, in September. – 2009.
7. Aslanova D. X., Alimova M. T. Methodology for the identification of tourist clusters: the example of the regions of Uzbekistan //PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology. – 2020. – Т. 17. – №. 6. – С. 14820-14833.
8. Aslanova, D. X., Alimova, M. T., Zokhidov, F. F., & Mamarizoev, J. I. (2023). Tools for the Application of the Cluster Approach for the Development of Agro-Ecotourism in Rural Areas of Uzbekistan.
9. Асланова Д. Х., Саттарова З. И., Алимова М. Т. Региональный туристский кластер как инструмент повышения эффективности экономики региона //Научный результат. Экономические исследования. – 2016. – Т. 2. – №. 1 (7). – С. 18-25.

D. Aslanova, N.Yusupova

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti turish sektorinda klaster yaratish istiqbotlarini baholash

Annotatsiya. Ushbu maqolada barcha e'tibor O‘zbekistonda turizm klasterini yaratish muammolari va istiqbollarini aniqlashga qaratilgan. Mualliflar klasterni rivojlantirish yo‘lidagi mavjud to‘siqlarni, masalan, davlat organlari va xususiy sektor o‘rtasidagi muvofiqlashtirishning yetarli darajada yo‘qligi, malakali kadrlar yetishmasligi, turistlar oqimining mavsumiyligini tahlil qiladi. Tahlillar asosida aniqlangan muammolarni bartaraf etish va turizm klasterini boshqarishning samarali tizimini yaratish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar taklif etilmoqda.

Kalit so‘zlar: turizm klasteri, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, istiqbollarni baholash, turizm salohiyati, klasterlashtirish, muvaffaqiyat omillari, klaster modeli, baholash, iqtisodiyot, rivojlanish.

D. Aslanova, N.Yusupova

Assessment of the prospects for creating a cluster in the tourism sector of the economy of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article focuses on identifying the problems and prospects for creating a tourism cluster in Uzbekistan. The authors analyze existing barriers to clustering development, such as insufficient coordination between government agencies and the private sector, a shortage of qualified personnel, and the seasonality of tourist flows. Based on the analysis, specific measures are proposed to overcome the identified problems and create an effective tourism cluster management system.

Keywords: tourism cluster, economic diversification, assessment of prospects, tourism potential, clustering, success factors, cluster model, assessment, economy, development.

Райхона Садриддиновна Амриддинова – доцент кафедры Туризма, СамИЭС.
Сардор Олимович Рахимов – ассистент кафедры Туризма, СамИЭС.

СОТРУДНИЧЕСТВО МЕЖДУ ТУРОПЕРАТОРАМИ И ГОСТИНИЦАМИ КАК ЗАЛОГ УСПЕШНОЙ ПРОДАЖИ ГОСТИНИЧНЫХ НОМЕРОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В статье рассматриваются ключевые аспекты взаимодействия между туроператорами и гостиницами, такие как взаимовыгодные партнерские соглашения, маркетинговые стратегии, направленные на привлечение туристов, и совместное продвижение туристических продуктов.
Ключевые слова: гостиничный рынок Узбекистана, гостиничный номер, формы сотрудничества между туроператорами и гостиницами, договоров на блоки номеров, комиссионное соглашение, динамическое ценообразование и онлайн-агрегаторы, создание туристических пакетов, продвижение отелей через маркетинговые каналы туроператоров.

Введение. Развитие туристической отрасли является одним из ключевых приоритетов для экономики Узбекистана, который обладает богатым культурным и историческим наследием, а также разнообразными природными ресурсами. В связи с этим особую значимость приобретает успешная продажа туристических услуг, в том числе гостиничных номеров, как важного элемента инфраструктуры гостеприимства. Важную роль в этом процессе играет сотрудничество между туроператорами и гостиницами. Эффективное взаимодействие этих двух ключевых участников туристического рынка способно обеспечить стабильный приток туристов, повысить заполняемость гостиниц и улучшить качество предоставляемых услуг.

Анализ литературы. Особенности туроператорской деятельности, специфика гостиничного бизнеса рассматриваются в работах таких ученых, как И.С.Тухлиева, М.К.Пардаева, Д.Х.Аслановой, Н.Тухлиева и т.д.

Методы исследования. Для исследования данной темы были использованы следующие методы: анализ литературных источников, сравнительный анализ, контент анализ, системный подход.

Анализ и результат. Гостиничный рынок Узбекистана с 2017 года развивается активными темпами. По данным статагентства, в стране насчитывается около 23 тыс. гостиничных номеров, и до конца 2028 года ожидается открытие еще примерно 3,5 тыс. номеров. В основном скорее всего это будут люксовые номера. По нашим исследованиям из сегодняшнего объема действующих номеров более 50% предлагаются отелями категории 5*, и лишь около 9% — отелями категории 3*.

На сегодняшний день в сформировавшимся рынке гостиничных услуг большую долю предложения составляют гостиницы бюджетных и экономичных стандартов. И ситуация вряд ли изменится в будущем, так как из тех 3,5 тыс. номеров, которые сейчас строятся или планируются, 40% приходятся на отели 5*, тогда как номеров в 3-звездочных отелях будет менее 6%.

Количество въехавших туристов в первом полугодии 2024 года в Узбекистан приведено на рисунке 1. Подобная структура въездного потока является стабильной — в 2023 году всего страну посетили 6,6 млн человек, при этом количество российских граждан составило 714 тыс, а жителей стран дальнего зарубежья — 656 тыс. Из соседних государств в Узбекистан прибывает свыше 90% граждан с целью посещения родственников, и они не являются целевой аудиторией для гостиниц. Основную клиентуру для местных гостиниц составляют россияне и гости из стран дальнего зарубежья.

По информации компании STR Global, крупнейшего агрегатора операционных данных в сфере гостиниц, в 2019 году среднегодовая загрузка гостиниц современного качества Ташкента составляла 64,8%, а средняя цена на номер — $149. В 2023 году загрузка чуть увеличилась — до 65,5%, однако произошло это за счет снижения средней цены на номер — до $133.




Рис.1. Количество туристов, прибывшие в Республику Узбекистан в 2024 году(январь-июль).[1]

Как результат, показатель доходности номеров в 2023 году оказался ниже, чем аналогичный в 2019 году ($87 против $96). Причин этому может быть несколько, однако наиболее логичным, по нашему мнению, является существенное увеличение предложения на рынке (порядка 700 номеров в 4 новых отелях 4* и 5*) при отсутствии существенного увеличения турпотока.

Не все иностранцы, приезжающие в Узбекистан, хотят и могут себе позволить останавливаться в дорогих гостиницах. Значительная часть туристов, приезжающих познакомиться с культурой и жизнью другой страны, не готовы переплачивать и вполне рады остановиться в отелях средней ценовой категории или даже более экономичных средствах размещения, при условии гарантии безопасности пребывания и достаточного уровня комфорта.

Граждане Узбекистана, которые ежегодно формируют несколько миллионов поездок и формируют внутренний спрос, именно они составляют сегодня основную долю потребителей услуг гостевых домов, съемных квартир и недорогих гостиниц.

Кроме того, более равномерному развитию отрасли также препятствуют законодательные и административные барьеры. С одной стороны, в Узбекистане поощряется строительство современных гостиниц высокого ценового сегмента — до конца 2026 года действуют программа субсидирования строительства гостиниц 3−5 звезд. Однако национальные стандарты классификации гостиниц часто имеют более жесткие требования, чем мировые. Например, для получения подтверждения категории 4* необходимо наличие минимум двух ресторанов, бассейна, магазинов и киосков, а также спортивно-оздоровительного центра с тренажерным залом. Все это создает дополнительную финансовую нагрузку на девелоперов и не всегда оправдано для городских отелей с центральным размещением, который гарантирует гостям доступ к этим услугам в непосредственной близости от гостиницы.

Ключевым фактором успеха для работы гостиниц в Узбекистане является сотрудничество с крупными сетевыми отелями, которые обеспечивают высокое качество услуг и доступ к развитым каналам продаж. Разумеется, сотрудничество с такими платформами бронирования, как Booking.com, обеспечивает загрузку гостиниц даже

[1] Официальный телеграмм канал Statuz.

в независимом управлении. Однако сотрудничество с международными сетевыми брендами позволяет гостиницам получать профессиональное управление и повышает уровень сервиса, что особенно ценно в условиях экономической нестабильности и изменчивости туристического потока. Кроме этого, гостиницы могут сотрудничать с туроператорами, и создавать комплексные туристические продукты, такие как туры, пакеты услуг и специальные предложения.

Здесь, туроператоры и гостиницы работают вместе для взаимного увеличения потока клиентов, повышения доходов и улучшения качества обслуживания. На практике существует следующие формы сотрудничества между туроператорами и гостиницами:

Заключение договоров на блоки номеров. Туроператоры часто заранее бронируют определенное количество номеров в гостиницах для своих клиентов (обычно это происходит на высокий сезон или для массовых направлений). Это может быть:

- гарантированное бронирование — туроператор бронирует и оплачивает заранее оговоренное количество номеров вне зависимости от того, продаст ли он их своим клиентам.

- контракты с возвратом— туроператор имеет возможность вернуть часть номеров в случае, если они не будут проданы за определенный срок до начала поездки.

При таком сотрудничестве выгодой для отеля является гарантированный доход от забронированных номеров, снижение риска наличия свободных номеров в высокий сезон.

Выгоды для туроператора: фиксированная цена на номера, что позволяет формировать выгодные туристические пакеты, уверенность в наличии номеров для клиентов.

Комиссионные соглашения. Гостиницы могут платить туроператорам комиссионное вознаграждение за каждого привлеченного клиента. Это классическая модель сотрудничества, при которой туроператор получает процент от стоимости бронирования:

- комиссия может варьироваться в зависимости от сезона, популярности отеля и условий соглашения.

- туроператор, в свою очередь, продвигает гостиницу через свои каналы (сайт, офисы продаж, каталоги).

Выгоды для отеля: увеличение количества гостей за счет каналов продаж туроператора, минимальные маркетинговые затраты на привлечение клиентов.

Выгоды для туроператора: доход от комиссионных за привлечение клиентов в гостиницу, возможность предложить клиентам широкий выбор вариантов размещения.

Динамическое ценообразование и онлайн-агрегаторы. Туроператоры все чаще используют «динамическое ценообразование», при котором стоимость номеров может варьироваться в зависимости от спроса и сезона. Сотрудничество с «онлайн-агрегаторами» (например, Booking.com, Expedia) позволяет отелям и туроператорам автоматически обновлять информацию о ценах и доступности номеров в реальном времени.

Выгоды для отеля: оптимизация загрузки отеля за счет гибкого управления ценами, доступ к широкой базе клиентов онлайн-агентств.

Выгоды для туроператора: возможность предложить клиентам актуальные цены и информацию о наличии номеров, снижение риска overbooking (перебронирования) за счет автоматизированных систем.

Создание туристических пакетов. Туроператоры часто разрабатывают «пакетные предложения», включающие в себя проживание, трансфер, экскурсии и другие услуги. В этом случае гостиница предоставляет не только проживание, но и другие услуги, такие как:

-завтраки, ужины или система "все включено".

-SPA-процедуры, спортивные мероприятия или доступ к развлекательным услугам отеля.

- организация экскурсий и мероприятий на базе отеля.

Выгоды для отеля: увеличение объема дополнительных продаж (услуги ресторана, SPA, аренда залов), привлечение туристов, которые предпочитают комплексные решения.

Выгоды для туроператора: повышение привлекательности туров за счет добавления дополнительных услуг, более высокий доход благодаря продаже комплексных продуктов.

Продвижение отелей через маркетинговые каналы туроператоров. Туроператоры могут включать информацию о гостиницах в свои рекламные кампании, каталоги, рассылки и веб-сайты. В рамках сотрудничества:

- туроператоры рекламируют гостиницы через собственные каналы с большим охватом.

- гостиницы предлагают туроператорам специальные условия для их клиентов.

Выгоды для отеля: расширение аудитории за счет маркетинговых ресурсов туроператора, повышение известности и репутации отеля на туристическом рынке.

Выгоды для туроператора: возможность предлагать эксклюзивные предложения и акции, привлекая клиентов, увеличение конкурентоспособности за счет уникальных предложений.

Выводы и предложения. Сотрудничество с туроператорами поможет гостиницам в повышении заполняемости номеров, особенно в низкий сезон, снижение маркетинговых расходов за счет использования ресурсов туроператоров, увеличение доходов за счет дополнительных услуг, предлагаемых через туроператоров. В свою очередь и у туроператоров будет возможность предложить клиентам разнообразные варианты размещения и услуги, фиксированные цены на номера, что позволяет эффективно планировать туры, возможность создания эксклюзивных предложений, повышающих конкурентоспособность на рынке.

Важными аспектами сотрудничества является условия оплаты. Необходимо заранее оговорить условия оплаты между туроператором и гостиницей. В случае гарантированного бронирования отель может требовать предоплату. Условия возврата средств в случае отмены бронирования должны быть четко прописаны.

Необходимо согласовать и политику в отношении отмен, особенно в высокий сезон, когда отель рискует потерять доход. Возможны варианты:

- полное или частичное возмещение в зависимости от сроков отмены.

- штрафы за позднюю отмену или незаезд (no-show).

Для долгосрочного сотрудничества туроператоры и отели должны обеспечивать высокий уровень обслуживания своих клиентов. Отзывы туристов и их удовлетворенность напрямую влияют на репутацию как туроператора, так и гостиницы. Это включает:

- Качество номеров и сервисов.

- Гибкость в предоставлении дополнительных услуг и индивидуальных запросов.

Гостиницы могут предлагать туроператорам специальные тарифы для постоянных клиентов, что помогает стимулировать повторные бронирования и повышать лояльность туристов.

Список использованной литературы:

1. Amriddinova R.S va bosq. Turizmda mehmonxona xizmatlari. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamISI, 2020, 180 bet.
2. Amriddinova R.S.va bosq. Mehmonxonalarda xodimlar faoliyatini boshqarish. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Fan va texnologiya”, 2018. - 300 b.
3. М.А.Ёхина Приём, размещение и выписка гостей. Учебник. Москва. Издательский центр «Академия» 2016.
4. Д.Г. Брашнов. Гостиничный сервис и туризм: Учебное пособие / Д.Г. Брашнов. - М.: Альфа-М: ИНФРА-М, 2011.
5. A.R Sadriddinovna. Improving the operation of hotels in Uzbekistan. - Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education, 2024.
6. Официальный телеграмм канал Statuz.
7. https://cmwp.uz

R.Amriddinova, S.Raximov

Turoperatorlar va mehmonxonalar o‘rtasidagi hamkorlik O‘zbekistonda mehmonxona xonalarini muvaffaqiyatli sotish garovi sifatida

Annotatsiya. Maqolada turoperatorlar va mehmonxonalar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning asosiy jihatlari, jumladan, o‘zaro manfaatli hamkorlik shartnomalari, turistlarni jalb qilishga qaratilgan marketing strategiyalari, turizm mahsulotlarini birgalikda targ‘ib qilish kabi masalalar muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston mehmonxona bozori, mehmonxona xonasi, turoperatorlar va mehmonxonalar o‘rtasidagi hamkorlik shakllari, xonalar bloklari uchun shartnomalar, komissiya shartnomasi, dinamik narxlar va onlayn agregatorlar, sayohat paketlarini yaratish, turoperatorlarning marketing kanallari orqali mehmonxonalarni ilgari surish.

R.Amriddinova, S.Rakhimov

Cooperation between tour operators and hotels as a guarantee of successful sale of hotel rooms in Uzbekistan

Abstract. The article discusses key aspects of interaction between tour operators and hotels, such as mutually beneficial partnership agreements, marketing strategies aimed at attracting tourists, and joint promotion of tourism products.

Keywords: hotel market of Uzbekistan, hotel room, forms of cooperation between tour operators and hotels, contracts for blocks of rooms, commission agreement, dynamic pricing and online aggregators, creation of tourist packages, promotion of hotels through marketing channels of tour operators.

Farrux Oltinboyevich Husanov – SamISI, “Oliy matematika” kafedrasi (Phd) v.b.dotsenti

TURISTIK OQIMLAR VA TRANSPORT MASALALARINI MODELLASHTIRISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm sohasida turistik oqimlarni va transport vositalarini samarali boshqarish uchun matematik modellarni qo‘llash imkoniyatlari tahlil qilingan. Turizmning rivojlanishi bilan birgalikda turistlar oqimini optimal taqsimlash, transport infratuzilmasiga tushadigan yuklamani kamaytirish va xizmat ko‘rsatish tizimini samarali boshqarish zarurati ham ortib bormoqda. Maqolada transport va logistika tizimlari, yo‘l trafigi modellari, shuningdek, navigatsiya tizimlarining rivojlanishida matematik modellardan foydalanish imkoniyatlari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: turistik oqim; matematik model; navigatsiya; logistika; transport infratuzilmasi; potensiallar usuli; kartografik modellar; matematik model.

Kirish. Turizm dunyo iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, u jahon yalpi ichki mahsulotida sezilarli ulushga ega. Har yili sayyohlikka bo‘lgan talab ortib, turli mamlakatlar va hududlarga keluvchi turistlar oqimi oshib boradi. Shuningdek, bu jarayon turizm sohasidagi transport va logistika tizimlariga ham katta yuklama tushirishini inobatga olish lozim. Turistik zonalarga kirib keluvchi sayyohlar oqimini samarali boshqarish va transport vositalarini optimal taqsimlash muhim masalaga aylanmoqda.

Ushbu muammoni hal qilishda matematik modellashtirish samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Matematik modellar orqali turistik yo‘nalishlarni aniqlash, transport vositalarining harakat yo‘nalishlarini rejalashtirish va yuklamalarni kamaytirish mumkin. Bunda turli transport yo‘llarining yuklamalarini aniqlash, turistlar oqimini taqsimlash va yangi infratuzilma loyihalarini tahlil qilish uchun matematik modellashtirishdan foydalanish zarur.

Mazkur maqolada turizm sohasidagi transport tizimlarini modellashtirishning turli yo‘nalishlari, jumladan, transport masalalarini hal qilish uchun operatsion tadqiqotlar va navigatsiya modellari, yo‘l trafigi modellari, shuningdek, transport infratuzilmasini samarali boshqarish metodlari o‘rganiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. XX asrning o‘rtalaridan boshlab, turizm va transport tizimlarini modellashtirishga qaratilgan matematik yondashuvlar keng tarqala boshladi. Transport logistikasi bo‘yicha matematik modellarni qo‘llash Winstonning Operations Research: Applications and Algorithms (2004) va Hillier va Lieberman tomonidan yozilgan Introduction to Operations Research (2005) kabi asarlarda keng muhokama qilinadi. Ushbu tadqiqotlar transport vositalarining harakatlanishini aniqlashda va turistlar oqimini tahlil qilishda tarmoqlar oqimi va tashish masalasi kabi modellardan foydalanishni yoritadi.

Navbat nazariyasini qo‘llash masalalari, xususan, aeroportlar va turistik obyektlarida turistlar oqimini yo‘naltirish va navbatlarni boshqarish bilan Gross va Harrisning Fundamentals of Queueing Theory (1998) hamda Kleinrockning Queueing Systems (1975) kabi asarlari orqali o‘rganilgan. Bu tadqiqotlar turizm sohasida xizmat ko‘rsatish tizimini boshqarishda qo‘llanilgan navbat nazariyasining turli modellarini tahlil qiladi.

Geoaxborot texnologiyalari (GAT) va kartografik modellarni qo‘llash, Longley va boshqalar tomonidan yozilgan Geographical Information Systems and Science (2005) hamda DeMersning Fundamentals of Geographic Information Systems (2008) kabi asarlarda keng muhokama qilinadi. Ushbu tadqiqotlar turistik yo‘nalishlarni rejalashtirishda va hududlarning ahamiyatli sohalarini aniqlashda GAT va kartografik modellar yordamida turistlar oqimini samarali boshqarish imkoniyatlarini ochib beradi.

Bu tadqiqotlar turizm infratuzilmasini yaxshilash, turistik oqimlarni samarali boshqarish va transport tizimlarining barqarorligini oshirish uchun matematik modellardan foydalanish imkoniyatlarini ko‘rsatadi va aksariyat tadqiqotlar operatsion tadqiqotlar, navbat nazariyasi, transport masalalari va ekologik tahlillarga asoslangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada turizm sohasida transport va turistik oqimlarni modellashtirish uchun bir qator tadqiqot metodologiyalari qo‘llanilgan. Xususan, gravitatsion modellar, agentga asoslangan modellashtirish, navbat nazariyasi, va geoaxborot tizimlari (GAT) kabi usullar integratsiyalangan holda ishlatilgan. Bu metodlar turistik yo‘nalishlarni optimallashtirishda va turistlar uchun qulay sharoitlar yaratishda muhim rol o‘ynaydi, shuningdek, turizm infratuzilmasini rivojlantirish va turistlar oqimini samarali boshqarishga yordam beradi.

Tahlil va natijalar. Turizm sohasida turistik oqimlarni va transport masalalarini modellashtirish uchun turli matematik modellar qo‘llaniladi. Quyida transport masalasi uchun oddiy matematik model keltiriladi.

Transport Masalasi (Transportation Problem)

Maqsad: Turistlarni turli manbalardan (masalan, aeroportlar, vokzallar) turli manzilgohlarga (masalan, mehmonxonalar, turistik joylar) minimal xarajat bilan yetkazish.

Modelning elementlari:

- Manbalar (ta'minotchilar): $i = 1,2,...,m$
- Manzilgohlar (iste'molchilar): $j = 1,2,...,n$
- Ta'minot miqdori S_i — manba i da mavjud turistlar soni
- Talab miqdori: D_i — manzilgoh j da talab qilinadigan turistlar soni
- Birlik xarajatlar: c_{ij} — manba i dan manzilgoh j ga bir turistni yetkazish xarajati

O‘zgaruvchilar:

- x_{ij} — manba i dan manzilgoh j ga jo‘natiladigan turistlar soni

Maqsad funksiyasi:

Umumiy transport xarajatlarini minimallashtirish:

$$\text{Minimizatsiya } Z = \sum_{i=1}^{m} \sum_{j=1}^{n} c_{ij} x_{ij}$$

Cheklovlar:

1. Manbalar cheklovi (har bir manbadan jo‘natiladigan turistlar soni uning ta'minotidan oshmasligi kerak):

   $\sum_{j=1}^{n} x_{ij} \le S_i$, har biri $i = 1,2,...,m$ uchun

2. Manzilgohlar cheklovi (har bir manzilgohga keladigan turistlar soni uning talabiga mos bo‘lishi kerak):

   $\sum_{i=1}^{m} x_{ij} \ge D_j$, har biri $j = 1,2,...,n$ uchun

3. No-manfiylik cheklovi:

$x_{ij} \geq 0$, har bir i, j uchun

Agar umumiy ta'minot umumiy talabga teng bo‘lsa ($\sum_i S_i = \sum_j D_j$), unda cheklovlarda tenglik ishlatiladi.

Izoh:

- Ushbu model orqali turistlarni manbalardan manzilgohlarga minimal xarajat bilan taqsimlash masalasini hal qilish mumkin.
- Xarajatlar c_{ij} masofa, vaqt yoki boshqa omillarga bog‘liq bo‘lishi mumkin.
- Modelni yechish uchun lineer dasturlash usullari, masalan, Shimoliy-G‘arbiy burchak usuli, Minimal element usuli yoki Potensiallar usulidan foydalaniladi.

Misol

Faraz qilaylik, bizda 2 ta manba (Aeroport) va 3 ta manzilgoh (Mehmonxona) mavjud.

Ta'minot:

- Manba 1: $S_1 = 120$ turist
- Manba 2: $S_2 = 150$ turist

Talab:

- Manzilgoh 1: $D_1 = 100$ turist
- Manzilgoh 2: $D_2 = 130$ turist
- Manzilgoh 3: $D_3 = 40$ turist

Xarajatlar matritsasi c_{ij}:

	Manzilgoh 1	Manzilgoh 2	Manzilgoh 3
Manba 1	3	2	4
Manba 2	1	3	2

Maqsad: Turistlarni manbalardan manzilgohlarga shunday taqsimlash kerakki, umumiy transport xarajatlari minimal bo‘lsin.

model:

- Maqsad funksiyasi:

$$Z = 3x_{11} + 2x_{12} + 4x_{13} + 1x_{21} + 3x_{22} + 2x_{23}$$

Cheklovlar:

1. Manbalar cheklovi:

Manba 1:

$$x_{11} + x_{12} + x_{13} \leq 120$$

Manba 2:

$$x_{21} + x_{22} + x_{23} \leq 150$$

2. Mazilgohlar cheklovi:

Manzilgoh 1:

$$x_{11} + x_{21} \geq 100$$

Manzilgoh 2:

$$x_{12} + x_{22} \geq 130$$

Manzilgoh 1:

$$x_{13} + x_{23} \geq 40$$

3. No-manfiylik cheklovi:

$$x_{ij} \geq 0,\ i = 1,2;\quad j = 1,2,3$$

Yechish:

- Ushbu chiziqli dasturlash masalasini yechish uchun maxsus transport usullaridan foydalanish mumkin.
  - Misol uchun, birinchi navbatda boshlang‘ich asosiy yechimni topish uchun Shimoliy-G‘arbiy burchak usulini qo‘llash.
  - Keyin potensiallar usuli yordamida optimal yechimga erishish mumkin.

Natija:

- Optimal taqsimot x_{ij} o‘zgaruvchilarining qiymatlaridan iborat bo‘ladi, bu qiymatlar umumiy xarajatlarni minimallashtiradi.

Xulosa:

- Ushbu model turistlarni manbalardan manzilgohlarga minimal xarajat bilan taqsimlashga yordam beradi.
- Bu resurslardan samarali foydalanishga va turistlarga sifatli xizmat ko‘rsatishga imkon beradi.
- Model real sharoitlarda qo‘llanilganda, xarajatlar c_{ij} ni aniqroq baholash va cheklovlarni aniqroq aniqlash zarur.

Ushbu matematik modellar turizm sohasini rivojlantirishda va innovatsion jarayonlardan samarali foydalanishda muhim ahamiyatga ega. Ular orqali turizm infratuzilmasini yaxshilash, transport tizimlarini optimallashtirish va turistlarga sifatli xizmat ko‘rsatish imkoniyatlari kengayadi.

Xulosa va takliflar. Turizm sohasida transport va turistik oqimlarni matematik modellashtirish samaradorlikni oshirish, trafikni boshqarish va infratuzilmani optimallashtirishda muhim vosita hisoblanadi. Maqolada keltirilgan transport modeli orqali turizmdagi transport vositalari va turistik zonalar o‘rtasidagi harakatlanishni samarali tashkil etish mumkin. Matematik modellar turistik oqimlarni tahlil qilish, resurslardan oqilona foydalanish va umumiy transport xarajatlarini minimallashtirishga yordam beradi. Bu modellar turizm sohasidagi innovatsiyalarni joriy qilishda va infratuzilmani yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. Shundan kelib chiqib quyidagi takliflarni berish mumkin:

1. Transport infratuzilmasini yaxshilash: Turistik yo‘nalishlarni rejalashtirish va transport vositalarini samarali taqsimlash uchun transport infratuzilmasiga doimiy sarmoya kiritish zarur. Bunda matematik modellar yordamida yo‘llar va vokzallar yuklamasini baholash mumkin.
2. Navigatsiya va logistika tizimlarini rivojlantirish: Turistik yo‘nalishlar uchun zamonaviy navigatsiya va logistika tizimlarini joriy qilish lozim. Bunday tizimlar matematik modellashtirish asosida turistlar oqimini aniqlash va trafikni optimal boshqarishga yordam beradi.
3. Geoaxborot tizimlarini qo‘llash**:** Turistik zonalarni samarali joylashtirish va yangi obyektlar qurishda Geoaxborot tizimlaridan foydalanish zarur. Bu tizimlar matematik modellar bilan integratsiya qilinib, hududlarni aniq va samarali rejalashtirish imkonini beradi.
4. Turizmdagi ekologik barqarorlik: Turistik zonalarda ekologik zararni kamaytirish uchun transport tizimlarini barqarorlashtirish lozim. Bunda atrof-muhitga zararni hisobga oluvchi matematik modellardan foydalanish muhim.
5. Tadqiqot va innovatsiyalarga sarmoya kiritish: Turizmda innovatsion jarayonlardan samarali foydalanishni ta’minlash uchun ilmiy tadqiqotlar va texnologiyalarga sarmoya kiritish talab etiladi. Matematik modellar asosida yangi innovatsion yechimlarni ishlab chiqish muhim.

Ushbu takliflar turizm sohasini rivojlantirishda muhim vositalar bo‘lib, matematik modellashtirish orqali turizm sektoridagi muammolarni samarali hal qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Winston, W. L. (2004). *Operations Research: Applications and Algorithms*. Belmont, CA: Thomson Brooks/Cole.
2. Hillier, F. S., & Lieberman, G. J. (2005). *Introduction to Operations Research*. New York: McGraw-Hill.
3. Gössling, S. (2002). "Global environmental consequences of tourism." *Global Environmental Change*, 12(4), 283-302.
4. Peeters, P., & Dubois, G. (2010). "Tourism travel under climate change mitigation constraints." *Journal of Transport Geography*, 18(3), 447-457.
5. Gross, D., & Harris, C. M. (1998). *Fundamentals of Queueing Theory*. New York: Wiley.
6. Longley, P. A., Goodchild, M. F., Maguire, D. J., & Rhind, D. W. (2005). *Geographical Information Systems and Science*. Chichester: Wiley.
7. DeMers, M. N. (2008). *Fundamentals of Geographic Information Systems*. Hoboken, NJ: Wiley.

Ф.Хусанов

Моделирование туристических потоков и транспортных проблем

Аннотация: В данной статье анализируются возможности использования математических моделей для эффективного управления туристскими потоками и транспортными средствами в сфере туризма. Вместе с развитием туризма возрастает необходимость оптимального распределения туристических потоков, снижения нагрузки на транспортную инфраструктуру, эффективного управления системой обслуживания. В статье рассматриваются возможности использования математических моделей при разработке транспортно-логистических систем, моделей дорожного движения, а также навигационных систем.

Ключевые слова: туристический поток, математическая модель, навигация, логистика, транспортная инфраструктура, метод потенциалов, картографические модели, математическая модель.

F.Husanov

Modeling of tourist flows and transport issues

Abstract: This article analyzes the possibilities of using mathematical models for effective management of tourist flows and vehicles in the field of tourism. Along with the development of tourism, the need to optimally distribute the flow of tourists, reduce the load on the transport infrastructure, and effectively manage the service system is also increasing. The article examines the possibilities of using mathematical models in the development of transport and logistics systems, road traffic models, as well as navigation systems.

Keywords: tourist flow, mathematical model, navigation, logistics, transport infrastructure, method of potentials, cartographic models, mathematical model.

Suxrob Ramazonovich Bobokalonov – Buxoro viloyati Turizm boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi, fil.f.n.

BUXORO VILOYATIDA JOYLASHGAN AFSHONA QISHLOG‘IDA TURIZM SHAHARCHASINI TASHKIL ETISH LOYIHASINI AMALGA OSHIRISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda Buxoro viloyatida joylashgan Afshona qishlog‘ida turizm shaharchasini tashkil etish loyihasini amalga oshirish istiqbollari ilmiy-amaliy va tashkiliy-iqtisodiy jihatdan asoslangan. Ulug‘ alloma Abu Ali ibn Sino tug‘ilib o‘sgan Buxoro viloyati Peshku tumani Afshona qishlog‘ini turizm shaharchasiga aylantirish bosqichlari ishlab chiqilib, ushbu maskanga yil davomida 10 mlndan ortiq ichki va xalqaro turistik oqimni jalb qilish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: turistik hudud, destinatsiya, turizm qishlog‘i, ichki turizm, xalqaro kirish turizmi, turizm sohasini tartibga solish.


Kirish. Dunyo miqyosida mashhur va buyuk ajdodlarimiz orasida Abu Ali Ibn Sino dahosi O‘zbekistonning eng taniqli namoyondalari qatorida alohida e’tirof etilib, e’zozlanadi. 2021-yil 12-oktabrda Buxoro viloyatiga amalga oshirilgan amaliy tashrifi chog‘ida prezident Shavkat

Mirziyoyev “buyuk bobokalonimiz, ulug‘ alloma Abu Ali ibn Sino tug‘ilib o‘sgan Afshona qishlog‘ini turizm shaharchasiga aylantirishni” taklif qilib, viloyatning turistik jozibadorligini oshirishda mazkur yo‘nalishda amaliy sa’y-harakatlar rejasini ishlab chiqish zarurligini qayd etib o‘tgan edi. Afshona Buxoro viloyati Peshku tumani hududida Buxoro shahridan 30 kilometr shimoliy-sharqda joylashgan qadimiy qishloq sanaladi. Buyuk olim Ibn Sinoning tug‘ilgan joyi sifatida tan olingan ushbu qishloqning qoq markazida mahobatli va so‘lim go‘sha mavjud bo‘lib, yashil xiyobon markazidagi alloma haykali, tibbiyot kolleji, hamda Abu Ali ibn Sino muzeyini o‘z ichiga olgan kichik kompleksni vujudga keltirgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Turistik potensialga ega hududlarni jozibador destinatsiyalarga aylantirish muammolarini xorijlik olimlardan S.Formica [1], N.Leiper [2], S.Plog [3], V.Altxoflar [4] ilmiy tadqiq etganlar. O‘zbekistonlik olimlardan X.M.Mamatqulov [5], N.S.Ibragimov [6] va B.N.Navro‘z-zodalar [7] tomonidan turistik oqimni hosil qilish qobilyatining uzviy davomi o‘laroq, uni to‘g‘ri boshqarish, yo‘naltirish mavsumiy o‘zgarishlar fonida yangilanuvchan va dinamik talablarga moslashish, texnologik transformatsiya davriga xos bo‘lgan xususiyatlarni inobatga olgan holda xizmatlar taklifi salmog‘ini oshirish va strategik rejalarni ishlab chiqish masalalarini Jelmer Hendrik Gerard Jeuring va Tialda Haartsenlar chuqur tadqiq etishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Buxoro viloyatida joylashgan Afshona qishlog‘ida turizm shaharchasini tashkil etish loyihasini amalga oshirish istiqbollarini aniqlashga oid tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tizimli tahlil, konseptual yondashuv, ilmiy abstraksiya, analiz va sintez, statistik tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Afshona qishlog‘ining jozibador turizm destinatsiyasi sifatidagi muhim afzalliklari tahlil qilinib, bizning fikrimizcha, mazkur qishloqning Buxoro viloyatida joylashganligi birinchi navbatdagi muhim afzalliklardan biri sifatida qayd etiladi (1-rasm). Boisi, Buxoro nomining o‘ziyoq hech qanday qo‘shimcha izohlarsiz ta’sirchan va jalb qiluvchi reklama vazifasini o‘tay oladigan, xorijliklarni, ayniqsa musulmon olami mamlakatlari aholisini o‘ziga tortish imkoniyatiga ega bo‘lgan xususiyatlarni namoyon etadi. Demak, bu sayohatgohning ustunligini ta’minlovchi tabiiy xususiyat sifatida ham qayd etilishi mumkin va mazkur ijobiy jihat ichki, hamda tashqi imijni o‘zida uyg‘unlashtirgan brend sifatidagi bozor faoliyatida aniq ko‘zga tashlanadi.



1-rasm. Afshonaning jozibador turizm destinatsiyasi sifatidagi muhim afzalliklari[1]

Ishchi kuchi potensialini o‘rganish maqsadida o‘tkazilgan demografik holat tahlili natijalariga ko‘ra, Buxoro viloyati bo‘yicha 2024-yil 1-aprel holatida 2 050,6 ming kishi

[1] Muallif ishlanmasi

istiqomat qilib (1-jadval), shundan, shahar aholisi 756,4 ming (37%), qishloq aholisi 1 294,2 ming kishi (63%)ni tashkil etmoqda. Peshku tumanida esa umumiy aholi soni jami 131,4 ming nafarni, shulardan shahar aholisi 16,7 ming, qishloq aholisi soni esa 114,7 ming kishini tashkil etmoqda. Foiz hisobida shahar hududida istiqomat qiluvchi tuman aholisi 13 %, qishloq aholisining ulushi 87 % ni tashkil etmoqda.

2024-yil 1-yanvar holatida Peshku tuman aholisining 57,1 % qismini mehnatga layoqatli yoshdagi insonlar, 12,3 % mehnatga layoqatli yoshdan kattalar, 30,6 % mehnat yoshiga yetmaganlar tashkil etmoqda (2-rasm). Tuman aholisining 2023-yilgi statistik ma’lumotlar bo‘yicha 65 dan yuqori yoshdagi shaxslar soni 7067 tani (5,3 %) tashkil etadi. Yaponiyaning jozibador turizm destinatsiyalarini shakllantirish va rivojlantirish tajribasidan kelib chiqib, barcha yosh toifasidagi insonlarning turizmda ishtirokini ta’minlashga imkon qadar sharoitlar yaratish, bunda ularning nafaqat turizm xizmatlari iste’molchisi sifatida, balki turizm xizmatlarini yo‘lga qo‘yish masalalarida takliflari hamda g‘oyalarini inobatga olish lozim deb hisoblaymiz. Afshona turizm qishlog‘ida tom ma’nodagi qadimiylik ruhiyatini namoyon etishning yo‘nalishlaridan biri sifatida hududda istiqomat qilayotgan keksa yoshdagi insonlarning bilimlari hamda tajribalaridan to‘g‘ri va samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish, maslahat kengashlari tarkibida ular orasidan vakillar tayinlash, bildiriladigan fikrlarini sayohatgoh loyihalarini amalga oshirish jarayonida inobatga olishda, deb hisoblaymiz.


1-jadval

Buxoro viloyati hududlari kesimida qishloq va shahar aholisining taqsimlanishi [8]

Buxoro viloyati	2 050,6	756,4	1 294,2	100,3	100,3	100,3
Buxoro sh.	296,0	270,9	25,1	100,5	100,5	100,4
Kogon sh.	64,9	64,9	-	100,3	100,3	-
Tumanlar						
Buxoro	179,1	40,9	138,2	100,4	100,5	100,4
Vobkent	149,2	28,8	120,4	100,3	100,0	100,4
Jondor	186,1	35,8	150,3	100,3	100,3	100,3
Kogon	85,0	6,4	78,6	100,5	100,0	100,5
Olot	104,6	39,5	65,1	100,3	100,3	100,3
Peshku	131,4	16,7	114,7	100,2	100,0	100,2
Romitan	151,7	37,9	113,8	100,2	100,3	100,2
Shofirkon	186,7	43,1	143,6	100,1	100,0	100,1

Unga ko‘ra, mehnat qobilyatiga ega bo‘lgan jami aholining 8,9 % qismi yoki 4,8 ming kishi 2022-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra ishsiz ekanligi ma’lum bo‘ldi. Afshona turizm qishlog‘ida jozibador turizm sayohatgohi loyihasining amalga oshirilishi natijasida tumanda dolzarb bo‘lib turgan mavjud ishsizlik muammosini hal etishda sezilarli hissa qo‘shishga erishilishi bilan birga, 16.02.2021 yildagi 72-son O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2021 — 2023-yillarda Buxoro viloyatining Peshku tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorning 6-ilovasidagi Buxoro viloyatining Peshku tumanidagi “Ibn Sino” MFY hududida turizmni rivojlantirish bo‘yicha “Afshona” turizm qishlog‘ini tashkil etish bo‘yicha Yo‘l xaritasida ko‘zda tutilgan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi [9].

Hunarmandchilik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi subyektlar ya’ni usta hunarmandlar, hamda ularning ko‘p sonli shogirdlari uzoq asrlik an’analarimizni davom ettirib, qo‘l mehnatining nodir namunalarini yaratish orqali tashrif buyuruvchi xorijlik va mahalliy sayyohlarga hudud tarixidan “so‘zlovchi” betakror buyumlarni taqdim etish vositasida xizmat ko‘rsatadilar.



2-rasm. 2014-2022-yillar davomida Peshku tumanida iqtisodiy faol aholi, band bo‘lganlar va ishsizlar ko‘rsatkichlari[1]



3-rasm. Afshona qishlog‘ida turizm shaharchasini tashkil etishning ijobiy jihatlari[2]

[1] Buxstat.uz ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi
[2] Muallif ishlanmasi

Fikrimizcha, Afshona qishlog‘i negizida turizm shaharchasining barpo etilishi birinchidan, mamlakatning umumiy turizm taklif tizimi imkoniyatlarini oshirilishiga hissa qo‘shib, yangicha xizmat turlarini joriy etilishiga keng imkoniyat yaratib bersa, ikkinchidan, Buxoro shahri hududining asosiy turistik markazlarida kuzatilayotgan turizm va mashinalar oqimi tig‘izligi muammolarini ma’lum ma’noda yechilishiga hissa qo‘shib, turizm oqimini boshqarishda yo‘naltiriluvchi destinatsion markazlar shakllantirilishida nihoyatda ahamiyatli va foydali bo‘ladi. Shunga ko‘ra, Afshona qishlog‘ida turizm shaharchasini tashkil etishning ijobiy jihatlari o‘rganilib, 3-rasm shakllantirildi.

Bugungi global turizm bozori muhiti mamlakatlardan va destinatsiya menejmenti kompaniyalari hamda tarmoq boshqaruv sohasi organlaridan sayohatgohning mashhurligini oshirishga qaratilgan, uzoqni ko‘zlagan siyosat yuritishni, bozor targ‘ibotining zamonaviy talablari va uslublariga muvofiq ish ko‘rishni, turizm ehtiyoji yuqori, katta oqimlarni shakllantirish xususiyatiga ega markazlarga ta’sir etuvchi, turtki beruvchi mexanizmlarni ishga solishni talab etmoqda. Jahon turizm tashkilotining, qishoq hududlarida turizm sanoatini rivojlantirish strategiyasi aynan, nisbatan chekka hududlarni yuqori raqobatli shart-sharoitlarda rivojlantirishni ko‘zda tutib, o‘z nomidan foydalangan holda, turizm qishloqlarini targ‘ibot qilish imkoniyatini taqdim etish maqsadida eng yaxshi turizm qishloqlari ro‘yxatini e’lon qilib borayotganligi imkoniyatidan, bizning nazarimizda Afshona turizm qishlog‘ini strategik rivojlantirish maqsadlarida inobatga olinishi zarur. Mazkur “eng yaxshilar” reytingi hududga amalga oshiriladigan turistik tashriflar miqdorini bir necha barobar oshirilishiga asos bo‘lishini inobatga olib, Afshonani UNWTOning eng yaxshi turizm qishloqlari ro‘yxatiga kiritishning asosiy bosqichlari ishlab chiqildi. Tumanda elektr energiyasi ta’minotida doimiy hamda qisqa uzilishlar kuzatilib turishi va sanoat zonalaridagi tabiiy gazni yetkazib berish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar mavjud ekanligi, salbiy jihatlar hududning nafaqat sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalariga, balki butun boshli iqtisodiy-ijtimoiy natijalarida salbiy ta’sir ko‘rsatadi [10].

Biz taklif etayotgan loyihaga ko‘ra, Afshona turizm qishlog‘ining o‘zida quyosh elektr panellari hamda suv isitishga mo‘ljallangan qurilmalardan foydalanilishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, panellar shunday shaklda o‘rnatiladiki, ulardan foydalanish jarayonlari va joylashuv nuqtalari hududning an’anaviylik ruhiyati yo‘g‘rilgan dizaynini buzmasligi inobatga olinadi va mehmonlar agar alohida qiziqish bildirmasalar buni deyarli sezmaydilar ham. Ya’ni, qishloqning energetik ta’minot masalalari imkon qadar shu yerning o‘zida hal etilib, qo‘shimcha ravishda elektr yig‘ish uskunalari bilan jihozlanadi, bu degani agar zarurat tug‘ilsa, turizm maskani ortiqcha energiyani yondosh hududlarga yetkazib berish orqali sotish imkoniga ham ega bo‘ladi va buning natijasida daromad manbalari ro‘yxatini yana bittaga oshirib oladi [11].

Afshona qishlog‘ida muallif tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan loyihaga ko‘ra, qishloq hududidan 2 gektar yer maydoni ajratilishi talab etilib, hududning an’anaviy shakl-shamoyiliga hamohanglik kasb etishi inobatga olinadi va yo‘l yoqasi bo‘ylab qulay joylashuv nuqtasiga ega bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda shaharchaning asosiy yo‘l bilan tutashgan yo‘nalishida zamonaviy avtoturargohlar qurilib (6-rasm), nogironlar uchun alohida to‘xtash nuqtalari, keyinchalik elektromobillarni zaryadlash kichik stansiyasini ham ishga tushirish rejalashtirilgan.

Eshiklar va ustunlarning an’anaviy yog‘och o‘ymakorligi namunalari bilan bezatilishi, oddiyroq muhit shaklu-shamoyilini berish lozim nuqtalarda ota-bobolarimizdan meros qurilish texnologiyalaridan foydalanish, milliy o‘ziga xoslik uslubiyotini o‘zida mujassam etgan qadimiylik “ranglarini” to‘g‘ri qo‘llash maqsadida Buxoro viloyatining eng tajribali ustoz-shogird an’analarini davom ettirib kelayotgan quruvchi-ustalari bunyodkorlik jarayonlariga jalb etiladi.

Yana bir e’tiborli jihati, turistlar bilan birgalikda Afshonaga yaqin hududdagi bo‘sh ye’r maydonlarida ko‘chatlar o‘tqazish ko‘ngilochar tadbirlarini tashkil etish (4-rasm), yillar mobaynida ularni parvarishlash loyihalari bilan turistlarni tanishtirish va ma’lum vaqtdan so‘ng, o‘zi ekkan nihollarni kelib ko‘rishi borasidagi motivatsion dasturlar ishlab chiqilib, buning natijasi o‘laroq takroriy turizm tashriflariga zamin hozirlanib boradi.

Loyihaning hayotga tadbiq etilishi natijasi o‘laroq, 200 ta yangi ish o‘rinlari yaratilib, ishsiz fuqarolarning muqim ish o‘rinlari bilan ta’minlanishiga hissa qo‘shiladi va eng avvalo? qamrov

ijtimoiy ko‘makka muhtoj oila vakillari orasidan kadrlar saralab olinishiga qaratiladi. Ahamiyatlisi, agar zarurat bo‘lsa shu yerning o‘zida ularning malakasini oshirib borishga mo‘ljallangan shart-sharoitlari yaratilib, buning uchun Buxoro Davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti bilan hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yiladi.



4-rasm. Afshona turizm qishlog‘i negizida tashkil etiladigan turizm shaharchasining umumiy ko‘rinishi

Sayohatgohda joylashtirish vositalaridagi umumiy o‘rinlar soni 200 ta bo‘lishi rejalashtirilgan bo‘lib, buning uchun 20 ta mehmon uylari barpo etiladi. Hisob-kitoblarga ko‘ra yiliga 50 mingdan ziyod mehmonlarning hududga tashrif buyurishi rejalashtirilgan. Yillik daromad hajmi esa 15 milliard so‘m bo‘lishi kutilayotgan bo‘lib, loyihaning amalga oshirilishi uchun zaruriy mablag‘ miqdori 10 milliard so‘mni tashkil etadi. Demak, destinatsiya faoliyati to‘laqonli tartibda yo‘lga qo‘yilgach loyiha o‘z-o‘zini 2 yilda to‘liq hajmda qoplay oladi.

Joriy yilning o‘tgan davrida (2024-yil iyun oyigacha bo‘lgan muddat nazarda tutilmoqda) viloyatga 455,2 ming xorijlik sayyohlar tashrif buyurib, ko‘rsatilgan xizmatlar orqali turizm eksporti 113,8 million AQSH dollariga yetdi. Qayd etib etish joizki, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 34,6 foizga ko‘p [12].

2-jadval

Afshona turizm destinatsiyasiga ichki turistlarni jalb etishga oid prognoz ko‘rsatkichlari[1]

Qamrov foizi		1%	1,5%	2%	2,5%	3%	3,5%	4%
Turistlar soni		34 900	52 900	69 900	87 250	104 700	122 150	139 600
Turistlar xarajatlari	**10$**	349 000	529000	699 900	872 500	1 047 000	1221500	1396000
	20$	698 000	1058000	1 398 000	1 745 000	2 094 000	2443000	2 792000
	30$	1 047 000	1587000	2 097 000	2 617 500	3 141 000	3664500	4 188000
	40$	1 396 000	2116000	2 796 000	3 490 000	4 188 000	4886000	5 584000
	50$	1 745 000	2645000	3 495 000	4 362 500	5 235 000	6107500	6 980000
	60$	2 094 000	3174000	4 194 000	5 235 000	6 282 000	7329000	8 376000

[1] Muallif ishlanmasi

2023-yilgi statistik ma’lumotlarga tayangan holda, Buxoro viloyatiga jami tashrif buyurgan turistlar sonining 1 foizdan 4 foizgacha bo‘lgan miqdorini transport, ovqatlanish xizmatlari, gid xizmati, Ibn Sino muzeyiga amalga oshiriladigan tashriflar, joylashtirish vositalari va boshqa qo‘shimcha xizmatlardan foydalanishga sarflanadigan mablag‘lar miqdorini 10 dollardan 50 dollargacha bo‘lgan oraliqda deb hisoblanib, daromadlar prognozlari amalga oshirildi [13]. (2-jadval).

2023-yilda Buxoro viloyatiga turistik maqsadlarda tashrif buyurgan jami turistlarning soni 4,9 milliondan oshganidan kelib chiqib, ushbu miqdordan 1-4 foizgacha bo‘lgan turistlarning Afshona turizm sayohatgohiga tashrif buyurilishi natijasida ko‘riladigan daromad miqdori prognozlashtirildi (3-jadval).

3-jadval

Afshona turizm destinatsiyasiga jalb etilishi ko‘zda tutilayotgan jami turistlarga oid prognoz ko‘rsatkichlar[1]

Qamrov foizi		1%	1,5%	2%	2,5%	3%	3,5%	4%
Turistlar soni		49 000	73 500	98 000	122 500	147 000	171 500	196 000
Turistlar xarajatlari	**10$**	490 000	735 000	980 000	1 225 000	1 470 000	1 715 000	1 960 000
	20$	980 000	1 470 000	1 960 000	2 450 000	2 940 000	3 430 000	3 920 000
	30$	1 470 000	2 205 000	2 940 000	3 675 000	4 410 000	5 145 000	5 880 000
	40$	1 960 000	2 940 000	3 920 000	4 900 000	5 880 000	6 860 000	7 840 000
	50$	2 450 000	3 675 000	4 900 000	6 125 000	7 350 000	8 575 000	9 800 000
	60$	2 940 000	4 410 000	5 880 000	7 370 000	8 820 000	10 290 000	11 760 000

Natijalarga ko‘ra, agar Afshona qishlog‘iga viloyat bo‘yicha 2023-yilda tashrif buyurgan jami turistlarning bir foizi miqdoridagi turistik oqim jalb etilishiga erishilsa, sayohatgohga yiliga 49 ming nafar turistlar tashrifi amalga oshirilib, ular hududda o‘rtacha 10 dollardan xarajat qilgan taqdirda, 490 ming AQSH dollari yoki 6 186 250 000 so‘m miqdorida daromad olinishiga erishiladi. Loyihani amalga oshirishga sarflanadigan mablag‘ 10 milliard so‘m ekanligini inobatga olsak, destinatsiya 2 yilda 12 372 500 000 so‘m daromad olib sarflangan xarajatlarni to‘liq qoplanishiga erishiladi.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, bizning fikrimizga ko‘ra Afshona qishlog‘ida turizm shaharchasini tashkil etish loyihasining hayotga tadbiq etilishi natijasida quyidagi iqtisodiy-ijtimoiy o‘zgarishlar kuzatilib, amaliy natijalarga erishiladi:

1.Peshku tumani hududida istiqomat qiluvchi mehnatga layoqatli ishsiz fuqarolarning 200 nafari muqim va daromadli ish o‘rinlari bilan ta’minlanib, buning natijasida 200 oila xo‘jaliklarida qo‘shimcha daromad kirishi ta’minlanadi. Biroq, bu faqat dastlabki bosqich bo‘lib hisoblanadi, keyinchalik ushbu ko‘rsatkichlarni yondosh hududlarda barpo etiladigan Afshona turizm qishlog‘ining yangi loyihalari hisobiga kamida 2 barobar oshirilishi kutilmoqda.

2.Turizm shaharchasida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanilishi hisobiga hudud asosiy energiya ehtiyojini o‘zining manbalari orqali qoplashga muvaffaq bo‘lib, ortiqcha energiya yaqin-atrofdagi tadbirkorlik subyektlari va xo‘jaliklarga qulay narxlarda sotilishi mumkin bo‘ladi. BMT va UNWTOning ekologik barqarorlik talablariga ham mazkur amaliy sa’y-harakatlar to‘laqonli mos tushib, sayohatgohning jozibadorlik imkoniyatlari va nufuzi oshadi.

3. Loyihaning iqtisodiy samaradorligi shunda ko‘rinadiki, 2 yil ichida sarflangan mablag‘larning to‘laqonli tarzda qoplanishi, hamda yillik daromad hajmi 15 milliard so‘mdan

[1] Muallif ishlanmasi

ziyodni tashkil etishi prognoz qilinmoqda.

4. Dunyo miqyosida inklyuziv jamiyatni barpo etish, turizm xizmatlaridan nogironligi bor shaxslarning kengroq foydalanish imkoniyatlarini yaratish va rivojlantirish borasidagi intilishlarga mos tarzda, turizm qishlog‘i hududi to‘laqonli inklyuziv shart-sharoitlar bilan ta’minlanib, dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari tajribalaridan foydalaniladi.

5. Afshona qishlog‘ini UNWTOning eng yaxshi turizm qishloqlari reytingiga kiritilishi uchun zamin yaratilib, viloyat hududidagi dastlabki e’tirof etilgan turizm qishloqlaridan biriga aylanishiga zamin yaratiladi. Markaziy Osiyoda bunday qishloqlar soni hozirgacha atigi 2 ta ekanligini qayd etib o‘tamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Formica S. Destination attractiveness as a function of supply and demand interaction. – Virginia Polytechnic Institute and State University, 2000.

2.Leiper, Neil. The framework of tourism: towards a defi nition of tourism, tourist, and the tourist industry // Annals of Tourism Research. – 1973. – № 6(4). – Pp. 390–407.

3.Plog, S.C. Why destination areas rise and fall in popularity // The Cornell Hotel and Restaurant Administration Quartely. – 1973. – № 14. – Pp. 55–58.

4. Althof W. Incoming-Tourismus. Muenchen; Wien; Oldenbourg, 1996.

5. Маматкулов Х.М. Хизмат кўрсатиш соҳасига оид атамалар ва иборалар изоҳли луғати. - Т.: “Iqtisod-Moliya" 2010. - 398 б.

6. N.S.Ibragimov. Destinatsion menejment: davlat miqyosida turizmni bozor usulida boshqarish san`ati

7. Навруз-зода Б.Н., Ибрагимов Н.С., Навруз-зода З.Б., Навруз-зода Ш.Б. Туристик ҳудуд рақобатбардошлиги Монография. Бухоро: “Садриддин Салим Бухорий” Дурдона нашриёти, 2017, – 156 б.

8. Jelmer Xendrik Jerar Jeuring, Tialda Xartsen., The challenge of proximity: the (un)attractiveness of near-home tourism destinations, Tourism Geographies An International Journal of Tourism Space, Place and Environment Volume 19, 2017 - Issue 1: Proximity and Intraregional Aspects of Tourism.

9. https://www.buxstat.uz/uz/

10. https://lex.uz/uz/docs/-5293947

11. https://regulation.gov.uz/uz/document/16672

12. https://lex.uz/uz/docs/-6479180?ONDATE=03.08.2024

13. https://iiau.uz/oz/news/3237

С.Бобокалонов

Перспективы реализации проекта организации туристического города в селе Афшона, расположенном в Бухарской области

Аннотация: В данном исследовании обоснованы перспективы реализации проекта создания туристического городка в селе Афшона, расположенном в Бухарской области, с учетом научно-практических и организационно-экономических аспектов. Разработаны этапы превращения села Афшона Пешкунского района Бухарской области, где родился и вырос великий мыслитель Авиценна, в туристический городок, а также разработаны научно-практические предложения и рекомендации по привлечению более 10 миллионов отечественных и международных туристов в это место в течение года.

Ключевые слова: туристическая территория, дестинация, туристическая деревня, внутренний туризм, международный въездной туризм, регулирование туристической отрасли.

S.Bobokalonov

Prospects of implementing the project of organizing a tourism city in afshona village located in bukhara region

Abstract: This study substantiates the prospects for implementing the project to create a tourist town in the village of Afshona, located in the Bukhara region, taking into account scientific-practical and organizational-economic aspects. The stages of turning the village of Afshona in the Peshku district of the Bukhara region, where the great thinker Avicenna was born and raised, into a tourist town have been developed, and scientific-practical proposals and recommendations have been developed to attract more than 10 million domestic and international tourists to this place during the year.

Keywords: tourist area, destination, tourism village, domestic tourism, international inbound tourism, regulation of the tourism industry.

G‘ayrat Soyibovich Raupov – Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

TURIZM XIZMATLARINI DIVERSIFIKATSIYALASH JARAYONINING KONSEPTUAL MODELI VA DIVERSIFIKATSIYA MATRITSASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro viloyatida mavjud madaniy meros obyektlarida turizm xizmatlarini diversifikatsiyalash jarayonining konseptual modeli va diversifikatsiya matritsasi ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: diversifikatsiya, madaniy meros, konseptual model, ziyoratgoh, optimallashtirish, xizmatlar integratsiyasi, raqamli xizmatlar, tabaqalanuvchanlik matritsasi

Kirish. Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktyabrdagi “Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 846-sonli qarori bilan, 2023-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, respublikamizda jami moddiy madaniy meros obyektlari soni 8 210 tani tashkil etgan [17]. Shundan: arxeologiya yodgorliklari – 4797 ta, arxitektura yodgorliklari – 2266 ta, monumental yodgorliklar – 617 ta, — diqqatga sazovor joylar – 530 ta, O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi bergan ma’lumotlarga asosan 2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, Buxoro viloyatida jami 829 ta moddiy-madaniy meros obyektlari mavjud bo‘lib, shulardan: arxitektura yodgorliklari – 507 ta; arxeologiya yodgorliklari – 287 ta; diqqatga sazovor joylar – 18 ta; monumental san‘at yodgorliklari – 17 tani tashkil etadi [18].

Diversifikatsiya turli sabab va omillar ta’siri ostida yuzaga kelgan ma’lum bir shart-sharoitlar holatida tavakkalchilik darajasini imkon qadar kamaytirish yoki undan biznes yuritishning oqilona uslublari vositasida qochishni anglatib, murakkab holatlardagi vaziyat rivojlanish jarayonlariga borib taqaladi. Ushbu tadqiqot ishining yana bir muhim maqsadi turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishning madaniy meros obyektlaridan foydalanish munosabatlarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan maqbul strategiyalarni tanlash, ularni qo‘llash vositasida obyekt biznes muhitiga ta’sirini tizimli tahlil, statistik tahlil, klassifikatsiyalashtirish metodlari orqali aniqlashdan iborat. Madaniy meros obyektlarida turizm faoliyatini amalga oshirish kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun nihoyatda qulay ekanligi, turizm xizmatlar eksport hajmini oshirish va budjet tushumlariga munosib hissa qo‘shishni ham anglatadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. H.Zhang Janubiy Koreya madaniy meros obyektlari, hamda turistlarning mazkur inshootlarda ko‘rsatiladigan xizmatlardan qoniqish darajasi yuzasidan o‘rganishlar olib borgan[2]. C.Dodd[3] madaniy meros obyektlari tadqiqotlari natijasida qilgan xulosalariga ko‘ra madaniyatlararo muvofiqlik boshqa mamlakat hamda madaniyatga moslashish jarayoni yoki istagi deya fikr bildiradi. D.J.Timothy[4], C.Teo, N.Khan, F.H.Abd Rahim[5], L.Xu, J.Zhang, Z.Nie[6], Z.Bujdosó, L.Dávid, G.Kovács, V.Major-Kathi, A.Tőzsér[7] A.Menor-Campos, J.C.Pérez-Gálvez, A.Hidalgo-Fernandez, T.Lopez-Guzman[8] singari olimlar va tadqiqotchilar madaniy meros va turizm, madaniy meros obyektlarining insonlar xulq atvoriga hamda taklif tizimi shakllantiriladigan hudud iqtisodiyotiga ta’siri, barqaror turizm va madaniy meros obyektlarida xizmatlarni rivojlantirish mavzularida keng miqyosdagi izlanishlar olib borishgan.


Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot ishida Buxoro viloyatida mavjud madaniy meros obyektlarining statistik ko‘rsatkichlari, qaysi maqsadlarda foydalanilayotganligi tahliliy asosda o‘rganiladi, hamda qiyosiy tahlillar amalga oshiriladi. Hududlarning o‘ziga xos potensial hamda resurs imkoniyatlari darajasidan kelib chiqib, turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish-ning o‘ziga xos yo‘nalishlari induksiya, deduksiya, ilmiy abstraksiya metodlari vositasida aniqlashtirilib, eng ilg‘or xorij tajribasi yutuqlariga asoslangan holda, muallif tomonidan ishlab chiqilgan “madaniy meros obyektlarini diversifikatsiya qilish modeli” asoslab berilib, uni amaliyotga tadbiq etish imkoniyatlari o‘rganiladi, xulosalar qilinadi va ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tahlil va natijalar. Madaniy meros obyektlari tarkibida 31 ta madrasa, 105 ta masjid, 14 ta maqbara, 133 ta arxitektura ansambllari (tarkibi bilan), 15 ta karvonsaroylar, 4 ta tim va toqlar, 122 ta qadimiy uy-joylar mavjud [16]. O‘rganishlarimizga ko‘ra, Buxoro viloyatidagi mavjud madaniy meros obyektlarining respublika miqyosidagi ulushi 10,09% ni tashkil etgani holda, arxitektura yodgorliklari 22,3% , arxeologiya yodgorliklari 6%, diqqatga sazovor joylar 3,4%,

monumental san’at yodgorliklari 2,75% ni tashkil etadi.

1993-yilda YUNESKOning Umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilib, 216 gektar maydonni egallagan Buxoro tarixiy markazi va uning 339 gektarlik muhofaza hududi xalqaro miqyosda turistlar orasida nihoyatda mashhur. 2023-yilning sentyabr oyida Saudiya Arabistonining Ar-Riyod shahrida o‘tkazilgan YUNESKO Umumjahon merosi qo‘mitasining 45-sessiyasi “Ipak yo‘li Zarafshon Qoraqum koridori” nominatsiyasida Buxoro viloyatidan 7 ta madaniy meros obyekti jumladan, Poykent, Varaxsha, Vardonze, Chor Bakr va Bahouddin Naqshband majmualari, Vobkent minorasi, Chashmai Ayub xazirasi YUNESKOning Umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritildi [15].

Madaniy meros obyektlarida turizm xizmatlarini diversifikatsiyalash jarayoni (1-rasm) qanday shaklda amalga oshirilishi xususidagi o‘rganishlarimiz natijasida sxema shakllantirilib, unga ko‘ra birinchi navbatda mamlakatning turizm siyosatini yuritishga oid qonunchilik bazasi hamda me’yoriy huquqiy asoslarning yetarli darajada ta’minlanganligi inshootlardan



1-rasm. Madaniy meros obyektlarida turizm xizmatlarini diversifikatsiyalash jarayonining konseptual modeli[1]


[1] muallif ishlanmasi

foydalanishda yangicha iqtisodiy yondashuvlarni qo‘llay olishning asosi sifatida baholanadi.

Fikrimizcha, qonun va qonunosti hujjatlari turizm sohasida tadbirkorlik va biznes yuritish tartibini imkon qadar soddalashtirish, tegishli asoslarga ko‘ra qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratib berish, faoliyat ko‘rsatish jarayonlariga sun’iy to‘siqlar qo‘yilishini oldini olish hamda biznes vakillarini davlat kafolati ostida saqlanishini ta’minlab berishi lozim.

Xizmat ko‘rsatish jarayonining uzluksizligini ta’minlash maqsadida, shuningdek, turli murakkab vaziyatlar, tashqi va ichki muammolar vujudga kelganida menejment sohasi vakillari qat’iy qaror qabul qilishi talab etiladi. Haqiqatan ham boshqaruv apparatisiz korxona yoki tashkilot bir butun tizim sifatida samarali faoliyat yurita olmaydi. Boshqaruv apparati o‘zining iyerarxiyasiga ega bo‘lib, mazkur ierarxiya har qanday korxonaning boshqaruv tuzilmasida aniq ifodalanadi[13]. Madaniy meros obyektlari menejment tizimi tashkiliy jarayonlarni nazorat qilar ekan, xizmat ko‘rsatishni yanada samarali tashkil etish maqsadlarini ko‘zlab, turistlarning talab hamda ehtiyojlari tahliliga va korxonaning o‘z strategik rejalariga tayangan holda, xizmatlarni diversifikatsiya qilish bo‘yicha qaror qabul qiladi.

N.S.Ibragimovning “jug‘rofiy nuqtai nazardan bir nechta ma’muriy hududni o‘zida mujassamlashishi bilan birga tashrif maqsadining xilma-xilligi sababli sayohat bir nechta turistik maskanlardan tashkil topganligi, *tabaqalanuvchanlik omili* sayohat maqsadi va diqqatga sazovor joylardan foydalanib, turistik bozor segmentlarining talablariga mos ravishda sayohatgohlarni tabaqalash maqsadga muvofiq[14]”ligi borasidagi ilmiy xulosasiga tayangan holda, *“madaniy meros obyektlari tabaqalanuvchanligi”* tushunchasini ilmiy tadqiqotlarda qo‘llashni taklif etamiz va shunga muvofiq, MMOlari tabaqalanuvchanligi va diversifikatsiya maqsadlari matritsasi muallif tomonidan shakllantirilib, 2-rasmda keltirib o‘tildi.



2-rasm. Diversifikatsiya maqsadi va madaniy meros obyektlari tabaqalanuvchanligi matritsasi[1]

Jadvalning birinchi katakchasida diversifikatsiya bir madaniy meros obyektida amalga oshirilib, taklif tizimi shakllantiruvchilarining bir maqsadini amalga oshirilishini ta’minlaydi. Ushbu jarayon “1:1” formulasi orqali ifodalangan. Misol tariqasida, Ark qal’asida segment qamrovini oshirish bir maqsad sifatida belgilanib, diversifikatsiya jarayoni amalga oshirilishi.

Ikkinchi katakchada diversifikatsiya maqsadlari endilikda bitta emas, balki bir nechta bo‘lib, ular bir madaniy meros obyektida amalga oshiriladi va mazkur jarayon “1:n” formulasi vositasida ko‘rsatib berilgan. Aytish joizki, odatda ko‘plab diversifikatsiya strategiyalarini amalga oshirish bir nechta maqsadlarni amalga oshirilishini ko‘zda tutib, misol uchun Ko‘kaldosh

[1] Muallif ishlanmasi

madrasasida amalga oshiriladigan diversifikatsiyadan maqsad turistlar sonini oshirish bilan bir vaqtda, raqobat ustunliklari va daromadni oshirishni ham ko‘zda tutadi.

Uchinchi katakchaga ko‘ra bir diversifikatsiya maqsadi bir nechta madaniy meros obyektlarida amalga oshiriladi va u jadvalda “n:1” formulasi orqali belgilab berilgan. Masalan, Kalon masjidi, Abdurahmon A’lam madrasasi, Xotam Hindu madrasasi va Abdulazizxon madrasalarida turizm bozori o‘zgaruvchanligi sharoitiga ko‘ra yangi texnologiyalarni joriy etish zarurati yuzaga kelib, xizmat ko‘rsatishga joriy etilishini keltirib o‘tishimiz mumkin.

To‘rtinchi katakchada keltirilganidek, bir nechta madaniy meros obyektlarida mos ravishda turli xildagi diversifikatsiya maqsadlarini amalga oshirish talab etilgani holda yondashuv ham shunga o‘xshash tashkil etilib, “n:n” formulasi orqali ifodalangan. Jumladan, Chor Minor madrasasi va Bahouddin Naqshband ziyoratgohlarida turistik oqimni tartibga solish uchun xizmatlarni moslashtirish strategiyasini amalga oshirish rejalashtirilib, Badriddin va Sayfiddin karvonsaroylarida turistlar sonini oshirishni ko‘zlab yangicha ekskursion xizmat turini joriy etish, yoki har bir obyekt uchun individual bo‘lgan boshqa maqsadlarga erishish nazarda tutilishi mumkin.

Madaniy meros obyektlarida turizm xizmatlarini diversifikatsiyalash yo‘nalishlarinining turli jihatlari tahlil qilinib, jumladan, *ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, menejment* hamda *moliyaviy* jihatlarning diversifikatsiya jarayonlarida shakllanuvchi tarkibiy qismlari o‘rganildi. Har bir yo‘nalishga muvofiq keltirib o‘tilgan beshtadan, jami 25 ta tarkibiy qism ularning tarkibiy elementi sifatida qayd etib o‘tilib, bizning fikrimizcha, mazkur elementlar madaniy meros obyektlarida turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

Xulosa va takliflar. Buxoro viloyatida madaniy meros obyektlaridan turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish uchun foydalanishning istiqbolli yo‘nalishlarini o‘rganish bo‘yicha quyidagi xulosalarga kelindi va ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1.O‘rganishlarimizga ko‘ra, Buxoro viloyatidagi mavjud madaniy meros obyektlarining respublika miqyosidagi ulushi 10,09 % ni tashkil etgani holda, arxitektura yodgorliklari 22,3 % , arxeologiya yodgorliklari 6 %, diqqatga sazovor joylar 3,4 %, monumental san’at yodgorliklari 2,75 % ni tashkil etadi.

3. Madaniy meros obyektlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish bevosita Madaniy meros agentligi bilan bog‘liq ekanligini inobatga olib, agentlik tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlari hamda ular uchun belgilab qo‘yilgan to‘lov miqdorlari tahlil qilindi. Natijalarga ko‘ra, ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun qonunchilik asosida belgilangan to‘lovlar bazaviy hisoblash miqdori (BHM)ning 2 % dan 40 barobarigacha oraliqda – 7500 so‘mdan, 15 million so‘mgacha (2024-yil 1-oktabrdagi o‘zgartirishlar inobatga olinganida) etib belgilanganligi ma’lum bo‘ldi.

4. Buxoro viloyatida madaniy meros obyektlarida turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishning asosiy yo‘nalishlari aniqlanib, bizning fikrimizcha, mazkur sohada diversifikatsiya yo‘nalishlari juda keng tarmoqlanish xususiyatiga ega bo‘lsada ulardan eng asosiylari sifatida *yangi turistik xizmat turlarini ishlab chiqish, segmentlarni ko‘paytirish, raqamli xizmatlar, majmuaviy yoki mahsulot va xizmatlar integratsiyasi, kooperatsiya, xizmat ko‘rsatish jarayonlarini optimallashtirish, global bozorga chiqish, gibrid xizmatlar kabi yo‘nalishlari* ahamiyatlilik va xususiyatlar darajasiga ko‘ra ajralib turadi.

5. Xalqaro va xorijiy ilmiy adabiyotlar tahlili, shuningdek, Buxoro viloyatining mavjud potensiali e’tiborga olinib, tadqiqotlar natijasida, madaniy meros obyektlarida turizm xizmatlarini diversifikatsiyalash jarayoni sxemasi shakllantirilib modellashtirildi.

6. Adabiyotlarni o‘rganish natijasida diversifikatsiya maqsadi va madaniy meros obyektlari tabaqalanuvchanligi matritsasi ishlab chiqilib, 1:1, 1:n, n:, n:n formulalari asosida izohlab berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 5-iyuldagi “ 2023 — 2025-yillarda Buxoro viloyatida paxta-to‘qimachilik va g‘allachilik klasterlari hamda kasanachilikni rivojlantirish orqali aholi bandligini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-214-son qarori
2. Zhang H. et al. The influence of cross-cultural awareness and tourist experience on authenticity, tourist satisfaction and acculturation in World Cultural Heritage Sites of Korea //Sustainability. – 2018. – Т. 10. – №. 4. – С. 927.

3. Dodd, C. Dynamics of Intercultural Communication, 5th ed.; McGraw-Hill Publishing: New York, NY, USA, 1998.
4. Timothy D. J. Cultural heritage and tourism: An introduction. – Channel View Publications, 2011. – Т. 4.
5. Teo C. B. C., Khan N. R. M., Abd Rahim F. H. Understanding cultural heritage visitor behavior: the case of Melaka as world heritage city //Procedia-Social and Behavioral Sciences. – 2014. – Т. 130. – С. 1-10.
6. Xu L., Zhang J., Nie Z. Role of cultural tendency and involvement in heritage tourism experience: developing a cultural tourism tendency–involvement–experience (TIE) model //Land. – 2022. – Т. 11. – №. 3. – С. 370.
7. Bujdosó, Z., Dávid, L., Kovács, G., Major-Kathi, V., & Tőzsér, A. (2014). Cultural heritage as a new element of tourism and experience economy. Enhancing competitiveness of V4 historic cities to develop tourism, 81.
8. Menor-Campos, A., Pérez-Gálvez, J. C., Hidalgo-Fernandez, A., & Lopez-Guzman, T. (2020). Foreign tourists in world heritage sites: A motivation-based segmentation. Sustainability, 12(8), 3263.
9. Strategik islohotlar agentligi tomonidan Buxoro viloyati SWOT-tahlili. https://asr.gov.uz/news/11370
10. Ystrom, A. and Agogue, M. (2020), “Exploring practices in collaborative innovation: unpacking dynamics, relations, and enactment in in-between spaces”, Creativity and Innovation Management, Vol. 29 No. 1, pp. 141-145.
11. Mendonça, V., Varajão, J. & Oliveira, P. (2015). Cooperation networks in the tourism sector: multiplication of business opportunities. Procedia Computer Science, 64, 1172-1181. DOI: 10.1016/j.procs.2015.08.552
12. Bititci, U. S., Martinez, V., Albores, P. & Parung, J. (2004). Creating and Managing Value in Collaborative Networks. International Journal of Physical Distribution and Logistics Management, 34(3-4), 251-268. DOI: 10.1108/09600030410533576; Costa T., Lima M. J. Cooperation in tourism and regional development //Tourism & management studies. – 2018. – Т. 14. – №. 4. – С. 50-62.
13. Чудновский А. Д., Жукова М. А. Менеджмент туризма //учебник/АД Чудновский, МА Жукова.–М.: Финансы и статистика. – 2002.
14. N.S.Ibragimov. Turistik hududlarni boshqarish // Buxoro. “Sadriddin Salim Buxoriy” - Durdona, 2022. 57-b.
15. Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasi taqdim etgan 2024-yilgi ma’lumotlar
16. https://yuz.uz/uz/news/buxoroda-madaniy-meros-obyektlarini-restavratsiya-qilish-boyicha-investorlar-hamkorlikka-chorlanmoqda
17. https://uzreport.news/culture/ozbekistonda-nechta-moddiy-madaniy-meros-obyektlari-borligi-ochiqlandi https://www.toshvilstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/6715-o-zbekiston-respublikasida-moddiy-madaniy-meros-obyektlari-soni-qancha
18. https://buxstat.uz/uz/matbuot-markazi/buxoro-yangiliklar/10078-buxoro-viloyatida-moddiy-madaniy-meros-obyektlari-soni-qancha

Г.Раупов

Концептуальная модель процесса диверсификации туристических услуг и матрица диверсификации

Аннотация: В данной статье разработаны концептуальная модель и диверсификационная матрица процесса диверсификации туристических услуг на существующих объектах культурного наследия в Бухарской области.

Ключевые слова: диверсификация, концептуальная модель, оптимизация, интеграция сервисов, цифровые услуги, матрица дифференциации.

G.Raupov

Conceptual model of the process of diversification of tourist services and diversification matrix

Abstract: In this article, a conceptual model and a diversification matrix of the process of diversification of tourism services at existing cultural heritage sites in the Bukhara region have been developed.

Keywords: diversification, cultural heritage, conceptual model, optimization, integration of services, digital services, differentiation matrix.

Shohista Bobobekovna Toyirova – “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti tayanch doktoranti

O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK TURIZMNING YANGI TURIZM YO‘NALISHI SIFATIDA RIVOJLANISH TENDENSIYASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda ichki va xalqaro turizmni rivojlantirishda muhim yo‘nalishlardan hisoblangan ekologik turizmning rivojlanish holati yoritilgan. Turistlar oqimini keskin oshirishda ekologik turizmdan qay darajada samarali foydalanilayotganligi statistik ma’lumotlar asosida dalillangan va bu borada qo‘shimcha takliflar va tavsiyalar berib o‘tilgan.
Kalit so‘zlar: ekologik turizm, turistik imkoniyatlar, muhofaza qilinadigan hududlar, ekoturistik obyektlar, ekoturistik marshrutlar,turistik imij, “Tabiatga sayohat” elektron platforma

Kirish. Qadim zamonlardan mamlakatimiz o‘zining geografik joylashuvi va boy tarixi sabab chet elliklarda katta qiziqish uyg‘otib kelgan. Ayniqsa, Buyuk ipak yo‘li chorrahasida joylashgan shaharlari sabab bu qiziqish bugungi kunda ham yanada ortib, dunyo nigohida o‘zining boy madaniy, tarixiy merosi bilan sayyohlarni o‘ziga jalb qilmoqda. Turistlar oqimining yillar davomidagi keskin farqlari mamlakatimizda turizm sohasining keskin sur’atlar bilan rivojlanib borayotganligidan darak beradi. Ayniqsa, turizmning qator yangi yo‘nalishlariga berilayotgan e’tibor sohaning yanada rivoj topishiga sabab bo‘lmoqda.


Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili: Ekologik turizmning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi ahamiyatini O.X.Xamidov[1], R.A.Islomova[2], R.X.Ergashev[3] kabi olimlar chuqur o‘rganishgan. Qolaversa, hozirgi kunda B.G‘uzorov[4], N.Quliyev, M.Latifova, D.Xudoyberdiyev, Sh.Mahmudjonov va Sh. Sharifov[5] kabi yosh olimlar Yangi O‘zbekistonda sohaning ushbu yo‘nalishining rivojlanishiga o‘zlarining ilmiy nazariyalari bilan hissa qo‘shishmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi: Ushbu maqolada induksiya va deduksiya, kuzatish, statistik tahlil, tahlil va sintez kabi tadqiqot metodologiyalaridan foydalanilgan. Maqolaning uslubiy usuli sifatida mamlakatimiz olimlarining ilmiy ishlaridan va statistik ma’lumotlardan jadval ko‘rinishda foydalanilgan.

Tahlil va natijalar: Butun jahon turizm tashkiloti Bosh assembleyasining 25-sessiyasini navqiron Samarqand shahrida o‘tkazilishi turizm sohasida birmuncha yutuqlarga erishayotganligimizdan darak beradi. Ikki yilda bir marotaba o‘tkaziladigan ushbu muhim turistik tadbirning mamlakatimizda o ‘tkazilishi turizm sohasiga berilayotgan e’tiborning yaqqol namunasidir. Hozirgi kunda mamlakatimizda 55 ta davlatga soddalashtirilgan elektron vizaning tashkil qilinganligi, so‘nggi 4 yil ichida infratuzilmaga oid 800 dan ortiq loyihalarning ishlab chiqilganligi va ushbu sohada faoliyat yurituvchi shaxslarga turli xildagi imtiyozlarning taqdim etilishi bu sohaning istiqbolini tezlashtirmoqda. Bizdagi ma’lumotlarga qaraganda, mamlakatimizga tashrif buyurayotgan turistlar soni ikki barobarga ko‘paygan. Sohadan tushayotgan daromad esa 4 barobarga o‘sgan. 2030-yil uchun 15 million xorijlik va 25 million mahalliy turistlar oqimi prognozlashtirilgan[6].

Har tomonlama sohaga qaratilayotgan e’tibor sabab 2020-yil yurtimizga tashrif buyurgan sayyohlar soni 1 504 126 nafarni (buni pandemiyadan keyingi tiklanish davri deyishimiz mumkin) tashkil etgan bo‘lsa, keyingi yil turistlar soni birmuncha (1 881 334 nafar) o ‘sdi. 2022-yildan turizm sohasida hayratlanarli ko‘rsatkich qayd etilib, sayyohlar soni 5 230 780 nafarni ko‘rsatdi va bu o‘sish keyingi yilda ham davom etib, ularning soni 6 626 301 nafarga yetdi.

[1] O.X.Xamidov. O ‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. Dissertatsiya. UDK338.48. 2017
[2] R.A.Islomova. O ‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish muammolari. Iqtisodiyot. 2011
[3] R.K.Ergashev. The ways and prospects of increasing the efficiency of ecotourism in Uzbekistan. European scholar journal. 2021
[4] B.G ‘uzorov. Samarqand viloyatida turizmning bugungi holati va kelajak istiqbollari. O ‘zbekistonning top o ‘n turistik hududlar qatoriga kiritish istiqbollari. Xalqaro ilmiy amaliy anjuman. 2020
[5] N. Quliyev, M Latifova, Sh.Sharifov. Problems and solutions of transition to sustainable development of tourism. Science and education. Volume3, 2022
[6] Oliy Majlis Qonunchilik palatasi matbuot xizmati. 2023



1-rasm.2020-2023 yillar davomida O‘zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan sayyohlar oqimi

Ushbu muhim tadbirlar asnosida yuqori tezlikda harakatlanishga qaratilgan yangi turdagi avtomobil hamda temir yo‘llarning qurilishi rejalashtirilgan. Bu kabi tadbirlaning O‘zbekistonda, ayniqsa Samarqandda tashkil etilayotganligi turizm sohasida olg‘a qadam tashlanayotganligidan va amalga oshirilayotgan islohotlarning natijasi ijobiy bo‘layotganligidan darak beradi va shubhasiz, bu soha mamlakatimizni chet davlatlarga yanada yaqinlashtiradi va bu mamlakatimiz taraqqiyotida juda muhim bosqich hisoblanadi.

Mamlakatimizda turistlar oqimini ko‘paytirish uchun qulayliklar yaratish maqsadida viza rejimida, investitsiyalarni sohaga ko‘proq jalb qilish borasida, mamlakatimiz imidjini yaratish uchun olib borilayotgan ishlar bugungi kunda o‘zining ijobiy samarasini bermoqda. Mamlakatimizda 93 ta xorijiy davlat fuqarolari uchun vizasiz, 56 ta mamlakat fuqarolari uchun kirish uchun elektron viza, 76 ta davlat fuqarolari uchun viza berishning soddalashtirilgan tartibi belgilab qo‘yilganligi ham xorijiy turistlarning oqimiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu kabi yengilliklar turistlarning mamlakatda ko‘proq muddatga qolishlariga ham sabab bo‘lmoqda. Shu kunga qadar o‘rtacha qolish muddati 4-5 kunni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yildan boshlab bu ko‘rsatkich 1.5 barobarga oshgan. O‘z navbatida yurtimizda qolayotgan har bir turist respublika hududida sayohat uchun ajratgan xarajatlaridan tashqari o‘rtacha sarflayotgan summasi 400 AQSh dollariga va turizm eksporti hajmi 2023-yilda 1,72 milliard dollarga yetdi.

2021- yilda sohaga oid 11,4 trillion so‘mlik 495 ta loyiha amalga oshirilgan bo‘lsa, 2022-yilda bu ko‘rsatkich 22,1 trillion so‘mlik 735 ta loyihaga ko‘paygan[1]. Ushbu loyihalar sabab har yili 20 minglab kishilar ish o‘rinlariga ega bo‘lishmoqda. Statistika agentligi bergan ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilda 6,6 million chet ellik turistlar mamlakatimizga tashrif buyurishgan. Bu o‘tgan yilgi ko‘rsatkichga nisbatan 26,6% oshganligini bildiradi[2].

Bunday yuqori ko‘rsatkichlar turizm sohasining yangi yo‘nalishlarini sayyohlarga taqdim etilishi bilan ham bog‘lash mumkin. So‘nggi yillarda sohaning ekoturizm, ov, safari va agroturizm yo‘nalishlariga alohida e’tibor qaratilishi, mamlakatimizdagi alohida muhofaza qilinadigan hududlar salohiyatini chuqur o‘rganishni talab etdi va yurtimizdagi bu kabi hududlarda ekoturizmning imkoniyatlaridan kengroq foydalanishni yo‘lga qo‘yilishi borasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. O‘rganishlarmizdan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, yurtimizda MEHlar maydonining kengaytirilishi ekoturizmning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Quyida yurtimizdagi MEHlar maydonining yillar davomida qay darajada o‘sib borayotganligini ko‘rsatib o‘tdik.

O‘zbekiston Respublikasi MEHlarning umumiy maydoni 2019-yil 1545,9 ming gektarni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib bu ko‘rsatkich 4472,5 ming gektarga yetdi. Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi MEHlarning maydoni ham ancha kengayganligini kuzatish

[1] Samarqand viloyat turizm boshqarmasi. 2022
[2] Samarqand viloyati statistika boshqarmasi, 2023

2-jadval

Mamlakatimiz hududidagi MEH maydonlarining yillar kesimida o‘zgarib borish holati(ming gektar)[1]

Hududlar	**2019**	**2020**	**2021**	**2022**
O‘zbekiston Respublikasi	1545,9	1570,6	3457,8	4472,5
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	697,2	700,2	2589,6	2870,1
Andijon viloyati	0	0	0	0
Buxoro viloyati	16,5	16,5	26,8	26,8
Jizzax viloyati	68,5	68,5	68,3	68,3
Qashqadaryo viloyati	84,9	84,9	82,9	82,9
Navoiy viloyati	0	0	0	734,2
Namangan viloyati	0	0	0	0
Samarqand viloyati	2,4	2,4	2,4	2,4
Surxondaryo viloyati	23,8	23,8	23,8	23,8
Sirdaryo viloyati	0	0	0	0
Toshkent viloyati	642,3	642,3	642,3	642,3
Farg‘ona viloyati	0	0	0	0
Xorazm viloyati	10,3	32	21,7	21,7
Toshkent shahri	0	0	0	0

mumkin, ya’ni keltirilgan 4 yil davomida o ‘rmon xo‘jaligiga qarashli yerlar maydoni 697.2 ming gektardan 2870.1 gektargacha kengaygan. Buxoro, Navoiy va Xorazm viloyatlarida ham ushbu maydonlar sezilarli tarzda oshgan. Qolgan viloyatlarda bu kabi holat kuzatilmagan (faqat 2022-yilga qadar). Agar keyingi yillarda qo‘riqxonalar maydonining kengaytirilishi va yangi milliy tabiat bog‘larining ochilishini hisobga oladigan bo‘lsak, yurtimizdagi MEHlarning maydoni yanada kengayishda davom etmoqda.

2023-2025-yillar mobaynida O‘zbekiston ekologiyasi va tabiiy resurslari atlasini ishlab chiqish va nashr ettirish, muhofaza qilinadigan hududlar maydonlarini kengaytirish doirasida “Zarafshon” milliy tabiat bog‘ini 2000 gektarga, “Surxon” va “Nurota” davlat qo‘riqxonalarini 4000-5000 gektarga kengaytirish belgilangan. Ushbu davr mobaynida “Markaziy Qizilqum”, “Pop”, “Omonqo‘ton”, “Bobotog‘” va “Yuqori To‘palang” milliy tabiat bog‘lari, “Oqtog‘-Tomdi”, “Qizilqum” davlat qo‘riqxonalari, “Borsakelmas” va “Sudochye-Akpetki” davlat buyurtma qo‘riqxonalarining moddiy texnik bazasi yangilanishi ham rejaga kiritilgan bo‘lib, bu o‘z navbatida turizmning yangi yo‘nalishlarini yo‘lga qo‘yishda katta imkoniyat hisoblanadi va buning uchun quyidagi tadbirlarning doimiy tarzda olib borilishi yangi yo‘nalishlar uchun mustahkam zamin yaratadi. O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi bilan hamkorlikda “Planting Tour” tadbirini tashkil qilish, 2023-yil yakuniga qadar ushbu hududlarda ko‘ngilochar turizm maskanlari, turizm axborot markazlari, kempinglar, tematik ovqatlanish shoxobchalari osma ko‘prik yo‘llarni o‘zida jamlagan ekoturizmni rivojlantirishning 10 yillik menejment rejalarini ishlab chiqish, “Tyan-Shan, Chotqol va Hisor tog‘ tizmalarining tabiati va dunyosi”, “Orolbo‘yi fojiasi”, “Tabiat bilan uyg ‘unlik” va “Qizilqum sahrosining noyob tabiati” nomli muzeylar hamda ekspeditsiyalar tashkil etish, mazkur ishlar barobarida Hisor davlat qo‘riqxonasining “Suvtushar” sharsharasi ham ekoturistik obyekt sifatida qaralib uni tashrif buyurvchilarga qulay sharoit yaratish, jumladan, ayvonlar, kuzatuv maydonchalari, dam olish maskanlari hamda to ‘xtash joylarini tashkil etish va buning natijasida yiliga 10 000 nafar sayyoh jalb etilishi va 50dan ortiq ish o‘rinlarini yaratish ko‘zda tutilgan.

2023-yilda ekologik turizmni yanada rivojlantirish maqsadida “Ekoturizm va ovchilikni rivojlantirish departamenti”ning o‘z faoliyatini boshlashi ekoturizmning alohida yo‘nalishi sifatida sohaga xizmat qilishini anglatadi. Departamentning asosiy vazifasi ilg‘or xorijiy

[1] O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o ‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi. 2023

mamlakatlar tajribasini inobatga olib, muhofaza etiladigan hududlarda ekoturizmni to‘g‘ri tashkil qilishdir. Qisqa vaqt mobaynida departament Gruziya, Rossiya va Qozog ‘istondagi muhofaza qilinadigan hududlarda tashkil etilgan ekoturistik marshrutlarni o ‘rganib chiqib, “Tabiatga sayohat” milliy dasturi ustida ish olib bordi. Ushbu davr mobaynida O‘zbekistondagi 186 ta tabiiy suv havzalari o‘rganildi va elektron auksion orqali tadbirkorlarga foydalanish uchun berish yo‘lga qo‘yildi. “O‘zbekiston Respublikasida to‘siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish va rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2024-yil 12-yanvardagi PQ-20 sonli qaroriga ko‘ra ekohududlar, ya’ni qo‘riqxona bufer zonalari, milliy tabiat bog‘lari, o‘rmonlar, ov xo‘jaliklari, pitomniklarda ekoturizmni rivojlantirish ko‘zda tutilgan. Shunga binoan, 15 ta tumanda 24 dona osma dor ko‘priklar qurilishi, har bir viloyat kesimida ekoturistik marshrutlar belgilanishi zarurligi ta’kidlangan. Ekoturizmni rivojlantirish borasida eng quvonarli holat sifatida “Tabiatga sayohat” elektron platformasining yaratilishi bo‘lib, bu platforma ustida 20 dan ortiq tajribali operatorlar ish olib borishmoqda. Uning afzallik tomoni shundan iboratki, xorijlik yoki mahalliy sayyohlar O‘zbekiston hududidagi muhofaza qilinadigan hududlar haqida, u yerda tashkil etilgan mashg‘ulotlar, tashrif markazlari va tashrif vaqtlari haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishib o‘zlarining dam olish vaqtlarini belgilab olish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Qarorga ko ‘ra, muhofaza qilinadigan hududlarda tadbirkorlarga ma’lum maydonlarni 10 yil muddatga ijaraga berish imkoniyatlari mavjud. Ekoturizmning master reja va bosh reja tuzilgandan so‘ng qaysi turdagi xizmatlarni taklif etish mumkinligi rivojlantirish maqsadiga ko‘ra muvofiqligi belgilanadi. Ekologik turizm O‘zbekiston hududidagi barcha muhofaza etiladigan hududlarni qamrab olishi rejalashtirilgan. Qarorga asosan keyingi 2 yillik reja ishlab chiqilib, 38 ta xizmat turlari, 29 ta yirik suv omborlarida plyajlar tashkil etish ko‘zda tutilgan. Tabiiyki, turizmning ushbu yo‘nalishining yanada rivojlanishi ko‘p jihatdan malakali kadrlarga bog‘liq bo‘lib, ekoturizm bo‘yicha kadrlar tayyorlash va o‘qitish rejalashtirilgan bo‘lib, bu jarayon Turizmni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tomonidan moliyalashtiriladi. Cho‘l hududlarida ekoturistik mashg‘ulotlarni yo‘lga qo‘yadigan tadbirkorlarga yer va foyda solig‘ining 50 % miqdorda kamaygan soliq imtiyoziga ega bo ‘ladi. Attraksionlarni o‘rnatgan tadbirkorlarning xarajatlarining bir qismi davlat tomonidan qoplab beriladi.

Farg‘ona viloyatining So‘x, Sho‘rsuv, Yozyovon tabiiy yodgorligi, Qayroqqum, Kattaturk, Namangan viloyatining Mingbuloq va Pop adirliklari tabiiy hududlarida tabiiy majmualarni tiklash va ekologik turizmni rivojlantirish uchun 100 gektardan ziyod bo‘lgan milliy tabiat bog‘ini tashkil etish jarayoni boshlangan. Ekoturistik marshrutlarning yaratilishi bu yerlarda yiliga 2000 dan ortiq sayyohlarni jalb qilish va 50 dan ortiq ish o‘rinlari yaratilishi kutilmoqda. 2023-yilda “Surxon” davlat qo‘riqxonasidagi “Zarautsoy”, “Janubiy Ustyurt” milliy tabiat bog‘ida Sariqamish ko‘li, “Saygachiy” majmua (landshaft) buyurtma qo‘riqxonasi va Hisor davlat qo‘riqxonasi “Hazrati Sulton” ekoturizm dam olish maskanlarini tashkil etish borasida chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Ushbu maydonlarda davlat-xususiy sherikchilik asosida tadbirkorlik bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan shaxslarga berish ham nazarda tutilgan. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2023-yil 31-maydagi “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan Markaziy Osiyoda birinchi eko universitet-Green University ning ochilishi ekologik turizmning kelajakda yanada rivojlanishi uchun zamin yarata olishi shubhasiz.

Xulosa va takliflar. 2023-yilda muhofaza qilinadigan hududlarga 50 mingga yaqin sayyoh tashrif buyurgan. Buning natijasida mamlakatimizda qolish muddati 1-2 kunga uzaygan. Mamlakatimizda ekologik turizmning rivojlanishining asosi yaratib bo‘lingan bo‘lib, uni rivojlanish tendensiyasi ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, ularga ko‘proq e’tibor berish orqali jarayonni tezlashtirish mumkin:

- Siyosiy jihatdan sohaga tegishli me’yori-huquqiy hujjatlarning ta’minoti, siyosiy barqarorlik, soha vakillarining faoliyati rivoji uchun ajratiladigan subsidiya va imtiyozlarning ko‘paytirilishi;
- Iqtisodiy jihatdan sohaning infrastrukturasiga alohida e’tibor qaratish, talab va taklif hamda xarajatlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlash;

- Ijtimoiy jihatdan mahalliy aholining soha faoliyatida ko ‘proq ishtirokini ta’minlash, turistlar va mahalliy aholi o ‘rtasida ekologik madaniyatni kengroq targ‘ib qilish;
- Texnologik jihatdan sohadagi ma’limotlar bazasini kengaytirish, raqamli marketingdan foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O.X.Xamidov. O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. Dissertatsiya. UDK338.48. 2017
2. R.A.Islomova. O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish muammolari. Iqtisodiyot. 2011
3. R.K.Ergashev. The ways and prospects of increasing the efficiency of ecotourism in Uzbekistan. European scholar journal. 2021
4. B.G‘uzorov. Samarqand viloyatida turizmning bugungi holati va kelajak istiqbollari. O‘zbekistonning top o‘n turistik hududlar qatoriga kiritish istiqbollari. Xalqaro ilmiy amaliy anjuman. 2020
5. N. Quliyev, M Latifova, Sh.Sharifov. Problems and solutions of transition to sustainable development of tourism. Science and education. Volume3, 2022
6. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi matbuot xizmati. 2023
7. Samarqand viloyat turizm boshqarmasi. 2022
8. Samarqand viloyati statistika boshqarmasi, 2023
9. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi. 2023

Ш.Тойирова **Тенденции развития экологического туризма как нового направления туризма в Узбекистане**	**Sh.Toyirova** **The development trend of ecological tourism as a new tourism direction in Uzbekistan**
Аннотация: В данной статье описано состояние развития экологического туризма, который считается одним из важных направлений развития внутреннего и международного туризма в нашей стране. На основе статистических данных доказана степень эффективности использования экотуризма в целях резкого увеличения потока туристов, а также разработаны соответствующие предложения и рекомендации по данной теме.**Ключевые слова:** экологический туризм, туристические возможности, охраняемые территории, экотуристские объекты, экотуристические маршруты, туристический имидж, электронная платформа «Путешествие на природу».	**Abstract:** This article describes the state of development of ecological tourism which is considered one of the most important directions in the development of domestic and international tourism in our country. The extent to which ecological tourism is effectively used in sharply increasing the flow of tourists has been proved on the basis of statistical data and additional suggestions and recommendations have been made in this regard.**Keywords:** ecological tourism, tourist opportunities, protected areas, ecotourism facilities, ecotourism routes, tourist image, electronic platform "Journey to Nature".

Камилла Бахромовна Суюнова – СамИСИ доценти в.б., PhD

ҲУДУДИЙ БРЕНДНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МАҚСАДИДА ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ ШЕРИКЛИК АЛОҚАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Аннотация. Мамлакатда туризм соҳасида олиб борилаётган юқоридаги ва шунга ўхшаш жараёнларда давлатнинг ташаббускорлик ва бошқарувчанлик, туризмни тартибга солиш ва унинг негизидаги хўжалик субъектларини самарали қўллаб-қувватлаш сиёсатининг роли катта. Ушбу мақолада туризм соҳасини ривожлантириш орқали ҳудудий брендни юксалтиришда дунё тажрибалари айнан, давлат-хусусий шериклик имкониятларидан самарали фойдаланиш муҳимлиги асослаб берилди.
Калит сўзлар: туризм, ҳудудий бренд, меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар, давлат-хусусий шериклик, иқтисодий муносабатлар, салоҳият, тадбиркорлик.

Кириш. Сўнгги йилларда потенциал саёҳатчиларни туризмга жалб этиш, мамлакатнинг улкан туристик салоҳиятини рўёбга чиқариш ва уни миллий даромадни шаклланти-

ришнинг етакчи омилларидан бирига айлантиришга йўналтирилган ибратли чора-тадбирлар изчил амалга оширилмоқда. Бунинг натижасида, Ўзбекистон халқаро туризм бозорларига шиддат билан кириб келаётган давлатлардан бирига айланди ва жуда қисқа муддат ичида улкан ютуқларни қўлга киритди. Мамлакатда туризм соҳасида олиб борилаётган юқоридаги ва шунга ўхшаш жараёнларда давлатнинг ташаббускорлик ва бошқарувчанлик, туризмни тартибга солиш ва унинг негизидаги хўжалик субъектларини самарали қўллаб-қувватлаш сиёсатининг роли катта[1]. Шунга қарамасдан, бу муҳим масалада ҳали имкониятлардан унумли фойдаланишга эришилмаган ва ўзининг узил-кесил ечимини тополмаган қатор муаммолар мавжуд. Бизнингча, Ўзбекистонда шундай муаммолар сирасига бизнесни ташкил қилишнинг давлат-хусусий шериклик шаклини киритишимиз мумкин. Ушбу муаммони бартараф қилиш учун давлат томонидан тезкор чоралар кўрилаётгани диққатга сазовор. Жумладан, Ўзбекистон Президенти томонидан 2021 йилнинг апрел ойида «Туризм, спорт ва маданий мерос соҳаларида давлат бошқаруви тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»[2]ги ПФ-6199-сонли фармони қабул қилинди. Фармонга кўра, жисмоний тарбия ва спорт вазирлиги ҳамда туризмни ривожлантириш Давлат қўмиталари негизида туризм ва спорт вазирлигини ташкил этиш кўзда тутилган. Ушбу фармоннинг мавзуга оид жиҳати шундаки, унда давлат-хусусий шерикчилик асосида туризм объектларини самарали бошқариш, ҳамда мазкур соҳага замонавий ахборот технологияларини кенг жорий этиш бугунги куннинг истиқболли ва долзарб асосий вазифаларидан бири сифатида белгиланган.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Ҳудудий брендни шакллантириш бўйича тадқиқотлар натижалари А.М.Бабашкина, С.А.Баранова, Т.Г.Гришкова, К.Б.Зернова, Н.И.Илйина, Н.И.Кабушкина, Г.Г.Муфтиева, Н.Е.Никольский, А.Д.Нестерова, М.Г.Светунков, А.И.Тсапук, О.П.Савичева, У.А.Сафарова, К.Б.Трифонова, С.А.Исхакова, М.Т.Алимова, Н.В.Шитова[3] ва бошқалар асарларида келтирилган.

Тадқиқот методологияси. Ҳудудий брендни шакллантириш мақсадида давлат-хусусий шериклик алоқаларини ривожлантириш истиқболлари бўйича қўйилган вазифаларни ҳал этишда мантиқий фикирлаш, анализ ва синтез, индукция ва дедукция усулларидан кенг фойдаланилган.

Таҳлил ва натижалар. Ҳудудий брендни юксалтириш дунё тажрибалари айнан, давлат-хусусий шериклик имкониятларидан самарали фойдаланиш муҳимлигидан далолат беради. Айтиш жоизки, мамлакатимизда давлат-хусусий шериклик шаклидан унумли фойдаланилмасдан келинмоқда. Ваҳоланки, бизнинг назаримизда, давлат-хусусий шериклигини ривожлантириш бошқа соҳа ва тармоқларга нисбатан кутилган натижани беради ва келажакда ушбу соҳанинг такомиллаштирилиши туризм олдига қўйилган муҳим вазифаларни бажаришнинг асосий омилига айланмоғи керак. Ушбу хулосамиз шунчаки юзаки чиқарилган фикр эмас, балки у чуқур мулоҳазаларга ва илмий-мантиқий асосланган далилларга таянади. Масаланинг моҳияти шундаки, туристик объектларнинг аксарияти ўтмиш аждоддан бизга мерос бўлиб қолган давлат ихтиёридаги ижтимоий мулк бўлиб, унинг хусусийлаштирилиши мумкин эмас. Лекин уларни муҳофаза қилиш, сақлаш, қайта таъмирлаш, теварак-атрофини ободонлаштириш, туристлар наздида жозибадорлигини ошириш катта миқдордаги инвестицияларни жалб этишни тақозо этади. Ушбу вазиятда халқ бойлиги ҳисобланган туристик объектларга хусусий мулкни жалб этишнинг энг самарали усули бўлиб, бизнес юритишнинг иқтисодий муносабат иштирокчиларининг ҳар иккаласига ҳам фойда ва манфаат келтирувчи давлат-хусусий шериклиги хизмат қилиши

[1] Bahromovna S. K., Kamariddinovna K. A. Theoretical bases of tourism activity and socioeconomic factors of the concept of its priority development //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – Т. 11. – №. 1. – С. 769-773.

[2] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 06.04.2021 й. ПФ-6199-сон «Туризм, спорт ва маданий мерос соҳаларида давлат бошқаруви тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони. https://buxgalter.uz/uz/doc?id=656983_&prodid=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana.

[3] Бабашкина А.М. Государственное регулирование национальной экономики / А.М.Бабашкина. - М.: Финансы и статистика, 2007. – ; Алимова М.Т. Ҳудудий туризм бозорининг ривожланиш хусусиятлари ва тенденциялари.(Самарқанд вилояти мисолида). И.ф.д. илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. - Самарқанд: СамИСИ. – 2017. – 351 б.;

мумкин. Туризм соҳасидаги давлат-хусусий шериклигидан нафақат унинг бевосита иштирокчилари, балки бутун жамият ҳам катта манфаат кўради. Демак, туризм соҳасида ДХШ ни интенсив ривожлантиришдан хусусий тадбиркор ҳам, давлат ҳам, жамият ҳам манфаатдор. Уларнинг манфаатдорлиги туризмда мужассамланган ва ДХШ ёрдамида рўёбга чиқарилиши мумкин бўлган улкан салоҳият билан белгиланади. Томонларнинг манфаати туризмни ДХШ асосида ривожлантиришнинг барча субъектлар нуқтаи назаридан ўзига хос афзалликларининг мавжудлиги билан таъминланган. Бизнинг назаримизда, тадбиркор, давлат ва жамият нуқтаи назаридан ушбу афзалликлар қуйидагилар билан изоҳланади (1-расм):



1-расм. Янги Ўзбекистонда ҳудудий брендни шакллантиришда ДХШ ни ривожлантиришнинг тадбиркор, давлат ва жамият нуқтаи назаридан афзал жиҳатлари

Тадқиқот натижаларига кўра, айтиш жоизки, мамлакатда давлат-хусусий шерикликни ривожлантиришга салбий таъсир кўрсатаётган асосий омил бу – ушбу шерикликда томонлар манфаати ўртасида манфаатлар баланси таъминланмаганлигидир.

Давлат-хусусий шерикликни ривожлантиришнинг яқин ва узоқ келажакдаги истиқболлари хусусида фикр-мулоҳаза юритилганда, айниқса, уни келажакда ривожлантириш борасида давлат даражасида қарорлар қабул қилишда масаланинг яна бир муҳим жиҳатини эътиборга олиш муҳим, деб ҳисоблаймиз

Хулоса ва таклифлар. Бу борада бизнинг фикр-мулоҳаза юритиш ва илмий хулоса чиқариш қуйидагича: глобаллашув жараёнлари тобора жадаллашиб бораётган ҳозирги замонда туристик хизматларнинг жаҳон бозоридаги рақобатбардошлигини ошириш муаммолари янада актуаллашади. Шу сабабли, мижознинг тез ўзгариб турадиган эҳтиёжларини ҳисобга олган ҳолда, унинг ўсиб бораётган талабларини қондириш муҳим

бўлиб қолади, яъни тез ўзгарувчан бозор шароитларини ҳисобга олиш, талабга йўналтирилган ва бозор эҳтиёжларини аниқлашга хизмат қиладиган, туристик хизматларнинг юқори сифатини таъминлайдиган концепцияни қўллаш муҳим заруриятга айланди.

Жаҳон бозорида рақобатбардош миллий туризмни шакллантириш ғоясини амалга ошириш турмаҳсулотларнинг, биринчидан, миқдор кўрсаткичларини кенгайтириш, тармоқнинг бозордаги сегментини ошириш ва иккинчи томондан, хизматлар сифатини тубдан яхшилаш ва уни жаҳон андозалари даражасига кўтаришни тақозо этади. Мамлакатда амалга оширилаётган туризмни юқори даражада ривожлантириш инвестицион фаолиятни жадаллаштириш билан узвий боғлиқ. Бундай муҳим вазифаларни ечиш катта миқдордаги инвестицион ресурсларни жалб этишни заруратга айлантиради. Лекин, давлат ўтмишдан мерос қолган тарихий-маданий объектларнинг расмий эгаси бўла туриб, ўз ихтиёридаги молиявий ресурсларнинг чекланганлиги сабабли, ушбу сарф-харажатларни зиммасига олишга ожизлик қилади. Натижада, катта инвестицион ресурсларни жалб қилишни тақозо этувчи бу вазифаларни ечишда тадбиркорларни жалб этишга катта эҳтиёж юзага келади. Ушбу эҳтиёжни муваффақиятли қондиришнинг ягона йўли – давлат ва хусусий сектор ўртасида ҳар иккала томонга манфаат келтирувчи шерикчиликка асосланган ўзаро ҳамкорликни йўлга қўйиш ва ривожлантиришдан иборат.

Хулоса қилиб шуни таъкидлаш керакки, янги Ўзбекистонда давлат-хусусий шериклик механизмларини маркетинг ҳудудлари учун қўллаш учун нафақат шерикликнинг ҳар икки томонининг бундай шериклик афзалликларини тан олиш, балки кучли ҳамкорликни ўрнатиш ҳам зарур, улар ўртасидаги муносабатлар, шунингдек, мамлакатимизда жамоат муносабатларини янада институционализация қилишни талаб қиладиган ишонч муҳитини яратиш лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Светуньков М.Г. Теория государственного регулирования предпринимательскими сетями. Монография. – Ульяновск: Издатель ИП Василькина М. Н., 2011. – С.16.
2. Ўзбекистонни 2035 йилгача ривожланиш стратегиясининг Концепцияси. – Тошкент: Буюк келажак, 2018. – 233 б.
3. 2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш Концепцияси / Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январдаги ПФ 5611-сон Фармонига 1-илова. –Тошкент, 2019.
4. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси / Ш.М. Мирзиёев. Ўқув қўлланма. Тошкент, 2022.
5. Bakhromovna, Suyunova Kamila, and Umarov Oltinbek Bobir O‘G‘Li. "THE EVOLUTION OF SCIENTIFIC VIEWS ABOUT THE ROLE OF THE STATE AND STATE REGULATION IN A MARKET ECONOMY." *Journal of marketing, business and management* 3.4 (2024): 58-63.

К.Суюнова

Перспективы развития государственно-частного партнерства в целях формирования регионального бренда

Аннотация: В процессах, осуществляемых в сфере туризма в стране, значима роль государственной политики инициативы и управления, регулирования туризма и основанной на ней эффективной поддержки субъектов хозяйствования. В данной статье обоснована важность эффективного использования возможностей государственно-частного партнерства на основе мирового опыта совершенствования бренда региона посредством развития туристической сферы.

Ключевые слова: туризм, региональный бренд, нормативно-правовые документы, государственно-частное партнерство, экономические отношения, потенциал, предпринимательство.

K.Suyunova

Prospects for the development of public-private partnerships in order to form a regional brand

Abstract: In the processes carried out in the field of tourism in the country, the role of state policy of initiatives and management, regulation of tourism and effective support of business entities based on it is significant. The article substantiates the importance of effectively using the opportunities of public-private partnerships based on global experience in improving the brand of the region through the development of the tourism sector.

Keywords: tourism, regional brand, regulatory documents, public-private partnership, economic relations, potential, entrepreneurship.

Latofat Tolibovna Yo‘ldosheva – “Ipak yo‘li”turizm va ma’daniy meros xalqaro universiteti doktoranti

SAMARQAND VILOYATI TURIZM SOHASINING RIVOJLANISH HOLATI VA TENDENSIYALARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm industriyasi elementlari va subyektlarining joriy holati va imkoniyatlari, hudud aholisining ijtimoiy-iqtisodiy farovonlik darajasini tahlil qilish maqsadida turli xil iqtisodiy metodlardan foydalangan holda, Samarqand viloyatining turistik salohiyati o‘rganilib, hududda turizm industriyasini yanada takomillashtirish borasida ilmiy-uslubiy tavsiyalar keltirilgan.
Kalit so‘zlar: Raqamli iqtisodiyot, Engel iqtisodiy qonuni, mavsumiylik, ijtimoiy-demografik omillar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlari, iste’molchi daromadi, turistik talab.

Kirish: Samarqand viloyatida raqobatbardosh turistik bozor kontentini yaratish va ehtiyoj va talablardan kelib chiqib, boshqaruvning zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, nafaqat davlat turistik tashkilotlarining, balki, xususiy turistik tashkilot vakillarining ham oldida turgan muhim vazifalardan biri sanaladi. Ma’lumki, turizm ijtimoiy-iqtisodiy hodisa hisoblanadi. Turizm industriyasining iqtisodiy ahamiyati sohada yaratilgan daromad darajasi bilan belgilanadi. 2016-yilda xalqaro turizm dunyo iqtisodiyotiga 1,260 milliard dollar foyda keltirdi, jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 10%, 2019-yilda 10,4%, 2023-yilda esa 9,2% ni tashkil etdi. [1] Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi bor-yo‘g‘i 3% ni tashkil etayotgani, mazkur industriyada ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni kuchaytirish lozimligini taqozo etadi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida turizm sohasini boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, uning hududlar bo‘yicha parametrlarini tizimli ravishda prognozlashtirish va monitoring qilishni nazarda tutadi. Turizm industriyasining mahalliy aholi va turistlar uchun bo‘ladigan ijtimoiy ahamiyati jamiyat normalari, madaniyatlararo hamjihatlik, xavfsizlik, sog‘lik, din va til masalalarini qamrab oladi. Ushbu maqolada Samarqand viloyati turizm salohiyati tahlil va tadqiq qilinib, hudud tavsifiga ko‘ra, turizm rivojining ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirini samarali boshqarish borasida maqbul tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Turizm sohasi bo‘yicha yetuk olim Stephen Pagening ta’kidlashicha, ko‘pgina mamlakatlar turizm sohasiga iqtisodiy o‘sishning birlamchi omili sifatida qarashadi. Bu borada mamlakatlar miqyosidagi va ular ichidagi bizneslar o‘rtasidagi raqobat masalalarini to‘g‘ri talqin etish lozim. Raqobat muhiti to‘g‘ridan-to‘g‘ri turizm biznes tarmoqlari va ularning faoliyat jarayonlariga ta’sir etadi.[2]Massey universiteti professori Leiperning fikricha, turizm juda keng qamrovli tushuncha bo‘lib, bu hodisani boshqarish ma’lum bir sabablarga ko‘ra o‘ta murakkab hisoblanadi. Birinchidan, turizm bir tarmoqli sektor emas, turist ehtiyojlarni qondirish uchun u turli xil tashkilotlar faoliyatini o‘zida jamlaydi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri tarkibga kiruvchi tashkilotlar mavjud va yana hamkorlikdagi industriyalar (oziq-ovqat sanoati, havo yo‘llari kompaniyalari) ham o‘z faoliyatlarini yuritishadi. Ikkinchidan, turistik mahsulot sayohat davomida turistlarning o‘z sayohatidan mamnun bo‘lishi uchun taklif etiladigan xizmat va tovarlar jamlanmasi hisoblanadi. Va bu o‘z ichiga turar-joy, transport, ovqatlanish, ekskursiya xizmatlari, gid-tarjimon xizmatlari va boshqa xizmat turlarini jamlaydi.[3] Turizm sohasining yetakchi mutaxassislari S.Page va J.Connellning ta’kidlashicha, turizm sohasida motivatsiya iste’mol jarayonining bir qismi hisoblanib, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy va ekologik ta’sirlarning yakdil kombinatsiyasi natijasida shakllanadi. Turistik hududga sayyoh-larning nima maqsadda tashrif buyurishini aniqlash ikkita muhim asosga ko‘ra zarur sanaladi:

1. Rejalashtirish bosqichida: turistik manzilda salbiy ta’sirlarni nazorat ostiga olgan holda, boshqaruvning to‘g‘ri shakli tanlanishi va aynan sayyohlarga kerakli va maqbul mashg‘ulotlarga asoslangan turistik faoliyatni tashkil etish uchun.
2. Iqtisodiy o‘sish bosqichida: hududda turizm industriyasini rivojlantirish iste’molchilarning talab va istaklarini qay darajada tahlil qilish bilan bog‘liq bo‘lib, aynan bozor segmenti strategiyalari asosida iqtisodiy o‘sishga erishiladi.[4]

Turizm fanlari bo‘yicha olimlar Aliyeva va Norchayevning fikricha, turistik talabning ikki xil ko‘rinishi mavjud: birinchisi, turistik manzilga sayohat qilishga bo‘lgan talab; ikkinchisi, turizmga aloqador tovar va xizmatlarga bo‘lgan talab, (misol uchun, mehmonxona nomerlari, restoran taomlari, quyosh nuriga qarshi ko‘zoynaklar). Turizm bozorida talabning yuqori o‘sish sur’ati xorijiy sayyohlarning tashriflari va yo‘llanmalaridan tushadigan daromadning yuqori egiluvchanligi natijasi hisoblanadi. [5]Hududiy turistik talabga ikki xil omil ta’sir etadi. Birinchisi, narx omili: Samarqand turistik ta’minotchilari, misol uchun mehmonxonalar va transport sektorlari raqobatchi tashkilotlar faoliyatini yaqindan kuzatgan holda mustaqil ravishda o‘z tovar va xizmatlariga narx belgilashadi. Onlayn savdo platformalarining rivojlanishi biznes vakillariga narxlarni solishtirish imkonini beradi. “Iqtisodiyot nazariyasi” yo‘nalishida ilmiy maktab yaratgan yetakchi iqtisodchi olim Sh.Shodmonovning iqtisodiyot darsliklarida keltirilishicha, belgilangan narx talabga bevosita ta’sir etadi: past narx yuqori talabni ta’minlaydi, agar narx ko‘tarilsa, talab miqdori tushadi. Iqtisodiyot nazariyasiga ko‘ra, narx va talab teskari aloqaga ega, bu–talab qonuni hisoblanadi.[6] R.Dileepning ilmiy asarlarida keltirilicha, narxning muntazam tushirilishi xaridorlarda sifat darajasining pastligi haqida tushuncha kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin.[7]

Tadqiqot metodologiyasi. Samarqand viloyati turizm salohiyatini tahlil etishda mantiqiy, iqtisodiy va qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya, makon va zamon va tizimli yondashuv singari tahliliy usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Samarqand viloyati aholisining soni, daromadi, ta’limi va kasbi, bu omillar viloyatning chiquvchi turizm salohiyatini ko‘rsatib, global turistik oqimdagi o‘rnini belgilab beradi. Samarqand viloyati Statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, Samarqand viloyatining doimiy aholisi soni 2023-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, 4 137,8 ming kishini tashkil etib, yil boshidan beri 2,2 %ga oshdi. Shundan: Ayollar soni-2054,6 ming kishi, erkaklar soni-2083,2 ming kishini tashkil etadi. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-apreldagi 222-son qaroriga muvofiq 2022-2026-yillarda Samarqand viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturida yalpi hududiy mahsulot hajmini jami 1,4 baravar 2022-yildagi 58,5 trln so‘mni 2026-yilda 100,1 trln so‘mga yetkazish rejasi kiritildi.[8] Samarqand viloyati Statistika Boshqarmasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-yil 1-yanvar holati bo‘yicha, respublikada sayyohlik bilan shug‘illanuvchi tashkilotlar soni 517 tani tashkil etgan, ularning eng katta ulushi Toshkent shahriga (64,2%) va keyingi o‘rinda Samarqand viloyatiga (13,2%), to‘g‘ri keldi. 2022-yilda turistik maqsadda Samarqand viloyati hududiga kirib kelgan xorijiy davlat fuqarolari soni 1,2mln, 2023-yilda esa 2.1 mln kishini tashkil etdi. Ularning 94,9 % I MDH davlatlaridan, 5,1% i uzoq xorijiy davlatlardan tashrif buyurishgan. [9]Ushbu yilda turistik faoliyat bilan shug‘illanuvchi firma va tashkilotlar soni O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha 348 tani tashkil etadi va eng katta ulushi Toshkent shahriga-52,0% va keyingi o‘rinda Samarqand viloyatiga 16,4% to‘g‘ri keladi, ya’ni viloyatda 57 ta sayyohlik faoliyatini amalga oshiruvchi firma va tashkilotlar mavjud. 2019-yilda Samarqand Jahon sayyohlik shaharlari federatsiyasi a’zoligiga qabul qilindi va 2023-yilgi Butunjahon turizm poytaxti maqomini qo‘lga kiritdi. Hozirda Samarqand viloyati turizm sohasida yirik loyihalar amalga oshirilmoqda, jumladan, Payariq tumanidagi Imom al Buxoriy yodgorlik majmuasi tubdan qayta qurildi, mazkur majmua uchun 21 gektar maydonda bog‘ va xiyobonlar va 10 ming o‘ringa ega masjid barpo etildi. Samarqand xalqaro aeroporti rekonstruksiya qilinishi natijasida reyslar soni 3723 taga yetkazildi va yo‘lovchilar soni 1,5 mln nafarga oshdi. Silkroad-samarkand.com rasmiy saytida e’lon qilingan Silk Road Samarkand: birinchi yarim yillik yakunlarini o‘rganib chiqdik [10], unga ko‘ra, “Silk road Samarqand” ko‘p tarmoqli sayyohlik majmuasining ochilish marosimi 2022-yil 23-avgust sanasida bo‘lib o‘tdi. Obyektning umumiy maydoni 260 gektarni tashkil etadi, shundan 170 gektar yer yashil maydonlar, 40 gektari esa suvlik maydon hisoblanadi. Majmuada 39,5 km dan ortiq piyoda va 19,5 km velosiped yo‘llari mavjud. Ushbu turizm markazida 18 ming kv maydonga ega xalqaro kongresslar o‘tkaziladigan majmua qurildi. “Boqiy shahar” tarixiy majmuasida esa 17 ta milliy hunarmandchilik ustaxonalari, 3500 kishini qabul qila oladigan “Silk Road Samarkand” kongress markazi, 3 ta milliy uslubdagi choyxona, 8 ta 4-5 yulduzli mehmonxona: ular eng zamonaviy standartlarga

muvofiq jihozlangan 1198 ta xonadan iborat, “Eko-qishloq”ning 14 ta villasi, Chorsu sharq bozori va Markaziy Osiyoda rekord natija hisoblangan 14 ta prezident suitlari tashkil etildi. “Silk Road Samarkand” sayyohlik markazi qurilishiga kiritilgan investitsiya miqdori 580 million dollarni tashkil etdi. Jami loyihaning qiymati 381 million dollarni tashkil etadi. 2021-2022-yillarda markazni qurish va foydalanish jarayonida barcha turdagi budjetlarga 10.872 mln so‘mlik soliq chegirmalari joriy etildi va O‘zbekiston fuqarolari uchun 1800 ta ish o‘rinlari tashkil etildi. Majmuadagi mehmonxonalarni mustaqil ravishda bron qilish jarayoni silkroad-samarkand.com rasmiy sayti, Booking.com, Expedia.com, EasyBooking.uz platformalari orqali tez va oson amalga oshadi. Viloyatda tematik xiyobonlar qurilishi ishlari olib borilmoqda va 15 ta yangi mehmonxona qurib bitkazildi. “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti qoshida HoReCa akademiyasi va “Restavratsiya va arxeologiya yo‘nalishlari bo‘yicha mutaxassislar malakasini oshirish va qayta tayyorlash innovatsion o‘quv metodik markazi” ishga tushirildi. 2023-yilning yanvar-iyun oylari holatiga ko‘ra, Samarqand viloyatiga 2 mln 546 ming nafar mahalliy va 1 mln 106 ming nafar xorijiy sayyohlar tashrif buyurgan va yil oxirigacha turizm xizmatlar eksportini 312 mln dollarga yetkazish rejalashtirilgan.[11]

Samarqand viloyati madaniyat va turizm boshqarmasi axborot xizmati ma’lumotlariga ko‘ra, xorijlik turistlarning viloyatda qolish davomiyligi 2-7 kunni tashkil etadi va har bir sayyohning kunlik sarf-xarajati o‘rta hisobda 85 dollardan 250 dollarni tashkil etmoqda. Mashhur nemis olimi Ernst Engelning 1857-yilda olib borgan iqtisodiy tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, oilalar daromadi o‘sganda, oziq-ovqatga sarflanadigan xarajatlar kamayganligi, boshqa uy-ro‘zg‘orga oid xarajatlar o‘zgarishsiz qolganligi, ammo boshqa xizmatlarga (ta’lim, transport, sog‘likni saqlash, ko‘ngil ochish va dam olish) sarflanadigan xarajatlar miqdori keskin ko‘payganligi aniqlangan. Mazkur Engel iqtisodiy qonuni haligacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, mamlakat milliy iqtisodiyoti va GDP hajmi o‘sishi xizmatlar sohasi rivojlanishiga zamin yaratadi.[12] Tadqiqotimiz davomida Samarqand viloyati aholisining umumiy daromadlari bilan tanishdik, 2022-yilning yanvar-sentabr oylari bo‘yicha, Samarqand aholisi jon boshiga umumiy daromadi hajmi 10 993,4 ming so‘mni tashkil etdi, real o‘sish sur’ati 106,4 % ni tashkil etdi. 2023-yilning yanvar-mart davri uchun esa Samarqand viloyati aholi jon boshiga umumiy daromadlari 3,5 mln so‘mni tashkil etib, daromadning real o‘sish sur’atlari 105,4% ni tashkil qiladi. Samarqand viloyatining yalpi hududiy mahsulot hajmi o‘sishi dinamikasini tahlil etsak, 2023-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko‘ra, yalpi hududiy mahsulot hajmi 12419,1 mlrd so‘mni tashkil qildi va o‘sish sur’ati 3,6%ni tashkil etdi.[13]O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi uch yil ichida tashrif buyurgan xorijiy sayyohlarning eng katta qismini 31-55 yoshli kishilar tashkil etadi: 2020-yilda 1,5 mln xorijiy turistlarning 787,5 ming nafari (52,4%), 2021-yilda 1,8 mln sayyohlarning 935,4 ming nafari (49,7%), 2022-yilda O‘zbekiston Respublikasiga kelgan 5,2 mln turistlarning 49,6%, ya’ni 2 593 400 nafari 31 yoshdan 55 yoshgacha kishilar ekanligi keltirilgan.[14] Xorijiy sayyohlar miqdorini yoshlar kesimida tahlil qilish turizm sohasi ekspertlariga chet ellik xaridorlar uchun maqbul turizm siyosatini: to‘g‘ri reklama va marketing strategiyasi hamda turizm infrastrukturasini yaratish imkonini beradi. Turistik tovar va xizmatlarga ta’sir etadigan elementlar o‘z ichiga narx (Px), iste’molchi daromadi(Y), bozordagi xaridorlar soni (N), aloqador mahsulotlarning narxi(Ps+Pc), Xaridor xohishi (T), marketing va reklama xarajatlari(M) ni o‘z ichiga oladi, Qx esa turistik mahsulot hisoblanadi:

$$Qx=f(Px, Y,N,Ps,Pc,T, M,….)$$

Viloyat turizmining bozordagi ulushi: Samarqand hududiga kirish va chiqishda foydalaniladigan transport xizmatlari narxlari; joylashtirish vositalari, turistik xizmatlar va oziq-ovqat narxlari. Turistik manzilda xizmat va tovarlarni ta’minlaydigan turistik tashkilotlar soni bilan talab bir xil darajada o‘ssa, ular o‘rtasida raqobat ham kuchayadi.Raqobatbardosh bozor sharoitida turistik ta’minotchi tashkilotlar soni o‘sib, talab darajasi bir xil qolsa, narx ham, foyda ham kamayadi. Quyidagi 1-jadvalda Samarqand viloyatida mavjud joylashtirish vositalarining xizmat va tovarlariga bo‘lgan talab darajasini tahlil etdik.

Samarqand viloyatida mavjud mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari

1-jadval

Samarqand viloyatida turistik xizmat va tovarlarni ta’minlaydigan turar-joy vositalari va ular tomonidan xizmat ko‘rsatilgan shaxslar soni bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar

Yillar	Mehmonxo-na va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari va ularda xizmat ko‘rsatilgan shaxslar soni	Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari va ularda xizmat ko‘rsatilgan shaxslar soni	Individual joylashtirish vositalari va ularda xizmat ko‘rsatilgan shaxslar soni	Boshqa joylash-tirish vosita-lari(hos-tellar va yotoqxo-nalar	Jami
2017	104	27	-	2	264
	176375	21285	-	388	395708
2018	116	28	5	2	290
	231200	23423	2015	1582	512843
2019	139	39	18	9	410
	268367	24726	3251	1546	595780
2020	144	32	17	7	376
	65074	10490	889	504	152521
2021	131	32	13	8	347
	121398	23758	1636	1629	293517
2022	165	35	26	8	434
	213470	26252	6333	1823	487600

Muallif tomonidan Samarqand viloyati Statistika Boshqarmasi ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

sonida 2020-yilgacha o‘sish sur’atini ko‘rishimiz mumkin. 2021-yilda esa Samarqand viloyatida 131 ta mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari mavjud bo‘lib, 2022-yilda ularning soni 165 taga yetdi va ular tomonidan xizmat ko‘rsatilgan shaxslar miqdori esa 2021-yildagi miqdorga nisbatan 87% ga o‘sdi.

Xulosa va takliflar: Xulosa qilib aytganda, agar biz Samarqand viloyati turizm salohiyatini yuksaltirmoqchi bo‘lsak, hududda turizm sohasi rivojining ta’siri natijasida ijtimoiy-iqtisodiy takomillashuv parametrlarini prognozlashtirish, mahalliy aholining yashash farovonligini oshirish, turizm faoliyatining rivojlanishi natijasida, hududda yuzaga chiqishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy-madaniy salbiy oqibatlarni o‘z vaqtida aniqlash va tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirishimiz zarur. Hududda turistik faoliyatni kuchaytirish orqali daromadni ko‘paytirish va uni to‘g‘ri taqsimlash, sohada yangi ish o‘rinlari yaratish mumkin. Shunga ko‘ra, turizm rivojining ijobiy va salbiy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari ilmiy-amaliy jihatdan tahlil va tadqiq qilinib, Samarqand viloyati hududining tavsifiga ko‘ra, turizm rivojining ijtimoiy-madaniy ta’sirini samarali boshqarish borasida maqbul ijtimoiy mexanizmlar ishlab chiqish muhim sanaladi.

Shuning uchun, turizm industriyasini boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini tashkil etishning samarali rivojlanishi hamda turistik mahsulotga talab va taklif o‘rtasida o‘zaro muvofiqlikni ta’minlash uchun hududda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarur: Turistik hududlar iqtisodiy infrastrukturasini yaxshilash; turizmning turli sektorlarida yangi ish o‘rinlari yaratish; hududda ekoturizmni rivojlantirish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish; viloyat turizm qishloqlarida innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish; soliq tizimini takomillashtirish; turistik hududlarning raqobatbardoshligini oshirish; Samarqand turistik tashkilotlarida xodimlarni ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish; turizm strategiyalarini tanlashda keng jamoatchilikning ishtirokini ta’minlash va turizm sohasi rivojining salbiy oqibatlarini kamaytirish va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Statista Research Department, 2024. https://www.statista.com
2. Page.S. Tourism Management. 2019.6th edition.Routhledge.London
3. Leiper.N.1990. Tourism Systems: Interdisciplinary Perspective. Department of Management Systems. Business Studies Faculty.
4. J.Page., J.Connell. Tourism:A Modern Synthesis. Fifth edition. Routhledge. 2020.
5. M.Aliyeva, A.Norchayev.Turizm Menejmenti: O‘quv qo‘llanma-T.:TDIU.2007.
6. Shodmonov.Sh.Iqtisodiyot nazariyasi:Darslik.2020.
7. M.R.Dileep.2019.Tourism,Transport and Travel Management.1st edition.
8. 2022-2026-yillarda Samarqand viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 222-son qarori.28.04.2022.
9. Samarqand viloyati Statistika Boshqarmasining “Samarqand viloyatida turizm va dam olish rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari 2022” statistik Byulleteni
10. https://www.silkroad-samarkand.com
11. https://zarnews.uz.post >Samarqandga olti oyda qancha sayyoh keldi?
12. Kandampullu.J.,Solnet.D.2018. Service Management Principles for Hospitality and Tourism.3rd edition.
13. www.samstat.uz
14. https://stat.uz

Л.Юлдошева

Состояние и тенденции развития туристической сферы Самаркандской области

Аннотация. В данной статье туристический потенциал Самаркандской области изучается с использованием различных экономических методов с целью анализа современного состояния и возможностей элементов и субъектов туристической отрасли, уровня социально-экономического благополучия жителей Самаркандской области, а также представлены научно-методические рекомендации по дальнейшему совершенствованию туристической отрасли региона.

Ключевые слова: цифровая экономика, экономический закон Энгеля, сезонность, социально-демографические факторы, программы социально-экономического развития, доходы потребителей, туристический спрос.

L.Yuldosheva

Development status and trends of tourism sector of Samarkand region

Abstract. In this article, the tourism potential of the Samarkand region is studied using various economic methods in order to analyze the current state and capabilities of elements and subjects of the tourism industry, the level of socio-economic well-being of residents of the Samarkand region and also presented scientific and methodological recommendations for further improvement of the tourism industry in the region.

Keywords: digital economy, Engel's economic law, seasonality, socio-demographic factors, socio-economic development programs, consumer income, tourist demand.

Матлуба Абдиманабовна Куймуратова – Наманган муҳандислик-технология институти доценти, PhD

ЖАҲОНДА ТУРИЗМНИНГ ҲОЛАТИ ВА РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Аннотация: мақолада жаҳонда туризмнинг ҳолати ва ривожланиш истиқболлари қараб чиқилган бўлиб, бунда жаҳоннинг туристик ҳудудлари бўйича халқаро туризмнинг 2000-2020 йиллар давомида ривожланиши даражаси ва 2030 йилгача бўлган башоратлари берилган. Халқаро туризм бозорининг ҳам шу даврга бўлган ҳудудлар бўйича ўзгариш тенденциялари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: туризм, халқаро туризм, жаҳон туризми, туристик салоҳият, туризм индустрияси, туризмни ривожлантириш, халқаро туризм, туризм бозори, хизматлар, хизматлар экспорти.

Кириш. Ҳозирги вақтда жаҳонда туризм индустрияси бутунжаҳон хизматлар савдосида динамик даражаларда ривожланиб бораётган соҳа ҳисобланади. Агар, 1950 йилда жаҳон бўйича туристлар сони 25 млн. ва туризм индустриясининг даромади 2,1 млрд. АҚШ долларини ташкил қилган бўлса, БТТ нинг бугунги кундаги маълумотлари

бўйича жаҳонда халқаро туристлар сони 1,035 млрд. киши, туризм соҳасида олинган йиллик даромад 1,3 трлн. доллардан ошди. Ҳар йили 5-6 млрд. киши ўз мамлакатларида туристик саёҳатларга чиқмоқда.

Бутунжаҳон туристик ташкилотининг маълумотларига кўра, туризмга 2014 йилда жаҳон ЯИМ нинг 9% и (6 трлн. доллардан ортиқ), жаҳон экспортининг 6 % и, шу жумладан, жаҳондаги хизматлар экспортининг 30% гачаси тўғри келмоқда. Дунёдаги 260 млн. ишчи ўрни туризм ва саёҳатлар билан боғланган (шулардан 100 млн. киши бевосита туризм соҳасида). Яъни, дунёда ҳар 11-чи ишчи киши туризм индустриясида ишлайди. Жойлаштириш воситаларининг номер фонди 12,7 млн.ни ташкил қилади (шу жумладан АҚШда-4,9 млн., Европада-3,9 млн.)[1]. 2018 йилда туризмнинг жаҳон ЯИМдаги улуши 8,8 триллион АҚШ долларига, яъни ЯИМнинг 10.4 %ига, шунингдек, умумий экспортнинг 1,5 триллион АҚШ доллари яъни 6.5 %ига (бу умумий хизматлар экспортининг 27.2%и демакдир) ва 319 миллион иш ўрни (ҳар 10 тадан 1 киши туризм соҳасида ишлайди)[2] га тенг бўлди. Ушбу кўрсаткичлар 2024 йилга келиб 1,6-1,8 баробарга ошди. Кўриниб турибдики, туризм дунё миқёсида ҳал қилувчи соҳага айланиб бормоқда. Шу нуқтаи назардан мазкур мақола ўта долзарб ҳисобланади.

Таҳлил ва натижалар. Ҳозирги давримизда туризм индустриясининг роли нафақат ривожланган давлатлар иқтисодида, балки, ривожланаётган мамлакатларнинг иқтисодиётида ҳам жуда муҳим аҳамият касб этади. Туризм қашшоқлик билан курашишда шунингдек, дунёнинг кўплаб мамлакатлари ва ҳудудларида яшаётган инсонларнинг бири-бирига яқинлашувида ҳам муҳим шароитларни яратади. Масалан, Кариб Бассейнининг оролларидаги кичик давлатлардаги иш ўринларини ва улардаги ЯИМ то 3/4 % ини таъминлаб, бу мамлакатлардаги аҳолиларининг яшаш тарзида муҳим ҳаётий ўринга эга.

Европанинг ривожланган мамлакатларида туризм ЯИМ нинг то 10-15% ини ташкил қилади. Африкада туризмнинг аҳамияти фақат Жанубий Африка Республикасида кучли ўринни ва Шимолий Африканинг бир неча давлатларидагина ривожланишнинг дастлабки босқичларида ҳисобланади.

Яқин Шарқ мамлакатларининг иқтисодиётида ҳам туризм соҳаси муҳим роль ўйнайди (айниқса БААда), лекин сўнгги йилларда бу мамлакатларда туризмнинг ривожланишига хавфсизликни таъминлаш муаммолари катта тўсқинлик қилмоқда. Туризмнинг Жанубий-Шарқий мамлакатлар иқтисодиётига қўшган улуши ҳам йилдан-йилга ошиб бормоқда.

БТТнинг ҳисоб-китоблари бўйича 2020 йилда халқаро туристик оқим 1,36 млрд кишига, 2030 йилда 1,39 млрд. кишига етиши башорат қилинган. Бу маълумотлардан маълум бўладики, сайёрамизнинг ҳар беш кишисидан бири туристик фаолият билан шуғулланишади. Яъни башоратлар бўйича халқаро туристлар оқимининг йиллик ўсиши-4% ни ташкил этади. Халқаро туризм ва саёҳатларнинг жаҳон ЯИМ га қўшган улуши 2030 йилга бориб то 10% га (9,2 трлн.доллар)ча ошади. Натижада туризм соҳасида қўшимча 21 млн. иш ўринлари яратилади ва бандлик бўйича туризмнинг қўшган ҳиссаси ҳам деярли 10% (325 млн. ишчи)га кўтарилади[3]. Албатта, халқаро туризмнинг ривожланишига жаҳон туризмидаги ҳудудий фарқларга катта таъсир кўрсатиши тайин, лекин, жаҳон туризми ривожланишидаги бу кўрсаткичлар диққатга сазовор ҳисобланади[4].

Жаҳонда салбий сиёсий ва иқтисодий муҳитнинг баъзида кескинлашуви ва сақланиб турганлигига қарамасдан, туризм соҳаси ўсиши бўйича барқарор тенданцияга эга эканлигини кўрсатмоқда. Бу ҳолатни кузатиб бораётган кўплаб янги давлатлар ва ҳудудлар

[1] Основы туризма.Учебник, Коллектив авторов; под. ред. Е.Л.Писаревского. Москва, Федеральное агенство по туризму, 2014, 384 с.(236-246 с).

[2] UNWTO barometer 2018 – World Tourism Organization (UNWTO), april 2018. https://www.moodiedavittreport.com/wp-content/uploads/2018/04/wto-1.png

[3] Кружалин В.И., Мироненко Н.С., Зигерн-Корн Н.В., Шабалина Н.В.. География туризма,учебник – М.: Федеральное агентство по туризму, 2014. – 336 с.

[4] Основы туризма: учебник / коллектив авторов ; под ред. Е.Л. Писаревского. – М.: Федеральное агентство по туризму, 2014. – 384 с.

туризм соҳасини ривожлантиришга жадал киришмоқдалар. Жаҳон туризмида етакчилик қилаётган давлатларга рақобат кўрсатувчи янги, жозибали туристик марказлар ва давлатлар ҳосил бўлмоқда. Шу билан бирга, жаҳоннинг кўплаб давлатлари ва ҳудудларидаги нотекис ижтимоий-иқтисодий ривожланиш халқаро туристик оқим динамикасининг нотекислигини ҳам келтириб чиқарган.

Халқаро туризмнинг ривожланишига турли-туман иқтисодий (2018-2022 йиллардаги иқтисодий инқироз), сиёсий (Яқин шарқдаги «араблар баҳори» воқеаси, Шимолий Африкадаги қарама-қаршиликлар даври ва ҳ.к..), табиий (ер қимирлашлар, довуллар, иқлим ўзгариши, эпидемия ва ҳ.к..) омиллар кескин таъсир қилади. Лекин, қайд қилинган барча тўсқинлик омилларига қарамасдан, жаҳон туризми дунёвий чегараларда барқарор ривожланаётганлигини тасдиқлади.

Америка ҳудудидаги туризмнинг ривожланиши тобора турли-туманликни эгаллаб бормоқда. АҚШ чиқиш туризми асосий оқимлардан ҳисобланса-да, америкаликларнинг ўз давлатлари ҳудудларида туристик фаолияти анъанавий тусда эканлигидан чиқиш туризмини янада кучайтиришининг имкониятлари топилмаяпти. Бразилия кириш туризмини 2014 йилдаги футбол бўйича жаҳон чемпионати ва 2016 йилдаги 2025 йилгача икки маротаба кўтаришни (10 млн. турист) ва туризмдаги тушумларни 2,3 маротабага то 15 млрд. долл. етказилиши режалаштирилмоқда[1]. Аммо, бундай жадал тараққиётга пандемия шароити салбий таъсирини ўтказди.

2012-2023 йилларда халқаро туризмга харажатлар бўйича лидер мамлакатлар рейтинги бўйича муҳим ўзгаришлар юз берди: биринчи ўринга бу йилда халқаро туризмга 102 млрд. доллар сарфлаган Хитой халқ Республикаси чиқди (бу йилда Хитойнинг харажатлари халқаро туризмга 37% ошди). Туризмни ривожлантиришга ажратилаётган катта маблағларни тадқиқот қилаётган баъзи тадқиқотчилар халқаро туризмни ривожлантиришда «Хитой омили» ҳақида гапирмоқдалар.

Бу давлат мамлакатдан чиқиш меъёрларини соддалаштириш, хитойликларнинг даромадларини ошириш ва Хитой миллий валютасини мустаҳкамлаш йўли билан 2012-2023 йилларда туризмни ривожлантиришдаги харажатларини 8 баробарга оширди. Хитойнинг халқаро туризмни ривожлантиришдаги бу омилини бошқа давлатлар ҳам қўлламоқда. Россия туризмни ривожлантиришдаги харажатларини 3 баробарга, Австралия 3,5 баробарга оширмоқда. Лекин туризмда етакчи баъзи давлатлар туризмни ривожлантиришга ажратилаётган харажатларини пасайтириши ҳам қайд қилинаяпти (Япония, Буюк Британия). Жаҳон туризмида лидерлик қилаётган 10 мамлакатнинг туризмни ривожлантиришдаги улуши 46% ни ташкил қилмоқда[2]. Шунингдек, туризм соҳасининг ривожланиши чегаралари ва бу соҳага алоҳида эътибор бераётган давлатларнинг сони кўпайиб бормоқда.

Жаҳон туризм бозори юз берган жиддий ўзгаришларга қарамасдан, ҳудудлар ичидаги туризм жаҳон туризмидаги асосий туристик оқимни ташкил қилмоқда. 2020-2023 йилларда жаҳон туризми оқимининг 81% и туристик ҳудудлар ичида амалга оширилди. Туристик алмашувнинг катта миқдорлари қўшни давлатларда ёки ҳудуднинг бир давлатларида қайд қилинаяпти. Бу тенденция Европада аниқ намоён бўлмоқда- 87% туристлар-Европаликлар. Фақат Яқин Шарқ ҳудудида ҳудудлараро туристик оқим 55% ни ҳудуднинг туристлари 45% ни ташкил қилмоқда. Натижада, 2018 йилда ўртача глобал иқтисодий ўсиш 3.2% бўлган бўлса, бу кўрсаткич туризм соҳасида ундан юқори ўсишни қайд этди.[3]

БМТнинг Жаҳоннинг туристик ҳудудлари бўйича халқаро туризмнинг 1950-2000-2010 йиллар давомидаги ривожланиши ва 2020 ҳамда 2030 йилгача башорати қуйидаги жадвалда келтирилган (1-жадвал).

[1]Статистика туризма : учебник / коллектив авторов ; под ред. А.Ю. Александровой. – М.: Федеральное агентство по туризму, 2014. – 464 с.

[2]Экономика туризма : учебник / М.А. Морозов, Н.С. Морозова, Г.А. Карпова, Л.В. Хорева. – М.: Федеральное агентство по туризму, 2014. – 320 с.

[3] Travel & Tourism Economic Impact 2019. P.1.

1-жадвал

Жаҳоннинг туристик ҳудудлари бўйича халқаро туризмнинг 2000-2020 йиллар давомида ривожланиши ва 2030 йилгача башорати[1]

Кўрсаткичлар	**2000**	**2010**	**2015**	**2020**	**2030** (башорат)
Дунё бўйича туристик оқим, млн. киши	439,5	687,0	940,0	1360	1809
Европа	60,4	57,1	50,5	45,6	41,1
Америка	21,1	18,6	16,0	14,6	13,7
Осиё-Тинч океани ҳудуди	12,8	16,8	21,7	26,1	29,6
Африка	3,5	4,0	5,3	6,3	7,4
Яқин Шарқ	2,2	3,5	6,4	7,4	8,2

Манба: БТТ маълумотлари.

Келтирилган жадвал маълумотларининг таҳлилидан маълум бўладики, Европанинг кейинги йилларда йиллик кўрсаткичлар бўйича жаҳон туризмидаги янги ҳудудлардан орқада қолаётганлиги давом этиб, етакчилик мавқеий пасайиб бормоқда. XX асрда Европа ва Америка халқаро туризмда бошқа ҳудудларга нисбатан энг юқори кўрсаткичларни кўп йиллар давомида эгаллаб келди. Янги аср бошланишидан уларнинг халқаро туристларни жалб қилиши пасайиб келмоқда. Лекин ҳозир ҳам, бу иккала қитъа халқаро туристик оқимни анча юқори даражаларда ташкил қилмоқда.

Жаҳоннинг кўплаб давлатлари ва ҳудудларини қамраб олган туризм бозори рақобат кураши ва қатнашувчиларнинг иқтисодий қарама-қаршилиги кучайиб бораётган шароитларда муваффақият билан ривожланиб бормоқда. Бу шароитларнинг келиб чиқишидаги асосий сабаблар ташқи туризм бозорига ўзларининг туристик маҳсулотлари, туристик хизматларини ва туристик рекламаларини кутилмаган ва бошқа йўллар билан чиқараётганлигига ҳам эътибор беришмоқда.


Шу билан бирга, туристик эҳтиёжлар ва туристик таклифларнинг жаҳон туризм бозорига чиқарилиши ҳам, маълум бир давлатларда яратилиши бир қатор ўзгарувчи омилларга: давлатларнинг иқтисодий ва молиявий ривожланишига, давлатларнинг сиёсатининг ўзгаришига, инновацион технологияларнинг ривожланишига боғлиқ ҳисобланади.

Тинч океани ҳудудидаги давлатларнинг халқаро туризми бирданига катта миқдорларни ташкил қилмоқда ва 2020 йилдан бошлаб жаҳон туризмида иккинчи ўринга чиқди. Африка ва Яқин Шарқда муаммоларнинг кўплигига қарамасдан халқаро туризмда ушбу ҳудудлар улушининг ўсиши давом этмоқда. Жаҳоннинг халқаро туризм ҳудудларидаги халқаро туристик оқимнинг таҳлилларидан маълум бўлмоқдаки, Европа халқаро туризмида халқаро туристларнинг оқими асосан Жанубий ва Ғарбий Европа мамлакатлари ҳисобига тўғри келади (35% ва 31% кириш-2012 йил). Иқлимнинг қулайлиги, бой миллий меърос, ижтимоий-иқтисодий даражаларнинг юқорилиги ва сиёсий муҳитнинг меъёрийлиги халқаро туристларнинг оқимини ташкил қилувчи асосий хусусиятлардан бири ҳисобланади (1-расм).

Кўриниб турибдики, асосий халқаро туристик кириш Марказий-Шарқий Европада юқори кўрсаткичларга эга (21%). Осиё-Тинч океани ҳудудида асосий туристик оқим Шимолий-Шарқий Осиёда ошиб бормоқда (53%). Бу ҳудудга аниқ рақобатни Жанубий-Осиё ҳудуди келтириб чиқариши ҳам аниқ бўлиб қолди (36%). Бу ҳудуддаги давлатларнинг ўртасидаги мураккаб сиёсий вазиятлар ва ижтимоий-иқтисодий тараққиётнинг анча пастлигига қарамасдан бетакрор табиат ва табиий иқлим шароитлари бўйича халқаро туризмни янада ривожлантириш имкониятлари мавжуд.

Австралия ва Океания ҳудуди давлатлар ўртасидаги масофа узоқлигидан халқаро туристик оқимни кучайтиришда ҳозирги имкониятлари анча чекланган. Бу иккала ҳудуд туристик йўлланмалар нархини пасайтириши йўли билан халқаро туристик оқимни кучайтириши мумкин. Бу усул эса халқаро туризмда деярли қўлланилмайди.

[1] БМТ маълумотлари асосида муаллиф ҳисоб-китоби.



1-расм. Жахон бозорида минтақалар улушининг ўзгариши (башорат, %)[1]

Америка ҳудудида халқаро туризмда Шимолий Америка (АҚШ, Канада, Мексика) етакчилик қилмоқда. Бу давлатларга ҳудуддаги 2\3 туристик оқимни ўзларига жалб қилмоқда. Бу ҳудуддаги 16% халқаро туристик оқим Жанубий Америкага, 13% и Кариб ҳудудига тўғри келади. Марказий Америка давлатлари халқаро туризмда минимал кўрсаткичларга эга. Африка ҳудудида ҳам халқаро туризмнинг жуда нотекис ривожланиш тенденциясини кузатиш мумкин.

Ҳудуддаги халқаро туристик оқим бўйича Марокко (18%) ва ЖАР (18%) давлатлари сезиларли миқдорларга эришмоқда. Тунис (12%) ҳам алоҳида ажралиб чиқмоқда. Ҳудуддаги доимий етакчилик албатта Саудия Арабистонида (26%, зиёратчилар ҳисобига). Кейинги ўринда Миср араб Республикаси (22%, пирамидалар ҳисобига), Бирлашган Араб Амирликлари (17%,юқори классли инфратузилмалар ва хизматлар ҳисобига).

Кейинги 10 йилликда жаҳон сайёҳлик ташкилоти маълумотлари бўйича халқаро туризмда асосий мақсад ва мақсадларнинг ўзаро нисбатларида сезиларли ўзгаришлар юз бермоқда. Масалан, агар 2000 йили ҳалқаро туризм оқимида дам олиш ва вақтичоғлик мақсадлари 62% бўлган бўлса. 2018 йилда бу кўрсаткич 52%ни ташкил қилди; ишчанлик ва малакавий мақсадлардаги туристик фаолият 2000 йилги 18%дан, 2018 йилда 14%га пасайди; халқаро туризмда дўстлар ва қариндошлар билан учрашув, соғломлаштириш ва зиёрат мақсадларидаги туристик фаолият 20% дан 27 %га кўтарилди[2].

БТТнинг башоратлари бўйича халқаро туристик оқимда қайд қилинган мақсадлар бўйича туристик фаолият то 2030 йилларгача деярли сақланади. Лекин, сўнгги йилларда туристлардаги мажмуали мақсадларининг кўплигидан, ўзларининг туристик фаолиятдаги асосий мақсадларини белгилашда иккиланиш хулосаларига кўпроқ дуч келаётганлиги ҳам яхши ўрганилган. Бу эса, туристик фаолиятда диверсификациянинг давом этаётганлигидан, туризмнинг янги турлари юзага келаётганлигидан, халқаро туристик оқимнинг чегаралари ва географиясининг ўзгариб бораётганлигини билдиради.

Хулоса ва таклифлар. Жаҳон туризмининг ривожланишининг замонавий тенденцияларини ўрганишдан келиб чиққан хулосалар шундан иборатки, ҳозирги кунда Ўзбекистонда туризмни ривожлантиришнинг асосий тенденциялари бизнингча қуйидаги истиқболли йўналишларда намоён бўлиши мумкин:

1. Ўзбекистон халқаро туризмни (тарихий-маданий, археологик, зиёрат ва экоту-

[1] Маълумотлар 1.3-жадвал асосида шакллантирилди.
[2] http://www.unwto.org

ризмлари) ривожлантиришни такомиллаштиришнинг кучайиши мамлакатимизда халқаро туризмни ривожлантириш марказларининг яратилишига эҳтиёжнинг кучайишига олиб келади.

2. Ўзбекистонга хорижий туристлар оқимининг кўпайиши туризмнинг соҳалари ва турлари бўйича халқаро талаб даражасида хизмат кўрсатадиган туроператорларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш, малакасини ошириш ва кўникмаларни шакллантириш эҳтиёжларини кучайтиради.

Хулоса қилиб айтганда ушбу масалалар амалга ошадиган бўлса, мамлакатимизда ҳам туризм соҳаси иқтисодиётнинг драйверига айланиш имкониятига эга бўлади.

М.Куймуратова **Состояние туризма в мире и перспективы его развития**	**M.Kuimuratova** **The state of tourism in the world and its development prospects**
Аннотация: в статье рассмотрено состояние туризма в мире и перспективы его развития, изучен уровень развития международного туризма в туристических регионах мира на 2000-2020 годы и разработаны прогнозы до 2030 года. Проанализированы тенденции международного туристического рынка по регионам за тот же период.	**Abstract:** The article examines the state of tourism in the world and prospects for its development, studies the level of development of international tourism in tourist regions of the world for 2000-2020 and develops forecasts until 2030. Trends in the international tourism market by region for the same period are analyzed.
Ключевые слова: туризм, международный туризм, мировой туризм, туристский потенциал, туриндустрия, развитие туризма, туристический рынок, услуги, экспорт услуг.	**Keywords:** tourism, international tourism, world tourism, tourism potential, tourism industry, tourism development, tourism market, services, export of services.

Kamol Sharifovich Yuldashev — Ipak yo‘li xalqaro turizm va madaniy meros universiteti tayanch doktoranti, Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi

XALQARO TAJRIBA ASOSIDA O‘ZBEKISTONGA MUSTAQIL TURISTLARNI JALB QILISHDA VIZA SIYOSATINING TA’SIRI

Annotatsiya: mazkur maqolada xalqaro tajriba asosida O‘zbekistonga mustaqil turistlarni jalb qilishda viza siyosatining bevosita ta’siri statistik ma’lumotlar asosida isbotlangan va mamlakatning turistlar nazarida ochiqlik indeksi miqdoriy baholash metodologiyasi orqali aniqlangan.

Kalit so‘zlar: viza, mustaqil turist, vizasiz rejim, global passport indeks, ochiqlik indeksi, miqdoriy baho, viza turlari.

Kirish. So‘nggi yillarda turizm industriyasi jahon miqyosida jadal rivojlanayotgan iqtisodiyot tarmoqlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. World Travels & Tourism Council (WTTC) bergan statistik ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda sayohat va turizm sektori jahon yalpi ichki mahsulotiga 7,6 % hissa qo‘shdi va u 2021-yilga nisbatan 22 % o‘sishga erishgan bo‘lsa, ammo 2019-yilga nisbatan 23 % past ko‘rsatkichni tashkil etgan. Bundan tashqari, 2022-yilda 22 million yangi ish o‘rni paydo bo‘lib, bu 2021-yilga nisbatan 7,9 % ga o‘sishni va 2019-yilga nisbatan atigi 11,4 % past ko‘rsatkichni tashkil etdi. 2022-yilda mahalliy tashrif buyuruvchilarning xarajatlari 20,4 % ga oshdi, ammo 2019-yilgi ko‘rsatkichdan atigi 14,1 % pastroq bo‘ldi. 2022-yilda xalqaro tashrif buyuruvchilarning xarajatlari 81,9 %ga oshdi, ammo baribir 2019 yilga nisbatan 40,4 % ga ortda qolmoqda [1].

Sayohat qilishni istagan har bir turist destinatsiyani tanlash jarayonidagi eng asosiy omillardan biri bu mamlakatning viza siyosati hisoblanadi. Viza siyosatining soddalashtirilishi mamlakatga xorijiy turistlar oqimini oshirishda, yangi ish o‘rinlarining paydo bo‘lishiga, xalqaro aloqalarining mustahkamlanishiga, sayohat davomiyligining uzaytirilishiga olib keladi. Mamlakatning xalqaro turizmdan olishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy manfaatidan to‘liq foydalanish uchun jahon miqyosida raqobatbardosh qiladigan shart-sharoitlarni yaratish bilan

birga mamlakat hududiga xorijiy turistlarning to‘siqlar va qiyinchiliklarsiz tashrif buyurishini imkoniyatini ham yaratib berish kabi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu sababdan mamlakatga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar oqimini yanada oshirish maqsadida viza siyosati bevosita ta’siri isbotlab berish kabi dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi va bu borada turli xil tadqiqotlar asosida ilmiy yondashish zarurligini tasdiqlab beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Turizm sohasida va turistlar oqimining oshishiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini bir necha xorijlik va mahalliy olimlar o‘z chop etilgan maqolalarida alohida ta’kidlab o‘tishgan. Xususan, ispaniyalik olimlardan Jaume Rossello va Maria Santana-Gallego [2] “The effect of visa types on international tourism”, nomli maqolasida *viza siyosati xalqaro turizm oqimiga ta’sir qiluvchi eng muhim ma’muriy rasmiyatchiliklardan biridir* degan fikrni ilgari surgan, bundan tashqari, Moufida Nadi [3]*“The Impact Of Visa Facilities On Tourism Sector Case Study For Algeria*” nomli maqolasida, Luz Anjelika Kantillo Ortiz [4] “*Impact of visa restrictions on international tourism arrivals”* tezisda, Andrés Artal-Tur, Vicente J. Pallardo-Lopez [5], Francisco Requena-Silvente [6] “*Examining the impact of visa restrictions on international tourist flows using panel data”,* MDH olimlardan esa, Харевич Мария Михайловна [7], Леонид Гайдукевич, mahalliy olimlardan esa, N.S. Ibragimov [8] “*Turistik hudud barqaror raqobatbardoshligiga erishishning ilmiy asoslari*” nomli dissertasiyalarida ushbu yo‘nalish bo‘yicha o‘z tadqiqotlarini olib borishgan. Ammo, ushbu olimlar viza siyosatining yumshatilishi, aynan mustaqil turistlar kategoriyasi uchun muhimligi haqida o‘rganishmagan va shundan kelib chiqib, ushbu mavzuning dolzarbligini va qo‘shimcha tadqiqotlar olib borish zaruratini ko‘rsatib beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbekistonda yillar davomida viza siyosatining o‘zgarib borishi bilan xorijiy hamda mustaqil turistlar oqimining o‘zgarib borishi haqidagi tahlil jarayonida tahlil va sintez, miqdor va sifat kabi usullardan foydalangan holda miqdoriy baholangan.

Tahlil va natijalar. O‘tgan asrda sayohatni amalga oshirishda vizani rasmiylashtirish tartiblari, chegaradagi bojxona qoidalari, valyuta ayirboshlash cheklovlari kabi omillar katta to‘siq bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib ko‘pgina mamlakatlarda viza tartibining soddalashtirilishi xalqaro sayohatlarning o‘sishiga olib keldi. Barcha mamlakatlarda viza rejimi turli-xil tartibda belgilangan. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan, barqaror va demokratik mamlakatlarning pasportlariga ega bo‘lgan fuqarolar hududlararo harakatlanishi uchun keng imkoniyatlarga ega. Misol uchun ko‘pgina davlatlar Birlashgan Arab Amirliklari, Germaniya va Fransiya pasportiga ega bo‘lgan fuqarolardan viza talab etilmaydi. Aksincha, iqtisodiy kam rivojlangan, barqaror bo‘lmagan va notinch sanalgan mamlakatlar fuqarolarining harakatlanishning past darajasini tashkil etmoqda, shu sababdan ularni kirish jarayonida qattiq tekshiruvdan o‘tkazishadi. Global Passport Indeks tomonidan 2024-yilning yanvar oyiga nisbatan tayyorlagan jahon pasportlari indeksi natijalari 1– jadvalda aks ettirilgan.

1– jadval

2024 yilgi dunyodagi eng kuchli passportlar reytingi [9]

O‘rin	Mamlakat	Vizasiz tashrif buyurishi mumkin bo‘lgan mamlakatlar soni	Mamlakatga yetib kelgach viza olish	Viza talab etiladigan mamlakatlar soni	Umumiy soni
1	B.A.A	134	45	19	179
2	Fransiya,	137	40	21	177
	Germaniya,	136	41	21	177
	Italiya,	136	41	21	177
3	Shvetsiya	135	41	22	176
	Finlandiya	135	41	22	176
67	Gambiya	46	27	125	73
	Uganda	38	35	125	73
	Uzbekistan	**30**	**43**	**125**	**73**
	Qirg‘iziston	30	43	125	73
	Hindiston	30	43	125	73

Index bo‘yicha yuqori ballga ega bo‘lgan mamlakatlar (ko‘p mamlakatlarga vizasiz kirish imkoniyatiga ega bo‘lgan kuchli passport fuqarolari hisoblangan mamlakatlar) yuqori ochiqlik indeksi ko‘rsatkichiga ega emas. Sababi, ushbu mamlakatlar immigratsiya uchun qulay hududlar hisoblanganligi sababli, yopiq viza siyosatiga ega. Aksincha, immigratsiya qilish darajasi past bo‘lgan mamlakatlar xorijiy turistlarni jalb qilish maqsadida soddalashtirilgan viza siyosatini olib borishmoqda.

Visa siyosati bu – bir mamlakat tomonidan uning fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni qisqa muddatli turistlar yoki sayohatchilar, xorijiy talabalar, vaqtinchalik ish faoliyatini olib boradiganlar hamda doimiy migrantlar sifatida qabul qilishni qaror qilish jarayoni hisoblanadi. Bundan tashqari, visa siyosati mamlakatlar o‘rtasidagi diplomatik aloqalarni belgilab berishdan tashqari, soddalashtirilgan visa tartibi ikki mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlar mustahkamligi, turistlarning bemalol harakatlanish belgisini ham beradi. Visa olishda insonning ushbu hududda nima maqsadda borishiga qarab belgilanadi. Umuman olganda visaning turli xil turlari mavjud:

1. Turistik visa – dam olish va sayohatni amalga oshirish maqsadida mo‘ljallangan. Tutistik visani olishda odatda, konsullikka ariza berish, turar joy yoki mehmonxona bandligini tasdiqlovchi hujjat, qaytib kelish avia chiptasining tasdig‘i, iqtisodiy holatini tasdiqlovchi hujjat va ba’zida sug‘urta kabi hujjatlar talab etiladi.

2. Ish visa – boshqa mamlakatga ishlash maqsadida taklif etilgan ishchilar guruhi. Odatda, ushbu ko‘rinishdagi vizani ish sharoiti va boradigan mamlakatga qarab, ma’lum bir belgilangan muddatgacha beriladi. Ish vizasini olish uchun ish beruvchi tomonidan taklifnoma va boshqa zaruriy hujjatlar, ma’lumoti, malaka va ish tajribasini tasdiqlovchi hujjat, tibbiy ko‘rik kabi hujjatlar talab qilinadi.

3. Talaba viza – chet mamlakatlarda o‘qishni xohlagan talabalar. Ushbu vizani olish uchun ta’lim muassasiga o‘qishga qabul qilganligi haqida, moliyaviy imkoniyatlari hamda talaba maqomiga ega bo‘lganligini tasqdiqlovchi hujjatlarni taqdim etilishi zarur bo‘ladi.

4. Biznes viza – boshqa mamlakatlarga biznes, uchrashuvlar, konferentsiyalar, kelishuvlar va muzokaralarda ishtirok etsih maqsadida tashrif buyurishni rejalashtirgan chet el fuqarolari uchun mo‘ljallangan. Ushbu vizani olish uchun taklif etilayotgan korxona, rasmiy muassasa va biznes hamkori tomonidan tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilishi lozim.

5. Immigratsion viza – boshqa mamlakatga qolish va yashash istagida bo‘lganlar uchun. Ushbu ko‘rinishdagi viza xorijiy fuqaro uchun doimiy rezident sifatida qonuniy yashash va yashash huquqini beradi. Vizani olish uchun fuqaro qochoq maqomiga, mahalliy fuqaro bilan oilaviy yoki ish maqsadidagi aloqalarining mavjudligi yoki mamlakatga iqtisodiy sarmoya kiritishni tasdiqlovchi hujjatlarni talab etadi.

6. Tibbiy davolanish uchun viza – boshqa mamlakatga davolanishga muhtojligi bor bemorlar uchun taqdim etiladi. Vizani olish uchun sayohat maqsadi, kasalligi va davolanish zarurligini tasdiqlovchi hujjat, chet mamlakatdagi tibbiyot muassasidan taklifnomani taqdim etish zarur.

Yuqorida ko‘rsatilgan ushbu viza turlari eng ko‘p taqdim etiladigan va asosiy ko‘rinishlari bo‘lib, undan tashqari insonning maqsadi va sayohat toifalariga qarab boshqa turlari ham mavjud. Har bir mamlakatning o‘z siyosati, qoidalari va talablaridan kelib chiqib, vizaga murojaat qilishdan oldin, elchixona yoki konsullikning rasmiy veb-saytidagi ma’lumotlarni tekshirish tavsiya etiladi. Qulay hamda oson viza rejimining joriy etilishi, tezlashtirilgan viza tartib qoidalarining mavjudligi, bular: fuqarolarning ayrimlari uchun vizasiz rejim yoki ma’lum bir hududga aeroport va bojxona chegaralariga yetib kelgandan so‘ng viza olish tartiblarining joriy etilishi xalqaro tashrif buyuruvchilar oqimini sezilarli darajada oshishiga olib keladi.

Passport indeksi kuchli bo‘lgan fuqarolarning dunyo bo‘ylab erkin sayohat qilishidan tashqari, mamlakat viza ochiqlik darajasining yuqoriligi xorijiy turistlarning ushbu mamlakatga tashrif buyurish sonining oshishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Viza olish tartibining qiyinligi mustaqil turistlar uchun katta to‘siq bo‘lib hisoblanadi. Viza ochiqligining darajasi mamlakat uchun turli xil afzalliklari mavjud, masalan, iqtisodiy manfaat ya’ni, xorijiy turistlar oqimining ko‘payishi bilan chet el valyutalarining kirib kelishi, turistik ish o‘rinlarining paydo bo‘lishi, turizmga yondosh iqtisodiy tarmoqlarning rivojlanishi, infratuzilmalarining takomillashtirilishi, madaniy alma-

shinuv, diplomatik aloqalarning mustahkamlanishiga hamda turizmning rivojlanishiga olib keladi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, mamlakatga kirish uchun viza rejimining soddalashtirilishi, asosan rivojlanayotgan mamlakatlarda kuzatilmoqda Viza ochiqlik darajasi oshirilgan sari tashrif buyuruvchilar sonining keskin darajada oshib borganini kuzatish mukin. O‘zbekiston ham 2017-yilga qadar 9 ta atigi davlat vizasiz mamlakatga kirish imkoniyatiga ega edi va tashrif buyuruvchilar soni esa, 2.69 mln. nafarni tashkil etdi. Ammo, 2023-yilga kelib vizasiz tashrif buyurishi mumkin bo‘lgan davlatlar soni 15 baravarga ya’ni, 140 tani tashkil etgan bo‘lsa, tashrif buyuruvchilar soni 2,5 baravar ya’ni, 6.6 mln. nafarga yetdi. Aksincha, O‘zbekiston fuqaloralari uchun chet mamlakatga vizasiz chiqish va harakatlanish asosan Osiyo, Afrika va Ayrim Yevropa mamlakatlarini tashkil etgan.

O‘zbekiston fuqarolari uchun xorijga chiqishda Rossiya, Ukraina, Belarus, Nue va Kuk orollariga viza talab etilmaydi. Qozog‘iston, Tojikiston, Turkiya, Indoneziya, Malayziya, Filippin, Mikroneziya, Sent-Vinsent va Grenadin orollariga 30 kungacha viza so‘ralmaydi. Ozarbayjon, Moldova, Gaiti, Namibiya, Ekvador mamlakatlarida 90 kungacha, Armaniston, Antigua va Barbuda, davlatlarida esa 180 kungacha visasiz yurish mumkin. Shuningdek, 33 ta davlatda soddalashtirilgan viza tartiblari o‘rnatilgan. O‘zbekiston fuqarolari ushbu davlatlarga (Indoneziya, Malayziya) oldindan viza olmasdan borishlari mumkin. Biroq vizalar belgilangan mamlakatga kelganda yoki oldindan uydan chiqmasdan onlayn tarzda olishingiz mumkin [10]. Visa talab etiladigan mamlakatlarda (asosan Yevropa va AQSH davlatlari) to‘g‘ridan-to‘g‘ri elchixonasiga borib visa olish uchun murojaat qilishni talab etadi. Bundan tashqari Armeniya, Ozarbayjan, Belarusiya, Gruziya, Qozog‘iston, Maldoviya, Rossiya va Ukraina davlatlari fuqarolari O‘zbekistonga 90, Qirg‘izistonga 60, barcha Yevropa davlatlariga 30 kungacha vizasiz tashrif buyurishlari mumkin [11].

Bizga ma’lumki, tashqi turistlar oqimiga va turistlarga ko‘rsatiladigan xizmatlar hajmiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillardan biri har bir davlatlarning yuritayotgan viza siyosati hisoblanadi. Bu siyosatni yuritish orqali tashqi turistlar oqimini boshqarish hamda ularni bu davlatga qancha muddat turishini nazorat qilish mumkin bo‘ladi. Tashqi turistlar borgan davlatiga valyuta olib borishi bilan u davlatning iqtisodiyoti rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shadi. Shu sababli, tashqi turistlarning sayohat maqsadida borgan davlatiga qancha muddat bo‘lishi va bu muddat oralig‘ida ularga ko‘rsatilgan xizmatlar orqali valyuta olib kirishiga viza siyosati ta’sir qiladigan bo‘lsa, u holda tashqi turistlarni qabul qiluvchi davlatlarning viza siyosati bo‘yicha ochiqligini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etar ekan. Tashqi turistlarni qabul qiluvchi har bir davlatning viza siyosatiga miqdoriy baho berish uchun quyidagi metodni taklif qilamiz:

1) Dastlab davlatlarning viza siyosati bo‘yicha ko‘rsatkichlar yig‘iladi.
2) Etalon sifatida ko‘rsatkichlar yig‘ilib, ular $\bar{P}(a_1, a_2, a_3, \dots\dots a_n)$ vektor ko‘rinishiga keltiriladi.
3) Har bir davlatning viza siyosati bo‘yicha ko‘rsatkichlari ham $\bar{Q}(b_1, b_2, b_3, \dots\dots b_n)$ vektor ko‘rinishiga keltiriladi.
4) Uchinchi bosqichdagi vektorli ko‘rsatkichlar ikkinchi bosqichdagi vektorli ko‘rsatkichlar kabi bo‘lishi yoki bunga yaqin bo‘lishi uchun bu vektorlar parallel yoki ular orasidagi burchak eng kichik bo‘lishi kerak bo‘ladi, hamda uning formula ko‘rinishidagi ifodasi quyidagicha:

$$\beta_i = \frac{\sum_{k=1}^{n}(a_i \cdot b_i)}{\sqrt{\sum_{k=1}^{n} a_i^2}\sqrt{\sum_{k=1}^{n} b_i^2}}$$ (β_i – davlatning viza siyosatini miqdoriy ko‘rsatkichi)

Bu ko‘rsatkichning maksimal qiymati 1 ga, minimal qiymati 0 ga teng bo‘ladi. Agar biror davlat boshqa davlatlar fuqarolariga viza bermasa, u holda uning natijasi nolga teng bo‘ladi. Hamda β_i – davlatning viza siyosatini miqdoriy ko‘rsatkichi qancha yuqori bo‘lsa, uning viza siyosati bo‘yicha ochiqlik darajasi yuqori bo‘ladi.

Yuqoridagi jadval ma’lumoti yordamida Singapur davlatining viza siyosatiga miqdoriy baho beramiz. Uning vektorli ko‘rsatkichlari $\bar{Q}(14,0,0,0,0,0,0,127,0,0,0,35,0,0,0)$ ko‘rinishda bo‘ladi. Etalon sifatida yig‘ilgan vektorli ko‘rsatkichlar $\bar{P}(14,7,0,3,3,1,3,127,13,0,62,74,4,0,31)$

ko‘rinishda bo‘ladi. Taklif qilinayotgan metodikaning to‘rtinchi bosqichidagi formula orqali Singapur davlatining viza siyosatiga miqdoriy bahoni aniqlaymiz.

$$\beta_s = \frac{14\cdot 14 + 7\cdot 0 + 0\cdot 0 + 3\cdot 0 + 3\cdot 0 + 1\cdot 0 + 3\cdot 0 + 127\cdot 127 + 13\cdot 0 + 0\cdot 0 + 62\cdot 0 + 74\cdot 35 + 4\cdot 0 + 0\cdot 0 + 31\cdot 0}{\sqrt{14^2+127^2+35^2}\sqrt{14^2+7^2+0^2+3^2+3^2+1^2+3^2+127^2+13^2+0^2+62^2+74^2+4^2+0^2+31^2}} = 0{,}87$$

Bu natijadan ko‘rishimiz mumkinki, Singapur davlatining turistlar uchun yuritayotgan viza siyosati 1ga yaqin natija ekan.

Yuqoridagi jadval ma’lumotlari asosida O‘zbekistonning viza siyosatiga miqdoriy baho beramiz. O‘zbekistonnning vektorli ko‘rsatkichlari $\bar{Q}(0{,}7{,}0{,}0{,}0{,}0{,}0{,}50{,}0{,}0{,}1{,}8{,}0{,}0{,}0)$ ko‘rinishda bo‘ladi. Bu ma’lumotlar asosida O‘zbekistonnning viza siyosatiga miqdoriy bahoni quyidagicha aniqlaymiz.

$$\beta_s = \frac{14\cdot 0 + 7\cdot 7 + 0\cdot 0 + 3\cdot 0 + 3\cdot 0 + 1\cdot 0 + 3\cdot 0 + 127\cdot 50 + 13\cdot 0 + 0\cdot 0 + 62\cdot 1 + 74\cdot 8 + 4\cdot 0 + 0\cdot 0 + 31\cdot 0}{\sqrt{7^2+50^2+1^2+8^2}\sqrt{14^2+7^2+0^2+3^2+3^2+1^2+3^2+127^2+13^2+0^2+62^2+74^2+4^2+0^2+31^2}} = 0{,}84$$

O‘zbekistonning ham turistlar uchun yuritayotgan viza siyosati 1ga yaqin natija ekan. Bundan ko‘rishimiz mumkinki, O‘zbekistonning viza siyosati bo‘yicha ochiqlik darajasi yuqori hisoblanadi.

Jadvalda keltirilgan barcha o‘n ikkita davlatlarning viza siyosati bo‘yicha ochiqlik darajasi taklif qilinadigan metodika orqali o‘rganildi. Taklif qilingan metodika orqali ularning aniqlangan natijasi quyidagi 2 – jadvalda keltirilgan.

2 – Jadval

Davlatlarning viza siyosati bo‘yicha ochiqlik darajasi

	Singapur	Yaponiya	Xitoy	Qatar	Malayziya	Eron	Birlashgan Arab Amirliklari	Qirg‘iziston	Norvegiya	Irlandiya	Amerika Qo‘shma Shtatlari	O‘zbekiston
Viza siyosati bo‘yicha ochiqlik darajasi	0,87	0,46	0,87	0,88	0,89	0,76	0,73	0,45	0,49	0,49	0,48	0,84

Bu jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, turistlar bo‘yicha viza siyosatining ochiqlik darajasi Malayziya davlati uchun eng yuqori hisoblanadi. Uning viza siyosati bo‘yicha ochiqlik darajasi 0,89 ga teng. Eng past ko‘rsatkich Qirg‘iziston davlatiga tegishli bo‘lib, uning viza siyosati bo‘yicha ochiqlik darajasi 0,45 ga teng ekan.

Xulosa va takliflar. Yuqorida olib borilgan tadqiqotlar va tahlil natijalaridan shuni xulosa qilish mumkinki, oldingi yillarda mamlakatmiziga vizasiz tashrif buyurish imkoniga atigi 9 ta davlat ega bo‘lgan, ammo joriy yilga kelib ular soni 139 taga yetgani, ayniqsa qo‘shni Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston davlatlari fuqarolari yaqin qarindoshlarini ziyorat qilish sababli sayohatlarni amalga oshirishmoqda. Bundan tashqari, nafaqat Yevropa davlatlaridan, balki Malayziya hamda Indoneziya fuqarolarining ham oxirgi 3 yil ichida tashriflar soni oshib bormoqda. Taklif sifatida oxirgi yillar o‘rta osiyo bo‘ylab turlar turistik agentliklar tomonidan muntazam sotilmoqda va bundan kelib chiqib ushbu beshta mamlakatga to‘siqsiz tashrif buyurishini inobatga olgan holda kelajakda o‘rta osiyo hududlari bo‘ylab yagona viza rejimi joriy etilishini taqozo etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. World Travels & Tourism Council (WTTC), Economic Impact Research, https://wttc.org/research/economic-impact.
2. Jaume Rossello va Maria Santana-Gallego, “The effect of visa types on international tourism”, Economic Modelling, Volume 137, August 2024, 106757.
3. Moufida Nadi [3]“The Impact Of Visa Facilities On Tourism Sector Case Study For Algeria”, researchgate, June 2017.
4. Luz Anjelika Kantillo Ortiz [4] “Impact of visa restrictions on international tourism arrivals” University of the Balearic Islands, 2021.
5. Andrés Artal-Tur, Vicente J. Pallardo-Lopez [5], Francisco Requena-Silvente [6] “Examining the impact of visa restrictions on international tourist flows using panel data” Examining the impact… / Estudios de Economía. Vol. 43 - Nº 2, Diciembre 2016. Págs. 265-279 A. Artal-Tur, V. J. Pallardó-López, F. Requena.
6. Трунина И. Н., Туризм и визовые формальности: организационные аспекты, Современные проблемы сервиса и туризма, № 4/2011.
7. Леонид Гайдукевич, Визовая политика Республики Беларусь как регулятор развития международного туризма, Journal of International Law and International Relations. 2019. N 3-4 (90-91). P. 54—59.
8. N.S. Ibragimov [8] “Turistik hudud barqaror raqobatbardoshligiga erishishning ilmiy asoslari, Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2024-yil, avgust. № 8-son.
9. Global Passport Power Rank 2024, Passports of the world ranked by their total mobility score. https://www.passportindex.org.
10. https://uzbektourism.uz/
11. https://uzbektourism.uz/

К.Юлдашев **Эффект визовой политики в привлечении независимых туристов в Узбекистан на основе международного опыта** **Аннотация:** в данной статье на основе международного опыта доказано прямое влияние визовой политики на привлечение независимых туристов в Узбекистан с помощью статистических данных, а также методом количественной оценки определен индекс открытости страны в глазах туристов. **Ключевые слова:** виза, независимый турист, безвизовый режим, глобальный паспортный индекс, индекс открытости, количественная оценка, типы виз.	**K.Yuldashev** **Effect of visa policy in attracting independent tourists to Uzbekistan based on international experience** **Abstract:** In this article, based on international experience, the direct influence of visa policy on attracting independent tourists to Uzbekistan is proven using statistical data, and the index of openness of the country in the eyes of tourists is determined using a quantitative assessment method. **Keywords:** visa, independent tourist, visa-free regime, global passport index, openness index, quantitative assessment, visa types.

Азиза Пирмаматовна Махмудова – СамИСИ, «Туризм» кафедраси доценти, и.ф.ф.д.

ТУРИЗМ СОҲАСИНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Аннотация. Ушбу мақолада туризм соҳасини инновацион ривожлантириш йўллари, ҳамда унинг ривожланишига таъсир этаётган омиллар таҳлили келтирилган.
Калит сўзлар: инновация, туристик ташкилотлар, номоддий активлар, маҳаллий ва хорижий инвестициялар, жозибадор туристик маҳсулотлар.

Кириш. Иқтисодиёт соҳаларини ривожланишнинг бугунги кундаги энг муҳим хусусиятларидан бири – давлат иқтисодий ўсишининг асоси сифатида инновацияларнинг ролининг ортиб бориши, шунингдек, ривожланган мамлакатларнинг юқори технологиялар

ва ностандарт номоддий активлар орқали рақобатлашишга интилишидир. Инновацион маҳсулотлар ва технологияларнинг иқтисодий муомалага кенг жорий этилаётганлиги иқтисодиётни ривожлантириш ва аҳоли турмуш фаровонлигини оширишнинг асосий омилига айланиб бормоқда.

Бу борада мамлакатимизда туризм соҳасини инновацион ривожлантириш ва ушбу соҳада электрон хизматларни кўрсатишнинг яхлит тизимини яратиш, янги механизмларини жорий этиш юзасидан улкан ишлар олиб борилмоқда. Шу мақсадни амалга ошириш борасида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январдаги «Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» ги ПФ – 5611 сонли Фармони[1], ва «2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш Концепцияси» ПФ-5611-сон Фармонининг 1-сон иловаси[2], 2020 йил 28 апрелдаги «Рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-4699-сон Қарори[3], 2023 йил 24 майдаги «Рақамли хизматлар қамрови ва сифатини ошириш ҳамда соҳа, тармоқ ва ҳудудларни рақамли трансформация қилиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-162 сонли Қарор, ҳамда мазкур фаолиятга тегишли барча меъёрий-ҳуқуқий хужжатлар соҳа ривожи учун ҳисса қўшишга хизмат қилади.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Туризм соҳасини инновацион ривожлантириш масалалари бўйича бир қатор иқтисодчи олимларимизнинг илмий ишларида ва тадқиқотларида ёритилган. Хусусан, Қ.Х.Абдурахмонов, М.Р.Болтабаев, И.С.Тухлиев, М.Т.Алимова, Е.В.Голышева, М.Қ.Пардаев, Б.Ш.Сафаров, С.А.Абдухамидов ва бошқаларнинг тадқиқотларида мазкур масалалар кенг ёритилган.

Тадқиқот методологияси. Тадқиқот иши давомида кузатиш, қиёслаш, тизимли таҳлил, эксперт баҳолаш каби усуллардан фойдаланилган.

Таҳлил ва натижалар. Бугунги кунда миллий иқтисодиётни бошқаришнинг ташкилий-иқтисодий механизмининг заиф бўғинларидан инновацион бошқарув механизми ҳисобланади. Бозор иқтисодиёти шароитида инновациялар иқтисодиётнинг интенсив ривожланишига ҳисса қўшиши, фан ва техниканинг энг сўнгги ютуқларини ишлаб чиқаришга жорий этишни жадаллаштиришни таъминлаши, истеъмолчиларни турли хил сифатли ва рақобатбардош маҳсулот ва хизматлардан тўғри қондириши лозим.

Бозор иқтисодиёти шароитида туристик ташкилотлар янги маҳсулот ва хизматларни ишлаб чиқиш зарурлигини ва улар билан боғлиқ иқтисодий фойдаларни тобора кўпроқ англаб етмоқда. Ўзининг ноёб табиий ва маданий салоҳияти туфайли мамлакатимиз туризм саноатини инновацион ривожлантириш учун барча асосларга ва имкониятларга эга.

Туристик ташкилотларнинг инновацион фаолиятига таъсир қилиш воситалари қуйидагилардан иборат:

- инновацион фаол ташкилотларга солиқ имтиёзларини бериш;
- махсус илмий-техникавий, солиқ-кредит ва молиявий сиёсатни амалга ошириш;
- туризм соҳасига маҳаллий ва хорижий инвестицияларни жалб қилиш учун қулай шарт-шароитлар яратиш,
- амортизация сиёсатини такомиллаштириш, ҳамда соҳани ривожлантиришнинг устувор йўналишларини белгилаш.

Туризм соҳасини инновацион ривожлантириш – бу фуқаролар, хизматлар истеъмолчилари ва давлат органлари, шунингдек, туризм ва инновацион фаолият соҳасидаги норматив ҳужжатлар билан тартибга солинадиган туристик фирмалар ва туризм саноати корхоналарини ўз ичига олган мураккаб жараёндир.

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январдаги “Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5611 сонли Фармони

[2] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш Консепсияси” ПФ-5611-сон Фармонига 1-сонли иловаси

[3] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 28 апрелдаги “Рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-4699-сон Қарори

Туризм соҳасини инновацион ривожлантиришнинг самарали методологиясини яратиш учун маълум бир туристик йўналишни ривожлантиришда тарихий ва маҳаллий шароитларни ҳисобга олган ҳолда, хизмат кўрсатиш соҳасига тегишли кўрсаткичларнинг бутун мажмуасини баҳолаш ҳамда уларни ҳар томонлама таҳлил қилиш, туризм ресурсларининг ҳолати ва тавсифини мукаммал тавсифлаш қуйидагиларни бажаришни талаб қилади.

Туризм индустриясининг инновацион ривожланиши – янги туристик маршрутлар, маҳсулотлар, хизматлар ва бошқаларни ишлаб чиқиш ва яратиш, фан техника, ИТ-технологиялар ютуқларидан, шунингдек, менежмент ва маркетинг соҳасидаги илғор тажрибадан фойдаланиш ҳамда уларни амалга оширилиши орқали аҳоли бандлигини таъминлаш, ижтимоий-иқтисодий ва туристик ривожланиш даражасини ошириш имконини бериш билан бир қаторда мамлакат ва минтақаларнинг жозибадорлик даражасини оширишга хизмат қилади.

Мамлакатимизнинг деярли барча ҳудудларида мавжуд бўлган ноёб табиий диққатга сазовор жойлар, бой тарих, шунингдек, етарлича ривожланган инфратузилма туризм соҳасини юксалишига асосдир. Юқоридаги барча афзалликларга эга бўлган туристик ҳудудлар мавжуд туризм ресурсларини тўлиқ ўзлаштиришдан олиш мумкин бўлган фойдани максимал даражада ошириш усулларини ва воситаларини аниқлашлари мақсадга мувофиқдир.

Туризмдаги инновацион фаолият янги маҳсулотни шакллантириш ёки мавжуд маҳсулотни ўзгартириш шунингдек, транспорт, меҳмонхона ва бошқа хизматларни яхшилаш, янги бозорларни ўзлаштириш, илғор ахборот ва телекоммуникация технологияларини жорий этиш ва ҳоказоларни мақсад қилиб қўяди.

Туризм соҳасининг ривожланишига турли тузилмалар, хусусан, маҳаллий ҳокимият органлари, давлат раҳбарияти, туризм ташкилотлари, туроператорлар, меҳмонхона хўжаликлари ва бошқаларнинг фаолияти даражаси ўзаро таъсир кўрсатади. Ушбу соҳанинг ривожланишидаги ижобий самара уларнинг комплекс мувофиқлаштирилган ҳаракатларига боғлиқдир.

Хулоса ва таклифлар. Шундай қилиб, туризмдаги инновациялар янги туристик маҳсулотни яратиш ёки мавжудларини такомиллаштириш, замонавий технологияларни жорий этиш, янги бозорларни ўзлаштириш, туризм бозорини тартибга солиш, замонавий маркетингни илгари суриш стратегиясини шакллантиришга қаратилган бўлиб, замонавий туризм бизнесининг зарур таркибий қисми ҳисобланади. Ҳозирги вақтда туризм хизматларини етказиб берувчиларнинг рақобатбардошлигини ошириш инновацион технологиялардан фойдаланиш қобилиятига боғлиқдир. Бундан ташқари, минтақада туризм соҳасини инновацион ривожлантиришда давлат томонидан қўллаб-қувватловчи чора-тадбирларни ишлаб чиқиш, ҳамда уларнинг ижросини таъминлаш муҳим аҳамиятга эга. Хусусан,

1. Ҳудудий ва маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг махсус мақсадли дастурлари ва ажратмаларини амалга оширишда давлатнинг бевосита иштирокини таъминлаш, ҳамда бюджет ҳисобидан молиялаштирилган ўз ишланмалари ва билимларини потенциал истеъмолчиларнинг кенг доирасига бепул тақдим этувчи йирик миллий марказларни шакллантириш мақсадга мувофиқ.

2. Туризм ва турдош соҳаларда илмий-тадқиқот ишларини амалга ошириш учун субсидиялар ва грантлар ажратиш.

3. Хусусий ташкилотлар ва жисмоний шахсларга илмий-техникавий ишланмалар учун қулай шарт-шароитларни яратиш, шунингдек, инвестиция имкониятларини ривожлантириш. Мисол учун, бу солиқ имтиёзлари, давлат кредитлари ва кафолатлари, давлатнинг ўз капиталидаги иштироки орқали молиялаштириш ва бошқалар бўлиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январдаги “Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5611 сонли Фармони

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш Концепцияси” ПФ-5611-сон Фармонига 1-сонли иловаси
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 28 апрелдаги “Рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-4699-сон Қарори
4. Tukhliev, I. S., & Abdukhamidov, S. A. (2021). Strategic planning processes in regional tourism in the digital economy. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 2(5), 22-27.
5. Tuxliyev, I. (2024). Yangi O ‘zbekistonda turizmning drayver sifatida barqaror rivojlanish yo ‘nalishlari.
6. Makhmudova, A., & Meyliyev, A. (2022). Modern approaches to improving the efficiency and quality of camping services and the practice of their application. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 3(3), 59-62.

А.Махмудова

Пути инновационного развития туризма

Аннотация. В данной статье представлен анализ путей инновационного развития туристической сферы и факторов, влияющих на ее развитие.

Ключевые слова: инновации, туристические организации, нематериальные активы, местные и иностранные инвестиции, привлекательные туристические продукты.

A.Makhmudova

Ways of innovative development of tourism

Abstract. This article provides an analysis of the ways of innovative development of the tourism sector and the factors affecting its development.

Keywords: innovation, tourism organizations, intangible assets, local and foreign investment, attractive tourism products.

Marjon Komilovna Sharifova – SamISI magistranti

ZIYORAT TURIZMINI STRATEGIK RIVOJLANTIRISH VA TAHLIL QILISH YO‘LLARI

Annotatsiya: Maqolada ziyorat turizmi industriya sifatida shakllantirish ziyorat xizmatlarni amalga oshirishning miqdoriy hajmini va ularning sifat tomonlarini, shuningdek ziyorat tadbirkorlik subyektlarning xizmat ko‘rsatish faoliyatining iqtisodiy o‘zgarishi darajasini aks ettiruvchi ma’lum iqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, ziyorat turizmi, tarixiy obidalar, ziyorat xizmatlari, turistik xizmatlar, industriya, strategik rivojlantirish.

Kirish. O‘zbekistonda turizm sohasidagi oliy ta’lim muassasalarining reytingi va raqotbardoshligini oshirishga, turizm industriyasining zamonaviy talablariga muvofiq raqobatbardosh malakali kadrlar tayyorlashga, ta’lim sifatini oshirishga, ta’lim jarayoniga investitsiyalar, innovatsiyalar va yuqori texnologiyalarni joriy qilish masalalariga alohida e’tibor berilmoqda. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida «2026-yilga turizm sohasida band bo‘lgan aholi soni 2 baravarga oshirib, 520 ming nafarga yetkazish»[1] vazifasi belgilangan. Bu borada YUNESKO ro‘yxatiga kiritilgan davlat turistik obyektlaridan ichki va kiruvchi turizmni rivojlantirishda keng foydalanish, sohaga investitsion mablag‘larni jalb qilishning “sinergetik samara beruvchi turli nisbatdagi kombinatsiyalarini qo‘llash, turizm sohasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, turizm sohasida xalqaro talablarga javob beradigan uzluksiz, ko‘p bosqichli ta’lim tizimini yaratish, turizm sohasidagi gid-tarjimon, ekskursiya yetakchisi va yo‘riqchi-yo‘l boshlovchilarning kasbiy malakasini sertifikatlashtirishni ham ko‘zda tutuvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashning sinergetik samara beruvchi tizimini yaratish masalalari yuzasidan ilmiy izlanishlarni yanada kengaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilishini taqozo qilmoqda.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonnig taraqqiyot strategiyasi to‘g`risida”gi PF-60-son Farmoni.

XX-acrning 70 yillaridan boshlab turizm ko‘proq olamshumul ko‘lam kasb etib bormoqda. Buning natijasida xalqaro ko‘lamli turizm bozori shakllandi. Bugun deyarli barcha mamlakatlar, jumladan, O‘zbekiston ham uning faol ishtirokchisiga aylanishga intilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ushbu soha bilan bog‘liq amaliy ishlar oxirgi yillarda misli ko‘rilmagan darajada jadallashmoqda.

Aytish joizki, inson ma’naviy kamolotining shakllanishida ziyoratgohlarga borish, tarixiy obidalarga tashrif buyurish muhim ahamiyatga egadir. Mamlakatimizda ko‘plab ziyorat turizmini rivojlantirish borasida qaratilayotgan e’tibor sifatida bir qancha tarixiy obidalarga obyektlari, shuningdek, Makka va Madina, nafaqat haj va umra ibodati ado etiladigan muqaddas maskan ekanidan, balki islom dini kesimidagi diniy turizmning bosh manzillariga aylangani ayni haqiqatdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda turizm sohasi eng yirik xizmat ko‘rsatish sohalaridan biriga aylanib bormoqda. Har qanday mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasidan qat’iy nazar turizmni rivojlantirishi mumkin. Shu bois, so‘nggi bir necha o‘n yilliklarda jahonda turizmning, shuningdek, qisqa muddatda yuqori daromad keltira oladigan sohalarning rivojlanish tendensiyasini kuzatishimiz mumkin. Ziyorat turizmi esa turizm sohasining eng rivojlanadigan yo‘nalishlaridan biridir. Ziyorat turizmi strategik rivojlantirish bo‘yicha bir qancha olimlar ilmiy-tadqiqotlar olib borishgan. Edvard Shils ziyoratlar va muqaddas joylarga sayohatlarni jamiyatga ta’siri nuqtai nazaridan tahlil qilgan. Donald M. Lyuis Hindistondagi ziyorat turizmini o‘rgangan. U o‘z tadqiqotlarida, ziyoratning folklor va madaniy aspektlariga, hamda uning insonlar orasidagi ijtimoiy aloqalarga qanday ta’sir ko‘rsatayotganiga to‘xtalib o‘tgan. Maykl R. Xall ziyorat turizmining psixologik, ijtimoiy va iqtisodiy ta’sirlarini o‘rgangan.

O‘zbekistondagi olimlar ham ziyorat turizmi sohasiga qiziqish bildirgan va bu mavzuda turli tadqiqotlar olib borgan. Ziyorat turizmining O‘zbekistondagi aspektlarini o‘rganishga qaratilgan ishlar asosan diniy va madaniy turizm, uning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy ta’sirlari bilan bog‘liq. N.Tuxliyev, I.S.Tuxliyev, M.Q.. Pardayev[1], B.N.Navro‘z-zoda, N. Ibragimov[2]. S.Abduhamidov, R.Hayitboyev va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada ziyorat turizmi strategik rivojlantirish va tahlil qilish borasida kuzatish, mantiqiy tahlil, nazariy tahlil, tizimli tahlil, sintez, abstraksiya, induksiya, deduksiya usullaridan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Milliy statistika tizimidagi 2017-2023 yillar oralig‘idagi Ziyorat turizm sohasining rivojlanish ko‘rsatkichlari tahlili o‘tgan 7 yil davomida sohaning jadal sur’atlar bilan rivojlanib borganligini ko‘rsatadi (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekistonda ziyorat turizm sohasining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar						
		2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
1	Mamlakat ichidagi turizm iste’moli, mlrd. so‘m	13576,2	14010,7	13772,5	16568,3	20561,3	27696,0	5271,2

[1] O’zbekiston Respublikasining O’RQ-549-sonli «Turizm to’g’risida»gi Qonuni. 2019 yil 18 iyul. O’zbekiston Respublikasi O’RQ-598-sonli «Investisiyalar va investisiya faoliyati to’g’risida»gi 3. O’zbekiston Respublikasining «Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to’g’risida»gi Qonuni 2021 yil 21 aprel. O’zbekiston Respublikasining «Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to’g’risida»gi Qonuni 2018 yil 18 aprel. O’zbekiston Respublikasining «2019-2025 yillarda turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi» O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2019 yil, 13 yanvar, 1-2 – son.Pardayev M.Q. va boshq. Xizmat ko’rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari. Monografiya.– T.: Iqtisodiyot-moliya, 2008.− 260 b. Pardayev M.Q. Ekologik turizm asoslari. – Toshkent: Navro’z nashriyoti, 2015. 95-b Pardayev M.Q., Atabayev R. Turizm resurslarni tahlil qilish va baholash

[2]Тухлиев И.С., Пардаев М.Қ. Туризм бозорининг шаклланиши, ривожланиши ва ўзига хос хусусиятлари. – Т.: «NOSHIRLIK YOG’DUSI», 2010. – 76 б. -4,6 б.т., Navruz-Zoda B., Ibragimov N. Ways of Applying Destination Management Concepts to the Development of Internal Tourism in Uzbekistan //International Tourism and Hospitality in the Digital Age.USA. – 2015. – 174-192 pp.

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar						
		2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
2	Ziyorat turizm sohasi tomonidan taklif etilgan xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m	6651,7	7203,8	7809,0	8261,9	8658,4	9333,8	8540,4
3	Ziyorat turizm sohasida band bo‘lgan aholi soni, ming kishi	185,0	188,4	170,9	187,6	201,0	230,5	189,2
4	Ziyorat turizm sohasi bilan bog‘liq xizmat ko‘rsatish sohalari faoliyat natijalari							
	Yashash va ovqatlanish xizmatlari, mlrd. so‘m	1118,7	1302,5	1502,5	1693,8	1823,9	1967,1	1690,2
	Madaniyat va san’at, mlrd. so‘m	354,6	373,5	414,7	439,3	547,8	655,8	624,5
	Tashish va saqlash, mlrd. so‘m	14052,3	14905,7	15725,5	17509,0	18713,4	19950,6	19520,2
	Savdo xizmatlari, mlrd. so‘m	12717,6	14095,8	15325,2	15483,6	16275,4	17429,9	17724,1

Ziyorat turizm samaradorligini oshirish imkoniyatini ochib berish, hamda ziyorat turizm faoliyatini baholash uchun xizmatlari samaradorligini ko‘rsatkichlarini ilmiy asoslash va ular uslubiyatini takomilashtirish yuqori iqtisodiy natija beradi (2-jadval).

2-jadval

Ziyorat turizm xizmatlari samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar

№	Ziyorat turizm xizmatlarini samaradorligi	Aniqlash tartibi	Ma’zmuni
1	Ziyorat turizmini tashkiliy-iqtisodiy samaradorligi	$K_{TIS} = \frac{\sum TIF}{MXF}$ K_{TIS}- Ziyorat turizmini tashkiliy-iqtisodiy samaradorligi $\sum TIF$- Ziyorat turizmini tashkiliy-iqtisodiy faoliyatining umumiy qiymati MXF-ziyorat turizmining meyoriy asosida xarajatlari	Ziyorat turizmini tashkiliy-iqtisodiy samaradorligi umumiy qiymatiga tog‘ri keladigan
2	Ziyorat turizmi obyektlaridan foydalangan samaradorligi	$K_{TOS} = \frac{\sum XET}{Xs}$ K_{TOS}- Ziyorat turizmi obyektlaridan foydalangan samaradorligi $\sum XET$ *−hajmi ziyorat xizmatlari hajmi som* Xs*-ziyorat obyektlar soni*	Bitta ziyorat turizmi obyektiga to‘g‘ri keladigan ziyorat xizmatlar hajmi
3	Ziyorat turizmini xizmat korsatish samaradorligi	$K_{XKS} = \frac{\sum XET}{ETs}$ K_{XKS}- Ziyorat turizmini xizmat korsatish samaradorligi ETs-Ziyorat belgilangan meyorlar asosida ko‘rsatilgan yuqori sifatli xizmatlar hajmi	1 so‘mlik hajmi ziyorat turizmi xizmatini keladigan sifatli xizmatlar hajmi
4	Ziyorat turizmini hajmi samaradorligi	$K_{OX} = \frac{\sum Det}{\sum XET}$ K_{OX}- Ziyorat turizmini hajmi samaradorligi $\sum DET$-ziyorat turizmidan olinadigan daromad,som	1 so‘mlik hajmi ziyorat turizmi oqimiga to‘g‘ri keladigan daromad

№	Ziyorat turizm xizmatlarini samaradorligi	Aniqlash tartibi	Ma’zmuni
5	Ziyorat turizmini xizmatlar rentabelligi	$R_{ET} = \frac{Fet}{\sum XET}$ R_{ET}-ziyorat turizmi xizmatlari rentabelligi Fet-ziyorat turizmidan olinadigan sof foyda	1 so‘mlik ziyorat turizmiga to‘g‘ri keladigan sof foyda
6	Ziyorat turizmini investitsiya samaradorligi	$K_{SI} = \frac{\sum Det}{\sum l}$ K_{SI}- -ziyorat turizm investitsiya samaradorligi $\sum Det$-ziyorat turizmidan olinadigan daromad $\sum l$-ziyorat turizmiga kiritiladigan jami invistisiya qiymati	1 so‘mlik ziyorat turizmi investesiya mablag‘lariga to‘g‘ri keladigan turistik tushum /daromad

Ziyorat turizmini samaradorligini oshirish bir qator xos yondashuvni talab etadi.Samarqand viloyatida ziyorat turizm xizmat ko‘rsatish turlarining o‘ziga xos xususiyatllari va rivojlanish tendensiyalari, ziyorat turizmi xizmatlar bozorini shakllantirish va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari, hamda ziyorat turizm xizmatlari samaradorligini oshiruvchi omillari va ulardan samarali foydalanish yo‘nalishlari bo‘yicha taklif va tafsiyalar ishlab chiqilgan. Ziyorat boshqa turlaridan alohida ajralib turadigan xususiyatiga ega. Samarqand viloyatida ziyorat sohasini rivojlantirish va samaradorligini oshirish imkoniyatlari mavjud.Samarqand viloyat ziyorat turizmi sohasi rivojlanish tendensiyasiga ega bo‘lib, koronavirus pandemiyasi ziyorat turizmi taraqqiyotgan 2020 yilda sezilarli salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Ziyorat turizm xizmatlaridan olingan daromad 2019 yilning o‘zining eng yuqori nuqtasiga erishib, 22,26 mlrd. s‘omni tashkil qilgan. Shu yo‘lda 70dan ortiq davlatlarga vizasiz rejimning joriy qilinishi, turizm modernizatsiyasi va monopoliyadan chiqarish bo‘yicha qilingan iqtisodiy islohotlarning natijasi sababli ushbu natijaga erishilgan. Samarqand viloyatining ziyorat maskanlarini rivojlantirish bo‘yicha sayyohlik imkoniyatlari juda xilma-xillikka boy. Ayniqsa, Respublikamizda ta’kidlash joizki ziyorat turizmi jahon iqtisodiyotida.

Ziyorat turizmi sohasi faoliyatining iqtisodiy samaradorligini tasniflovchi va rivojlantirish darajasini xarakterlovchi turli xil ko‘rsatkichlar orqali namoyon bo‘ladi Ziyorat turizmining ijtimoiy samaradorligini ish haftasi davomiyligini qisqartirish, yangi ish o‘rinlari sonini ko‘paytirish, mehnat va yashash sharoitlarni yaxshilash bilan ifodalaydi. Ziyorat turizmi korxonasidagi barcha tarkibiy bo‘linmalar samaradorligi kerakli darajada oshirish, bu umuman butun ekoturzm korxona samaradorligini kerakli darajada oshirish, bu umuman ziyorat turizmi korxona samaradorligini oshishiga olib keladi. Ziyorat korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish muammosi moxiyati har bir xarajat birligi uchun ko‘rsatilgan ziyorat xizmatlar hajmini yoki undan olingan foydani maksimal darajada oshirishga erishish bilan belgilanadi.

5-jadval

Samarqand viloyatida ziyorat turizm rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar dinamikasi[1]

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar					
		2018	2019	2020	2021	2022	2023
1.	Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot, ming so‘m X_1	4359,8	5279,8	6025,9	6922,0	8151,7	9597,7
2.	Xorijiy investitsiya lar (turizm sohasi bo‘yicha) ulushi, %da X_2	4,0	2,2	2,8	4,7	27,8	27
3.	Turizm sohasida band bo‘lgan xodimlar soni, kishi X_3	9762	9691	8575	10375	10716	5941
5.	Ziyorat turizmidan daromadlar, mlrd so‘m, Y	5,8	11,0	13,29	14,15	22,69	13,6

[1]Самарқанд вилояти статистика бошқармаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

Ziyorat turizmi industriya sifatida shakllantirish ziyorat xizmatlarni amalga oshirishning miqdoriy hajmini va ularning sifat tomonlarini,shuningdek ziyorat tadbirkorlik subektlarning xizmat ko‘rsatish faoliyatining iqtisodiy o‘zgarishi darajasini aks ettiruvchi ma’lum iqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimi bilan tafsiflanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz tadqiqot jarayonida erkli o‘zgaruvchilar (X) sifatida quyidagi omillarni oldik:

X_1 −Samarqand viloyatida aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot, ming so‘m;

X_2 −Samarqand viloyatida xorijiy investitsiya lar ulushi;

X_3 −Samarqand viloyatida turizm sohasida faoliyat yurituvchi xodimlar soni;

X_4 −Samarqand viloyatida atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar;

Y − Samarqand viloyatida ekoturizmdan olingan daromadlar.

Bunda biz quyidagi ko‘p omilli regressiya tenglamasi orqali Y va X o‘rtasidagi bog‘lanishni matematik modellashtirishimiz mumkin:

$$\boldsymbol{Y = b + v_1X_1 + v_2X_2 + v_3X_3 + v_4X_4 + ye} \quad (2.1);$$

Bu yerda α −ozod had, $\beta_1, \beta_2, \beta_3, \beta_4$ −tegishli koeffitsiyentlar, ε −xatolik.

Ziyorat turizmni rivojlantirishda, ayniqsa, uni rejalashtirishda prognoz qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, turizm bugungi kunda eng daromadli sohalardan biri sifatida tan olinmoqda. Shu jihatdan ko‘pchilik davlatlar tomonidan turizmni rivojlantirish borasida bir qancha dasturlar ishlab chiqilmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini oshirishda turizm sohasi ham katta imkoniyatlarga ega. Asosan, xalqaro turizmni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar natijasida ziyorat turizmi mamlakatimizda yetakchi sohalardan biriga aylanadi.

Fikrimizcha, turistik majmualar faoliyatini boshqaruv amaliyotida rivojlanish holatini baholovchi usullardan foydalanishda turistik majmualarning faoliyat ko‘rsatish tendensiyalari va qonuniyatlarini tahlil qilish, hamda boshqaruv strategiyalari tamoyillari asosida uning raqobatbardoshligini oshirish zarurligi baholanadi.

Barqarorlik – turistik majmua faoliyatining natijadorligidan, raqobatbardosh salohiyatini amalga oshirishdan, raqobatbardoshlik esa – turistik majmualarning ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish quvvatlaridan samarali foydalanish, hamda raqobatbardosh turistik mahsulotlarni ishlab chiqarishdagi imkoniyatini belgilashdan iborat bo‘lganligi uchun, bu tushunchalarning birga qo‘shilishini hisobga olish, turistik majmuaga o‘z raqobatbardoshligini oshirishning optimal strategiyasini shakllantirish imkonini beradi.

М.Шарифова

Пути стратегического развития и анализа паломнического туризма

Аннотация: В статье описана система некоторых экономических показателей, отражающих количественный объем реализации паломнических услуг и их качественные аспекты, а также уровень экономического изменения сервисной деятельности субъектов паломнического предпринимательства, для формирования паломнического туризма как индустрия.

Ключевые слова: туризм, паломнический туризм, исторические памятники, паломнические услуги, туристические услуги, промышленность, стратегическое развитие.

M.Sharifova

Ways of strategic development and analysis of pilgrimage tourism

Abstract: The article examines the quantitative and qualitative aspects of monitoring the implementation of a pilgrimage route, the formation of pilgrimage tourism as an industry, as well as a system of economic indicators for the development of services to business entities.

Keywords: tourism, pilgrimage tourism, historical monuments, pilgrimage services, tourist services, industry, strategic development.

КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК

Умар Худайбердиев – СамИСИ доценти, и.ф.н.

ОИЛА МУНОСАБАТЛАРИДАГИ МУАММОЛАР ВА УЛАРНИНГ ЕЧИМЛАРИ

Аннотация. Мақолада мамлакатда никоҳ қайд этишлар ва никоҳдан кейинги ажралишлар ҳолати, уларнинг сабаблари, оиладаги муаммолар ва уларнинг ечимлари ёритилган.
Калит сўзлар: Оила, никоҳларни қайд этиш, олийгоҳлар, рўзғор, никоҳдан кейинги ажралишлар, оила муқаддас, меҳр, оқибат.

Кириш. Инсонлар жуфт яратилган. Бу жуфтликни эркак ва аёл ташкил этиб -оила дейилади. Оила муқаддас даргоҳ бўлиб, унда оила аъзолари ҳар бирининг бурчлари, вазифалари бордир. Аввало, оила эркак ва аёлнинг ихтиёрийлиги, эркин розилиги асосида никоҳ орқали расмийлаштирилади. Никоҳ фуқаролик ҳолати далолатномаларини қайд этиш органларида тузилади. Ўзбекистон республикаси Оила кодексига мувофиқ никоҳ ёши экраклар ва аёллар учун 18 ёш этиб белгиланган. Оила муносабатлари турли-туман бўлиб, булар энг аввало, эр ва хотин муносабатларидан бошланади. Йигит ва қиз бир-бирини ўрганиб, ўзаро ҳурматда, бир-бирига меҳрибонликда бўлиб, севги-муҳаббат занжири билан боғланган бўлса яхши, оила мустаҳкам бўлади. Оиланинг мустаҳкам бўлишига қайнонанинг таъсири ҳам катта. Қайнона уй юмушларини келинга аста – секинлик, мехрибонлик билан ўргатиб борса, келин маълум муддат ўтгач бу юмушларни кўнгилдагидек бажара бошлайди. Акс холдачи? Қайнона келиннинг ҳар бир ҳаракатидан нуқсон қидирса, уни камситса, шахсига, ота-онасига тегадиган хақоратомуз сўзлар айтса. Бундай пайтда қайнона-келин муносабатлари чигаллашади. Оила муносабатларига ота-оналар, қариндошлар, дўстлар, маҳалла ҳам таъсир кўрсатади.

Тадқиқот методологияси. Ушбу тадқиқотда мантиқий фикрлаш, мушоҳада қилиш, миқдор ва сифат, таҳлил усулларидан фойдаланилди.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Оила муносабатлари, унинг ҳолати ва ўзгариши, оилавий тадбиркорлик масалалари олимлар томонидан ўрганилган, монографиялар, тавсиявий қўлланмалар чоп этилган. Бу борада айниқса, муаллифлар жамоаси томонидан тайёрланган ва ёш оилалар учун энциклопедик қўлланма сифатида чоп этилган “Ҳаёт ктоби” (3) муҳим аҳамият касб этади. Бу қўлланмада қиз ва йигитларни оилага тарбиялаш, севги – муҳаббат, никоҳ тузиш тартиби, эр ва хотиннинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари, ҳомиладорлик ва фарзанд тарбияси, оилавий муносабатлар, оила хўжалигини юритиш каби жуда кўп саволларга ҳаётий мисоллар билан жавоб ёзилган. Бу қўлланма ҳар бир оилада бўлиши ва яхши ўрганилиши лозим. Қудратов Ғ.Х., Пардаев М.Қ., Худайбердиев У., О.М. Пардаевлар томонидан тайёрланган “Оилавий корхона иқтисодиёти” монографиясида (4) оилавий тадбиркорлик, оила бюджетини юритиши, мустаҳкам оилани таъминловчи омиллар ёзилган. Г.М. Шодиеванинг “Оила хўжалиги фаровонлигини ошириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари” монографиясида (5) оила хўжалигининг даромадларини кўпайтириш йўллари билан оила фаровонлигини таъминлаш масалалари баён қилинган. Мақолада оиланинг асоси бўлган никоҳни қайд этишлар ва никоҳдан кейинги ажралишлар ҳолати, сабаблари, оиладаги бундай муносабатлардаги муаммолар ва уларнинг ечимлари баён қилинган.

Таҳлил ва натижалар. Оила муносабатларининг ҳолатини аниқлаш учун никоҳга қайд этиш ва никоҳдан кейинги ажралишларни ўрганиш лозим бўлади.

Ўзбекистонда қайд этилган никоҳлар сони (минг бирлик)

№	Кўрсаткичлар	Йиллар					2023 йил 2010 йилга нисбатан,%
		2010	2020	2021	2022	2023	
1	Қайд этилган никоҳлар сони	292,3	296,8	305,2	296,7	283,8	97,1

Жадвал маълумотларидан кўриниб турибдики, 2023 йил давомида 283,8 минг

бирлик никоҳ қайд этилган. Бу кўрсаткич 2010 йилдагидан 8,5 минг бирликка кам яъни 97,1 фоизга тенг.

2023 йил қайд этилган никоҳлардан 139,7 минг бирлиги (49,2%)шаҳар жойларида, 144,1 минг бирлик (50,8%) қишлоқ жойларига туғри келади. Қайд этилган никоҳларнинг энг катта қисми 81,3 фоизи ёши 25 ёшгача бўлган аёлларга тўғри келади.

Ўрганишлар никоҳлар сонининг камайиши ва ёшнинг катталашувига сабаблар кўплигини, лекин асосийлари қуйидагилар эканлигини кўрсатади:

Биринчидан, 2016 йилгача ёшларни ўрта мактабларни ва коллежларни битирувчиларининг 8,0-9,0 фоизи олийгоҳларга қабул килинар эди. Ҳозирги пайтда ёшларнинг 40,0 фоиздан кўпроғи олий ўқув юртларига қамраб олинмоқда. Натижада, қизларнинг ота-оналари қизим турмушда қийналиб қолмасин (ҳам рўзғор, ҳам ўқиш, ҳомиладорлик кабилар) деб, қизларини олийгоҳнинг охирги курсида ёки битиргандан кейин турмушга беришга розилик бермоқда. Йигитлар эса олийгоҳни тамомлаб, ишга жойлашиб, даромадли бўлгандан кейин уйланишни мақул кўришмоқда.

Иккинчидан,ёшлар Қозоғистон, Россия ва бошқа чет давлатларга бориб ишлаб, даромад қилиб, кейин уйланаман деган фикрда 2-3 йил ишлаб қолиб кетмоқда.

Ўзбекистонда қайд этилган никоҳдан кейинги ажралишлар сони (минг бирлик)

№	Кўрсаткичлар	Йиллар					2023 йил 2010 йилга нисбатан,%
		2010	2020	2021	2022	2023	
1	Никоҳдан кейинги ажралишлар	17,8	28,2	39,3	48,7	49,2	276,4

Жадвал маълумотларига асосан, 2023 йилда қайд этилган никоҳдан кейинги ажралишлар сони 49,2 минг бирликни ташкил этиб, 2010 йилга нисбатан -2,7 баробарга кўпайган. Улардан 29,9 минг бирлик шаҳар аҳолисига тўғри келиб, 60,7 фоизни ташкил этади. Ажрашганларнинг 19,3 минг бирлиги яъни 39,3 фоизи қишлоқ аҳолисига тўғри келади. Никоҳдан кейинги ажрашганларнинг ўртача ёши эркакларда 37 ёш, аёлларда эса 33 ёшга туғри келмоқда.

Никоҳдан кейинги ажралишлар сони бўйича аҳолиси кўп ҳудудлар олдиндадир. 2023 йилда Тошкент шаҳрида 6169 киши ажрашган бўлиб, 2,1 промиллени ташкил этади. Худди шундай Фарғона вилоятида -5773 киши-1,4 промилледа, Андижон вилоятида 5480 киши 1,6 промилледа, Тошкент вилоятида – 4826 киши, 1,6 промилледа.

Ажралишларнинг ҳам сабаблари кўп. Уларнинг асосийлари қуйидагилардир:

- йигит ва қизларнинг бир-бирини тўлиқ ўрганмасдан, ота-оналар ташаббуси билан турмуш қуриш. Бундай ҳолларда улар бир-биримизнинг характерларимиз тўғри келмади деб ажралишадилар;
- йигитларнинг уйлангандан кейин, даромад топиш учун чет элларга ишлашга кетиб, ойлаб, йиллаб келмасликлари, оиладан хабар олмасликлари;

Қишлоқ аҳолисининг шаҳар аҳолисига нисбатан ажралишлар камроқ бўлиши ўзига хос сабаблар билан боғлиқ. Биринчидан, қишлоқ аҳолиси узоқ вақтлар бир жойда яшаб, оилалар бир-бирларини яхши билишади. Ота-оналар ҳам, қиз ва йигитлар ҳам бир-бирини яхши билишади. Натижада, бир-бирига муносиблари оила қуришади. Иккинчидан, қизлар ҳам, ўғил болалар ҳам қишлоқда ҳаётга тайёр бўлишади. Чунки, қизлар урф-одат бўйича ўзлари бажарадиган юмушлар: овқат пишириш, идиш-товоқ ювиш, уйни тозалаш, кир ювиш каби ишларни тўлиқ мустақил бажаришга тайёр бўлишади. Йигитлар ҳам уйларни енгил таъмирлаш, уй ҳайвонларига қараш, томорқадан фойдаланиш сирларини ўрганган бўлади. Шаҳарларда эса ёшлар кўпинча турли ўйинлар, дискотекалар каби жойларда танишади. Қизларга яхши кийинган, келишган, сўзга чечан йигитлар ёқади. Йигитларга ҳам яхши кийинган, чиройли қизлар ёқади. Бундай танишув, “усти ялтироқ, ичи қалтироқ” дегандек, оила қуришганидан кейин, турмушнинг айрим “мушт”ларига чидолмасдан ажралишга тушишади. Чунки, бундай ёшлар оила қуришга тўлиқ тайёр бўлмайдилар.

Хулоса ва таклифлар. Халқимизда “Сабр қилсанг етарсан муродга” деган мақол бор. Бу мақол бежизга айтилмаган, маъноси жуда чуқур. Оила қурган ёшлар турмушининг

айрим қийинчиликларини сабр билан, бир – бирини қўллаган ҳолда, меҳрибонлик билан енгишлари лозим.

Ҳозиргача ҳам ёшларнинг хоҳиш-иродаларини инобатга олмасдан, ота-оналар қизларини турмушга узатаётган, йигитларни уйлантираётганлар бор. Бу борада ота-оналар ёшларнинг бахтли оила қуришларини ўйлаб, уларнинг ҳохишларини, кўнгилларини инобатга олишлари лозим.

Қариндошлар ўртасида оила қуришнинг тиббиётда салбий таъсири исботланган. Лекин, қариндошлар ўзаро мустаҳкам бўлишлари учун оила қурадиганлар учраб туради. Бундай муносабатларга чек қўйиш лозим.

Оила қураётган ёшлар масъулиятни ҳис қилишлари лозим. Улар ота-оналар, маҳалла, ватан олдида масъулиятлидирлар. Оила қурган ёшлар ўз ота-оналарини ҳурмат-иззат қилишлари, уларга меҳрибонлик кўрсатишлари керак. Маҳалла ва Ватан олдидаги бурчлари ҳам, Ватанга садоқат билан ишлаб, унинг ҳар томонлама ривожига муносиб ҳисса қўшишлари керак бўлади.

Оиланинг инсоният олдидаги масъулияти ҳам бор. Бу масъулият ҳар томонлама етук, соғлом, баркамол фарзандларни тарбиялашдир. Ҳозирги пайтда ёшларга билим олиш, спорт билан шуғулланиш каби барча имкониятлар яратилиб, Учинчи Ренесанс пойдевори яратилмоқда. Бу имкониятлардан самарали фойдаланиб, бўлажак Буюк инсонларни тарбиялаши лозим бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси Т: “Адолат” 2024
2. Ўзбекистон Республикаси Оила кодекси 2024
3. Ҳаёт китоби: Ёш оилалар учун энциклопедик қўлланма Т: “Шарқ”, 2011 й.272 б.
4. Қудратов Ғ.Ҳ ва бошқалар. Оилавий корхона иқтисодиёти Т: “Иқтисодиёт”, 2012 й.
5. Шодиева Г.М. Оила хўжалиги фаровонлигини ошириш: муаммолар ва уларнинг ечими Т “Фан” нашриёти, 2016
6. www.stat.uz

У.Худайбердиев

Проблемы в семейных отношениях и их решения

Аннотация: В статье описано состояние регистрации браков и разводов в стране, их причины, семейные проблемы и пути их решения.

Ключевые слова: семья, регистрация браков, университеты, средства существования, разводы, семья священна, любовь, последствия.

U.Khudayberdiev

Problems in family relationships and their solutions

Abstract: The article describes the state of registration of marriages and divorces in the country, their causes, family problems and ways to solve them.

Keywords: family, marriage registration, universities, livelihood, divorce, family is sacred, love, consequences.

Акрам Одилович Очилов – заведующий кафедрой экономики Каршинского государственного университета, доктор экономических наук, профессор, академик Академии наук Туран,

Жаббор Махмудович Суюнов – докторант Каршинского государственного университета

КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В РЕГИОНАХ

Аннотация: В данной статье рассматриваются критерии функционирования субъектов предпринимательства в среде сферы услуг в регионах. В ней отражены вопросы повышения эффективности деятельности субъектов предпринимательства в сфере услуг, размышления отечественных и зарубежных экономистов о развитии субъектов предпринимательства в сфере услуг, критерии оценки их деятельности, а также взгляды автора по данной проблеме.

Ключевые слова: предпринимательство, бизнес, субъекты предпринимательства, развитие предпринимательства, прибыль, бизнесмен, малый бизнес, предприниматель, экономика, сфера услуг, ресурс, частная собственность, конкуренция, рынок, доход.

Введение. Проводимые в нашей стране быстрые реформы создали основу для развития всех секторов экономики, в том числе и деятельности субъектов предпринимательства в регионах. Необходимость совершенствования механизмов развития деятельности субъектов предпринимательства, исходя из внутренних возможностей нашей страны, остается актуальной. Существует ряд нерешенных проблем в исследовании путей повышения эффективности деятельности субъектов предпринимательства в сфере услуг в регионах.

В условиях модернизации экономики и повышения благосостояния населения повышение эффективности деятельности субъектов предпринимательства в сфере услуг является одной из ключевых задач, стоящих сегодня перед экономикой страны. В частности, крайне важно определить перспективы повышения эффективности деятельности субъектов предпринимательства в сфере услуг, которая признана основной движущей силой собственности, совершенствовать организационно-экономические механизмы, разрабатывать научно обоснованные предложения и практические рекомендации в этой области. Это обусловлено тем, что развитие субъектов предпринимательства играет важнейшую роль в совершенствовании рыночных отношений, дальнейшей либерализации экономики, стабилизации государственного бюджета, увеличении производства валового внутреннего продукта (ВВП), решении таких актуальных вопросов, как обеспечение занятости. Создание определенных условий для развития данной сферы, введение налоговых, таможенных и иных льгот по платежам, а также эффективное использование банковских кредитов привели к устойчивому росту числа субъектов предпринимательства за короткий период. В то же время нерешенность вопросов повышения эффективности деятельности субъектов предпринимательства в сфере услуг, в частности, выявления и анализа показателей эффективности, подчеркивают особую актуальность данной темы исследования.

Анализ изученных литератур. Существует множество научных трудов как отечественных, так и зарубежных экономистов, посвященных развитию предпринимательских субъектов в сфере услуг и критериям оценки их деятельности. Теоретические основы и социальное значение малого бизнеса и частного предпринимательства изучались такими экономистами, как А. Смит, Дж. Б. Сэй, Дж. М. Кейнс, И. Шумпетер, А. В. Чаянов, К. А. Райцкий, И. А. Журавлева, А. П. Киселев и др., которые внесли вклад в развитие теории малого бизнеса и частного предпринимательства.

За годы независимости учеными нашей страны также проводились различные научные исследования по данной теме. В частности, следует отметить исследования С.С. Гуломова [1], Г. Х. Кудратова [2], Ё. Абдуллаева [3], Особого упоминания заслуживают М.С. Косимовой [4], М.К. Пардаева [5] и другие.

Сегодня процессы реформирования и модернизации экономики в социально-экономической жизни нашей страны направлены на дальнейшее развитие сферы услуг. Доля этой сферы в валовом внутреннем продукте, в составе занятого населения, в налогах, уплачиваемых в государственный бюджет, в создании новых рабочих мест, в наполнении внутреннего рынка товарами народного потребления резко возрастает. Создана нормативно-правовая база, обеспечивающая сохранение этой тенденции и в будущем.

Методы исследования. Данное исследование направлено на изучение теоретических и методологических основ конкурентоспособной системы управления субъектами предпринимательства в сфере услуг в регионах. Для этого рассматриваются следующие вопросы: – критерии и деловая среда деятельности субъектов предпринимательства в сфере услуг; – функции и особенности малого предпринимательства в сфере услуг; – институциональная среда и внедрение инноваций на основе эффективных субъектов предпринимательства как важные условия развития предпринимательства в Республике Узбекистан. Формирование и дальнейшие перспективы конкурентоспособной системы управления субъектами предпринимательства в Республике Узбекистан имеют большое значение для развития общества, и как таковые по праву стали одними из самых актуальных вопросов, привлекающих внимание многих исследователей в области экономики.

Анализ и результаты. Как известно, обеспечение ускоренного развития предпринимательской деятельности в Республике Узбекистан, укрепление гарантий защиты и неприкосновенности частной собственности, устранение бюрократических барьеров на пути развития предпринимательства, улучшение инвестиционной и деловой среды, предоставление большей свободы предпринимателям, кардинальное сокращение вмешательства государственных органов в их деятельность, предотвращение правонарушений обозначены в качестве основных приоритетов государственной политики и первоочередных задач государственных органов по дальнейшему развитию предпринимательской деятельности. В связи с этим в настоящее время наблюдается высокая востребованность исследований, направленных на изучение формирования и перспектив конкурентоспособной системы управления субъектами предпринимательства в Узбекистане.

Для выяснения критериев и условий ведения предпринимательской деятельности субъектов сферы услуг в настоящем исследовании соблюдается логическая последовательность: сначала научно обоснована сущность понятий предпринимательской деятельности и бизнеса, затем проведен анализ особенностей предпринимательской деятельности в стране в рамках действующего законодательства. Наконец, на основе теоретической интерпретации и принципов экономической систематизации дано научно-методологическое обоснование процесса управления предпринимательскими структурами сферы услуг, а также представлен новый подход к социально-экономическому значению сферы услуг. 17 апреля 2018 года уважаемый Президент Узбекистана издал Постановление № 1957 «О дополнительных мерах по ускоренному развитию сферы услуг и сервиса в сельской местности в 2018-2021 годах», на основании которого 19 апреля 2018 года хоким области принял Постановление № 92-К. Кроме того, была разработана и утверждена «Программа ускоренного развития сферы услуг и сервиса в сельской местности Андижанской области на 2018-2021 годы», что подтверждает вышеизложенный пункт.

В результате доля сферы услуг в валовом внутреннем продукте (ВВП) страны достигла 52% в 2018 году и 53% в 2019 году, что свидетельствует о позитивных тенденциях в экономике. Однако в развитых странах этот показатель составляет 60-70% ВВП, а это значит, что сфера услуг в Узбекистане должна развиваться более быстрыми темпами по сравнению с другими секторами.

Дальнейшее развитие сферы услуг будет способствовать повышению благосостояния населения. Теоретические вопросы, связанные с эффективностью деятельности субъектов предпринимательства в сфере услуг, коренятся в экономической природе и сущности предпринимательской деятельности и ее результатах. Поэтому в процессе исследования мы стремились дать всестороннее объяснение содержания и сущности предпринимательской деятельности.

В современной экономической литературе и правовых документах широко используются такие термины, как «Предпринимательство», «Предприниматель», «Бизнес» и «Бизнесмен». Понимание их значения и сущности позволяет более четко понимать малый бизнес и частное предпринимательство.

Понятие «предпринимательство» в энциклопедическом словаре описывается как «предпринимательство – (англ. enterprise) – самостоятельная деятельность граждан, направленная на получение личного дохода и прибыли. Эта деятельность осуществляется под собственным именем, под свою имущественную ответственность и юридическую ответственность». Предприниматель определяется как человек, способный заниматься всеми видами экономической деятельности, не запрещенными законом, включая посредническую, торговую, консультационную и деятельность с ценными бумагами. Иными словами, предпринимательство – это экономическая деятельность, которая предполагает человеческий фактор, посредством интеллектуальных усилий, направленных на достижение индивидуальных целей посредством хозяйствования.

Результаты предпринимательской деятельности возникают с формированием частной собственности и имущественных отношений, которые получили развитие и стали более заметными в становлении современного бизнеса, характеризующегося экономической свободой.

Предпринимательство – это социально-экономическое явление, охватывающее общественные отношения, в том числе правовые, психологические, организационные, экономические и исторические аспекты. Бесценными ресурсами для развития предпринимательства служат непреходящие труды наших великих предков, передаваемые из поколения в поколение. Формирование экономической мысли в Центральной Азии тесно связано с именами таких великих мыслителей, как Фараби, Аль-Хорезми, Аль-Фергани, Абу Али ибн Сина, Абу Райхан Беруни, Юсуф Хас Хаджиб, Алишер Навои, Захириддин Мухаммад Бабур и другие, которые в своих трудах уделяли большое внимание роли экономики и предпринимательства в обществе. Предпринимательство – период расцвета деловой активности напрямую связан с именем Амира Темура (1336–1405). В «Уложении (Кодексах) Темура» он описал «торговцев и предпринимателей» как один из столпов управления обществом, создав все необходимые условия для предпринимателей и бизнесменов под его правлением и защищая их посредством государственной поддержки. Предприниматели и бизнесмены получали привилегии и почести за свои усилия. Амир Тимур ценил преданных и инициативных людей, и его предпринимательский подход в управлении служил образцом на протяжении почти семи столетий.

По его собственным словам, Амир Тимур писал в своих кодексах: «Из своего опыта я узнал, что то, чего не могут достичь сто тысяч кавалеристов, может быть достигнуто с помощью одной правильной стратегии».

Первоначально деятельность предпринимателей не была предметом научных исследований. Английские экономисты Адам Смит (1723-1790) и Давид Рикардо (1772-1823) рассматривали экономику как саморегулирующийся механизм, не оставляющий места для творческого предпринимательства. В своей книге «Богатство народов» (1776) Адам Смит сосредоточился на определении предпринимателя. По его мнению, предприниматель – это владелец капитала, который реализует коммерческую идею и идет на риск, чтобы получить прибыль, поскольку инвестирование капитала всегда сопряжено с риском. Смит считал, что прибыль, полученная от предпринимательства, является вознаграждением за принятие личных рисков. Предприниматели планируют, организуют и контролируют результаты производства. По этой причине Смит считал, что центральным механизмом рыночной системы является конкуренция. Каждый человек, преследующий свои собственные интересы, встречается с другими людьми с такими же целями на рынке, и в конечном итоге каждый участник рынка соглашается на цены, установленные его конкурентами. В такой конкуренции производители, которые устанавливают слишком высокие цены, рискуют потерять клиентов. По мнению Смита, предприниматели производят товары, которые общество хочет покупать в необходимых количествах. Он также продемонстрировал мощную силу рынка, показав, что он постоянно снабжает общество необходимыми товарами и способен к саморегулированию. Смит был против вмешательства государства в вопросы конкуренции и доходов, полагая, что саморегулируемая рыночная система ведет к росту и богатству людей.

Другая точка зрения возникла с экономической теорией, основанной Дж. М. Кейнсом (1883-1946), который частично критиковал более ранние теории. Он отметил, что экономическая теория содержит два течения: «регулируемую экономику» и «свободное предпринимательство». Бизнес относится к работе или деятельности. С точки зрения экономического управления бизнес – это экономическая деятельность, система проведения операций или система управления производством и услугами, которая осуществляется владельцами собственности, организующими производство и продажу товаров и услуг.

Бизнес – это система организации производства, направленная на производство полезных продуктов и предоставление услуг. В исторических источниках мало информации о том, когда, кем и при каких обстоятельствах впервые было использовано понятие «бизнес». Учитывая происхождение термина из английского языка, мы могли бы признать Великобританию его родиной. В качестве дополнительных доказательств мы можем сослаться на промышленную революцию и экономические, социальные и политические события, произошедшие в Великобритании в XVIII и XIX веках.

Заключение и предложения. В нашем понимании, бизнес – это деятельность,

направленная на получение прибыли за счет инициативы и риска, использования собственных или заемных средств и принятия ответственности за результаты. Малый бизнес – это хозяйствующие субъекты, которые работают в меньших масштабах, с ограниченным числом работников, определенным законом, и способны быстро адаптироваться к изменениям в экономике.

Под объектом предпринимательства в первую очередь понимается предприятие, которое создает возможности для определенных видов деятельности. К ним относятся: предпринимательство в сфере производства; предпринимательство в сфере услуг; торговое предпринимательство; финансовое предпринимательство.

Предпринимательство материализуется в форме произведенных товаров (оказанных услуг) и соответствующего полученного дохода. Доход является основным критерием оценки предпринимательской деятельности, поскольку он зависит от эффективного использования всех факторов, вовлеченных в бизнес. Первоначально предпринимательство выявляет возможности в определенной сфере, а затем для предпринимателя решающее значение приобретают новые отношения с ресурсами.

Авторы считают, что для развития предпринимательской деятельности в регионах необходимо выполнять следующие задачи:

1. Организовать массовое обучение населения основам малого бизнеса и предпринимательства.
2. Желающим ответственным предпринимателям выдавать льготные кредиты и регулярно провести мониторинг эффективности.
3. Развитие сельско-хозяйственной кооперации и кластеров.
4. Создание сервиса «правительство для бизнеса».
5. Создание региональной дорожной карты развития малого бизнеса и предпринимательства.
6. Организация и проведение непрерывных международных и республиканских конференций и симпозиумов при участии с опытными предпринимателями регионов и т.д.

Список использованной литературы:

1.G‘ulomov S.S.Tadbirkorlik va kichik biznes. – T.: “Sharq” nashriyoti, 2002. – 365 bet.
2. Qudratov F.X., Pardaev M.K., Abdukarimov B.A. Xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish – aholi bandligini ta’minlash va farovonlikni oshirish omili. – T., “Fan va texnologiya”, 2007. – 16 bet.
3. Abdullayev Y., Karimov F. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. 100 ta savol va 100 ta javob (1-qism). – T.: “Mehnat”, 2000. – 347 bet.
4. Qosimova M.S., Xodiev B.Yu., Samadov A.N., Muxitdinova U.S. Kichik biznesni boshqarish. – T.“O‘qituvchi”, 2003. – 239 bet.
5. Pardaev M.D., Isroilov J.I. Xususiy korxona faoliyatini tahlil qilishning nazariy va uslubiy masalalari (monografiya). – T.,“Fan va Texnologiya”, 2007. – 163 bet.

A.Ochilov, J.Suyunov

Hududlarda tadbirkorlik subyekitlari faoliyatini baholash mezonlari

Аннотация: Ushbu maqolada hududlarda xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik subyektlarining faoliyat ko‘rsatish mezonlari haqida so‘z boradi. Unda xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik subektlari faoliyati samaradorligini oshirish masalalari, mahalliy va xorijiy iqtisodchilarning xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik subektlarini rivojlantirish bo‘yicha fikrlari, ularning faoliyatini baholash mezonlari, shuningdek, mazkur muammo bo‘yicha muallifning qarashlari o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik, tadbirkorlik, xo‘jalik yurituvchi subyektlar, biznesni rivojlantirish, foyda, ishbilarmon, kichik biznes, tadbirkor, iqtisodiyot, xizmat ko‘rsatish sohasi, resurs, xususiy mulk, raqobat, bozor, daromad.

A.Ochilov, Zh.Suyunov

Criteria for assessing the activities of business entities in the regions

Abstract: This article examines the criteria for the functioning of business entities in the service sector in the regions. It reflects issues of increasing the efficiency of business entities in the service sector, thoughts of domestic and foreign economists on the development of business entities in the service sector, criteria for assessing their activities, as well as the author's views on this issue.

Keywords: entrepreneurship, business, business entities, development of entrepreneurship, profit, businessman, small business, entrepreneur, economy, service sector, resource, private property, competition, market, income.

Шавкат Собирович Олтаев – СамИСИ доценти, и.ф.н.

КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИНИНГ ЭКСПОРТ САЛОҲИЯТИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Аннотация: ушбу мақолада замонавий шароитда Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятини оширишнинг инновацион йўллари ўрганилган. Шунингдек, кичик бизнес субъектларини экспорт салоҳиятини иқтисодиёт тармоқлари кесимида, экспорт ва инновация жараёнларини ўзаро мувофиқ ҳолда, йўлга қўйиш асосида такомиллаштириш йўллари таклиф қилинган.

Калит сўзлар: рақамли иқтисодиёт, рақамли технология, глобаллашув, рақобатбардошлик, инновация, экспорт салоҳияти, тадбиркорлик.

Кириш. Ўзбекистон Республикаси иқтисодиётининг глобаллашуви ва бозор муносабатларини такомиллаштиришнинг амалдаги босқичи, экспорт салоҳиятига боғлиқдир. Миллий иқтисодиётимиз рақобатбардошлигини ошириш ва инновацион ривожланиш омилларидан самарали фойдаланиш тизимини оптималлаштириш орқали, иқтисодий ислоҳотлар самарадорлигининг ортиши, ишлаб чиқариш субъектларининг бозор фаолиятини мувофиқлаштириш жараёнларига устуворликни ошириш мақсадга мувофиқдир.

Бу борада, “мамлакатимиз иқтисодиётининг экспорт салоҳиятини кўпайтиришда, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик фаолияти муҳим роль ўйнайди ва бу соҳада уларни ташқи бозорларга бемалол чиқа олишлари учун ҳамда ўз маҳсулотларини экспорт қила олишлари учун имконият яратиш, бугунги кунда иқтисодиётимиз олдидаги муҳим вазифаси эканлигини” Президентимиз Ш.М.Мирзиёев айтиб ўтган эдилар[1].

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Хориж олимларидан Е.Л.Емелянованинг фикрига кўра: “кичик бизнес корхоналарини қўллаб-қувватлаш асосида йирик халқаро кўргазмалар ва ишбилармонлик миссиясини ташкиллаштириш, йирик ва кичик бизнес фаолияти ўртасида ҳамкорлик ўрнатиш, маслаҳат ва ахборот марказларини ташкил қилиш ва ҳ.к.” мумкин[2]. Ўзбекистон олимларидан проф. М.Қ.Пардаевнинг илмий ишларида оилавий хўжалик юритиш шаклларининг объектив зарурлиги, моҳияти ва хусусиятлари очиб берилган[3]. Р.А.Содиқованинг фикрига кўра “Кичик тадбиркорлик - бозор хўжалигининг муҳим таркибий қисми ва оммавий субъект базаси ҳисобланиб, у ўзига хос бўлган рақобат механизмининг ажралмас қисми ҳамдир”[4].

Тадқиқот методологияси. Тадқиқот ишида тизимли таҳлил, мантиқий фикрлаш, иқтисодий-статистик умумлаштириш, таҳлил ва синтез, индукция ва дедукция, статистик ҳамда омилли таҳлил усулларидан фойдаланилди.

Таҳлил ва натижалар. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январь ПФ-60 сонли фармонларига кўра, республиканинг экспорт салоҳиятини ошириш орқали 2026 йилда “Республика экспорт ҳажмларини 30 млрд. АҚШ долларига етказиш ва хусусий секторнинг экспортдаги улушини 60 % га етказиш, экспортчи корхоналар фаолиятини, мавжуд имкониятларини тўлиқ ишга солган ҳолда, республика экспорт салоҳиятини ривожлантириш” назарда тутилган[1]. Буларга сабаб қилиб ушбу жараёнда бир қатор камчиликлар мавжудлигини кўрсатиб ўтиш лозимдир:

биринчидан, ишбилармонлик ва инновация муҳитининг бугунги ҳолати, қисқа муддатларда кичик бизнеснинг инновацион фаолиятини юқори даражасига эришиш учун имкониятнинг етарли эмаслиги;


иккинчидан, кичик бизнеснинг экспорт салоҳиятини оширишда, инновацион лойиҳаларни етарли даражада ишлаб чиқаришга жорий этиш йўлга қўйилмаганлиги;

учинчидан, кичик корхоналар учун янги технологияларни жорий этишда, юзага келиши мумкин бўлган рискларни олдини олиш тажрибасини етарли эмаслиги;

тўртинчидан, кичик бизнес субъектлари томонидан инновацион лойиҳаларни йўлга қўйишда хусусий ресурсларини таклиф қилувчи молиявий институтлари бозорини мавжуд эмаслиги ва шу кабилар.

Юқоридагиларни ҳисобга олган ҳолда, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг потенциал имкониятлари ва ундаги шарт-шароитларидан тўлақонли фойдаланиш имкониятларини ҳисобга олган ҳолда, республика иқтисодиётида ушбу фаолият йўналишларига алоҳида устуворлик берилмоқда[1].

Шу билан бирга мамлакатимизда инновацияларни жорий этган корхоналар сони йилдан-йилга ўсиб бораётганлигини кўришимиз мумкин. Масалан, 2010 йилда бундай корхоналарнинг сони 156 та бўлган бўлса, 2019 йилга келиб, 3753 тага етган. Пандемиягача бўлган вақт ичида инновация билан шуғулланган корхоналар сони кўпайиб борган, 2021 йилда эса, 2974 га тушиб кетган.



1-расм. Ўзбекистонда инновация кўрсаткичлари динамикаси (инновациялар бажарган корхона ва ташкилотлар сони), бирлик

Кўрсаткичлар таҳлили шуни кўрсатдики, кичик корхоналар сони билан жорий этилган инновацияларнинг сони деярли тенг, бу ўртача битта корхона йил давомида битта инновацияни амалга оширганлигини билдиради. Жорий қилинган инновациялар сони пасайишининг асосий сабаби, 2021 йилдаги глобал пандемия таъсирида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик натижалари ҳам пасайиб кетганлигидан далолатдир [6].

Инновацияларга харажатларни молиялаштириш манбалари таркибида энг катта салмоқ корхонанинг ўз маблағларига (2021 йилда 73,8 %), тижорат банкларининг кредитларига (14,3 %) тўғри келган [6].

Мамлакат экспорт салоҳиятини оширишда саноатни инновацион ривожлантириш, аввало, юксак технологиялар тармоқларни ривожлантириш зарур. Анъанавий тарзда юқори технологик тармоқлар деб шундай тармоқларга айтиладики, тармоқ маҳсулоти бўйича илм-фанга йўналтирилган харажатлар улуши камида 4,5-5 фоизни, юқори илмталаб тармоқларда эса 10 % дан ортиқни ташкил этади.

Бу жараён Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 майдаги “Фаол тадбиркорлик ва инновацион фаолиятни ривожлантириш тўғрисида”ги ПҚ-3697 сонли қарорида атрофлича акс этган бўлиб, мамлакатимизда инновацион тадбиркорликни оммалаштириш ишларини самарали ташкил этиш жараёни тизимлаштирилган[5].

Кичик фирма маҳсулотнинг кенг ассортиментини ишлаб чиқариш шароитида бир қатор афзалликларга эга бўлиб, улар алоҳида истеъмолчиларнинг эҳтиёжларини ҳисобга олиш заруратига мос келади, бу эса кичик партияларни ишлаб чиқаришда, ишлаб чиқарувчи ва истеъмолчи ўртасидаги яқин алоқаларни талаб қилади.

Кичик корхоналар, риск даражаси юқори бўлган фаолиятнинг барча соҳаларида, масалан, савдоси беқарор бўлган тармоқларда устунлик қилади. Кафолатланган барқарор сотиш бўлмаса, ишлаб чиқариш ҳажми сезиларли тебранишларга дучор бўлади, бу эса капитални кўп талаб қиладиган йирик тармоқларни яратишга ва уларнинг режали ишлашига тўсқинлик қилади. Савдо ҳажми кенг миқёсда ўзгариб турса, йирик ишлаб чиқариш қувватларига эга компания, ҳатто тўлиқ қувватда ишлаб чиқариш юқори самарадорликка эга бўлса ҳам, кичикроқ ва мослашувчан фирмадан устунликка эга эмас. Кичик ихтисослашган ишлаб чиқариш ёки савдо фирмалари ишлаб чиқариш даражаси, уларнинг опера-

цион харажатлари юқори бўлса ҳам, тебранишларга тезроқ мослаша олади деб ўйлаймиз.

Бизнингча, кичик бизнес рақобатбардошлиги кенг кўламли эндоген ва эгзоген омилларнинг узлуксиз таъсири остида шаклланади. Эндоген омиллар корхонанинг ўзига боғлиқ бўлиб, унинг рақобатбардошлигини сақлаб қолиш ва мустаҳкамлаш қобилиятини ифодалайди. Бу соҳа вакиллари томонидан инновацияга бўлган эътиборнинг кучайиб бораётганлигидан дарак беради.

Хулоса ва таклифлар. Хулоса қилиб шуни айтганда, ҳозирда мамлакатимизда инновацион фаолиятни ривожлантиришда кичик бизнес имкониятларидан фойдаланиш, ҳудудлардаги иқтисодий сиёсатнинг муҳим йўналишларидан бирига айланган. Булар эса, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни потенциал имконияти сифатида экспорт салоҳиятини оширишга ёрдам беради.

Шу ўринда қуйидаги таклифларни беришни лозим деб топдик:

биринчидан, инновацион ишлаб чиқариш ўз тавсифига кўра юқори риск даражасини намоён этиши керак;

иккинчидан, кичик бизнес корхоналарида амалга оширилаётган инновацион ишлаб чиқаришнинг аҳамияти улар фаолият кўламига боғлиқ равишда у қадар катта бўлмаслиги ва бунинг натижасида лойиҳа сифатида йирик инвесторларни ўзига жалб этмаслиги лозим;

учинчидан, жорий этилаётган инновациялар олинадиган молиявий натижани тўлиқ ўзлаштириши керак.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида 2022 йил 28 январь, ПФ-60-сон https://lex.uz/docs/5841063.
2. Емельянова Е.Л. Малый бизнес в экономике самарских муниципалитетов https://businesspress.ru/newspaper/article_mId_3_aId_382766.html nomer 21 (541) ot 07.06.2006.
3. Пардаев М.Қ. Ҳар бир оилада тадбиркорлик – ўзини ўзи банд қилиш имконияти. Самарқанд, СамИСИ, 2018 й. 240 б.
4. Содиқова Р.А. (2008) и.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Ўзбекистон иқтисодиётини модернизация қилиш шароитида кичик бизнесда рақобат муҳитини шакллантириш. -Т.:2008 й.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Фаол тадбиркорлик ва инновацион фаолиятни ривожлантириш тўғрисида”ги 2018 йил 5 майдаги ПҚ-3697 сонли қарори: //lex.uz/docs/3723272.
6. Ўзбекистонда кичик тадбиркорлик. Статистик тўплам 2023 йил, 187 бет. www/stat.uz.

Ш.Олтаев

Пути повышения экспортного потенциала малого бизнеса и частных предприятий

Аннотация: в данной статье исследуются инновационные пути повышения экспортного потенциала субъектов малого бизнеса и частного предпринимательства в современных условиях Узбекистана. Также были предложены пути повышения экспортного потенциала субъектов малого предпринимательства в разрезе отраслей экономики на основе налаживания взаимосовместимых экспортных и инновационных процессов.

Ключевые слова: цифровая экономика, цифровые технологии, глобализация, конкурентоспособность, инновации, экспортный потенциал, предпринимательство.

Sh.Oltaev

Ways to increase the export potential of small businesses and private enterprises

Abstract: This article examines innovative ways to increase the export potential of small businesses and private entrepreneurship in Uzbekistan in modern conditions. It also proposes ways to improve the export potential of small businesses across economic sectors, based on the coordination of export and innovation processes.

Keywords: digital economy, digital technology, globalization, competitiveness, innovation, export potential, entrepreneurship.

МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ

Sanjarbek Komiljon o‘g‘li Boyjigitov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Marketing” kafedrasi dotsenti v.b., PhD

BOZOR MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA ISTE’MOLCHILARNING SODIQLIGIDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada bozor mexanizmlarini takomillashtirish jarayonida iste’molchilarning sodiqligidan samarali foydalanish usullari ko‘rib chiqilgan. Iste’molchilar sodiqligi bozor barqarorligi va korxona raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Maqolada sodiqlik dasturlarini joriy etish, mijozlarning ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish, mahsulot va xizmatlarni personalizatsiya qilish, brend imidjini mustahkamlash hamda sifatli xizmat ko‘rsatishni rivojlantirishning turli strategiyalari tavsiya qilingan. Shuningdek, mijozlarning fikr-mulohazalarini inobatga olish va onlayn-oflayn xizmatlarni birlashtirishning ahamiyati ta’kidlangan. Bu yondashuvlar orqali korxonalar iste’molchilar bilan uzoq muddatli hamkorlik o‘rnatib, bozorni samarali rivojlantirishi mumkinligi asoslab berilgan.
Kalit so‘zlar: bozor, marketing, iste’molchi xulq-atvori, iste’molchilar sodiqligi, bozor mexanizmlari.

Kirish. Bozor mexanizmlarini takomillashtirishda iste’molchilar sodiqligidan foydalanish bozorni yanada barqaror va samarali qilishga yordam beradi. Iste’molchilar sodiqligi, ularning mahsulot yoki xizmatlarga doimiy ravishda qiziqish bildirishi va ishonchli mijoz sifatida qabul qilinishi, korxona uchun muhim strategik ahamiyatga ega.

Zero, bozor mexanizmlarini tashkil etish, ishlab chiqish, loyihalash va takomillashtirish kelajakda erishish mumkin bo‘lgan daromad va foydani ko‘zlangan holda amalga oshirishi juda muhim hisoblanadi. Bunda asosiy masala bozor mexanizmlarini takomillashtirish, tashkil etish va loyihalash jarayonida iste’molchi xulq-atvori modelining ahamiyati juda muhimdir. Qolaversa, bozor mexanizmlarini tashkil etish va takomillashtirish masalalari hukumat oldidagi asosiy jarayonlardan biridir. Tadqiqotimiz obyekti hisoblangan don va un mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarning faoliyatini takomillashtirish va ular o‘rtasida raqobat sharoitida bozor mexanizmlarini joriy etish doimiy dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023 yil 28 dekabrdagi “Iste’mol bozorlarida asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining barqarorligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-217-sonli Farmonida ham aynan oziq-ovqat mahsulotlari narxlari barqarorligini ta’minlash yuzasidan vazifalar belgilab berilgan. Aynan ushbu farmonda keltirilgan vazifalarni bajarish maqsadida hukumatning ham qarori ishlab chiqilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 11 iyundagi “2024-yil hosilidan bug‘doy xarid qilish va ichki bozorda narxlar barqarorligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida ham g‘alla bozorini erkinlashtirish bo‘yicha islohotlarni davom ettirish, ichki bozorni bug‘doy va un mahsulotlari bilan uzluksiz ta’minlash hamda ularning narxlari barqarorligini saqlash maqsadida 2024-yil hosilidan sug‘oriladigan maydonlarning har gektaridan o‘rtacha 2,5 tonnadan jami 2 mln 550 ming tonna bug‘doyning 1 mln 513 ming tonnasini fermer xo‘jaliklari hamda boshqa bug‘doy yetishtiruvchilar tomonidan keyinchalik birja savdolarida sotish uchun Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasining tijorat vakilida vaqtinchalik saqlash, 837 ming tonnasini tovar bug‘doy davlat resursi sifatida va 200 ming tonnasini urug‘lik uchun Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan xarid qilish belgilab olindi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tadqiqot natijasida bozor mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlari o‘rganildi.

MDH olimalaridan biri И.Н.Дементьева o‘zining izlanishlarida iste’molchi xulq-atvorini o‘rganishdagi nazariy-metodogik yondashuvlar, iste’molchilarning xulq-atvori iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillari ekanligi, iste’mol talabi iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishi, “iste’molchilarning xulq-atvori” markaziga iste’molchilarning daromadlari va shaxsiy xohish-istaklarini hisobga olgan holda, turli xil tovarlar va xizmatlarga bo‘lgan talabni shakllantirish jarayonini muhim omil hamda tizim sifatida o‘z fikrlarini ilgari suradi [1].

Yana bir olimning bozor va iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishda iste’molchi xulq-atvori va sodiqligi muhim omil sifatida o‘z qarashlarini ilgari suradi. В.Г.Васильев o‘zining o‘quv qo‘llanmasida iste’molchi xulq-atvorini ijtimoiy-iqtisodiy muhitdagi o‘zgarishlarni aks ettiruvchi hudud aholisining iste’molchi hatti-harakati ham inson kapitalini takror ishlab chiqarish sifatiga ta’sir qiluvchi muhim omil ekanligini ta’kidlaydi. Qolaversa, “iste’molchi xulq-atvori” tushunchasi juda ko‘p hodisa va jarayonlarni qamrab olishi, eng umumiy shaklda ko‘rib chiqilayotgan toifa odatda “mahsulot va xizmatlarni olish, iste’mol qilish va yo‘q qilishga qaratilgan faoliyat” deb tushunish mumkinligini ta’kidlaydi [2].

Bundan tashqari О.А.Громова [3] va А.А.Карманова [4] tomonidan ham bozor mexanizmlarini takomillashtirishda iste’molchilarning sodiqligidan foydalanish yo‘llari va imkoniyatlari ilmiy ishlarida yoritib berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotni amalga oshirish va ilmiy natijalarga erishishda ilmiy izlanishlar olib borilib, adabiyotlar tahlili, statistik tahlillar, dinamik qatorlar imkoniyatlari, bozor mexanizmlarining turlari, iste’molchi xulq-atvori modellari va iste’molchilar sodiqligi xususiyatlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Sotsiologik yondashuvga ko‘ra, iste’molchi xulq-atvori - unda faoliyat ko‘rsatuvchi ijtimoiy subyektlar (iste’molchilar) faoliyati, manfaatlar, ijtimoiy guruhlar va qatlamlarning hatti-harakatlari va o‘zaro ta’siridan kelib chiqadigan va muayyan tarixiy va ijtimoiy sharoitlarga bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy jarayon. Ijtimoiy-psixologik model iste’molchi xulq-atvorini ijtimoiy xulq-atvorning alohida holati sifatida ifodalaydi, uning tartibga soluvchilari bozor munosabatlari ishtirokchilarining qadriyatlari, munosabatlari, his-tuyg‘ulari va kayfiyati, bilish jarayonlari hisoblanadi. Marketing mutaxassislari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda iste’molchi hatti-harakati mahsulotni qidirish, tanlash, to‘lash, undan foydalanish, shuningdek, iste’molchining tanlovning to‘g‘riligini baholash bilan bog‘liq harakatlar majmui sifatida qaraladi. Bizning fikrimizcha, iste’molchi xulq-atvori murakkab hodisa bo‘lib, iqtisodiyot, siyosat, sotsiologiya va psixologiya, marketing, iqtisodiy nazariya va menejment nuqtai nazaridan har tomonlama o‘rganishni talab qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iste’mol muammolarini o‘rganish ijtimoiy nuqtai nazardan yondashish va birinchi navbatda aholi va demografiya nazariyasi bilan to‘ldirilishi kerak.

Quyida bozor mexanizmlarini takomillashtirishda iste’molchi sodiqligidan foydalanish mumkin bo‘lgan asosiy yo‘llar keltirilgan (1-jadval):

1-jadval

Iste’molchi sodiqligidan foydalanish mumkin bo‘lgan asosiy yo‘llar [5]

№	Foydalanish yo‘llari	Foydalanish mazmuni va komponentlari
1.	Sodiqlik dasturlarini joriy etish	• bonuslar va chegirmalar: don va un mahsulotlarini doimiy xarid qilgan mijozlar uchun maxsus chegirmalar yoki mukofot tizimini joriy etish ularni brendga bog‘liq qilish; • ballar tizimi: xaridlar orqali yig‘iladigan ballar keyinchalik chegirmalarga yoki sovg‘alarga aylantirilish (sovg‘a sifatida undan tayyorlanadigan mahsulotlari). • kompaniya a’zoligi: eksklyuziv takliflar, imtiyozlar yoki xizmatlar bilan ta’minlanadigan sodiqlik klublarini tashkil etish.
2.	Iste’molchilarni tadqiq qilish va ularning ehtiyojlarini qondirish	• mijozlar ehtiyojlarini aniqlash uchun so‘rovnoma, tahlil va ma’lumot yig‘ish mexanizmlarini rivojlantirish; • mahsulot yoki xizmatni mijozlar talablariga moslashtirish orqali ularning sodiqligini oshirish.
3.	Brend imidjini mustahkamlash	• mijozlar brendga bo‘lgan ishonchini oshirish uchun korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) dasturlarini amalga oshirish; • sifatli mahsulot va xizmatlarni barqaror ta’minlash.
4.	Personalizatsiya	• har bir mijozning ehtiyojlarini hisobga olgan holda shaxsiylashtirilgan takliflar va xizmatlarni taklif qilish. • Big Data va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda un mahsulotlari mijozlari hatti-harakatlarini prognoz qilish.

5.	Onlayn va oflayn xizmatlarni birlashtirish	• raqamli platformalar va do‘konlar o‘rtasida un va don mahsulotlarini sotish bo‘yicha muvofiqlikni yaratish; • tezkor va qulay xarid qilish imkoniyatlarini taklif etish.
6.	Mijozlarning fikr-mulohazalarini inobatga olish	• mijozlardan kelgan sharh va takliflarga e’tibor qaratib, un va undan keying tayyorlanadigan mahsulotlarni rivojlantirish; • mijozlarning qoniqish darajasini kuzatib borish va ularga javob berish.
7.	Mijozlar bilan uzoq muddatli munosabat-larni rivojlantirish	• doimiy ravishda aloqada bo‘lish, mijozlarni yangiliklar va aksiyalar haqida xabardor qilish; • doimiy mijozlarga maxsus takliflar va tadbirlar taklif qilish.
8.	Jamoatchilik bilan ishlash (PR) va marketing	• samarali reklama va marketing tadbirlari orqali iste’molchilar e’tiborini tortish; • bozor mexanizmlarini sodiqlik asosida rivojlantirish uchun mijozlar bilan bog‘liq tarixiy natijalarni ommalashtirish.
9.	Xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish	• mijozlar ehtiyojlariga tezkor javob beradigan xizmatni taklif etish; • xodimlarni mijozlar bilan ishlash bo‘yicha doimiy ravishda o‘qitish.

Iste’molchilarning sodiqligi orqali bozor mexanizmlarini takomillashtirish nafaqat mijozlarni saqlab qolishga, balki ulardan doimiy daromad manbai sifatida foydalanishga yordam beradi. Shu bilan birga, bozorda raqobatbardoshlikni oshirish uchun ham bu strategiyalar samarali bo‘lishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot davomida olib borilgan izlanishlar natijasida don va un mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

1. Korxona va xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar bonuslar, chegirmalar, ballar tizimi yoki eksklyuziv imtiyozlar asosida mijozlarga yo‘naltirilgan sodiqlik dasturlarini ishlab chiqish. Bu esa un mahsulotlariga bo‘lgan talab hajmi va iste’mol hajmini oshiradi.

2. Uzoq muddatli sodiqlikni rag‘batlantirish uchun mijozlar uchun individual va foydali takliflar joriy etish. Bunda ozuqabopligi yuqori mahsulot assortimentlarini ishlab chiqarish masalalarini bajarish lozim.

3. Muntazam so‘rovnomalar, mijoz fikrlari va ma’lumotlar tahlili orqali iste'molchilarning ehtiyoj va istaklari asnosida yangi ecotizim yaratish.

4. Sifatli mahsulot va xizmatni barqaror ravishda ta’minlash, shuningdek, korxonaning ijtimoiy mas’uliyatli faoliyatiga e’tibor qaratish. Korxonaning brend imidji va vizualizatsiyasini qayta ko‘rib chiqish.

5. Iste’molchilar bilan oson aloqani ta’minlash uchun raqamli platformalar (saytlar, mobil ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar) orqali xizmat ko‘rsatishni joriy etish. Bunda marketconsul.uz platfotmasini ishga tushurish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Дементьева И.Н. Теоретико-методологические подходы к изучению потребительского поведения. *Проблемы развития территории • ВЫП. 1 (93) • 2018, с 122-132*

2. Васильев В.Г. Поведение потребителей [Текст]: учеб. пособие / В. Г. Васильев. – М.: Вузовский учебник, 2004. – 240 с. 4.

3. Громова О.А. Социально-психологические критерии типологии потребительских групп [Текст]: автореф. дис. … канд. психол. наук / О. А. Громова. – М., 2001. – 29 с.

4. Карманова А.А. Потребительское поведение: теоретико-методологические основания изучения [Текст] / А. А. Карманова, Л. П. Пискунова // Вопросы управления. – 2012. – № 3 (20). – С. 25–46.

5. Tadqiqot natijasida muallif ishlanmasi.

С.Бойжигитов **Пути использования лояльности потребителей для совершенствования рыночных механизмов**	**S.Boyjigitov** **Ways to use consumer loyalty to improve market mechanisms**
Аннотация. В данной статье рассматриваются методы эффективного использования потребительской лояльности в процессе совершенствования рыночных механизмов. Лояльность потребителей является важным фактором повышения стабильности рынка и конкурентоспособности предприятий. В статье рекомендуются различные стратегии внедрения программ лояльности, углубленного анализа потребностей клиентов, персонализации продуктов и услуг, укрепления имиджа бренда, развития качественного сервиса. Также была подчеркнута важность учета отзывов клиентов и объединения онлайн и офлайн-сервисов. Благодаря этим подходам предприятия могут наладить долгосрочное сотрудничество с потребителями и эффективно развивать рынок.	**Abstract.** This article examines ways to effectively use consumer loyalty in the process of improving market mechanisms. Consumer loyalty is an important factor in increasing market stability and enterprise competitiveness. The article recommends various strategies for implementing loyalty programs, in-depth analysis of customer needs, personalization of products and services, strengthening brand image, and developing quality service. It also emphasizes the importance of taking customer feedback into account and integrating online and offline services. It is argued that through these approaches, enterprises can establish long-term cooperation with consumers and effectively develop the market.
Ключевые слова: рынок, маркетинг, потребительское поведение, потребительская лояльность, рыночные механизмы.	**Keywords:** market, marketing, consumer behavior, consumer loyalty, market mechanisms.

Нилуфар Абдуазизовна Рахимова – СамДАҚИ “Бизнесни бошқариш” кафедраси докторанти

ЗАМОНАВИЙ ТАШКИЛОТЛАРДА БОШҚАРУВ ТУЗИЛМАЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ ВА ТУРЛАРИ

Аннотация. Мазкур мақолада замонавий ташкилотларда ташкилий тузилмаларнинг ўрни, вазифалари ва таснифи таҳлил қилинган. Бошқарув тузилмаларни таҳлил қилишнинг ўзига хос ёндашуви таклиф қилинган. Чизиқли, функционал, матрицали, дивизионал, лойиҳавий ва тармоқли тузилмаларнинг афзаллиги ва камчилиги ёритиб берилган.

Калит сўзлар: тизим, тузилма, ишлаб чиқариш тузилмалари, ташкилий тузилма, ижтимоий тузилма, марказлашган тузилмалар, марказлашмаган тузилмалар.

Кириш. Бугунги кунда тўғри танланган бошқарув тузилмалари корхона муваффақиятининг муҳим элементи ҳисобланади. Чунки, бошқарув тузилмалари корхонанинг схематик тарздаги таркиби, иш тақсимланиши, назорат доираси, ижрочиларнинг аниқ кимга бўйсунишини яққол кўрсатиб беради. Янги Ўзбекистонни стратегик ривожлантириш шароитида бошқарув тузилмаларини таккомиллаштириш муаммолари албатта долзарб ва устувор мақсадга айланган. Бошқарувни такомиллаштиришда бошқа омиллар ичида илм-фан алоҳида туради ва барча жараёнларни ўзгартириб туради. Шу билан бирга замонавий корхоналарда ташкилий тузилмаларни самарадорлигини ошириш ва янги талабларга мослаштириш аҳамиятлидир.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2024 йил 17 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги ҳамда унинг тизимидаги ташкилотлар тўғрисидаги низомларни тасдиқлаш ҳақида”ги 214-сон Қарори билан қурилиш соҳасида давлат бошқарувини такомиллаштириш чоралари кўрилган бўлиб, Ўзбекистон Республикаси Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги ва унинг ҳудудий бошқармалари, Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Республика архитектура-шаҳарсозлик кенгаши ва унинг жойлардаги бўлинмалари, Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги соҳасида назорат қилиш инспекцияси ва унинг ҳудудий бўлимларининг Низомлари билан ушбу органларининг функциялари ва вазифалари белгиланган. Ушбу

Низомлар юқоридаги бошқарув органларининг ташкилий тузилмаларини тасдиқлашга асос бўлган. Мамлакатимиздаги 40 мингга яқини қурилиш саноати корхоналари ва ташкилотларининг самарали ташкилий тузилмаларини яратиш бугунги кун муаммоларидан ҳисобланади.

Мавзу бўйича адабиётлар таҳлили. Менежмент назариясида ташкилий тузилмаларнинг тутган ўрни, функциялари ва вазифалари кўплаб олимларнинг ишланмаларида акс эттирилган, жумладан Виханский, О. С.[1], Мескон М. Х., Альберт М., Хедоури Ф. [2], Герчикова И.Н. [3], Котова Л. Р. [4], Парахина В.Н. [5] ташкилий тузилмалар таърифи ва моҳияти, бошқарув тизимида ташкилий муносабатларга боғлиқлиги ёритиб берилган.

Қурилиш ташкилотларида бошқарувнинг ташкилий тузилмаларини ривожлантириш муаммоларига бағишланган тадқиқотлардан Белобородов Р.С. [6], Лыткина Ю.А. [7], Мухаметзянов З.Р. [8], Randolph Thomas,M, John M. Keating ва Allen C. Bluedom J. [9], Казиева Ж.Н., Махмудов М.К. [10], Zhelikhovskiy D. O., Beliakov S. I. [11] каби олимларнинг изланишларини эътироф этиш лозим. Шу билан бирга қурилиш корхоналари ва ташкилотлардаги бошқарув фаолиятининг хусусиятлари ва уларнинг тузилмаларга бўлган таъсири ушбу изланишларда ўз ечимини охиригача топмаганлиги тадқиқотимиз долзарблигини тасдиқлайди.

Тадқиқот методологияси. Илмий изланишларни олиб боришда фанда умумэътироф этилган тадқиқот усулларидан, ҳусусан индуктив, дедуктив ёндашув, назарий таҳлил, тизимли ёндашув каби усулларидан фойдаланилган.

Таҳлил ва натижалар. Ташкилотларнинг тузилмалари бошқарувда тизимли-функционал ёндашувининг асосий бўғинларидан ҳисобланади. Умумий тарзда ташкилотнинг бошқарув тузилмаси ундаги ишлаб чиқариш, ташкилий, иқтисодий ва ижтимоий муносабатлар тартиби ва даражасини кўрсатишга қаратилади. Шунга асосан тузилмалар бир қанча вазифаларни бажариши кўзда тутилади:

- Ташкилотдаги расмий муносабатларнинг мазмунини ёритиб бериш. Айнан, тузилмада ташкилотнинг бўғинлари ва поғоналари орасидаги муносабатлар моҳиятини кўриш ва таҳлил қилиш мумкин;
- Ташкилотда бошқарув шаклини очиб бериш. Тузилманинг расмий кўриниши бошқарувнинг марказлаштириш даражаси, индивидуал ва жамоавий бошқарувларнинг ўрни, бошқарув кадрларининг ваколат доираси кўрсатилади;
- Тузилмада ҳар бир бўлинма ва ходимнинг ўзига хос ўрнини аниқлаштириш. Ташкилотда вазифалар ва мажбуриятларнинг тақсимланиши, масъулиятнинг юклатилиши тузилмада яққол намоён бўлади;
- Бошқарув фаолиятини ташкилотнинг ишлаб чиқариш ва хўжалик фаолиятига мослаштириш. Бозор иқтисодиётида ҳар қандай ташкилот хўжалик субъекти сифатида танилади, шунинг билан тузилмада хўжалик вазифаларини бажариш устунлиги сақланиб қолади;
- Бошқарув самарадорлигини ошириш. Ушбу вазифа тузилмани доимий такомиллаштириш, яъни ундаги бўғинлар сонини оптималлаштириш ва улар орасидаги алоқаларни аниқлаштириш орқали амалга оширилади.

Ташкилотларнинг хилма-хиллиги уларнинг тасниф қилиш тамойиллари ва тартибига ўзига хос талабларни қўяди. Кенг тарқалган тасниф белгилари бўйича бошқарув тузилмалари қуйидаги турларга бўлинади:

а) Тузилмалар бошқарув вазифаларининг тақсимланиши ва иерархик бўйсуниш тамойилига кўра: чизиқли, функционал, матрицали, дивизионал, лойиҳавий ва тармоқли тузилмалар ва уларнинг бирикмалари ажратилади. Ушбу тузилмаларнинг мазмуни ва бошқарувдаги аҳамияти менежментга оид адабиётларда кенг ёритилган ҳамда бошқарув амалиётида муваффақиятли қўлланиб келинмоқда. Қурилиш ташкилотларида ташкилий тузилмаларни қўллаш доирасини белгилаш учун уларнинг ижобий ва салбий жиҳатларини таҳлил қилиш лозим.

Бошқарув тузилмаларининг чизиқли (марказлашган) шакли тўғридан-тўғри иерархик бўйсуниш тамойилига мос бўлиб, ташкилий ҳуқуқ ва мажбуриятлар юқоридан

пастга йўналтирилган бўлади, функциялар ажратилмайди ва бошқарув ихтисослашуви кузатилмайди. Чизиқли тузилмаларнинг қурилишда кенг тарқалиши уларнинг соддалиги, қарорларнинг тезкор ва аниқ бўлиши ҳамда назоратнинг осонлиги билан изоҳланиши мумкин. Уларнинг салбий томонларига автократик муносабатларнинг ривожланиши ва қарорлар сифатининг пастлигини киритиш мумкин [12].

Функционал тузилмалар тамойилларининг ўзига хослиги, улар бошқарувнинг юқори поғоналарида қўлланишига сабаб бўлмоқда. Ижобий томонларига ҳар бир бўлимнинг алоҳида бошқарилиши ва қарорларнинг юқори сифати, оптималлашувини киритсак, салбий томонларига эса бошқарувчиларнинг кўплиги, низо ва зиддиятларнинг кўпайиши ва коллаборациянинг нисбатан пастлигини айтиб ўтишимиз лозим.

Матрицали тузилмалар программага ўхшаш бўлиб, бир неча бошлиқлар томонидан бошқарилади. Маьлумотларнинг очиқ алмашиниши туфайли инновацион товарлар яратилади, товарлар самарали ишлатилинада лекин камчиликларидан зиддиятнинг жуда кучлилигини ва бажарилаётган ишнинг хаосга айланишини киритиш мумкин.

Дивизионал кўп поғонали тузилма бўлиб, алоҳида дивизионлар ташкил қилинади, халқаро компаниялар томонидан кўп фойдаланилади. Бу тузилманинг афзаллиги унинг бозор ўзгаришларига мослашувчанлиги бўлса, бир ишнинг такрорланиши унинг салбий томонлари ҳисобланади.

Тармоқли тузилма очиқ алоқаларга асосланган тузилма бўлиб, тўрга ўхшаш схема шаклига эга ва диверсификацион корхоналарга мос ҳисобланади. Бозор тизимига мослашувчан ва бошқаришга кетадиган харажатларнинг камлигига қарамасдан, бошқарувнинг қийинлиги ва менежерларнинг юқори билим кўникмаси талаб этилади.

б) Тузилмаларнинг мазмуни ва ўрни бўйича таҳлил қиладиган бўлсак уларнинг барчасини учта гуруҳга бирлаштиришимиз мумкин: ишлаб чиқариш тузилмалари, ташкилий-маъмурий тузилмалар ва ижтимоий тузилмалар.

Ишлаб чиқариш тузилмалари ташкилотнинг иқтисодий субъект сифатида самарали фаолият кўрсатиш алоқаларини акс эттиради. Бунда ишлаб чиқаришнинг технологик жараёни бир томондан, ишлаб чиқариш бўғинларининг ўзаро муносабатлари иккинчи томондан ўз таъсирини кўрсатади. Технологик вазифалар хом ашёни қайта ишлаш натижасида тайёр маҳсулотга айлантириш жараёнини мақбуллаштиришга қаратилган бўлади ва шунинг учун горизонтал тузилма деб юритилади. Ишлаб чиқариш жараёнининг узлуксизлиги ва бир меъёрлилигини таъминлашга қаратилган алоқалар вертикал тузилма деб аталади, унинг вазифаси барча бўлинмаларнинг ишини асосий технологик жараёнга боғлашдир.

Ташкилий-маъмурий тузилмаларга бошқарув фаолияти билан шуғулланадиган ходимларнинг самарали меҳнатини асослайдиган ҳужжатлар, муносабатлар ва алоқалар киритилади. Бу турдаги тузилмалар бўйсуниш тамойилларини ҳамда лавозим ва бошқарув поғоналари фаолиятини тартибга солади.

Ижтимоий тузилмаларнинг асл моҳияти инсон омилини ҳисобга олиш, ҳамда ундан самарали фойдаланиш билан боғлиқ бўлади. Ушбу атаманинг биринчи жиҳати жамиятдаги ижтимоий жараёнларни тартибга солиш билан боғлиқ бўлса, иккинчи жиҳати ташкилотларда инсон ресурслари бошқаришда ижтимоий менежмент усулларини қўллашга асосланади.

Юқоридаги уч хил тузилмаларнинг ўзига хослигини аниқлаш учун бир қанча муҳим белгиларни танлаш лозим. Ушбу белгиларга қуйидагилар киритилади: тузилманинг қандай тизим таркибида бўлиши, тузилманинг асосий мақсади, баҳолашнинг бош мезони, бошқарув усуллари, асосий ресурслар ва ҳоказо. Қуйидаги жадвалда асосий белгилар бўйича таққослаш орқали тузилмаларнинг фарқлари кўрсатиб берилган (1-жадвал).

Тузилмаларнинг ўзига хослигини аниқлаштирувчи белгиларнинг моҳияти таҳлилнинг тўлалиги, ишончлилиги ва асосланганлигини таъминлаши лозим. Тузилманинг ўрнини ифодаловчи белги ташкилотнинг қайси тизимига тааллуқли бўлишига асосланади. Масалан, ижтимоий тузилма ташкилотдаги ижтимоий-маданий муҳитни ташкил қилувчи инсон муносабатлари тизимининг асосий бўғини ҳисобланади.

1-жадвал

Ташкилотдаги тузилмаларни таққослаш белгилари ва улардан фойдаланиш

Ўзига хос белгилар	Тузилманинг тури		
	Ишлаб чиқариш	**Ташкилий-маъмурий**	**Ижтимоий**
Бош тизим	Хўжалик-технологик тизим	Бошқарув тизими	Инсон муносабатлари тизими
Мақсад	Қувватдан фойдаланишни максималлаштириш	Бошқарув самарадорлигини ошириш	Ижтимоий ривожланишни таъминлаш
Бош мезон	Ишлаб чиқариш жараёнининг узлуксизлиги ва ритмлилиги	Бошқарув функцияларининг бажарилиши	Ижтимоий муҳитнинг барқарорлиги
Бошқарув усуллари	Ташкилий-техник	Ташкилий-маъмурий, иқтисодий	Ижтимоий, психологик
Асосий ресурслар	Моддий ва техникавий	Бошқарув ресурслари	Инсон ресурслари

Тузилманинг мақсади, номли белгиси унинг ташкилот томонидан қўйилган бош вазифаларига бўлган эътиборни кўрсатади. Мақсаднинг ўзига хослиги мазкур тузилманинг йўналтирилганлиги ва таъсир доирасини белгилаб беради. Учинчи тасниф белгиси, яъни баҳолашнинг бош мезони тузилмалар олдига қўйилган вазифаларнинг бажарилишига асосланади, яъни тузилманинг самарадорлигини баҳолаш кўрсаткичларни ишлаб чиқишда иштирок этади. Бошқарув усуллари ва асосий ресурслар белгилари ёрдамида тузилмаларнинг бошқарув жараёни сифатида қўлланиладиган воситалари аниқланади.

Хулоса ва таклифлар. Хулоса қилиб, шуни таъкидлаш лозимки, ташкилотнинг бошқарув тизимида бир неча ўзига хос тузилмалар фаолият кўрсатади. Анъанавий ёндашувда эътиборни фақат ташкилий тузилмаларга қаратиш бугунги кун талабларига жавоб бермаслиги аниқланган. Мақолада келтирилган тузилмаларни таққослаш ёндашуви уларни объектив баҳолашга имкон беради. Қурилиш ташкилотларида лойиҳавий ва тармоқли тузилмалардан кенг фойдаланиш, минтақавий қурилиш мажмуасида уларнинг бирикмасидан фойдаланишни таклиф қиламиз. Бошқарув фаолиятини такомиллаштиришда келтирилган илмий таклифларни қўллаш, бошқарув таҳлилини ривожлантиришга хизмат қилади деб ҳисоблаймиз.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Виханский, О. С. Менеджмент: учебник / О. С. Виханский, А. И. Наумов. – 6-е изд., перераб. и доп. – Москва: Магистр Инфра-М, 2019. – 656 с.
2. Мескон М. Х., Альберт М., Хедоури Ф. Основы менеджмента. – М.: Издательство· Вильямс, 2016 г.
3. Герчикова И.Н. Менеджмент. 4-е изд., перераб. и доп. Учебник. М.: ЮНИТИ ДАНА, 2017 г.
4. Теория организации: учебник / Л. Р. Котова, С. П. Иванова, Д. К. Балаханова [и др.]; под ред. С. П. Ивановой, Л. Р. Котовой. — Москва: КноРус, 2020.
5. Теория организации: учебник / В.Н. Парахина, Т.М. Федоренко, Е.Ю. Шацкая. – М.: Кнорус, 2014. – 356 с
6. Белобородов Р.С. Формирование эффективной структуры управления строительной организацией. Автореферат к.э.н. Нижний Новгород – 2011г.
7. Лыткина Ю.А. Формирование и развитие организационных структур управления в процессе реструктуризации строительных предприятий. Автореферат к.э.н. Пенза – 2007г.
8. Мухаметзянов З.Р. Построение адаптивных структур управления строительными предприятиями. Диссертация к.т.н. Уфа – 2002 г.
9. Randolph Thomas,M, John M. Keating and Allen C. Bluedom J.Authority

structures for construction project management. Constr. Eng. Manage. 1983.109:406-422c.

10. Казиева Ж.Н., Махмудов М.К. Совершенствование организационной структуры строительного предприятия на основе сетевых технологий. Региональные проблемы преобразования экономики, №8, 2014г.

11. Zhelikhovskiy D. O., Beliakov S. I. Methodological approaches to the formation of flexible structures for managing construction groups. Real estate: economics, management. 2023; 1:39-43p.

12. Raximova N. Qurilish sohasida funksional boshqaruv tuzilmalarining xususiyatlari. Iqtisodiyot taraqqiyoti va samarali boshqaruv: xalqaro tajriba, tendensiyalar va dolzarb masalalar. 2023

Н.Рахимова

Значение и виды структур управления в современных организациях

Аннотация. В данной статье проанализированы место, задачи и классификация организационных структур в современной организации. Авторами предложен характерный подход к анализу структур управления. Раскрыты преимущества и недостатки линейной, функциональной, матричной, дивизиональной, проектной и сетевой структур.

Ключевые слова: система, структура, производственные структуры, организационная структура, социальная структура, централизованные структуры, децентрализованные структуры.

N.Rakhimova

Meaning and types of management structures in modern organizations

Abstract. This article analyzes the place, tasks and classification of organizational structures in a modern organization. The authors propose a characteristic approach to the analysis of management structures. The advantages and disadvantages of linear, functional, matrix, divisional, project and network structures are revealed.

Keywords: system, structure, production structures, organizational structure, social structure, centralized structures, decentralized structures.

Ирода Аминжоновна Умурзакова – СамИЭС, ассистент кафедры «Маркетинг»

РЕКЛАМНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В ЭКОНОМИКЕ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Аннотация. В данной статье рассматривается роль рекламной деятельности в экономике, ее значение для стимулирования спроса и продвижения товаров и услуг на рынке. А также, в ней рассмотрены перспективы и пути преодоления существующих проблем.

Ключевые слова: рекламная деятельность, экономика, конкуренция, спрос, имидж, цифровизация, рекламные технологии, этика рекламы, манипуляции, таргетинг, социальные сети, поведение потребителей, будущее рекламы.

Введение. Рекламная деятельность — это неотъемлемая часть современного маркетинга и экономики. Она играет важнейшую роль в формировании спроса на товары и услуги, влияя на поведение потребителей, развитие бизнеса и даже на экономику страны в целом. В этой статье мы рассмотрим перспективы и проблемы рекламной деятельности в современных условиях.

Рекламная деятельность включает в себя разработку, производство и распространение рекламных материалов с целью информирования, убеждения и мотивирования целевой аудитории. В словах известного американского маркетолога Филипа Котлера, “Реклама — это не просто средство для того, чтобы рассказать людям о вашем продукте. Это способ вовлечь их, заставить их действовать.” [1] Таким образом, реклама служит не только инструментом информирования, но и способом создания эмоциональной связи между брендом и потребителем.

Методология исследования. При подготовке данной статьи для исследования рекламной деятельности применяются системный анализ, анализ литературы, факторный и

[1] Филипп Котлер «Маркетинг 4.0: Разворот от традиционного к цифровому»,. Издательство Эксмо ; Издательский бренд БОМБОРА; Серия Атланты маркетинга; Год *издания* 2022 ; ISBN 978-5-04-096861-9.

сравнительный анализ, а также оценка эффективности рекламных кампаний через ROI, конверсии и вовлеченность. Уделяется внимание цифровым технологиям, персонализации и использованию больших данных. Эти подходы позволяют оценить влияние рекламы на поведение потребителей, имидж брендов и экономику, а также выявить перспективы и проблемы, такие как этические вопросы и рекламная слепота.

Анализ литературы по теме. Рекламная деятельность является одной из самых изучаемых областей в маркетинге, и существует множество научных исследований и публикаций, посвященных этому явлению. Для глубокого понимания роли рекламы и ее функций важно обратиться к ключевым работам, в которых раскрыты теоретические основы, практические аспекты и новейшие тенденции в рекламе. Приведём некоторые примеры маркетологов.

Дэвид Огилви, один из основателей рекламного агентства Ogilvy & Mather, оставил глубокий след в рекламной индустрии своими работами и теориями. В книге «Огилви о рекламе» он делится своими рекомендациями и опытом, акцентируя внимание на важности творческого подхода, честности и понятности рекламы: «Если реклама не может привлечь внимание за первые несколько секунд, она потеряет свое значение.»[1]

Камол Ибодов, доцент кафедры «Маркетинг» Самаркандского института экономики и сервиса, особо уделяет внимание на функции рекламы в своей книге «Маркетинг»: «Реклама – это важнейший элемент продвижения, доносящий до сознания и внимания потенциальных покупателей важнейшие факты и информацию.»[2]

Анализ и результаты. Рекламная деятельность оказывает значительное влияние на потребительское поведение, имидж брендов и, в конечном итоге, на экономику страны. Важность рекламы как инструмента коммуникации между производителями и потребителями сложно переоценить, и научные исследования, а также практическое применение рекламных стратегий, позволяют сделать выводы о её эффективности, а также выявить потенциальные проблемы. Рассмотрим несколько ключевых направлений анализа и типичные результаты исследований в области рекламной деятельности.

Одним из наиболее популярных направлений анализа является оценка эффективности рекламных кампаний. Эффективность рекламы можно измерять с помощью различных показателей: рост продаж, увеличение узнаваемости бренда, влияние на поведение потребителей и т. д. (*диаграмма 1.*)

- *Рост продаж*: Рекламные кампании, направленные на стимулирование спроса, могут значительно увеличить продажи товаров и услуг. Например, рекламные кампании в социальных сетях имеют на 24% большую вероятность повышения продаж по сравнению с другими традиционными рекламными каналами.
- *Узнаваемость бренда*: Реклама является мощным инструментом для повышения узнаваемости бренда. Исследования показывают, что потребители склонны выбирать товары тех брендов, которые им знакомы. В этой связи реклама может способствовать формированию положительного имиджа компании. Анализ, проведенный компанией Millward Brown, показал, что бренды, активно использующие телевизионную рекламу, имеют на 40% более высокую степень узнаваемости по сравнению с конкурентами, использующими только цифровые каналы.

Рекламные кампании направлены не только на информирование, но и на влияние на поведение потребителей. Влияние рекламы на принятие решения о покупке можно анализировать через различные психоэмоциональные реакции, привлечение внимания, а также через анализ воздействия на потребительские предпочтения.

Воздействие через социальные сети. В последние годы наблюдается рост влияния социальных сетей на поведение потребителей. Рекламные кампании, проводимые через платформы, такие как Instagram, Facebook и TikTok, оказываются более персонализированными и могут привести к значительному вовлечению аудитории. По

[1] Дэвид Огилви, «Огилви о рекламе»,. Издательство «Манн, Иванов и Фербер». Твердый переплет. Объем — 304 стр. Формат — 24 × 17 × 2,7 см. ISBN 978-5-00214-101-2. Год *издания*: 2023.
[2] К.М.Ибодов, «Маркетинг» Издательство «Наука и технология», 2019. 299 стр.

данным исследования, проведенного компанией Statista, 70% пользователей интернета заявили, что реклама в социальных сетях влияет на их покупательские решения, особенно когда она персонализирована с учетом их интересов и потребностей.




Диаграмма 1. Ключевые аспекты анализа рекламной деятельности.

Анализ рекламной деятельности показывает, что реклама — это мощный инструмент, который может значительно повлиять на поведение потребителей, формирование имиджа бренда и рост продаж. Однако реклама сталкивается с рядом проблем, таких как рекламная слепота, этические вопросы и различия в восприятии на разных рынках. Современные исследования подтверждают, что для достижения высокой эффективности рекламных кампаний необходимо использовать инновационные методы, такие как таргетинг, эмоциональное воздействие и цифровые технологии, а также учитывать культурные особенности целевых аудиторий.

Перспективы рекламной деятельности включает в себя следующих:

1.Технологические инновации:

- *Цифровая реклама.*
- *Реклама через большие данные (Big Data).*
- *Виртуальная и дополненная реальность.*

2. Персонализация и таргетинг;
3. Влияние социальных сетей;
4. Экологическая и социальная ответственность.

Проблемы рекламной деятельности:

1. Перенасыщение рекламной информации;
2. Проблемы конфиденциальности и защиты данных;
3. Риски манипуляции сознанием;
4. Проблемы с качеством контента;
5. Изменения в законодательстве и регулировании.

В конечном счете, успешные рекламные стратегии будут зависеть от способности компаний находить баланс между инновациями и уважением к потребителям, создавая ценность и укрепляя доверие.

Заключение и предложения. Рекламная деятельность играет ключевую роль в современных рыночных условиях, стимулируя спрос, увеличивая осведомленность о бренде и создавая долгосрочные отношения между брендами и потребителями. Реклама способствует формированию имиджа компаний, а также влияет на поведение потребителей, их предпочтения и решения о покупке. В последние годы наблюдается значительный переход рекламной деятельности в цифровую среду. Реклама в интернете, в частности через социальные сети, контекстную и мобильную рекламу, позволяет достигать точного таргетинга и персонализировать сообщения для конкретных групп потребителей. Цифро-

вая реклама дает рекламодателям уникальные возможности для аналитики и оптимизации рекламных кампаний в реальном времени. В последние годы усиливается роль новых технологий, таких как искусственный интеллект (AI) и большие данные (Big Data), которые помогают более точно прогнозировать поведение потребителей и предлагать более эффективные рекламные стратегии. Рекламные платформы используют эти технологии для оптимизации таргетинга и создания персонализированных рекламных сообщений.

Для повышения эффективности рекламных кампаний важно использовать интегрированные маркетинговые коммуникации, которые включают не только цифровые каналы, но и традиционные медиа (ТВ, радио, наружная реклама). Комбинированный подход позволяет достичь более широкого охвата аудитории и увеличить вероятность воздействия рекламы.

Рекламодателям следует больше внимания уделять персонализации рекламных сообщений с учетом данных о поведении и предпочтениях пользователей. Использование искусственного интеллекта и машинного обучения для предсказания предпочтений может значительно повысить результативность рекламы, а также снизить риски «рекламной слепоты».

Для поддержания доверия со стороны потребителей рекламные компании должны следовать этическим стандартам и принципам честности. Важно, чтобы реклама не вводила потребителей в заблуждение, а также минимизировать использование манипулятивных техник. Прозрачность рекламных стратегий и честная информация о продуктах способствуют укреплению репутации компании и формированию долгосрочных отношений с аудиторией.

Внедрение инновационных рекламных технологий, таких как дополненная реальность (AR), виртуальная реальность (VR), а также использование голосовых и визуальных интерфейсов (например, с использованием AI) откроет новые возможности для привлечения внимания потребителей и создания уникальных рекламных опытов. Важно инвестировать в исследования и разработку этих технологий, чтобы быть на шаг впереди конкурентов.

Постоянный мониторинг эффективности рекламных кампаний и использование аналитики для оптимизации их результата – ключевое условие успешной рекламной деятельности. Рекламодатели должны регулярно оценивать эффективность вложений в рекламу с помощью таких метрик, как ROI (возврат на инвестиции), конверсии и вовлеченность пользователей.

Список использованной литературы:

1. Филипп Котлер, «Маркетинг 4.0: Разворот от традиционного к цифровому»,. Издательство Эксмо ; Издательский бренд БОМБОРА; Серия Атланты маркетинга; Год *издания* 2022.

2. Дэвид Огилви, «Огилви о рекламе»,. Издательство «Манн, Иванов и Фербер». Твердый переплет. Объем — 304 стр. Формат — 24 × 17 × 2,7 см. ISBN 978-5-00214-101-2. Год *издания*: 2023.

3. К.М.Ибодов, «Маркетинг» Издательство «Наука и технология», 2019. 299 стр.

I.Umurzakova

Iqtisodiyotda reklama faoliyati: muammolar va istiqbollar

Annotatsiya. Ushbu maqolada reklamaning iqtisodiyotdagi o‘rni, uning talabni rag‘batlantirish va bozorda tovar va xizmatlarni ilgari surishdagi ahamiyati, reklama faoliyatining istiqbollari va mavjud muammolarni bartaraf etish yo‘llari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: reklama faoliyati, iqtisod, raqobat, talab, imidj, raqamlashtirish, reklama texnologiyalari, reklama etikasi, manipulyatsiya, maqsadlilik, ijtimoiy tarmoqlar, iste’molchi hatti-harakatlari, reklama kelajagi.

I.Umurzakova

Advertising activities in economics: problems and prospects

Abstract. This article examines the role of advertising in the economy, its importance for stimulating demand and promoting goods and services on the market. It also examines the prospects and ways to overcome existing problems.

Keywords: advertising activities, economics, competition, demand, image, digitalization, advertising technologies, advertising ethics, manipulation, targeting, social networks, consumer behavior, the future of advertising.

МОЛИЯ, ПУЛ МУОМАЛАСИ ВА КРЕДИТ

Эркин Норматович Ходжаев – СамИСИ, “Молия” кафедраси профессори, и.ф.н.
Ўзбекистонда хизмат кўрсатган иқтисодчи.
Зухур Давронович Ниёзов – СамИСИ, “Банк иши” кафедраси доценти, и.ф.н
Ойбек Эркинович Ходжаев – Инвекция компанияси раҳбари

МОЛИЯВИЙ РЕСУРСЛАРНИ КЎПАЙТИРИШДА ВЕКСЕЛЬ МУОМАЛАСИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Аннотация. Ушбу мақолада қимматли қоғозлар бозорининг шаклларидан бири бўлган векселлар ҳақида тадқиқотлар олиб борилганлиги ёритилган. Векселларни барча хўжалик юритувчи субъектлар томонидан оддий ва ўтказма шаклларини чиқаришни илмий ва амалий асосда тадқиқ қилиш ва ривожлантириш зарурияти изоҳланган.
Калит сўзлар: қимматли қоғозлар, молия, облигация, вексель, фонд бозори, бўш пул, эмитент, бизнесни кенгайтириш, институционал, банк, пул (қарз), корпоратив, молиявий ресурслар.

Кириш. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли Фармони билан тасдиқланган 2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида иқтисодиётда молиявий ресурсларни кўпайтириш мақсадида, келгуси 5 йилда фонд бозори айланмасини 200 миллион АҚШ долларидан 7 миллиард АҚШ долларига етказиш,[1] мамлакат иқтисодиётини барқарор ривожлантиришнинг зарурий шартлари сифатида эътироф этилган. Бугунги кунда қимматли қоғозлар бозорида 33 та эмитентнинг фақат облигациялари сотувга чиқарилган бўлиб (фоиз даромадлари 24 % гача), уларнинг сўндириш муддатлари бир йилдан ортиқ муддатни ташкил этиб, қисқа муддатли ликвид инструментлар бозори мавжуд эмас. Бу эса, ўз навбатида, қимматли қоғозлар билан амалга ошириладиган операцияларни, яъни векселларни барча хўжалик юритувчи субъектлар томонидан оддий ва ўтказма шаклларини чиқаришни илмий асосда тадқиқ қилиш ва ривожлантириш заруриятини юзага келтиради.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Қимматли қоғозларнинг истеъмол қиймати шундан иборатки, улар орқали қимматли қоғоз эгаси ўз капиталини ошириш, сақлаш, корхонани бошқаришда иштирок этишдаги аниқ талабларини қондиради. Шу билан бирга, баъзи ҳолатларда қимматли қоғозларнинг алоҳида турлари (давлат облигациялари, векселлар) маълум бир қулай вазиятларда пул вазифасини – муомала ва тўлов воситасини ҳам бажариши мумкин. Ш.Ш.Шохаъзамий, Ф.А.Хамидова, Ф.Т.Муҳамедов, И.О.Мадаминовлар ўқув қўлланмада қимматли қоғозларни ҳар томонлама қулай тўлов воситаси эканлиги ҳақида юқоридаги таърифни бериб ўтганлар.

Бир қатор иқтисодчи олимлар Абдикаримова Д.Р., Жўраев О.Ш., Яхшибоев Ж.А., ўзларининг мақолаларида “Ўзбекистон амалиётида фонд бозори етарли даражада ривожланмаганлигини инобатга олган ҳолда, миллий фонд бозоримизда акциядорлик жамиятларнинг иштироки етарлича эмаслиги, инвесторлар томонидан қимматли қоғозлар сотиб олишга қизиқиш паст эканлиги, фонд биржаларида етарлича инфратузилманинг шаклланмаганлиги каби бир қатор муаммолар мамлакатимизда фонд бозорини ривожлантиришда ҳал қилиниши лозим”[2], бўлган масалалар кўтарилиб, 2019 йилда “Ўзсаноатқурилишбанк” АТБ томонидан чиқарилган маҳаллий корпоратив

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида ПФ-60-сонли Фармони. 2022 йил 28 январ

[2] Абдикаримова Д.Р., Жўраев О.Ш., Яхшибоев Ж.А. Ўзбекистонда фонд бозорини ривожлантириш ва акциядорлик жамиятларини қимматли қоғозлар орқали молиялаштириш масалалари. ИҚТИСОД ВА МОЛИЯ / ЭКОНОМИКА И ФИНАНСЫ 2021, 8(144)

облигацияларнинг фоиз ставкаси, ҳамда халқаро молия бозоридан капитал жалб қилиш мақсадида Лондон фонд биржасига еврооблигациялар жойлаштирганлиги ва бу орқали 300 млн. АҚШ доллари миқдоридаги капитал 5 йил муддатга жалб қилинганлигини банк маълумотлари асосида таҳлил этилган.

Шунингдек, Ж.Ж.Қурбонов, С.Ў.Омонов, Д.Н.Нуралиева “...корпоратив тузилмаларда бизнесни кенгайтириш, истиқболли лойиҳаларни амалиётга татбиқ этиш, фаолият самарадорлигини ошириш мақсадида инновацион технологияларни қўллаш каби масалаларни ижобий ҳал этишда молиявий ресурсларга эҳтиёж сезилади. Ушбу эҳтиёжларни қондиришда корпоратив тузилмалар томонидан капитал жалб қилиниши зарур”[1] лигини асослаганлар.

Россиялик иқтисодчи олимлардан А.А.Килячков, Л.А.Чалдаева, В.С.Торкановлар ўзларининг ишларида “қимматли қоғозлар бозори ва биржа фаолиятини такомиллаштириш, қимматли қоғозлар бозоридаги мавжуд молиявий инстурументлардан фойдаланиш амалиётини такомиллаштириш масалаларини тадқиқ қилганлар” [2].

Д.В.Соколов ўзининг илмий мақоласида векселдан фойдаланишнинг истиқболларига қуйидагича таъриф бериб ўтган “Олдинда вексел операцияларини амалга оширишни ривожлантириш бўйича улкан истиқболлар турибди: векселлар биржаларини ташкиллаштириш, операцияларнинг ишончлилиги ва шаффофлигини ошириш, янги технологияларни жорий қилиш. Буларнинг барчаси ишончлилиги, ҳаракатчанлиги, шаффофлиги ва шунга мос равишда иқтисодиётдаги ҳозирги ва келгусидаги муносабатларга бир неча маротаба ёрдамга келувчи, янги иқтисодий функцияларни ўз ичига оладиган иқтисодий восита”[3].

Тадқиқот методологияси. Ушбу мақолада хўжалик юритувчи субъектлар томонидан оддий ва ўтказма вексель шаклларини чиқаришни ривожлантириш ва қимматли қоғозлардан фойдаланиш масалаларини ўрганишда илмий абстракциялаш, қиёслаш, дедукция, анализ, синтез усуллари қўлланилган

Таҳлил ва натижалар. Мамлакатимизда фонд бозорини ривожлантиришга қаратилган бир неча уринишлар амалга оширилганига қарамай, фонд бозорининг мамлакат ривожланишидаги ўрни ҳамон пастлигича қолмоқда. Айниқса, молиялаштириш манбаларида қимматли қоғозлар улуши анча паст. ЯИМга нисбатан акция ва облигацияларни чиқариш ҳажми ўртача 1,8% (1 млрд долл)га тенг.

Ўзбекистонда мустақилликка эришилганидан сўнг, иқтисодиётни молиялаштириш манбаи сифатида асосий эътибор банк кредитларига қаратилди. Айнан банклар аҳоли, корхона ва ташкилотлар, шунингдек, давлат маблағларини кредит асосида жалб қилувчи муассаса сифатида иқтисодиётнинг реал секторига улкан сармоя киритдилар. Пул (қарз) бозорининг энг катта улуши (98 %) кредитларга тўғри келиб, уларнинг ўтача ставкаси (сўмда 28 %–30 %, валютада 9%–10 %) эди. Бу кредит олган тадбиркорнинг ишлаб чиқараётган маҳсулотларининг ўртача таннархи 80-90%ни ташкил қилмоқда.

Мамлакатда мустақиллик йилларидан фонд бозори шиддат билан ривожлана бошлади. Хусусан, 1994 йилда Республика фонд биржаси ташкил этилди, 1996 йилдан 2011 йилгача давлат қимматли қоғозлари бозорининг муайян ривожланиши кузатилди, корхона ва ташкилотларнинг дебитор-кредитор қарздорликларини камайтириш имкониятлари қулайлашди. Олий ўқув юртларида соҳа бўйича мутахассислар таёрлаш ишлари жадаллик билан амалга оширилди. Марказий банкда қимматли қоғозлар департаменти ва тижорат банкларда қимматли қоғозлар бўлимлари ташкил этилди ва соҳа мутахассислари ўқитилиб малакалари оширилди.

---

[1]Ж.Ж.Қурбонов, С.Ў.Омонов, Д.Н.Нуралиева. Халқаро IPO амалиётлари таҳлили: ташкилий хусусиятлари ва институционал инвесторлар иштироки. // Иқтисод ва молия, 2021, 1(137). – 9 бет.

[2] Килячков А.А., Чалдаева Л.А. Рынок ценных бумаг и биржевое дело: Учеб. пособие.2-е изд., с измен.-М: Экономисть, 2005 г. – 687 с.;

[3]Соколов Д.В. Государство и право вестник чебоксарского кооперативного института. 2010. № 1 научной статьи по истории и археологии https://cyberleninka.ru/journal/n/yuridicheskaya-nauka-i-praktika-vestnik-nizhegorodskoy-akademii-mvd-rossii

Маблағларни жалб этиш мақсадида, капитал истеъмолчилари қимматли қоғозларни муомалага чиқаради ва уларни сотиш натижасида ишлаб чиқариш (савдо-сотиқ, молиявий фаолият ва ҳ.к.) жараёнини амалга ошириш учун маблағ олади. Капитал истеъмолчилари (эмитентлар) ва етказиб берувчилари (сармоядорлар) ўртасидаги муносабатлар қайтарилиш, тўловлилик ёки мол-мулкка эгалик қилиш ҳуқуқини ўтказиш шартлари билан амалга оширилади. Шундай қимматли қоғоғозларнинг бир расмий ҳужжати вексель бўлиб ҳисобланади.

Вексель — вексель берувчининг ёхуд векселда кўрсатилган бошқа тўловчининг векселда назарда тутилган муддат келганда вексель эгасига муайян суммани тўлашга доир қатъий мажбуриятини тасдиқловчи ноэмиссиявий қимматли қоғоз[1].

Вексель векселда тўловчи сифатида кўрсатилган шахснинг вексел эгасига кўрсатилган суммани тўғридан-тўғри векселда кўрсатилган санада тўлаш бўйича сўзсиз мажбуриятини тасдиқлайди[2].

У универсал тўлов, кредит ва ҳисоб воситаси бўлиб, халқаро савдода тўлов мажбурияти; қисқа муддатли (6 ой) тижорат-кредит воситаси; банклараро узоқ муддатли муносабатларни шакллантирувчи восита; банклардан ссуда олиш учун гаров (шунингдек, тижорат банки марказий банкдан ссуда олишда берадиган гаров) тарзида кенг қўлланиладиган қимматли қоғоз.

Вексель ҳисоб воситаси ва айирбошлаш ҳужжати сифатида Европа мамлакатларида XVII-асрда шаклланди. XIX-асрнинг охиридан бошлаб Туркистондаги хусусий тижорат банклари савдо-сотиқда вексель муомаласини кенг йўлга қўйган. Собиқ Иттифоқда, шу жумладан Ўзбекистонда вексель янги иқтисодий сиёсат даврида (давлат ҳамда кооператив корхоналар ўртасидаги муносабатларда) ҳам ишлатилган. 1930—32 йиллардаги кредит ислоҳотида бевосита мақсадли банк орқали кредитлашга ўтилиши билан мамлакат ичида вексель муомаласи тугатилган.

Мустақил Ўзбекистонда Ўзбекистон Республикасининг 1993 йил 2 сентябрдаги «Қимматли қоғозлар ва фонд биржаси тўғрисида»ги қонунига мувофиқ, 1994 йилдан бошлаб Векселларни чиқариш ва уларнинг муомаласи механизмини такомиллаштириш, хўжалик юритувчи субъектларнинг шартнома мажбуриятларини бажаришлари учун молиявий жавобгарлигини ошириш, улар чиқарган векселларнинг пули ўз вақтида қайтарилишини таъминлаш мақсадида[3] Ўзбекистонда векселлар муомалага киритилди. Векселлар нақд пулсиз ҳисоб-китобларни амалга оширишнинг энг қулай воситаси сифатида корхона ва ташкилотларда кенг қўлланилди.

1995-1996 йилларда 3,4 млрд сўмлик қоғоз шаклида чиқарилган векселларни муомаладаги массасини назорат қилинмаганлиги ва тартибга солинмаганлиги, кўп миқдорда (*ҳужжат шаклида чиқарилган*) векселларнинг сохталаштирилиши ҳолатлари, ҳамда уларнинг мулкий таъминланмаганлиги сабабли 1997 йил май ойидан бошлаб хўжалик юритувчи субъектларига фақат Ҳукуматнинг қарорларига мувофиқ векселларни чиқарилиши тартиби белгиланганлиги ортидан уларнинг муомаласи тўхтатилган.

Векселлар муомаласининг ҳуқуқий асослари бугунги кунда анча эскирган, чунки векселларнинг ўзи 2015 йилдан бери амалда қўлланилмаган. Шу муносабат билан векселлар билан операцияларни амалга ошириш жараёнини тартибга солувчи деярли барча ҳужжатлар ўз кучини йўқотди. Ҳозирги вақтда қарз ҳужжатларининг қонунчилик тартибга солувчиси Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 22 июлдаги “Қимматли қоғозлар бозори тўғрисида”ги ЎРҚ-163-сон Қонунига кўра қимматли қоғозларнинг акциялар, облигациялар, жамғарма (депозит) сертификати, чек, депозитар тилхати, ғазначилик мажбуриятлари, ипотека, вексел каби турларини ўз ичига олади ва 2022 йилдан биржа

[1] Ўзбекистон Республикасининг «Қимматли қоғозлар бозори тўғрисида»ги 2015 йил 3 июнда қабул қилинган ЎРҚ-387-сонли Қонуни.
[2] "Қимматли қоғозлар бозори тўғрисида" ЎРҚ-163-сон Қонун.2008 йил 22-июл.
[3] Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 19.03.1997 йилдаги ПФ-1738-сон.

облигацияси жорий этилди[1].

Хулоса ва таклифлар. Ўтказилган таъқиқотларга таянган ҳолда биз шундай хулосага келдикки, олдин йўл қўйилган хато ва камчиликларни бартараф этган ҳолда дастлаб товар векселларни чиқаришга, яъни товар ишлаб чиқариш мақсадида айланма маблағларини тўлдириш учун, оддий векселларни эса (икки субъект ўртасидаги ўзаро мажбуриятларни бажариш учун) электрон шаклда чиқариш бунда, корхонанинг ўз маблағларининг етарлилиги бўйича маълумотлар солиқ органларининг электрон базалари билан интеграция қилиниши асосида амалга ошири, ҳамда Истиқболли лойиҳалар миллий агентлигида рўйхатдан ўтказиш, уларнинг ҳисоби Қимматли қоғозлар марказий депозитарийси томонидан юритишни амалга ошириш (чизма иловада) орқалигина дастлабки ижобий натижаларга эришиш мумкин.

Векселларни муомалага киритиш бўйича таклифлар.

1) дастлабки босқичда (2024-2025 йилларда):

а) Векселларни тадбиркорлик субъектларининг юқори барқарорлик рейтингига (“ААА” – 483 та, “АА” – 1 454 та , “А” – 2 211 та) киритилган корхоналарга улар соф активининг 50 фоизига қадар 1 йилгача бўлган муддатда чиқариш;

б) фақат товар векселларни чиқаришга, яъни товар ишлаб чиқариш мақсадида айланма маблағларини тўлдириш учун чиқариш;

в) оддий векселларни (икки субъект ўртасидаги ўзаро мажбуриятларни бажариш учун) электрон шаклда чиқариш. 1 расм.



Расм 1. Векселларни муомалага чиқариш схемаси

Афзалликлари:

- ишлаб чиқарувчилар айланма маблағлар билан қисқа муддатда (*3 кунда*) таъминланади (*ишлаб чиқариш цикли давом этади*);
- корхона ўзининг молиявий шароитига мос шартларда маблағ жалб этади (*кредит ставкалари қатъий белгиланган*);

[1] Манбаа: https://www.bss.uz/article/1276-immatli-oozlar-bozori-veksellar-nima.

- ишлаб чиқариш учун арзон маблағлар жалб қилиш имконияти яратилади (*товарлар таннархини пасайишига таъсир кўрсатади*).

Ишлаб чиқарувчиларга векселларни корхонанинг ўз маблағлари доирасида 90 кунгача бўлган муддатга чиқариш.

Бунда, корхонанинг ўз маблағларининг етарлилиги бўйича маълумотлар солиқ органларининг электрон базалари билан интеграция қилиниши асосида амалга ошириш.

Векселларни чиқариш ва бозорини ташкил этиш валюта биржасининг бирламчи ва иккиламчи савдоларида ташкил этиш.

2) кейинги босқичда (2026 йилдан бошлаб):

Векселларни барча хўжалик юритувчи субъектлар томонидан оддий ва ўтказма шаклларини чиқариш.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1.Ўзбекистон Республикасининг «Қимматли қоғозлар бозори тўғрисида»ги ЎРҚ-387-сонли Қонуни. 2015 йил 3 июн

2.Ўзбекистон Республикаси Президентининг Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида ПФ-60-сонли Фармони. 2022 йил 28 январ

3. Республикада вексель муомаласини тартибга солиш борасидаги чора-тадбирлар тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, ПФ-1738-сон 1997 йил. 19.03.

4.Абдикаримова Д.Р., Жўраев О.Ш., Яхшибоев Ж.А. Ўзбекистонда фонд бозорини ривожлантириш ва акциядорлик жамиятларини қимматли қоғозлар орқали молиялаштириш масалалари. ИҚТИСОД ВА МОЛИЯ / ЭКОНОМИКА И ФИНАНСЫ 2021, 8(144)

5. Килячков А.А., Чалдаева Л.А. Рынок ценных бумаг и биржевое дело: Учеб. пособие.2-е изд., с измен.-М: Экономисть, 2005 г. – 687 с.;

6.Ниёзов З. Д., Максудов О. Ш., Каримова А. М. Кредитная поддержка инновационного развития деятельности турпредприятий //SCHOLAR. – 2023. – Т. 1. – №. 32. – С. 171-179.

7.Соколов Д.В. Государство и право вестник чебоксарского кооперативного института. 2010. № 1 https://cyberleninka.ru/journal/n/ yuridicheskaya -nauka-i-praktika-vestnik-nizhegorodskoy-akademii-mvd-rossii

8. Shoxa’zamiy Sh. [va boshq. Qimmatli qog‘ozlar bozori: o‘quv qo‘llanma . — Toshkent: Noshir, 2012. 224 b.-9 bet.

9. Қурбонов Ж.Ж.,Омонов С.Ў., Нуралиева.Д.Н. Халқаро IPO амалиётлари таҳлили: ташкилий хусусиятлари ва институционал. инвесторлар иштироки. // Иқтисод ва молия, 2021, 1(137). – 9 бет.

Э.Ходжаев, З.Ниёзов, О.Ходжаев **Использование вексельного обращения при увеличении финансовых ресурсов**	**E.Khodjaev, Z.Niyozov, O.Khodjaev** **Use of promissory notes circulation when increasing financial resources**
Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы связанные с рынком ценных бумаг, в частности векселей. В ней обоснована необходимость исследования и разработки векселей всеми хозяйствующими субъектами на научной и практической основе выпуска простых и переводных видов. **Ключевые слова:** ценные бумаги, финансы, облигация, простой вексель, фондовый рынок, свободные деньги, эмитент, расширение бизнеса, банк, деньги, корпорация, финансовые ресурсы.	**Abstract.** This article discusses issues related to the securities market, in particular bills of exchange. It substantiates the need for research and development of promissory notes by all economic entities on a scientific and practical basis for the issue of simple and transferable types. **Keywords:** securities, finance, bond, promissory note, stock market, free money, issuer, business expansion, bank, money, corporation, financial resources.

БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ

Азимжон Фаррухович Мустафоев – СамИСИ таянч докторанти

РЕСПУБЛИКА МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТИДА НОДАВЛАТ ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИНИНГ БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ СУБЪЕКТЛАРИ СИФАТИДАГИ ХУСУСИЯТЛАРИ

Аннотация. Ушбу мақолада мамлакатда нодавлат ташкилотларининг ўрни, ушбу ташкилотлар таркибида нодавлат таълим ташкилотларининг бухгалтерия ҳисоби субъектлари сифатидаги аҳамияти, норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ва иқтисодчи олимлар томонидан нодавлат таълим ташкилотларига оид ишлаб чиқилган таърифлар ҳамда улар бўйича тавсия этилган муаллифлик таърифи каби масалалар ўрин олган.

Калит сўзлар: нодавлат ташкилотлар, нодавлат таълим ташкилотлари, таълим хизматлари, умумтаълим ташкилотлари, мактабгача таълим ташкилотлари, таълим жараёни, молиявий ҳисобот.

Кириш. Мамлакатимизда 2023 йил 1 майда янги таҳрир остида қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 50-моддасида “Ҳар ким таълим олиш ҳуқуқига эга. Давлат узлуксиз таълим тизими, унинг ҳар хил турлари ва шакллари давлат ва нодавлат таълим ташкилотлари ривожланишини таъминлайди. Мактабгача таълим ва тарбия, умумий ўрта таълим давлат назоратидадир”[1] деб келтирилган. Ўзбекистон Республикасининг фаровонлигини таъминлаш мақсадида қабул қилинган Конституциямизда белгилаб қўйилган бундай нормалар шуни билдирадики, мамлакатимизда таълим хизматлари, жумладан нодавлат таълим ташкилотлари фаолиятини ривожлантириш давлат томонидан устувор вазифа ҳамда йўналиш сифатида белгилаб қўйилган. Миллий Қомусимизда белгиланган ушбу устувор вазифаларни ҳал этиш, хусусан давлат ташкилотларини хусусийлаштириш орқали нодавлат ташкилотлар сонини ошириш, уларнинг фаолиятини қўллаб-қувватлаш, нодавлат ташкилотларининг тадбиркорлик фаолиятини ривожлантириш учун шарт-шароитлар қилиб бериш мақсадида, Ўзбекистон республикаси Президентининг “Иқтисодиётда давлат иштирокини қисқартиришнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори қабул қилинди.

Республикамизда сўнгги йилларда қабул қилинган бу каби норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар бўйича ижтимоий-иқтисодий ислоҳотларни амалга ошириш натижасида “2020 – 2023 йилларда 4,5 мингта давлат активларининг хусусийлаштирилиши натижасида 20 мингдан ортиқ янги иш ўринлари барпо этилди, хусусийлаштирилган корхоналарнинг солиқ тушумлари 1,3 баробарга, соф активлари эса 1,5 баробарга ошди”[2]. Мамлакатимизда бугунги кунда рўй бераётган бу каби натижалар нодавлат ташкилотларининг миллий иқтисодиётда тутган ўрни ва мавқеини белгилаб беради.

Юқорида келтирилган долзарб масалалардан келиб чиққан ҳолда, мазкур тадқиқот ишимизда нодавлат ташкилотлари ва улар таркибидаги нодавлат таълим ташкилотларининг миллий иқтисодиётимиз равнақи йўлида тутган ўрни, нодавлат таълим ташкилотларининг бухгалтерия ҳисоби субъектлари сифатидаги хусусиятлари бўйича илмий тадқиқот ишлари олиб борилди.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Мамлакатимизда бугунги кунда нодавлат ташкилотлари турли хил соҳаларда фаолият кўрсатиб келмоқда. Улар томонидан кўрсатиладиган фаолиятлар ўз навбатида нотижорат ва тижорат мақсадида амалга оширилиб, улар бир-биридан фарқ қилади. Хорижий адабиётларда “Таълим хизматларини турли фанлар бўйича таълим ёки кўрсатмалар сифатида тушунтириш мумкин. Ушбу

[1] Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. 2023 йил 01 май.

[2] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Иқтисодиётда давлат иштирокини қисқартиришнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. 2024 йил 19 апрель. ПҚ-162-сон.

таълим муассасалари хусусий ёки давлат ташкилотлари бўлиши мумкин. Хусусий таълим хизматлари фойда олиш мақсадида ёки ҳеч қандай фойда олмасдан ишлаши мумкин”[1], деб келтирилган. Халқаро адабиётларда келтирилган ушбу тавсифдан кўриш мумкинки, таълим хизматлари давлат ва нодавлат ташкилотлар томонидан амалга оширилиб, нодавлат ташкилотлари томонидан таълим хизматларини амалга ошириш жараёнларидан кўзланган мақсад фойда олишга ёки олмасликка қаратилган бўлиши мумкин.

Ўзбекистон Республикасининг Қонунида “Нодавлат нотижорат ташкилоти – жисмоний ва (ёки) юридик шахслар томонидан ихтиёрийлик асосида ташкил этилган, даромад (фойда) олишни ўз фаолиятининг асосий мақсадида қилиб олмаган ҳамда олинган даромадларни (фойдани) ўз қатнашчилари (аъзолари) ўртасида тақсимламайдиган ўзини ўзи бошқариш ташкилотидир”[2], деб таъриф келтирилган.

Мамлакатимиз олимларининг илмий тадқиқот ишларида, жумладан М.С.Хожиев томонидан бажарилган тадқиқот ишида қуйидагича таъриф берилган: “Нодавлат нотижорат ташкилоти – жисмоний ва юридик шахслар томонидан ихтиёрийлик асосида ташкил этилган, фойда олишни асосий фаолиятнинг мақсади қилиб олмаган ва ўз устави доирасида қўшимча тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланувчи ҳамда олинган фойдани ўз қатнашчилари (аъзолари) ўртасида тақсимламайдиган ўзини ўзи бошқарувчи юридик шахсдир”[3]. Ушбу таърифдан кўриш мумкинки, нодавлат нотижорат ташкилотлари томонидан амалга ошириладиган фаолият натижаси фойда олишга қаратилган бўлмайди ва таъсисчилари бундан манфаат кўрмайди.

Нодавлат ташкилотлари томонидан тадбиркорлик фаолиятини кўрсатишдан асосий мақсад фойда олишга қаратилган бўлса, бундай ташкилотлар нодавлат тижорат ташкилотлари ҳисобланади. Бундай нодавлат тижорат ташкилотлари жумласига таълим хизматларини кўрсатувчи нодавлат таълим ташкилотлари киради.

Бу борада Т.Тимофееванинг илмий тадқиқот ишида таълим хизматларига шундай тавсиф берилган: “Таълим хизматлари нодавлат таълим ташкилотларида пуллик асосида амалга оширилади. Пуллик таълим хизматлари нодавлат олий таълим муассасаларида асосий даромад манбаи ҳисобланади”[4]. Олим нодавлат таълим ташкилотларида таълим хизматларини кўрсатишдан олинган даромад асосий фаолият эканлигини қайд этиб ўтган.

В.Н.Пугач ва С.В.Абдуллиналарнинг таъкидлашларича “Таълим хизмати – бу жамиятнинг ҳаётий жараёнларини уйғунлаштириш муассасалари орқали таълим тизимидан импульсларни маълум бир соҳага ўтказиш учун мураккаб ташкил этилган меҳнат ҳаракатлари жараёнлари”[5].

В.Н.Зотов, “Таълим хизмати – бу ижтимоий ва махсус хусусиятга эга бўлган билимлар йиғиндиси шаклида фуқарога бериладиган ўқув ва илмий маълумотлар ҳажми бўлиб, маълум бир дастур бўйича фуқарога бериладиган амалий кўникма”[6] деб таъриф берган бўлиб, ушбу таъриф таълим хизматлари бўйича умумий ёндашувларни ўзида қамраб олади.

Ш.Кулдашев “Таълим хизматлари – бу белгиланган тартибда таълим ва малака тўғрисидаги ҳужжатлар билан тасдиқланган муайян компенсация, малака ва кўникмаларни ўзлаштириш натижаси ҳисобланган таълим фаолиятини амалга ошириш жараёнида таълим муассасалари томонидан кўрсатиладиган хизмат”[7] деб таъкидлайди. Олий таълим

[1] https://www.teachmint.com/glossary/e/educational-services/

[2] Ўзбекистон Республикасининг “Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида”ги Қонуни. 2099 йил 14 апрель. 763-I-сон.

[3] Хожиев М.С. Нодавлат нотижорат ташкилотларида бухгалтерия ҳисобини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. -Т.: 2019. 57-бет.

[4] Тимофеева Т.В. Бухгалтерский учет доходов и расходов негосударственных образовательных учреждений. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Москва: 2009. 171-с.

[5] Пугач В.Н., Абдуллина С.В. Образовательные услуги: общие понятия // Интернет-журнал “Науковедение”. № 2, 2013.

[6] Зотов В.Н. Разработка стратегии и тактики маркетинговой деятельности вузов на рынке образовательных услуг и научно-технической продукции: Автореферат на соискание учёной степени кандидата экономических наук. – М.: РЭА им. Г.В. Плеханова, 1997. -21 с.

[7] Кулдашев Ш.А. Таълим хизматлари бозорида олий таълим муассасалари рақобатбардошлигини ошириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. -Т.: 2023.

муассасалари мисолида ёритилган ушбу илмий тадқиқот ишида ҳам таълим хизматларини фақатгина малака ва кўникмаларнинг йиғиндиси, деб таърифлаб ўтилган.

Мамлакатимизда мазкур нодавлат таълим ташкилотлари фаолиятини ривожлантириш, уларда таълим хизматларини кўрсатиш бўйича фаолиятларини кенгайтириш, Давлат томонидан мамлакат иқтисодиётини юксалтириш мақсадида, мазкур хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш бугунги миллий иқтисодиётнинг долзарб вазифаларидан бири ҳисобланади.

Тадқиқот методологияси. Мамлакат миллий иқтисодиётида нодавлат таълим ташкилотларининг роли, ушбу ташкилотларнинг бухгалтерия ҳисоби субъектлари сифатидаги хусусиятлари бўйича олиб борилган тадқиқот ишларида илмий абстракциялаш, иқтисодий таҳлил, монографик кузатув, қиёслаш, индукция ва дедукция каби тадқиқот усулларидан фойдаланилган.

Таҳлил ва натижалар. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонунига мувофиқ, нодавлат таълим ташкилотлари мактабгача таълим ва тарбия (бундан оилавий мактабгача таълим мустасно), умумий ўрта ва ўрта махсус таълим, профессионал таълим, олий таълим, олий таълимдан кейинги таълим[1].

Олиб борилган тадқиқотларимиз давомида нодавлат таълим ташкилотларининг турларини қуйидаги расм орқали ифодаладик:



1-расм. Нодавлат таълим ташкилотларининг таркибий қисмлари[2]

Ушбу расмда келтирилган нодавлат таълим ташкилотлари таркибидаги нодавлат мактабгача таълим ташкилотлари ҳамда нодавлат умумтаълим ташкилотлари бевосита Мактабгача ва мактаб таълими вазирлигига нодавлат олий таълим ташкилотлари эса, ўз навбатида Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлигига қарашлидир.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисида”ги Фармонида мамлакатда умумтаълим соҳасини янада ривожлантириш учун нодавлат ташкилотларини кенг жалб қилиш мақсадида “Нодавлат умумий ўрта таълим ташкилотлари сонини 1000 тага етказиш, келгуси беш йилда нодавлат умумий ўрта таълим ташкилотлари фаолиятини йўлга қўйиш учун 1 триллион сўм миқдорида имтиёзли кредитлар ажратиш”[3] бўйича устувор вазифалар ишлаб чиқилган. Республикамиз миллий иқтисодиётини ривожлантириш йўлида олиб борилаётган ижтимоий-иқтисодий сиёсатлар

[1] Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни. 2020 йил 23 сентябрь, № ЎРҚ-637-сон.
[2] Тадқиқотлар асосида муаллиф ишланмаси.
[3] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисида”ги Фармони. 2023 йил 11 сентябрь. ПФ-158.

натижасида таълим хизматлари фаолияти билан шуғулланувчи нодавлат умумтаълим ташкилотлари, қолаверса бошқа турдаги нодавлат таълим ташкилотлари сони ҳам ошиб бормоқда.

Олиб борилган тадқиқотлар давомида мамлакатимизда фаолият кўрсатаётган ушбу нодавлат таълим ташкилотларининг йиллар кесимидаги улушини қуйидаги жадвал маълумотлари орқали ифодаладик:

1-жадвал

2018-2023 йиллар кесимида нодавлат мактабгача, умумтаълим ҳамда олий таълим ташкилотлари[1]

№	Нодавлат таълим ташкилотлари	Нодавлат таълим ташкилотлари сони					
		2018 й.	2019 й.	2020 й.	2021 й.	2022 й.	2023 й.
1	Нодавлат мактабгача таълим ташкилотлари	754	1105	1670	1549	1826	
2	Нодавлат умумтаълим ташкилотлари	58	91	102	135	194	293
3	Нодавлат олий таълим ташкилотлари	1	4	5	17	42	90

Мазкур жадвал маълумотлари асосида кўриш мумкинки, нодавлат таълим ташкилотларининг барча турлари йилдан-йилга тез суръатларда ортиб бормоқда. Фақатгина, пандемия шароитида нодавлат таълим ташкилотлари таркибида мактабгача таълим ташкилотлари сони озроқ пасайган бўлсада, бироқ кейинги йилларда уларнинг сони ҳам ошиб борганлигини кўриш мумкин. Тадқиқотларимиз давомида ушбу нодавлат таълим ташкилотларида мавжуд бўлган иш ўринлари сони бўйича ҳам кўрсаткичларни таҳлил қилиб чиқдик ва уларни қуйидаги расм кўринишида ифодаладик:



2-расм. 2017-2023 йилларда нодавлат мактабгача таълим ва умумтаълим ташкилотларида иш ўринлари сони[2]

[1] Ўзбекистон Республикаси ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг асосий кўрсаткичлари маълумотлари асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилди.

[2] Ўзбекистон Республикаси ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг асосий кўрсаткичлари маълумотлари асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилди.

Ушбу кўрсаткичлардан кўриш мумкинки, нодавлат мактабгача таълим ташкилотлари сони ортиб бориши билан бир қаторда ушбу тармоқ ташкилотларида янги иш ўринлари ҳам пайдо бўлмоқда. Бу эса, иқтисодиётнинг ривожланиши учун муҳим омиллардан бири ҳисобланади.

Юқорида келтирилган статистик рақамларни таҳлил қилиш асосида хулоса қилиш мумкинки, мамлакат миллий иқтисодиётида нодавлат ташкилотларининг ўрни алоҳида аҳамият касб этиб, булар таркибида нодавлат таълим ташкилотлари фаолияти, жумладан таълим хизматларини кўрсатиш фаолиятини янада ривожлантириш зарур, деб ҳисоблаймиз.

Республика миқиёсида нодавлат таълим ташкилотлари фаолиятини ривожлантириш, ушбу ташкилотларда турли хил таълим хизматларини кўрсатиш жараёнини тўғри ташкил этиш, таълим хизматлари турларини кўпайтириш, уларнинг сифати ва рақобатбардошлигини ошириш, ички бошқарув тизимини тўғри йўлга қўйиш, молиявий-бошқарув ахборот фойдаланувчиларнинг талабларига мувофиқ ҳисоботларни тақдим этиш каби вазифалар бугунги куннинг долзарб масалаларидан бири ҳисобланади.

Юқорида олиб борилган тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, олимлар томонидан олиб борилган илмий-тадқиқот ишларида “нодавлат таълим ташкилотлари” терминига уларнинг фаолият доирасидан келиб чиққан ҳолда, мазмун-моҳиятини тўлиғича ўзида мужассам этувчи муаллифлик таърифи ишлаб чиқилмаган. Иқтисодий фанлар, қолаверса бухгалтерия ҳисоби назарияси олдида мавжуд бўлган ушбу камчиликларни бартараф этиш мақсадида мазкур тадқиқот ишида нодавлат таълим ташкилотларининг бухгалтерия ҳисоби субъектлари сифатидаги хусусиятларини ўзида қамраб олувчи муаллифлик таърифи тавсия этилди. Бизнинг фикримизга кўра, “***Нодавлат таълим ташкилотлари – бу давлат таълим стандартлари ва талаблари бўйича ҳамда амалдаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган тартиб-қоидаларга тўлиқ амал қилган ҳолда, таълим хизматлари фаолиятини пуллик асосда кўрсатиш орқали фойда олиш мақсадида ташкил этилган юридик шахс***”. Биз томонимиздан ишлаб чиқилган мазкур муаллифлик таърифи мамлакатимизда норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни ишлаб чиқишда фойдаланилиши мумкин бўлиб, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Нодавлат таълим хизматлари кўрсатиш фаолиятини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”[1]ги Қарорида нодавлат таълим ташкилотларининг таълим хизматларини кўрсатиш фаолиятлари бўйича белгиланган тартибларга тўлиқ мос келади. Шунингдек, ушбу муаллифлик таърифи бухгалтерия ҳисобини ҳам назарий ва ҳам илмий томондан бойитишга хизмат қилади, деб ҳисоблаймиз.

Хулоса ва таклифлар. Республикамиз аҳолисининг турли кўринишдаги ва босқичлардаги таълим хизматларига бўлган эҳтиёжларини қондириш бугунги куннинг энг муҳим вазифаларидан бири ҳисобланади. Юқоридаги тадқиқот натижаларини умумлаштирган ҳолда, мамлакат миллий иқтисодиётида нодавлат таълим ташкилотларининг ўрни ва аҳамиятини янада кўтариш, улар томонидан кўрсатиладиган таълим хизматларининг турлари ва сифатини янада такомиллаштиришга оид бир қанча муаммо ва камчиликлар мавжуд бўлиб, бу борада илмий хулосалар ҳамда амалий тавсиялар ишлаб чиқишни лозим деб топдик:

1. Мамлакатимизда ишлаб чиқилган меъёрий ҳужжатларда “Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Қонуни ишлаб чиқилган бўлиб, тижорат фаолияти билан шуғулланувчи, хусусан таълим хизматларини кўрсатувчи нодавлат ташкилотлари фаолиятини барча жабҳаларини тартибга солиш мақсадида “Нодавлат тижорат ташкилотлари тўғрисида” Қонун лойиҳасини ишлаб чиқиш лозим, деб ҳисоблаймиз.

2. Бугунги кунда нодавлат таълим ташкилотлари энг тез ривожланаётган

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Нодавлат таълим хизматлари кўрсатиш фаолиятини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. 2017 йил 15 сентябрь. ПҚ-3276-сон.

тармоқларга айланиб бораётган бир пайтда ушбу ташкилотлар фаолиятини доимий тарзда назорат қилиб бориш, улар фаолиятини янада ривожлантириш, таълим хизматлари турлари ва сифатини янада ошириш мақсадида давлат томонидан ижтимоий-иқтисодий томондан қўллаб-қувватлаш, уларга турли кўринишдаги имтиёзлар бериш лозим, деб ҳисоблаймиз.

3. Нодавлат таълим ташкилотлари томонидан кўрсатилаётган хизматлар таннархини аниқлаш, бунда нодавлат таълим ташкилотларида таълим хизматларини кўрсатиш жараёнларини тўғри ташкил этиш, ушбу жараёнларда харажатлар бухгалтерия ҳисобини юритиш, ушбу жараёнларни молиявий ва бошқарув ҳисобот шаклларида шаффоф акс эттириш мақсадга мувофиқдир.

4. Мамлакатимиз бугунги бухгалтерия ҳисоби олдида турган энг долзарб вазифаларидан бири бу, албатта, корхоналарда молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида бухгалтерия ҳисобини юритиш ҳисобланади. Бу борада Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”[1] Қарори ишлаб чиқилган бўлиб, ушбу меъёрий ҳужжатда йирик солиқ тўловчилар тоифасига киритилган нодавлат таълим ташкилотлари ҳам ўзлари томонидан юритиладиган бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботларини халқаро стандартларга мувофиқ тарзда олиб боришлари белгилаб қўйилган.

Нодавлат таълим ташкилотларида ташқи инвесторларни жалб қилиш ушбу ташкилотларнинг фаолиятини янада такомиллаштиришга, таълим хизматлари сифатини халқаро тажрибаларга мослаштиришга, нодавлат таълим ташкилотлари даромадларини ва фойда кўрсаткичларини оширишга, буларнинг барчаси эса, мамлакат миллий иқтисодиётини ижтимоий-иқтисодий томондан янада ривожлантиришга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. 2023 йил 01 май.

2. Ўзбекистон Республикасининг “Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида”ги Қонуни. 1999 йил 14 апрель. 763-I-сон.

3. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни. 2020 йил 23 сентябрь, № ЎРҚ-637-сон.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Иқтисодиётда давлат иштирокини қисқартиришнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. 2024 йил 19 апрель. ПҚ-162-сон.

5. Хожиев М.С. Нодавлат нотижорат ташкилотларида бухгалтерия ҳисобини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. -Т.: 2019. 57-бет.

6. Тимофеева Т.В. Бухгалтерский учет доходов и расходов негосударственных образовательных учреждений. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Москва: 2009. 171-с.

7. Пугач В.Н., Абдуллина С.В. Образовательные услуги: общие понятия // Интернет-журнал “Науковедение”. № 2, 2013.

8. Зотов В.Н. Разработка стратегии и тактики маркетинговой деятельности вузов на рынке образовательных услуг и научно-технической продукции: Автореферат на соискание учёной степени кандидата экономических наук. – М.: РЭА им. Г.В. Плеханова, 1997. -21 с.

9. Кулдашев Ш.А. Таълим хизматлари бозорида олий таълим муассасалари рақобатбардошлигини ошириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. -Т.: 2023.

10. https://www.teachmint.com/glossary/e/educational-services/

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ги Қарори. 2020 йил 24 февраль. ПҚ-4611.

А.Мустафоев

Характеристика негосударственных образовательных учреждений как субъектов учета в национальной экономике республики

Аннотация: В данной статье рассматриваются такие вопросы, как роль негосударственных образовательных учреждений в стране, значение негосударственных образовательных учреждений как субъектов бухгалтерского учета внутри этих организаций, определения негосударственных образовательных учреждений, разработанные нормативными правовыми документами и экономистами, а также предложено авторское определение.

Ключевые слова: неправительственные организации, неправительственные образовательные учреждения, образовательные услуги, общеобразовательные учреждения, дошкольные образовательные учреждения, образовательный процесс, финансовая отчетность.

A.Mustafoev

Characteristics of non-government educational institutions as accounting subjects in the national economy of the republic

Abstract: This article deals with issues such as the role of non-governmental institutions in the country, the importance of non-governmental educational institutions as accounting entities within these organizations, definitions of non-governmental educational institutions developed by regulatory legal documents and economists, and also the author's definition is proposed.

Key words: non-governmental organizations, non-governmental educational institutions, educational services, general education institutions, preschool educational institutions, educational process, financial reporting.

Azamat Abdiraximovich Eshonqulov – TIFT Universiteti “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi mudiri, i.f.f.d. (PhD), dotsent v.b.

TARKIBIDA SHO‘BA KORXONASI BOR KORXONALARDA KONSOLIDATSIYALASHGAN MHXS ASOSIDA TUZISH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada korxonalarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga asoslangan konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tuzish uslubiyotini takomillashtirish masalalari ko‘rilgan. Ayniqsa, tarkibida sho‘ba va qaram korxonalari bo‘lgan yirik korxonalar uchun konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarning ahamiyati katta bo‘lib, ularning to‘g‘ri tuzilishi investorlarga, kreditorlarga va boshqa manfaatdor tomonlarga korxona moliyaviy holatini to‘liq va haqqoniy aks ettirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, sho‘ba korxona, qaram korxona, hisobot tuzish uslubiyoti, moliyaviy hisobotni takomillashtirish korxona moliyaviy holati.

Kirish. Jahonda iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bo‘yicha xalqaro ilmiy loyihalar va ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish, uning normativ-huquqiy asoslarini kengaytirish va mustahkamlash, xalqaro standartlar asosida transformatsiya qilish yoki parallel ravishda tuzish, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarining muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Butun dunyo davlatlari tajribasidan ma’lumki, korxonalar faoliyatini samarali boshqarishda ko‘proq ularni yirik guruhlarga birlashtirgan holda tuzish maqsadga muvofiqdir. Bunda ikki yoki undan ortiq korxona moliyaviy-iqtisodiy jihatdan bir korxona ostida birlashadi. Korxonalarni birlashtirish deganda, alohida bir korxonaning ikkinchisiga qo‘shilishi yoki bir korxona ikkinchi korxonaning sof aktivlari va ishlab chiqarish faoliyati ustidan nazoratni sotib olish natijasida yuzaga keladigan bir iqtisodiy birlikka qo‘yilishiga aytiladi. Bu, asosan, biror-bir faoliyat bilan shug‘ullanayotgan korxonaning egalari tomonidan ushbu korxona tarkibida bir nechta kichik mustaqil korxonalarni tashkil etishga bo‘lgan harakatidan kelib chiqadi. Buning natijasida soliq to‘lovlarini qisqartirish yuzaga keladi. Shuni takidlash lozimki konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzish 2021 yildan boshlab

konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida majburiy tartibda yuritish lozimligi belgilab berilgan[1].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Iqtisodchi olimlar tomonidan moliyaviy hisobot va konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzish borasida turli xil qarashlar mavjud bo‘ib, masalan Vaxrushina M.A., Melnikova L.A. “Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot - bu bosh korxona hamda uning sho‘ba korxonalari moliyaviy hisoboti bo‘lib, go‘yo bu korxonalar yagona korxona sifatida tuzilgan”[2] deb tariflaydi. Huddi shuningdek N.V.Generalova, G.V.Soboleva va N.A.Sokolovalarning fikricha, “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan foydalanish omma va boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega korxonalar tomonidan xalqaro standartlardan foydalanib, moliyaviy hisobotlar hamda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tuzish” belgilab berilgan[3]. V.V.Kovalev “Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni amaliyotda qo‘llanilishi va yanada takomillashtirilishi uchun quyidagi omillar ham asos hisoblanadi: buxgalteriya hisobining yangi usullarini qo‘llashda to‘siqlar yo‘qligi; biznesni birlashtirish jarayonlarining maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida xabardorlik; yirik fond birjalari tomonidan birlashtirish g‘oyasini ma’qullash”[4] deb ta’kidlagan. 8-BHMS “Jamlanma moliyaviy hisobotlar va sho‘ba xo‘jalik jamiyatlari sarmoyalarini hisobga olish” standartining 4-bandiga asosan Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar-hisobot sanasidagi moliyaviy ahvolni va xo‘jalik yurituvchi jamiyatlar guruhining hisobot davri uchun moliyaviy natijalarni aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar tizimi. deb izohlanadi[5]. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot 10-sonli MHXSga muvofiq ushbu guruhning moliyaviy hisoboti bo‘lib, unda Bosh korxona va uning sho‘ba korxonalarining aktivlari, majburiyatlari, kapitali, daromadlari, xarajatlari va pul mablag‘lari oqimini bir jamiyatning iqtisodiy moliya-xo‘jalik faoliyati sifatida ushbu mablag‘lar va ularning manbalari bo‘yicha umumlashtiriladi[6]

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishini bajarishda kuzatish, ma’lumotlarni to‘plash, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, monagrafik kuzatish usullaridan foydalanilgan hamda Sho‘ba va qaram korxonalar tarkibida bo‘lgan tashkilotlar uchun konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga muvofiq tuzish uslubi bo‘yicha metodologiyani takomillashtirish.

Tahlil va natija. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzish uslubiyotini takomillashtirish bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu metodika, odatda, ko‘p sho‘ba va qaram korxonalarga ega tashkilotlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ularning moliyaviy natijalarini aniq va ishonchli ravishda aks ettirish uchun zarurdir. Quyidagi jadvalda asosiy bosqichlar keltirilgan.

1-jadval.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzish uslubiyotini takomillashtirish bosqichlari

1.	Konsolidatsiyalashgan hisobotni tayyorlash uchun asosiy qadamlar	Konsolidatsiya qamrovini aniqlash	Tashkilotning sho‘ba va qaram korxonalari ro‘yxatini aniqlash va konsolidatsiya qilish kerak bo‘lgan tashkilotlarni belgilash.
		Iqtisodiy manfaatlarni aniqlash	Har bir sho‘ba va qaram korxona uchun bosh kompaniyaning iqtisodiy manfaatlarini aniqlash.
		Moliyaviy hisobotlarni yig‘ish	Sho‘ba va qaram korxonalarning moliyaviy hisobotlarini yig‘ish va ularni standartlashtirish.
2.	Hisobotlarni standartlashtirish va o‘zgartirish	Valyutalar bo‘yicha konvertatsiya qilish	Agar sho‘ba va qaram korxonalar turli valyutalarda hisobot berishsa, ularni bitta umumiy valyutaga konvertatsiya qilish.
		Hisobot davrlarini	Turli davrlarda tayyorlangan

		moslashtirish	hisobotlarni moslashtirish uchun sozlashlar kiritish
		Moliyaviy ko‘rsatkichlarni moslashtirish	Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq bo‘lmagan hisoblarni moslashtirish.
3.	Konsolidatsiya jarayonining asosiy qadamlarini amalga oshirish	Ichki operatsiyalarni o‘chirish	Guruh ichidagi savdo, qarzlar, kreditlar va boshqa operatsiyalarni o‘chirish.
		Qayta baholash va sozlash	Mol-mulk, aktivlar va majburiyatlarni bozor qiymatiga mos ravishda qayta baholash.
		Qarama-qarshi ko‘rsatkichlarni tahlil qilish	Har bir ko‘rsatkichni sinchkovlik bilan tahlil qilish va konsolidatsiyaga mos kelishini tekshirish.
4.	Yakuniy konsolidatsiyalashgan hisobotni tayyorlash	Konsolidatsiyalashgan moliyaviy holat to‘g‘risida hisobot	Barcha sho‘ba va qaram korxonalar balanslarini birlashtirish.
		Konsolidatsiyalashgan foyda va zarar hisobotlari	Guruhning umumiy moliyaviy natijalarini aks ettiruvchi hisobot tayyorlash.
		Izohlar va qo‘shimchalar	Moliyaviy hisobotga kiruvchi barcha izohlar va qo‘shimchalarni xalqaro standartlarga mos ravishda tuzish.
5.	Konsolidatsiyalashgan hisobotni taqdim etish va baholash	Audit va tasdiqlash	Tayyorlangan konsolidatsiyalashgan hisobotlarni auditorlar tomonidan tekshirish va tasdiqlash.
		Xalqaro standartlarga muvofiqlikni baholash	Hisobotlarning xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga mosligini baholash va zarur o‘zgartirishlarni kiritish.
		Xalqaro standartlarga muvofiqlikni baholash	Hisobotlarning xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga mosligini baholash va zarur o‘zgartirishlarni kiritish.
6.	Hisobotni tashqi manfaatdor tomonlarga taqdim etish	Investorlar va kreditorlarga taqdim etish	Tayyorlangan hisobotlarni investorlarga, kreditorlarga va boshqa manfaatdor tomonlarga taqdim etish

Ushbu metodikani takomillashtirish jarayoni davomida o‘zgaruvchan xalqaro standartlarni, yangi moliyaviy vositalarni va texnologik yangiliklarni inobatga olish zarur.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni yanada aniqroq va to‘liqroq tuzishga yo‘naltirilgan. Bu, aksiyalarni baholash va moliyaviy natijalarni konsolidatsiya qilish jarayonlarini yaxshilash orqali amalga oshiriladi va hisobotlarda aks ettirilgan moliyaviy ko‘rsatkichlar xalqaro amaliyot talablariga mos ravishda shaffof bo‘lishi ta'minlanadi. Investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun korxonaning moliyaviy holatini to‘g‘ri baholash imkoniyatini beradi hamda sho‘ba va qaram korxonalarda moliyaviy natijalarni birlashtirish orqali korxona rahbariyati uchun yanada to‘liqroq va ishonchliroq axborot taqdim etiladi. Bu esa strategik qarorlar qabul qilishda samaradorlikni oshiradi. Xalqaro standartlarga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobotlar xorijiy investorlar va xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi hamda korxonaning global bozorlar bilan integratsiyalashuviga yordam beradi. Korxonalarning

moliyaviy hisobot tuzish jarayonlarini avtomatlashtirish va optimallashtirish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish hisobotlarni tayyorlashda vaqtni tejash va xatoliklar ehtimolini kamaytiradi.

Bu natijalar korxonalarning moliyaviy holatini yaxshiroq aks ettirish, boshqaruvning samaradorligini oshirish va xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan.

Tarkibida sho‘ba va qaram korxonalari bo‘lgan korxonalarda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzish uslubiyotini takomillashtirish, bir qator muhim tahliliy nuqtai nazarlarni talab qiladi:

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiqlik korxonaning moliyaviy hisobotlarini global miqyosda qabul qilingan standartlarga moslashtiradi, global investorlar uchun yaxshiroq tushunish imkoniyatini yaratadi. Metodikaning takomillashtirilishi hisobotlarning aniq va to‘liq bo‘lishini ta’minlaydi va korxonaning moliyaviy holatini yaxshiroq aks ettiradi hamda hisobotlar orasida muvofiqlik va uzviylikni ta'minlash uchun konsolidatsiya qilingan hisobotlarning sifatini oshiradi. Konsolidatsiyalashgan hisobotlar orqali korxona rahbariyati uchun yanada ishonchli va to‘liqroq moliyaviy ma’lumotlar taqdim etiladi bu, ma’lumotlar orqali rahbariyat moliyaviy ma’lumotlar asosida yanada samarali strategik qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Rahbariyatga berilgan aniq va xalqaro standartlarga mos hisobotlar xalqaro bozorlar bilan hamkorlik qilishni osonlashtiradi va korxonaning global miqyosda raqobatbardoshligini oshiradi. Agar korxonaga yangi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hisobotlarni tayyorlash jarayonini soddalashtiradi va avtomatlashtiradi, bu korxona uchun vaqtni tejash va xatoliklar ehtimolini kamaytiradi.

Moliyaviy hisobotlarning sifatini, boshqaruvning samaradorligi raqobatbardoshliklarini oshirishni yaxshilashda konsolidatsiyalashgan hisobotlar xalqaro standartlarga muvofiq bo‘lishi korxonaning boshqaruv rahbariyati uchun yanada sifatli ma’lumotlar taqdim etiladi. Xalqaro standartlarga mos hisobotlar global bozorlar bilan integratsiyalashuvni osonlashtiradi va xalqaro investorlar bilan samarali hamkorlikni ta’minlaydi va korxona global bozorlar bilan raqobatlashish qobiliyatini oshiradi, hamda investorlar uchun yanada jozibador bo‘ladi. Umuman olganda, metodikaning takomillashtirilishi korxonalarga o‘z moliyaviy hisobotlarini xalqaro darajada sifatli, shaffof va ishonchli tarzda taqdim etishga imkon yaratadi, bu esa korxonaning global miqyosda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar. Tarkibida sho‘ba va qaram korxonalari bo‘lgan korxonalarda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzish uslubiyotini takomillashtirishning asosiy natijalari hisobotlar xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga moslashtiriladi, bunda global miqyosda hisobotlarning qabul qilinishini ta'minlaydi.

Metodika hisobotlarning sifatini oshirib, moliyaviy ma’lumotlarning aniqligi va shaffofligini ta'minlaydi, bu esa foydalanuvchilar uchun ishonchli axborot taqdim etadi.

Takomillashtirilgan uslubiyot rahbariyatga yanada sifatli ma’lumotlar taqdim etadi va hisobotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligi xalqaro bozorlar bilan integratsiyani osonlashtiradi va global investorlar bilan samarali hamkorlikni rivojlantiradi.

Hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hisobotlarni tayyorlash jarayonini avtomatlashtirish vaqtni tejash va xatoliklarni kamaytiradi.

Umuman olganda, bu uslubiyotni takomillashtirish natijasida korxonalar o‘z moliyaviy hisobotlarini xalqaro darajada sifatli va ishonchli tarzda tuzishi, bu orqali investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan muvaffaqiyatli hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. – www.lex.uz,
2. Вахрушина М.А., Мельникова Л.А. Международные стандарты финансовой отчетн. М.: Омега-Л, 2011, С. 389.
3. Generalova, N., Soboleva, G., Sokolova, N.(2015): IFRS-Russian Experience: Realities and Challenges, Proceedings of the 25th International-Business-Information-Management-Association

Conference, Netherlands, pp.601-608.
4. Ковалев, В. В., Ковалев, Вит.В. Анализ баланса. – 3-е изд., перераб. и доп. – Москва : Проспект, 2016. – 316 с.
5. Buxgalteriya hisobining milliy standartlari. https://lex.uz/nsbu.
6. Xo‘jabekov N.B. Biznesni birlashtirishda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni takomillashtirish: iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati, Toshkent: 2009. -22 b.;
7. O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonuni. Yangi tahriri. 2016 yil 13 aprel O‘RQ-404-son. www.lex.uz
8. Nasreddinov S.S. Konsolidatsiyalashtirilgan moliyaviy hisobot tuzishning nazariy va uslubiy masalalari («Dori-darmon» davlat aktsionerlik uyushmasi misolida) iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati.
9. D.E.Norbekov, A.T.To‘raev, Sh.Sh.Rahmonov. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisodiyot va moliya , 2019. -332 b.
10. Нидлз Б., Андерсон Х., Колдуэлл Д. Принципы бухгалтерского учёта. - Москва: Финансы и статистика, г.1997, 496с.
11. Nasretdinov S.S. «Konsolidatsiyalashtirilgan moliyaviy hisobot tuzishning nazariy va uslubiy masalalari». nom. diss. –T.: O‘zR Bank-moliya akademiyasi, 2005 y. 196-b.
12. Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish. Monografiya. T.: Globe Edit. 2018 y. 250 b.
13. Плотников В.С. Методологические основы консолидированного учета и отчетности. Казань, г. 2001. с.-25.
14. Пальгуева Т.В. «Консолидированная финансовая отчетность страховых компаний» диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва, г. 2019. с-19.
15. Козлова Т.В. Консолидированная бухгалтерская отчетность: теория и методика составления.- М.: 1997 г. 15 с.
16. Консолидация финансовой отчетности. Казначейское сообщество PEMPAL Тематическая группа по бухгалтерскому учету и отчетности в государственном секторе. 2016. 99 с.
17. Taylor, P.S. (1996) Consolidated financial reporting. London :Paul Chapman Publishing Ltd, 3-4 p
18. International Financial Reporting Standard 10 (IFRS 10) “Consolidated Financial Statements” / International Accounting Standards Board. - London, 2011. A-B.bandi.

А.Эшонкулов

Совершенствование методологии составления консолидированной финансовой отчетности на основе МСФО на предприятиях с дочерними компаниями

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования методологии составления консолидированной финансовой отчетности на основе международных стандартов финансовой отчетности на предприятиях. Консолидированная финансовая отчетность особенно важна для крупных предприятий, имеющих дочерние и зависимые компании, ее правильная структура позволяет инвесторам, кредиторам и другим заинтересованным лицам полно и правдиво отразить финансовое положение предприятия.

Ключевые слова: консолидированная финансовая отчетность, международные стандарты финансовой отчетности, дочерняя компания, зависимая компания, методология отчетности, совершенствование финансовой отчетности, финансовое состояние предприятия.

A.Eshonkulov

Improving the methodology for preparing consolidated financial statements based on IFRS at enterprises with subsidiaries

Abstract: This article examines the issues of improving the methodology for preparing consolidated financial statements based on international financial reporting standards at enterprises. Consolidated financial statements are especially important for large enterprises with subsidiaries and dependent companies, their correct structure allows investors, creditors and other interested parties to fully and truthfully reflect the financial position of the enterprise.

Keywords: consolidated financial statements, international financial reporting standards, subsidiary, dependent company, reporting methodology, improvement of financial statements, financial condition of the enterprise.

Mayram Xamidovna Xalimova – TIFT Universiteti “Moliya, bank ishi va buxgalteriya hisobi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING AUDITORLIK TEKSHIRUVIDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida auditorlik tekshiruvlarini amalga oshirishda yuzaga keladigan asosiy muammolarni aniqlash va ularni hal qilish yo‘llarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini baholashdagi qiyinchiliklar, xalqaro standartlarga mos kelmaydigan ichki nazorat tizimlari va auditorlarning malaka darajasini oshirish zarurati kabi masalalar o‘rganilgan. Shuningdek, auditorlik faoliyatining milliy va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish yo‘nalishlari, hamda aksiyadorlik jamiyatlarida auditorlik jarayonlarini takomillashtirish uchun xalqaro standartlarni to‘liq joriy etish, ichki nazorat tizimlarini mustahkamlash, auditorlarning malakasini oshirish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishlar ham ko‘rib chiqilgan.
Kalit so‘zlar: aksiyadorlik jamiyati, auditorlik tekshiruvi, xalqaro audit standartlari, ichki nazorat tizimi, moliyaviy hisobot, auditorlar malakasi, texnologiyalardan foydalanish, shaffoflik, muammolar, istiqbollar.

Kirish. Bugungi kunda aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi sifatida e’tirof etilmoqda. Bunday jamiyatlar moliyaviy resurslarni jalb qilish va ularni samarali boshqarish orqali iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, aksiyadorlarning moliyaviy manfaatlarini himoya qilish va ularga taqdim etiladigan axborotning haqqoniyligini ta'minlash dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Auditorlik tekshiruvlari ushbu vazifalarni amalga oshirishning muhim vositasi sifatida ko‘riladi. Bu bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-dekabrdagi "Auditorlik faoliyatini yanada takomillashtirish, auditorlik xizmatlari sifatini oshirish va xalqaro audit standartlarini joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" gi qarori auditorlik faoliyatini yaxshilashga qaratilgan muhim hujjatdir. Ushbu qarorda auditorlik xizmatlarini rivojlantirish, xalqaro standartlarga moslashtirish, auditorlar malakasini oshirish va ularning ishlash sharoitlarini yaxshilash choralari belgilangan. Qaror asosida auditorlik tekshiruvlarining mustaqilligi, ishonchliligi va shaffofligini ta’minlash uchun zarur huquqiy va amaliy mexanizmlar ishlab chiqilgan. Shuningdek, auditorlik faoliyatini raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha ko‘rsatmalar berilgan, bu esa auditorlik xizmatlarining sifatini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi[1].

Auditorlik faoliyatini rivojlantirishda xalqaro tajriba va standartlarga moslashish muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy davlatlar, jumladan, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya va Yaponiyada moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligi va shaffofligini ta'minlash uchun xalqaro audit standartlaridan keng foydalanilmoqda. Masalan, 2020-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, xalqaro standartlar asosida olib borilgan auditorlik tekshiruvlari tufayli Buyuk Britaniyada aksiyadorlar tomonidan moliyaviy hisobotlarga nisbatan ishonch darajasi 85 foizga yetgan.O‘zbekistonda esa aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini tartibga solish borasida sezilarli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo‘yicha qator qarorlar qabul qilindi. 2023-yil holatiga ko‘ra, 60 foizdan ortiq aksiyadorlik jamiyatlari xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o‘tishni boshlagan. Shu bilan birga, auditorlik faoliyatining sifatini oshirish uchun yangi qonunchilik normalari joriy etilmoqda. Xalqaro tajribaga nazar tashlaydigan bo‘lsak, auditorlik faoliyatini takomillashtirishda ichki nazorat tizimlarini rivojlantirish va auditorlar malakasini oshirish muhim omillardan biri hisoblanadi. Masalan, Germaniyada auditorlarning har yili malaka oshirishi majburiy hisoblanadi, bu esa auditorlik hisobotlarining ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi. O‘zbekistonda esa auditorlarning malaka darajasi va xalqaro standartlarga mosligini oshirish bo‘yicha tadbirlar so‘nggi yillarda faollashtirilmoqda. Bugungi global iqtisodiy sharoitda aksiyadorlik jamiyatlarining samarali faoliyat yuritishi uchun moliyaviy shaffoflikni ta'minlash alohida ahamiyatga ega. Shu ma’noda, xalqaro audit standartlarini qo‘llash nafaqat ishonchni oshiradi, balki xalqaro investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Misol uchun, xalqaro standartlar asosida auditorlik tekshiruvi o‘tkazilgan kompaniyalarga investitsiya kiritgan xorijiy investorlar soni oxirgi besh yil ichida 25 foizga oshgan.

Shu bilan birga, aksiyadorlik jamiyatlarida auditorlik tekshiruvlarini amalga oshirishda bir

qator muammolar mavjud. Jumladan, ichki nazorat tizimlarining zaifligi, xalqaro standartlarga mos kelmaydigan hisobotlar va malakali auditorlarning yetishmasligi ko‘pincha bu jarayonlarning sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekistonda 2022-yilda o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida aksiyadorlik jamiyatlarining 40 foizida ichki nazorat tizimlarining yetarlicha rivojlanmagani aniqlangan. Shu o‘rinda, aksiyadorlik jamiyatlarining auditorlik tekshiruvlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu esa, o‘z navbatida, moliyaviy shaffoflikni ta’minlash, investorlar va aksiyadorlar ishonchini oshirish hamda korxona boshqaruvini samarali tashkil etish imkonini beradi. Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, xalqaro standartlar asosida auditorlik jarayonlarini tashkil etish kompaniyalarning bozor raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Iqtisodchi olimlar tomonidan moliyaviy hisobot va konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzish borasida turli xil qarashlar mavjud bo‘ib, Xususan AQSh olimi Maykl Porter korporativ boshqaruv va auditorlik tekshiruvlarining samaradorligini oshirishda raqobat ustunliklarini ta'kidlagan. Uning fikricha, auditorlik tekshiruvlari moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va haqqoniyligini ta'minlash orqali aksiyadorlar uchun qimmatli axborot beradi. Porter, shuningdek, xalqaro audit standartlarini qo‘llash investitsion muhitni yaxshilashga xizmat qilishini qayd etgan[2]. Yana bir Buyuk Britaniyalik olim Robert Kaplan xalqaro audit standartlarining korporativ moliyaviy boshqaruvga integratsiyasi bo‘yicha qator tadqiqotlar o‘tkazgan. Uning fikricha, xalqaro standartlar asosida olib boriladigan auditorlik tekshiruvlari korxonalarning moliyaviy barqarorligini oshiradi va aksiyadorlarning ishonchini mustahkamlaydi. Kaplan shuningdek, ichki nazorat tizimlarini kuchaytirish muhimligini alohida ta'kidlaydi[3]. Yana bir Germaniyalik iqtisodchi Klaus Schmidt auditorlik faoliyatida xavfga asoslangan yondashuvning ahamiyatini o‘rgangan. Uning tadqiqotlariga ko‘ra, xavflarni tahlil qilish va boshqarish auditorlik jarayonining samaradorligini oshiradi. Schmidtning fikricha, xalqaro standartlar bu jarayonda auditorlarga aniq metodologik yo‘nalishlar beradi va hisobotlarning ishonchliligini ta’minlaydi[4]. Fransuz olimi Pyer Bourdye korporativ boshqaruv va auditorlikda manfaatlar ziddiyati masalasini tadqiq qilgan. U xalqaro standartlarni qo‘llash aksiyadorlar va menejerlar o‘rtasidagi ishonch muhitini mustahkamlaydi, deb hisoblaydi. Bourdye, shuningdek, auditorlik jarayonlarini shaffof va mustaqil o‘tkazishning ahamiyatini ta'kidlagan[5]. Yapon olimi Masao Nakasone xalqaro standartlar asosida auditorlikning texnologik integratsiyasini o‘rgangan. U zamonaviy texnologiyalar va sun’iy intellektdan foydalanish auditorlik jarayonlarini tezkor va aniq amalga oshirish imkonini beradi, deb hisoblaydi. Nakasone, shuningdek, Yaponiya tajribasida xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka moslashtirishning muhimligini ta'kidlab o‘tgan[6]. Respublikamiz olimlaridan A.A. Abduqodirov fikricha, O‘zbekistonda auditorlik faoliyatini rivojlantirish uchun xalqaro tajriba va standartlarni milliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. U auditorlik jarayonlarining samaradorligini oshirish uchun ichki nazorat tizimlarini takomillashtirish va malakali mutaxassislarni tayyorlashni asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida ko‘rsatadi[7]. I.R. Karimov O‘zbekiston sharoitida korporativ boshqaruvni samarali tashkil etish auditorlik tekshiruvlarining sifatiga bog‘liq. Karimovning ta’kidlashicha, xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini joriy etish orqali kompaniyalar o‘zlarining moliyaviy shaffofligini oshirishlari va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini kuchaytirishlari mumkin[7]. B.T. Xolmirzayev Olim xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini aksiyadorlik jamiyatlarida qo‘llash zarurligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, bu nafaqat hisobotlarning shaffofligini ta’minlaydi, balki xorijiy investorlar ishonchini ham oshiradi. Shuningdek, ichki auditni rivojlantirish orqali xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta’minlash zarurligi qayd etilgan[8]. S.I.Rahimov auditorlik faoliyatining mustaqilligi va shaffofligini oshirish muhimligini ta’kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, O‘zbekistonda auditorlik xizmatlarini rivojlantirish uchun xalqaro standartlar asosida texnologiyalarni joriy etish va auditorlarning malakasini oshirish zarur[9]. J.A.Bozorovning fikricha, aksiyadorlik jamiyatlarida auditorlik xizmatlari sifati to‘g‘ridan-to‘g‘ri auditorlarning malakasi va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga bog‘liq. U moliyaviy hisobotlarni avtomatlashtirish va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali audit jarayonlarini soddalashtirish va aniqligini oshirishni tavsiya qiladi[10].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishini bajarishda kuzatish, ma’lumotlarni to‘plash,

umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, monografik kuzatish usullaridan foydalanilgan, hamda auditorlik faoliyatini takomillashtirish va xalqaro audit standartlarini joriy etishning asosiy yondashuvlari uslubi bo‘yicha metodologiyani takomillashtirish.

Tahlil va natijalar. O‘zbekistonda auditorlik faoliyati so‘nggi yillarda sezilarli darajada rivojlanmoqda, ammo xalqaro audit standartlarini to‘liq joriy etish hali ham dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Auditorlar malakasini oshirish va xalqaro tajribalarni o‘rganish orqali, auditorlik xizmatlarining sifati va ishonchliligi yaxshilanishi mumkin. Hozirgi kunda, xalqaro standartlarga mos ravishda amalga oshiriladigan audit tekshiruvlarining ko‘lami va sifatini oshirish zarur. Shuningdek, auditorlik tizimini yaxshilash uchun malakali kadrlar tayyorlash, audit firmalarining mustaqilligini ta’minlash, va audit jarayonlarining shaffofligini oshirish muhimdir.

Xalqaro audit standartlarini joriy etish. Xalqaro audit standartlarini joriy etish auditorlik faoliyatining sifatini oshirishga yordam beradi, bu esa aksiyadorlar va investorlarga yanada ishonchli va aniq moliyaviy hisobotlar taqdim etishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, audit tekshiruvlarining xalqaro andozalarga asoslanishi, kompaniyalar o‘rtasidagi raqobatni oshiradi va xalqaro bozorlarda ishonchni mustahkamlaydi. Biroq, O‘zbekistonda bu standartlar to‘liq amalda qo‘llanilmayapti, chunki ba’zi qonunchilikdagi nomutanosibliklar va amaliyotdagi qiyinchiliklar mavjud. Xalqaro tajribalar va standartlarni joriy etish jarayonida milliy xususiyatlar va bozor sharoitlarini hisobga olish zarur. Auditorlik xizmatlari sifatini oshirish istiqbollari. Auditorlik xizmatlarining sifatini oshirish uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerak. Ular orasida auditorlik firmalarining faoliyatini raqamlashtirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, audit jarayonlarini soddalashtirish va avtomatlashtirish muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, auditorlar uchun doimiy malaka oshirish kurslarini tashkil etish, yangi auditorlik texnikalarini o‘rgatish va xalqaro audit metodologiyalarini o‘zlashtirish zarur. Auditorlik xizmatlari sifatini oshirish uchun davlat va xususiy sektorning hamkorligi, audit jarayonlarining ochiqligi va axborot almashinuvi muhim ahamiyatga ega. Bu, o‘z navbatida, O‘zbekiston iqtisodiyotining global integratsiyasini yengillashtiradi. Bugungi kunda auditorlik faoliyati va moliyaviy hisobotlarning sifati iqtisodiy rivojlanishning muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Xalqaro auditorlik standartlarining joriy etilishi va ularning milliy tizimga moslashtirilishi auditorlik jarayonlarining aniqligini va ishonchliligini oshiradi. O‘zbekistonda auditorlik xizmatlarini takomillashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirish uchun bir qator chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Biroq, auditorlik xizmatlarining sifatini oshirish va xalqaro tizimlarga moslashtirish hali ham o‘zgarishlarni talab qilmoqda. Xalqaro auditorlik standartlari iqtisodiy o‘sish va barqarorlikni ta’minlash uchun zarur vosita bo‘lib, ularni joriy etish orqali auditorlik jarayonlarida shaffoflik va ishonchlilikni oshirish mumkin. O‘zbekistonda ham auditorlik faoliyatining rivojlanishi va xalqaro standartlarga moslashtirish borasida sezilarli o‘sish kuzatilmoqda. Biroq, bu jarayonning to‘liq amalga oshirilishi uchun yanada rivojlangan tahlil va chora-tadbirlar zarur.

1-jadval.

Auditorlik xizmatlarining xalqaro va O‘zbekistondagi o‘sish tahlili[1]


Yillar	Xalqaro auditorlik xizmatlari o‘sish foizi	O‘zbekiston auditorlik xizmatlari o‘sish foizi	Izoh
2019	5%	2%	Xalqaro auditorlik sohasida o‘sish davom etdi, O‘zbekistonda auditorlik xizmatlarining rivojlanishi sezilarli, ammo turlar cheklangan.
2020	6%	3%	Xalqaro miqyosda auditorlik faoliyati va texnologiyalarning rivojlanishi davom etdi, O‘zbekistonda ham auditorlik xizmatlarining salmoqli o‘sishi kuzatildi.
2021	7%	4%	O‘zbekistonda xalqaro audit standartlarining tatbiqiga yanada jiddiy yondashuvlar ko‘rsatildi.

[1]Muallif tomonidan tuzilgan.

2022	8%	5%	Xalqaro auditorlik standartlarini joriy etish va O‘zbekistondagi audit xizmatlarini rivojlantirishning ijobiy natijalari.
2023	9%	6%	O‘zbekistondagi auditorlik sohasining global standartlarga moslashuvi va xalqaro hamkorlikning kuchayishi.

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlar 2019–2023 yillarda xalqaro auditorlik xizmatlarining o‘sishi va O‘zbekiston auditorlik sohasidagi rivojlanishni aks ettiradi. O‘zbekiston auditorlik xizmatlarining o‘sish sur’ati xalqaro tendensiyalarni qayd etadi, ammo soha hali ham ba'zi cheklovlar bilan yuzlashmoqda.

Auditorlik xizmatlari orqali kompaniyalar va tashkilotlarning moliyaviy holati aniq ko‘rsatiladi, bu esa investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun ishonchni oshiradi. Biroq, auditorlik faoliyatining samarali bo‘lishi uchun bir qator muammolarni hal qilish zarur. Xalqaro audit standartlarini to‘liq tatbiq etmaslik, auditorlar malakasining yetarli emasligi, audit jarayonlarining shaffof emasligi va O‘zbekiston auditorlik tizimining xalqaro tizimlarga moslashmasligi kabi muammolar auditorlik xizmatlarining sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu muammolar quyidagilardan iborat.



1-rasm. Auditorlik xizmatlarida yuzaga keladigan muammolar

Auditorlik faoliyatining sifatini oshirish va xalqaro auditorlik standartlarini to‘liq joriy etish uchun bir qator samarali yechimlarni amalga oshirish zarur. Bu yechimlar auditorlik tizimini rivojlantirish, shaffoflikni ta’minlash va audit jarayonlarini modernizatsiya qilishga qaratilgan. Xalqaro auditorlik standartlarini to‘liq tatbiq etish, auditorlar malakasini oshirish, me’yoriy hujjatlarni yangilash va audit jarayonlarini raqamlashtirish kabi tashabbuslar, nafaqat auditorlik xizmatlarining sifatini yaxshilashga, balki iqtisodiy tizimning yanada ishonchli va barqaror bo‘lishiga ham yordam beradi. Ushbu yechimlarni amalga oshirish orqali O‘zbekiston auditorlik tizimi xalqaro miqyosda raqobatbardosh va samarali bo‘lishi mumkin.

2-jadval.

Auditorlik faoliyatining takomillashtirilishi uchun yechimlar[1]

	Yechim	Tavsif
1.	Xalqaro auditorlik standartlarini to‘liq joriy etish	Xalqaro auditorlik standartlarini joriy etish uchun yangi qonunchilik va me’yoriy hujjatlar asosida maxsus o‘quv dasturlari ishlab chiqilishi zarur. Auditorlar uchun treninglar, seminarlarda qatnashish, xalqaro metodologiyalarga asoslanish.

[1] Muallif tomonidan tuzilgan.

2.	Auditorlar malakasini oshirish va ta’lim tizimini rivojlantirish	Auditorlar uchun malaka oshirish kurslarini kengaytirish, oliy ta’limda auditorlik bo‘yicha maxsus dasturlarni joriy etish va amaliyotlarni kuchaytirish. Auditorlik sohasiga yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish.
3.	Audit jarayonlarining shaffofligini ta’minlash	Auditorlik jarayonlarini xalqaro audit metodologiyalariga asoslanib, hisobotlarni to‘liq va aniq shakllantirish zarur. Audit jarayonlarining ochiqligini oshirish va mustaqillikni ta’minlash.
4.	O‘zbekiston auditorlik tizimini xalqaro tizimlarga moslashtirish	O‘zbekiston auditorlik tizimining xalqaro tizimlarga moslashuvi uchun milliy auditorlik tashkilotlari va xalqaro audit tashkilotlari bilan hamkorlikni kuchaytirish zarur. Bu jarayon auditorlik xizmatlarining sifatini yaxshilashga yordam beradi.
5.	Me’yoriy hujjatlarni takomillashtirish	Auditorlik faoliyatiga oid me’yoriy hujjatlarni yangilash va xalqaro standartlarga moslashtirish zarur. Yangi qonunchilikni ishlab chiqish va auditorlik faoliyatiga oid barcha hujjatlarni modernizatsiya qilish.
6.	Audit jarayonlarini raqamlashtirish va innovatsiyalarni joriy etish	Raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan tizimlar auditorlik jarayonlarini soddalashtirishi va samaradorligini oshirishi mumkin. Yangi texnologiyalarni joriy etish, audit firmalarining raqamli tizimlar bilan ishlashini rivojlantirish.

Auditorlik faoliyatining samaradorligini oshirish va xalqaro auditorlik standartlarini to‘liq joriy etish uchun taklif etilgan yechimlar muhim ahamiyatga ega. Xalqaro auditorlik standartlarini joriy etish, auditorlar malakasini oshirish, audit jarayonlarini shaffoflashtirish, va tizimni global auditorlik tizimlariga moslashtirish orqali auditorlik xizmatlari sifatini sezilarli darajada yaxshilash mumkin. Bularning barchasi O‘zbekistonning iqtisodiy tizimiga yuqori darajadagi ishonchni keltiradi va xalqaro bozorlar bilan integratsiyalashish imkoniyatlarini yaratadi. Shuningdek, audit jarayonlarini raqamlashtirish va innovatsiyalarni joriy etish auditorlik faoliyatining tezligini oshiradi, xatoliklarni kamaytiradi va audit natijalarining aniqligini ta’minlaydi. Bu yechimlarni amalga oshirish O‘zbekiston auditorlik tizimining global miqyosda raqobatbardosh bo‘lishiga yordam beradi. Bunday yondashuvlar nafaqat audit xizmatlarini, balki iqtisodiy va moliyaviy tizimni ham yanada shaffof va barqaror qiladi.

Xulosa va takliflar. Auditorlik faoliyati, aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy holatini aniqlash va ishonchli ma’lumotlar taqdim etish orqali iqtisodiyotning barqarorligi va shaffofligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Yuqoridagi misolda ko‘rsatilgan auditorlik jarayoni, aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy hisobotlarini tekshirish orqali potensial xatoliklarni aniqlash va tuzatish imkonini yaratdi. Auditorlar tomonidan olib borilgan tekshiruv va tavsiyalar, jamiyatning moliyaviy faoliyatini yanada optimallashtirishga yordam beradi, investorlar uchun ishonchni oshiradi va iqtisodiy tizimga ta’sir ko‘rsatadi. Auditorlik jarayonining samaradorligi, xalqaro auditorlik standartlariga rioya qilish, malakali auditorlarni tayyorlash va audit jarayonlarini shaffof qilish orqali yanada oshadi.

Auditorlik tashkilotlari va aksiyadorlik jamiyatlari xalqaro auditorlik standartlariga to‘liq rioya qilishlari kerak. Bu, o‘z navbatida, audit natijalarining aniqligini ta’minlashga va global iqtisodiy tizimga moslashishga yordam beradi.

Auditorlik sohasidagi mutaxassislarning malakasini oshirish uchun maxsus treninglar, sertifikatlash dasturlari va o‘quv seminarlarini tashkil etish zarur. Bu auditorlarning o‘z kasbini mukammal bajarishlariga yordam beradi.

Auditorlik faoliyatining ochiqligini oshirish uchun audit hisobotlari va jarayonlari yanada shaffof va tushunarli bo‘lishi kerak. Bu, investorlar va aksiyadorlar uchun ishonchni oshiradi.

Audit jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish, auditorlar uchun samarali vositalarni taqdim etish orqali audit jarayonining tezligini oshirish va xatoliklarni kamaytirish mumkin.

Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy hisobotlarni yanada to‘g‘ri va aniq shaklda taqdim etishlari zarur. Bu jarayonni optimallashtirish uchun yangi metodologiyalar va standartlar joriy qilinishi kerak.

Davlat va regulyator organlar auditorlik faoliyatining doimiy nazoratini ta’minlash va audit natijalarining haqqoniyligini tekshirishda faol bo‘lishlari kerak. Bu jarayon auditorlik sohasida ishonchni oshiradi va ijtimoiy mas’uliyatni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-dekabrdagi "Auditorlik faoliyatini yanada takomillashtirish, auditorlik xizmatlari sifatini oshirish va xalqaro audit standartlarini joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" www.lex.uz,
2. Porter M. E. *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. *New York*: Free Press.1985 yil
3. Kaplan R. S., & Norton D. P. *The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action*. Boston: Harvard Business School Press.1996 yil.
4. Schmidt K. M. "Risk-based auditing: An Effective Methodology in a Global *Environment." Journal of Accounting Research,* 41(2),2003 yil. 235-258.*Bourdieu P. Practical Reason: On the Theory of Action. Stanford: Stanford* University Press. 1998 yil..
5. Nakasone M. "AI and Technology Integration in Auditing: The Japanese Experience." *Asia-Pacific Journal of Accounting & Economics, 26*(4),2019yil. 412-430.
6. Abduqodirov A. A. *Auditorlik faoliyatini takomillashtirishning dolzarb masalalari*. Toshkent: Iqtisodiyot.2021 yil.
7. Karimov I. R. *Korporativ boshqaruv va moliyaviy shaffoflik.* Toshkent: Moliya. 2018 yil.
8. Xolmirzayev B. T. "Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarish." *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar,* 2(3),2020 yil. 55-6.
9. Rahimov S. I. *O‘zbekistonda auditorlik faoliyatini rivojlantirishning istiqbollari*. Toshkent: Universitet nashriyoti. 2019 yil.
10. Bozorov J. A. (2022). "Moliyaviy hisobotlar tahlili va auditorlik xizmatlari sifati." Moliyaviy hisobot va audit, 4(1), 34-47.2022 yil.

М.Халимова

Проблемы и перспективы, возникающие при аудите акционерных обществ

Аннотация: Данная статья посвящена выявлению основных проблем, возникающих при осуществлении проверок в акционерных обществах, и анализу путей их решения. В ней рассматриваются такие вопросы, как трудности в оценке достоверности финансовой отчетности, системы внутреннего контроля, не соответствующие международным стандартам, а также необходимость повышения квалификации аудиторов. Также рассмотрены направления гармонизации аудиторской деятельности с национальными и международными стандартами, а также рассмотрены полное внедрение международных стандартов, укрепление систем внутреннего контроля, повышение квалификации аудиторов, использование современных технологий для совершенствования аудиторских процессов в акционерных обществах.

Ключевые слова: акционерное общество, аудит, международные стандарты аудита, система внутреннего контроля, финансовая отчетность, квалификация аудиторов, использование технологий, прозрачность, проблемы, перспективы.

M.Halimova

Problems and prospects arising in the audit of joint stock companies

Abstract: This article is dedicated to identifying the main problems that arise in the implementation of audits in joint-stock companies and analyzing ways to solve them. It examines issues such as difficulties in assessing the reliability of financial statements, internal control systems that do not meet international standards, and the need to improve the qualifications of auditors. Also, the directions of harmonization of auditing activities with national and international standards, as well as the full implementation of international standards, strengthening of internal control systems, improvement of auditors' qualifications, and the use of modern technologies for the improvement of auditing processes in joint-stock companies were also considered.

Keywords: joint-stock company, auditing, international auditing standards, internal control system, financial reporting, qualifications of auditors, use of technologies, transparency, problems, perspectives.

Заррух Умарович Мухаммадиев – СамИСИ докторанти, PhD

МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИ АСОСИДА КАПИТАЛ ИНВЕСТИЦИЯЛАР ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ: ХАЛҚАРО ВА МИЛЛИЙ ЖИҲАТЛАР

Аннотация. Мақолада капитал инвестициялар ҳисобининг ҳозирги ҳолати, корхоналарда уларнинг ҳисобини юритиш бўйича рўй бераётган амалий муаммолар, рақамли иқтисодиёт шароитида мамлакатимизда ишлаб чиқилган йўриқномалар, ушбу ҳужжатларда келтирилган капитал инвестицияларни тартибга солишга доир қоидаларни молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларида келтирилган тартиб-қоидалар билан солиштириш орқали капитал инвестициялар ҳисобини такомиллаштириш йўллари каби масалалар келтирилган.

Калит сўзлар: молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари, рақамли иқтисодиёт, инвестициялар, капитал инвестициялар, асосий воситалар, номоддий активлар, капитал инвестициялар ҳисоби, бухгалтерия ҳисоби, капитал инвестициялар, молиялаштириш манбалари.

Кириш. Рақамли иқтисодиёт шароитида капитал инвестициялар ҳар қандай тадбиркорлик фаолиятини амалга ошириш учун муҳим бўлиб ҳисобланади. Капитал инвестициялар корхоналарга ишлаб чиқариш, хизмат кўрсатиш ва бошқа фаолиятларини кенгайтириш, янги – инновацион маҳсулот ва хизматларни жорий этиш, иқтисодий самарадорлик кўрсаткичларини ошириш, ички ва ташқи бозорда рақобатбардошликни сақлаб қолиш имкониятини беради. Капитал инвестицияларнинг корхоналарга кўрсатадиган бундай ижобий таъсири, албатта, мамлакат миллий иқтисодиётининг ўсишига ҳисса қўшади, деб ҳисоблаймиз. Зотан, Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан қабул қилинган “Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисида”ги Фармонида мамлакатнинг иқтисодий ўсишини таъминлаш натижасида унинг даромадини ривожланган ва барқарор давлатлар қаторида бўлишини таъминлаш, миллий иқтисодиёт ҳажмини 2030 йилга қадар икки баробар ошириш, шунингдек, барқарор иқтисодий ўсиш орқали аҳоли турмуш даражасини яхшилаш мақсадида “Асосий капиталга киритиладиган инвестициялар ҳажмининг йиллик ўртача 7 фоиз атрофида ўсишини таъминлаш”[1] каби устувор вазифалар белгилаб берилган. Ҳозирги рақамли иқтисодиёт шароитида бу каби вазифаларнинг тегишли ташкилот ва идоралар олдига қўйилиши, бугунги кунда капитал инвестицияларга оид масалаларнинг қанчалик даражада муҳимлилигидан, мамлакатда инвестицион сиёсатнинг муҳим стратегия таркибидан ўрин олганлигидан далолат беради, деб бемалол айтиш мумкин.

Юқоридаги долзарб вазифалардан келиб чиққан ҳолда капитал инвестициялар бўйича олиб борилган тадқиқотлар асосида шундай хулосага келдикки, капитал инвестициялар корхоналарга иқтисодий томондан наф келтирсада, бироқ иккинчи томондан унинг ўзига хос камчиликлари ҳам мавжуддир. Биринчидан, корхоналарга капитал инвестицияларни жорий этиш ишлаб чиқариш жараёнларини оптималлаштиришга, натижада эса, корхонада ишлаб чиқарилган тайёр маҳсулотлар ҳажмининг ошишига, уларнинг сифатини яхшилашга, қолаверса меҳнат унумдорлигини ошишига олиб келади ва натижада корхонада фойда кўрсаткичларнинг ошиб боришига хизмат қилади. Бироқ, шундай бўлсада айрим вазиятларда капитал инвестицияларга сарфланган харажатлар корхонага пул оқимининг танқислигига олиб келиши мумкин. Бундай вазиятда корхона ташқи молиялаштириш манбаларига муҳтож бўлиб қолади. Иккинчидан, корхоналарга капитал инвестициялар киритилгандан кейин унинг таъсири узоқ муддатдан кейин намоён бўлади. Бу эса, инвестиция киритган субъектларнинг ушбу давр оралиғидаги даромадларини пасайтиришга олиб келиши мумкин. Шунинг учун, корхоналарда капитал инвестицияларни киритишда ҳисоб-китоб ишларини оптимал тарзда амалга ошириш, капитал инвестициялар ҳисобини тўғри ва ўз вақтида юритиш, улар бўйича ахборотларни молиявий ва бошқарув ҳисобот шаклларида шаффоф акс эттириш муҳимдир.

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисида”ги Фармони. 2023 йил 11 сентябрь. ПФ-158.

Тадқиқот методологияси. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида капитал инвестициялар ҳисобини такомиллаштириш бўйича олиб борилган тадқиқот ишида илмий абстракциялаш, статистик таҳлил, иқтисодий таҳлил, монографик кузатув, қиёслаш, индукция ва дедукция каби тадқиқот усулларидан фойдаланилган.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Ўзбекистон Республикаси “Инвестициялар ва инвестиция фаолияти тўғрисида”ги Қонунда инвестицияларнинг объектига кўра турлари қуйидагича таснифланган: капитал инвестициялар, молиявий инвестициялар ва ижтимоий инвестициялар[1]. Инвестицияларнинг ушбу турлари бўйича мамлакатимизнинг кўплаб олимлари томонидан илмий тадқиқот ишлари олиб борилган. Хусусан, мамлакатимиз олимларидан Б.Ф.Боронов[2] молиявий инвестициялар ҳисоби бўйича илмий изланишлар олиб борган бўлиб, унинг тадқиқот ишида молиявий инвестициялар молиявий инструментларнинг таркибий қисми сифатида тадқиқ этилган ҳамда уларнинг ҳисобини такомиллаштиришга оид илмий-амалий таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган. Шунингдек, мазкур тадқиқот ишида халқаро таълимотда молиявий инвестицияларнинг молиявий активларнинг таркибий қисми сифатида белгиланганлиги ҳисобга олинган ҳолда моливий инвестицияларни ҳиссали қатнашиш методи асосида баҳолашнинг услубий тартиб-қоидалари, уларнинг молиявий ҳисобот шаклларида халқаро талабларга мувофиқ тарзда акс эттириш масалалари ёритилган. Олимнинг тадқиқот ишлари бугунги молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш шароитида муҳим ҳисоблансада, бироқ тадқиқот объекти сифатида қаралган инвестицияларнинг маълум бир қисми ҳисоб объекти сифатида тадқиқ этилган.

Бошқа иқтисодчи олим О.И.Очилов[3] эса, ўзининг илмий тадқиқот ишида инвестицияларнинг бухгалтерия ҳисоби объекти сифатидаги тавсифи, уларни таснифлаш асослари, таҳлили, инвестицияларга оид ҳисоботларни халқаро стандартлар асосида ишлаб чиқиш, инвестицияларнинг омилли таҳлили ва уни такомиллаштириш масалалари ёритилган. Тадқиқот ишида кўрилган энг муҳим жиҳат шундаки унда ижтимоий инвестицияларнинг бухгалтерия ҳисоби ва таҳлилига оид тавсиялар ишлаб чиқилган бўлиб, инсон капиталига қилинган инвестицияларни ижтимоий инвестициялар таркиби сифатида баҳолаган ҳамда уларнинг ҳисоби ва таҳлилини такомиллаштириш бўйича тадқиқот ишлари олиб борилган. Бундан кўриниб турибдики, олим инсон капиталига қилинган инвестицияларни инвестицияларнинг алоҳида бир тури сифатида эътироф этиб, илмий тадқиқот ишида асосан шу мавзу тадқиқ этилган. Бироқ, инвестицияларнинг асосий турларидан бири ҳисобланган капитал инвестициялар ҳисоби бўйича фақатгина, капитал инвестицияларнинг тавсифи ва таснифи ўрганилган бўлиб, унинг ҳисоб объекти сифатидаги бошқа жиҳатлари илмий тадқиқот ишида етарлича ўрганилмаган, деган хулосага келинди.

Маҳаллий олимларимиздан О.Т.Астанакулов[4] тадқиқот ишида инвестициялар ҳисоби ва таҳлили бўйича умумий ёндашувларни амалга оширган бўлиб, инвестиция фаолияти, инвестиция сиёсати ва фаолиятининг асосий йўналишлари, инвестиция лойиҳалари ва самарадорликни ифодаловчи кўрсаткичларни баҳолаш, ҳамда таҳлил қилиш, корхоналарда инвестиция самарадорлигига таъсир қилувчи омиллар таъсири ва уларни ҳисоб-китоб қилиш йўллари, хўжалик юритувчи субъектларда пул оқимларига оид инвестициялар самарадорлигини баҳолаш ва таҳлил қилиш каби масалалар тадқиқ этилган. Олимнинг тадқиқотлари асосида эришган ушбу натижаларидан кўриш мумкинки, инвестициялар фақатгина таҳлил объекти сифатида ўрганилган бўлиб, бухгалтерия ҳисоби объекти сифатида унинг таркибий қисмлари, хусусан, капитал инвестициялар ҳисоби илмий тадқиқот ишида тадқиқ этилмаган.

---

[1] Ўзбекистон Республикасининг “Инвестициялар ва инвестиция фаолияти тўғрисида”ги Қонуни. 2019 йил 25 декабрь. 598-сон.

[2] Боронов Б.Ф. Корхоналар молиявий активлари ҳисобини такомиллаштириш. –Т.: ТМИ, иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация, 2021, 150 б.

3 Очилов О.И. Хўжалик юритувчи субъектларда инвестициялар ҳисоби ва таҳлилини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. -Т.: 2021, 228 б.

[4] Астанакулов О.Т. Корхоналар инвестиция фаолияти таҳлили методологиясини такомиллаштириш.-Т.: ТМИ, иқтисодиёт фанлари доктори диссертацияси, 2020, 225 б.

Таҳлил ва натижалар. Юқорида номлари зикр этилган олимлар томонидан эътироф этилган илмий ишлар бухгалтерия ҳисобини такомиллаштиришга хизмат қилсада, бироқ капитал инвестицияларни рақамли иқтисодиёт шароитидаги вазифаларидан келиб чиққан ҳолда, уларни молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида такомил-лаштиришга оид муаммолар ҳали ҳамон мавжуд. Шунинг учун, биз, ушбу тадқиқот ишимизда, капитал инвестицияларга оид халқаро тажрибаларда келтирилган, ҳамда мамлакатимизда ишлаб чиқилган бухгалтерия ҳисобига оид стандартларни тадқиқ этдик.

Бугунги кунда, инвестицияларнинг манбаларда келтирилган иккита тури бухгалтерия ҳисобининг объекти сифатида ҳисобга олинади. Булар: молиявий инвестициялар ва капитал инвестициялар. Молиявий инвестициялар мамлакатимизда 12-сон “Молиявий инвестицияларларни ҳисобга олиш” бухгалтерия ҳисоби миллий стандарти асосида тартибга солиниб, унда “хўжалик юритувчи субъект тасарруфидаги (фоиз, роялти, дивиденд ва ижара ҳақи шаклида) даромад олишга мўлжалланган, инвестиция қилинган капитал қийматининг ортиши ёки инвестиция қилувчи компаниянинг бошқа наф олиш учун фойдаланадиган активлар”[1] деб таъриф берилган. Мазкур стандартда молиявий инвестицияларни таснифлаш, баҳолаш, қайта баҳолаш, уларни сотиш ва ўтказиш ҳамда молиявий ҳисобот шаклларида молиявий инвестицияларни ёритиш масалалари келтирилган. Бироқ, капитал инвестицияларнинг бухгалтерия ҳисоби объекти сифатидаги таснифий масалалари миллий стандартларимизда келтирилмаган.

Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларида эса, инвестициялар молиявий активларнинг алоҳида тури сифатида ҳисобга олиниб, уларни тартибга солиш учун ишлаб чиқилган 25-сон “Инвестициялар ҳисоби” БҲХС бугунги кунда бекор қилинган. Молиявий активлар эса, молиявий инструментларнинг таркибига кирганлиги боис молиявий инструментларга оид ишлаб чиқилган 7-сон МҲХС “Молиявий инструментлар: ахборотларни очиқлаш”, 9-сон МҲХС “Молиявий инструментлар” ва бошқа МҲХСлар асосида тартибга солинади. Бундан кўриниб турибдики, бугунги кунда, капитал инвестициялар, уларнинг бухгалтерия ҳисоби объекти сифатидаги таснифий масалаларини ёритувчи миллий ва халқаро стандартлар мавжуд бўлмай, капитал инвестицияларнинг таснифий асосларини рақамли ва яшил иқтисодиёт шароитида ишлаб чиқиш ҳам назарий, ҳам илмий жиҳатдан муҳим ҳисобланади.

Капитал инвестициялар ҳисоби мамлакатимизда ишлаб чиқилган бухгалтерия ҳисоби миллий стандартлари ва молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида тартибга солиниб, бу борада қуйидаги стандартлар мавжуд (1-жадвал):

1-жадвал

Капитал инвестициялар ҳисобига оид ишлаб чиқилган молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларининг бухгалтерия ҳисоби миллий стандартлари билан солиштириш жадвали[2]

Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари	**Бухгалтерия ҳисоби миллий стандартлари**
Молиявий ҳисоботнинг концептуал асослари	Молиявий ҳисобот тузиш ва тақдим қилишнинг концептуал асослари
1-сон БҲХС (IAS) “Молиявий ҳисоботни тақдим этиш”	1-сон БҲМС “Ҳисоб сиёсати ва молиявий ҳисобот”
2-сон БҲХС (IAS) “Заҳиралар”	4-сон БҲМС “Товар-моддий заҳиралар”
8-сон БҲХС (IAS) “Ҳисоб сиёсати, ҳисоб баҳоларидаги ўзгаришлар ва хатолар”	1-сон БҲМС “Ҳисоб сиёсати ва молиявий ҳисобот”
12-сон БҲХС (IAS) “Фойда солиғи”	
16-сон БҲХС (IAS) “Асосий воситалар”	5-сон БҲМС “Асосий воситалар”
21-сон БҲХС (IAS) “Валюта курслари ўзгаришининг таъсири”	22-сон БҲМС “Хорижий валютада ифодаланган активлар ва мажбуриятлар

[1] 12-сон БҲМС “Молиявий инвестицияларни ҳисобга олиш” // АВ томонидан 16.01.1999 й. 596-сон билан рўйхатга олинган.

[2]Тадқиқотлар асосида муаллиф ишланмаси.

	ҳисоби”
23-сон БҲХС (IAS) “Қарзлар бўйича харажатлар”	24-сон БҲМС “Қарзлар бўйича харажатлар ҳисоби”
29-сон БҲХС (IAS) “Гиперинфляция шароитида молиявий ҳисобот”	
34-сон БҲХС (IAS) “Оралиқ молиявий ҳисобот”	3-сон БҲМС “Молиявий натижалар тўғрисидаги ҳисобот”
38-сон БҲХС (IAS) “Номоддий активлар”	7-сон БҲМС “Номоддий активлар”
40-сон БҲХС (IAS) “Инвестициявий мулк”	
41-сон БҲХС (IAS) “Қишлоқ хўжалиги”	
1-сон МҲХС (IFRS) “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларини биринчи марта қўллаш”	
	15-сон БҲМС “Бухгалтерия баланси”
	21-сон БҲМС “Хўжалик юритувчи субъектларнинг молия-хўжалик фаолияти бухгалтерия ҳисоби ҳисоботлар режаси ва уни қўллаш бўйича йўриқнома”
13-сон МҲХС (IFRS) “Ҳаққоний қийматда баҳолаш”	
16-сон МҲХС (IFRS) “Ижара”	6-сон БҲМС “Ижара ҳисоби”

Ушбу жадвалда келтирилган капитал инвестицияларга доир молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларини тадқиқ қилиш асосида шундай фикр-мулоҳазаларга келиндики, бугунги кунда, мамлакатимизда капитал инвестициялар ҳисобини ҳам илмий ва ҳам назарий жиҳатдан такомиллаштириш лозим. Хусусан, бугунги рақамли ва яшил иқтисодиёт шароитида корхоналарда амалга оширилаётган капитал инвестицияларни бухгалтерия ҳисобида юритиш, уларни илғор тажрибаларга мувофиқ ҳолда молиявий ҳисоботда акс эттириш масалалари ҳамон очиқлигича қолмоқда. Бу эса, ўз навбатида, ушбу йўналиш бўйича чуқур илмий тадқиқот ишлари олиб боришни долзарб қилиб қўймоқда.

Хулоса ва таклифлар. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида капитал инвестициялар ҳисобини такомиллаштириш масалалари бўйича олиб борилган тадқиқот натижалари асосида биз томонимиздан қуйидаги илмий хулоса ва тавсиялар ишлаб чиқилди:

Биринчидан, молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларида айнан капитал инвестициялар ҳисобига мансуб бўлган алоҳида стандартлар ишлаб чиқилмаган бўлсада, бироқ халқаро ва миллий ҳисоб таълимотида капитал инвестициялар бухгалтерия ҳисобининг ажралмас объекти сифатида тан олиниб, корхона активи ҳисобланади.

Иккинчидан, молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларида капитал инвестициялар ҳисобига оид тартиб-қоидалар, хусусан корхоналарга капитал инвестицияларни амалга ошириш натижасида кирим қилинган активларни уларнинг бошланғич қиймати бўйича баҳолаш масалалари келтирилган. Жумладан, асосий воситаларнинг бошланғич қийматини баҳолаш қоидалари 16-сон БҲХС (IAS) “Асосий воситалар”, номоддий активларнинг бошланғич қийматини баҳолаш масалалари 38-сон БҲХС (IAS) “Номоддий активлар”, узоқ муддатли ижара шартномаси бўйича олинган асосий воситаларнинг бошланғич қийматини баҳолаш тартиблари эса, 16-сон МҲХС (IFRS) “Ижара” каби халқаро стандартлар асосида тартибга солинади.

Учинчидан, капитал инвестицияларни молиявий ҳисоботда акс эттириш бўйича тартиб-қоидалар эса, 1-сон БҲХС (IAS) “Молиявий ҳисоботни тақдим этиш”, 8-сон БҲХС (IAS) “Ҳисоб сиёсати, ҳисоб баҳоларидаги ўзгаришлар ва хатолар”, 29-сон БҲХС (IAS) “Гиперинфляция шароитида молиявий ҳисобот”, 34-сон БҲХС (IAS) “Оралиқ молиявий ҳисобот” каби молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларида ёритилган.

Тўртинчидан, корхоналарда хорижий валютада амалга оширилган капитал

инвестициялар ҳисобига оид операциялар натижасида вужудга келган курс фарқлари бўйича харажатларни капитализация қилиш тартиб-қоидалари бухгалтерия ҳисоби бўйича йўриқномаларда назарда тутилмаган бўлсада, бироқ ушбу жиҳатлар 21-сон БҲХС (IAS) “Валюта курслари ўзгаришининг таъсири” молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартида акс эттирилган.

Бешинчидан, корхоналарда капитал инвестициялар асосан банк кредитлари ва бошқа корхоналардан олинган қарзлар эвазига амалга оширилиб, ушбу мажбуриятлар бўйича ҳисобланган фоиз кўринишидаги харажатларни ҳисобга олиш, уларни капитализация қилиш тартиб-қоидалари 23-сон БҲХС (IAS) “Қарзлар бўйича харажатлар” халқаро стандартида келтирилган.

Олтинчидан, Республикамизда бугунги кунга қадар бухгалтерия ҳисоби бўйича ишлаб чиқилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ҳамда миллий стандартларимизда биологик активларни ҳисобга олиш, уларнинг таркибий қисмларини белгилаш, ҳисоб ва ҳисоботда акс эттириш масалалари кўзда тутилмаган бўлиб, халқаро таълимотда эса, ушбу масалалар 41-сон БҲХС (IAS) “Қишлоқ хўжалиги” халқаро стандартида батафсил ёритилган.

Тадқиқотларимиз давомида эришилган натижалар асосида хулоса қилиб айтиш жоизки, бугунги рақамли ва яшил иқтисодиётни шакллантириш шароитида корхоналарда капитал инвестициялар ҳисоби методологиясини такомиллаштириш вазифасини долзарб қилиб қўймоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисида”ги Фармони. 2023 йил 11 сентябрь. ПФ-158.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Инвестициялар ва инвестиция фаолияти тўғрисида”ги Қонуни. 2019 йил 25 декабрь. 598-сон.
3. Боронов Б.Ф. Корхоналар молиявий активлари ҳисобини такомиллаштириш. –Т.: ТМИ, иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация, 2021, 150 б.
4. Очилов О.И. Хўжалик юритувчи субъектларда инвестициялар ҳисоби ва таҳлилини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. -Т.: 2021, 228 б.
5. Астанакулов О.Т. Корхоналар инвестиция фаолияти таҳлили методологиясини такомиллаштириш.-Т.: ТМИ, иқтисодиёт фанлари доктори диссертацияси, 2020, 225 б.
6. 16-сон БҲХС (IAS) “Асосий воситалар”
7. 38-сон БҲХС (IAS) “Номоддий активлар”
8. 16-сон МҲХС (IFRS) “Ижара”
9. 21-сон БҲХС (IAS) “Валюта курслари ўзгаришининг таъсири”
10. 41-сон БҲХС (IAS) “Қишлоқ хўжалиги”

З.Мухаммадиев

Совершенствование учета капитальных инвестиций на основе международных стандартов финансовой отчетности: международные и национальные аспекты

Аннотация: В статье рассмотрено современное состояние учета капитальных инвестиций, практические проблемы ведения учета на предприятиях, разработанные в нашей стране методические рекомендации в условиях цифровой экономики, пути совершенствования учета капитальных вложений путем сравнения содержащихся в этих документах правил регулирования капитальных вложений с процедурами, содержащимися в международных стандартах финансовой отчетности.

Ключевые слова: международные стандарты финансовой отчетности, цифровая экономика, инвестиции, капитальные инвестиции, основные средства, нематериальные активы, учет капитальных вложений, бухгалтерский учет, источники финансирования капитальных вложений.

Z.Mukhammadiev

Improvement of capital investment accounting on the basis of international standards of financial reporting: international and national aspects

Abstract: The article examines the current state of accounting for capital investments, practical problems of accounting at enterprises, methodological recommendations developed in our country in the context of the digital economy, ways to improve the accounting of capital investments by comparing the rules for regulating capital investments contained in these documents with the procedures contained in international financial reporting standards.

Keywords: international standards of financial reporting, digital economy, investments, capital investments, fixed assets, intangible assets, capital investment accounting, accounting, capital investment financing sources.

Dilfuza Samiddinovna Tashnazarova – SamISI doktoranti, ISFT instituti “Buxgalteriya hisobi” kafedrasi dotsenti v.b., PhD

PROCESS COSTING TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada ishlab chiqarish korxonalarida Process Costing tizimini takomillashtirish masalalari ilmiy asosda tahlil qilingan. Unda jarayonli hisoblash tizimining nazariy asoslari, afzalliklari va kamchiliklari yoritilib, tizim samaradorligini oshirish uchun zamonaviy yondashuvlar taklif etilgan. Maqolada mahsulot tannarxini optimallashtirish va ishlab chiqarish xarajatlarini boshqarish bo‘yicha amaliy misollar va tavsiyalar keltirilgan. Tizimni takomillashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va raqobatbardoshlikni ta'minlash imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Process costing, mahsulot tannarxi, xarajatlarni boshqarish, ekvivalent birlik, raqamli transformatsiya, tugallanmagan mahsulot, tizim samaradorligi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar.

Kirish. Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning samarali faoliyat ko‘rsatishi, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishi va iqtisodiy barqarorligini ta’minlash uchun hisob-kitob va nazorat tizimlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Bunda, ayniqsa, ishlab chiqarish xarajatlarini aniqlash va boshqarish, xarajatlarni kamaytirish yo‘llarini aniqlash, mahsulot tannarxini to‘g‘ri hisoblash uchun Process Costing (jarayon xarajatlarini hisoblash) tizimi alohida o‘rin tutadi. Process Costing – bu bir xil yoki bir-biriga o‘xshash mahsulotlarni uzluksiz ishlab chiqarishda ishlab chiqarish xarajatlarini aniqlashga xizmat qiladigan hisob tizimi. Ushbu tizim ko‘p bosqichli ishlab chiqarish jarayonlari uchun qo‘llaniladi va xarajatlarni turli ishlab chiqarish bosqichlariga taqsimlash imkonini beradi. Ushbu tizimni to‘g‘ri tashkil etish nafaqat ishlab chiqarish xarajatlarini aniq aniqlashga, balki mahsulotlarning tannarxini samarali boshqarishga ham yordam beradi. Afsuski, amaldagi jarayon xarajatlarini hisoblash tizimlarida bir qator kamchiliklar va muammolar mavjud. Bu kamchiliklar ko‘pincha hisoblash jarayonining murakkabligi, aniq ma’lumotlarning yetishmasligi va zamonaviy texnologiyalarning yetarlicha qo‘llanilmasligi bilan bog‘liq. Shu sababli, Process Costing tizimini takomillashtirish zamonaviy iqtisodiy sharoitda korxona boshqaruv tizimining samaradorligini oshirishda dolzarb masala hisoblanadi.Bu masala nafaqat nazariy ahamiyatga ega, balki amaliy jihatdan ham muhimdir, chunki ishlab chiqarish jarayonida xarajatlarni to‘g‘ri boshqarish va nazorat qilish orqali korxonalar o‘z raqobatbardoshligini saqlab qoladi hamda bozor talablariga moslashadi. Shu jihatdan, Process Costing tizimining takomillashtirilishi strategik ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. AQSh, Buyuk Britaniya, Rossiyalik olimlardan Druri Kolin [2], Xorngren Ch.T. [3], L. E. Heitger, S. Matulich [4] o‘zining asarlarida tannarxning mohiyati, tannarx kategoriyalari, tannarxni taqsimlash, tannarx costing tizimlari, tannarxini baholash hamda boshqaruv va moliyaviy hisobotlarda aks ettirishning Servis” ilmiy-amaliy jurnali 2022 yil 1-sonida metodologik masalalarini tadqiq etganlar. Mamlakatimiz olimlaridan A.X.Pardaev va Z.A. Pardaevlar [5] tomonidan tannarx tushunchasi va mahsulot birligini aniqlash tartib usullari xorij tajribalari asosida yoritib berilgan. Ushbu usullar dunyoda 70-yillardan buyon samarali qo‘llanilib, bugungi kunda innovatsion-raqamli iqtisodiyot sharoitida takomillashtirish, davr talablariga muvofiqlashtirish zaruriyati mavjud. Bundan tashqari O‘zbekiston sharoitida ushbu usullarni bugungi kun nuqtai nazaridan joriy qilish masalalari hali o‘zining yechimini topgan emas.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida ilmiy abstraksiya usuliga, tahlil va sintez hamda statistik usullarga asoslangan.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda milliy va xalqaro iqtisodiyotda ishlab chiqarish jarayonlari murakkablashib bormoqda. O‘zbekiston Prezidenti tomonidan iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va texnologik rivojlanish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar, xususan, 2022-yil 8-noyabrdagi “Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlash va mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish choralari to‘g‘risida”gi qaror, ishlab chiqarishda innovatsion yondashuvlarni joriy qilishni rag‘batlantiradi. Process costing tizimi, ayniqsa, neft-kimyo, oziq-ovqat, energetika va qurilish sohalarida xarajatlarni aniq hisoblash va boshqarishda muhim vosita

hisoblanadi. Ammo? mavjud tizimlar tezkorlik va aniqlik talablariga to‘liq javob bermayotgani sababli, ularni modernizatsiya qilish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish jarayonlarini samarali boshqarish va xarajatlarni optimallashtirish korxonalar muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, uzluksiz ishlab chiqarish jarayonlari uchun moslashgan **process costing** tizimi mahsulot birligiga to‘g‘ri tannarxni aniqlash va xarajatlarni nazorat qilishning asosiy usullaridan biridir. Ushbu maqola process costing tizimining dolzarbligi va uni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalarni yoritishga qaratilgan.O‘zbekiston iqtisodiyotining industrial rivojlanishi va raqamli transformatsiya davrida jarayonli hisoblash tizimini takomillashtirish ayniqsa ahamiyatli hisoblanadi.

Process Costing Tizimining Ahamiyati quyidagilardan iborat:

1. **Xarajatlarni tahlil qilishning aniqligi:**
   Xarajatlarni ishlab chiqarish bosqichlari bo‘yicha taqsimlash va ularni mahsulot birligiga aniq o‘tkazish imkonini beradi.
2. **Nazorat va tahlil imkoniyatlari:**
   Har bir ishlab chiqarish bosqichining samaradorligini baholash va nazorat qilishni osonlashtiradi.
3. **Raqobatbardoshlikni oshirish:**
   Aniqlik bilan hisoblangan tannarx asosida korxonalar o‘z mahsulotlariga raqobatbardosh narxlarni belgilash imkoniga ega bo‘ladi.
4. **Strategik qarorlarni qabul qilish uchun asos:**
   Tizim mahsulot qatoridagi past rentabelli yo‘nalishlarni aniqlash va ularni optimallashtirish imkoniyatini beradi.

Process costing da mahsulot yoki xizmatning birlik narxi, ishlab chiqarish jarayonidan olingan jami xarajatlarni ishlab chiqarilgan birliklar soniga bo‘lib hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, birlik narxlari jami xarajatlarni ishlab chiqarish jarayonidan olingan mahsulot yoki xizmatlarning soniga bo‘lib hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonli hisoblashda har bir birlik bir xil yoki o‘xshash miqdordagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri materiallar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlab chiqarish mehnati va bilvosita ishlab chiqarish xarajatlari (ishlab chiqarish xarajatlari)ni oladi.

Process costing va buyurtmali costing o‘rtasidagi asosiy farq, birlik narxlarini hisoblashda o‘rtacha qiymatlar qanday qo‘llanilishida hisoblanadi. **Buyurtma costing tizimi**da har bir buyurtma ishlab chiqarish resurslarining turli miqdorlarini talab qiladi, shuning uchun har bir buyurtmani o‘rtacha ishlab chiqarish narxida hisoblash noto‘g‘ri bo‘ladi. Aksincha, bir xil yoki o‘xshash mahsulot yoki xizmatlar ommaviy ishlab chiqarilganda, ya'ni individual buyurtmalar sifatida emas, jarayonli hisoblash tizimi qo‘llaniladi va barcha ishlab chiqarilgan birliklar uchun o‘rtacha ishlab chiqarish narxi hisoblanadi. Ba'zi jarayonlar, masalan, kiyim-kechak ishlab chiqarish, jarayonli hisoblashning (har bir operatsiyaning, masalan, kesish yoki tikish, bir xil birlik narxi) va buyurtma hisoblashning (har xil materiallar, masalan, jun yoki paxta ishlatiladi) elementlarini o‘z ichiga oladi. Unda **"gibrid" hisoblash tizimlari** tasvirlanadi, bu tizimlar, jarayonli va buyurtma hisoblashning har ikki elementini birlashtiradi.

Process costing tizimi dunyo bo‘yicha iqtisodiyot va moliyaviy boshqaruv sohasida o‘zining muhimligini isbotlagan ilmiy yo‘nalishlardan biridir. Bu tizim bo‘yicha xorijiy va O‘zbekistonlik olimlarning fikrlari uning nazariy asoslarini rivojlantirish va amaliyotga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Horngren Ch. T. o‘zining *“Cost Accounting: A Managerial Emphasis”* asarida process costing tizimini uzluksiz ishlab chiqarish jarayonlari uchun eng samarali tannarx hisobi usuli sifatida ta’riflaydi. U xarajatlarni ishlab chiqarish bosqichlari bo‘yicha taqsimlash va mahsulot birligiga aniq o‘tkazish imkoniyati tufayli tizimni korxonalar samaradorligini oshirish vositasi deb hisoblaydi.

AQShlik iqtisodchi olimlardan Kaplan R. S. va Cooper R process costing tizimini **Activity-Based Costing (ABC)** tizimi bilan solishtiradi. Ular process costing tizimining oddiy va katta hajmdagi ishlab chiqarish uchun qulay ekanligini, lekin murakkab jarayonlarda aniq xarajatlarni ajratishda cheklovlari mavjudligini qayd etadilar.

Drury C. o‘zining *“Management and Cost Accounting”* kitobida process costing tizimini xalqaro standartlarga asoslangan boshqaruv tizimi sifatida ko‘rsatadi. Uning fikricha, tizim to‘g‘ri qo‘llanilganda mahsulot birligiga xarajatlarni aniq hisoblash va ishlab chiqarish jarayonlaridagi samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Xodjayev B. E**.** process costingni quyidagicha ta’riflaydi: "Bu tizim uzluksiz ishlab chiqarish jarayonlarida mahsulot tannarxini hisoblash uchun xarajatlarni bir xil bosqichlar bo‘yicha taqsimlashga asoslangan usuldir."

Nasirov S.A. process costing tizimini milliy ishlab chiqarish tarmoqlari uchun moslashuvchan va samarali hisobot vositasi sifatida tavsiflaydi. U tizimni quyidagicha ta’riflaydi:"Process costing - bu mahsulot ishlab chiqarishning har bir bosqichida xarajatlarni yig‘ish va ularni mahsulot birligiga taqsimlash orqali aniq tannarxni aniqlash usuli.”

Sobirova D.M. process costing tizimini tannarx hisobida strategik qarorlar qabul qilish vositasi sifatida tavsiflaydi. "Process costing - bu uzluksiz ishlab chiqarish jarayonlarida xarajatlarni har bir bosqich bo‘yicha taqsimlash va yakuniy mahsulotga bir xil o‘rtacha tannarxni belgilashga asoslangan hisoblash tizimi."

Ommaviy va uzluksiz ishlab chiqarish korxonalarida tannarxni aniq va samarali boshqarish uchun **Weighted Average Costing (Tannarxni Ekvivalent Birliklarga Bo‘lish Tizimi)** muhim ahamiyatga ega. Bu tizim mahsulot ishlab chiqarish jarayonida tugallanmagan mahsulotlar xarajatlarini hisoblash va tayyor mahsulot xarajatlarini aniqlash uchun ishlatiladi. Weighted Average Costing usuli mahsulot ishlab chiqarishning har bir bosqichida xarajatlarni ekvivalent birliklar orasida taqsimlashga asoslangan.

Ekvivalent birliklar – bu tugallanmagan mahsulotni to‘liq tugallangan mahsulotga tenglashtirilgan birlik. Tugallanmagan mahsulot ma’lum bir tugatish darajasiga ega bo‘lganligi sababli, ular to‘liq birlik sifatida emas, balki faqat o‘sha darajadagi qiymat bilan hisoblanadi.

Ekvivalent birliklarning formulasi:

Ekvivalent birliklar=Mahsulotlar soni×Yarim tayyorlik darajasi

Masalan, Double Diamond korxonasining Qoliplash bo‘limida davr oxirida 60% tugallangan 500 birlik mavjud. Ushbu 500 qisman tugallanmagan birlik ekvivalent ravishda 300 to‘liq yakunlangan birlikka teng:

Ekvivalent birliklar=500×60%=300. Shunday qilib, ushbu qisman tugallanmagan birliklar 300 to‘liq yakunlangan birlikka teng deb hisoblanadi.

Ekvivalent birliklarni hisoblashda asosiy qoidalar:

1. Tugallanmagan mahsulotning tugatish darajasi materiallar, ishchi kuchi va qo‘shimcha xarajatlar bo‘yicha alohida ko‘rib chiqiladi.
2. Tugallanmagan mahsulotning oxirgi bosqichi to‘liq hisoblanmaydi, balki faqat tugallanmagan darajasi hisobga olinadi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot jarayonida quyidagi xulosalarga kelindi:

Tadqiqot jarayonida process costing tizimi yordamida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatini yaxshilash, xarajatlarni kamaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkin. Bu nafaqat korxonalar uchun, balki milliy iqtisodiyot uchun ham katta ahamiyatga ega. O‘zbekistonning eksport salohiyatini oshirish, sanoatni diversifikatsiya qilish va yangi bozorlarni zabt etish uchun jarayonli hisoblash tizimi nafaqat foydali, balki zarur hisoblanadi. Xususan, ishlab chiqarishda innovatsion yondashuvlar va samarali boshqaruv tizimlarini joriy etish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o‘ynaydi. **ERP tizimlari** va **Big Data** analitikasi kabi yangi texnologiyalar jarayonli hisoblash tizimlarini avtomatlashtirishga, xarajatlarni tez va aniq hisoblashga imkon yaratadi. Shuningdek, ishlab chiqarish jarayonlarini kuzatish va nazorat qilish uchun yaratilgan raqamli platformalar tizimlarni yanada ishonchli qiladi va real vaqtda ma'lumotlar olish imkonini yaratadi.

Mahsulot tannarxini aniqlashda xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga mos yondashuvlar joriy qilish, buxgalteriya hisobini milliy va xalqaro talablar bilan uyg‘unlashtirish zarur.Process Costing tizimini samarali qo‘llash uchun buxgalterlar va iqtisodchilarni o‘qitish dasturlarini tashkil etish zarur. Treninglarda zamonaviy texnologiyalar va xalqaro tajribaga asoslangan yondashuvlar o‘rgatilishi kerak.

Yuqoridagi takliflarni amalga oshirish orqali O‘zbekistonda Process Costing tizimini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevralda PQ-4611 ―Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida‖ Qarori. https://lex.uz/ru/docs/4746049
2. Management and Cost Accounting. 10th Edition Colin Drury Publisher: Annabel Ainscowhttps://www.pdfdrive.com/management-and-cost-accounting-e183857367.html;
3. Horngren, C.T., Datar, S.M., & Rajan, M.V. “Cost Accounting: A Managerial Emphasis” – Pearson, 2021.
4.Hilton, R.W., Maher, M.W., & Selto, F.H. “Cost Management: Strategies for Business Decisions” – McGraw Hill, 2021.
4. Blocher, E., Stout, D., Juras, P., & Cokins, G. “Cost Management: A Strategic Emphasis” – McGraw Hill, 2021.
5. A.X.Pardaev, Z.A.Pardaeva. Boshqaruv hisobi. Darslik. -T.: ―Iqtisod-Moliya‖. 2019 y. -538 b.;
6.Bekmurodov A. **“**Jarayon xarajatlarini hisoblashda innovatsion yondashuvlar” – O‘zMU, ilmiy maqola to‘plamlari, 2022.

Д.Ташназарова

Проблемы совершенствования системы Process Costing

Аннотация: В данной статье на научной основе анализируются проблемы совершенствования системы Process Costing на производственных предприятиях. В ней освещены теоретические основы, преимущества и недостатки системы Process Costing, а также предложены современные подходы к повышению эффективности системы. В статье приведены практические примеры и рекомендации по оптимизации себестоимости продукции и управлению издержками производства. Обоснованы возможности повышения эффективности производства и обеспечения конкурентоспособности за счет совершенствования системы.

Ключевые слова: технологическая калькуляция, калькуляция продукции, управление затратами, эквивалентная единица, цифровая трансформация, незавершенный продукт, эффективность системы, прямые затраты.

D.Tashnazarova

Process costing system improvement issues

Abstract: This article analyzes the problems of improving the Process Costing system in production enterprises on a scientific basis. It highlights the theoretical foundations, advantages and disadvantages of the process costing system, and offers modern approaches to increase the efficiency of the system. The article provides practical examples and recommendations for optimizing product costs and managing production costs. Possibilities of increasing production efficiency and ensuring competitiveness by improving the system are substantiated.

Keywords: Process costing, product costing, cost management, equivalent unit, digital transformation, unfinished product, system efficiency, direct costs.

Iroda Boykobilova – SamIES, assistant of the Department of accounting and audit in other industries

ISSUES OF BRINGING ACCOUNTING AND REPORTING OF ECONOMIC ENTITIES INTO LINE WITH NATIONAL AND INTERNATIONAL STANDARDS

Abstract: This article discusses the potential benefits of aligning the accounting and reporting standards of business entities with International Financial Reporting Standards (IFRS). It highlights how adopting IFRS can help increase foreign investment, enable local companies to compete in international markets, and improve the comparability of financial information.
Keywords: accounting, financial reporting, national standards, ifrs, statistical analysis, competitiveness, investment, innovation, business entities.

Introduction. Uzbekistan, as a developing nation, is currently prioritizing the advancement of its various industrial sectors. Simultaneously, comprehensive attention is being directed towards enhancing all economic facets. Central to these efforts is the meticulous accounting of economic transactions. In a notable address to the Oliy Majlis, President Shavkat Mirziyoyev emphasized the critical role of accurate accounting, stating, "Economy is calculation. Careful calculation should be at the forefront of all our endeavors. Without it, our efforts will be as outdated as an old bath or basin." This proclamation underscores the nation's commitment to elevating its accounting practices to contemporary standards.

Another reason why accounting documents are given much attention today is the creation of new enterprises by attracting foreign investment, creating new jobs and at the same time increasing import volumes by organizing goods and services that are not available. in our country, exports are decreasing and increasing. To achieve this goal, the first step is to provide investors with the necessary information. Reports prepared within the framework of the national standard can confuse foreign investors. Therefore, in order to ensure the transition of the President of the Republic of Uzbekistan to the IFRS, the President of the Republic of Uzbekistan adopted the decision No. PQ-4265 dated March 3, 2019 "On measures to further reform the chemical industry and increase its investment attractiveness" and PQ-4124 dated January 17, 2019 No. "On measures to further improve the activities of enterprises of the mining and metallurgical network", laws and resolutions were adopted on the publication of the annual financial report in accordance with International Auditing Standards (IAS) and external audit.

Additionally, on February 24, 2020, the Presidential Resolution PQ-4611 titled "On Additional Measures for the Transition to International Financial Reporting Standards" was enacted. This resolution represents a significant advancement toward adopting the International Financial Reporting Standards (IFRS). The move towards IFRS has also been propelled by the growing integration of the digital economy within the nation, facilitated through innovative developments. The digital economy is intrinsically linked to IFRS, highlighting its relevance and necessity. Consequently, efforts are now being intensified to transition all economic sectors in Uzbekistan to IFRS.

Literature review. Research into the adaptation of accounting and reporting to International Financial Reporting Standards (IFRS) draws upon a broad spectrum of literature, categorized into several primary areas:

1. **National and international standards:** A wealth of literature exists on the evolution of both national and international accounting and financial reporting standards. This includes studies specifically focused on IFRS and how they compare with national standards, providing a comprehensive overview of their development and application.
2. **Research articles:** Various authors have explored the theoretical underpinnings of accounting, as well as international experiences and practices, through research articles. These articles offer insights into the challenges associated with transitioning to these standards and propose solutions to address these issues.
3. **Research in Uzbekistan:** Studies conducted within Uzbekistan have documented the transformation in the accounting system, identifying both challenges and opportunities that emerge during the transition to international standards. These studies offer practical recommendations tailored to the economic characteristics of Uzbekistan.
4. **Textbooks and course books:** Educational materials on accounting and finance, including textbooks and course books, are pivotal in enriching the theoretical understanding of students and professionals alike. These resources emphasize crucial principles necessary for the transition to international standards.
5. **Statistical and analytical research:** This category encompasses the examination of accounting and financial statements through statistical data and economic indicators. Research in this area evaluates the economic efficiency of adapting to international standards.

The comprehensive analysis of this literature not only fortifies the practical and theoretical

groundwork of the study but also illuminates critical facets in the journey of aligning Uzbekistan’s accounting system with international standards. This alignment is instrumental in fostering economic development and enhancing financial stability.

Research methodology. The study employs comparative analysis to examine the issues related to adapting to international accounting and financial reporting standards. This methodological approach enhances the overall quality of the research by systematically comparing national standards with International Financial Reporting Standards (IFRS). The insights garnered from this analysis are crucial for formulating practical, actionable recommendations.

Results of discussion and analysis. The shift towards IFRS is characterized as neither abrupt nor rapid. Rather, it is a gradual process that necessitates substantial time, investment, and expertise. It is imperative to approach the transition to IFRS in a phased manner, allowing for detailed examination at each stage of implementation (refer to Fig. 1). This staged approach helps in identifying potential challenges and solutions, thereby facilitating a smoother transition to international standards.




Figure 1. Stages of transition to IFRS[1]

Financial statements prepared on the basis of IFRS improve the investment environment in the country. This creates an opportunity for investments of large companies to enter the country's economy. In the modern process of globalization, the need for using IFRS can be determined by the following factors:

- investors and shareholders in different countries will be able to better analyze the financial statements of potential companies based on the same principles, i.e. comparability;
- It is more efficient to prepare a single financial report for all stock exchanges in different countries than for each of them based on the standards of that country. As a result, reporting costs are reduced and the possibilities of raising capital are expanded.[2]

If we compare IFRS with national standards, there is no significant difference. Therefore, the transition to IFRS in our country is not considered a difficult process.

Approaches to reporting under international standards: In the context of aligning with international financial reporting standards, there are two primary approaches that enhance the clarity and utility of financial reports:

[1]K.B. Urazov, Ph.D. (Econ.), professor (SamESI) FIRST STAGES OF IMPLEMENTATION OF INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS, ORGANIZATIONAL AND METHODOLOGICAL ISSUES THAT NEED TO BE RESOLVED IN THEM

[2] Odinakhan Ikromova Academy of Banking and Finance of the Republic of Uzbekistan INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS AND THE NEED FOR ITS APPLICATION IN PRACTICE

Table 1

Comparative Analysis of Financial Statement Title Based on IFRS and national standards[1]

IFRS	National standards
Statement of financial position	Balance sheet
Statement of Profit or Loss and Other Comprehensive Income	Financial performance report
Statement of Changes in Equity	Statement of capital
Cash Flow Statement	Cash Flow Statement
Account Policy and Explanations	Notes, calculations and explanations

- **Disclosure of information based on expense utilization:** This approach involves adhering to international standards by providing additional information about the targeted use of expenses. This detailed disclosure helps clarify financial results by type of expenses, offering a clearer picture of financial performance.
- **Emphasis on forecasting for strategic management:** This method underscores the importance of forecasting within analytical work to strategically manage business processes. Forecasting provides insights into future conditions and potential impacts on the business, thereby aiding in more informed decision-making.

Financial statement preparation methods: The process of preparing financial statements in accordance with IFRS is crucial, yet there is currently no unified methodological approach for modifying financial statements and evaluating their significance. There are primarily two methods employed for IFRS reporting:

- **Adjustment of national reporting (change or transformation):** This method involves rearranging and adjusting accounting information that has been prepared according to national accounting rules to comply with IFRS. This transformation process adjusts existing reports without altering the underlying accounting processes.
- **Parallel accounting (conversion) and reporting:** In contrast, parallel accounting entails maintaining two sets of accounts; one for national reporting requirements and another for IFRS compliance. This approach is comprehensive but can be more costly and complex.

Choice of method: The selection of a method for preparing IFRS-compliant financial statements depends on several factors, including the intended use of the reports, the necessary data integration, the expertise of the accounting personnel, and the available time and financial resources. Due to the high costs associated with parallel accounting, the transformation method has become more prevalent in Uzbekistan, reflecting a pragmatic approach to achieving compliance with international standards.

Challenges in standardizing financial statement transformation: Currently, there is no universal algorithm for altering financial statements to comply with international standards, necessitating a tailored approach for each entity. This variability stems from numerous subjective factors that influence the reporting process, including:

- **Characteristics of financial and economic activities:** The specific nature of an entity's financial transactions and economic engagements significantly impacts how financial data is reported and interpreted.
- **Accounting organization and policies:** The structure of the accounting department and the accounting policies adopted by an entity dictate the methodology for preparing financial statements.
- **Report detailing requirements:** The level of detail required in financial reports can vary, affecting the complexity and focus of the transformation process.

[1]Norbekov Davron Eshmurodovich, Nargiza Toirova; Article “Reporting financial results: domestic and international experience.”

- **Resource availability:** The extent of time, financial resources, and human capital available also plays a critical role in shaping the approach to transforming financial statements.

Approaches to transformation: Given these variables, there are several methodologies for transforming financial statements to align with International Financial Reporting Standards (IFRS). An expert tasked with the transformation is granted the autonomy to decide on the most suitable methodology and stages for each specific organization. This flexibility allows for the adaptation of the transformation process to best fit the unique conditions and constraints of each entity, thereby ensuring more accurate and meaningful financial reporting.1

Conclusions and recommendations. This article has elucidated the fundamental principles of accounting, delineated the distinctions between national and international standards, and scrutinized the methodologies, strategies, and requisite modifications for successful implementation. The analysis underscores the pivotal role that the standardization of accounting and reporting plays in bolstering economic stability and enhancing competitiveness, which collectively foster economic development. To facilitate a seamless transition to International Financial Reporting Standards (IFRS), the following steps are recommended:

- **Regulatory review and update:** Revise and modernize the regulatory framework to align national accounting standards with IFRS, ensuring compliance and relevance.
- **Training and development:** Initiate and deploy comprehensive training programs for accountants, financial managers, and other economic specialists to build capacity in understanding and implementing IFRS.
- **Modernization of accounting systems:** Adopt and integrate modern accounting systems that are capable of supporting the preparation and maintenance of financial statements in accordance with international standards.
- **Organizational restructuring**: Modify organizational structures to better align internal processes of business entities with the requirements of IFRS, facilitating a smoother adaptation.
- **Monitoring system development**: Establish a robust monitoring system to oversee and evaluate the efficacy and compliance of the transition process, ensuring that adjustments can be made as needed.
- **International cooperation**: Forge partnerships with international bodies and leverage experiences from countries that have successfully adopted IFRS. This can provide valuable insights and practical advice, aiding in the transition.
- **Public awareness campaigns:** Engage in extensive public communication to highlight the importance and advantages of transitioning to IFRS, promoting broader understanding and support.

Implementing these steps will enable Uzbekistan to prepare financial reports that meet international standards, thus contributing significantly to the nation’s economic stability and competitive edge on the global stage.

List of references

1. Resolutions and orders of the President of the Republic of Uzbekistan

2. Tashpulatov, A. (2020). Some aspects of rural market modeling work. In Innovations and the Modern World: Experience, Problems and Development Prospects (pp. 65-74).

3. Atabaeva, Z.A. (2021). Assessment of the financial condition in the process of investment design. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL AND APPLIED SCIENCES, 2(12), 309-314.

4. Diorbek Alijon son Mamarasulov PROBLEMS OF PREPARATION OF THE FIRST REPORT ON THE IFRS

5. Odinakhan Ikromova Academy of Banking and Finance of the Republic of Uzbekistan INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS AND THE NEED FOR ITS APPLICATION IN PRACTICE

[1]PROBLEMS OF PREPARATION OF THE FIRST REPORT ON THE IFRS Diorbek Alijon oglu Mamarasulov

6. Norbekov Davron Eshmurodovich, Toirova Nargiza Shavkat qizi; Article “Reporting financial results: domestic and international experience.”

I.Boyqobilova **Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati buxgalteriya hisobi, hisobotini milliy hamda xalqaro standartlarga moslashtirish masalalari**	**И.Бойкобилова** **Вопросы приведения бухгалтерского учета и отчетности хозяйствующих субъектов к национальным и международным стандартам.**
Annotatsiya: Ushbu maqola biznes subyektlarining buxgalteriya hisobi va hisobot standartlarini Xalqaro Moliyaviy Hisobot Standartlari (IFRS) bilan muvofiqlashtirishning mumkin bo‘lgan foydalari haqida bahs yuritadi. Ushbu maqolada IFRS qabul qilinishi xorijiy investitsiyalarni oshirishga, mahalliy kompaniyalarga xalqaro bozorlarda raqobatlashish imkoniyatini berishga va moliyaviy ma'lumotlarning taqqoslanuvcha-nligini yaxshilashga yordam berishi ta'kidlanadi. **Kalit so‘zlar**: Moliyaviy hisob, milliy standartlar, MHXS, statistika, tahlil, raqobatbardoshlik, investitsiya , innovatsiya, xo‘jalik yurituvchi subyektlar.	**Аннотация**: Данная статья обсуждает возможные преимущества приведения стандартов бухгалтерского учета и отчетности бизнес-субъектов в соответствие с Международными стандартами финансовой отчетности (МСФО). В статье подчеркивается, что принятие МСФО может помочь увеличить иностранные инвестиции, дать местным компаниям возможность конкурировать на международных рынках и улучшить сопоставимость финансовой информации. **Ключевые слова**: финансовый учет, национальные стандарты, МСФО, статистика, анализ, конкурентоспособность, инвестиции, инновации, субъекты хозяйствования.

Тоҳир Толмас ўғли Сатторов – СамИСИ, “Бухгалтерия ҳисоби” кафедраси мустақил изланувчиси

КОРХОНАЛАРДА ПАЙПОҚ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНЛАРИ ҲИСОБИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ

Аннотация. Ушбу мақолада корхоналарда ишлаб чиқариш жараёнлари, улар таннархини шакллантиришнинг хусусиятлари ва молиявий барқарорлиги, таннархни минималлаштириш ва аниқлаш тартиби келтирилган.
Калит сўзлар: пайпоқ, пайпоқ маҳсулотлари, пайпоқ ишлаб чиқариш, пайпоқ ишлаб чиқариш технологик жараёни, ишлаб чиқариш харажатлари, таннарх.

Кириш. Республикамизда сўнгги йилларда ишлаб чиқариш фаолиятини ривожлантириш бўйича қатор ишлар амалга оширилди. Республикамизда маҳсулот ишлаб чиқариш билан шуғулланувчи субъектлар фаолиятини модернизациялаш, техник ва технологик жиҳатдан янгилашни давом эттириш, саноат корхоналарининг иқтисодиётдаги ўрнини барқарор ривожлантириш учун қулай шарт-шароит ва имкониятлар, жумладан соҳани ривожлантириш учун солиқлар бўйича ҳукумат томонидан бир қатор имтиёзлар берилиши тўқимачилик маҳсулотларини ишлаб чиқаришини кенгайтириш ҳажмини ошириш учун муҳим аҳамият касб этмоқда. Маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажмини оширишда бухгалтерия ҳисоби муҳим роль ўйнайди. Бугунги кунда бошқарув ҳисобининг илғор усуллари, жумладан жараёнли костинг тизимларини жорий қилиш долзарб ҳисобланади. Амалдаги маҳсулот таннархини аниқлаш тартиби бошқарувчиларнинг ахборотларга бўлган талабини етарли даражада таъминлай олмайди. Самарали бошқарув қарорларини қабул қилиш учун маҳсулот таннархи тўғрисида ишончли ва ҳаққоний ахборотлар талаб этилади, қайсики бунга илғор костинг тизимларини муваффақиятли қўллаш натижасида эришилади. Айниқса, костинг тизимларини саноат корхоналари, жумладан пайпоқ ишлаб чиқариш корхоналари мисолида амалга ошириш долзарб ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 февралдаги “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ПҚ-4611-сон қарорида илғор хорижий тажрибаларни кенг қўллаш бўйича ҳам қатор

вазифалар белгиланган.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Рақамли иқтисодиёт шароитида иқтисодий ва ижтимоий ривожланиш йўналишига тегишли муҳим ўзгаришлар киритилмоқда. Ишлаб чиқариш жараёнлари ва маҳсулот таннархини ҳисоблаш услубиётига доир бир қатор Ўзбекистонлик ва хорижий олимлар, мутахассислар, жумладан, М.Э.Пўлатов, М.Қ.Пардаев, К.Б.Уразов, Р.А.Абдуллаев, Ҳ.Н.Мусаев, А.И.Аликулов, С.Н.Ташназаров, Д.Р.Рафеев, У.А.Ширинов, Б.Ф.Боронов, З.У.Мухаммадиев, Чжан, К.Б.Маккензи, Э.А. Аренс, Дж.К.Лоббек, Р.Робертсон, Pizzey, В.Ф.Палий ва бошқалар ўз ишларида ишлаб чиқариш харажатлари маҳсулот таннархи костинги (калькуляцияси) масалаларига кенг тўхталганлар. Ушбу ишланмалар олимлар томонидан чоп этилган дарсликларида, ўқув қўлланмалари ва мақолаларида ўз аксини топган.

Мазкур муаммо ечимига тизимли ёндашувлар мавжуд эмаслиги ва бошқа бир қатор сабаблар республикада бухгалтерия ҳисобини ривожлантириш учун чуқур илмий изланишлар олиб борилишини тақозо этади.

Тадқиқот методологияси. Мақолада абстракт-мантиқий фикрлаш, қиёсий таҳлил, тизимли ёндашув, маълумотларни гуруҳлаш усулларидан фойдаланилди.

Таҳлил ва натижалар. Пайпоқ ишлаб чиқариш харажатларини тўғри ҳисобга олиш учун, энг аввало, моддий харажатларни тўғри ҳисобга олиш зарурлиги, ушбу жараён қай тарзда амалга оширилиши, унинг ўзига хос жиҳатлари ўрганилиши лозим.


Пайпоқ маҳсулотлари ишлаб чиқариш жараёни қуйидаги тартибда 4 та босқичда амалга оширилади:

1-босқич.

- ип-калавалар (джут, асос иплари, рангли иплар) ускунага ўрнатиш учун тайёрланиб, ускунага ўрнатилади;
- ускунага ипларни ўрнатишда тўқиладиган пайпоқ нусхасига қараб ҳар бири рангига кўра тегишли тартибда жойлаштириб чиқилиши керак
- тўқиладиган пайпоқ нусхаси ва ускунани ишлаш тезлиги ускунадаги компьютер хотирасига юкланади;

2-босқич.

- ускуна ишлаб чиқаришга тайёр эканлигига ишонч ҳосил қилингач ишга туширилади;
- ускуна тўқиган пайпоқлар махсус вагонлар (тележка)га жойланади;



1-расм. Пайпоқ ишлаб чиқаришнинг технологик жараёни[1].

- вагонлардаги пайпоқлар юк ташувчи техника (кара) билан текширув цехига келтирилади;

3-босқич.

[1] Тадқиқотлар асосида муаллиф ишланмаси

➢ тўқилган пайпоқлар текширув ускунасидан ўтказилади ва унинг сифати ҳодимлар томонидан текширилиб, нуқсонлар аниқланганда шу жойнинг ўзида бартараф этилади;

4-босқич.

➢ пайпоқ орқа қисмига пайпоқнинг ўлчамлари, корхона номи ва пайпоқ маркаси туширилган махсус этикетка дазмол билан пайпоқга маҳкам елимланади. Шу билан пайпоқ тайёр ҳолга келтирилган ҳисобланади.

Ушбу технологик жараённи схема кўринишида қуйидагича ҳам ифодалаш мумкин (1-расм).

Пайпоқ ишлаб чиқаришнинг технологик хусусиятлари тайёр маҳсулотни ишлаб чиқариш харажатлари ва, мос равишда, таннархини шакллантиришга бевосита таъсир қилади. Пайпоқ маҳсулотлари таннархини ташкил қилувчи асосий харажат моддалари бўлиб қуйидагилар ҳисобланади (1-жадвалга қаранг).

1-жадвал

Пайпоқ ишлаб чиқариш таннархига киритиладиган харажатлар[1]

Харажат гуруҳи	Харажат моддалари
Бевосита материал харажатлари	Пайпоқ ишлаб чиқаришда бевосита сарфланган материаллар, буюмлар, ёқилғи ва мойлаш материаллари, хўжалик инвентарлари ва бошқа материаллар
Бевосита меҳнат ҳақи харажатлари	Пайпоқ ишлаб чиқариш жараёнида бевосита катнашган ходимларга ҳисобланган асосий иш ҳақи ва мукофотлар
Бевосита меҳнат ҳақи фондидан ижтимоий солиқ тўлови	Пайпоқ ишлаб чиқариш жараёнида бевосита қатнашган ходимлар иш ҳақи фондидан ижтимоий солиқ тўловлари
Амортизация ажратмалари	Пайпоқ ишлаб чиқариш жараёнида бевосита иштирок этган асосий воситалар, номоддий активлар бўйича ҳисобланган эскириш суммаси
Бошқа ишлаб чиқариш харажатлари(билвосита устама харажатлар)	1. Пайпоқ ишлаб чиқариш харажатларига олиб борилган турли хизматлар (сертификатлаш, транспорт хизматлари, газ, сув ва электр қуввати билан таъминлаш, таъмирлаш ва бошқа хизматлар) 2. Пайпоқ ишлаб чиқариш харажатларига олиб борил-ган ёрдамчи ишлаб чиқариш ва умумишлаб чиқариш харажатлари 3. Пайпоқ ишлаб чиқариш харажатларига олиб борилган келгуси давр харажатлари 4. Пайпоқ ишлаб чиқариш таннархига киритиладиган бошқа харажатлар

Пайпоқ маҳсулотларини ишлаб чиқаришда ушбу жараённинг узлуксизлигини таъминлаш, пайпоқ тўқиш жараёнида ускуналарнинг технологик хусусиятлари ва қувватидан келиб чиққан ҳолда, энига қанча ўлчамда ва вертикал ҳолатда узлуксиз чиқарилиши каби ўзига хос технологик хусусиятлари мавжуд. Пайпоқ маҳсулотларини ишлаб чиқариш корхоналарида хом-ашё материалларининг етишмовчилиги, технологик ускуналардаги носозликлар ёки бошқа бевосита ишлаб чиқаришни тўхтатилишига сабаб бўлувчи ҳолатлар кузатилмаганда ишлаб чиқариш фаолияти узлуксиз амалга оширилади.

Хусусан, ускуналарнинг ишлаб чиқариш қувватлари қанчани ташкил килиши, улардан унумли фойдаланиш маҳсулот таннархини ҳисоблаб чиқаришда катта роль ўйнайди. Мисол учун, пайпоқ ишлаб чиқариш ускуналарининг қиймати юқорилиги инобатга олинса, бир ускунанинг ишлаб чиқариш қувватидан тўлиқ фойдаланмаслик натижасида ускунага ҳисобланган амортизация ажратмалари ой охирида ишлаб чиқарилган тайёр маҳсулотлар таннархини кескин ошишига олиб келиши мумкин. Ёки технологик ускуналардан нотўғри фойдаланиш, уларни ўз вақтида ишга тушириш ва ўчириш ҳолатларига амал қилмаслик натижасида электроэнергия харажатларининг кескин ошиши ҳам маҳсулот таннархини кўтарилишига сабаб бўлиши мумкин. Ушбу хусусиятлар

[1] Харажатлар таркиби тўғрисидаги Низом асосида

жараёнида ишлаб чиқариш ҳажмини тўғри ҳисобга олинганлиги ва таннархни тўғри ҳисоблаб чиқарилганлигини аниқлашда асосий роль ўйнайди. Маҳсулот таннархи корхоналар фаолиятининг асосий сифат кўрсаткичларидан биридир. Пайпоқ ишлаб чиқариш жараёнидаги асосий эътибор хўжалик юритувчи субъектнинг ишлаб чиқарилган пайпоқ маҳсулотлар таннархининг тўғри шаклланганлигига қаратиш лозим. Бунда ишлаб чиқарилган 1 бирлик пайпоқ маҳсулотини ишлаб чиқаришда қайси турдаги харажатлар амалга оширилгани ва таннархда асосий салмоқни кайси турдаги харажатлар эгаллашини аниклаб олиш учун жуда муҳим.

Хулоса ва таклифлар. Мазкур мақоланинг аҳамияти пайпоқ ишлаб чиқариш жараёнининг бухгалтерия ҳисоби объекти сифатидаги хусусиятлари бўйича илмий асосланган тавсия ва таклифлар ишлаб чиқилганлиги билан белгиланади. Булар қуйидагиларда ўз ифодасини топган:

корхоналарда маҳсулот ишлаб чиқариш жараёнида халқаро стандартларга мувофиқ концептуал масалаларни очиб бериш, бошқарув ҳисобидаги илғор костинг тизимларини қўллаш, пайпоқ маҳсулотлари таннархини ҳисоблашда аниқ, объектив ва ҳаққоний ҳисоб-китобларни амалга ошириш имкониятини туғдиради;

тўқимачилик жумладан пайпоқ маҳсулотларини ишлаб чиқаришни такомиллаштириш ва уни ташкил этишни тартибга солиш ҳолатини комплекс тадқиқ қилиш ва ундаги мавжуд айрим муаммоларни бартараф этиш бўйича таклифлар ишлаб чиқиш долзарб масалалардан бири бўлиб ҳисобланади;

хўжалик юритувчи субъектларда пайпоқ ишлаб чиқариш ва унинг таннарх харажатларини минималлаштириш ва унда қўлланиладиган амалларни янада самарали ташкил қилиш учун қўшимча чора-тадбирларни амалга ошириш, жумладан ишлаб чиқаришни тегишли жараёнларга ажратиш ва ҳар бир жараённинг таннархини алоҳида ҳисоблаш, таннархнинг бир жараёндан бошқа жараёнга ўтиши давомида ҳисобга олиб борилиши тартибига ўтиш таклиф этилди. Бу эса ўз навбатида ҳар бир жараённинг таннархига оид ахборотларни тўплаш, ҳамда тегишли қарорлар қабул қилиш имкониятини юзага келтиради;

Фикримизча, корхоналар ишлаб чиқариш ҳолати ва ундаги ўзгаришларга баҳо беришнинг услубий жиҳатларини миллий амалиётимизда қўллаш биринчидан, республикамизда хорижий амалиётда кенг қўлланилаётган МҲХСларга ўтиш бўйича Президентимизнинг 2020 йил 24 февралдаги “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ПҚ-4611-сон қарори ижросини таъминлашни жадаллаштиради. Иккинчидан, бухгалтерлар ва аудиторларда молиявий ҳисоботларни халқаро стандартлар асосида тузиш бўйича амалий кўникмаларни вужудга келтиради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. С.Н.Ташназаров. Молиявий бухгалтерия ҳисоби 1. – Самарқанд.: “STEP-SEL” МЧЖ нашриёти, 2023-580 бет.

2. Уразов К.Б. Бухгалтерия ҳисоби ва . Т.: “Ўқитувчи”, 2004. 245-бет.

3. Уразов К.Б., Вахидов С.В. Бошқа тармоқларда бухгалтерия ҳисобининг хусусиятлари.-Т.: “Адиб нашриёти”, 2011

4.Тулаходжаева М.М., Илҳомов Ш.И. ва бош. (дарслик). Тошкент Давлат иқтисодиёт университети. “DeHaus Priat” , 2011. – 583 б.

Т.Сатторов

Особенности учета процессов производства носков на предприятиях

Аннотация: В данной статье представлены производственные процессы на предприятиях, особенности формирования себестоимости и финансовой устойчивости, порядок минимизации и определения себестоимости.

Ключевые слова: носки, носочная продукция, производство носков, технологический процесс производства носков, затраты на производство, себестоимость.

T.Sattorov

Features of accounting for sock production processes at enterprises

Abstract. This article presents production processes at enterprises, features of cost formation and financial stability, the procedure for minimizing and determining cost.

Keywords: socks, sock products, sock production, technological process of sock production, production costs, cost price.

ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА

Дилобар Караматовна Гафурова – СамИСИ мустақил тадқиқотчиси

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИ БИЛАН БОҒЛИҚ КЎРСАТКИЧЛАР ТАҲЛИЛИ

Аннотация: Мақолада олий таълим муассасалари рақобатбардошлигини ифодаловчи асосий кўрсаткичлар келтирилиб, ушбу кўрсаткичлар асосида сўровнома ўтказилган. Сўровнома натижалари асосида олий таълим муассасалари рақобатбардошлигини ошириш бўйича таклифлар ишлаб чиқилган.
Калит сўзлар: олий таълим, модернизация, таълим сифати, рақобатбардошлик, рақобатбардошлик кўрсаткичлари, халқаро грантлар, патент.

Кириш. Ўзбекистонда олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепциясида “Олий таълим соҳасида ДХШни ривожлантириш, ҳудудларда давлат ва нодавлат ОТМлари, шунингдек инвестицияларни жалб қилган ҳолда нуфузли хорижий ОТМлари филиаллари фаолиятини ташкил этиш орқали олий таълимда рақобат муҳитини яратиш”[1] устувор вазифалар сифатида белгилаб берилган. Ушбу вазифаларни бажаришда олий таълим муассасаларида сифатли таълим хизматларини кўрсатиш, олий ўқув юртларининг инфратузилмасини янада яхшилаш, соҳага инновацион технологияларни жорий этишнинг самарали механизмларини яратиш орқали, уларнинг рақобатбардошлигини мустаҳкамлаш мамлакат олий таълим тизимининг устувор вазифаларидан ҳисобланиб, уларнинг самарали амалга оширилиши мазкур муаммолар ечимига қаратилган илмий-тадқиқот ишларини тақозо этади.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Олий таълим муассасалари рақобатбардошлигини ошириш мавзусида сўнгги йилларда кўплаб илмий-тадқиқот ишлари олиб борилди. Жумладан, профессор М.Қ.Пардаев раҳбарлигида олий таълим муассасалари рақобатбардошлигини таълим хизматлари сифати ва самарадорлигини ошириш, ҳамда рақобатбардош кадрларни тайёрлаш орқали мустаҳкамлаш йўналишлари бўйича кенг илмий-тадқиқот ишлари амалга оширилган[2]. Ш.А.Кулдашев ўз тадқиқот ишида олий таълим муассасалари рақобатбардошлигини оширишда - олий таълим рақобатбардошлигига таъсир этувчи омилларни баҳолаш, таснифлаш, илмий тажриба ва илмий лойиҳалар натижаларини тижоратлаштириш, иқтисодий-ижтимоий муаммолар ечимига йўналтирилган таълим дастурини амалга ошириш орқали билимлар трансфери платформаси асосида илмий-таълим кластерини ташкил этишнинг мақсадга мувофиқлигини асослаган[3]. Бундан ташқари олий таълим муассасалари рақобатбардошлигини таълим хизматлари самарадорлиги ва сифатини ошириш орқали мустаҳкамлаш бўйича С.А.Бабаназарова[4], А.А.Хамидова[5] ва Х.Н.Очиловалар[1]нинг тадқиқотлари ҳам диққатга сазовор.

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” ги 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сонли Фармони\\lex.uz

[2] Пардаев М.Қ. ва бошқалар. Таълим хизматлари ва уларнинг самарадорлигини ошириш масалалари. Монография. – Т.: «Инновацион ривожланиш нашриёт матбаа уйи», 2020. – 260 б.

[3] Kuldashev Sh.A. Ta’lim xizmatlari bozorida oliy ta’lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand – 2023, 59 b.

[4] Бабаназарова С.А. Таълим хизматлари самарадорлиги ва сифатини оширишнинг ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. – Самарқанд – 2022, 61 б.

[5] Хамидова А.А. Таълим хизматлари бозорини ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш (олий таълим муассасалари мисолида). Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. – Самарқанд – 2022, 61 б.

Тадқиқот методологияси. Ушбу мақолада тўпланган маълумотлар турли хил статистик моделлар ва интерфаол таҳлиллар асосида баҳоланди. Тадқиқот жараёнида мутахассислар билан суҳбатлар ўтказилди ва фокус-группалар ташкил этилди. Шунга кўра, таълим хизматлари самарадорлигини оширишда турли фикрларни инобатга олиш учун комплекс ёндашув қўлланилди.

Таҳлил ва натижалар. Олий таълим муассасалари рақобатбардошлиги билан боғлиқ кўрсаткичлар тизими турли мезонлар ва омилларни ўз ичига олади. Ушбу кўрсаткичлар тизими таълим муассасасининг маҳаллий ва халқаро бозордаги ўрнини белгилашга, талабаларни жалб қилиш ва самарали фаолият кўрсатиш имкониятларини баҳолашга хизмат қилади. Олий таълим муассасаларининг рақобатбардошлиги жаҳон бозорида ўз ўрнини топиш ва миллий иқтисодиёт ривожига ҳисса қўшишда муҳим омил ҳисобланади. Ушбу мақсадга эришиш учун рақобатбардошликнинг турли кўрсаткичлари ва уларнинг таркибий қисмлари чуқур таҳлил қилинишини талаб этади. Қуйида асосий кўрсаткичлар тизимига кирадиган муҳим элементлар келтирилган (1-жадвал).

1-жадвал

Олий таълим муассасалари рақобатбардошлигига оид асосий кўрсаткичлар ва уларнинг таркибий қисмлари

№	Рақобат кўр-саткичлари	Кўрсаткичлар таркиби
1	**Академик кўрсаткич-лар**	Таълим сифати (ўқув дастурларининг замонавийлиги, ўқитувчиларнинг малакаси), илмий тадқиқотлар натижалари (илмий нашрлар сони, халқаро конференцияларда иштироки, патентлар), академик ҳамкорлик (халқаро ҳамкорлик ва талабалар алмашинуви дастурлари) .
2	**Талабалар билан боғлиқ кўрсаткич-лар**	Қабул жараёнидаги рақобат (талабалар сони ва ўртача тест натижалари), талабаларнинг битирувдан кейинги бандлиги (мутахассисликка мос иш билан таъминланиш кўрсаткичлари), талабалар қониқиш даражаси (сўровномалар ва фикрлар асосида).
3	**Молиявий кўрсаткич-лар**	Таълим муассасасининг молиявий барқарорлиги (даромад манбалари диверсификацияси), қўшимча хизматлар кўрсатишдан тушган даромадлар (тренинглар, сертификат дастурлари, консалтинг хизматлари).
4	**Репутацион кўрсаткич-лар**	Миллий ва халқаро рейтинглардаги ўрин, таълим муассасасининг бренд сифатидаги қиймати, битирувчиларнинг муваффақияти билан боғлиқ кўрсаткичлар.
5	**Илғор техно-логиялардан фойдаланиш**	Таълим жараёнида замонавий технологиялар ва электрон платформаларни жорий этиш, талабалар учун онлайн таълим имкониятларини яратиш ҳолати.
6	**Инфратузил-ма ва шароитлар**	Кампус шароити (талабалар турар-жойи, кутубхона, лабораториялар ва спорт мажмуалари), қулай транспорт ва коммуникация инфратузилмасининг ҳолати билан боғлиқ жараёнлар.
7	**Ижтимоий кўрсаткичлар**	Жамиятга таъсир (ижтимоий фаолият ва лойиҳалар), инклюзивлик ва тенглик сиёсатининг таъминланганлиги.
8	**Илмий-амалий алоқалар**	Таълим ва ишлаб чиқариш соҳалари ўртасидаги ҳамкорлик (ўқув-ишлаб чиқариш амалиётлари), стартаплар ва инновацион лойиҳаларни қўллаб-қувватлаш ҳолати.

[1] Очилова Х.Н. Инновацион иқтисодиётни шакллантириш шароитида олий таълим хизматларини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. – Самарқанд – 2024, 56 б.

Бу кўрсаткичлар тизими ОТМ рақобатбардошлигини яхшилаш учун ҳар томонлама ёндашув талаб этади. Ҳар бир кўрсаткич бўйича таҳлил ва таклифлар рақобатбардошлик даражасини оширишга ёрдам беради.

Олий таълим муассасалари рақобатбардошлигини таъминлаш – мамлакатнинг интеллектуал салоҳиятини ошириш ва миллий иқтисодиётда мустаҳкам ўринни эгаллаш учун стратегик аҳамиятга эга. Бунда таълим жараёнининг самарадорлигини ошириш ва халқаро миқёсда рақобатбардош бўлиш учун доимий равишда маълум бир омиллар асосида таҳлиллар ўтказиш, таҳлил натижалари асосида зарурий чораларни кўриш мақсадга мувофиқ бўлади.

Қуйида олий таълим муассасалари рақобатбардошлигига оид асосий кўрсаткичларни изоҳлари келтирилди:

Маълумки, академик сифат рақобатбардошликнинг асосий пойдевори ҳисобланади. Замонавий таълим дастурлари, халқаро стандартларга мувофиқ илмий тадқиқотлар ва ўқитувчиларнинг юксак малакаси олий таълим муассасасининг халқаро майдондаги нуфузини белгилайди. Илмий-инновацион фаолиятни қўллаб-қувватлаш ва халқаро ҳамкорлик дастурларини кенгайтириш таълим сифатини оширишда муҳим омил бўлиб хизмат қилади.

Талабаларнинг ўқув жараёнидан қониқиш даражаси ва уларнинг меҳнат бозорига мослашуви олий таълим муассасасининг ижобий репутациясини шакллантиради. Таълим жараёнида амалий кўникмаларни устувор қилиш ва талабалар учун доимий қўллаб-қувватлаш тизимини йўлга қўйиш муҳимдир. Битирувчиларнинг нуфузли иш ўринларини эгаллаши репутацияга ижобий таъсир кўрсатади ва олий таълим муассасасининг рақобат устунлигини таъминлайди. Шу билан биргаликда, миллий ва халқаро рейтингларда юқори ўринларни эгаллаш таълим муассасалари нуфузини оширишда ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Халқаро илмий конференциялар ва нуфузли нашрларда иштирокни кўпайтириш репутацияга ижобий таъсир кўрсатади.

Таъкидлаш лозимки, молиявий ресурсларни диверсификация қилиш ва қўшимча хизматлар орқали даромадни ошириш таълим муассасалари барқарорлигини таъминлайди. Сертификат дастурлари, турли хил тренинглар ва халқаро грантларни жалб этиш таълим муассасаларининг молиявий имкониятларини кенгайтиришда муҳим ҳисобланади.

Олий таълим муассасаларида, замонавий инфратузилма ва илғор технологияларнинг мавжудлиги таълим жараёнининг самарадорлигини оширади. Электрон таълим платформалари, виртуал реаллик ва сунъий интеллект каби янги технологияларни жорий қилиш таълимнинг сифатини янги босқичга олиб чиқади.

Жамият билан алоқаларни ривожлантириш ва ижтимоий лойиҳаларда иштирок этиш олий таълим муассасаларининг ижтимоий масъулиятини намоён қилади. Бу талабаларнинг жамоатчиликда фаол иштирок этишига ва уларнинг ижтимоий мослашувига ижобий таъсир кўрсатади. Шунингдек, таълим ва ишлаб чиқариш ўртасидаги алоқаларни кучайтириш талабаларнинг амалий кўникмаларини оширишга ва уларнинг меҳнат бозорида талабгорлигини таъминлашга хизмат қилади. Амалиёт ва стажировкаларни йўлга қўйиш бу соҳадаги асосий устувор йўналиш ҳисобланади.

2-жадвал

Олий таълим муассасалари рақобатбардошлиги билан боғлиқ кўрсаткичлар асосида ўтказилган сўровнома натижалари[1]

№	Сўровнома саволлари	Ўртача баҳо*
1	Таълим дастурларининг замонавийлиги	3.86/5
2	Илмий-тадқиқот фаолияти натижа (самара)дорлиги	3.54/5
3	Ўқитувчиларнинг малакаси	3.97/5
4	Талабаларнинг фаоллиги учун яратилган имкониятлар	3.89/5

[1] Тадқиқотчи томонидан ўтказилган сўровнома натижалари асосида тайёрланди.

5	Талабаларнинг меҳнат бозорига тайёргарлиги	3.68/5
6	Қўшимча қўллаб-қувватлаш	3.84/5
7	Қўшимча даромад манбалари	3.54/5
8	Грант ва стипендия имкониятлари	3.56/5
9	Миллий ва халқаро нуфуз (имидж)	3.86/5
10	Битирувчиларнинг нуфузли корхона ва ташкилотларда ишга жойлашуви	3.68/5
11	Кампус инфратузилмаси	3.72/5
12	Жамият билан алоқалар	3.59/5
13	Ижтимоий лойиҳалардаги иштироки	3.51/5
14	Ишлаб чиқариш ва таълим ҳамкорлиги	3.59/5
15	Амалиёт ва стажировкалар	3.68/5

***** *3.86/5 бу -ўртача баҳо 3.86 ва максимал балл 5 эканлигини билдиради. Яъни 5 дан 3.86 балл тўплаганлиги.*

Тадқиқот натижасида Самарқанд шаҳрида жойлашган ОТМларидан 124 нафар иштирокчи (талабалар, битирувчилар ва профессор-ўқитувчилар) орасида ўтказилган сўровнома асосида жамланган натижалар қуйидаги ҳолатни юзага келтирди (2-жадвал). Натижалар мутлоқ ва нисбий кўрсаткичларда келтирилиб, ўртача баҳолар асосида умумий хулоса шакллантирилди.

Жадвалда келтирилган ўртача баҳони ҳисоблаш учун ҳар бир савол бўйича респондентлар томонидан берилган жавобларнинг миқдорини уларнинг балл миқдорига кўпайтириб, кейин уларнинг умумий жамини умумий респондентлар сонига бўлиш орқали топилди.

$$O'B = \frac{\sum(J_s * ball)}{JR_s}$$

Бу ерда: $O'B$-ўртача балл миқдори, J_s-жавоблар миқдори ва JR_s-жами респондентлар сони

Олий таълим муассасалари рақобатбардошлиги билан боғлиқ кўрсаткичлар бўйича ўтказилган сўровнома натижалари кўра қуйидаги хулосаларга келинди:

таълим дастурларининг замонавийлиги бўйича жуда юқори (36.3%) ва юқори (28.2%) баҳолар таълим дастурларининг самарадорлигини тасдиқлайди. Шунга қарамай, ўртача (24.2%), паст (8%) ва жуда паст (3.3%) баҳолар таълим дастурларининг баъзи жиҳатларини такомиллаштириш зарурлигини кўрсатмоқда. Шу туфайли, таълим дастурларининг замонавий талабларга мос келиши учун уларни бозор талаблари билан уйғунлаштириш мақсадга мувофиқ;

илмий тадқиқот фаолияти кўрсаткичи бўйича жуда қониқарли (32.3%) ва қониқарли (24.2%) баҳолар умумий натижани яхши кўрсатади. Бироқ 27.4% (қониқмайман ва умуман қониқмайман) жавобларда норозилик кайфияти сезилади. Шу туфайли, илмий тадқиқотларни қўллаб-қувватловчи грантлар ва ёрдам механизмларини ривожлантириш зарурати юзага келади;

ўқитувчиларнинг малакаси бўйича жуда юқори (40.3%) ва юқори (32.3%) баҳолар умумий қониқиш даражасининг юқорилигини кўрсатади. Аммо, олинган натижаларга кўра 8% паст ва 3,3% жуда паст кўрсаткичларни яхшилаш чораларини кўриш мақсакдга мувофиқ. Шу туфайли, профессор-ўқитувчиларнинг малака ошириш ҳамда стажировка дастурларини давом эттириш лозим;

талабаларнинг фаоллигини ошириш бўйича яратилган имкониятлар кўрсаткичи бўйича жуда етарли (32.3%) ва етарли (40.3%) баҳоларга кўра, жами 72.6% фоиз талабалар бу соҳани яхши деб баҳолаган. Аммо, бу борада ҳам фаолликни янада ошириш учун махсус талабалар клублари ёки лойиҳалар ташкил қилиш мақсадга мувофиқ;

меҳнат бозорига тайёргарлик бўйича жуда юқори (28.2%) ва юқори (32.3%) баҳолар шунга далил бўладики, битирувчиларнинг ишлаш салоҳияти яхши, лекин паст

баҳолар (15.3%)ни ҳисобга олиб, янада мустаҳкамлаш лозим. Бу борада касбий малака ва амалиёт имкониятларини кенгайтириш лозим;

қўшимча қўллаб-қувватлаш имкониятларининг яратилганлиги бўйича жуда қониқарли (36.3%) ва қониқарли (32.3%) натижалар мавжуд бўлса-да, 15.3% паст баҳолар бу соҳада камчиликлар мавжудлигини кўрсатмоқда. Бу эса, соҳада қўшимча ёрдам дастурларини жорий этиш заруратини кўрсатмоқда;

грант ва стипендия имкониятлари бўйича берилган саволга респондентларнинг 24.2%и жуда кенг ва 28.2%и кенг имкониятлар мавжудлигини эътироф этишган. Аммо, 32.3% респондент ҳолатни ўртача деб баҳолашган ва бу жавоб натижаларининг энг баландини ташкил этган. Шу туфайли олий таълим муассасалари халқаро ва маҳаллий грантларни жалб қилишга алоҳида эътибор қаратиши лозим;

кампус инфратузилмаси бўйича натижаларга кўра, жуда замонавий (32.3%) ва замонавий (28.2%) инфратузилма мавжуд бўлса-да, 15.3% паст баҳолар бу борада ривожланиш зарурлигини кўрсатади. Шу туфайли, олий таълим муассасалари кампусларида янги технологияларни жорий қилиш ва шарт-шароитларни янада яхшилаш чораларини кўриш заруратини юзага келтиради;

ижтимоий лойиҳалар ва жамият билан алоқалар бўйича жуда фаол ва фаол қатнашганлар улуши 52.5% бўлса-да, 15.2% жавоблар иштирокнинг пастлигини кўрсатмоқда. Бу эса, талабаларнинг ижтимоий лойиҳалардаги иштирокини ошириш учун рағбатлантирувчи дастурларни жорий қилиш мақсадга мувофиқлигини кўрсатмоқда.

Умуман олганда, олий таълим муассасаларининг ўртача баҳолари кўрсаткичлари 3.5-3.9 оралиғида бўлиб, улар аксарият соҳаларда “юқори” деб баҳоланган. Бироқ, грантлар, ижтимоий алоқалар ва ишлаб чиқариш билан ҳамкорлик каби соҳаларда натижалар ўртача даражада қолмоқда.

Хулоса ва таклифлар. Хулоса қилиб айтганда, олий таълим муассасалари рақобатбардошлигини таъминлашда комплекс ёндашув талаб этилади. Академик сифат, талабалар билан ишлаш, молиявий барқарорлик, репутация, инфратузилма, ижтимоий фаоллик ва илмий-амалий алоқалар ўзаро боғлиқ ҳолда ривожлантирилиши лозим. Ушбу йўналишларнинг ҳар бирига алоҳида эътибор қаратган ҳолда, иш олиб бориш олий таълим муассасаларининг миллий ва халқаро майдонда муваффақиятли фаолият юритишига имкон яратади.

Талабалар, битирувчилар ва профессор-ўқитувчилар ўртасида ўтказилган сўровнома натижаларига кўра, таълим, тадқиқот ва талабалар фаолиятининг кўпгина соҳаларида қониқарли кўрсаткичлар мавжуд. Лекин, баъзи жабҳаларда аниқ тартибда ривожланиш чоралари кўрилса, таълим ва олий таълим муассасаси нуфузи янада юқори бўлади. Бу борада қуйидаги ишларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ:

халқаро грантлар ва патентлаштиришни кучайтириш орқали илмий тадқиқот ва инновацияларни ривожлантириш;

амалиёт ва стажировкаларни кенгайтириш орқали меҳнат бозорига мослашиш учун кўпроқ имкониятлар яратиш;

турар жой ва ўқув лабораторияларини модернизация қилиш орқали кампус инфратузилмасини яхшилаш;

жамият билан ҳамкорлик ва ижтимоий лойиҳаларни рағбатлантириш орқали ижтимоий фаолликни ошириш.

Бу каби амалий ишларни ташкил қилиш таълим сифатини янада яхшилаш ва рақобатбардошликни оширишда муҳим аҳамиятга эга. Шунингдек, рақобатбардошлик кўрсаткичларини яхшилаш учун таълим муассасалари жаҳон стандартларига мос дастурларни ишлаб чиқиши, илмий тадқиқотлар сонини кўпайтириш, халқаро ҳамкорликни кучайтириш ва инфратузилмани яхшилаш, талабалар ва битирувчилар билан алоқаларни ривожлантириш, уларнинг қониқиш даражасини оширишга қаратилган чораларни кўриши лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” ги 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сонли Фармони\\lex.uz
2. Бабаназарова С.А. Таълим хизматлари самарадорлиги ва сифатини оширишнинг ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. – Самарқанд – 2022, 61 б.Пардаев М.Қ. ва бошқалар. Таълим хизматлари ва уларнинг самарадорлигини ошириш масалалари. Монография. – Т.: «Инновацион ривожланиш нашриёт матбаа уйи», 2020. – 260 б.
3. Kuldashev Sh.A. Ta’lim xizmatlari bozorida oliy ta’lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand – 2023, 59 b.
4. Очилова Х.Н. Инновацион иқтисодиётни шакллантириш шароитида олий таълим хизматларини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. – Самарқанд – 2024, 56 б.
5. Хамидова А.А**.** Таълим хизматлари бозорини ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш (олий таълим муассасалари мисолида). Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. – Самарқанд – 2022, 61 б.

Д.Гафурова **Анализ показателей конкурентоспособности высших учебных заведений** **Аннотация**: В статье приведены основные показатели, отражающие конкурентоспособность высших учебных заведений, проведен опрос на основе этих показателей. По результатам опроса были разработаны предложения по повышению конкурентоспособности высших учебных заведений. **Ключевые слова:** высшее образование, модернизация, качество образования, конкурентоспособность, показатели конкурентоспособности, международные гранты, патент.	**D.Gafurova** **Analysis of indicators related to the competitiveness of higher education institutions** **Abstract**: The article cited the main indicators that represent the competitiveness of higher education institutions and conducted a survey on the basis of these indicators. Based on the results of the survey, proposals have been developed to improve the competitiveness of higher education institutions. **Keywords**: higher education, modernization, quality of education, competitiveness, competitiveness indicators, international grants, patent.

Mohinur Ravshanbekovna Maxmudova – Sh.Rashidov nomidagi SamDU dotsenti, PhD

O‘ZBEKISTONNING BARQAROR RIVOJLANISHIDA BILIMLAR IQTISODIYOTINING AHAMIYATI

Annotatsiya: So‘nggi o‘n yilliklarda bilimlar iqtisodiyoti dunyo mamlakatlari barqaror rivojlanishining asosiy omiliga aylandi. Globallashuv, texnologik o‘zgarishlar hamda axborot va innovatsiyalarning o‘sib borayotgan rolini hisobga olgan holda, bilimlar iqtisodiyoti rivojlanishning turli jihatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojlanayotgan va o‘sish salohiyatiga ega davlat sifatida ham bilim va innovatsiyalarga asoslangan modelga o‘tish zarurati oldida turibdi. Ushbu maqolada O‘zbekistonning barqaror rivojlanishi uchun bilimlar iqtisodiyotining ahamiyati, shuningdek, yaqin o‘n yilliklarda mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti uchun asos bo‘lishi mumkin bo‘lgan asosiy yo‘nalishlar tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: bilimlar iqtisodiyoti, innovatsiyalar, intellectual kapital, barqaror rivojlanish, sun’iy intellekt va blokcheyn texnologiyalari, innovatsion klasterlar.

Kirish. Bilim iqtisodiyoti postindustrial mamlakatlarda o‘sish va barqaror rivojlanishning asosiy omiliga aylanib bormoqda. Iqtisodiyotning bu turi bilimlarni ishlab chiqarish, tarqatish va asosiy resurs sifatida foydalanishga asoslangan. Ushbu ishning maqsadi, postindustrial davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilashda bilimlar iqtisodiyotining rolini aniqlash uchun statistik ma'lumotlarni tahlil qilishdir.

Bilimlar iqtisodiyoti - bu ishlab chiqarish va raqobatbardoshlik uchun eng muhim manba bilim, texnologiya va intellektual kapital bo‘lgan iqtisodiy tizimdir. Ushbu iqtisodiyotning asosiy xarakteristikasi ishlab chiqarish jarayonlarida va xizmat ko‘rsatish sohasida axborot, innovatsiyalar, ilmiy tadqiqotlar va yuqori malakali ishchi kuchidan intensiv foydalanish hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bilimlar iqtisodiyotida inson kapitali nazariyasiga mustaqil nazariya sifatida XX asrning 50-60 yillarida Chikago maktabi namoyondalari tomonidan asos solingani holda, T.Shuls, G.Bekker, H.Bouen, M. Blaug, J. Mincer, S. Polachek ishlarida uning nazariy va uslubiy asoslari shakllantirildi va yanada rivojlantirildi . Bundan tashqari, inson kapitalining iqtisodiy o‘sish sifatiga ta’siri bo‘yicha tadqiqot olib borgan g‘arb iqtisodchi olimlari sirasiga Y. Shumpeter, J. Keyns, R. Xarrod, K. Makkonel,S. Bryu, F. Agiyon, Gregori N Menkyu, P. Massa, U. Sharp, P. Samuelson, V. Nordxaus, R. Dornbush, S. Fisher, G. Lorens, D. Maykl, E. Xansen, G. Mensh, K. N. Oppenlander, D. N. Kondratev va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Bu tadqiqotlarda, inson kapitalining iqtisodiy o‘sish sifatiga ta’sirini zamonaviy fan nuqtai-nazaridan yondashgan va innovatsion faoliyat ko‘lamidan o‘sib boruvchi samaradorlikni hisobga olib, o‘zida endogen iqtisodiy o‘sish nazariyalarini mujassamlashtirgan F. Agiyonning tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi.

Ushbu mavzu doirasida Jahon bankining 2023 yil uchun mamlakat statistikasi hamda OECD (IQTISODIY Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti) ma’lumotlari, shuningdek, “OECD fan, texnologiya va innovatsiya istiqbollari” nashrlari, Global innovatsiyalar indeksi ma’lumotlari, YUNESKOning ta’lim va fanni rivojlantirish bo‘yicha hisobotlari o‘rganildi va tahlil qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tahlil uchun Jahon banki, OECD va YuNESKO kabi xalqaro tashkilotlar ma’lumotlaridan foydalanilgan. Asosiy e'tibor quyidagi ko‘rsatkichlarga qaratildi: YAIMdagi ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar xarajatlarining ulushi; yuqori texnologiyali sohalarda bandlik darajasi; mehnat unumdorligi; innovatsiyalar va raqobatbardoshlik indekslari. Shuningdek, tadqiqot ishida tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, taqqoslama tahlil, guruhlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar: O‘zbekiston uchun bilim iqtisodiyotiga o‘tish iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, uning raqobatbardoshligini oshirish va innovatsion texnologiyalar asosida yangi ish o‘rinlarini yaratishga qaratilgan muhim strategik tanlovdir. Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyot tuzilmasini o‘zgartirishni talab qiluvchi bir qancha muammolarga duch kelmoqda:

- Iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish: an'anaviy tarmoqlarga (qishloq xo‘jaligi, tog‘-kon sanoati) asosiy e'tibor mamlakat iqtisodiyotini tashqi iqtisodiy zarbalarga zaif qiladi.

- Ishchi kuchining malakasini oshirish: yuqori texnologiyali va ilmiy sohalarda malakali ishchilarning yetishmasligi o‘sish imkoniyatlarini cheklaydi.

- Barqaror rivojlanish: bilimga asoslangan iqtisodiyot resurslardan samaraliroq foydalanishga yordam beradi va atrof-muhitga salbiy ta'sirlarni kamaytiradi.

Bilimlar iqtisodiyotiga o‘tish innovatsiyalarni oshirishga, ta’lim tizimini takomillashtirishga va yangi yuqori texnologiyali ishlab chiqarish o‘sishini rag‘batlantirishga yordam beradigan muammolarni hal etishi mumkin.

Bilimlar iqtisodiyotining asosini yuqori malakali kadrlar tashkil etadi. O‘zbekistonda ta’lim tizimini, ayniqsa, fan va texnika sohasida ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan faol islohot amalga oshirilmoqda. Bugungi kundagi mamlakatda bilimlarga asoslangan iqtisodiyotni rivojlanish tendensiyalarini quyidagi yo‘nalishlarda ko‘rishimiz mumkin:

- o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish va axborot texnologiyalari, muhandislik va ilmiy fanlarni o‘qitish darajasini oshirish.

- yangi texnologiyalarni ishlab chiqish uchun olimlar, ishbilarmonlar va startaplarni birlashtirgan ilmiy-tadqiqot markazlari va innovatsion klasterlarni yaratish.

- bilim almashish va ilg‘or texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha dunyoning yetakchi ta’lim va ilmiy muassasalari bilan xalqaro hamkorlik darajasini oshirish.

Shu bilan birga, yangi texnologiyalar va innovatsiyalarga yo‘naltirilgan boshlang‘ich va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlovchi innovatsion infratuzilmani rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgani ham davlat tomonidan amalga oshirilayotgan muhim vazifalar sirasiga kiradi. Bu shuningdek, ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, intellektual mulkni himoya qilish tizimini takomillashtirishni ham nazarda tutadi.

Bilim iqtisodiyoti bir necha asosiy elementlarga asoslanadi:

1. Innovatsiya - yangi mahsulotlar, texnologiyalar, xizmatlar, shuningdek samarali ishlab chiqarish jarayonlarini yaratish.

2. Kadrlar ta'limi va malakasi - ta'lim bilim yaratish va tarqatishning asosiy manbaiga aylanadi.

3. Ilmiy-tadqiqot faoliyati - yangilik va taraqqiyot ilm-fan rivoji bilan chambarchas bog‘liq.

4. Axborot texnologiyalari - axborotni qayta ishlash va bilim almashish jarayonini tezlashtiradigan raqamli texnologiyalarni ishlab chiqish va tarqatish.

Raqamlashtirish bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy omilidir. O‘zbekistonda raqamli texnologiyalarning o‘sishi kuzatilmoqda, bu esa samaradorlikni oshirish, davlat xizmatlari sifatini oshirish va resurslarni samarali boshqarish uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Davlat darajasida raqamli infratuzilmani rivojlantirish, jumladan, elektron tijorat platformalarini yaratish, sun’iy intellekt va blokcheyn texnologiyalarini rivojlantirish, shuningdek, aholi o‘rtasida raqamli savodxonlikni targ‘ib qilish bo‘yicha choralar ko‘rilmoqda.

Ayniqsa, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda raqamli texnologiyalarni joriy etish borasida ko‘plab misollar keltirishimiz mumkin. Jumladan,

- Davlat xizmatlarini raqamlashtirish: elektron davlat xizmatlarini joriy etish loyihalari davlat boshqaruvi samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

- Qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish: qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini yaxshilash uchun masofadan zondlash texnologiyalari va ma'lumotlar tahlilidan foydalanish.

- Startap va innovatsion loyihalarga sarmoya kiritish: texnologik startaplar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, jumladan, qonunchilik tartib-taomillarini soddalashtirish va innovatsion korxonalar uchun soliq imtiyozlari.

Barqaror rivojlanish uchta asosiy jihatni o‘z ichiga oladi: iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy farovonlik va ekologik barqarorlik. Bilim iqtisodiyoti barqaror rivojlanishga yordam beradi, chunki u:

1. Resurs samaradorligini oshiradi, yanada barqaror ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi va ekologik yukni kamaytiradi. Bunga sanoat va qishloq xo‘jaligida energiya tejamkor texnologiyalar, innovatsion yechimlarni joriy etish hisobiga erishilmoqda.

2. Axborot texnologiyalari, biotexnologiyalar va ekologik toza texnologiyalar kabi yuqori texnologiyali tarmoqlarda yangi ish o‘rinlarini tashkil etadi, bu esa fuqarolarning ijtimoiy mavqeini yaxshilashga yordam beradi.

3. Ijtimoiy tenglikni ta’minlaydi. Ayniqsa, qishloq va chekka hududlarda tengsizlikni kamaytirish va turmush sifatini yaxshilashga qaratilgan ta’lim va ijtimoiy dasturlarni joriy etish orqali kambag‘allikni qisqartirishga erishiladi.

O‘zbekiston uchun barqaror rivojlanishning mutanosib modelini yaratish muhim jihat bo‘lib, bunda bilimlar iqtisodiyoti ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik maqsadlarni amalga oshirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Bilimlar iqtisodiyoti O‘zbekistonning barqaror rivojlanishini ta’minlash, hayot sifatini yaxshilash, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va mamlakatning xalqaro maydonda raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Bilimlar iqtisodiyoti salohiyatini ro‘yobga chiqarish ta’lim, ilm-fan, raqamlashtirish va innovatsiyalar sohalarida keng qamrovli sa’y-harakatlarni, transformatsiya jarayonlarida ham davlat, ham xususiy sektorning

faol ishtirokini taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, ushbu taklif va tafsiyalarni ishlab chiqdik:

- Ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtirishni oshirish.
- Innovatsiyalarga xususiy investitsiyalarni rag‘batlantirish.
- Raqamli iqtisodiyotga yo‘naltirilgan ta'lim tizimini rivojlantirish.
- Startaplar va kichik innovatsion korxonalar uchun qulay ekotizim yaratish.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish va inson kapitalini rivojlantirish O‘zbekiston fuqarolarining barqaror kelajagini ta’minlashga yordam beradi. Zero, eng yaxshi investitsiya bu ta’limga kiritilgan investitsiyadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jahon banki. 2023 yil uchun mamlakat statistikasi.
2. OECD. Fan, texnologiya va innovatsiyalar istiqboli, 2023 yil.
3. Global innovatsiyalar indeksi 2023.
4. YUNESKO ta’lim va fanni rivojlantirish bo‘yicha hisoboti.
5. Birlashgan millatlar tashkiloti O‘zbekiston: Barqaror rivojlanish maqsadlari.
6. “Bilimlar iqtisodiyoti jamiyat taraqqiyotini zamonaviy bosqichining asosidir” Ulug‘bek Xolmirzayev. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali. Vol. 2 No. 6 (2024) Namangan muhandislik-qurilish instituti iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
7. Crawford R. In the Era of Human capital. – N.Y.: Harper Business, 1991. – P. 10.;
8. Курганский С.А. Человеческий капитал: сущность, структура, оценки. – Иркутск, 1999. – С. 97;
9. Хибики Киёнага. «Человеческий капитал» следует рассматривать как источника конкурента. CHRO FORUM № 47 (выпуск за апрель 2023 г.), опубликованный Японской ассоциацией CHRO.

М.Махмудова

Значение экономики знаний в устойчивом развитии Узбекистана

Аннотация: В последние десятилетия экономика знаний стала основным фактором устойчивого развития стран мира. Учитывая глобализацию, технологические изменения и растущую роль информации и инноваций, экономика знаний оказывает значительное влияние на различные аспекты развития. Экономика Узбекистана, как развивающейся страны с потенциалом роста, столкнулась с необходимостью перехода к модели, основанной на знаниях и инновациях. В данной статье рассматривается значение экономики знаний для устойчивого развития Узбекистана, а также основные направления, которые могут стать основой экономического и социального развития страны в ближайшие десятилетия.

Ключевые слова: экономика знаний, инновации, интеллектуальный капитал, устойчивое развитие, искусственный интеллект и блокчейн-технологии, инновационные кластеры.

M.Makhmudova

The importance of knowledge economy in sustainable development of Uzbekistan

Abstract: In recent decades, the knowledge economy has become a key factor in the sustainable development of countries around the world. Given the growing role of globalization, technological change, and information and innovation, the knowledge economy has a significant impact on various aspects of development. The economy of Uzbekistan, as a developing country with growth potential, is also faced with the need to transition to a model based on knowledge and innovation. This article examines the importance of the knowledge economy for the sustainable development of Uzbekistan, as well as the main directions that can serve as the basis for the country's economic and social development in the coming decades.

Keywords: knowledge economy, innovation, intellectual capital, sustainable development, artificial intelligence and blockchain technologies, innovation clusters.

Тимур Ибодуллаевич Ибрагимов – ТДИУ Самарқанд филиали, Яшил иқтисодиёт ва барқарор бизнес кафедраси ўқитувчиси

ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИ БОЗОРИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШДА КОРРЕЛЯЦИЯ ТАҲЛИЛИНИ ҚЎЛЛАШ АМАЛИЁТИ

Аннотация. Мақолада таълимга бўлган талаб, таълим хизматлари нархлари ва таълим сифати ўртасидаги боғлиқликни акс эттирувчи корреляцион таҳлил мисоллари келтирилган. Корреляцион таҳлилдан фойдаланиш таълим хизматлари бозорини ривожлантириш ва стратегик қарорларни қабул қилишда муҳим аҳамиятга эга эканлиги таъкидланган.

Калит сўзлар: таълим хизматлари, корреляция таҳлили, таълим сифати, талаб ва таълим нархлари, иш ҳақи, бозор таҳлили, стратегик қарорлар.

Кириш. Таълим хизматлари бозори – бу муаммоли ва комплекс соҳалардан бири бўлиб, уни таҳлил қилишда турли иқтисодий, ижтимоий ва техник кўрсаткичлардан фойдаланиш муҳим. Корреляция таҳлили (корреляция коэффициенти) — бу икки ёки ундан ортиқ ўзгарувчилар ўртасидаги муносабатни аниқлашга ёрдам берувчи статистик метод. Таълим хизматларини таҳлил қилишда корреляция, масалан, талаб ва таълимнинг сифати, талаб ва нархлар, талаб ва ўқитувчиларнинг иш ҳақлари орасидаги алоқаларни тушунишга имкон беради.

Ушбу мақолада, таълим хизматлари бозоридаги талаб ва турли омиллар (мисол учун, таълимнинг сифати, ўқитувчиларнинг иш ҳақи, таълимнинг нархлари ва талабнинг динамикаси) ўртасидаги корреляция таҳлилини амалга оширишга доир аниқ мисоллар келтирилади.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Ушбу мақола, таълим хизматлари бозорининг таҳлилида корреляция таҳлилининг қўлланишини ва унинг аҳамиятини таҳлил қилишга қаратилган бўлиб, таълим ва иқтисодиётнинг ўзаро алоқалари, шунингдек, бозорнинг юқори ривожланиш динамикасига таъсир қилувчи омиллар ҳақида умумий тасаввур шакллантиради. Таълим хизматлари бозорининг таҳлилида статистик ва иқтисодий усуллардан самарали фойдаланиш бўйича келажакдаги тадқиқотлар учун йўл харитаси яратилади. Бунинг учун хорижда ҳамда Ўзбекистонда мавзу доирасида изланишлар олиб бораётган бир қатор олимлар ва тадқиқотчиларнинг илмий асарлари ўрганилган. Булар қаторида Беккер Г., G. Толлок Г., Селдон Р., Шен Г., Занг Й., Кауфман С.Р., Томпсон Д.П., Головач А. В., Михайлова Н, Петрова М. А., Аширова С. Ш., Бахтиёров И., Ахмедов У., Каримова Л., Тўраев, И. Б., Усманова С. каби олимларнинг мавзуни ёритишдаги илмий ишларини таъкидлаб ўтиш керак.

Тадқиқот методологияси. Тадқиқотни ёритишда мавзуга оид адабиётлар, ўрганилаётган соҳага оид кўрсаткичлар ҳар томонлама хорижда ва Ўзбекистонда корреляция таҳлили зарур ўзгарувчилар ўртасидаги муносабатни аниқлашга ёрдам берувчи статистик усуллар, бир қатор илмий тадқиқотлар, мавжуд манбалар ўрганилди, шунингдек қиёсий таҳлил, синтез, мантиқий абстракт фикрлаш, индуктив ва дедуктив таққослаш каби усуллар қўлланилди.

Таҳлил ва натижалар. Корреляция таҳлилининг моҳияти ва аҳамияти. Корреляция — бу икки ёки ундан ортиқ ўзгарувчи ўртасидаги статистик алоқадир. Корреляция коэффициенти rrr -1 дан +1 гача бўлиши мумкин:

r=+1: Икки ўзгарувчи ўртасида аниқ ижобий алоқа бор, яъни бир ўзгарувчи ўсса, иккинчиси ҳам ўсади.

r=−1: Икки ўзгарувчи ўртасида аниқ салбий алоқа бор, яъни бир ўзгарувчи ўсса, иккинчиси камаяди.

r=0: Ўзгарувчилар ўртасида алоқа йўқ.

Таълим хизматлари бозорида корреляция таҳлилини қўллаш.

Мисол: Таълимга талаб ва таълим нархлари ўртасидаги корреляция

Ҳолат: Бир неча йил давомида таълим хизматларининг талаб ва нархлари ўртасидаги алоқани аниқлаш.

Маълумотлар:

2021 йилдан 2023 йилгача бўлган даврда хусусий таълим муассасалари томонидан таклиф этилган таълим хизматлари нархлари ва талаба сони ҳақидаги маълумотлар олинган.

Йил	Талабалар сони (минг)	Таълим нархи (сум)
2021	30	4,000,000
2022	35	4,500,000
2023	40	5,000,000

Корреляция таҳлили: Талабалар сони ва таълим нархи ўртасидаги алоқа текширилади. Таълим нархининг ошиши талабга таъсир этган бўлиши мумкин.

1. *Корреляция коэффициентни ҳисоблаш:*

r- коэффициентни ҳисоблаш учун статистик дастур ёки ҳисоблашдаги формулалардан фойдаланиш мумкин.

Агар r- ижобий бўлса, демак, нарх ва талаб ўртасида ижобий алоқа бор, яъни нарх ошса, талаб ҳам ортиши мумкин.

Натижа:Агар **r=+0.8** бўлса, бу талаб ва нархлар ўртасида кучли ижобий корреляция борлигини англатади, яъни нарх ошиши талабнинг ортишига олиб келган.

Мисол: Ўқитувчиларнинг иш ҳақи ва таълим сифати ўртасидаги корреляция

Ҳолат:Таълим сифати ва ўқитувчиларнинг иш ҳақи ўртасидаги алоқани аниқлаш.

Маълумотлар:Таълим муассасаларида ишлайдиган ўқитувчиларнинг иш ҳақи ва уларнинг талабаларга ўқитиш самарадорлиги (метрикаларга асосланган) ҳақидаги маълумотлар:

Маълумот тури	2021	2022	2023
Ўқитувчиларнинг иш ҳақи (сум)	3,500,000	4,000,000	4,500,000
Таълимнинг сифати (қайдлар асосида)	70%	75%	80%

Корреляция таҳлили:

- Ўқитувчиларнинг иш ҳақи ва таълим сифати ўртасидаги алоқани таҳлил қиламиз.
- Иш ҳақининг ошиши таълим сифатига ижобий таъсир кўрсатиши мумкин.

1. *Корреляция коэффициентни ҳисоблаш:*

- Агар r- кўрсаткич ижобий бўлса, демак, иш ҳақи ва таълим сифати ўртасида ижобий алоқа мавжуд.

Натижа:Агар **r=+0.85** бўлса, бу ўқитувчиларнинг иш ҳақи ошиши билан таълим сифати орасида чуқур ижобий алоқа борлигини кўрсатади. Бу, ўз навбатида, ўқитувчиларнинг иш ҳақи ошиши, таълим самарадорлигини оширишга олиб келиши мумкинлигини кўрсатади.

Мисол: Таълим хизматларининг таъминот ва талаб ўртасидаги корреляция

Ҳолат:Таълим хизматлари бозорида таъминот ва талаб ўртасидаги алоқани аниқлаш.

Маълумотлар:

Йил	Таълим муассасалари сони	Талабалар сони (минг)
2021	100	50
2022	120	60
2023	150	70

Корреляция таҳлили: Таълим муассасалари сони ва талаба сони ўртасидаги корреляцияни аниқлаш.

1. Корреляция коэффициентни ҳисоблаш:

Агар **r=+0.9** бўлса, бу таълим муассасалари сони ва талаба сони ўртасида ижобий алоқа борлигини англатади.

Натижа:Ижобий корреляция кўрсаткичлари таълим хизматларига бўлган талабнинг талабга жавоб бериш учун қўшимча таълим муассасалари қурилишини ишга солиш талабини кўрсатади.

Таълим хизматлари бозорини ривожлантиришда корреляция таҳлилининг ахамияти.

Корреляция таҳлили таълим хизматлари бозорида келгусидаги стратегик қарорлар қабул қилиш учун муҳим ахамиятга эга:

- Талаб ва таълимнинг сифати: Агар таълимнинг сифати ва талаб ўртасида ижобий корреляция бор экан, давлат ва хусусий сектор инвестицияларни таълим сифатига қўшишга кўпроқ эътибор беришлари керак.
- Ўқитувчиларнинг иш ҳақи ва таълим сифати: Агар ўқитувчиларнинг иш ҳақи таълимнинг сифатига ижобий таъсир кўрсатса, у ҳолда ўқитувчиларнинг маошини оширишга имтиёзлар бериш стратегиясини тўғри деб ҳисоблаш мумкин.
- Таълим муассасаларининг кўпайиши ва талаб: Агар таълим муассасаларининг кўпайиши талабнинг ортишига олиб келса, янги таълим муассасалари ва инклюзив таълим тизимлари қурилишига қўшимча сармоя киритиш керак.

Хулоса ва таклифлар. Таълим хизматлари бозори иқтисодиётнинг муҳим тармоғи бўлиб, унинг самарали ривожланиши жамиятнинг барқарорлигини ва фаровонлигини таъминлашда муҳим роль ўйнайди. Бозордаги номутаносибликлар, талаб ва таклиф ўртасидаги ўзаро алоқалар, дастурларнинг самарадорлиги ва таҳлилларини аниқ ва ишончли шаклда олиб бориш учун турли математик ва статистик усуллардан фойдаланиш муҳим.

Юқоридаги мисоллардан келиб чиқиб хулоса қилиш мумкинки, таълим хизматлари бозорини таҳлил қилишда **корреляция таҳлилини** қўллаш, бозорнинг ўзаро алоқа ва динамикасини аниқлашга ёрдам беради. Амалий таклифлар орқали бозорни тадқиқ қилишда давлат ва хусусий секторлар ўртасидаги ҳамкорликни кучайтириш, талаб ва таклиф ўртасидаги ўзаро алоқаларни аниқлаш ва бозор ривожланишини прогнозлашга ёрдам беради. Корреляция таҳлилининг самарали қўлланилиши натижасида, таълим соҳасидаги стратегик қарорлар аниқ ва ишончли бўлади.

Амалий таклифлар:

1. Таълим хизматлари бозорида иқтисодий омилларнинг таъсирини аниқлаш учун корреляция таҳлилини чуқурлаштириш йўналиши бўйича:

- Таълимга бўлган талаб ва таклифнинг иқтисодий омиллар билан қандай ўзаро алоқа қилишига диққат қаратиш лозим. Масалан, оила даромадлари, ишсизлик даражаси, инфляция ва бошқа макроиқтисодий кўрсаткичлар билан таълимга бўлган талабнинг ўзаро корреляциясини аниқлаш ва таҳлил қилиш муҳим.
- Таълим муассасалари ва давлат сиёсатининг таъсирини кўрсатиш учун, таълимга сармоя киритиш ва унинг қайтаримларини аниқлаш учун корреляция таҳлилини қўллаш зарур. Шу тариқа, иқтисодий ўзгаришлар ва бозорнинг динамикасини таҳлил қилишга ёрдам беради.

2. Таълим хизматлари бозорининг секторларига бўлган талаб ва таклиф ўртасидаги корреляцияни ишлаб чиқишда:

- Бозордаги талаб ва таклифнинг аниқ секторларига нисбатан олиб бориладиган корреляция таҳлили, таълим тизимини оптималлаштириш ва бир қатор соҳалардаги узоқ муддатли стратегияларни ишлаб чиқиш учун юқори технологиялар, техник таълим, ёки гуманитар фанларга бўлган талабни таҳлил қилишда муҳим аҳамиятга эга.
- Таълим секторининг ҳар бир сегментига (масалан, олий таълим, касб-ҳунар таълими, ўрта таълим, мактабгача таълим) бўлган талабнинг иқтисодий омиллар ва корреляция билан алоқасини аниқлаш, бу соҳаларга инвестицияларни жалб қилишда самарали ёндашувларни ишлаб чиқишга ёрдам беради.

3. Давлат сиёсатининг ва таълим тизимидаги реформа ва инновацияларнинг бозорга таъсирини ҳисобга олишда:

- Давлатнинг таълимга бўлган сармояси ва таълим сиёсати ҳамкорлигида, таълим хизматлари бозоридаги талаб ва таклифни таҳлил қилиш учун корреляция таҳлилини қўллаш керак. Давлатнинг таълимга бўлган инвестициялари, субсидиялар, таълим стандартлари ва қонунчилик ўзгаришларининг бозорга таъсирини аниқлаш зарур.

4. Таълим хизматларига бўлган талабни прогнозлаш учун корреляция таҳлилининг дастурий таъминот ва моделлар орқали такомиллаштиришда:

- Таълим хизматларига бўлган талабни прогнозлаш учун, мавжуд маълумотларни чуқур таҳлил қилишда корреляция таҳлилининг аниқ математик моделларидан фойдаланиш лозим. Бозордаги талаб ва таклифнинг ўзаро алоқасини яққол кўрсатиш учун статистик дастурлар, машинани ўрганиш ва сунъий интеллектнинг замонавий усулларини қўллаш фойдали бўлиши мумкин.
- Таълим соҳасидаги динамик ўзгаришларни, демографик ўзгаришлар ва ижтимоий шарт-шароитлар билан боғлиқ тенденцияларни прогнозлашда, корреляция таҳлилининг аниқ математик моделлари ва прогнозлаш воситаларини ишлаб чиқиш зарур.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Бахтиёров, И. "Таълим хизматлари бозори: Муаммолар ва ривожланиш йўналишлари". Тошкент: 2022. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги.
2. Ахмедов, У. "Корреляция таҳлили ва унинг амалиётдаги ўрни". Тошкент: 2020.Иқтисодий тадқиқотлар институти.
3. Каримова, Л. "Ўзбекистонда таълимнинг сифатини ошириш йўллари". Тошкент: 2021. Академия матбааси.
4. Михайлова, Н. "Анализ рынка образовательных услуг: Методы и практики". Москва: 2019. Высшая школа экономики.
5. Shen, H., & Zhang, Y. (2020). “Education Markets: Price Dynamics and Demand Analysis”. London: Springer.
6. Усманова, С. "Образовательные услуги и их влияние на рынок труда". Тошкент: 2018. Иқтисодий таълим муассасалари маркази.

Т.Ибрагимов

Практика применения корреляционного анализа при анализе рынка образовательных услуг

Аннотация: В статье представлены примеры корреляционного анализа, которые отражают связь между спросом на образование, ценами на образовательные услуги и качеством образования. Подчеркивается, что использование корреляционного анализа важно при развитии рынка образовательных услуг и принятии стратегических решений.

Ключевые слова: образовательные услуги, корреляционный анализ, качество образования, спрос и цены на образование, зарплата, анализ рынка, стратегические решения.

T.Ibragimov

Practice of applying correlation analysis in educational services market analysis

Abstract. The article provides examples of correlation analysis reflecting the relationship between demand for education, education service prices, and educational quality. It highlights that the application of correlation analysis is crucial in the development of the educational services market and in making strategic decisions.

Keywords: educational services, correlation analysis, quality of education, demand and education prices, salaries, market analysis, strategic decisions.

ИБРАТЛИ БИТИКЛАР

ҲАЁТ ҲАҚИДА МУТАФАККИРЛАР ҲИКМАТЛАРИ

Инсон ҳаёт экан бирорта мақсад билан яшайди. Бу мақсад орқасидан бири яхшиликка, иккинчиси ёмонликка хизмат қилса, учинчи толифаси ҳатто ўзининг ҳаётига ҳам бефарқ бўлар экан.

* * *

Инсон ҳаёти турли бўлганидек, унга қарашлар ҳам турли бўлар экан. Чунки инсонларнинг бу ҳаётий дунёдаги кечинмалари ҳам турли. Бунга гувоҳ бўлиш учун айрим мутафаккирларнинг фикрларини келтиришни мақсадга мувофиқ, деб топдик.

Ҳаёт – устоз, мен эса толиб,
Сўз дурдоналарни термоқдир ишим.
Одамларнинг ўзидан олиб,
Ўзларига бермоқдир ишими.

Эркин Вохидов

Бизлар бир ўткинчи, жаҳон барқарор.
Одамдан фақат сўз қолур ёдигор.
Яхши ном қолса бас, шудир мақсуд-ком.
Танамиз ўткинчи, келажаги ном.

Фирдовсий

Кекса, ёш - ҳаётга ҳар кимки етар,
Ҳаммаси изма-из, бирма-бир ўтар.
Бу дунё ҳеч кимга қолмас абадий,
Келдик, кетамиз, келишар, кетар...

Умар Ҳайём

Ҳаёт узлуксиз изланиш ва хатолар тизимидан бошқа нарса эмас.

Р. Дональд

Ҳаёт театрга ўхшайди: у ерда яхши ўринларни доим ўта бемазалар эгаллашади.

Пифагор

Сени ким деб ҳисоблашлари эмас, сен ўзингни ким деб ҳис қилишинг муҳимдир.

Айзек Азимов

Бекор ўтган умр бу — барвақт ўлим топиш демакдир.

Гёте

Агар осмондаги камалак узоқроқ туриб қолса, унга қарамай қўйишади.

Гёте

Ҳар бир авлод аввалгилардан ўзини ақллироқ ва кейингилардан донороқ деб хаёл қилади.

Жорж Оруел

Сўз бердингизми, бажаришга қатъийлик билан киришинг.

Имом Ғаззолий

Чўнтагида бир тийини йўқ инсонкамбағал эмас, аммо бирор орзусийўқ инсон камбағалдир.

Сукрот

Ҳар бир авлод аввалгилардан ўзини ақллироқ ва кейингилардан донороқ деб хаёл қилади.

Жорж Оруел

Инсонни энг кўп яралайдиган нарса жисмоний оғриқ эмас, балки адолатсизлик, мантиқсизликдан келадиган руҳий оғриқдир.

Виктор Франкл

Тортишувда баланд келишнинг ягона усули ундан воз кечишдир.

Дейл Карнеги

Ҳеч қачон бировнинг сиз ҳақингиздаги хулосасига қулоқ тутманг. Ҳатто сув устида юра олганингизда ҳам, "Қаранглар, у суза олмас экан" дегувчилар топилади.

Маргарет Тетчер

Бир соат бир доно билан қилган суҳбатинг, бир ой китоб титкилаганингдан ҳам яхшироқдир.

Аҳмад Яссавий

Тараққиётнинг умумий кўламида ҳар бир халқнинг ўрни ўша халқ ўқиётган китобларнинг сони билан белгиланади.

Э. Лебуле

Тўпловчи: Мамаюнус Пардаев – и.ф.д., профессор

МУАЛЛИФЛАРГА ЭСЛАТМА

Таҳририятга мақола юборилганда муаллиф қуйидаги қоидаларга риоя қилиши лозим:

- “Сервис” журнали хизмат кўрсатиш ва сервис ҳамда иқтисодиётга оид мавзулардаги илмий мақолаларни чоп этишга мўлжалланган ОАК томонидан эътироф этилган илмий-амалий нашр бўлганлиги сабабли, таҳририятга тақдим этиладиган мақолалар ҳам бевосита шу соҳага оид илмий изланишларга, тадқиқот натижаларига асосланган бўлиши лозим.
- **Мақоланинг таркиби**:
- Муаллифнинг фамилияси, исми ва отасининг исми, лавозими ва илмий даражаси, мавзунинг номи, аннотация, калит сўзлар (ўзбек, рус ва инглиз тилларида).
- Кириш. мавзунинг долзарблиги,
- Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили,
- Тадқиқот методологияси,
- Таҳлил ва натижалар,
- Хулоса ва таклифлар,
- Фойдаланилган адабиётлар рўйхатидан иборат бўлиши лозим.

- **Илмий мақоланинг ҳажми** жадвал, расмлар, фойдаланилган адабиётлар рўйхати билан бирга 4 бетдан, қисқа хабарлар 3 бетдан, тақризлар 2 бетдан кам бўлмаслиги, MS Word дастурида Times New Roman 14 шрифтида бир интервал оралиғида 10 бетгача расмийлаштирилган бўлиши керак.
- Мақоланинг матни ўзбек, рус ёки инглиз тилларида ёзилган бўлиб, аниқ, равон ва адабий тилда таҳрир қилинган ва 1 нусхада қоғоз вариантида муаллифлар имзо чеккан ҳолда электрон версияси билан бирга тақдим этилиши талаб қилинади.
- Таҳририят мақолаларни қисқартириш, тўғрилаш ва таҳрирлаш ҳуқуқига эга.
- Фойдаланилган адабиётлар рўйхати амалдаги стандартлар асосида расмийлаштирилган бўлиши лозим.
- Жадвал, диаграмма ва расмлар ихчам ва тушунарли фақат китоб шаклида ёритилиши, уларнинг тартиб рақами, номи, жадвал маълумотларининг манбаларига ҳаволалар албатта берилиши лозим. Альбом шаклидаги жадвал ва расмлар қабул қилинмайди.
- Мақоланинг умумий мазмуни унинг долзарблиги, ўрганилганлик даражаси, мавзуга оид бугунги муаммолар ҳамда уларнинг ечимлари хусусида муаллиф фикр-мулоҳазалари ифода этилган, якуний хулосага, аниқ таклиф ва тавсияларни ўз ичига олган бўлиши керак.
- Ушбу талабларга жавоб бермайдиган мақолалар чоп этишга қабул қилинмайди ва қайтарилмайди.

“Сервис” журналида эълон қилинаётган материаллардаги далиллар, рақамлар ва маълумотларнинг ишончлилиги учун уларнинг муаллифлари жавобгардир.

Таҳририят фикри муаллифларнинг фикрига мос келмаслиги мумкин. Журналдан кўчириб босилаётган материалларни шу журналдан олинган, деб кўрсатилиши ва албатта иқтибос берилиши шарт. Мақолалар плагиат (кўчирмачилик) текширувидан ўтказилади.

ISSN 2091-5187

“СЕРВИС”

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят бўлимида нашрга тайёрланди.

20.11.2024 йилда теришга берилди. 05.12.2024 йилда босишга рухсат этилди. Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84 1/8. “Times” гарнитураси. Офсет босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0134A/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № X-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.